

# БЕПУЛ НУСXA

CHARLZ DIKKENS

---

## OLIVER TVISTNING

BOSHIDAN KECHIRGANLARI

*Roman*



«O'ZBEKISTON MILLIY ENSIKLOPEDIYASI»  
DAVLAT ILMIY NASHRIYOTI  
TOSHKENT — 2013

УДК-821.111

КБК 84(4Ingl)

D 50

*Ushbu asar*

*HD 44424  
3q*

**Dickens Charlz.**


**D 50 Oliver Tvistning boshidan kechirganlari:** roman/ C. Dickens  
— T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. 2013. 464 b.

Angliyaning ovloq shaharlaridan biridagi "Mehnat uyi" — "G'aribxona". Taqdir taqozasi bilan bu yerga kelib qolgan yosh va ko'hlikkina juvonning shu mudhish dargohda ko'zi yoridi. Bola dunyoga keldi-yu, ona esa olamdan o'tdi.

Sho'rpeshona go'dak muhtojlik va qiynoqlar ostida o'n yoshga to'ldi. Uni tobutsozga shogirdlikka berdilar. Bola bu yerdagi azob-uqubatlar, haqoratlarga dosh berolmay, boshi oqqan tomonga qarab qochdi.

Mana katta London yo'li, tuguncha ko'targan, ust-boshi yupun, boshida homiysi, bisotida sariq chaqasi yo'q so'qqabosh, qiltiriq bolakay ketib boryapti.

Aziz kitobxon, keling, kitobni birgalikda o'qib chiqaylik-chi, bolakay qaylarga oshiqyapti-yu, uni oldinda ne savdolar kutyaptiykin?



**КБК 84(4Ingl)**

**ISBN 978-9943-07-184-1**

© «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»  
Davlat ilmiy nashriyoti, 2013



## MUALLIF DEBOCHASI

Ushbu hikoyatning ba'zi qahramonlarini London aholisining tanazulga yuz tutgan eng jinoyatkor vakillari orasidan tanlaganimni bir vaqtlar adabsizlik hamda nomunosib sharmandalik, deb hisoblashgan edi.

Kamina ushbu hikoyatni bitayotgan paytimda shunga ishonch hosil qildimki, jamiyatning chiqindilari ham (toki ularning gap-so'zlarini eshitib bir yerimiz kamayib qolmagani va bu izzat-nafsimizga tegmaganidan keyin) odob-axloq maqsadlari yo'lida o'sha jamiyatning ko'pigi va qaymog'i qatori xizmat qila olar ekan. Shu boisdan ham «bir vaqtlar» hukm surgan yuqoridagi fikr «hammavaqt» yoki «uzoq vaqtlar» hukmron bo'lmas, degan umiddaman. Bunday yo'lni tanlashimga asosli vajlarim bor edi. O'g'rilar haqidagi o'nlab kitoblarni o'qiganman: bu asarlarning qahramonlari aksariyati iltifotli va xushmuomala, bashang kiyingan, karmonlari qappaygan odamlar, ular otlarni miridan-sirigacha biladi, o'zlariga nihoyatda bino qo'yganlar, nazokatli nayranglarda oshig'i olchi, qo'shiq aytishni qiyvorishadi, ichishni ham qoyillatishadi, qarta yoki shashqol o'ynashga suyagi yo'q, xullas, ajoyib anjuman. Ammo men hech bir asarda (Xogart<sup>1</sup> bundan mustasno) ayanchli voqelik bilan duch kelmadim. Nazarimda, jinoyatchilar to'dasining haqiqiy a'zolarini aks ettirish, ularni o'zlarining jamiki qusur va buzuqlik-

<sup>1</sup> Xogart Uilyam (1697–1764) — ingliz manzarachi va grafik rassomi, rassomchilikda hajv yo'li bilan axloq-odobga chorlovchi san'at maktabining asoschisi.

lari, qabohat-u murdorliklari bilan tasvirlash, ularning g'arib va faqirona hayotlarini ko'rsatish, ular aslida qanday bo'lsalar, shu ahvolda tasvirlash (ular doim o'g'irlik paytida jon hovuchlab yuradilar, qay tomonga boqmasinlar, hammayoqda ko'z o'ngilarida haybatli, dahshatli, qop-qora dor ko'rinib turadi), ana shularni tasvirlab berish, shubhasiz, jamiyat xizmatiga ulush qo'shish demakdir. Men bu niyatimni baholi qudrat ado etdim, deya olaman.

Menga ma'lum bo'lgan jamiki kitoblarda, shunga o'xshash nusxalar tasvirlangan joylarda, qahramonlar hamisha o'zlarining nimasi bilan-dir havas uyg'otadilar va qiziqtiradilar. Hatto «Qashshoq operasi»<sup>1</sup>da ham o'g'ri-muttahamlar hayoti havas qilgulik tarzda tasvirlangan: hammaga hukmini o'tqazadigan va pyesadagi yakka-yu yagona poki-za, beayb qahramon bo'lmish, go'zallikda yagona bir qizning muhabbatini qozongan kapitan Makxit irodasi sust tomoshabinlarda benihoya maftunlik va unga taqlid qilish istagini uyg'otadi. Volterning so'zi bilan aytganda, qizil mundir kiygan har qanday xushtavoze jentlmen ikki-uch ming odam ustidan hukmronlik qilish huquqini sotib olgan va shunday dovyurakki, ularning hayoti uchun zarracha qo'rqmaydi. Jonson Makxitning o'limga hukm etilgani bekor qilingani sababidan biror kimsa o'g'ri bo'lib ketmasmikan, degan savolni o'rtaga tashlagan edi, menimcha, buning ishga daxli yo'q. Men esa o'z-o'zimdan, Makxitning o'limga hukm etilishi va Pichum bilan Lokitning hayotligi biror kimsaning o'g'ri bo'lib ketishiga xalal bera olarmikin, deb so'rayman. Shunda kapitanning jo'shqin hayoti, uning ko'rkam qiyofasi, ulkan muvaffaqiyati hamda beqiyos e'tiborliligini eslarkanman, ana shunday xislat-u mayllarga ega bironta odam uchun kapitan ogohlantiruvchi mezon bo'lolmaydi va biror odam zoti bu pyesada gullarga burkangan (garchi u vaqt-soati bilan o'sha muhtaram shuhratparast zotni dor ostiga yetaklab kelsa hamki) yo'ldan bo'lak narsani ko'rmaydi, degan qat'iy ishonchni his etaman.

Aslida-chi, aslida Gey o'zining o'tkir hajviyotida jamiyatni yaxlitligicha kulgi qamchisi ostiga olgan-da, ammo bo'lak muhimroq masalalar bilan band bo'lib ketib, o'z qahramonining jamoatga qanday ta'sir ko'rsatishi tashvishini chekmagan. Ser Eduard Bulverning ajoyib, kuchli romani «Pol Klifford»<sup>2</sup> haqida ham xuddi shu fikrni aytish mumkin. Bu asarni, aslo kamina qalam tebratgan mazkur mavzuga aloqador deb hisoblab bo'lmaydi; muallifning o'zi ham oldiga bu vazifani qo'ygan emas.

<sup>1</sup> «Qashshoq operasi» — shoir Jon Gey (1685–1732)ning muallif shuhratini orttirgan hajviy komediyasi.

<sup>2</sup> «Pol Klifford» — Eduard Bulver lord Litton (1803–1873)ning ilk romanlaridan biri (1830).

Xo'sh, ushbu sahifalarda tasvirlangan hayot, o'g'ringing kundalik hayoti qanday? Yomon odat va xislatlarga moyil yoshlar uchun uning maf-tunkorlik jozibasi nimada, eng kaltafahm va eng kaltabin o'spirinlarni vasvasaga soladigan tomonlari qayerda? Supurgio't qoplagan, oy nuri-ga g'arq dashtda ot yo'rttirish ham, shinam g'ordagi bazmi jamshidlar ham, havas-u hasadni keltiradigan ust-boshlar ham, zarrin uqalar ham, jimjimador to'r-u pushtirang jilet hamda yengliklar ham yo'q bu yer-da, ko'z-ko'z qilib maqtangulik biror narsa va hatto «katta yo'lni» Odam Ato davridan beriga bo'yab-bejab tasvirlab kelinadigan erkinlikdan ham asar yo'q. Ayoqli, namchil, biror-bir bosh suqqulik panohgoh topilmay-digan tungi London ko'chalari; jamiki illatlar maskani bo'lmish iflos va sassiq uyalar, ochlig-u ming bir xil dardlar makoni; titilib-uzilib tushay deb turgan chuvrindi uvadalari, bularning nimasi havasni keltiradi?

Biroq gohi kishilar tabiatan shunchalar nozik ta'b, shunchalar nozik didliki, bunday dahshatlarni payqashdan ojizlar. Bundaylar jinoyatdan beixtiyor yuz burib ketolmaydilar, aslo, ammo jinoyatchi ularning didi-ga mos kelishi, yoqishi uchun bamisoli tanqis taomday ustiga xushta'm zirvak quyib berilmog'i darkor. Yashil barqutga burkangan qandaydir Makaronchi<sup>1</sup> tahsinga loyiq zot-u, bumazey ko'ylak kiygan Sayksga esa toqat qilib bo'lmaydi! Qandaydir Kalta yubkacha bilan masxarabozlik kamzulchasini kiyib olgan Makaronchi xonimcha mashhur qo'shiqlarda madh etilish, jonli va bejirim qilib suratini chizish, bosma usulida su-ratini ko'paytirishga munosib-u, oddiy ip ko'ylak kiyib, arzonarov shol ro'molga o'rangan Nensiday xilqat — nomaqbul emish! Ezgulik, Saxo-vatning iflos paypoqdan qanday yuz burishi va Illatning turfa rang tasma-yu yaltir-yultir liboslarga omixta bo'lib, xuddi erga tekkan xotin-larday, o'z ism-sharifini o'zgartirib, Romantikaga aylanib qolishiga hay-ron qolasan.

Ammo-lekin mazkur kitobning maqsad-vazifalaridan biri — ach-chiq, beshafqat haqiqatni (hattoki u romanlarda shunchalar ko'kka ko'tarib ta'riflangan odamlar qiyofasida namoyon bo'lgan taqdirda ham) ko'rsatishdir, shu boisdan ham kamina o'z kitobxonlarimdan Tullak-ning kamzulidagi na biron yirtiqni va na Nensining paxmaygan sochi-ga qadog'liq jingalak qiladigan bironta naycha qog'ozni yashirdim. Men nazokatni mushohadasiga sig'dirolmaydigan kimsalarning nazokatli bo'lishlariga mutlaqo ishonolmadim. Kaminaning xayolida shu qabilda-gi odamlar toifasidan tarafdor orttirish istagi yo'q edi. Men ularning xoh yaxshi-yu, xoh yomon fikr-o'ylariga nisbatan hech qanaqangi hurmat-

<sup>1</sup> Makaronchi — XVIII asrning 70-yillaridagi ingliz satanglarining laqablari, ular Londonda hatto Makaronchilar klubini ham ochishgan; bu laqab adabiy ibora — XVI asrdagi lotin tili bilan mahalliy tillarni qorishtirib kulgili so'zlar bo'tqasini yaratgan «makaronchilar she'riyati» bilan bog'liq.

e'tibor hissini tuymagandim, ularning maqbullashlariga erishishga urin-ganim ham, keyin ushbuni ular uchun ermakka yozganim ham yo'q.

Nensi haqida, uning bunday quturgan, gazzob o'g'riga bo'lgan sado-qatli muhabbati notabiiydek ko'rinadi, degan gaplar bo'ldi. Ayni chog'da esa, Sayksga nisbatan e'tiroz bildirishib, — xiyla mantiqsiz ravishda, deb o'ylashga jur'at etaman, — go'yoki ranglar quyuqlashtirib yuborilgan-mish, negaki unda bo'lmagan, lekin muhabbatini notabiiy deb bilgan-lari ma'shuqasida bor gunohini kechirishga arzigulik sifat va fazilatlaridan asar ham yo'q, deya ta'kidlashdi. Keyingi e'tirozga javoban, dunyoda hali tuzatib bo'lmaz darajada buzilib bo'lgan hissiz va toshbag'ir nusx-alar bor, har qalay, degan xavotirdaman. Ammo-lekin, men bir narsa-ga aminman: Sayksga o'xshagan odamlar mavjud, agar romanda tasvir-langanchalik vaqt mobaynida hamda xuddi o'shanday shart-sharoitlarda ularni sinchiklab kuzatilsa, bularning qilmishlarida bironta yaxshilik-dan dalolat berguvchi zarracha saxovat namoyon bo'lmaydi. Vujudlari-dagi jamiki, ayniqsa muloyimtob insoniy his-tuyg'ular o'lib bitganidan-mi, yo o'sha tuyg'ularni qitiqlaydigan torlar zang va po'panak bosib, uni topib bo'lmay qolganidan shundaymi — har qalay, bu borada hakam-lik qilmoqchi emasman-u, ammo hammasi aynan ana shunday ekaniga imonim komil.

Qizning xulq-atvori-yu tabiati tabiiy yoxud notabiiymi, aqlga to'g'ri keladimi yoki kelmaydimi, to'g'rimi yo noto'g'rimi — bu haq-da bahslashish befoyda gap. Bularning bari — haqiqatning o'zginasi. Hayotdagi bundayin qayg'uli sharpalarni kuzatgan har bir inson bu-ni bilmog'i lozim. Bu ayanchli, baxtiqaro qizginaning ilk bora sahna-da paydo bo'lishidan boshlab toki qonga belangan boshini gazzobning ko'ksiga bosgunigacha zarracha mubolag'a yoki zo'rma-zo'rakilik yo'q. Bu ilohiy haqiqat, zotan Xudovandi Karim bu haqiqatni buzuqlar-u sho'r-peshonalarning qalblariga jo qiladi; ulardagi umid uchquni loyqa bosgan quduq tagidagi oxirgi tiniq suv tomchisi yanglig' miltillab turadi. Bu qizgina inson tabiatidagi yaxshi, yomon tomonlarni o'ziga jamlagan, balki juda xunuk tomonlari ko'proqdir, ammo unda eng yaxshi, eng a'lo xislatlar ham bor; bu — imkoni-yu iloji yo'qdek tuyuluvchi ziddiyatli bir hol; biroq bu — haqiqat. Bu borada shubhaga borganlaridan xursand-man, chunki ushbu haqiqatni aytish kerakligiga hammani ishonitirishga majbur bo'lganim uchun ham yana shu haq gaplarni aytishga ishonchim kuchaymoqda.

Ming sakkiz yuz elliginchi yili bir tentak-oldermen Londonda ham-maga eshittirib, Jakob oroli yo'q va hech qachon bo'lmagan, degandi. Ammo ming sakkiz yuz oltmish yettinchi yilga kelib ham Jakob oro-li bor, yo'qolmagan (hamon ilgarigidek bema'ni, xunuk joy), garchi xiyla yaxshilanish sari yuz tutgan bo'lsa ham.

**OLIVER TVIST TUG'ILGAN JOY  
VA UNING DUNYOGA KELISHIGA OID VAZIYAT  
HAQIDA HIKOYA QILADI**

Talay sabablarga ko'ra nomini tilga olmaslik maqbul bo'lgan, shuning uchun ham kamina hech qanday to'qima nom bermagan bir shahardagi jamoatchilik binolari orasida, qadimdan deyarli barcha katta-yu kichik shaharlarda uchraydigan bino bor, bu — mehnat uyi\*. Xuddi ana shu mehnat uyida ismi sharifi mazkur bobning sarlavhasida qayd etilgan isyonkor banda tug'ildi — ushbu voqea qaysi kun-u qaysi soatda sodir bo'lganini ma'lum qilishga urinib o'tirmasam ham bo'laveradi. Chunki buning kitobxon uchun, hikoyatimizning ayni bosqichida — zarracha ahamiyati yo'q.

Qavm tabibi\* bolani kulfat va g'am-anduh olamiga qabul qilib olganida, biron ism olish uchun bu murg'ak tananing omon qolishi anchagacha dargumon bo'lib turdi, basharti u olamdan ko'z yumganida bormi, ushbu xotiralar hech qachon yozilmasligi turgan gap edi. Bordi-yu bosilib chiqqan taqdirda ham ikki-uch sahifadan nariga o'tmasdi. Shuning uchun ham u istalgan asr, istalgan mamlakat adabiyotida saqlanib qolgan tarjimaiy hol asarlarining eng qisqa hamda eng haqqoniy andozasi bo'lishi ehtimoldan xoli emasdi.

Zotan, mehnat uyida tug'ilish inson bolasi peshonasiga bitilgan baxt, deya ta'kidlamasam ham, bari bir hozirgi sharoitda buni Oliver Tvist uchun taqdirning eng a'lo in'omi, deb hisoblardim. Negaki, Oliver Tvistning nafas olishga ham kuchi yetmasdi. Holbuki, tabiat insonlarning sog'lom yashashi uchun mazkur mashg'ulotni shart qilib qo'ygan. Murg'ak jun to'shakchada hayot bilan o'lim o'rtasida olishib, lekin, keyingisi sari qat'iy yuz tutib, bir muddat nafas olmay bo'g'ilib yotdi. Agar Oliver ana shu qisqagina muddat davomida kuydi-pishdi buvilar, bezovta amma-xolalar, tajribali hamshira-yu donishmand tabiblar qurshovida bo'lganida bormi, uni shak-shubhasiz va muqarrar o'ldirib qo'yishlari tayin edi. Ammo tepasida odatdagidan ko'proq pivo ichganidan boshi g'ovlab turgan qashshoq kampir va shartnomaga muvofiq o'z vazifasini ado etayotgan qavm tabibidan bo'lak odam bo'lmagani tufayli Oliver bilan Tabtat ikkovlashib bu jangda g'olib chiqishdi. Pirovardida, qisqagina olishuvdan so'ng, Oliver nafas oldi, aksirdi va mehnat uyi istiqomatchilarini qavm zimmasiga yuklanayotgan yangi tashvishlardan ogoh etib, faqat

o'g'il bolalardangina kutsa bo'ladigan, bor-yo'g'i uch-u chorak da-  
qiqagina muqaddam o'ziga ato qilingan g'oyatda foydali ehson —  
quloqni teshgudek chinqiriq ovozda big'illab yig'lay boshladi.

Oliverning o'pkasiga tegishli mana shu ilk erkin faoliyatdan so'ng,  
temir karavot ustiga naridan-beri tashlab qo'yilgan quroq ko'rpa  
qimirlab, yoshgina juvon za'far tusli yuzini yostiqdanda xiyol ko'tardi-  
da, zaifgina ovoz bilan pichirladi:

— Menga bolamni ko'rsatinglar, keyin o'lsam ham mayli.

Tabib kamin oldida kaftlarini bir-biriga ishqab, isitib o'tirardi.  
Juvon tilga kirganida u o'rnidan turib, bemorning bosh tomoniga ya-  
qinlashdi-da, hayratlanarli darajada muloyim ovozda dedi:

— Qo'ying-e, o'limni xayolingizga ham keltirmang!

— E, nimalar deyapsiz, xudoning o'zi asrasin! — gapga aralash-  
di uy burchagida ichidagi suyuqlikni ochiqchasiga huzur qilib qutil-  
latayotgan kampir, qo'lidagi ko'k shishani shosha-pisha cho'ntagiga  
tiqar ekan. — Xudo saqlasin! U hali mening yoshimga borsin, ser,  
o'n uchta bo'qachog'in tug'sin, ulardan ikkitaginasini qolsin, o'sha  
omon qolganlariyam o'zi bilan birga mehnat uyida turadigan bo'lsin,  
ana o'shanda aqli kirib, sal narsani sirtiga yuqtirmaydigan, salga  
ezilmaydigan bo'ladi!.. Jonginam, ona bo'lish nimaligini bir o'ylab  
ko'ring-a! Bolangiz biram yoqimtoyki!

Aftidan, dilga tasalli berguvchi bu onalik istiqboli bemorga qit-  
tayam ta'sir ko'rsata olmadi. Bemor bosh chayqab, qo'llarini chaqa-  
log'iga cho'zdi.

Tabib chaqaloqni ona og'ushiga qo'ydi. Rangi quv o'chgan ona  
muzdek lablarini mehr-la chaqalog'ining peshonasiga bosdi, yuzini  
qo'li bilan siladi, chaqchayib atrofga alangladi, keyin seskanib, o'zini  
yostiqqa tashladi... va joni uzildi. Uning ko'kragini, chakkalarini  
ishqashdi — bari befoyda! Ko'nglini ko'tarib, yupatuvchi allanimalar  
deyishdi. Lekin juvon allaqachon o'lgandi.

— Hammasi tamom bo'ldi, missis Tingami! — dedi nihoyat tabib.

— Ha, hammasi tamom bo'ldi. Voy sho'rlikkina-ya! — deya  
uning gapini tasdiqladi kampir, bolani olaman deb engashganida  
yostiqqa tushgan ko'k shisha tiqinini olayotib. — Sho'rlikkina-ya!

— Chaqaloq yig'laydigan bo'lsa menga odam yuborib o'tirmang-  
lar, — dedi tabib qo'lqopini kiyarkan. — Judayam besaranjom,  
yig'loq bo'lishi ham mumkin. Yig'laganida suyuq bo'tqa qilib bering.  
— U shlyapasini boshiga qo'ndirib, eshikka qarab yurarkan, karavot  
yonida pichagina tutilib, qo'shib qo'ydi: — Istarasi issiqqina juvon  
ekan... Qayoqdan kelib qolibdi o'zi?

— Uni nozirning buyrug'i bilan kecha kechqurun keltirishgandi,  
— javob berdi kampir. — Ko'chada yiqilib qolgan joyida topib ol-

ishibdi. U olisdan kelgan ko'rinadi, boshmog'i yeyilib, titilib ketibdi, lekigin qayoqdan kelayotgani va qayoqqa ketayotganini hech zog' bilmaydi.

Tabib marhuma uzra engashib, uning chap qo'lini ko'tardi.

— Odatdagi ashula, — dedi u, boshini sarak-sarak qilib. — Nikoh uzugi yo'q... Xo'p, yaxshi yotib turing!

E'timodli tabib tushlik qilgani uyiga jo'nadi, kampir bo'lsa ko'k shishadan yana bir qultum yutib olib, kamin oldidagi pastak kursiga o'tirdi-da, chaqaloqni kiyintirishga tutindi.

Kiyim-kechakning qudrati nimalarga qodirligini jajji Oliver Twistning ahvolidan bilish mumkin edi. Oliver shu vaqtgacha yakka-yu yagona kiyimi bo'lgan yo'rgakda yotar ekan, asilzoda oila farzandimi yoki gado farzandimi — buni farqlash mumkin emasdi. Bu turishida eng asilzoda odam ham uning jamiyatdagi o'rnini oldindan belgilay olishi amrimahol edi. Ammo endilikda chaqaloqqa eskirib, sarg'ayib ketgan kolenkor ko'ylakcha kiydirilgach, unga tavqi la'nat osildi-qo'ydi. Shu lahzadan boshlab, bola jamiyatdagi havas qilib bo'lmaydigan o'rnini — umri bo'yi do'lday yog'ilajak kaltag-u nordon shapaloqlar bilan siylanadigan, hamma jirkanadigan, hech yerda hech kimdan shafqat-muruvvat ko'rmaydigan, qavmga boqindi bola, mehnat uyidagi yetimcha yetti kulcha, itoatkor, och-nahor tirikchiligini o'tkazuvchi yugurdak o'rnini egalladi.

Oliver big'illab yig'lardi. Mabodo u cherkov oqsoqollari va nozir-larining shafqatangiz homiyligiga tashlab ketilgan sag'ir ekanini bilganida bormi, bundan ham qattiqroq chinqirgan bo'lardi.

---

---

II BOB.      OLIVER TVISTNING QANDAY O'SGANI  
                 VA QANDAY TARBIYA TOPGANI HAQIDA  
                 HIKOYA QILADI

Oliver keyingi sakkiz-o'n oy mobaynida aldam-qaldamlik qurboni bo'ldi. Uni so'rg'ich bilan ovqatlantirardilar. Mehnat uyi mutasaddilari eng zaruriy narsalardan mahrum, och-nahor qolayotgan chaqaloq haqida qavm ma'murlariga xabar qildilar. Qavm ma'murlari esa o'z mavqelariga munosib tarzda mehnat uyi mutasaddilaridan mazkur maskanda istiqomat qiluvchilar orasida Oliver Twistni parvarishlab, yedirib-ichira oladigan zaifa zotidan biron xonim topilish-topilmasligini surishtirdilar. Mehnat uyi mutasaddilari, bunday xonim yo'q, degan javobni berdilar. Shunda qavm ma'murlari olihimmatlik va odamoxunlik ko'rsatib, Oliverni «fermaga» yoki boshqacha qilib aytganda, mehnat uyining taxminan uch milcha nariroqda joylashgan, qashshoqlik haqidagi qonunni buzgan\* va na ovqat, na ust-bosh to'g'risida o'ylamaydigan yigirma-o'ttiz chog'li bolalar uzzukun qoq yerda uymalashib yotadigan bo'linmasiga joylashtirishga qaror berdilar; bu yerda ular bebosh bolalarni jon boshiga yetti yarim pens<sup>1</sup> evaziga qabul qilib oladigan keksaroq bir xonimning onalarcha nazorati ostida edilar. Haftasiga yetti yarim pens — bitta bolani parvarish qilish uchun bemalol yetadigan pul; yetti yarim pens — qorinni oqibati xunuk tugashi mumkin bo'lgan darajada to'latishga bemalol yetadi. Zaifalar namoyandasi bo'lmish keksa xonim oqila va tajribali ayol edi, shu boisdan bu ishi bolalar uchun koni foyda ekanini bilardi. Xullas, xonim bu narsa o'zi uchun ham foydali ekanini aqli barkamollik bilan anglab yetgandi. Shu sababli u haftalik nafaqaning mo'maygina qismini o'z hamyoniga urar, qavmning voyaga yetayotgan navnihol avlodiga esa tayinlangan ulushdan o'lmasning kunigagina yaraydigan qismini ajratar edi. Boshqacha qilib aytganda, u o'zining ulug' faylasuf ekanini namoyon etib, tubsiz teranliklarni kashf etardi.

Ot ozuqasiz ham yashay oladi, degan mashhur nazariyani o'ylab topgan va o'zining xususiy otiga beriladigan kundalik yemish miqdorini bir donagina somongacha kamaytirish bilan buni muvaffa-

---

<sup>1</sup> Pens — chaqa, sterlingning 240 dan bir qismini tashkil qiluvchi ingliz chaqasi. (*Tarj.*)



qiyatli tarzda isbotlay olgan boshqa faylasuf hangomasi barchaga ma'lumdir; basharti ot oldinda o'zini kutayotgan sof havoning o'zidangina to'yib ovqatlansa bo'ladigan huzur-halovatli dam yetib kelishidan bir kun burun harom qotmaganida, o'sha zot, shubhasiz, bu jonivorni nihoyatda o'ynoqi va chopqir jonivorga aylantirishi tayin edi. Yuqorida qayd etilgan, Oliver Twist tarbiyaga topshirilgan xonimning falsafiy tajribalari, baxtga qarshi, odatda aynan ana shunday natijaga olib kelardi; nega deganingizda, go'dak zarracha g'ozi yo'q ovqatdan zig'irdakkinasini yeyish bilan o'z hayotini saqlab qolishga endigina o'rgangan paytda, taqdirning bevafoligi bilan, o'ndan sak-kiz yarim holda, yo ochlik va sovuqdan, yo qarovsiz qolib o'tda kuyib, yo bo'g'ilib o'lardi. Ana shu hollarning istagani sodir bo'larkan, baxtiqaro go'dak bu dunyoda diydor ko'risholmagan ota-onalari davrasiga qo'shilish uchun u dunyoga yo'l olardi.

Ba'zan o'z holiga tashlab qo'yilib, ag'darilib ketgan karavoti tagida qolgan yoki kir yuva turib bexosdan kuydirib o'ldirib qo'yilgan — darvoqe, bunday hol ahyon-ahyonda bir sodir bo'lardi, zotan fermada kir yuvishni eslatuvchi yumush kamdan-kam ro'y berardi — hollarda qavm bolasi ishi yuzasidan alohida jiddiy tekshiruv olib borilgan paytda maslahatchilarning xayoliga goho ko'ngilsiz savollar kelib qolardi, qavm ahli esa bundan darg'azab bo'lishib, e'tiroznomalar yozishardi. Biroq bunday qo'pol noroziliklar o'sha zahotiyoyq, tabib hamda bidl\*ning guvohliklaridan keyin chippakka chiqar; tabib bunday hollarda murdani yorib ko'rib, undan hech qanday asorat topmasdi — bu haqiqatga o'xshab ketardi; bidl ham qasam ichib, albatta qavmga maqbul guvohlik berar — bu esa, o'z navbatida oliy darajadagi diyonatlilik hisoblanardi. Boz ustiga, kengash a'zolari fermani muntazam ziyorat qilib turishar va borishlaridan oldin o'zlarining tashriflaridan ogoh etib qo'ygani bidlni jo'natishardi. Ular yetib kelishganda bolalar ko'rsa ko'rgunday yoqimtoy hamda ozoda tusda ko'rinishardi, xo'sh, bundan ortiq ulardan yana nimani ham talab qilish mumkin!

Fermadagi bunday ta'lim-tarbiya usuli biron-bir g'aroyib samara yo yaxshi hosila berishini kutish noo'rin edi. Qisqasi, Oliver Twist to'qqiz yoshga to'lgan kunida rangpar, majmag'il, jimitdak-kina, ramaqijon bir bolakay edi. Ammo tabiat Oliverning qalbiga ezgulik urug'ini qadagan, ushbu urug' bu dargohda rasm bo'lgan qashshog'ona ovqatlanish sharofati bilan o'z-o'zicha kurtak yozib, palak otmoqda edi. Oliver to'qqiz yoshga to'lgan kuni bilan yuz ko'rishayotgan ekan, buning uchun ana shu shart-sharoitdan minnatdor bo'lishi darkordir.

Nima bo'lganda ham, har qalay, bugun uning dunyoga kelgan kuni edi. Bu kunni u o'zi bilan yaxshigina kaltak ulushini baham

ko'rgan, betgachoparlik bilan, go'yoki ochmiz deb shakkoklik qilgani boisidan qamab qo'yilgan ikki norasida jentlmen hamrohligida ko'mir saqlanadigan yerto'lada o'tkazayotgan edi. Xuddi shu kuni ushbu mahkamaning mutasaddisi, ajoyib xonim missis Mann qo'qqisidan paydo bo'lib qolgan mister Bambl — bidlning bog' eshigini ochishga urinayotganini ko'rib talvasaga tushdi.

— Voy xudoyim-ey! O'zingizmisiz, mister Bambl? — deya xitob qildi missis Mann boshini derazadan chiqarib qararkan, o'zini naq boshi osmonga yetgudek suyunib ketganday qilib ko'rsatib. — (Syuzen, Oliver bilan anavi ikki bolani tepaga olib chiqib, darrov yuvintiring!) Voy xudoyim-ey! Mister Bambl, sizni ko'rib suyunganimdan yuragim yorilayozdi-ya!

Mister Bambl barvasta va jizzaki odam edi; bunday «samimiy» salomga munosib tarzda alik olish o'rniga eshikni jon-jahdi bilan itardi, keyin uni faqat bidlning oyoqlarigagina xos bo'lgan tepki bilan siyladi.

— Voy xudoyim-ey! — chiyilladi missis Mann uydan otilib chiqar ekan, zero bu orada uchala bolani ham tepaga olib chiqishga ulgurishgan edi. — Buni qarang-a! Bizning g'aroyib bolalarimizni deb eshik ichkaridan berkitib qo'yilgani butunlay yodimdan ko'tarilib ketganini qarang-a! Kira qoling, ser, marhamat, kiravering, mister Bambl, kiring, ser!

Hattoki cherkov oqsoqolini ham iydinib yuboradigan bu iltifotli mulozamat, navozish va ta'zimlar bidlning ko'nglini zarracha yumshata olmadi.

— Nahotki, missis Mann, siz bu yerga qavm yetim-yesirlari bilan bog'liq bo'lgan yumushlar yuzasidan keluvchi qavmning mansabdor xizmatchilarini bog' eshigi oldida kuttirib qo'yib, bu qilmishingizni odobdan deb o'ylasangiz? — deya pisanda qildi mister Bambl hasasini changallaganicha. — Sirasini aytganda, siz qavm tayinlaydigan shaxs ekaningiz va qavmdan maosh olib turajagingiz ma'lummi, missis Mann?

— Rostini aytsam, mister Bambl, sizni jondan sevadigan bolajonlarimizdan ba'zi birlariga janoblarining kelganlarini xabar qilaman deb tutilib qoldim, xolos, — deya javob berdi missis Mann bag'oyat itoatkorlik bilan.

Mister Bambl o'zining notiqlik bobidagi iste'dodi hamda sha'n-e'timodi borasida g'oyat yuksak fikrda edi. Hozir ham u notiqlik iste'dodini namoyish qilib, sha'n-e'timodini amalda isbot etgachgina, picha yumshadi.

— Xo'p, mayli, missis Mann, — javob qildi u xiyla bosiq ohangda, — ehtimol, shundaydir. Qani, ichkariga kiraylik, missis Mann. Men ish yuzasidan kelganman, sizga ba'zi bir narsalarni ma'lum qilishim lozim.

Missis Mann bidni g'isht sahnli mo'jazgina mehmonxonaga boshlab kirib, unga kursi qo'yib berdi-da, iltifot-la uning uch qirra qalpog'i bilan hassasini stolga qo'ydi. Mister Bambl manglayidagi terni artarkan, uch qirra qalpog'iga mamnun nigoh tashlab, miyig'ida jilmaydi. Ha, u zot jilmaydilar. Axir, bidllar ham odam-da; shunday qilib, mister Bambl jilmaydilar.

— Endi sizga aytadigan gapimga xafa bo'lmaysiz-da, — dedi missis Mann maftunkor nazokat bilan. — Siz bag'oyat uzoq yo'l bosib kelgansiz, yo'qsa sizga bu gapni aytib o'tirmasdim. Mister Bambl, bir qultumgina ichmaydilarmi?..

— Bir tomchiyam ichmayman! Ha-ha, bir tomchiyam! — dedi mister Bambl, o'ng qo'lini vajohat, shu bilan birga xotirjam silkib.

— Mening fikri oqizimcha, har holda tomoqni ho'llab olsangiz bo'lardi, — dedi missis Mann, ichida uning rad javobi ohangi-yu, unga hamohang qo'l harakatini o'zicha sharhlab. — Haligi, ozroqqina sovuq suv-u bir chaqmoq qand qo'shib, bittagina qultum.

Mister Bambl tomoq qirib qo'ydi.

— Faqat bir qultumgina, — deya o'zinikini maqbullashga urinar-di missis Mann.

— Aynan nimadan bir qultum? — deya qiziqdi bidl.

— Yoqimtoy bolajonlarimizning toblari qochib qolganida Daffi aliksiri\* qo'shib berish uchun bu dargohda saqlashim lozim bo'lgan narsadan-da, mister Bambl, — deya javob qildi missis Mann, javonni ochib, shisha bilan stakan olayotib. — Bu jin<sup>1</sup>. Men sizni aldamoqchi emasman, mister Bambl. Bu jin<sup>1</sup>.

— Missis Mann, siz hali go'daklarga Daffi al-iksiri ham berasizmi? — deb so'radi Bambl ko'z qiri bilan bu g'alati ichimlik tayyorlash usulini kuzatar ekan.

— Iloyo ularni Yaratganning o'zi yarlaqasin, ancha-muncha qimmat tursa hamki, berib turaman, — deya javob qaytardi tarbiyachi. — Bilsangiz, ser, ko'z oldimda azob chekishlariga asti chidayolmayman.

— Ha, balli, — deb maqbulladi mister Bambl, — chidab turolmaysiz. Siz pursaxovat ayolsiz, missis Mann. — Ayol stakanni stolga qo'ydi. — Kezi keldi deguncha bu haqda kengashga ma'lum qilaman, missis Mann. — Bambl stakanni o'ziga yaqinroq surdi. — Sizning qalbingiz, missis Mann, chinakam onalik mehr-tuyg'usiga to'la. — U jinni suv bilan aralashtirdi. — Men... men bajonidil sizning sihat-salamatligingiz uchun ichaman, missis Mann.

Shunday deya u bir ko'tarishda yarim stakanni bo'shatdi.

---

<sup>1</sup> Jin — aroqning bir turi. (Tarj.)

— Ana endi ishga o'taylik, — so'zini davom ettirdi bidl charm karmonini ola turib. — Bolakay Twist, haligi Oliver deb ism berilgan go'dak bugun to'qqiz yoshga to'ldi.

— Uni Tangrining o'zi yorlaqasin! — gap qistirdi missis Mann, peshbandi etagi bilan chap ko'zini naq qizarguday ishqab.

— Ammo-lekin, o'n funt<sup>1</sup>, keyinchalik esa yigirma funt mukofot va'da qilinganiga qaramay, inchunin, qavm tomonidan ko'rsatilgan favqulodda, aytishim mumkinki, misli ko'rilmagan darajadagi urinishlarga qaramay, — so'zini davom ettirdi Bambl, — biz bari bir uning otasi kim, shuningdek, uning turar joyi qayda, onasining ism-sharifi-yu nasl-nasabini bila olmadik.

Missis Mann taajjubda qo'llarini chayqadi, ammo bir nafaslik taradduddan keyin so'radi:

— Unda bolakayga ism-sharifni, umuman, qayoqdan olib qo'yishgan?

Bidl mag'rurona qaddini rosladi-da:

— Buni kaminalari qo'yanlar, — dedi.

— Siz-a, mister Bambl?

— Ha, men, missis Mann. Asrandilarimizga alifbo tartibi bo'yi-cha ism qo'yamiz. Oxirgisi «S» harfiga kelib to'xtagandi — men uni Suobl deb atadim. Bunisiga kelganda navbat «T» harfiga yetgandi — unga Twist deb ism qo'ydim. Keyingisi Unuin, undan keyingisi esa Filipp bo'ladi. Ismlarni alifboning oxirigacha o'ylab qo'yanman, «Z» harfigacha yetganimizdan so'ng, yana boshidan boshlayman.

— Axir, siz tuppa-tuzuk yozuvchi ekansiz-ku, ser! — tasanno o'qidi missis Mann.

U suv qo'shilgan jinni oxirigacha ichib yuborib:

— Oliver ulg'aygani, endilikda bu yerda qola olmasligi sababli kengash uni yana mehnat uyiga qaytarishga qaror berdi. Men uni o'z qo'lim bilan o'sha yoqqa olib ketish uchun keldim. Qani, tezroq ko'rsata qoling uni.

— Hoziroq olib kelaman uni, — dedi missis Mann xonadan chiqayotib.

Bu orada yuz-qo'llaridagi kir-chirlarning bir yuvinishda ketkizsa bo'ladigan ustki qatlamidan qutulgan Oliverni mehribon homiysi mehmonxonaga boshlab kirdi.

— Oliver, jentlmenga ta'zim qil, — dedi missis Mann.

Oliver nafaqat stulda o'tirgan bidlga, ayni chog'da, stolda yotgan uch qirra qalpoqqa qarab ham ta'zim bajo etdi.

---

<sup>1</sup> Funt — 209,5 gramm, qadoq. (*Tarj.*)

— Men bilan ketasanmi, Oliver? — deya soʻradi mister Bambl ulugʻvorlik ila.

Oliver, bu yerdan istagan odam bilan jon-jon deb ketaman, de-yishga tayyor edi-yu, lekin boshini koʻtaruvdiyamki, koʻzlari bidl oʻtirgan stulning orqasiga oʻtib olgan va aftini dargʻazab burishtirib, musht oʻqalayotgan missis Manning nigohiga toʻqnash keldi. U bu shamani darhol fahmladi, zotan, badanida bot-bot iz qoldirib turgan mushtum uning xotirasiga chuqur oʻrnashib qolgandi.

— Xonim ham men bilan birga boradilarmi? — deb soʻradi be-chora Oliver.

— Yoʻq, u bora olmaydi, — javob qildi mister Bambl. — Lokigin vaqti-vaqti bilan seni koʻrgani borib turadi.

Bu bolakayga unchalik tasalli boʻlolmasdi. Bilʼaks anchayin gʻoʻr boʻlishiga qaramay, oʻzini goʻyoki bu yerni nihoyatda afsus-nadomat-la tashlab ketayotgan qilib koʻrsatishga aql-u farosati yetdi. Koʻziga yosh olish uning uchun hech gap emasdi, och-nahor yurish hamda badbin muomala koʻzga yosh olishni xohlagan chogʻingizda eng sodiq yordamchidir. Xullasi kalom, Oliver koʻziga yosh oldi, koʻz yoshi qil-ganida ham desangiz, yigʻisi darhaqiqat nihoyatda tabiiy chiqdi. Mis-sis Mann uning boshida ming aylanib-oʻrgilib, mehnat uyiga borga-nida haddan ziyod och koʻrinmasin uchun sariyogʻ surtilgan bir burda non (Oliver bunisiga xiyla koʻproq muhtoj edi) hadya etdi!

Qoʻlida bir burda non ushlagan, boshiga jigarrang qavm qalpoq-chasini kiygan Oliverni mister Bambl mungli-anduhli bolalik yillar-ida biron marotaba na biron ogʻiz shirin soʻz, na biron erkalaguv-chi nigoh nurafshon eta olgan ushbu manfur dargohdan yetaklab chiqib ketdi. Shunday boʻlsa-da, chiqishi bilan ortidan bogʻ hovli-ning darvozasi bekilganida, har qalay, bolakayning qaygʻu-alami ziyoda boʻldi. Oʻzi tashlab ketayotgan, baxtiqarolik bilan kechgan kunlaridagi oʻrtoqlari — qanchalar ayanchli ahvolda boʻlmasinlar — uning birdan-bir doʻstlari edi. Shunda ushbu ulkan va behudud olam-da oʻzining yolgʻizligini tushunib yetdi va bu oʻy ilk bora goʻdakning murgʻak qalbini sirqiratib yubordi.

Mister Bambl katta-katta odim tashlab borardi; jimitdek Oliver uning zarhal uqali yengidan mahkam ushlab, yonginasida pildiragan-cha chopib borar va har chorak milni bosib oʻtganlarida: «Hali uzoq-mi?» — deb soʻrashini qoʻymasdi. Bu savolga mister Bambl jerkib javob qaytarardi, negaki bu paytga kelib baʼzi odamlarni birpasgina xushmuomala qilib qoʻyadigan suv qoʻshib ichilgan jinning quvvati tarqab boʻlgan va u yana bidlga aylangan edi.

Oliver mehnat uyiga kelganiga chorak soat oʻtmayoq va qoʻlidagi nonni yeb boʻlar-boʻlmas, uni qandaydir bir kampirsho izmiga top-

shirib ketgan mister Bambl qaytib keldi-da, shu kuni oqshomgi kengash majlisi haqida so'zlab, kengashning istagi bilan u hoziroq kengash huzuriga borishi zarurligini aytdi.

Kengashning o'zi nima ekani to'g'risida tuzuk-quruq tasavvurga ega bo'lmagan Oliver bu gapni eshitib, angrayib qoldi va kuli-shini ham, yig'lashini ham bilmay, qaqqayib turaverdi. Darvoqe, bu haqda bosh qotirgani fursati ham yo'q edi, negaki mister Bambl, qimirlasang-chi, deganday hassasi bilan uning boshiga, keyin, go'yo dalda berganday, kuragiga bir tushirib, orqasidan yurishni buyur-di-da, uni ohak bilan oqlangan, stol tegrasida yetti-sakkiz chog'li baqaloq-baqaloq jentlmenlar o'tirgan kattakon xonaga boshlab kirdi. Stolning to'r tomonidagi boshqalariga qaraganda xiyla baland kresloda yuzi shirmonday qip-qizil, xo'ppasemiz jentlmen savlat to'kib o'tirardi.

— Kengash a'zolariga ta'zim qil, — dedi Bambl.

Oliver, hali nami qurib ulgurmagan ko'zlaridan ikki-uch tomchi yosh yumalab, yaxshiyamki qarshisidagi stolni ko'rib turgani, o'sha yoqqa qarab ta'zim qildi.

— Isming nima, bolakay? — so'radi baland kresloda savlat to'kib o'tirgan jentlmen.

Oliver baqaloq jentlmenlarni ko'rib qo'rqib ketgandi, bidl bo'lsa ketidan yana bitta tepki bilan siylab, uni ho'ngrab yig'lashga majbur etdi. Ana shu ikki sabab tazyiqida u eshitilar-eshtilmas va bo'shashib javob qildi, buning oqibatida oq nimcha kiygan jentlmen unga tentak, deb laqab to'qidi va o'sha zahotiyoy zavqi kelib, qulfi dili ochilib ketdi.

— Bolakay, — dedi baland kresloda o'tirgan jentlmen, — menga qara-chi. O'ylaymanki, yetimligingni bilsang kerag-a?

— Bu nima degani, ser? — so'radi bechora Oliver.

— Bu bola tentak. O'zim ham shunday deb o'ylagandim, — dedi oq nimchali jentlmen.

— Sekinroq! — dedi birinchi bo'lib so'z boshlagan jentlmen. — Na otang, na onang yo'qligi, seni qavm tarbiyat qilgani ma'lum bo'lsa kerak?


— Ha, ser, — javob berdi Oliver, achchiq-achchiq yig'lab.

— Nimaga yig'layapsan? — deb so'radi oq nimchali jentlmen. Rostdan ham — juda g'alati-ku! Bu bolakay nimaga yig'layaptiykin?

— Ishonamanki, har oqshom duo o'qib, — dedi boshqa jentlmen jiddiy ohangda, — chin nasroniylarday — seni boqayotgan hamda g'amingni yeyayotganlarning duoi joni yo'lida iltijo qilarsan-a?

— Ha, ser, — deya javob berdi bola duduqlanib.

Oxirida so'zlagan jentlmen o'zi ham anglamagan holda haq gapni aytgandi. Oliver mabodo o'zining qornini to'yg'azayotganlar va



uning g'amini yeyayotgan valine'matlarining duoi joni yo'lida iltijo qilganida chindan ham nasroniy, nasroniy bo'lganda ham beqiyos, asl nasroniy bo'larmidi. Biroq u ibodat-u iltijo qilmasdi, zotan, hech bir zot buni unga o'rgatmagandi.

— Barakalla! Seni bu yerga tarbiya bermoq hamda foydali biror kasb-korga o'rgatmoq niyatida olib kelishdi, — dedi baland kresloda o'tirgan yuzi qip-qizil mag'izday jentlmen.

— Shundoq ekan, ertadanoq sahar mardonda, ya'ni soat oltidan boshlab kanop losi titishga tushasan, — qo'shib qo'ydi oq nimchali badqovoq jentlmen.

Ushbu ikki saxovatning kanop losini titishdek unchalik mushkul bo'lmagan yumushda mujassam topgani evaziga minnatdorchiлик bildirish uchun Oliver (bidlning amri bilan) ikki bukilib ta'zim bajo keltirdi va o'sha zahotiyoq kattakon xonaga olib chiqib ketildi. Bolakay bu yerdagi qattiq karavotda to uyquga ketgunicha o'krab yig'lab yotdi. Angliyaning shafqatli qonunlariga moslab chizilgan ajoyib manzarani qarang-a! Bu qonunlar qashshoqlarga uxlashga izn berib qo'yibdi-ya!

Sho'rlik Oliver! Xuddi shu kuni kengash uning bundan buyongi taqdir-u qismatiga o'z ta'sirini o'tkazadigan qarorni qabul qilganini esiga ham keltirmay, hech vaqoni bilmay baxtiyorlik chodrasiga burkanib uxlab yotardi. Biroq kengash qaror chiqarib bo'lgandi. Bu qaror quyidagicha edi.

Mazkur kengashning a'zolari bag'oyat dono, farosatli, ziyrak faylasuflar edi, shu boisdan ham ular nihoyat mehnat uyiga nazar-e'tiborlarini qaratar ekanlar, o'sha zamonoq bo'lak osiy bandalar hech qachon anglab yeta olmaydigan narsani payqadilar, xususan, bu tubandagi kashfiyot edi: qashshoqlar mehnat uyini yaxshi ko'radilar! Bu joy darhaqiqat qashshoqlar sinfi uchun umum vaqtichog'lik maskani edi; haq to'lanmaydigan oshxona; yil o'n ikki oy tekin nonushta, tushlik, choy hamda kechlik taom; o'yin-kulgidan bo'lak yumushi yo'q g'isht va ohakdan bunyod etilgan jannat! «O'-ho'! — vazohat bilan nido solishdi kengash a'zolari. — Biz u yerda tartib o'rnatmog'imiz darkor. Biz darhol chek qo'yamiz bunga». Xullasi kalom, kengash a'zolari shunday qarorga keldilarki: bunga binoan barcha yo'qsillarga yo mehnat uylarida sekin-asta ochlikda o'lishni, yo undan tashqarida tezgina o'lim topishni tanlash (zero ular, turgan gapki, hech kimni majbur etishni istamas edilar) havola etilardi. Shu maqsadda ular cheklanmagan miqdorda suv bilan ta'minlanib turish uchun vodoprovod kompaniyasi, muntazam ravishda cheklangan miqdorda suli yormasi yetkazib berib turish uchun don sotuvchi agent bilan shartnoma tuzishdi va qavm ahliga kuniga uch mahal

suyuq go'ja, haftasiga ikki marta bir bosh piyoz, yakshanba kunlari yarimta kulcha berishga qaror qilishdi. Ular yana ayollarga tegishli son-sanoqsiz oqilona hamda insonparvarona ko'rsatmalar berdilar, ularni sanab o'tirishning zarurati yo'q shu topda. Doktors-Kammonsda\* nikohni bekor qilish ishi bilan bog'liq bo'lgan xarajat-uchi qimmlar katta bo'lgani sababli ular marhamat ko'rsatib yo'qsillarni xotinlaridan ajratishni o'z zimmalariga olishga rozilik berdilar. Shu bilan ular ilgarilari qilganlaridek, odamni oilasini boqishga majbur etmay, uni bola-chaqasidan tortib olib, o'zini bo'ydoqqa aylantiradigan bo'ldilar. Basharti mehnat uyi bilan aloqador bo'lmaganida, ana shu keyingi bandni nazarda tutib, jamiyatning barcha tabaqasiga mansub bo'lgan qanchadan-qancha iltimosgo'ylar nafaqa-madad surab ularga murojaat etishlari tayin edi; ammo kengash a'zolari uzoqni ko'ruvchi tadbirkor odamlar bo'lib, bunday mushkul ahvol yuz berishining oldini oluvchi tadbirlar chorasini ko'rib qo'ygandilar. Madad mehnat uyi hamda go'ja bilan chambarchas bog'liq edi, ushbu hol esa odamlarni cho'chitib turardi.

Oliver Twist bu yerda paydo bo'lganidan keyingi dastlabki yarim yil mobaynida ana shu tartibni zo'r berib joriy eta boshladilar. Avvaliga bu tartibot ozmuncha sarf-u xarajatlarni talab etmadi, sababki, tobutsozga to'lanadigan haq ortib ketdi va bir-ikki haftalik go'jaxo'rlikdan so'ng cho'p-ustixon bo'lib qolgan yo'qsillarning egnilaridagi kiyimlarni uzluksiz ravishda, qayta-qayta toraytirib tikishga to'g'ri keldi. Biroq, ayni chog'da, mehnat uyi istiqomatchilarining soni ham qashshoqlarning tanalari singari yupqa tortib bordi, kengash a'zolari esa xursandlikdan terilariga sig'masdilar.

Bolalarni g'ishtin devorli hayotday xonada ovqatlantirar edilar; xonaning bir burchagiga qozon qurilgan bo'lib, yemak vaqti belgilangan soatda oldiga peshband tutib olgan nazoratchi bir yoxud ikki ayol ko'magida ana shu qozondan go'ja suzib berardi. Har bir o'g'il bolaga ana shu ajoyib ataladan faqat bir tovoqchada tegardi, katta bayram kunlari bundan mustasno bo'lib, bolaga atalaga qo'shimcha ikki-yu chorak unsiya<sup>1</sup> non ham berilar edi. Tovoqchani hech qachon, aslo yuvib o'tirishga hojat qolmasdi. Bolalar uni qoshiq bilan yaltillab ketgunday qirib-qirtishlab, chinniday qilib qo'yardilar; bu yumushni ado etib bo'lgach (u hech qachon ortiqcha vaqtini olgan emas, negaki qoshiqlar deyarli tovoqchalar bilan bab-baravar hajmda edi), ular go'yo o'choq g'ishtlarini ham kemirib yuborguday qiyofada qozonga lo'q bo'lib tikilganlaricha, tasodifan yuqib qolgan go'ja yuqini topish umidida barmoqlarini so'rib o'tiraverardilar. Odatda, o'g'il

<sup>1</sup> Unsiya — og'irlik o'lchovi — 31,1 gr. (*Tarj.*)



bolalar o'zlarining beqiyos ishtahalari bilan ajralib turadilar. Oliver Twist va uning o'rtoqlari chalaqursoqlik oqibatida asta-sekin o'lim sari yuz tutib, uch oydirki iztirob chekardilar, nihoyat, ular ochlikdan shunchalik ochofatlashib hamda shunchalik eslarini yo'qotib qo'yдилarki, oqibatda yoshiga nisbatan bo'ychanroq va bunday ahvolda ko'nikmagan bir bolakay (uning otasining qachonlardir kichkina oshxonasi bo'lgan) o'rtoqlariga mungli tovush bilan agar menga per diem go'jadan yana bir tovoq qo'shimcha bermasalar kechasi yonimda yotgan bemajol bolani bexosdan yeb qo'ymasam deb qo'rqaman, deya shama qilib qoldi. Shu topda uning ko'zlari vahshiyona, naq g'ajib tashlagundek bejo jalanglardi, buni ko'rgan bolalar uning gapiga ko'r-ko'rona, chippa-chin ishonadilar. Kengash qurdilar: shu oqshom kechlikdan keyin nazoratchining yoniga borib, qo'shimcha go'ja so'rash uchun chek tashladilar. Qisqasi, chek Oliver Twistning zimmasiga tushdi.

Kech kirdi; bolalar o'z joylarini egalladilar. Oshpaz libosidagi nazoratchi qozon oldiga joylashdi; uning qashshoq yordamchilari orqa tomoniga kelib turdilar. Go'ja tovoqchalarga quyildi. Faqirona taom oldidan uzundan-uzun ibodat duolari o'qildi. Go'jalar zumda g'oyib bo'ldi; bolalar bir-birovlari bilan pichirlashib, Oliverga ko'z qisib imo qila boshladilar, yaqinida turganlar esa uni turtishga tushdilar. Mushtdekkin Oliver ochlikdan umidsizlikka tushib, behudud alamdanda es-hushini yo'qotib qo'ygandi. U stol yonidan qo'zg'aldi-da, tovoq va qoshig'ini ko'targanicha nazoratchiga yaqinlashib, o'z beadabligidan salgina cho'chinqirab, bunday dedi:

— Kechirasiz, ser, tag'in yegim kelyapti.

Nazoratchi devqomat, baquvvat odam edi, shunga qaramay uning tusi pag'a bo'lib ketdi. Hayratdan dang qotib, mushtumdekkin isyonkorga bir necha soniya tikilib turdi-da, so'ngra madad izlaganday qozonga suyanib qoldi. Yordamchi ayollar taajjubda, bolalar qo'rquvda baqa bo'lib serrayib qolishdi.

— Nima deding?.. — dedi nazoratchi axiyri arang ovozi chiqib.

— Kechirasiz, ser, — takrorladi Oliver, — tag'in ovqat yegim kelyapti.

Nazoratchi Oliverning boshiga cho'mich bilan tushirdi, keyin qo'lidanda mahkam changalladi-yu, bo'kirib bidlni chaqirdi.

Mister Bambl hayajon og'ushida xonaga hovliqqanicha otilib kirib kelganida kengash a'zolari tantanali majlis o'tkazmoq niyatida to'plangan edilar. Mister Bambl baland kresloda o'tirgan jentlmen-ga murojaat qildi:

— Mister Limkins, afv etgaysiz, ser! Oliver Twist go'jadan yana berishlarini so'rabdi!

Hozir bo'lganlarning jami gangib qolishdi. Barchalarining bashalari dahshatdan qiyshayib-bujmaydi.

— Yana go'ja so'rabdi?! — qaytarib so'radi mister Limkins. — O'zingizni bosing, Bambl, keyin menga bafurja, aniq qilib javob bering. U tegishli ulushini yeb bo'lganidan so'ng qo'shimcha go'ja so'ragan, sizni to'g'ri tushunibmanmi, shundaymi?

— Xuddi shundoq bo'пти, ser, — javob berdi Bambl.

— Bu bolakayning umri dorda tugaydi, — dedi oq nimchali jentlmen. — Bilaman, bu bolakayning umri sirtmoqda tugaydi.

Bu jentlmenning payg'ambarona bashoratini hech kim rad etib o'tirmadi. Oliverni zudlik bilan avaxtaga tashlashga farmoyish berildi; ertasiga ertalab darvozaga, qavmni Oliver Tvistdan xalos etish istagini bildirgan har qanday kishiga besh funt mukofot taklif etiladi, degan mazmunda e'lon yopishtirib qo'yildi. O'zgacha qilib aytganda, besh funt mukofot bilan Oliver Tvist biror kasb-kor, tijorat yoki boshqa yumush bilan shug'ullanuvchi va shogird bolaga muhtoj istagan erkak yoxud ayolga tortiq sifatida taklif etilgandi.

— Hech qachon va hech narsada, — dedi oq nimchali jentlmen ertasiga ertalab darvozani taqillata turib, e'lonni o'qir ekan, — bu bolaning o'z hayotini sirtmoqda tugatishiga ishonganimchalik imonim komil bo'lgan emas.

Kelgusida oq nimchali jentlmenning haq yoxud nohaqligini ko'rsatish niyatida men ushbu hikoyamni maroqli jihatlaridan mahrum etib (aminmanki, u bunday sifatga ega) o'tirmayman va binobarin, Oliver Tvistni bunchalar dahshatli o'lim kutayotibdimi yoki yo'qmi, bunga biron-bir ishora bilan shama qilishga ham botinolmayman.

---

### III BOB.     OLIVER TVISTNING KELGUSIDA SERDAROMAD                   VA OSON ISH BO'LA OLMAYDIGAN O'RINGA                   JOYLASHISHIGA BIR BAHYA QOLGANI XUSUSIDA                   HIKOYA QILADI

Qo'shimcha ovqat so'rashdek beadabona va sharmisorona jinoyat sodir bo'lganidan keyingi hafta davomida Oliver kengashning oqilona va muruvvatli amri farmoni bilan o'zini avaxta qilishgan zimiston hamda huvillagan xonada qamalib o'tirdi. Bir qarashda, basharti u oq nimchali jentlmenning bashoratiga munosib ehtirom bilan qaraydigan bo'lsa, unda dastro'molining bir uchini devordagi ilgakka bog'lab, ikkinchi uchiga o'zini osib, mazkur jentlmenning payg'ambarona zakovatini abadulabadga tasdiqlarmidi, deb taxmin qilish aqlga to'g'ri keladigandek edi. Ammo bunday jasorat ko'rsatish uchun bir to'siq bor, bu ham bo'lsa, xususan, quyidagidan iborat edi: kengash hay'ati jam bo'lib chiqargan, imzolar va muhr bilan tasdiqlangan, tantanavor tarzda e'lon qilingan farmonga binoan yo'qsillar burni ortiqcha zeb-ziynat ashyolari qatoriga qo'shilgan ro'molchadan abadiy mahrum etilgandi.

Oliverning yoshligi hamda go'daklarcha fe'l-u atvori bu borada yanada jiddiyoq to'siq edi. U kun bo'yi achchiq-achchiq yig'ladi, uzundan-uzun va hazin-u vahimali tun o'z chodrasini yoyganida esa, zimiston qorong'ilikni ko'rmay, deb ko'zlarini qo'llari bilan berkitdi-yu, bir burchakka tiqilganча uxlashga urindi. U dam-badam uyg'onib ketar, titrab-qaltirab qaddini ko'tarar, o'zini zim-ziyo og'ushiga olgan qorong'ilikdan, yolg'izlikdan himoya qiladiganday muzdek, qattiq devorga mahkamroq qisingandan-qisinib borardi.

Tag'in bu «tartibot» dushmanlari Oliver yolg'iz avaxtada yotgan paytida sog'liq uchun zaruriy jismoniy mashqlardan, ma'naviy tasalli, tuzuk-quruq yor-jo'ralardan mahrum bo'ldi, deb o'ylamasinlar. Jismoniy mashqlar xususiga kelsak, tashqarida ajoyib havo, qirchillama sovuq paytlar edi, bolakayga esa har kuni ertalab girdi g'ishtin devor bilan qurshalgan hovlida, mister Bambl hozirligida, nasos bilan ustidan muzdek suv quyishiga ruxsat etilgandi. Mister Bambl uning shamollab qolmasligining g'amini yeb, qo'lidagi asosi yordamida uning butun a'zoyi badanini qizdirib, xolis xizmat ko'rsatib turardi. Yor-jo'ralari davrasida bo'lishi masalasiga kelganda esa, bolakayni ikki kun oralatib bolalar ovqatlanadigan katta xonaga olib chiqib, barchaga ibrat bo'lsin uchun va boshqalarning ko'zini ochib,

ogohlantirib qo'yish uchun hammaning ko'zi o'ngida obdan savalashardi. Uni ma'naviy tasallidan mahrum etmaslik masalasida bo'lsa har kuni oqshom ibodat vaqtida tepkilay-tepkilay yana o'sha katta xonaga haydab chiqishardi-da, u yerda jamiki bolalarning kengashning azm-u qaroriga binoan kiritilgan maxsus qo'shimcha bilan to'ldirilgan ibodat-u iltijolarini eshitib o'z ruhiyatini shod aylashiga ruxsat berardilar; mazkur qo'shimcha iltijolarida ular yaratgandan o'zlariga insof-u tavfiq berishini, mamnunlig-u itoatkorlik ato etishini, Oliver Tvist botgan gunoh-u qusurlardan forig' bo'lishlarini iltijo qilardilar; bolakayning gunohi va qusurlari ushbu iltijoda aniq-tiniq ifoda etilgandi, u ins-u jinslarning vasvasasiga tushib qolgan va o'sha badbin nojinslar uni maxsus tarzda o'z panohlari hamda himoyalariga olgan, bolakay naq iblis ustaxonasining mahsuli edi.

Oliver shu taxlit tasalli beruvchi ahvolda yashab turgan kunlarning birida mister Gemfild, mo'ri tozalovchi, o'zi turadigan uyning egasi qat'iyat bilan talab qilayotgan ijara haqidan qolgan qarzini qanday uzish yo'llari ustida chuqur o'y surgancha Xay-stritdan o'tib borardi. Mister Gemfild bisotidagi mablag'ini qay ko'yga solib, qanchalik hisoblab ko'rmasin, o'ziga zarur bo'lgan besh funtni topishning chorasini qilolmayotgan edi; u bu hisoblovlardan umidi puchga chiqib, goh qoq ikkiga yorilgudek darajada bosh qotirib, goh eshagining boshini ikki palla qilgudek bo'lib borarkan, mehnat uyi darvozasi yoniga yetganida qo'qqisdan eshikdagi e'longa ko'zi tushib qoldi.

— Ish-sh, — dedi mister Gemfild eshagiga.

Eshak bo'lsa chuqur xayolga tolib, ehtimolki, aravaga ortilgan ikki qop qurumdan qutulganimdan keyin bir-ikkita karam o'zagi nasib qilarmikin, deb o'ylab borayotgandi; shu boisdan u buyruqni eshitmay, lo'killaganicha ilgarilab ketaverdi.

Mister Gemfild eshakni bo'ralab so'kib, ayniqsa ko'zi ko'r-u qulog'i karligiga la'nat o'qigancha yugurib bordi-da, qarsillatib boshiga chunonam tushirdiki, eshakning kallasi o'rnida bo'lsa har qanaqangi bosh suyagi qoq ikki pallaga ajrab ketishi tayin edi. Keyin shartta eshakning jilovi tizginidan tutib, unga egasi kim ekanini iltifot-la eslatib qo'yish maqsadida shasht bilan siltadi-da, orqaga burdi. Shundan keyin to yoniga qaytgunicha hushiga kelolmaydigan qilib tag'in bir karra boshiga qarsillatib qamchi soldi. Bu tadorik ishlarini tugatgach, e'lonni o'qigani darvoza oldiga keldi.

Darvoza yonida qo'llarini orqasiga qilgan ko'yi hozirgina kengash majlis o'tkazgan xonada bir nechta dono fikrni bayon etgan oq nimchali jentlmen turardi. Mo'ri tozalovchi e'lonni o'qish niyatida darvozaga yaqinlasharkan, mister Gemfild bilan eshagi orasidagi mashmashani kuzatib turgan bu odam shodon jilmayib qo'ydi, ze-

ro u mister Gemfild — Oliver Twistga aynan kerak bo'lgan xo'jayin ekanini payqagan edi. E'lonni o'qigach, mister Gemfild irshaydi, zero ki unga xuddi mana shu besh funt suvday zarur edi-da; ushbu mablag'ning ustamasi bo'lmish bolakayga kelganda esa, mehnat uyidagi yemish qandayligidan boxabar mister Gemfild bolakayning g'oyatda mo'ribop mushtdakkina nusxa ekaniga imoni komil edi. Shu sababdan e'lonni boshidan-oxirigacha hijjalab boshqatdan o'qib chiqdi-da, hurmat yuzasidan qo'lini mo'yna telpagiga xiyolgina tekkizib qo'yib, oq nimchali jentlmenga murojaat qildi:

— Bu bolakay, ser, qavm shogirdlikka bermoqchi bo'lgan bolakay... — deya gap boshladi mister Gemfild.

— Xo'sh, azizim, — deya javob qaytardi oq nimchali jentlmen takabburona iljayib. — Xo'sh, u haqda nima demoqchisiz?

— Agar qavm uning ko'ngildagidek kasb, ezgu hamda e'tiborli mo'ri tozalovchilik kasbini egallashini istasa, — deya so'zini davom ettirdi mister Gemfild, — u chog'da, aytishim mumkinki, menga shogird kerak va uni shogirdlikka olishga tayyorman.

— Bu yoqqa kiring, — dedi oq nimchali jentlmen.

Mister Gemfild picha hayallab qoldi, u o'zi yo'g'ida yo'lga ravona bo'lib qolmasligi uchun eshakni yana bir qamchi bilan siylab, jilovini tag'in bir bora silkitib qo'ydi, ana shundan so'nggina oq nimchali jentlmenning ortidan ichkariga, Oliver mazkur jentlmenni ilk marta ko'rgan xonaga kirib bordi.

— Bu bo'lmag'ur kasb, — dedi mister Limkins Gemfild o'z istagini yangitdan bayon etgach.

— Bolakaylar mo'rilarda nafasi qaytib o'lgan hollar ham bo'lgan, — dedi boshqa jentlmen.

— Bolani mo'ridan chiqishga majbur qilish uchun poxolni kaminda yoqishdan oldin ho'llashgani sababli shunday bo'ladi, — dedi Gemfild. — Bunaqada poxol tutaydi xolos, yonmaydi! Tutunning esa hech qanaqangi nafi yo'q, u bolani tashqariga chiqishga majbur qilolmaydi, qaytaga bolani elitib uxlatib qo'yadi. Bolaga bo'lsa xuddi shu kerak-da. O'g'il bolalar — o'larday qaysar va dangasa xalq, shu sababli, jentlmenlar, lang'illab yonib turgan olovdan o'taversin, birpasda pildiragancha pastga tushiradi-qo'yadi. Ustiga-ustak, jentlmenlar, bu xayrli ish, sababki, mabodo bolakay mo'rida tiqilib qolsa-yu, o't yoqib tovonini kuydira boshlasang, u jonining boricha tipirchilab, tiqilib qolgan joyidan chiqib ketishga tirishadi.

Bunday sharh-u izohot oq nimchali jentlmenni go'yo bag'oyat xushnud etganday bo'ldi-yu, biroq uning zavq-shavqini mister Limkinsning xo'mraygan nigohi zumda so'ndirdi-qo'ydi. Keyin kengash a'zolari bir necha daqiqa o'zaro maslahat qurishdi, lekin shunchalik sekin gaplash-

ishdiki, faqat: «Sarf-xarajatni kamaytirish», «kirim-chiqim muvozanatiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi», «bosma hisobotini nashr ettiramiz» kabi so'z va iboralarnigina eshitsa bo'lardi. Bularni ham bot-bot, keyin ma'nodor qilib takrorlab turganlari tufayligina eshitishga muvaffaq bo'linardi.

Nihoyat, pichirlashish to'xtadi va kengash a'zolari o'z joylariga kelib o'tirib, yana ilgarigi viqorli qiyofalariga qaytganlaridan so'ng, mister Limkins:

— Biz sizning taklifingizni muhokama qilib ko'rdik va uni maqbul topmadik.

— Mutlaqo maqbullamaymiz, — dedi oq nimchali jentlmen.

— Qat'iyon maqbul ko'rmaymiz, — deya qo'shib qo'yishdi boshqa kengash a'zolari ham.

Mister Gemfild bir marta uch-to'rt bolani o'lasini qilib kaltaklab, bunday arzimay ayblovlari jabrini tortgan edi, shu sababli uning miyasidan, kengash a'zolari hozir injiqlik qilib, go'yoki ishga aloqasi bo'lmagan o'sha voqeani eslab qolishdi-yu, bu narsa ularning qarorlariga o'z ta'sirini ko'rsatdi shekilli degan fikr yilt etib o'tdi. Rost, bu narsa ularning odatdagi faoliyatlari yo'siniga aslo mos kelmasdi, biroq eski mishmishlarni qayta tiriltirishga unchalik hushi-yu istagi bo'lmagan mister Gemfild telpagini qo'lida aylantirganicha asta stol yonidan yiroqlashaverdi.

— Jentlmenlar, shunday qilib, uni menga berishni xohlamaysizlarmi? — deb so'radi mister Gemfild eshik oldida to'xtab.

— Xohlamaymiz, — javob qildi mister Limkins, — kasbingiz bo'lmag'ur kasb, shu boisdan biz va'da qilgan mukofotimiz miqdorini kamaytirishimiz lozim, deb hisoblaymiz.

Mister Gemfildning chiroyi ochildi, u tez yurib stolga yaqinlashdi-da:

— Qancha berasizlar, jentlmenlar? Qani, xo'sh! Faqir bir kishini ranjitmassizlar. Qancha berasizlar?

— Men sizga aytсам, uch funt-u o'n shilling<sup>1</sup> ham kifoya, — javob qildi mister Limkins.

— O'n shillingni hisobdan chiqarib tashlang, — gapga aralashdi oq nimchali jentlmen.

— Menga qaranglar! — dedi Gemfild. — To'rt funtga bor baraka qila qolaylik, jentlmenlar. Kelinglar, to'rt funtga kelishaylig-u undan bir umrga qutulunglar. Bo'ptimi?

— Uch funt-u o'n shilling, — qat'iy takrorladi mister Limkins.

— Menga qaranglar, jentlmenlar, yana ustamasini ikkiga bo'lamiz, — taklif qildi Gemfild. — Uch funt-u o'n besh.

<sup>1</sup> Shilling — Angliyada funt sterlingning 1/20 ulushiga teng tanga pul. (Tarj.)

— Bir farting<sup>1</sup> ham qo'shmayman, — mister Limkinsning qat'iy ovozi yangradi.

— Meni juda qiynab qo' yasizlar-da, jentlmenlar, — bo'shashibroq dedi Gemfild.

— Be, qo'ysangiz-chi! Bema'ni gap! — dedi oq nimchali jentlmen. — U hech qanaqangi mukofot-u siylovsiz ham olsa arziydigan bola. Esi yo'q odam ekansiz-ku, olib ketaversangiz-chi uni! Bu juda siz-bop bola. Vaqt-vaqtida uni tayoq bilan siylab turish kerak — bu uning o'ziga foyda. Uni boqish qimmat tushmaydi, negaki tug'ilganidan beriga sira qorni to'yadigan ovqat berilmagan. Xa-xa-xa!

Mister Gemfild stol tevaragida o'tirganlarga ayyorona nigoh tashlarkan, ularning iljayotganlarini ko'rib, o'zi ham tirjayishga tushdi. Baylashish bitgandi. Mister Bamblga o'sha zahotiyuq, Oliver va uning hujjatlarini tasdiqlash hamda imzo chekish uchun shu bugunoq sudya huzuriga olib borish zarurligini aytdilar.

Ushbu qarorni ijro etmoqlik uchun Oliverni nihoyatda taajjubga solib, qamoqdan bo'shatishdi-da, toza ko'ylak kiyishni buyurishdi. Mutlaqo ko'nikilmagan jismoniy mashg'ulotni tugatar-tugatmasidan mister Bambl o'z qo'li bilan bir tovoq go'ja va bayram ulushi — ikki-yu chorak unsiya nonni ko'tarib kelib qoldi.

Bu kishini lol qoldiradigan manzarani ko'rgan Oliver zorlanib yig'lab yubordi: u, kengash meni birorta foydali maqsad yo'lida o'linga hukm etgan bo'lsa kerak — bunday o'ylashi batamom tabiiy edi — deb o'ylagandi, yo'qsa hech qachon qornini bunchalik to'yg'azib o'tirishmagan bo'lardi-da.

— Qo'y, yig'lama, Oliver, bo'lmasa ko'zlaring qizarib qoladi. Go'jangni ichgin-u shukr qil! — dedi mister Bambl nasihatomez va dabdabali ohangda. — Seni shogirdlikka berishmoqchi, Oliver.

— Shogirdlikka deysizmi, ser? — qaytarib so'radi bola qalt-qalt titrab.

— Shunday, Oliver, — dedi mister Bambl. — Ota bo'lib boshingni silayotgan saxovatli hamda muruvvatli jentlmenlar, Oliver (chunki o'zingning ota-onang yo'q), garchi bu qavmga uch funt-u o'n shillingga tushsa hamki, seni shogirdlikka berib, oyoqqa turg'azishmoqchi, odam qilishmoqchi. Uch funt-u o'n shilling-a, Oliver! Yetmish shilling... bir yuz qirqta olti penslig-a! Shuncha mablag'ni hech kim yoq-tirmaydigan bitta yaramas yetimchani deb sarflashyapti-ya!

Dag'dag'ali ovoz bilan shu so'zlarni aytayotgan mister Bambl nasasini rostlab olmoq uchun to'xtaganida sho'rpesiona bolaning yuzini shashqator yosh yuva boshladi-yu, birdan ho'ng'rab yig'lab yubordi.

<sup>1</sup> Farting — chorak pens. (Tarj.)

— Qo'y, bas, — dedi mister Bambl endi dabdabali ohangini o'zgartirib, aslida esa o'zining notiqligi qanday ta'sir etayotganini ko'rish xush yoqayotgandi. — Bas qil, Oliver! Kamzulingning yengi bilan ko'zingni art, tag'in ko'z yoshing go'jaga tushmasin. Bu ishing sirayam aqldan emas, Oliver.

Darhaqiqat, bu aqldan emasdi, negaki go'ja shundoq ham sersuv edi.

Sudya huzuriga ketayotib mister Bambl Oliverga u yerga borganlarida o'zini baxtiyor qilib ko'rsatishi va kekxa jentlmen, shogird tushishni xohlaysanmi, deb so'raganida, judayam xohlayman, deya javob qilishini uqtirdi. Oliver bu har ikkala ko'rsatmani ham bajarishga so'z berdi, zotan mister Bambl mahodo buyurganlarining birortasini bajarmaydigan bo'lsa boshiga qanday kunlar tushishini muloyimgina shama kilib o'tgandi. Sudyaning huzuriga yetib kelgach, mister Bambl uning yolg'iz o'zini katalakdek xonaga kiritib qo'ydi-da, o'zi kirib olib ketmagunicha shu yerda qimirlamay kutishni buyurdi.

Bolakay yuragi gurs-gurs tepgancha yarim soatcha kutdi. Oradan hozir qayd etganimizcha fursat o'tgach, mister Bambl eshikdan bosh suqib qaradi-da (bu gal boshini bejab turadigan uch qirra shlyapasi yo'q edi), baland ovoq bilan dedi:

— Oliver, azizim, yura qol, jentlmenlar huzuriga. — Shu so'zlarni aytarkan, mister Bamblning qosh-qovog'i uyulib, basharasi tahlakali tus oldi va shivirlab qo'shib qo'ydi: — Yaramas bola, tayinlagan gaplarim yodingda bo'lsin-a!

Uning muomalasi bunday o'zgarib turgani bolani chalg'itib qo'yyotgan edi, shu bois Oliver soddalik bilan mister Bamblning aftiga qaradi, biroq vajohatli jentlmen biron nima deyishiga ham qo'ymay, shu zamonog uni eshigi ochiq turgan yonginadagi xonaga yetakladi.

Bu derazasi katta, keng-kovul xona edi. Baland yozuv stoli ortida sochlariga upa sepgan ikki kekxa jentlmen o'tirishibdi; biri gazeta o'qimoqda, gardishi toshbaqa kosasidan yasalgan ko'zoynak taqqan ikkinchisi oldidagi bir parcha moyqog'ozdagi yozuvni ko'zdan kechirmoqda. Baland stolning bir yonida, sal oldinroqda, mister Limkins, aft-basharasini naridan-beri yuvib olgan mister Gemfeld esa ikkinchi yonida turishibdi; atrofda esa qo'nji uzun etikli nusqi qo'pol ikki-uch kishi g'ivirsib yurishibdi.

Ko'zoynakli kekxa jentlmen yozuvga tikilib o'tirgan yerida axiyri mudrab ketdi, buning oqibatida mister Bambl Oliveri yozuv stoli qarshisiga turg'azib qo'rganidan keyin ham oraga cho'mgan sukunat bir necha daqiqaga cho'zildi.

— Mana o'sha bola, taqsir, — dedi mister Bambl.

Gazeta o'qiyotgan keksa jentlmen birrov boshini ko'tardi-da, yonidagi keksa jentlmenning yengidan tortib qo'ygan edi, unisi ko'zini ochdi.

— O', bu o'sha bolami? — ming'illadi keksa jentlmen.

— Xuddi o'zi, ser, — javob qildi mister Bambl. — Azizim, sudya janoblariga ta'zim qil.\*

Oliver oldin bir seskanib tushib, keyin ikki bukilib ta'zim bajo keltirdi. U hakamlarning upa sepilgan sochlariga razm solarkan, nahotki kengash a'zolarining hammasi mana shunaqangi boshida oppoq un bilan tug'ilib, shuning uchun ham to'g'ridan-to'g'ri kengash a'zosi bo'lib olishsa, deb bosh qotira boshladi hayron qolib.

— Xo'sh-sh, — dedi keksa jentlmen, — o'ylaymanki, mo'ri tozalovchilik kasbi yoqsa kerag-a unga?

— Es-hushi shunda, muhtaram janob, — javob berdi Bambl va yo'q, deb og'iz ocha ko'rmagin-a, degan ma'noda Oliveri zimdan chimdib qo'ydi.

— Binobarin, u mo'ri tozalovchi bo'lmoqchi ekan-da, shundoqmi? — so'radi keksa jentlmen.

— Mabodo biz ertadan boshlab birorta boshqa kasb-korga o'rgatishni xayol qiladigan bo'lsak, bu o'sha zahotiyoy qochib qolishi turgan gap edi, janoblari, — javob qaytardi Bambl.

— Xo'sh, bu kishi, uning bo'lajak xo'jasi... siz, ser... siz u bilan yaxshi muomalada bo'lasiz... uni boqasiz... va shu kabilar, to'g'rimasmi, ser? — dedi keksa jentlmen.

— Rostki, men shunday qilaman dedimmi, bas, shunday qilaman, — deya javob berdi mister Gemfild qovog'ini uyib.

— Picha qo'polroq so'zlar ekansiz, birodar, illo vijdonli, sofdil odam ko'rinasiz nazdimda, — dedi keksa jentlmen ko'zoynagini Oliver uchun tayinlangan mukofotni olajak nomzodga to'g'rilar ekan.

Bu nomzodning jirkanch turqida chindan ham uning shafqatsiz odam ekanidan dalolat beruvchi toshbag'irlik muhri — tamg'asi aks etib turardi. Biroq sudya keksalikdan ko'zlari xiralashib, yosh boladay bo'lib qolgandi, shu tufaylidan ham undan boshqalar ko'rib turgan narsani payqashni kutish ehtimoldan uzoq edi.

— Shundoq bo'lsa kerak degan umiddamai, ser, — dedi mister Gemfild razilona irshayib.

— Bunga zarracha shubham yo'q, birodari aziz, — deb qo'ydi keksa jentlmen ko'zoynagini burniga mahkamroq o'rnashtirib, dovot izlab u yoq-bu yoqqa alanglarkan.

Bu — Oliverning hayotidagi hal etuvchi daqiqa edi. Basharti, dovot keksa jentlmen taxmin qilgan joyda bo'lganida, u patqalamni siyohga botirardi-yu, qog'ozga imzo chekardi — ana unda Oliveri oyog'ini yerga tekkizmay olib ketishlari aniq edi. Lekin dovot

hakamning shundoqqina burni ostida turganidan, ma'lumingizkim, butun stol ustini izlab chiqib ham uni topolmadi va izlashini davom ettirarkan, banogoh to'g'risiga qarab qoldi, shunda nigohi Oliver Twistning rangi o'chgan, kapalagi uchgan yuziga tushdi. Bolla Bamblning ogohlantiruvchi o'qrayishlari-yu o'ymalashlariga parvo qilmay, o'zining bo'lajak xo'jasining jirkanch basharasiga shunchalar oshkora qo'rquv va dahshat ichra tikildiki, buni hatto shabko'r hakam ham payqamay qolmadi.

Keksa jentlmen bir oz hayallab, patqalamni topdi-da, nigohini Oliverdan uzib, o'zini beparvo, ham bemalol tutishga tirishib, bir chimdim tamaki olgan mister Limkinsga qadadi.

— Bo'tam! — dedi keksa jentlmen yozuv stoli uzra engashib qarab.

Oliver bu so'zni eshitib seskanib ketdi. Buning uchun uni afv etsa bo'lardi, chunki ovoz erkalovchi, muloyim eshtilgandi, notanish tovush esa odamlarni cho'chitadi. Uning butun a'zoyi badanida titroq turdi-yu, ko'zlaridan yosh yumaladi.

— Bo'tam, — takrorladi keksa jentlmen, — ranging oqarib, bezovta bo'lib qolding. Nima gap o'zi?

— Undan sal nariroq turing, bidl... — dedi ikkinchi hakam gazetani qo'yib, qiziqsinib olg'a engashar ekan. — Ana endi, bolakay, qani bizga aytib berchi nima gapligini. Qo'rqma, aytaver.

Oliver tiz cho'kdi-da, qo'llarini ko'ksida chalishtirgancha, o'zini yana o'sha qorong'i xonaga qaytarib yuborishlarini... ochdan tirishtirishlarini... kaltaklashlarini... istahsa, o'ldirishlarini, ammo bu qo'rqinchli odamga berib yubormasliklarini tavallo qila boshladi...

— Shunaqa degin-a! — dedi mister Bambl bag'oyat dabdabali qiyofada qo'llarini ko'kka cho'zib, ko'zlarini samoga tikkancha. — Hali shunaqa degin! Umrin bino bo'lib ko'rgan ayyor-u dog'uli yetimlar ichida sen, Oliver, eng surbet-u bezbeti ekansan.

— Tilingizni tiying, bidl, — dedi ikkinchi keksa jentlmen mister Bambl ushbu tumtaroqli ta'rif-u tavsifni aytib bo'lgach.

— Afv etgaysiz, taqsim, — dedi mister Bambl o'z quloqlariga ishonmay. — Janoblari kaminaga murojaat etyaptilarmi?

— Ha. Tilingizni tiyib turing.

Mister Bambl taajjuhda serrayib qoldi. Bidlga tilini tiyib turishni buyursalar-a! Oxir zamon yetibdi chog'i!

Ko'zoynakli keksa jentlmen hamkasabasiga qaradi. Kasabasi ma'nodor qilib bosh iring'adi.

— Biz bu shartnomani tasdiqlashdan bosh tortamiz, — deb moyqog'oz parchasini olib, chetroqqa tashladi.

— U... umid... — deb yamlanib gasp boshladi mister Limkins, — umid qilamankim, bolaning hech bir asossiz guvohligiga tayanib,

hakamlar go'yo qavm ma'murlari biron nojo'ya xatti-harakatda aybdor degan xulosaga kelmaslar.

— Hakamlar bu masala yuzasidan biron-bir hukm-u xulosa chiqarishga majbur emaslar, — dedi ikkinchi kekxa jentlmen keskin ohangda. — Bolani mehnat uyiga qaytarib olib boringlar-da, unga yaxshi muomala qilinglar. Chog'imda, bu narsaga muhtoj u.

O'sha kuni oqshomdayoq oq nimchali jentlmen mutlaqo qat'iyat bilan, Oliver nafaqat osiladigina emas, balki ustamasiga uni qatlgohga surgab borib, to'rt pora qiladilar, dedi. Mister Bambl mahzun va sirli bir tarzda boshini sarak-sarak qilib, oxiri baxayr bo'lsin-da, deb qo'ydi, shundan so'ng mister Gemfild, ishqilib qo'limga kirsin-da, deya tilak tiladi; garchi mister Gemfild deyarli har bir narsada qavm bidlining fikriga qo'shilayotgan bo'lsa hamki, u, aftidan, bunday istakni bildirar ekan, bidl bilan fikrlari butunlay ayrichaligini namoyish etdi.

Ertasiga ertalab jamoatga yana Oliver Twist shogirdlikka berilajagi va uni olish ixtiyorini bildirgan odamga besh funt to'lanajagi ma'lum qilindi.

---

---

#### IV BOB. OLIVERGA BO'LAK JOYNI TAKLIF ETADILAR, SHUNDAY QILIB U ILK BORA TIRIKLIK MAYDONIGA QADAM QO'YADI

Basharti, asilzoda xonadon namoyandasi bo'lmish o'g'lonni hadyana noma yoxud vasiqaga binoan biron qulay va manfaatli lavozim ila ta'min eta olmasalar, uni dengiz safariga yo'llash odat tusiga kirgan. Kengash a'zolari shundayin oqilona hamda xaloskorona taomildan ibrat olib, Oliver Tvistni sog'liqning zavoli bo'lgan biror ajoyib bandargoh sari safarga otlangan mo'jazgina tijorat kemasida jo'natib yuborilgani maqbul emasmikan, degan fikrni mulohaza-yu munozara qilishga tushdilar. Undan qutulishning jamiki usuli-yu choralari ichida xuddi ana shunisi eng a'losi bo'lib tuyulardi: ehtimolki biror kuni fe'li aynib turgan yoxud xushkayf darg'a tushlikdan so'ng uni o'lasini qilishga savalar yoki temir misrang bilan boshini urib yorar; unisi ham, bunisi ham shu toifadagi jentlmenlarning yoqtiradigan va kundalik ermaklari ekanligi ko'pchilikka ayon edi. Kengash a'zolari bu holni yuqorida zikr etilgan nuqtayi nazardan qanchalik chuqurroq va kengroq mushohada etganlari sayin qarshilarida o'ylagan rejalari-ning rang-barang afzallik jihatlari shunchalik ko'proq namoyon bo'la bordi; xullasi kalom, Oliverga lutf-u karam ko'rsatishning birdan-bir usuli — uni darhol dengiz safariga jo'natish, degan to'xtamga keldilar.

Shunday qilib, ular tanish-bilishi yo'q, kayut-yunga kerak biror darg'ani izlab topish niyatida mister Bamblni so'rab-surishtirgani jo'natdilar. Mister Bambl zimmasiga yuklangan bu topshiriqning natijalari borasida axborot hermoq uchun mehnat uyiga qaytayotib, ittifoqo darvoza oldida mister Sauerberi — qavm tobutsozini uchratib qoldi.

Eski qora kamzul, xuddi o'shanday qora, yamoq ip paypoq bilan qora boshmoq kiygan mister Sauerberi baland bo'yli, qotma, suya-gi buzuq odam bo'lib, tabiatan turqi-tarovati tabassum uchun yaratilmagan edi-yu, lekin umuman olganda, kasbi koriga xos quvnoqlik ham begona emasdi unga. U yengil odim tashlab mister Bamblga yaqinlasharkan, chehrasida chinakam mamnuniyat aks etdi va bidl bilan samimiy qo'l olishdi.

— Mister Bambl, bugun tunda ko'z yumgan ikki ayolni o'lchab kelyapman, — dedi tobutsoz.

— Xullasi, boylik to'plab yotibsiz-da, mister Sauerberi, — javob qildi bidl hosh hamda shahodat barmog'ini tobutsoz tutgan tamakidonga suqarkan; bu mahorat bilan yasalgan kichkinagina tobut nusxasi edi. — Sizni ishontirib aytamanki, siz boylik orttirib yotibsiz, mister Sauerberi, xuddi shundoq! — takrorladi mister Bambl hassasi bilan tobutsozning yelkasiga do'stona qoqib qo'yarkan.

— Shunday deb o'ylaysizmi? — deya javob qildi tobutsoz, go'yo u shunday ekanini ham tan olayotgan va ayni chog'da ham rad etayotganday bir ohangda. — Qavm kengashi narxni judayam past belgilagan-da, mister Bambl.

— Qo'ying-e, tobutlaringiz ham katta emas-ku unaqangi... — javob berdi bidl, o'zi kabi e'tiborli lavozimdagi shaxsgagina munosib tarzda jilmayib.

Mister Sauerberiga bu nihoyatda yoqib tushdi (bunisi mutlaqo tushunarli edi) va u uzoq, qotib-qotib kuldi.

— Nimayam derdim, mister Bambl, — dedi u nihoyat, — yangi ovqatlanish tartibi o'rnatilganidan beri tobutlarim ilgarigilariga qaraganda sal torroq va sayozroq bo'layotganini inkor qilishimni o'rniyam, imkoniyam yo'q. Lokiniga, mister Bambl, biz ham foyda ko'rishimiz kerak-ku, axir! Yaxshilab quritilib, chiniqtirilgan taxta-yog'och arzonmas, ser, temir tutqichlarni bo'lsa Birmingemdan kanal orqali jo'natishadi.

— Shundoqlikka shundog'-a, — dedi mister Bambl, — har bir kasbni o'ziga yarasha sarf-xarajati bor. Albatta, halol foyda ko'rishga ijozat etiladi.

— Albatta-da! — tasdiqladi tobutsoz. — Mabodo men u yoki bu jihatdan foyda ko'rolmayotgan bo'lsam nimayam derdim, bari bir pirovardida hissasini chiqarib olaman, hi-hi-hi!

— Ha, barakalla, — dedi mister Bambl.

— Lokigin bir narsani aytib qo'yay... — deya so'zini davom ettirdi tobutsoz bidl bo'lib qo'ygan o'y-xayollariga qaytib, — bir narsani aytib qo'yay, mister Bambl, bitta juda mushkul tomoni bor. Bilasizmi, ba'zida to'la odamlar o'lib turishadi. O'ziga to'q va talay yillar davomida soliqlarni to'lab kelganlar mehnat uyiga tushib qolishganda hammadan oldinroq o'lishadi. Shunday qilib, ijozatingiz bilan aytsam, mister Bambl, lozim bo'lganidan ortiqcha ishlatiladigan uch-to'rt enlikkina taxta hazilakam zarar emas, ser, ayniqsa oilali odamga.

Mister Sauerberi bu so'zlarni ranjitilgan odam singari alamzadalik bilan (batamom kechirarli hol edi bu) aytdi va ushbu so'zlar zamirida qavm sha'niga teguvchi nomunosib shama yashirinib yotganini payqagan mister Bambl gapni boshqa yoqqa burib yuborishni lozim

topdi. Uning fikr-yodi Oliver Twist bilan band edi, shu boisdan ham o'shandan og'iz ochdi.

— Darvoqe, — dedi mister Bambl, — bolakay kerak bo'lgan biror kimsani bilmaysizmi? Shu kunlarda qavmning yelkasiga ortiqcha yuk bo'lib turgan shogird bolakay bor edi, menga qolsa, uni qavmning yelkasiga ortilgan tegirmon tosh derdim... Shartlari qulay, mister Sauerberi, ha, shartlari juda qulay.

Mister Bambl shunday deya hassasi bilan tobutsozning tepasida osig'lig' turgan e'lonni ko'rsatdi-da, romancha alifboda o'qlovday-o'qlovday qilib yozilgan «besh funt» degan joyini uch marta taqillatib urib qo'ydi.

— Yo Tangrim-a! — xitob qildi tobutsoz mister Bambl shinelining zarhal uqali yoqasidan ushlab. — O'zim ham siz bilan xuddi shu to'g'risida gaplashmoqchiydim-da! Bilasizmi... Yo Parvardigor, tug-mangiz qanday chiroyli-ya, mister Bambl! Shu paytgacha e'tibor bermagan ekanman-a.

— Ha, menimcha ham chakkimas, — deb qo'ydi bidl shinelini bezab turgan yirik-yirik jez tugmalarga g'ururlanib ko'z tashlab qo'yar ekan. — Bulargayam qavm muhridagi surat: bemor va daronisiz odamga tabobatdan madad ko'rsatayotgan tabib tasviri tushirilgan. Qavm kengashi bu shinelni menga, mister Sauerberi, Yangi yilga tortiq qilgan. Esimda, uni birinchi marta yarim kechada eshigi oldida o'lib qolgan anavi singan savdogarning ishi yuzasidan olib borilgan tergovda qatnashgani borganimda kiygandim.

— Ha, ha, esimda, — dedi tobutsoz. — Maslahatchilar: «Sovuq va hayotini saqlab qolish uchun eng zaruriy narsalari yo'qligi tufayli-dan o'lgan», deb hukm chiqarishgan edi, to'g'rimasmi?

Mister Bambl bosh irg'adi.

— O'shanda ular yana go'yoki maxsus hukm chiqarishgandiki, — so'zini davom ettirdi tobutsoz, — qo'shimcha qilib, haligi, bordi-yu, kambag'allarni nazorat qiluvchi amaldor\*...

— Bo'lmag'ur gap! Safsata! — uning gapini bo'ldi bidl. — Kengash agar o'sha nodon maslahatchilarning bema'ni, ahmoqona gaplariga quloq soladigan bo'lsa, unda boshi-yu qulog'igacha ishga ko'milib yotardi.

— G'irt haqiqatni aytdingiz, — qo'shilishdi tobutsoz, — boshi-gacha botib yotardi.

— Maslahatchilar, — va'zxonligini davom ettirdi mister Bambl asosini mahkam siqimlab, uning jahli chiqqanda shunday qiladigan odati bor edi, — maslahatchilar johil, pastkash, jirkanch, yaramas nuxxalar!

— To'ppa-to'g'ri, — tasdiqladi tobutsoz.

— Falsafa hamda siyosiy iqtisod bobida hech baloning fahmiga bormaydi ular! — dedi bidl, nafrat-la barmoqlarini shiqirlatib.

— Xuddi shundoq, — ta'kidladi tobutsoz.

— Ulardan hazar qilaman! — dedi bidl qizarib-bo'g'riqib.

— Men ham, — qo'shib qo'ydi tobutsoz.

— Qani endi o'sha maslahatchilar bir-ikki haftagina bizning uyimizga tushib qolishsa, — dedi bidl. — Kengash joriy etgan qo'ida va tartiblar darrovgina ko'zlarini ochib, popuklarini pasaytirib qo'yardi-ya.

— Keling, tinch qo'ya turaylik o'shalarni, — dedi tobutsoz.

Shu so'zlarni aytarkan, u jazavaga tushgan qavm xizmatchisining g'azabini jilovlash niyatida iljayib qo'ydi.

Mister Bambl uch qirra qalpog'ini yechdi, uning qaytarmasi qatidagi ro'molchasini olib — achchig'i kelganidan peshonasini ter bosgandi — manglayini artdi, keyin qalpog'ini yana kiydi-da, tobutsozga yuzlanib, xiyla bosiq ohangda dedi:

— Xo'sh, bola xususida nima deysiz?

— O', bilasizmi, mister Bambl, — javob berdi tobutsoz, — qashshoqlar manfaati yo'lida ozmuncha soliq to'lamayman.

— Hm! — deb qo'ydi mister Bambl. — Xo'sh, u yog'i-chi?

— U yog'imi, mana bunday, — javob qildi tobutsoz, — o'ylaymanki, basharti qashshoqlarning manfaati uchun shuncha soliq to'layotgan ekanman, unda, bundan chiqadiki, ulardan iloji boricha ko'proq naf chiqarib olishga haq-huquqim bor, mister Bambl. Shu... shu... shundoq ekan, nazdimda, o'sha bolakayni o'zim ola qolay deyman.

Shunda mister Bambl tobutsozni qo'ltig'idan olib, ichkariga boshladi. Mister Sauerberi kengash a'zolari bilan besh-olti daqiqa mobaynida kelishib-bitishdi va Oliver shu kuni kechqurunoq unika «sinovga» boradigan bo'ldi. Bu bitimga muvofiq qavm shogirdi masalasida quyidagicha kelishib olingandi: agar xo'jayin sinov muddati davomida, bolakayning qornini to'ydirishning unchalik tashvishini chekmay, uni tuzukkina ishlashga majbur eta olishiga ishonch hosil qilsa, u chog'da xo'jayin bolani ma'lum bir muddatga o'z ixtiyorida qoldirish va undan istaganicha foydalanish huquqiga ega bo'ladi.

O'sha kuni oqshom mitti Oliverni yana «jentlmenlar» huzuriga olib kirib, shu bugundan boshlaboq uning tobutsoz xizmatiga borajagini, mabodo o'z ahvoli sharoitidan shikoyat qilishni yoki qachondir qavm uyiga qaytishni xayoliga keltiradigan bo'lsa, dengiz safariga jo'natajklari yoxud urib po'la qilajaklarini aytishganda Oliver xiyolgina hayajonlandi, buni ko'rib hammalari bir og'izdan, ikki

dunyoda o'nglanmaydigan yaramas bola ekan, deb tan berishib, mister Bamblga uni tezda tobutsoznikiga olib borishni buyurdilar.

Kimning tomonidan bo'lmasin, zarracha beparvolik va loqaydlik asorati namoyon etilsa, boshqa har qanday odamdan ko'ra ko'proq kengash a'zolarining beqiyos taajjub hamda dahshatga tushishlari mutlaqo tabiiy edi, biroq mazkur holatda ular picha yanglishgandilar. Gap shundaki, Oliver aslo hissiz-u loqayd emasdi; balki u hatto haddan ziyod ta'sirchanligi bilan ajralib turar edi, ammo u hadeb qo'pol muomala qilaverilgani oqibatida bir umrga tund, to'porilik va g'ambodalig-u hazinlik tuzog'iga ilinay-ilinay deb turardi. O'zining qanday xizmatga jo'natilayotganiga churq etmay quloq osib turdi, bor bisotini ko'tarib — buni ko'tarib borish unchalik qiyin emasdi, negaki buyumlari narsa o'raydigan qalin qog'ozdan tikilgan mo'jazzgina xaltaga jo bo'lgandi — qalpog'ini ko'zigacha bostirib kiydi-da, mister Bamblning qaytarma yengidan ushlagancha, ushbu mansabdor shaxs bilan birgalikda yangi qiyog'-u iztiroblar maskani sari jo'nadi.

Oldiniga mister Bambl Oliverga e'tibor ham qilmay, hech qanday tanbeh ham bermay yetaklab boraverdi, zotan u bidlga xos tarzda boshini g'oz tutib odimlayotgandi, shamol esib turgani sababli esa zarrin uqali nimchasi bilan kalta jigarrang ishtonini ko'z-ko'z qilib shamolda hilpirayotgan shinelining bari jimitdakkina Oliverni batamom to'sib qo'yayotgan edi. Biroq tayinlangan joyga yaqinlashar ekanlar, mister Bambl pastga nazar tashlab, bolakayning yangi xo'jayini ko'rsa ko'rgundek bir qiyofada ketayotganiga qanoat hosil qilishni zarur deb topdi; basharasiga xayrixohona hamda homiyona tus berib, shunday qildi ham.

— Oliver! — dedi mister Bambl.

— Labbay, ser! — sekingina, titroq ovoz bilan javob berdi Oliver.

— Qalpoqni balandroq suring, ser, boshingizni ham ko'taring!

Garchi Oliver shu zahotiyog buyruqni ado etgan va bo'sh qo'li bilan ko'zini siypab qo'ygan bo'lsa-da, boshini ko'tarib yo'l boshlovchisiga qaraganida ko'zlarida yosh miltilladi. Mister Bambl Oliverga o'qrayib qo'ydi, biroq bolaning yonog'idan yosh yumaladi. Ketidan yana bitta tomchi, so'ng tag'in bitta. Bola ko'z yoshini tiyishga chandon urinmasin, nafi bo'lmadi. U mister Bamblidan qo'lini bo'shatib oldi-da, ikki qo'llab aftini bekitib, yig'lab yubordi, yoshlari bo'lsa iyagi bilan qoqsuyak barmoqlari orasidan sizib chiqa boshladi.

— Hali shunaqami! — hayqirdi mister Bambl to'xtab, shogirdiga xo'mrayib qararkan. — Shunaqa degin! Umrin bino bo'lib ko'rgan eng nonko'r, eng buzuq bolalar orasida sen, Oliver, eng yaramasi...

— Yo'q, yo'q, ser! — xitob qildi Oliver piqillab, o'ziga yaxshi tanish hassani tutib turgan qo'lga yopishgancha. — Kerakmas, ser! Men

tuzalaman, rost aytyapman, tuzalaman, ser! Men hali juda kichkina-man, ser, keyin haligidaqa, haligidaqa...

— Xo'sh, qanaqa — haligidaqa? — so'radi mister Bambl ajablanib.

— Haligidaqa... yoppa-yolg'izman, ser. Judayam yolg'iz! — taval-lo qildi bolakay. — Meni hamma yomon ko'radi. Jo-on, ser, mendan jahlingiz chiqmasin!

Bolakay qo'lini ko'ksiga qo'yib, ko'zlarida chinakam alam sitib chiqargan yoshlar halqalanib, javdirab hamrohining betiga tikildi.

Mister Bambl Oliverning iltijoli va nochorona nigohini bir qadar hayrat-la qarshi oldi, uch-to'rt marta xir-xir yo'talib qo'ydi-da, bu «jonga tegadigan yo'tal» xususida allanimalar deb g'o'ldiragach, Oliverga ko'z yoshini quritish va yaxshi bola bo'lishni buyurdi. Keyin u yana bolaning qo'lidan yetaklagan ko'yi yo'liga ravona bo'ldi.

Mister Bambl kirib borganida hozirgina do'koni darchalarini yop-gan tobutsoz ushbu maskanga g'oyatda yopishib tushgan xira sham yorug'ida kirim-chiqim daftariga nimalarnidir bitmoqda edi.

— E-ha! — dedi tobutsoz yozuvini chala qoldirib, daftardan boshini ko'tarar ekan. — Bu o'zlarimi, Bambl?

— Xuddi o'zlari-da, mister Sauerberi, — javob qaytardi bidl. — Mana! Bolakayni o'zlariga olib keldim.

Oliver ta'zim qildi.

— Bu o'sha bolakaymi? — so'radi tobutsoz Oliverni tuzukroq ko'rish uchun shamni boshi uzra ko'tarib. — Missis Sauerberi, bara-ka topgur, bu yoqqa birrovgina kirgin-a, azizim.

Do'konning orqa tomonidagi katalakdekkina hujradan missis Sauerberi chiqib keldi. Bu past bo'yli, so'lg'in, burnidan zahar tomib turadigan qoqsuyak ayol edi.

— Jonginam, — dedi mister Sauerberi takalluf-la, — bu hali men senga aytgan mehnat uyidagi o'sha bola.

Oliver yana bir bor ta'zim bajo keltirdi.

— Voy xudoyim-ey! — xitob qildi tobutsozning ayoli. — Jimitdak-kinaligini qara-ya!

— Ha, bo'yi xiyla pastroq, — uning gapiga qo'shildi mister Bam-bl, Oliverga bo'yi o'smay qolganiga go'yo uning o'zi aybdorday bir qiyofada o'qrayib. — U chindan ham kichkina. Buni inkor etib bo'lmaydi. Lekin hali o'sadi, missis Sauerberi, bo'yiga o'sadi u.

— Nimasini aytasiz, bo'lmasam-chi! — deya jahl bilan javob qay-tardi xonim. — Bizning nonimizni tuya qilib o'sadi. Qavm bola-laridan biron manfaat ko'rishga sirayam ko'zim yetmaydi: ulovidan tushovi qimmat deganlariday, ularning o'zlaridan ko'ra yemishlari qimmat tushadi. Lekin erkaklar hamisha o'zlarini bizdan ko'ra aqlli-roq, deb o'ylashadi... Qani, pastga tusha qol, bir qop so'ngakvoy!

Tobutsozning xotini shunday deb biqin tomondagi eshikni ochdi-da, Oliverni sahniga tosh yotqizilgan, ko'mir saqlanadigan qaznoqning dahlizi vazifasini o'tovchi, oshxona deb ataluvchi, zax va zimiston yerto'laga olib tushadigan tik zina tomon itarib yubordi; bu yerda ust-boshi kir-chir, oyog'ida titig'i chiqqan boshmoq va yirtiq-yamoq zangori jun paypoq kiygan bir qiz o'tirardi.

— Sharlott, — dedi Oliverning ketidan tushib kelgan missis Sauerberi, — Tripga olib qo'yan yaxna go'shtning qolgan-qutganini manavi bolaga bering. Trip ertalabdan beri uyda qorasini ko'rsatgani yo'q, busiz ham bir amallar. Ishonamanki, bu bola uni yemayman deyidigan inijlardan emas... To'g'rimi, bolakay?

«Go'sht» deganini eshitganida Oliverning ko'zlari chaqnab, uni tezroq yeyish ishtiyoqida vujudi titrab ketdi-yu, «ha», deya javob qildi, shundan so'ng uning oldiga qolgan-qutgan ovqat solingan taqsimchani qo'yishdi.

Istardimki, biron-bir qorni to'q, boquvi zo'r, me'dasida et bilan sharob qo'shilib safroga aylanuvchi, qoni muz yanglig' sovuq, yuragi esa tosh-metin biror faylasuf, istardimki, ana o'shanday odam hatto it ham hazar qiladigan laziz taomga Oliver Twistning tashlanganini bir ko'rsa! Istardimki, dahshatli ochlik azobi sillasini quritgan Oliverning qandayin ochko'zlik bilan etni tilka-pora qilayotganining shohidi bo'lsa! Xuddi shunday taomni o'sha faylasufning xuddi mana shunday huzur bilan yeyayotganini ko'rishni esa chandon bora ko'proq istardim.

— Xo'sh, qalay? — so'radi tobutsozning xotini Oliver kechki ovqatni tugatgach; u nafasi ichiga tushib, bolaning ishtahasi qanday karnay bo'lib ketishini oldindan tasavvur qilib, vahimaga tushib g'iq etmay kuzatayotgandi. — Yeb bo'ldingmi?

Oliver yaqin atrofda tishga bosgulik hech nimani ko'rmagach, ha, deya bosh irg'adi.

— Bo'lmasa orqamdan yur, — dedi iflos, xira chiroqni ko'tarib, zinadan chiqa boshlagan missis Sauerberi. — Peshtaxta tagida yotasan. Tobutlar orasida uxlolsang kerag-a? Aytmoqchi, uxlayolasanmi yo uxlayolmaysanmi — buning ahamiyati yo'q, chunki boshqa sen yotadigan joyning o'zi yo'q. Yura qol! Men bu yerda tun bo'yi qololmayman-ku, axir!

Oliver ortiq hayallamay, itoatkorlik bilan yangi bekasi ortidan yo'naldi.

---

V BOB.      OLIVERNING HAMKASABA O'RTOQLARI BILAN  
TANISHUVI VA ILK BORA DAFN MAROSIMIDA  
QATNASHIB, O'Z XO'JAYININING KASBI HAQIDA  
NOXUSH XULOSAGA KELISHI

Tobutsozning do'konida yolg'iz qolgach, Oliver chiroqni moslama-dastgoh ustiga qo'ydi-da, o'zidan yoshi xiyla kattaroq odamlarga yaxshi oshno bo'lgan ehtirom va qo'rquv tuyg'usi bilan tevaragiga alangladi. Do'konning o'rtasidagi qora chorpoya ustida turgan chala tobut ko'ziga shunchalar mudhish hamda vahimali ko'rindiki, bu sovuq narsaga tikilarkan, Oliverning yuragi muz tortib, eti jimirlab ketdi: nazarida qandaydir dahshatli jasad hozir asta boshini ko'taradi-yu, o'zi bo'lsa qo'rquvdan aqlidan ozib qoladiganday tuyuldi. Devor tagiga tobut yasaladigan qayrag'och taxtalari hafsala bilan, risoladagiday qilib terib-taxlab qo'yilibdi; g'ira-shira yorug'da ular qo'lini cho'ntagiga tiqib olganicha, bukchayib turgan ajina-arvohlarga o'xshab ketardi. Yerda tobutlarning belgi-yozuvlari, taxta qirindilari, yaltiroq qalpoqli mixlar va qora matoning parcha-purchalari ayqash-uyqash sochilib yotibdi, peshtaxta orqasidagi devorni esa rasm bezab turibdi; rasmda to'rtta qorabayir qo'shilgan katafalk<sup>1</sup> kelib to'xtayotgan uyning eshigi oldida qotirib ohorlangan galstukli ikki nafar soqov yig'ichi-go'yanda tasvirlangandi. Do'kon issiq va dim edi. Chamasi, havoni tobut hidi tutib ketganday edi. Poxol to'shak tashlab qo'yilgan peshtaxta ostidagi joy xuddi go'rga o'xshab ketardi.

Oliverni ezayotgan narsa nafaqat ushbu manzara-vaziyat edi. U notanish joyda yolg'iz qolgandi, bundayin shart-sharoitda esa har birimiz ham o'zimizni qanchalik bekas-u g'arib hamda bebaxt his etajagimiz barchamizga ayondir. Bolakayning apoq-chapoq do'sti yo'q edi. Bir faslgina muqaddam boshiga tushgan judolikdan o'kinmasdi, zero juda-juda ko'rgisi keladigan qadrdon, yaqin kishisi yo'q edi-da. Ammo, shunga qaramay, ko'ngli g'ash tortgan, xomush edi; shu boisdan ham u tor-u tanqis o'rniga joylashar ekan, ushbu o'rni tobut bo'lib qolishini, qimir etmay, tosh qotib uyquga ketgan o'zini esa o't-o'lanlar mayin shitirlaydigan, ko'hna qo'ng'iroqning jarangi allalaydigan qabristonga eltib ko'mishlarini istab qoldi.

Ertalab Oliver do'kon eshigi gurs-gurs tepilgan ovozdan uyg'onib ketdi; to u apil-tapil kiyinguncha shiddatli tepki ovozi yigirma besh

---

<sup>1</sup> Katafalk — murdani mozorga olib boradigan arava. (Tarj.)

martacha takrorlandi. U eshik zanjirini tushirayotganda eshikni tepkilayotgan oyoq tiyilib:

— Oching, eshityapsizmi? — deya oyoq egasining baqirgan ovozi eshitildi.

— Hozir ochaman, ser, — dedi Oliver zanjirni tushirib, kalitni burar ekan.

— Sen yangi bola bo'lsang kerag-a? — so'radi o'sha ovoz qulf teshigidan.

— Ha, ser, — javob berdi Oliver.

— Yoshing nechada? — surishtirdi ovoz.

— O'nda, ser, — javob qaytardi Oliver.

— Ichkariga kiray, bir ta'ziringni bermasammi, — dedi o'sha ovoz, — shoshmay tur, qavmning ko'ppakchasi!

Ana shunda iltifotli va'da ketidan hushtak eshitildi.

Oliverni bot-bot hozirgina tilga olingan ma'nodor so'z ifoda etguvchi «siylovga» musharraf etib turar edilar, shu sababdan ham u ovoz egasining o'z tahdidini astoydil ado etishiga zarracha shubhalanmadi. U qo'llari qaltirab lo'kidonni surdi-da, eshikni ochdi.

Oliver qulf teshigi orqali o'zi bilan gaplashgan notanish odamni sovqotmaslik uchun yurib turgan bo'lsa kerak deb o'ylab, bir yoxud ikki lahzagina ko'chani ko'zdan kechirdi, o'ngga qaradi, keyin so'lga. Gap shundaki, u qarshisida, uy oldidagi ustunchaga o'tirib olib, qo'lidagi qalamtarosh bilan non va moyni naq og'ziga mos qilib kesib, og'ziga epchillik bilan tashlagancha kavshanib o'tirgan naynov yetimxona bolasidan bo'lak hech zog'ni ko'rmayotgan edi.

— Kechirasiz, ser, — dedi Oliver boshqa hech kim yo'qligiga ishonch hosil qilib, — siz taqillatdingizmi?

— Oyog'im bilan tepkiladim, — javob berdi yetimxonalik bola.

— Tobut kerakmidi, ser? — so'radi Oliver soddadillik bilan.

Bu so'zlarni eshitib yetimxonalik bolaning avzoyi dag'dag'ali tus olib, agar o'zidan kattalarga shunaqangi hazil qiladigan bo'lsa, tez orada Oliverning o'ziga tobut kerak bo'lishini aytdi.

— Qavm itvachchasi, mening kimligimni bilasanmi o'zing? — dag'dag'asini davom ettirdi yetimxonalik bola vajohat-la ustunchadan turarkan.

— Bilmayman, ser, — javob berdi Oliver.

— Men mister Noe Kleypol, bo'laman, — dedi yetimxona boqimandasi, — sen bo'lsang mening qo'l ostimdasan. Darchalarni och, ishyoqmas gazanda!

Shu so'zlar jo'rligida mister Kleypol Oliverni tepki bilan siylab, izzat-e'tiborini bir pog'ona balandlatadigan tarzda savlat to'kib do'konga kirib keldi. Har qancha uringanida ham bu kallador,

ko'zlari jimit, to'qimtabiat, befarosat turqli yigitchaning salobatli qiyofaga kirishi mushkul edi, buning ustiga zikr etilgan husnga qip-qizil burni va kalta sap-sariq ishtoni qo'shilsa, bu amrimahol edi.

Oliver daricha qopqoqlarini oldi va ularni kunduzi chiqarib qo'yiladigan uyning orqa tomonidagi hovliga tashimoqchi bo'ldi, biroq birinchi qopqoqni ko'tarishdayoq og'irligidan galdirab ketdi-yu, deraza oynasini sindirib yubordi, shundan keyin Noe «ta'ziringni yeysan» deb go'yoki taskin berdi-da, muruvvat ko'rsatib, unga yordamlashishga kirishdi. Hademay do'konga mister Sauerberi tushib keldi. Uning ketidan missis Sauerberi ko'rindi. Noe bashorat qilganidek, Oliverning «ta'zirini berishdi», so'ngra u nonushta qilgani yosh jentlmen bilan pastga tushdi.

— O'choqqa yaqinroq o'tiring, Noe, — dedi Sharlott. — Men sizga xojayinlarning nonushtaligidan — dudlangan to'shdan ajoyib bir bo'lagini olib qo'yanman... Oliver, mister Noe ketidan eshikni zichlab yopgin-da, anavi kastryulka qopqog'iga qoldiq ovqatlarni solib qo'yibman, olib ye. Mana senga choy. Uni yashik ustiga eltgin-da, o'sha yerda ich, tezroq qimirla, nega desang, hozir do'konga chaqirib qolishadi. Eshitdingmi?

— Eshityapsanmi, qavm ko'ppakchasi? — dedi Noe Kleypol.

— Voy xudoyim-ey! — dedi Sharlott. — Noe, juda g'alati yigitsiz-da! Bolani tinch qo'ysangiz bo'lmaydimi-ya?

— Tinch qo'y deng-a! — takrorladi Noe. — Shundoq ham uni hamma tinch qo'yib qo'yibdi. Na otasi, na onasi hech qachon hech nimada xalaqit berishmaydi. Hamma urug'-aymoqlari, bilganingni qil, deb o'z holiga tashlab qo'yishgan. To'g'rimasmi, Sharlott? Hi-hi-hi!

— Juda g'alatisiz-da shunaqa! — xitob qildi Sharlott va xandon tashlab kula boshlagan edi, Noe ham jo'r bo'ldi unga.

So'ngra har ikkalalari yerto'laning burchagidagi yashikda qalt-qalt titrab, o'zi uchun ajratib qo'yilgan qo'lansa bo'yli ovqat qoldig'ini yeb o'tirgan Oliver Twistga irganib qarab qo'yishdi.

Noe mehnat uyida tug'ilgan yetim bola emas, bolalar uyidan chiqqan edi. U tashlandiq emasdi, zotan u yaqingina yerda turadigan ota-onasidan tortib yetti ota-bobosigacha sanab berishi mumkin edi; onasi kir yuvuvchi, otasi bo'lsa kuniga ikki yarim pens nafaqa tayinlangan, iste'foga chiqqan yog'ochoyoq piyonista askar edi. Noeni ko'chada uchratganlarida «teri ishton», «g'aribxonalik» va shunga o'xshagan laqab qo'yib, masxara qiladigan qiliq chiqarishgandi. Noe ham bunga churq etib qarshilik bildirmasdi. Ammo mana endi taqdir uning yo'liga hatto eng past, bir paqirga qimmat odam ham nafrat-la qo'lini bigiz qilib ko'rsatadigan tubsiz-nasabsiz yetimchani ko'ndalang qilgach, u butun alamini o'shandan ola boshladi.

Bu narsa tafakkur-u mushohadamiz uchun antiqa ozuqa beradi. Inson zotining fe'l-atvori qanchalik go'zal bo'la olishi va olihimmat lordda ham, eng iflos g'aribxona bolasida ham aynan bir xildagi xush fazilatlar taraqqiy eta olishining shohidi bo'lamiz.

Oliver tobutsoznikiga joylashganiga ham uch-to'rt hafta o'tgandi. Do'kon yopiq bo'lib, mister va missis Sauerberilar orqa tomondagi choqqina mehmonxonada kechki ovqatni tanovul qilib o'tirishgan edi. Shunda mister Sauerberi xotiniga ehtirom bilan nigoh tashlab qo'ygach:

— Azizam... — dedi.

U so'zini davom ettirmoqchi edi, biroq missis Sauerberi yoq-tirmay xo'mrayib qo'ygandi, nafasi ichiga tushib ketdi.

— Xo'sh? — so'radi missis Sauerberi to'rsillatib.

— Hech nima, jonginam, hech nima! — dedi mister Sauerberi.

— Uf, yaramas-e! — deb qo'ydi missis Sauerberi.

— Rostdan, hech gap yo'q, azizam, — yuvoshgina javob qaytar-di mister Sauerberi. — Jonginam, nazarimda quloq solishga hushing yo'q ko'rindi. Men faqat shuni...

— Ke, o'sha nima demoqchi bo'lganingni aytmay qo'ya qol, — gapini bo'ldi missis Sauerberi. — Men kim bo'libman; qo'y, baraka topkur, mendan maslahat so'ramay qo'ya qol. Sening sir-asroringni bilib olishni istamayman.

Shu so'zlarni aytarkan, missis Sauerberi telbalarcha asabiy qah-qah urdi, bu suhbat oqibati xunuk tugashidan dalolat edi.

— Lekiniga, jonginam, — dedi mister Sauerberi, — sen bilan maslahatlashmoqchiman.

— Yo'q, yo'q! Men bilan maslahatlashmay qo'ya qol! — dedi mis-sis Sauerberi zorlangannamo. — Boshqa birorta begonadan maslahat so'ra.

Shu payt yangitdan yangragan asabiy qahqaha mister Sauerbri-ning o'takasini yorib yubordi. Aksar holda istalgan samarani bera-digan, er bilan muomala qilish bobida juda keng tarqalgan ham-da tavsiya etiladigan tartib ana shunday. Bu hol mister Sauerberini darhol iltijoga o'tishga, missis Sauerberidan gapiga quloq solib, alohi-da iltifot ko'rsatishini o'tinib so'rashga undadi. Aslida esa xotining nima gap borligini bilgisi kelib, ichi qizib ketayotgan edi. Shunday qilib, oz bo'lmasa chorak kam bir soatga cho'zilgan «qisqagina» torti-shuvdan so'ng, u nihoyat ruxsat olish baxtiga muyassar bo'ldi.

— Gap yosh Tivist to'g'risida, jonginam, — dedi mister Sauerberi. — U judayam yoqimtoy bola, azizam.

— Bo'lmasam-chi, shuncha ovqat yegandan keyin yoqimtoy bo'lmay qayoqqa borardi! — luqma tashladi xonim.

— Chehrasi g'amgin, jonginam, — so'zini davom ettirdi mister Sauerberi, — bu uni judayam ta'sirli qilib ko'rsatadi... Undan, azizam, qoyilmaqom go'yanda chiqardi-da.

Missis Sauerberi unga oshkora hayrat-la tikilib qoldi. Mister Sauerberi buni payqab, saxovatli xonimning e'tiroz bildirishini kutib o'tirmay, so'zini davom ettirdi:

— Men kattalarning dafn marosimida qatnashadigan chinakam gung go'yanda to'g'risida emas, go'daklarning gung go'yandasi haqida gapiryapman, xolos, jonginam. Bo'y-basti shundoq gung go'yandamiz bo'lganida bormi, antiqa yangilik bo'lardi-da, jonim. Gapimga ishonaver, bu judayam ajoyib taassurot qoldiradi.

Gap dafn marosimi masalasiga taqalganida g'aroyib did-farosatini namoyon etadigan missis Sauerberi ushbu yangi fikrni eshitib lol qoldi; ammo ayni vaziyatda buni tan olish izzat-nafsini yerga urish degan gap edi, shu boisdan ham u eridan xiyla to'ng ohangda, nima uchun bu jo'ngina fikr xayolingga ilgariroq kelmagandi, deb so'rash bilan kifoyalandi, xolos.

Mister Sauerberi xotinining bu so'zlarini o'z taklifiga berilgan rozilik ekanini to'g'ri fahmladi. Shunday qilib, o'sha yerning o'zidayoq fursatni o'tkazmay, Oliverni bu kasb-korning jamiki sir-u asroridan voqif etishga ahd qildilar, toki u xizmatiga zarurat tug'ildi, deguncha xo'jasi bilan birgalikda yo'lga tushishga shay bo'lib tursin.

Bunday voqea kuttirib qo'ymadi. Ertasiga ertalab, nonushtadan so'ng yarim soatcha fursat o'tgach, do'konga mister Bambl kirib keldi, asosini peshtaxtaga suyab qo'yib, kattakon karmonini chiqardi-da, ichidan bir parcha qog'oz olib, mister Sauerberiga uzatdi.

— O'-ho'! — dedi tobutsoz qog'ozga ko'z tashlarkan, chiroyi ochilib. — Tobutga buyurtmami?

— Oldiniga tobut yasaysiz, keyin qavmda dafn marosimi bo'ladi, — javob berdi mister Bambl xuddi o'ziga o'xshagan tiqmachoqday karmonining tasmachasini mahkamroq tortayotib.

— Beytonmi? — dedi tobutsoz ko'zini qog'ozdan uzib, mister Bamblga qadar ekan. — Bunaqangi ismni sira eshitmagandim.

Bambl boshini sarak-sarak qilgan ko'yi javob qildi:

— Qaysar xalq ekan, mister Sauerberi, o'larday qaysar. Buning ustiga desangiz, takabbur ham deb cho'chib turibman.

— Takabbur dedingizmi? — xitob qildi tobutsoz tirjayib. — Buni-si endi ortiqcha-ku.

— Eh, qanchalik jirkanchli-ya! — javob qildi bidl. — Bu beodoblik, betavfiqlik, mister Sauerberi.

— Ayni haq gap, — uning gapiga qo'shildi tobutsoz.

— Bu oila to'g'risida o'tgan kuni kechqurungina eshitdik, — so'zini davom ettirdi bidl, — basharti o'sha uyda turadigan ayol qavm sho'basiga murojaat etib, bemorning ahvoli og'irligini aytib, qavm hakimini yuborishlarini iltimos qilmaganida hech nimani bilmas ham ekanmiz. Bu paytda hakim o'zi taklif qilingan tushlik ziyofatga ketgan ekan, shunda uning shogirdi (juda farosatli yigitcha-da) darrov bo'shagan etik moyi qutisiga allaqanday doridan solibdi-yu, ularga berib yuboribdi.

— Tezkorligini qarang, qoyil-e! — dedi tobutsoz.

— Balli, xuddi shundoq! — takrorladi bidl. — Lekiniga oqibati qanday bo'lgani, o'sha nonko'r isyonkor shakkoklar o'zlarini qanday tutishganini aytmay sizmi! Eri odam yuborib, bu dori uning xotini chalingan dardga davo bo'lmasligini va demakki, xotini buni ichmasligini aytiribdi. U buni ichmaydi, debdi-ya, ser! Bor-yo'g'i bir haftagina muqaddam ikki irland ishchi bilan ko'mir tashiydigan hammolga judayam kor qilgan o'tkir, foydali, ajoyib dorini-ya... O'sha dorini tekinga, bo'sh moy qutisida ikki qo'llab berib yuborishsa-yu, u bo'lsa, buni xotinim ichmaydi, deb noz qilsa-ya, ser!

Ushbu nonko'rona qilmishning dahshatli mohiyatini butunicha idrok etarkan, mister Bambl hassasi bilan peshtaxtani taraqlatib urdi va g'azabidan qizarib ketdi.

— O'! — dedi tobutsoz. — Xayolimga ikki dunyodayam...

— Ha-ha, ikki dunyodayam, ser, — xitob qildi bidl. — Hech qachon hech kimni xayoliga kelmasdi, deyavering! Lekin, mana endi bo'lsa, o'lganidan keyin uni biz dafn etishimiz kerak! Mana, qog'ozda turarjoyi ko'rsatilgan, qanchalik tezroq bajarilsa, shunchalik yaxshi.

Shunday deya mister Bambl hayajon xuruji zaptida uch qirra qalpog'ini teskari kiydi-yu, do'kondan shitob-la chiqib ketdi.

— Eh, Oliver, jahli chiqib, joni hiqildog'iga kelib turganidan hatto sen to'g'ringda so'rab-surishtirishni ham unutib qo'ydi, — dedi mister Sauerberi bidlning ortidan tikilgan ko'yi.

— Shunday, ser, — javob qaytardi suhbat davomida bidlning ko'ziga ko'rinmaslikka harakat qilgan Oliver, zotan mister Bamblning ovozi eslaganining o'zidayoq uning a'zoyi badani titray boshlardi.

Darvoqe, u mister Bamblning ko'ziga chalinmaslikka behuda urinardi, negaki oq nimchali jentlmenning karomati niho-yatda qattiq ta'sir etgan bu mansabdor shaxs endilikda, ya'ni tobutsoz Oliverni sinash uchun shogirdlikka olgan ekan, toki shartnoma bo'yicha bolakay yetti yillik muddatga uzil-kesil ustozi ixtiyoriga berib qo'yilmagunicha uning to'g'risida gap ochishdan tiyilib, bundan

uzoqroq yurgan maqbulroq, ana undan keyin esa, qonuniy tarzda, bir umrga bolakayning qavm qaramog'iga qaytish xavfi qolmaydi, deb o'ylardi.

— Juda soz! — deb qo'ydi mister Sauerberi shlyapasini olayotib. — Bu ish qanchalik tez tugasa, shunchalik yaxshi... Noe, do'konga ko'z-quloq bo'lib tur... Oliver, qalpog'ingni kiyib, orqamdan yur.

Oliver itoat etib, o'z vazifasini ado etgani yo'lga tushgan xo'jasiga ergashdi.

Oldiniga ular shaharning eng gavjum hamda aholisi zich dahalarini oralab borishdi, keyin hozirgina o'tib kelgan ko'chalaridan chandon bora iflos va xarob tor ko'chaga burilib to'xtashdi-da, bu yoqqa kelishdan murodlari bo'lmish uyni izlab alanglay boshlashdi. Ko'channing ikki betidagi uylar katta-katta va baland, biroq nihoyatda ko'hna bo'lib, ularda qashshoqlar turishardi: uylarning iflos darvozaxonalari bundan yetarlicha shohidlik berib turardi, qo'llarini ko'ksida chalishtirgancha yoxud naq ikki bukilgudek egilib, pisibgina ko'chadan o'tib borayotgan bir necha erkak va ayollarning qonsiz, so'lg'in yuzlarini ko'rganda bu xulosani tasdiqlash uchun o'zga isbot-u dalillarga hojat qolmasdi. Binolarda bir vaqtlar do'konlar bo'lgan, lekin ular hozir taqa-taq yopib, mixlab tashlangan, asta-sekin buzilib-yemirilib borayotgandi, faqat ikkinchi qavatlaridagina odam turar edi. Vaqt o'tishi va qarovsizlikdan xarobasi chiqqan ba'zi uylarning devoriga qulab tushmasin, deb bir uchi tosh ko'cha chetiga ko'milgan yo'g'on-yo'g'on xarilar tirab qo'yilibdi. Aftidan, hatto ana shu xaroba uylar ham boshpanasiz qashshoqlarga tungi yotoq xizmatini o'tardi, zotan eshik hamda derazalarga qoqilgan randalanmagan taxtalardan u yer-bu yerdagisi odam kirsam bo'ladigan qilib qo'porib tashlangan edi. Yo'l chekkasidagi ariqlardagi suv iflos va bij'ib ketgandi. Hatto ana shu axlat ichida yotgan kalamushlar ham hassaga tayangudek edi.

Oliver o'z xo'jasi bilan to'xtagan ochiq eshikning na qo'ng'irog'iyu, na bolg'achasi bor edi. Tobutsoz Oliverga: «Keyinda qolma, qo'rqma», deya dalda berganicha, paypaslana-paypaslana, ehtiyotkorlik bilan zimiston yo'lakdan ikkinchi qavatga ko'tarildi. Zina maydonchasiga qaragan eshikka ro'para bo'lib, uni barmoqlarining ko'zi bilan tiqillatdi.

Eshikni o'n uch-o'n to'rt yoshlardagi qizcha ochdi. Tobutsoz ichkariga ko'zi tushar-tushmas, xuddi shu yerga yuborilganini fahmladi. U ichkari kirdi, ketidan Oliver ostona hatladi.

O'choqda o't yo'q edi, lekin bir odam bukchayib, odaticha sovuq o'choq oldida o'tirardi. Uning yonginasida, pastak kursini o't yoqilmagan pech-o'choqqa yaqinroq surib, bir kampir o'tiribdi.

Narigi burchakda juldurvoqi bolalar uymalashishyapti, eshikning ro'parasidagi kichkinagina taxmonda ustiga eski ko'rpa tashlangan bir nima yotibdi. Oliver o'sha yoqqa ko'z tashlarkan, titrab ketdi-yu, beixtiyor xo'jasining pinjiga qisindi; garchi o'sha narsaning usti yopib qo'yilgan bo'lsa-da, buning murda ekaniga aqli yetgandi.

Erkakning eti ustixoniga yopishgan, tusi za'faronday edi: soch-soqoli oppoq, ko'zlariga qon quyilgan. Kampirning afti ajin to'ridan burishib-tirishib ketgan; omon qolgan ikki tishi pastki labini turtib chiqib, so'ljayib turibdi, o'tkir ko'zlari bo'lsa yiltillaydi. Oliverning na kampirga, na erkakka qarashga yuragi dov berardi. Har ikkalasi ham u ko'chada ko'rgan kalamushlarga o'xshab ketardi.

— Hech kimni yo'latmayman unga! — darg'azab bo'kirdi erkak urnidan sapchib turib, tobutsoz tomon yura boshlaganda. — Yaqinlashmang! Ming la'nat hammalaringga, agar joningiz aziz bo'lsa yaqinlasha ko'rmang!

— Bema'ni gap, birodar! — dedi ming bir xil g'am-qayg'uni ko'raverib eti qotib ketgan tobutsoz. — Safsata!

— Menga qarang! — qichqirdi erkak mushtini tugib, jazavada yerni depsib. — Quloq soling! Men uni yerga ko'mdirmayman. U yerda orom olib yotolmaydi: qurt-qumursqalar xalal beradi unga... Ular tanasini mijib-kemirolmaydilar, shunchalik quruq cho'p bo'lib qolgan.

Bu telbalarcha aljirashlarga tobutsoz og'iz ochib javob qilmadi; cho'ntagidan o'lachagich gazini olib, marhuma qarshisida cho'k tushdi.

— E-voh! — erkak nido solgancha, ko'zlaridan shashqator yosh to'kib, murdaning oyoqlariga o'zini tashladi. — Uning oldida tiz cho'kinglar, hammalaring, so'zlarim yodlaringda bo'lsin! Bilib qo'yinglar, uni ochlikdan o'ldirishdi! To isitmasi xuruj qilmaguncha ahvoli bunchalik og'ir ekanidan bexabar edim. Suyaklari sanalib qolganini ana shundan keyingina bildim. Na o'choqda milt etgan o'ti, na yilt etgan shami boriydi. U zulmatda jon berdi — zulmatda! U hatto bolalarining diydorini ko'rolmadi, ularning otini atab chaqirganini o'z qulog'imiz bilan eshitib turdig-a, ha, bolalari yuzini ko'rolmay o'ldi. Uni deb men tilanchilik qildim, meni bo'lsa avaxtaga tiqishdi. Qaytib kelganimda joni uzilib bo'lgan ekan, ko'rib qutim uchdi, yuragim zardobga to'ldi, negaki uni ochdan o'ldirgan edilar. Buni ko'rib-bilib turgan Tangri nomini shafe keltirib ont ichaman — uni ochlikdan xarob qildilar.

U sochlarini yulgancha dod solib, yerda dumalay ketdi; ko'zlari bir nuqtada qotib, lablarida ko'pik ko'rindi.

O'takasi yorilgan bolalar chuvvos yig'iga tushdilar, biroq shu paytgacha atrofida nimalar bo'layotganini go'yoki eshitmayotgandek sas-sadosiz o'tirgan kampir po'pisa bilan ularning ovozi o'chirdi.

U hanuz yerda cho'zilib yotgan erkakning galstugini yechib qo'ydi-da, galdiragan ko'yi tobutsozga yaqinlashdi.

— Bu qizim bo'ladi, — dedi kampir tentagona bir qiyofada ko'z qisib, boshi bilan marhuma tomonga ishora qilib, uning bu imo-ishorasi hozir bo'lganlarga murdaning basharasidan ko'ra dahshatliroq ta'sir qildi. — Ey Rabbim, ey Yaratgan egam! Qanday karomat bu! Buni men tuqqanman, o'shanda yoshgina juvon edim, mana hozir ham shodon va soppa-sog'man, u bo'lsa muzdek tosh qotib yotibdi! Ey Xudoyim, karamingni ko'rib yoqangni ushlaysan: xuddi tomosha, ha, naq tomoshaning o'zginasi-ya!

Ushbu ayanchli xilqat toki etni junjtgudek shodonlikka berilib, yamlanib, ming'irlab hiringlar ekan, tobutsoz ishini bitirib, eshikka qarab yurdi.

— Shoshmang! — dedi kampir hirqirab. — Qachon ko'mishadi uni — ertagami, indingami yoki bugun kechqurunmi? Uni ko'mishga tayyorlab, o'zim yuvib-tarab, o'zim kiyintirdim, bilsangiz, tobut ortida ham o'zim borishim kerak. Menga kattaroq yopinchiq berib yuboring — qalin, issiqroq bo'lsin, havo savil ham izillatib turibdi. Yo'lga tushishdan oldin bo'lsa somsa yeb, musallas ham ichishimiz kerak-ku! Hah mayli! Non berib yuboring — ko'mach bilan ko'zada suv... Jon bolam, non yuborasizmi? — sabrsizlik bilan so'radi kampir tobutsoz yana eshikka qarab yura boshlaganida uning paltosini changallab.

— Xo'p, xo'p, — dedi tobutsoz. — Albatta. Nimaniki istasangiz, hammasi muhayyo bo'ladi-da!

U yulqinib kampirning changalidan xalos bo'ldi-yu, Oliverni yetaklaganicha shosha-pisha chiqib ketdi.

Ertasi kuni (bu borada marhumaning oilasiga yordam ko'rsatilgan, mister Bambl ikki funt non bilan bir bo'lak pishloqni o'z qo'li bilan eltib bergandi). Oliver xo'jasi bilan g'aribona boshpanaga kirib kelganida tobutni ko'tarib borish uchun mehnat uyidan to'rt kishini boshlab kelgan mister Bambl shu yerda ekan. Kampir bilan kechagi erkak chuvrindi kiyimlari ustidan ilvirab turgan yopinchiqlarni tashlab olishdi, keyin, ustiga hech qanday mato sirilmagan tobutning qopqog'ini mixlashlari bilanoq tobutkashlar tobutni yelkalariga oldilar-u ko'chaga olib chiqdilar.

— Ana endi ildamroq qadam tashlang, xonim afandi, — deya kampirning qulog'iga shivirladi mister Sauerberi. — Kechikyapmiz, kashishni kuttirib qo'yish yaxshimas. Qani olg'a, yigitlar, tezroq qimir-langlar!

Ana shunday buyruqdan so'ng tobut ko'targanlar yep-yengil yukni lipillatgancha yo'rg'alay ketishdi, marhumani kuzatuvchi ikki aza-

dor esa kuchlari boricha ulardan ortda qolib ketmaslikka urinishardi. Mister Bambl bilan Sauerberi oldinda shaxdam odimlar, oyog'i xo'jasinikidan xiyla kalta bo'lgan Oliver esa yon tomonda chopqillab borar edi.

Darvoqe, mister Sauerberi taxminining aksicha, shoshilishning hojati yo'q ekan, zotan ular qabristonning qavm uchun ajratilgan tashlandiq, qichitqi o't bilan qoplangan xilxonasiga yetib kelishganda ruhoniylar ko'rinmasdi, cherkov buyumlari saqlanadigan ombordagi kamin oldida o'tirgan klerk<sup>1</sup>, u biror soatlardan keyin kelishi ham mumkin, deb aytdi. Shu sababli tobutni qabr chekkasiga qo'yishdi, ikkala azador esa simillab yog'ayotgan muzdek yomg'ir ostida, botqoqda tikka turgan ko'yi sabr-toqat bilan kuta boshlashdi, qabristonga bo'lajak tomoshani ko'rgani kelgan juldur bolakaylar esa shovqin-suron solib qabr toshlari orasida bekinmachoq o'yinini boshlab yuborishdi, keyin yangicha ermak topib, tobut ustidan sakrashga tushishdi. Mister Sauerberi va Bamblar klerk bilan kamin oldida gazeta o'qib o'tirishdi.

Nihoyat, biror soatlar o'tgach, mister Bambl, Sauerberi va klerklar paydo bo'lib, qabr tomonga chopib kelaverishdi. Tezda ular ketidan ruhoniylar ko'rindi, u yo'lakay jubbasini kiyib kelardi. Keyin mister Bambl odob saqlashga undab ikki-uch bolakayni kaltakladi, ruhoniylar esa to'rt daqiqa ichida janozani yumaloq-yostiqlik qildi-yu, jubbasini klerkka tutqazib, yo'lga ravona bo'ldi.

— Qani, Bill, — dedi Sauerberi go'rkovga, — tuproqni tortavering.

Bu unchalik qiyin ish emasdi: qabrga talaygina tobut ustma-ust qo'yilganidan eng tepadagi tobut bilan yer yuzasining oralig'i atigi bir necha futgina kelardi. Go'rkov hash-pash deguncha go'rga tuproqni tortib bo'lib, ustidan tepkiladi-da, belkuragini yelkasiga qo'yib, tomosha birpasda tugab qolganiga achinib shovqin sola boshlagan bolakaylarni ergashtirib jo'navordi.

— Bora qoling, birodar, — dedi Bambl, marhumani kuzatib kelgan erkakning kiftiga qoqib. — Hozir mozariston darvozasini berkitib qo'yishadi.

Qabr chekkasiga qadam qo'yganidan beriga qilt etmay qotib turgan erkak seskanib tushdi, boshini ko'tarib, o'ziga gapirayotgan kishiga qaradi, keyin bir necha odim tashladi-yu, behush bo'lib guppa quladi. Dardi-dunyosi yopinchiqlik bilan band bo'lgan telba kampir (yopinchiqlikni egnidan tobutsoz allaqachon yechib olgandi) shu topda erkakka e'tibor beradigan holatda emasdi.

<sup>1</sup> Klerk — biror mahkama xizmatchisi. (Tarj.)

Shu boisdan ham unga krujkada muzdek suv sepishdi, koʻzini ochgach esa, eson-omon qabristondan yetaklab olib chiqib qoʻyishdi, soʻngra darvozani qulflab, har tarafga tarqab ketishdi.

— Xoʻsh, Oliver, qalay, bu ishlar yoqdimi senga? — soʻradi Sauerberi uyga qaytishda.

— Tuzuk, minnatdorman sizdan, ser, — javob qildi Oliver botininqiramayroq. — Unchalik emas, ser.

— Vaqt-soati bilan koʻnikib ketasan, Oliver, — dedi Sauerberi. — Oʻrganib ketganingdan keyin parvo ham qilmay qoʻyasan.

Oliverning mister Sauerberidan, oʻzingiz to koʻnikkuningizcha koʻp vaqt oʻtganmi, deb soʻragisi kelib turgandi-yu, biroq bu savolni bermay qoʻya qolganim maqbul, degan qarorga keldi va doʻkonga yetgunicha jamiki koʻrgan hamda eshitgan narsalari toʻgʻrisida mulohaza yuritib bordi.

---

---

VI BOB. NOENING MASXARALASHLARI JONIGA TEKKAN  
OLIVER AMALIY HARA-KATGA O'TIB, UNI  
G'OYATDA HAYRATGA SOLGANI

Bir oylik sinov muddati tugab, Oliver rasman shogirdlikka qabul etildi. Bu paytda yilning kasalliklar quturadigan ajoyib pallasi edi. Tijorat-u savdo tilida so'zlaydigan bo'lsak, tobutning bozori chaqqon edi, shu sababdan Oliver bir necha hafta orasida katta tajriba orttirdi. Mister Sauerberining ayyorona rejasi u orzu qilganidan ko'ra xiyla ortiqroq muvaffaqiyatli chiqdi. Qizamiqning bunchalik quturgani va go'daklar yostig'ini bunchalik quritganini qari-qartanglar ham eslolmadilar; tasmasining uchi tizzasiga tushib turadigan shlyapa kiygan mitti Oliver, shahardagi jamiki onalar qalbini kuydirib, ularni ta'rifga sig'maydigan bir tarzda hayratga solib, ana shu motam marosimlarining boshida bo'ldi. Shuningdek, Oliver risoladagidek benuqson, tobutsoz uchun non-u suvdek zarur bo'lgan, qanday vazmin-u bosiq qiyofaga kirish va o'zini qanday tutish san'atini egallamoqlik niyatida xo'jasi bilan birga kattalarning dafn marosimida ham qatnashib turardi, shu sababli u ba'zi metin irodali kimsalarning judolik va g'am-anduh sinovlariga qandayin itoatkorlik hamda sabot-matonat bilan dosh berayotgan hollarini ozmuncha kuzatmadi.

Mana masalan, Sauerberi birorta behisob jiyan-u jiyanchalari qurshovida bo'lgan keksa badavlat xonim yoxud jentlmenning dafn marosimi uchun buyurtma oldi deng. Bemor dard azobini chekib yotgan butun kasallik davomida chinakamiga qayg'urgan va hatto begonalar ko'zi oldida ham beqiyos g'am chekkan xuddi o'sha xonimlar o'z davralari orasida o'zlarini juda yaxshi his qilishadi, go'yoki oromlarini buzadigan hech gap sodir bo'lmagandek, o'zaro sho'x-shodon suhbat qurishar ekan, o'zlarini nihoyatda beg'am-u beparvo tutishadi. Erkaklar ham o'z rafiqalaridan judo bo'lishdek g'amga mardona xotirjamlik ila chidaydilar. O'z navbatida xotinlari erlariga aza tutib, qora kiyar ekanlar, ushbu motam libosida nafaqat g'am chekib, kuyunmaydilargina emas, balki xuddi aza libosining bejirim-u nafis bo'lishi va o'zlariga yarashishi tashvishini qilayotganga o'xshaydilar. Shuningdek, yana dafn marosimi paytida qattiq iztirob chekkan xonimlar va jentlmenlarning uyga qaytishlari bilanoq o'zlariga kelishlarini hamda choy ichish marosimi nihoyasiga yetmayoq butunlay xotirjam tortib qolishlarini ham payqash mushkul emasdi. Bularning



barining shohidi bo'lish bag'oyat ko'ngilli va ibratli edikim, Oliver ushbu hangomalarni zo'r zavq-shavq-la kuzatar edi.

Garchi kamina Oliverning tarjimai holini bitguvchi mirzo bo'lsam hamki, go'yo o'shanday saxovatli odamlarning ibratini uni taqdirga tan berishga o'rgatdi, deya ma'lum darajada appa-aning tasdiqlayolmayman, biroq shu narsani uzil-kesil ayta olamankim, u talaygina oylar mobaynida Noe Kleypolning masxaralashlari-yu xo'rlashlariga itoatkorlik bilan toqat qilib keldi; zotan o'zidek eski shogird boyagi-boyagidek shapkasini chakkasiga dol qo'ndirib, teri ishton kiyib yurgan bir paytda yangi shogirdning qora hassachayu tasmali shlyapaga ega bo'lishi hasad uyg'otgandi unda. Sharlottning Oliver bilan munosabati yomon edi, negaki unga nisbatan Noening munosabati yomon edi-da, missis Sauerberi esa hanuz uning ashaddiy g'animi bo'lib qolavergan edi, chunki mister Sauerberi bola bilan do'stlashishga tayyor edi; qisqasi, bir tarafdin ana shu to'rt kimsa, bir tarafdin son-sanoqsiz dafn marosimlari orasida qolgan Oliver o'zini pivopazlikda yanglishib don omboriga qamab qo'yilgan och cho'chqa misoli huzur-halovatda his etmayotgan edi chog'i.

Ana endi kamina Oliver tarixining eng muhim lavhasini ta'riflashga o'tadilar, zero kaminaning oldilarida, garchand tagi puch hamda ahamiyatsiz ko'rinsa-da, bolaning butun ishlari-yu istiqboldagi umid-orzularini tubdan o'zgartib yuboradigan voqeani so'zlab bermoq vazifasi turibdi.

Kunlardan bir kuni Oliver bilan Noe odatdagidek tushlik paytida qo'y etidan tanovul qilgani pastga — oshxonaga tushishdi, bu eng xudo urgan, bir yarim funt keladigan et parchasi edi. Ayni paytda, Sharlottni oshxonadan chaqirib qolishgan edi, och, jahli chiqib turgan Noe Kleypol bu qisqagina muddatdan foydalanib kichkina Oliver Twistning jig'iga tegib, unga azob berib huzurlanishga ahd qildi.

Noe o'zi o'ylagan ana shu jo'ngina ermakni boshlash xayolida oyog'ini dasturxon yozig'liq stolga qo'yib, Oliverning sochidan tortdi, qulog'ini cho'zg'iladi va unga «yaltoq, xushomadgo'ysan» dedi; keyin qachon bo'lmasin bir kun kelib uni dorga tortishlarini ko'rib lazzatlanish istagi borligini aytdi, yana tag'in yetimxonadan chiqqan o'taketgan yovuz niyat hamda buzuqi boladangina kutish mumkin bo'lgan achchiq-tiziq, qo'lansa gaplarni qatorlashtirib tashladi. Biroq bu masxaralashlaridan birontasi kutgan mo'ljaliga tegmagach — Oliverni yig'lata olmagach — Noe yanada zaharroq gaplar bilan achitishga urinib, o'zidan ko'ra ancha-muncha ko'proq dong taratgan pastkash askiyabozlar birovdan kulishni istaganlarida to hozirgi kungacha qo'llab keladigan usulga o'tdi. U shaxsiyatga tega boshladi.

— Qavm ko'ppakvachchasi, — dedi Noe, — onangning ahvoli qalay?

— U o'lgan, — javob berdi Oliver. — U to'g'risida gapirmang.

Shunday derkan, Oliver qizarib ketdi, entikib-entikib nafas olib, labi va burun kataklari g'alati bir tarzda pirpirab ucha boshladi, ana shu alomatlar mister Kleypolning fikricha shaksiz ho'ngrab yig'lab yuborishning dalolati edi. Xuddi ana shunday o'y ta'sirotida bo'lgan Noe yana ishg'a kirishdi.

— Nimadan o'lgan u, qavm ko'ppakvachchasi? — so'radi Noe.

— Qari enagalarning aytishicha, yuragi yorilishidan, — dedi Oliver, Noening savoliga javob qaytarishdan ko'ra ko'proq ovoz chiqarib o'ylayotgan bir qiyofada. — Nazarimda, yuragi yorilib o'lish qanaqa bo'lishiga aqlim yetib turibdi!

— Voy seni qara-yu, qavm ko'ppakvachchasi! — xitob qildi Noe Oliverning yonoqlaridan yosh yumalarkan. — Nima ko'zingdan yosh chiqarib yubordi?

— Yosh chiqargan siz emas, — javob berdi Oliver, shosha-pisha yoshlarini artib. — Gerdaymay qo'ya qoling!

— Hali shunaqami, menmasmi? — jig'iga tegdi Noe.

— Shunaqa, siz emas! — ters javob qildi Oliver. — Endi bo'ldi. Oyimlar to'g'risida og'zingizni ocha ko'rmang. Yaxshisi butunlay gapirmang!

— Yaxshisi butunlay gapirmangmish-a! — deya hayqirdi Noe. — Hali shunaqami! Yaxshisi, butunlay gapirmang de! Voy qavm ko'ppakvachchasi-ey, juda surbet ekansan-ku! Onangmi, juda qoyil xotin bo'lgan ekan-da, nimasini aytasan! Yo Tangrim-a!

Shunda Noe ma'nodor qilib bosh irg'ab qo'ydi-da, mittigina qip-qizil burnini jiyirdi.

— Bilasanmi, qavm ko'ppakchasi, — Oliverning indamay turishidan dadillanib, masxaraomuz, yasama hamdardlik ohangida gapira boshladi, — hozir buni tuzatib bo'lmasligini bilasanmi o'zing, ey qavm ko'ppakvachchasi, keyin o'sha paytdayam sen yordam berolmasding bari bir, bundan judayam xafaman-da. Turgan gap, hammamiz, xafamiz, senga judayam achinamiz. Lekin sen, qavm ko'ppakvachchasi, onang g'irt fohisha bo'lganini bilishing kerak-ku, axir.

— Nima dedingiz? — seskanib tushib, qaytarib so'radi Oliver.

— G'irt fohisha bo'lgan, bildingmi, qavm ko'ppakvachchasi, — deya takrorladi Noe sovuqqonlik bilan. — Innaykeyin, hoy qavm ko'ppakvachchasi, o'sha paytda o'lib ketgani yaxshi bo'lganini bilasanmi, yo'qsa Brayduel\*da og'ir ishni bajarishiga yoki okean ortiga jo'nashiga, yo dorda lapanglab yotishiga to'g'ri kelardi, hammasidan aniqrog'i — oxirgisi bo'lardi-yov!

G'azabdan qizarib-bo'zargan Oliver sapchib turib, stol bilan stulni ag'darib yubordi-yu, Noening bo'g'ziga chang solib, uni shunday silkiladiki, askiyabozning tishlari taraklab ketdi, keyin bor kuchini mushtiga to'plab, bir tushirishda oyog'ini osmondan keltirdi-qo'ydi.

Bir soniyagina muqaddam mazkur bolakay yuvosh, mo'mintoy, urib-so'kishlar ezib qo'ygan bir g'arib-u bechoraday tuyulardi. Biroq uning ruhi-kayfiyati nihoyat junbisha keldi: marhuma onasi sha'niga aytilgan achchiq haqoratlar uning qonini qizdirib yubordi. Ko'ksi yuqori ko'tarildi; butun gavdasini rostladi; ko'zlari yonardi; oyoqlari ostida g'ujanak bo'lib yotgan qo'rqqoq sitamgari tepasida ko'zlari g'azab-la chaqnab, shu topgacha ayon bermagan qat'iyat-la olishuvga chorlab turar ekan, u butunlay o'zgarib qolgandi.

— Meni o'ldirib qo'yadi bu! — deya bo'kirdi Noe. — Hoy, Sharlott! Bekajon! Yangi shogird meni o'ldirmoqchi! Yordam beringlar! Yordam beringlar! Oliver jinni bo'p qoldi! Hoy, Sharlott!

Noening faryodiga javoban Sharlott dod soldi, missis Sauerberi undan ham balandroq bo'kirdi; qiz oshxonaga biqin eshikdan otilib kirdi, beka bo'lsa toki pastga tushsa inson hayotiga zarracha xavf tahdid solmayotganiga ishonch hosil qilmagunicha zinada turib qoldi.

— Voy yaramas! — chiyilladi, Sharlott, taxminan o'zini yaxshi tarbiyat qilgan baquvvat erkakning quvvatiga teng keladigan bor kuchini to'plab, Oliverga yopishgancha. — Boy nonko'r jinqarcha-ey, qon-n-xo'r, jirkanch yaramas-ey!

Har bo'g'in-u har so'z orasida, Sharlott Oliverga jon-jahdi-la musht tushirar, butun jamoatga huzur baxsh etib, har urganida chiyillab qo'yardi.

Sharlottning mushti xiyla zalvorli edi, ammo quturib ketgan Oliverni yuvoshlantirish uchun mushtning o'zi kamlik qilmasa edi degan xavfda missis Sauerberi oshxonaga otilib tushdi-yu, bir qo'li bilan Oliverni ushlab, ikkinchisi bilan uning aftini yumdalagancha, Noening o'zini o'nglab olishiga yordamlashdi. Ishning o'z foydasiga ko'chganini ko'rib Noe yerdan turdi-da, Oliverning kuragiga mushtlay ketdi.

Bunday g'ayrat-u shijoat ko'rsatishda ushbu mashg'ulot ko'pga bormasdi-yov. Darhaqiqat, ular kuchdan tolib, do'pposlash va yumdalashdan charchab, hadeb baqirib-chaqirib yulqinayotgan, lekin tirnoqcha hayiqmagan Oliverni surgab borib, qaznoqqa qamashdi. Bu ish tugagach, missis Sauerberi o'zini kresloga tashladi-yu, yig'lab yubordi.

— Voy xudoyim-a, o'lib qoladi beka! — xitob qildi Sharlott. — Noe, jonginam, bir stakan suv bering! Tezroq!

— Oʻ, Sharlott! — dedi missis Sauerberi havo yetishmayotgani, Noe boshi va kiftidan muzdek suv quyib yuborganiga qaramay dona-dona qilib gapirishga tirishib. — Oʻ, Sharlott, baxtimizdan oʻrgilayki, hammamizni yotgan joyimizda boʻgʻizlab tashlamaganini ayting-a!

— Boʻlmasam-chi! Bu — baxtimiz, missis, — tasdiqladi uni-si. — Ishonamanki, bu xoʻjayinga saboq boʻladi, bundan buyon tugʻilganidayoq peshonasiga qotillig-u talonchilik bitilgan bunaqan-gi razil nusxalarni ishga olmaydigan boʻladi. Bechora Noe! Men ki-rib kelganimda, missis, uning joni uzilay-uzilay deb qolgan ekan-a.

— Shoʻrlik! — dedi missis Sauerberi unga achinib qaragancha.

Nimchasining tepadagi tugmasi taxminan Oliverning boshiga toʻgʻri keladigan Noe, toki ayollar ana shunday hamdardona gaplarni aytar ekanlar, kaftlari bilan koʻzlarini ishqagancha, ayanchli piqillab turdi, koʻzidan zoʻrma-zoʻraki bir necha tomchi yosh chiqardi.

— Endi nima qildig-a! — xitob etdi missis Sauerberi. — Xoʻjayin uyda emas, boz ustiga uyda biron erkak zoti yoʻq, oʻn daqiqa oʻtar-oʻtmas anavi yaramas eshikni buzib chiqadi-ku bu yoqqa!

Oliverning hozirgina tilga olingan bir parchagina taxtani jon-jahdi bilan tepkilayotgani bamisoli bu taxminning nihoyat darajada rost-ga aylanishining dalolatiday tuyulardi.

— Voy xudoyim-ey! — dedi, Sharlott. — Nima qilishniyam bil-may qoldim, missis... Politsiyaga odam yuborsakmikan-a?

— Yoki askarlarga! — deya taklif qildi mister Kleypol.

— Yoʻq! — dedi missis Sauerberi Oliverning eski oshnasini es-lab. — Noe, mister Bamblning huzuriga yuguring, unga aytingki, bi-ron daqiqayam kechikmay bu yerga darrov yetib kelsin! Shapkangiz-ni qidirib vaqtini ketkazmang! Tezroq! Chopib keta turib, koʻkargan qovogʻingizga pichoqni yuzini bosib borsangiz boʻladi. Shishi qaytadi.

Noe javob qaytarib fursatni oʻtkazib oʻtirmadi-yu, oyogʻini qoʻliga olgancha yugura ketdi. Koʻchadagi olomon orasidan oʻziga yoʻl ochib, bosh yalang, buklama pichogʻini qovogʻiga bostirib ushlagancha cho-pib borayotgan gʻaribxona bolasini koʻrgan yoʻlovchilarning qanchalik taajjublanganlarini asti qoʻyaverasiz.

---

---

VII BOB.     OLIVER ISYONKORLIGINI DAVOM  
ETTIRGANI HAQIDA

Noe Kleypol o'pkasini qo'ltiqlagancha ko'chama-ko'cha yelib bo-rarkan, to mehnat uyi darvozasiga yetgunicha nafasini rostlab olgani aqalli biror marta ham to'xtamadi. Shu yerga yetib kelganida qiyofasi-ga nihoyatda o'takasi yorilayozgan hamda ayanchli-alamnok, yig'lagan tus berish niyatida bir nafasgagina hayallab turdi-da, keyin eshikni jon-jahdi-la taraqlatib, qashshoq cholga ko'ndalang bo'ldi; uning afti shunchalar hazin-u ayanchli ediki, bunga ko'zi tushganda hatto eshik-ni ochgan, dorilamon zamonlardan beri faqat alamli qiyofalarnigina ko'rib ko'zi o'rganib qolgan chol ham hayratda orqasiga tisarildi.

— Bolakay, nima bo'ldi o'zi? — so'radi qashshoq chol.

— Mister Bambl kerak! Mister Bambl! — deya yasama alamza-dalik va tushkunlik yaqqol sezilib turgan tashvishli ohangda qichqir-di Noe, uning ovozi tasodifan yaqin orada bo'lgan mister Bamblning qulog'iga yetib bordigina emas, shuningdek, uni sarosimaga solib qo'ydi-yu, uch qirra shlyapasini kiymayoq hovliga yugurib chiqdi — g'oyatda ajabtovur hamda shoyon diqqatga sazovor hol: bu nogahoniy va kuchli hayajon xuruji ta'sirida hatto bidllar ham vaqtinchalikka o'zini yo'qotib, o'z sha'n-obro'yini unutib qo'yishining shahodati edi.

— O' mister Bambl, o' ser! — qichqirdi Noe, — Oliver, ser... Oliver...

— Nima? Nima bo'ldi? — uning gapini bo'ldi mister Bambl, ko'zlari quvonchdan chaqnab. — Nahotki qochib ketgan bo'lsa? Na-hotki qochib ketdi u, Noe?

— Yo'q, ser! Qochib ketgani yo'q, ser! Yovuz ekan u! U meni o'ldirmoqchi bo'ldi, ser, keyin-chi, Sharlottni o'ldirmoqchi bo'ldi, keyin bekani. Shundoq azob berdi, shundoq qiynadiki, qo'yaverasiz, ser!

Shunday deya Noe Oliver Twistning vahshiyona va qonxo'rlarcha tajovuzi butun ichak-chovog'ini ezib yuborib, chidab bo'lmas dara-jada azob berayotganini mister Bambl ko'rib qo'ysin degan o'yda bamisoli ilonbaliqdek egilib-bukilib jilpanglay boshladi.

O'zi keltirgan xabarning mister Bamblni batamom lol qilib qo'yanini ko'rgach, u o'ziga yetkazilgan dahshatli jarohatlar azobi-dan ilgarisiga qaraganda o'n barobar balandroq ovoz bilan dodlab, bu taassurotni yanada kuchaytirishga urindi. Hovlidan o'tib borayot-gan oq nimchali jentlmenga ko'zi tushganda esa nola-fig'oni besh-

battar fojiona tus oldi, zero u ushbu jentlmenning diqqat-e'tiborini tortib, qahr-u g'azabini qo'zg'atish bag'oyat maqsadga muvofiq keli-shini to'g'ri chamalagan edi.

O'q mo'ljalga tegib, jentlmenning diqqati o'sha zahotiy oq jalb etildi. U uch qadam bosmayoq darg'azab burildi-yu, bu yaramas bola nimaga bo'kiryapti-yu, nimaga mister Bambl bo'kirik deb atalmish ushbu ovozga barham berib, biron-bir siylov bilan unini o'chirib qo'ya qolmayotganini so'radi.

— Bu bechora bolakay yetimxona maktabidan, ser, — javob qildi mister Bambl. — Uni anavi bola, Tvist, sal bo'lmasa o'ldirib qo'ya-yozibdi — deyarli o'ldirib qo'yayozibdi.

— Jin ursin! — xitob qildi nimchali jentlmen taqqa to'xtab. — O'zim ham bilgan edim-a! Bu surbet jinqarchaning umri sirtmoqda tugaydi deb avval boshdayoq ko'nglim sezgi bergandi-ya!

— Innaykeyin, ser, u oqsoch qizniyam o'ldirmoqchi bo'пти, — dedi tusi tuproqday bo'zarib ketgan mister Bambl.

— Bekasiniyam, — gap qistirdi mister Kleypol.

— Keyin, nazarimda, xo'jayinniyam dedingiz shekilli, Noe? — qo'shib qo'ydi mister Bambl.

— Yo'q, xo'jayin uyda emas, yo'qsa uni o'ldirardi, — javob berdi Noe. — U, o'ldiraman, dedi.

— Nima? Uni o'ldiraman dedimi hali? — so'radi oq nimchali jentlmen.

— Ha, ser! — javob berdi Noe. — Afv etasiz-u ser, beka shu narsani bilmoqchi edilar, mister Bamblning hozir biznikiga borib, uni ta'zirini berib qo'yishga fursatlari bo'larmikan, nega deganingizda, xo'jayin uyda yo'g'iydilar.

— Albatta, albatta, — dedi oq nimchali jentlmen muruvvat-la jilmaygan ko'yi va o'zidan to'rt enlikcha baland Noening boshini silab. — Sen ajoyib bola ekansan, judayam ajoyib. Mana senga bir penni... Bambl, hassangizni olib, Sauerberinikiga boring-da, nima qilish lozim ekanini o'sha yerda aniqlang. Uni sirayam ayamang, Bambl.

— Sirayam ayamayman, ser, — javob qildi Bambl hassasi uchiga savalash uchun o'ralgan mumli ipni to'g'rilab-tuzatib qo'yar ekan.

— Sauerberiga ham ayting, unga shafqat qilib o'tirmasin. Moma-taloq qilib, u yoq-bu yog'ini yorib-shilmasa odam chiqmaydi undan, — dedi oq nimchali jentlmen.

— Buni g'amini yemang, ser, — javob berdi bidl.

Shunday qilib, uch qirra shlyapa bilan hassa tartibga keltirilgach, mister Bambl Noe Kleypol rafoqatida tobutsozning do'koni sari shoshildi.

Bu yerda ahvol-sharoit zarracha yaxshilanmagan, boyagi-boyagisi-dek edi. Sauerberi hali qaytmagan, Oliver bo'lsa hanuz xuddi ilgari-

gidek jon-jahdi-la yerto'la eshigini do'mbira qilib tepkilab yotgan edi. Mister Sauerberi bilan Sharlottlarning so'zlariga qaraganda uning g'azabi shunchalik dahshatli tus olgandiki, shu bois mister Bambl oldiniga muzokara boshlash, undan keyingina eshikni ochishni oqilona tadbir hisobladi. Ana shu maqsadda bidl muqaddima sifatida eshikni bir tepdi, keyin esa og'zini qulf teshigiga qo'yib, past va salobatli tovush bilan:

— Oliver! — dedi.

— Chiqarib yuboring meni! — javob qildi Oliver yerto'ladan.

— Ovozimni taniyapsanmi, Oliver? — so'radi mister Bambl.

— Ha, — javob berdi Oliver.

— Shundayam qo'rqmayapsanmi? Men gapirganimda titrab-qaltirab ketmayapsanmi? — so'radi mister Bambl.

— Yo'q! — javob berdi Oliver tap tortmay.

O'zi kutgani va eshitib o'rganib qolganiga aslo o'xshamaydigan bu javob mister Bamblni hazilakamiga dovdiratib qo'ymadi. U qulf teshigidan tisarildi, qaddini g'ozday rostladi-da, hayrat-la sassiz-sadosiz hozir bo'lganlarga birma-bir tikildi.

— Eh, mister Bambl, u esidan ayrilib qolganga o'xshaydi, — dedi missis Sauerberi. — Birorta aqli bor bola, aqli yarim bo'lgan taqdir-dayam, siz bilan bunday gaplashishga jur'at etolmasdi.

— Bu aqldan ozish emas, missis, — javob qildi mister Bambl birpaslik chuqur mulohazadan so'ng. — Bu etning ishi.

— Nima dedingiz? — deya xitob qildi missis Sauerberi.

— Et, missis, et deyapman! — takrorladi Bambl qat'iy va ma'nodor qilib. — Siz uni bo'kkunday qilib boqqansiz, missis. O'z toifasidagi odamga nomunosib bo'lgan g'ayritabiiy ruh-u g'ayrioddiy kayfiyat uyg'otgansiz unda. Qavm kengashi a'zolari ham xuddi shu gapni aytishadi sizga, missis Sauerberi, ular amaliyotchi faylasuflar-ku, axir. Qalb, ruh yoki kayfiyatni qashshoqlarga nima keragi bor? Tanalarini qoldirganimizga ham shukr qilaverishsin. Basharti, siz, missis, bolani bo'tqa yoxud yovg'on bilan boqqaningizda bunday ahvol hech qachon sodir bo'lmasdi,

— Voy xudoyim-a! — oh urdi missis Sauerberi ko'zlarini taqvodorona qiyofada shiftga tikib. — Mana saxiylikning kasofati!

Missis Sauerberining Oliverga ko'rsatgan saxovati — boshqa hech kim og'ziga ham olmaydigan sarqitlarni sira qizg'anmay berayotgani edi. Binobarin, mister Bambl qo'yayotgan shunchalar og'ir ayblarni ixtiyoriy ravishda o'z bo'yniga olishga roziligini izhor etar ekan, u ozmuncha itoatkorlik hamda fidokorlik ko'rsatmayotgan edi. Adolat yuzasidan shu narsani ta'kidlamoq darkorkim, saxiylik bobida u na so'zi, na ishi, na o'y-fikri bilan aybdor edi.

— Eh! — dedi mister Bambl xonim ko'kka tikilgan ko'zlarini yana pastga tushirganda. — Hozir qo'llash mumkin bo'lgan birdan-bir chora — bu, uni bir oz och qolsin uchun bir-ikki kun yerto'lada saqlash, ana shundan keyin bu yoqqa chiqarib, toki shogirdlik muddati tugagunicha faqat yovg'on bilan boqish. U bema'ni oiladan. Tabiatan salga qizishadigan xilidan, missis Sauerberi. Enaning ham, tabibning ham aytishlaricha, onasi har qanday tagli-tugli ayolni allaqachonoq go'rga tiqadigan to'sig'-u azob-uqubatlarga qaramasdan bu yerga sudralib yetib kelgan.

Mister Bamblning nutqi shu yerga yetganida yana o'z onasi xususida gapirayotganlarini anglashga kifoya qiluvchi so'zlarni ilg'ay olgan Oliver tag'in jazavaga tushib, eshikni gursillatib tepkilay boshladiki, bu shovqin jamiki boshqa ovozlarni bosib ketdi.

Ayni ana shu ahvol tang pallada Sauerberi qaytib qoldi. Har ikkala xonim o'z fikrlaricha xo'jayinning g'azabini nihoyatda alangalatib yuboradigan lof-u mubolag'alarni qo'shib-chatib, Oliverning qilgan jinoyatini yetkazganlarida, u o'sha zamonoq yerto'laning eshigini ochdi-yu, o'zining g'alayon ko'targan shogirdini yoqasidan tutgancha sudrab chiqdi.

Oliverning ust-boshi mushtlab-yumdalangan paytlarida tilka-pora bo'lgandi; beti ko'kargan, shilingan-tirnalgan; patila-patila sochi peshonasiga tushib turardi. Ammo afti ilgarigidek g'azabdan cho'g'day yonib turardi, yerto'ladan sudrab chiqqanlarida u Noega yeb yuborguday o'qraydi, chamasi zarracha qo'rqmagan ko'rinardi.

— Barakalla, qoyil yigit ekansan! — deb qo'ydi Sauerberi Oliveri silkilab, tarsaki bilan siylarkan.

— U onamni so'kdi, — javob berdi Oliver.

— So'kkan bo'lsa osmon uzilib yerga tushibdimi, ko'rnamak, yaramas maxluq? — bobilladi missis Sauerberi. — O'sha onang bu nima degan bo'lsa, shunga munosib, hatto buyam kamlik qiladi.

— Yo'q, munosibmas bunga, — dedi Oliver.

— Ha, bahosi shu uni, — dedi missis Sauerberi.

— Yolg'on bu! — qichqirdi Oliver. — Yolg'on!

Missis Sauerberining ko'zlaridan duvva yosh yumaladi.

Ana shu ko'z yoshlar seli mister Sauerberini haqni nohaqdan ajratish imkoniyatidan mahrum etdi. Mabodo u Oliveri oilaviy nizolar paytidagi taomilning barcha jihatlariga muvofiq qattiq jazolash xususida loaqal bir daqiqagina ikkilanib qolganida bormi, bunday mojarolarini ko'raverib ko'zi pishib ketgan kitobxon uning shubhasiz ta'na-dashnomlar yomg'iri ostida qolishi, erkaklik sha'nini tahqirlovchi hayvon, maxluq va shu kabi talay haqoratomuz laqablar qalashtirib tashlanishi, qalashtirib tashlanganda ham barini mazkur bobda sig'dirib bo'lmay qolishi tayin ekanini tushunadi. Tan bermoq kerak: xonadon

boshlig'i sifatida uning bolaga shafqat qilishga moyilligi yo'q emasdi, ehtimol bu o'z manfaatiga javob bergani uchundir, ehtimolki xotini Oliverni yomon ko'rishi sabablidir. Biroq xotinining shashqator ko'z yoshi uni nochor ahvolga solib qo'ydi-yu, oqibatda u Oliverni shunday do'pposladiki hatto missis Sauerberining ham ko'ngli joyiga tushdi, mister Bamblga esa hassasini ishga solishining o'rni ham, hojati ham qolmadi. To qosh qoraygunicha Oliver nasos hamxonaligida bir burdagina nonga qanoat qilib qaznoqda qamalib o'tirdi, oqshom qo'ngach, missis Sauerberi eshik orqasida turib, onasi sha'niga mutlaqo yopishmaydigan qator noshoyon gaplarni aytdi, so'ngra — bu vaqt ichida Noe bilan Sharlott uning ustidan kulib, masxaralashni qo'ymadilar — yuqoriga, faqirona to'shagi joylashgan yerga chiqishni buyurdi.

Oliver tobutsozning suv quyganday jimjit va osuda zimistonlik chulg'agan do'konida tanho qolgachgina bunday mash'um kundan so'ng, hatto murg'ak go'dakning qalbida ham uyg'onishi mumkin bo'lgan his-tuyg'ularga erk berdi. U achchiq tanbeh-u koyishlarini nafrat-la eshitdi, u qamchi zarbalariga g'iring demay chidadi, zotan uning qalbi hatto tanini o'tda qovurganlari taqdirda ham so'nggi nafasigacha miq etmaslikka majbur qiluvchi g'ururga to'lgandi. Lekin mana endi, uni hech kim ko'rmayotgan va eshitmayotgan paytda Oliver tiz cho'kdi-yu, ko'z yoshiga erk berdi, bunchalik yosh to'kish uchun u tengi go'daklardan kamdan-kamida (baxtimizga Halloqi olam biz osiy bandalariga in'om etadigan) asos-sabablari bordir.

Oliver shu holatda uzoq turib qoldi. U o'rnidan turganida sham deyarli shamdonga taqalguncha yonib bitayozgan edi. U ehtiyotkorlik bilan atrofga alanglab, hushyorlik-la quloq solgancha, astagina eshikni ochib ko'chaga mo'raladi.

Ayozli, zim-ziyo tun edi. Bolaning nazdida osmondagi yulduzlar odatdagidan balandroq tuyuldi; tiq etgan shamol yo'q, shu bois daraxtlarning yerga tushib turgan qop-qora soyasi aniq-tiniq hamda jonsiz ko'rinar — zotan ular qilt etmasdi. U eshikni sekingina yopdi. Yonib bitayozgan shamning g'ira-shira yorug'ida uncha-muncha kiyimini ro'molchaga tugdi-da, xarrakka o'tirib, tong otishini kuta boshladi.

Ilk quyosh nurlari darichalarning yoriq-tirqishlaridan ichkariga mo'ralay boshlashi bilanoq Oliver o'rnidan turib, yana eshik lo'kidonini surdi. Tevarakka cho'chibgina ko'z yugurtirib, bir nafasgina ikkilanib turgach, eshikni berkitdi-yu, o'zini ko'chada ko'rdi.

U qayoqqa qarab yugurishini bilmay avval o'ngga qaradi, so'ng so'lga. Shunda, odatda shahardan chiqib ketayotgan aravalarning asta tepalikka ko'tarila borishi esiga tushib qoldi. Bola ana shu yo'lni tanladi, dalani kesib o'tib, nariroqda tag'in katta yo'lga tutashadigan so'qmoqqa yetgach, o'shanga burildi-yu, jadal ilgarilay ketdi.

Fermadan mehnat uyiga yetaklab kelayotganida mister Bambl-ning yonida yo'rg'alagancha xuddi ana shu so'qmoqdan yugurgilab borgani Oliverning yaxshi esida. Bu so'qmoq naq o'sha bog' hovlining yonginasidan o'tadi. Shuni o'ylarkan, uninig yuragi gurs-gurs tepib, oz bo'lmasa orqasiga qaytayozdi. Biroq u allaqancha yo'lni bosib qo'ygan, orqasiga qaytsa ancha fursatni boy berardi. Buning ustiga hali juda barvaqt, o'zini ko'rib qolishlaridan xavotirlanishiga asos ham yo'q edi. Xullasi kalom, u olg'a odimlayverdi.

Mana, bog' hovli yoniga yetdi. Aftidan, bunday barvaqt pallada u yerda istiqomat qiluvchilarning bari hali uyquda edi chog'i. Oliver to'xtab, boqqa qaradi. Bir bolakay jo'yakda o'toq qilayotibdi; Oliver to'xtaganida u za'faronday yuzchasini ko'tardi — bu uning ilgari-gi o'rtoqlaridan biri ekan. Oliver uni bu yerdan jo'nab ketar oldida ko'rganiga suyundi: bola undan kichikroq edi, lekin Oliver u bilan inoq yashar va ko'pincha birga o'ynashardi. Necha-necha martalab ikkovlarini qo'shaloq qilib urishgan, och qo'yishgan, birga qamab qo'yishgan edi.

— Sekinroq, Dik! — dedi Oliver bola chopgancha eshik oldiga kelib, u bilan ko'rishgani kergilar orasidan qiltiriq qo'lchasini uzatar-kan. — Hali hech kim turgani yo'qmi?

— Mendan boshqa hech kim, — javob berdi bola.

— Dik, meni ko'rganingni aytma, — dedi Oliver. — Men qoch-dim. Meni urib, xafa qilishdi, shuning-chun baxtimni bu yerlardan uzoqroqdan qidirmoqchiman. Lekin qayerdanligini o'zim ham bil-mayman. Namuncha ranging oqarib ketibdi-ya.

— Doktor meni o'ladi deganini o'z qulog'im bilan eshitdim, — dedi bola xiyolgina jilmayib. — Seni ko'rganimdan xursandman, en-di bor, tezroq keta qol!

— Yo'q, sen bilan xayrlashmoqchiman, — dedi Oliver. — Biz ha-li tag'in ko'rishamiz, Dik. Bilaman, albatta ko'rishamiz! Sen sog'ayib ketasan, baxtli bo'lasan hali!

— Qaniydi, — javob berdi bola. — O'lganimdan keyin shunday bo'ladi. Bilaman, Oliver, doktor to'g'ri aytgan, nimaga desang, tez-tez osmon farishtalari, keyin sira-sira ko'rinmaydigan mehribon yuz-lar tushimga kiradi. Meni o'p, — dedi bola pastak eshikka tirmashib chiqib, qo'lchalari bilan Oliverning bo'ynidan quchoqlagancha. — Xayr, o'rtoqjon! Xudo yor bo'lsin senga.

Bu oq yo'l murg'ak go'dakning lablaridan uchgandi, biroq Oliver o'ziga oq yo'l tilaganlarini birinchi bora eshitayotgan edi va u bun-dan buyongi kurashlar, iztiroblar, buzg'unchi taqdirning makr ham-da bevafoqliklari-yu musibatlarga to'liq hayoti davomida hech qachon unutmaydi buni.

---

---

VIII BOB. OLIVERNING LONDONGA YO'L OLGANI-YU,  
YO'LDA G'ALATI BIR YOSH JENTLMENNI  
UCHRATGANI

Oliver so'qmoqning boshiga yetdi va yana katta yo'lga chiqdi. Soat sakkiz edi. Garchi uni shahardan deyarli besh mil masofa ajratib turgan bo'lsa-da, tag'in quvib, yetib olishmasin degan xavotirda devor-u g'ov-to'siqlar panasida to peshingacha chopa-chopa yo'l bosdi. Nihoyat, u yo'l yoqasidagi ustun tagida dam olgani o'tirdi va birinchi marta qayoqqa borishi hamda qayerda yashashi ustida bosh qotirdi.

O'zi tagida o'tirgan ustunga yirik-yirik raqam-u harflar bilan bu yerdan Londongacha roppa-rosa yetmish mil deb yozib qo'yilgandi. Bu yozuv bolaning miyasida cheki-chegarasi ko'rinmaydigan fikrlar silsilasini tug'dirdi. London!.. Ulug'vor, azim shahar!.. Hech zog' — hatto mister Bamblning o'zi ham — hech qachon topolmaydi uni bu shahardan! Mehnat uyidagi keksalarning gaplariga qaraganda birorta farosatli yigit Londonda turib muhtoj qolmasmish, innaykeyin, o'sha azim shaharda pul topishning shunaqangi yo'llari bormishki, chekka o'lkalarda o'sganlarning xobi-xotiriga ham kelmas emish bu. Basharti, biror kimsa yordam qo'lini cho'zmasa, ko'cha-ko'yda kuni bitishi tayin bo'lgan boshpanasiz bola uchun eng qulay joy emish. Miyasiga shu fikrlar kelarkan, u dik etib turdi-yu, yana olg'a odimlay ketdi.

Ko'zlagan manziliga yetgunicha qancha qiyinchiliklarga bardosh berishi kerakligini fahmlagunicha u bilan London orasidagi masofa yana to'rt mildan ko'progga qisqardi. Shunda qadamini picha sekinlatib, u yoqqa qandoq yetib olish xususida o'y sura boshladi. Tugunchasida bir burda non tegrasi, dag'al ko'ylak bilan ikki juft paypoq bor edi. Bundan tashqari, cho'ntagida bir penni — Oliver, ayniqsa o'zini ko'rsatgan qaysidir motam marosimidan keyin Sauerberi sovg'a qilgan chaqa ham bor edi. «Top-toza ko'ylak, — o'yladi Oliver, — ajoyib narsa, innaykeyin, ikki juft yamalgan paypoq bilan bir penni ham; lekin shunday sovuqda oltmish besh mil yo'l yuradigan odamga bularning nimayam foydasi tegardi».

Oliver, aksar odamlar singari, qiyinchiliklarga chidashga va ularni payqashga favqulodda tayyorligi bilan ajralib turadigan toifadan ediyu, biroq ularni yengib o'tish uchun amalga oshirsa bo'ladigan birorta chorani topishda mutlaqo o'jizlik qilib qolardi. Alqissa, u besamar

uzoq mushohadadan so'ng tugunchasini boshqa yelkasiga tashladi-yu, yo'lini davom ettirdi.

O'sha kuni Oliver yigirma mil yo'l bosdi, bu vaqt orasida qotgan nonning cheti bilan yo'l yoqasidagi hovli eshigi oldida turib so'rab olgan suvdan bo'lak tishiga hech nima tegmadi. Qosh qoraygandan keyin u o'tloqqa burildi-da, pichan g'arami ichiga kirib, shu yerda tong ottirishga ahd qildi. Oldiniga dilini qutqu bosdi, chunki yalang'och dalalar uzra shamol uv tortardi. U sovqotar, qorni och va hech qachon o'zini bu qadar yolg'iz his etmagan edi. Ammo yuraverib holdan toygani sababli ko'p o'tmay uyquga ketib, jamiki iztiroblarni unutdi.

Ertalab nihoyatda sovqotgani, qorni o'larday ochligidan beixtiyor o'zi o'tib borayotgan dastlabki qishloqdayoq pennisini kulchaga almashtirdi. Yana tun kirganida u o'n ikki mildan ortiq yurmagan-di. Tovonlari sirqirab, charchaganidan oyoqlari chalishib keta boshladi. Oradan tag'in bir kecha o'tdi, bu kechani u sovuq, zax yerda o'tkazdi-yu, ahvoli yanada yomonlashdi; ertalab yo'lga tushganida oyoqlarini arang sudrab bosardi.

U tik tepalik etagida to usti berk pochta aravasi yetib kelgunicha kutib turdi-da, arava sirtida o'tirgan yo'lovchilardan xayr qilishlarini tiladi, lekin ulardan bir-yarimlarigina e'tibor berishdi bolaga, bular ham, toki tepa ustiga chiqib olgunimizcha kuta tur, ana undan keyin ko'ramiz, beradigan yarim penniyimizni tez yetib chiqib, ololarmikinsan-yo'qmikin, deyishdi. Bechora Oliver aravadan ortda qolmaslikka tirishdi, biroq muvaffaqiyatsizlikka uchradi: u nihoyatda charchagan va oyoqlari zirqirab og'rirdi. Arava sirtida o'tirgan yo'lovchilar unga, bir paqirga arzimaydigan yalqov kuchukvachcha ekansan, deyishib, yarim penniliklarini ham kissalariga solib qo'yishdi. Shunday qilib, arava orqasida faqat chang bulutini qoldirgancha taraqa-turuqlab jadallay ketdi.

Ba'zi qishloqlarda ushbu viloyatda tilanchilik qiluvchilarni turma kutishidan ogohlantiruvchi so'zlar yozilgan kattakon bo'yalgan taxtalar qoqib qo'yilgan edi. Har gal shunday yozuvga duch kelganida Oliver judayam qo'rqib ketar va bunday joylardan tezroq chiqib ketishga oshiqardi. Boshqa qishloqlarda u mehmonxona oldida turib olib, o'tkinchilarga ma'yus javdirardi; odatda bu hol shu bilan tugardikim, mehmonxona sohibasi yaqinroqda sandiroqlab yurgan aravakashlardan birortasiga bolani haydab yuborishni buyurardi, negaki beka uni biron nimani o'marib ketish niyatida deb o'ylar va bunga amin edi. Mabodo u fermer ostonasiga borib tilansa, o'ndan to'qqiz holatda itlarini gij-gijlashardi, bordi-yu, biron do'konga tumshug'ini suqqudek bo'lsa, bidldan so'z ochishar, shunda Oliverning qo'rqqanidan

og'zi quruqshab ketardi, ko'pincha esa uning og'zida so'lakayidan bo'lak hech vaqo bo'lmasdi-da, axir.

Qorovulxonadagi rahmdil qorovul bilan mehribon keksa xonim bo'lmaganida Oliverning uqubatlari, xuddi onasining iztiroblari singari, tez orada tugar, boshqacha qilib aytganda, u qirollikning katta yo'lida tappa tashlab, dunyodan ko'z yumgan bo'lardi. Ammo qorovulxonada turgan qorovul non va pishloq bilan qornini to'yg'azdi, nevarasi kema halokatiga uchrab, allaqaysi olis yurtda yalangoyoq ovorai jahon bo'lib yurgan keksa xonim esa sho'rpushona yetimchaga rahmi kelib, jindakkina bo'lsa-da, qurbi yetgan narsasini berdi; eng muhimi, u bolaga shirin, mehrga yo'g'rilgan yaxshi so'zlarni, hamdardlik, hamrozlik tuyg'ularini hadya etdikim, bu narsa Oliverning qalbiga shu topgacha chekkan aziyatlaridan ko'ra chuqurroq tomir otdi.

Ona shahridan chiqib ketganining yettinchi kuni ertalab, oyog'i oqsab, imillab Barnet shaharchasiga kirib bordi. Deraza qopqoqlari hali taqa-taq berk, ko'chalar bo'm-bo'sh edi: kundalik yumushlari bilan shug'ullanmoq uchun hech kimsa uyg'onmagan edi hali. Quyosh gul-gul yashnab, charaqlab jamol ko'rsatdi, lekin oftob nuri oyoqlari qonga, hammaoyg'i changga belanib, qandaydir bir eshikning zinasida o'tirgan Oliverni butunlay yolg'iz, kimsasiz tashlandiq ekanini yanada kuchliroq his etishga majbur etdi, xolos.

Birin-ketin deraza qopqoqlari ochilib, chiypardalar ko'tarilib, ko'chalarda yo'lovchilar ko'zga chalina boshladi. Ulardan ba'zilari bir lahzagina to'xtab, Oliverga qarashar yoxud o'tib borayotib yo'lakay qayrilib qarab qo'yishardi; ammo hech qaysilari unga yordam qo'lini cho'zmas, bu yerga qanday kelib qolganini so'ramas edi. Sadaqa so'rashga esa uning jur'ati yetmasdi. Xullasi kalom, u hanuz eshik oldida o'tirardi.

U qovoqxonalarning ko'pligidan hayron qolib (Barnet shahridagi har ikki binoda kattami, kichikmi tamaddixona joylashgan edi), oldidan o'tib turgan faytonlarga beparvo tikilib, o'z yoshiga xos bo'lmagan jasorat hamda qat'iyat ko'rsatib bir hafta vaqtini sarflashga to'g'ri kelgan yo'lni bir necha soat ichida bosib o'tish bu aravalar uchun hech gap emasligi ustida xayol surib, qunishgancha uzoq o'tirdi. Keyin qo'qqisidan bir necha daqiqa muqaddam yonidan e'tibor bermay o'tib ketgan, endi orqasiga qaytib, ko'chani nari-gi betida o'zini diqqat bilan kuzatayotgan bolaga ko'zi tushib qoldi. Oldiniga bunga e'tibor bermadi, lekin bola shunchalik uzoq kuzatdiki, axiyr Oliver boshini ko'tardi-da, u ham bolaning aftiga tikildi. Shunda bola ko'chani kesib o'tib, Oliverga yaqinlashar ekan:

— Hoy bolakay! Boshingga nima tashvish tushdi? — dedi.

Kichik sayyohdan savol so'ragan bola taxminan tengquri edi-yu, biroq Oliver shu paytgacha uchratgan bolalar orasida bu eng g'alatisi edi. O'zi puchuqburun, yapasqi peshona, basharasida yarq etib ko'zga tashlanib turadigan biron belgisi yo'q, kir-chir (faqat yosh bolalarninggina shunday ahvolda yurishini tasavvur qilish mumkin) edi-yu, lekiniga kekkayib, o'zini xuddi kattalarday tutardi. Yoshiga nisbatan bo'yi pakanaroq, qiyshiq oyoq, ko'zlari o'tkir hamda sovuq boqardi. Boshining uchiga qo'nqaytirib olgan shlyapasi tushib ketay-tushib ketay deb turardi; basharti egasining dam-badam boshini silkib-silkib qo'yadigan odatini aytmasa, shunday bo'lishi aniq edi, zotan u boshini har silkiganida shlyapa oldinga yana joyiga surilib qolardi. Egnidagi kattalarning kamzuli naq tovonigacha tushib turardi. Aftidan, qo'lini jo'jaxo'rozcha vajohat bilan chiyduxoba cholvorining cho'ntagiga suqish niyatida bo'lsa kerak, yengini tirsagigacha shimarib olgandi, zero shu topda uning ikkala qo'li cho'ntagida edi. Umuman olganda, bu — bo'yi taxminan to'rt fut-u olti dyuymcha keladigan, qo'nji uzun ipli botinka kiygan g'irt surbet-u takabbur yigitcha edi.

— Hey bolakay! Nima savdolar tushdi boshingga? — dedi bu yosh jentlmen Oliverga.

— Judayam charchadim, qornim ham o'larday och, — dedi Oliver ko'ziga yosh olib. — Uzoqdan keldim. Yetti kundan beri yo'ldaman.

— Yetti kundan beri! — xitob qildi yosh jentlmen. — Tushunarli. Tumshuqvoyning buyrug'i bilandir-da, shunaqami? E-e, chog'imda, — qo'shib qo'ydi u Oliverning hayron bo'lganini ko'rib, — sen hali tumshuqvoy deganini fahmiga yetmaydiganga o'xshaysan shekilli-a, oshna?

Oliver kamtarona javob qilib, uning bilishicha, bu so'z parrandalarning og'zini bildirishini aytdi.

— Voy-bo'y, g'irt jo'ja ekan-ku bu! — nido soldi yosh jentlmen. — *Tumshuqvoy* — bu sudya-ku! Qisqasi, tumshuqvoyning buyrug'i bilan bo'lsa to'g'ri sirtmoqqa duxob bo'lgani ketyapsan, undan o'lgandayam qutulolmaysan. Sen charxpalak-g'ildirakni aylantirmaganmisan sira?\*

— Qanaqangi g'ildirakni? — so'radi Oliver.

— Qanaqangi deysanmi? Qanaqangi bo'lardi, charxpalak-g'ildirak-da, albatta, haligi, jindakkina joyni oladigan, hatto tosh ko'zaning ichida ham aylanaveradigan o'sha charxpalak-g'ildirakni-da. Odamlar qanchalik qiynalsa, o'shanchalik ishlaydi u, nega deganingda, agar odamlar yaxshi yashaydigan bo'lsa, unda ishlagani ishchi topilmay qoladi... Lekin menga qara, — so'zini davom ettirdi yosh jentlmen, — seni qorningni qappaytirish kerak-ku, bo'pti,

yemish bo'ladi. Hozir o'zimni ham ovim chopmayroq turibdi-da — bisotimda atigi bitta lo'ya-yu hakkagina\* bor, kel, bo'lganicha bo'lar, ketsa-ketibdi-da. Tura qol, qani!.. Ish bundoq bo'pti!.. Qani ketdik!

Yosh jentlmen Oliverning turishiga yordamlashib yubordi-da, eng yaqin boqqollik do'koniga boshlab borib, u yerdan bir bo'lak dudlangan cho'chqa soni bilan to'rt funtlik nonning yarimtasini yoki o'zining tilida aytilsa «to'rt penslik kesim»ni sotib oldi; cho'chqa go'shti ayyorona bir ustomonlik — nonning ichidagi yumshoq mag'zini o'yib olib, o'rniga go'shtni joylash usuli sharofati bilan chang-to'zon bosishdan asralgan edi. Yosh jentlmen nonni qo'ltiqlab, kichikroq oshxonaga kirdi-da, ichkari xonaga o'tdi. Sirli yigitchaning buyurtmasi bilan krujkada pivo keltirishdi, shundan keyin Oliver, yangi oshnasining taklifidan foydalanib o'zini ovqatga urdi-yu, uzoq kavshandi, g'alati bola bo'lsa bu orada butun vujudi diqqatga aylanib, ko'zini uzmay uni kuzatib o'tirdi.

— Londonga ketyapsanmi? — so'radi g'alati bola Oliver nihoyat ovqatlanib bo'lgach.

— Hm.

— Turadigan joying bormi?

— Yo'q.

— Puling-chi?

— Yo'q.

G'alati bola hushtak chalib qo'ydi-da, qo'llarini uzun yengi imkon berganicha cho'ntaklariga chuqurroq suqdi.

— Siz Londonda turasizmi? — so'radi Oliver.

— Ha, uyimizga borgan paytlarimda, — javob qildi bola. — Bugun kechasi tunagani o'sha yerdan bironta joy topilsa yo'q demasding-a, to'g'rimi?

— Jon-jon derdim, — javob qildi Oliver. — O'z shaharchamizdan chiqib ketganimdan beri hali tuzukroq o'rinda tunaganim yo'q.

— Shungayam ko'zyoshi qilarkanmi, — dedi yosh jentlmen. — Men bugun kechqurun Londonda bo'lishim kerak, u yerda bitta tanihim bor, o'zi keksa jentlmen, o'sha senga tekinga boshpana beradi, hech nima talab ham qilmaydi; to'g'ri, agar seni o'zi biladigan jentlmen boshlab borsa, albatta. Ie, nimalar deyapman, u meni tanimaydi deysanmi? E yo'q! Mutlaqo tanimaydi! Sirayam! Turgan gap!

Yosh jentlmen keyingi gaplarim hazil degan ma'noda iljaydi-da, pivosini simirdi.

Boshpana haqidagi bu nogahoniy taklif shunchalik o'ziga rom etadigan taklif ediki, uni aslo rad etib bo'lmasdi. Buning ustiga, u Oliverni o'sha chol tez orada senga, albatta tuzukroq joy, ish topib

beradi deb ishonitirdi. Bu narsa oralarida yanada do'stona hamda samimiy suhbat boshlanishiga sabab bo'ldi. Oliver ushbu gurning davomida do'stining ism-sharifi Jek Daukins va yuqorida aytib o'tilgan kekxa jentlmenning alohida mehri-yu himoyatiga noil ekanini bilib oldi.

Mister Daukinsning qiyofasidan homiysi o'z panohiga olganlarga yaxshi sharoit yaratib berganiga ishonish amrimahol edi. Lekin uning og'zidan yengil-yelpi hamda beandisha so'zlar chiqayotgani, ustiga-ustak yaqin do'st-yorlari orasida hazilomuz «Abjir Tullak» laqabi bilan mashhur ekanini tan olgani sababli, Oliver bu beg'am-u bevossh bolaga o'zi maqtayotgan o'sha valine'matining pand-nasihatlari shu kungacha kor qilmabdi-da, degan xulosaga keldi. Ana shuning ta'sirida u tezroq kekxa jentlmenda yaxshi fikr tug'dirish va bordi-yu, Tullak aslida tuzalmas kasofat bo'lib chiqsa, uning bilan oshnachilik rishtalarini, albatta uzishni diliga tugib qo'ydi.

Jek Daukins to qorong'i tushmagunicha Londonga kirib borishni istamagani vajidan ular soat o'n birlarni kutishdi, shundan keyingina Izlington qopqasiga yaqinlashishdi. «Farishta»ga\* yetgach, Sent-Jon-Roudga burilishdi, Sed-lers-Uels teatri yonida tugaydigan tor ko'chani bosib o'tishdi, Eksmaut-strit va Kopis-Rouni ortda qoldirib, mehnat uyi yaqinidagi choqqina hovlidan o'tib borib, Xokli-Inter-Xoulni kesib chiqishdi-da, Safren-Xillga so'ngra esa Greyt-Safren-Xill tomonga qayrilishdi, shu yerga yetganda Tullak Oliverga orqasidan yetib yurishni buyurib, g'izillagancha olg'a yugurdi.

Oliverning butun diqqati yo'l boshlovchisini ko'zdan qochirmaslik bilan band edi, shunga qaramay u chopib borayotib ora-sira atrofga alanglab qo'yardi. Bundan ko'ra fayzsiz va ayanchliroq joyni u hali ko'rmagan edi. Ko'cha nihoyatda tor hamda iflos, havoni esa qo'lansa hid tutib ketgandi. Kichkina-kichkina do'konchalarning sanog'i yo'q edi, lekin ularning shunday allamahol bo'lib qolgani-ga qaramay eshiklari oldida g'ujg'on o'ynayotgan yoki ichkarida qiy-qirib-chinqirayotgan bolalardan boshqa mollari yo'qdek tuyulardi. Halokatga mahkum etilgan bu joyda go'yoki faqat mayxonalarning-gina ishi rivoj topganday ko'rinar, ularda o'ng'almas odamlar — irland chiqindilari naq tomoq yirtgudek baqirib-chaqirishardi. Asosiy ko'chaga tutash bostirma va hovlilar ortida g'uj-ruj uy-kapalar ko'rinib turar, bu yerlarda ham mast-alast erkag-u ayollar to'ppadan-to'g'ri balchiqqa ag'anashib yotishar, ba'zi eshiklardan esa qandaydir shubhali, devday-devday yigitlar pisibgina chiqib kelishardi; bular chamasi yaxshi niyat va bezarar yumushlar bilan jo'nashmayotgandi.

Oliver, sekingina qochib qolganim yaxshimasmikin, deb o'yladi-yu, lekin bu paytda ular tepadan pastga enib bo'lishgan edi. Yo'l

boshlovchisi uning qo'lidan ushlab, Fild-Leyn yonginasidagi uyning eshigini ochdi-da, uni yo'lakka kiritib, darrov eshikni yopdi.

— Hey, kim u? — Tullakning hushtagiga pastdan allakim ovoz berdi.

— Firib va omad! — degan javob bo'ldi.

Aftidan, bu hammasi joyidaligidan dalolat beruvchi shartli so'z yoki ishora edi, negaki, yo'lakning narigi boshidagi devorga shamning xiragina shu'lası tushdi, o'choqboshiga olib chiqadigan ko'hna zinapoyaning siniq panjarasi orqasida erkak kishining basharasi ko'zga tashlandi.

— Ikki kishi ekansizlar-ku, — dedi erkak sham ushlagan qo'lini olg'a cho'zib, ikkinchi qo'li bilan esa ko'zini yorug'dan pana qilib. — Ikkinchilaring kim bo'ldi?

— Yangi o'rtoq, — javob berdi Jek Daukins Oliverni oldinga itarib.

— Qay go'rdan kelib qoldi bu?

— Lavanglar olamidani... Fedjin tepadami?

— Ha, artgichlarni saralayapti. Tepaga chiqaveringlar.

Shamni ichkari olishdi, bashara ham g'oyib bo'ldi.

Oliver qorong'ida bir qo'li bilan paypaslagan ko'yi (ikkinchi qo'lini bo'lsa o'rtog'i mahkam ushlab olgandi), liqildoq zinapoyadan qiynala-qiynala arang tepaga ko'tarildi, ayni paytda, yo'l boshlovchisi zipillagancha chiqib borar va bu hol uning zinapoya bilan eskitdan oshnoligining dalolati edi. U orqa xona eshigini ochib, Oliverni yetaklagancha ichkari kirdi.

Qarovsizlikdan xonaning devor-u shiftlari chang bosib, butunlay qorayib ketgandi. O'choq oldida qarag'aydan yasalgan stol, stol-da esa zanjabil pivosidan bo'shagan shisha og'ziga o'rnatilgan sham, ikki-uchta qalayi krujka, non, moy va taqsimcha turibdi. O'choqda yonayotgan olov tepasiga tortilgan simga osilgan tovada sosiska qovurilyapti, juda qari, aftini ajin bosgan, patila-patila sochlari badjahl va sovuq basharasiga tushib turgan juhud chol engashgancha qo'lidagi sanchqi bilan ularni ag'darib turibdi. Egnida yog'i chiqib ketgan yoqasi ochiq yengil xalat, butun diqqat-e'tibori esa tova bilan bir talay ipak dastro'mollar osiqlik ilgakka teppa-teng bo'linganga o'xshardi. Ko'rpa-to'shak xizmatini o'tovchi bir nechta yirtiq-yamoq eski qop uy sahnida qator yozig'liq yotibdi. Stol tegrasida Tullak bilan tengqur to'rt-besh chog'li bolalar o'tirishibdi, ular xuddi vajohatli erkaklardek uzun trubkalarini tutatishib, ichkilikbozlik qilishyapti. Oshnalari juhudga ikki og'izgina shipshiyotganida hammalari uni o'rab olishdi, keyin esa o'g'irilishib, irshaygancha Oliverga tikila boshlashdi. Juhud chol ham qo'lidan sanchqisini qo'ymay, aynan shunday qildi.

— Mana, xuddi o'shani o'zi, Fedjin, — dedi Jek Daukins, — mening do'stim Oliver Tvist.

Juhud miyig'ida jilmayib, chuqur ta'zim bajo keltirdi-da, Oliverga qo'lini uzatdi va u bilan yaqinroqdan tanishish sharafiga musharraf bo'lish umidida ekanini bayon etdi. Shundan so'ng Oliverni trubkali yosh jentlmenlar qurshab olishdi va uning har ikkala qo'lini — ayniqsa tuguncha ushlab olganini — mahkam qisib ko'rishishdi. Yosh jentlmenlardan biri g'oyatda g'amxo'rlik ko'rsatib uning shapkasini qoziqqa osib qo'ydi, boshqasi bo'lsa shunchalik mehribonchilik qildiki, charchab holdan toygan Oliverning yotar oldidan urinmasligi g'amini yeb, uning cho'ntagiga qo'lini suqib hamma buyumlarini chiqardi. Mabodo juhud qo'lidagi sanchqini ishga solib, bu sermulozamat-u jonkuyar yigitchalarni boshi-yu yelkalariga tushira boshlaganida bormi, ularning mehribonchiligi-yu mulozamatlari xiyla davom etgan bo'larmidi.

— Sen bilan tanishganimizdan bag'oyat xursandmiz, Oliver, judayam xursandmiz... — dedi juhud. — Tullak, sosiskalarni olib, Oliver uchun bochkachani olovga yaqinroq surib qo'y. Ro'molchalarga qarayapsan-a, bo'talog'im, shundaymi? Ular ko'p ekan-a, to'g'rimi? Biz ularni hozirgina saralab yuvishga hozirlab qo'ydik. Bor gap shu, Oliver, bori shu. Hi-hi-hi!

Quvnoq juhud cholning istiqboli baland shogirdlari ustozlarining oxirgi so'zlarini maqbullab g'ovur-g'uvur ko'tarishdi. Ana shunday g'ovur-g'uvur bilan kechki tamaddiga o'tirishdi.

Oliver o'z ulushini yedi, keyin juhud unga bir stakan suv aralash-tirilgan jin quyib, bir ko'tarishda bo'shatishini buyurdi, negaki, stakan boshqa jentlmenga kerak ekan. Oliver itoat etdi. O'sha zahotiyoq u o'zini ko'tarib, ehtiyotkorlik bilan qoplardan biri ustiga yotqizishganini payqadi, so'ngra qattiq uyquga ketdi.

---

IX BOB. YOQIMTOY KEKSA JENTLMEN VA UNING  
ISTIQBOLI BALAND SHOGIRDLARI HAQIDAGI  
TURLI-TUMAN MA'LUMOTLAR

Ertasi kuni Oliver uzoq, qattiq uyqudan allamahalda uyg'ondi. Xonada nonushtaga kastryulkada qahva qaynatayotgan juhud choldan bo'lak hech zog' yo'q edi, chol ohista hushtak chalgan ko'yi qo'lidagi temir qoshiq bilan qahvani kavlab-aralashtirib turibdi. U dam-badam bu mashg'ulotdan to'xtab, pastdan eshitilgan tiq etgan tovushga quloq tutar, o'z qiziqsinishini qondirgach, yana hushtagini chalgancha, qoshiq bilan kavlashtirishga tushardi.

Garchi Oliver uxlamayotgan bo'lsa-da, hali uyqusi butunlay tarqamagan edi. Axir, shunday hollar ham bo'ladi-ku, siz ko'zlaringizni yumgancha, uyqu bilan bedorlik oralig'idagi mudroq holatda yotasiz, atrofingizda sodir bo'layotgan jamiki narsalarning yarim-yortisini anglab turasiz, ammo-lekin, shunda ham xayol ko'zgingizda besh daqiqa fursat orasida (ko'zlaringizni chirt yumib yotganingiz va sezgilaringiz qattiq uyqu holatida bo'lishiga qaramay) besh kechalik voqeadan ko'ra ko'proq manzara jonlanadi. Bunday daqiqalarda osiy bandasi o'z ruhining beqiyos qudrati, uning yerdan qanday uzilib chiqishi-yu tanasi hukmi bilan chirmalgan rishtalardan qanday xalos bo'lib, zamon va makondan uzilib chiqib, erkin parvoz qilayotganini elas-elas payqab yotadi.

Oliver aynan ana shunday holatda edi. Yarim yumuq qovoqlari ostidan juhudni ko'rib, chalayotgan ohista hushtagini eshitib, qoshiqning tiqirlashidan uning kastryulka chetiga tegayotganini fahmlab yotardi-yu, ayni chog'da butun fikr-xayoli deyarli shu damgacha ko'rgan-bilgan jamiki odamlari bilan band edi.

Qahva tayyor bo'lgach, juhud kastryulkani o'choqdagi taglikdan oldi. Go'yo endi nima qilishini bilmayotgandek, bir necha daqiqa o'yoq surib turdi, keyin o'girilib, Oliverga tikildi-da, ismini aytib chaqirdi. Bola javob bermadi, aftidan, u uxlayotgan edi.

Bundan xotirjam bo'lgan juhud astagina eshikka yaqinlashib, uni qulfladi. So'ngra u chog'roqqina qutichani oldi-da (Oliverning nazarida pol ostidagi xufiya joydan chiqarganday bo'ldi), avaylabgina stolga qo'ydi. Qopqog'ini ochib, ichiga qaraganida cholning ko'zlari chaqnab ketdi. Eski o'rindiqni stolga yaqinroq surib o'tirdi-da, qutichadan qimmatbaho toshlari yaraqlab ko'zni qamashtiradigan ajoyib oltin soat chiqardi.



— O'ho! — dedi juhud kiftlarini rostlab, sovuq irshayishdan af-ti burishib. — Aqlli bu ko'ppaklar! Ha, aqlli ko'ppaklar! Chinaka-miga sadoqatli! Shunday qilib, kekxa kashishga qayerga borganlarini aytishmadi. Kekxa Fedjinn i sotishmadi! Sotishdan nima foydayam ko'rishardi? Bari bir bu narsa chigalni yecha olmasdi, ko'rgiliklarini biron lahzagayam kechiktirolmasdi. Him, xuddi shundoq! Barakallo! Azamatlar!

Juhud ana shu taxlit g'udranganicha soatni yana o'sha ishonch-li joyiga yashirib qo'ydi. U kam deganda yana ikki-uch soatcha ivir-sib, qutidan navbati bilan soatdan sira qolishmaydigan, san'atkorona yasalgan uzuk, bilaguzuk, to'g'nag'ich va Oliver zarracha tasavvurga ega bo'lmagan, hatto nomini ham bilmaydigan boshqa qimmatbaho taqinchoqlarni olib, xuddi o'shanday huzur bilan ko'zdan kechirdi.

Bu qimmatbaho taqinchoqlarni joyiga qo'ygach, qutichadan yana bitta kaftiga jo bo'lgan narsani oldi. Chog'ida bu narsaning ustiga may-da harflar bilan nimadir yozilgan edi, negaki chol uni stolga qo'ydi-da, ko'zini qo'li bilan yorug'dan pana qilgancha uzoq va diqqat-la tikil-di. Oxiri o'sha narsani yashirdi-yu, go'yo muvaffaqiyatdan umid uzgan odamday, o'rindiq suyanchig'iga suyangan ko'yi g'udrandi:

— O'lim jazosi — ajoyib narsa-da! Murdalar hech qachon tavba-tazarru qilolmaydi. O'liklar hech qachon noxush gaplarni validrayot-maydi. Eh, bunaqangi kasb-kor uchun ajoyib chora-da bu! Beshovini sirtmoqqa tortishdi, sheriklarini tuzoqqa ilintirgani yoki qo'rqqoligini hammaga namoyish qilgani birortasi qolmadi-ya, qoyil!

Juhudning og'zidan shu so'zlar chiqar ekan, uning bo'shliqqa parishonhol tikilgan yarqiroq ko'zlari Oliverning yuzida to'xtadi. Bolaning ko'zlari unsiz qiziqsinish bilan unga qadalgandi, shunda ularning nigohlari birrovgina to'qnashgan bo'lsa-da, shu fursatning o'ziyoq cholning bola o'zini kuzatayotganini anglab yetishi uchun kifoya edi. U quticha qopqog'ini taraqlatib yopdi-yu, stolda tur-gan non pichoqni changallagancha, quturib sapchib turdi o'rnidan. Uning a'zoyi badani qalt-qalt titrardi, shunda Oliver o'takasi yori-layozganiga qaramay baland ko'tarilgan pichoqning qanday titrayot-ganini payqadi.

— Bu nima qiliq? — qichqirdi juhud. — Nimaga meni poylab yo-tibsan? Nega uxlamayapsan? Nimani ko'rding? Gapir? Tezroq, agar joningdan umiding bo'lsa, tezroq gapir!

— Ortiq uxlolmadim, ser, — javob berdi Oliver cho'chibgina. — Sizga xalal bergan bo'lsam kechiring, ser.

— Bir soatdan beri uyg'oq yotibsanmi hali? — so'radi juhud bola-ga naq yeb yuborgunday olayib.

— Yo'q! Yo'g'-e! — javob qildi Oliver.

— Rostdanmi? — o'shqirdi juhud ko'zini battar ola-kula qilib, uning vajohati tahlikali tus olgandi.

— Ont ichaman, uxlab yotuvdim, ser, — dedi Oliver qizg'inlik bilan.

— Bo'pti, bo'pti, bo'talog'im, — dedi juhud to'satdan muomalasini o'zgartirib va pichoqni shunchaki ermak uchun olganini ko'rsatmoqchidek, uni stolga qaytarib qo'yishdan oldin silkib, aylantirib o'ynagan bo'ldi. — Buni bilaman albatta, bo'talog'im. Seni bir qo'rqitib ko'rmoqchiydim, xolos. Dovyurak bola ekansan. Hi-hi-hi! Dovyurak bola ekansan, Oliver!

Juhud hihilagancha qo'llarini ishqadi, ammo ayni damda bezovtalik bilan qutichaga qarab qo'ydi.

— Sen, bolaginam, bundagi ajoyib buyumlarni ko'rdingmi? — so'radi juhud bir oz sukut saqlagach, quticha ustiga qo'lini qo'yar ekan.

— Ha, ser, — javob berdi Oliver.

— Ah-a! — deb yubordi juhud xiyol rangi o'chib. — Bular... bular mening buyumlarim, Oliver. Ozroqqina bisotim. Keksalikda kunimga yaraydigan bor boyligim. Meni ziqna deyishadi, bo'talog'im. Ha, ziqna deyishadi, bor-yo'g'i shu, vassalom.

Oliver, shuncha boyligi bo'la turib, mana shunaqangi iflos, tashlandiq joyda turganidan keyin bu keksa jentlmen rostdan ham o'lardek ziqna bo'lsa kerak, deb o'yladi; ammo Tullak va boshqa bolalarni boqish ancha-muncha sarf-xarajat bilan bog'liq-ku, degan xayolga borib, juhudga ehtirom bilan nigoh tashlab qo'ydi-da, o'rnidan turishga ruxsat so'radi.

— Bemalol, bo'talog'im, bemalol, — javob qildi keksa jentlmen. — Anavi burchakda, eshik oldida ko'zada suv bor. Uni bu yoqqa olib kel, men tos qo'yib beraman, yuz-qo'lingni yuvib olasan, bo'talog'im.

Oliver o'rnidan turib, xonaning narigi burchiga bordi-da, ko'zani ko'tarmoqchi bo'lib engashdi. U orqasiga burilganida quticha allaqachon g'oyib bo'lgandi.

Oliver yuz-qo'lini yuvib, o'zini tartibga keltirib, juhudning buyrug'i bilan tosdagi suvni derazadan tashqariga sepib turgan ham ediki, kecha oqshom trubkasini buruqsatib o'tirganida ko'rgan epchil bolakayni ergashtirib Tullak kelib qoldi; mana endi o'sha bolani Oliverga rasman Charli Beyts deb tanishtirdi. To'rtovlon qahva, sur cho'chqa soni hamda Tullak shlyapasiga solib keltirgan issiq kulcha bilan tuzalgan nonushta dasturxoni tevaragidan joy oldilar.

— Xo'sh, — deya Tullakka murojaat etdi juhud, Oliverga ayyorona ko'z qirini tashlab qo'yar ekan, — ishonamanki, azizlarim, bugun ertalab jindakkina ter to'kkan bo'lsalaring kerag-a?

— Ancha-muncha deyavering, — deb javob qildi Tullak.

— Xuddi shaytonvachchalarday, — qo'shib qo'ydi Charli Beyts.  
— Ajoyib bolalar, ajoyib. yigitchalar! — so'zini davom ettirdi juhud. — Qani, nima keltirding, Tullak?

— Ikkita kartmon, — javob berdi yosh jentlmen.

— Qistirmasi ham bormi? — sabrsizlik bilan surishtirdi juhud.

— Anchagina qappaygan, — javob qildi Tullak, bittasi yashil, boshqasi qizil ikkita karmonni uzatarcan.

— Tosh bundan ko'ra og'irroq bo'lishi ham mumkiniydi, — deb qo'ydi juhud, ularning ichidagi narsalarni diqqat bilan ko'zdan o'tkazib, — lekiniga o'zi juda chiroyli va bejirim qilib ishlangan ekan... U yulduzni benarvon ura oladi, to'g'rimi, Oliver?

— O', judayam mohir, ser, — dedi Oliver.

Shunda yosh Charli Beyts, bu bo'layotgan hangomalarda hech qanaqangi kulgili joyini ko'rmayotgan Oliverni hayratda qoldirib, naq quloqni batang qilgudek qah-qah urib kulib yubordi.

— Xo'sh, sen nima keltirding, azizim? — dedi Fedjin Charli Beytsga murojaat qilib.

— Artqich, — javob berdi yosh Beyts yonidan to'rtta ro'molchani chiqarib.

— Shunisiga ham shukr, — dedi juhud ro'molchalarni diqqat-la ko'zdan kechirayotib. — Chakkimas, ha, tuzukkina. Lekiniga bularni belgisini yomon choklabsan, Charli, igna bilan belgisini so'kib tashlashga to'g'ri keladi. Buni qanday qilishni Oliverga o'rgatib qo'yamiz... O'rgatib qo'yaylikmi, Oliver? Hi-hi-hi!

— Bosh ustiga, ser, — javob berdi Oliver.

— Sen ham, azizim, xuddi Charli Beytsdaka ro'molchani qoyilatishni xohlaysanmi?

— Judayam, ser, agar menga o'rgatib qo'ysangiz, — javob qildi Oliver.

Yosh Beyts bu javobni g'oyatda kulgili topib, tag'in xaxolab kulishga tushdi: bu xaxolash oqibatida oz bo'lmasa ajalidan burun bo'g'ilib o'lishiga bir baxya qoldi, zotan u qahva ichayotgandi va nafas yo'liga qahva o'tib ketgandi.

— O'ziyam hali ona suti og'zidan ketmagan polapon ekan-da! — dedi Charli o'zini o'nglab olgach, beodobligi uchun uzr so'rayotganday.

Tullak indamadi, faqat Oliverning sochini ko'zini yopadigan qilib paypaslab titkiladi, keyin vaqti kelib esi kirib qoladi, deb qo'ydi. Shunda kekxa jentlmen Oliverning qandayin qizarib ketganini ko'rib, suhbat mavzuini o'zgartirdi va ertalab qatlni tomosha qilgani ko'p odam keldimi, deb so'radi. Oliver beshbattar ajablandi, sababki, bolalarning javobidan har ikkovlari ham o'sha yoqqa borishgani ayon bo'ldi, shu boisdan u, turgan gapki, bularning shunchalik g'ayrat bilan ishlashga qachon ulgura qolishganini tushunolmayotgan edi.

Nonushtadan so'ng, stolni yig'ishtirib bo'lgach, quvnoq kekxa jentlmen bilan ikkala bola qiziq hamda g'aroyib bir o'yinni boshlab yuborishdi: quvnoq kekxa jentlmen shimining bir cho'ntagiga tamakidonni, ikkinchisiga yondaftarchani, nimchasining kissasiga esa zanjiri bo'yniga osig'liq soatni solib, ko'ylagiga soxta brilliant ko'zli to'g'nog'ich qadadi, keyin kamzulining hamma tugmalarini o'tkazib, uning cho'ntaklariga ko'zoynak g'ilofi bilan dastro'molchasini joyladi-da, hassasini likillatib, kunning istalgan damida ko'chada ko'rish mumkin bo'lgan yoshi o'tinqiragan jentlmenlarga taqlid qilgan ko'yi xonada u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi. U dam o'choq oldida, dam eshik yonida to'xtab o'zini go'yo do'konlar peshtoqidagi yozuv, peshtaxtalardagi mollarni berilib ko'zdan kechirayotgan qiyofaga solardi. Ayni chog'da u o'g'rilardan xavfsiraganday bot-bot atrofga alanglab qo'yar va hech nimasi yo'qolmaganiga ishonch hosil qilayotganday, birma-bir hamma cho'ntaklari ustidan shunchalik tabiiy hamda qiziq qilib urib-urib qo'yardiki, buni ko'rib Oliver ko'zlaridan yosh chiqib ketguncha kuldi. Har ikkala bola ham undan ortda qolmay, izma-iz yurishar, u burilayotganida esa cholning nigohiga shunday chaqqonlik bilan chap berishardiki, bolalarning harakatini ilg'amay qolardi. Nihoyat, Tullak cholning oyog'ini bosib oldimi-ey, yo tasodifan to'qnashib ketdimi-ey, bilib bo'lmadi, Charli Beyts ham orqalariga kelib urildi, shunda ular ko'z ochib-yumgunchalik fursat o'tmay, tang qolarli bir chaqqonlik bilan cholning tamakidoni, yondaftarchasi, zanjirli soati, to'g'nog'ichi, dastro'moli va hatto ko'zoynagi g'ilofigacha — bittasini qo'ymay shilib olishdi.

Mabodo kekxa jentlmen cho'ntagiga kimningdir qo'li kirgani-ni sezib qolsa, qo'l qaysi cho'ntakda ekanini qichqirib aytardi, ana shunda o'yin boshqatdan boshlanardi.

Bu o'yinni bir necha marotaba takrorlashgach, bir payt yosh jentlmenlarni yo'qlab ikki xonim kirib kelishdi; ulardan birining ismi Bet, boshqasiniki Nensi ekan. Qizlarning sochi nihoyatda paxmaygan, paypoqlari bilan boshmoqlari ham iflos. Darvoqe, ularni ko'hlik deb bo'lmasdi-yu, lekin ikki betlari qip-qizil, o'zlari baquvvat hamda quvnoq ko'rinishardi. O'zlarini emin-erkin va sho'x-shodon tutishayotganidan Oliver ularni, yaxshi qizlar ekan, degan qarorga keldi. Aslini olganda ham, shubhasiz, shundoq edi.

Bu mehmonlar uzoq o'tirishdi. Viski ichishdi, negaki yosh xonimlardan biri ich-ichimgacha muzlab ketyapman, deya zorlangan edi. Shundan keyin nihoyatda qizg'in va ibratomuz suhbat boshlandi. Nihoyat, Charli Beyts, uning fikricha, oyoqning chigilini yozadigan fursat yetganini aytdi. Oliver, aftidan, bu birpas aylanaylik degani bo'lsa kerak, deb o'yladi, negaki, shu so'zlardan keyinoq Tullak,

Charlilar sarf-xarajatga mehribon kekxa juhuddan choychaqa olishib, ikkala yosh xonim bilan birga chiqib ketishdi.

— Ana shunaqa gaplar, azizim, — dedi Fedjin. — Bunday yashash nash'u namoli-ya, to'g'rimasmi? Ular kun bo'yi aylangani ketishdi.

— Ishlarini bitirib bo'lishganmi, ser? — so'radi Oliver.

— Barakalla, topding, — javob berdi juhud, — mabodo sayr qilib yurishganida bironta yumush chiqib qolmasa; bordi-yu, shunday bo'lsa, albatta shug'ullanishadi u bilan, azizim, bunga shubha qilmasang ham bo'ladi. Ana o'shalardan o'rnak olgin, bo'talog'im. O'shalardan o'rgan, — takrorladi u o'z so'zlari salmog'ini oshirish niyatida kurakcha bilan o'choq tubiga to'q-to'q urib qo'yar ekan. — Ular nimaniki buyurishsa, jamini bajar, keyin, hamma ishda ularning maslahatiga quloq sol, azizim, ayniqsa Tullakning maslahatiga. U ulug' odam bo'lib yetishadi, agap unga ergashsang, seni ham buyuk odam qilib yetishtiradi. Aytmoqchi, bo'talog'im, cho'ntagimdan ro'molcham chiqib qolmabdimi? — so'rab qoldi juhud banogoh.

— Shunday, ser, — javob berdi Oliver.

— Ko'ramiz, qani, uni menga bildirmay ololarmikansan. Ertalab o'ynayotganimizda ular buni qanday qilishganini o'zing ko'rding-ku.

Oliver boya ko'zi oldida Tullak qilganday bitta qo'li bilan cho'ntakning pastidan ushlab, ikkinchisi bilan dastro'molni sekin sug'urib oldi.

— Tayyormi? — xitob qildi juhud.

— Mana, ser! — dedi Oliver dastro'molni ko'rsatib.

— Epchil bola ekansan, azizim, — dedi kekxa jentlmen Oliverning boshini silab. — Bunaqangi o'tkir bolani sira ko'rmaganman. Agar xuddi shundoq qavilda davom ettiradigan bo'lsang, dunyoda eng ulug' odam chiqadi sendan. Endi, bu yoqqa kel, ro'molchalardagi belgilarni qanday so'kishni o'rgataman senga.

Oliver kekxa jentlmenning cho'ntagidan dastro'molini o'g'irlashning — hazillashib — o'zining ulug' odam bo'lib yetishishiga nima aloqasi bor ekanini tushunmadi. Biroq o'zidan bir necha baravar katta juhudga bu narsa juda yaxshi ayon bo'lsa kerak degan xayolga borib, itoatkorlik bilan stol yoniga keldi va ko'p o'tmay yangi mashg'ulotga berilib ketdi.

---

---

**X BOB.      OLIVER YANGI O'RTOQLARI BILAN YAQINDAN  
TANISHGANI-YU ZO'R MASHAQQATLAR BILAN  
TAJRIBA ORTTIRGANI HAQIDA. MAZKUR BOB  
HIKOYATIMIZDAGI QISQA, AMMO NIHOYATDA  
MUHIM FASLDIR**

Oliver dastro'molchalardagi belgi hamda tamg'alarni so'kib (ularni ko'plab keltirishardi), goho esa ikkala bola bilan juhud har kuni ertalab mashg'ul bo'lishadigan yuqorida tasvirlangan o'yinda ishtirok etib, talay kunlarga ostonaga hatlab cholinek xonasidan tashqari chiqmadi. Nihoyat, u ochiq havoga chiqishni qo'msay boshladi va keksha jentlmendan ikkala o'rtog'i bilan birga ishga borishga ruxsat berishini bir necha bor iltijo qildi.

Oliverning tezroq ishga kirishishga yana shuning uchun ham sabri chidamayotgan ediki, u keksha jentlmanning badfe'l, ayni chog'da saxovatli odam ekanini bilib olgandi. Mabodo Tullak bilan Charli Beyts ikki qo'llarini burnilariga tiqib quruq kelishsa, chol kuyib-pishib, bekorchi xo'jalik va sandiroqlab yurish eng yaramas odat, deb va'z o'qir, nonni ter to'kib halollab yeyish kerakligini uqtirib, kekshlikka ovqat ham bermasdi. Bir kuni u hatto ikkovini ham quvib soldi, lekin, chamasi, bu qilmishi bilan pand-nasihat bobida quyushqondan xiyla chetga chiqib ketdi.

Axiyri Oliver jon-jahdi bilan intilgan ruxsatni olishga muyassar bo'lgan kun ham yetib keldi. Keyingi ikki-uch kun ichida ro'molcha keltirmay qo'yishgan va u qiladigan ishi yo'q, bekor o'tirar, yeyaricharlarini ham tanobi tortilib qolgan edi. Ehtimolki, keksha jentlmexuddi ana shu boisdan rozilik bergandir. Xullasi kalom, u Oliverga ruxsat berib, bolaga ko'z-quloq bo'lishni Charli Beyts bilan Tullakka yukladi.

Bolalar uchovlon yo'lga tushishdi. Tullak odaticha yenglarini shimarib, shlyapasini chakkasiga dol qo'ndirganicha odimlardi; Beyts qo'llarini cho'ntagiga tiqib olgandi, Oliver esa ikkovlarining o'rtasida qayoqqa ketayotganlari va o'ziga birinchi navbatda qaysi hunarni o'rgatishlari borasida boshi qotib, hayron bo'lib borardi.

Ular eran-qaran, shoshilmay borishardi, shu sabab Oliver hech qancha vaqt o'tmayoq, o'rtloqlarim keksha jentlmenni laqillatishmoqchi, ishga borish xayollarida ham yo'q shekilli, deb o'ylay boshladi. Buning ustiga desangiz, Tullakning yomon qiligi bor ekan, nuqul bolalarning boshidan shapkasini yulqib olib, hovlilarga qarab uloqtiradi, Charli Beytsning bo'lsa birovning haqidan sirayam

qo'rqmaydigan odati chatoq ekan, hadeb yo'lka yoqalab ketgan do'konchalardan olma, piyozlarni lippa oladi-yu, qurdum cho'ntaklariga soladi desangiz, cho'ntaklariyam shunaqangi chuqur va kat-taki, nazaringizda kamzuli-yu ishtoni faqat cho'ntaklardan iboratga o'xshaydi. Uning bu qilig'i Oliverga shunchalik yoqmadiki, u qaytib ketaman deyishga endi og'iz juftlagan ham ediki, ittifoqo, o'y-xayoli mutlaqo boshqa narsaga chalg'ib qoldi, negaki Tullakning xatti-harakati sirli bir tarzda, judayam o'zgarib qolgandi.

Ular tor hovlidan o'tib, Klerkenuekdagi negadir «Maysazor» deb atalguvchi maydon yaqinidan chiqishlari bilanoq Tullak to'satdan to'xtadi-yu, barmog'ini labiga bosib, o'rtoqlarini bag'oyat ehtiyotkorlik bilan orqaga tortdi.

— Nima bo'ldi? — so'radi Oliver.

— Jim... — shivirladi Tullak. — Kitob do'koni oldidagi cholni ko'ryapsanmi?

— Narigi betdagi kekxa jentlmennimi? — so'radi Oliver. — Ha, kuryapman.

— Bo'ladi-a! — dedi Tullak.

— Bo'lganda qandoq! — deb qo'ydi Charli Beyts.

Oliver ang-tang bo'lib sheriklarining dam unisiga, dam bunisi-ga tikilardi, biroq savol berishga ulgurmadi, zeroki ikkala bola ham zipillagancha ko'chani kesib o'tishdi-yu, sharpa chiqarmay hozirgi-na unga ko'rsatishgan kekxa jentlmenga orqa tomondan yaqinlashish-di. Oliver bir necha odim tashladi, orqalaridan borish yoxud orqasiga qaytishini bilmay to'xtadi-da, sassiz-sadosiz hayrat-la baqrayib turib qoldi.

Sochiga upa sepilgan, tilla gardishli ko'zoynak taqqan kekxa jentlmenning qiyofasi g'oyatda salobatli, nuroniy ko'rinardi. Uning eg-nida qora duxoba yoqali shisharang frak, och tusli shim, qo'ltig'iga chiroyli bambuk hassa qistirib olgandi. U peshtaxtdagi kitob-ni olib, tikka turganicha, xuddi o'z xosxonasidagi yumshoq kursida o'tirgandek, berilib o'qiyotgan edi. Ehtimoldan yiroq emaski, u haqiqatan ham o'zini go'yo xosxonasida o'tirgan xayol qilayotgandir: butun vujudi bilan berilib ketganiga qaraganda uning na peshtaxtani, na ko'chani, na bolalarni — qisqasi, o'qishga sho'ng'ib ketgan kitobi-dan bo'lak hech nimani payqamayotgani yaqqol ko'rinib turardi; bir sahifani odog'iga yetgach, ikkinchi betni ochardi-da, g'oyatda qi-ziqsinish hamda diqqat bilan o'qishni davom ettirardi.

Tullakning kekxa jentlmenning kissasiga qo'l suqib, undan dast-ro'molini sug'urib olganini, o'sha zahotiyoyq uni Charli Beytsga oshir-ganini va oxiri har ikkovi ura juftakni rostlab, muyulishdan burilib ketganlarini ko'rganda bir necha qadam berida ko'zlari chaqchay-

gan ko'yi baqa bo'lib turgan Oliverning qanchalar dahshat-u xijolatga tushganini asti qo'yaverasiz.

Bolakayga ro'molchalarning, soat-u qimmatbaho buyumlarning ham, juhudning ham sir-u asrori bir lahzadayoq ayon bo'ldi-qo'ydi. Bir on serrayib turib qoldi, shu topda qo'rquvdan tomirlaridagi qon qaynab-ko'pirib, nazdida, a'zoyi badani naq o'tda kuyayotgandek bo'ldi; keyin, o'takasi yorilayozgan, dovdirab qolgan bolakay jonholatda, nima qilayotganini o'zi ham bilmay, oyog'ini qo'lga olgancha qochishga tushdi.

Bularning bari bir daqiqa orasida sodir bo'ldi. Oliver xuddi qochishga tushgan lahzada qo'lini cho'ntagiga tiqqan kekxa jentlmen dastro'molini topmay, darhol atrofga alangladi. Qochib borayotgan bolakayga ko'zi tusharkan, turgan gapki, u jinoyatchi shu, degan xulosaga keldi-yu: «O'g'rini ushlanglar!» — deb bo'k'irgancha qo'lidagi kitobi bilan uning ketidan quva ketdi.

Vahima ko'targan nafaqat kekxa jentlmengina edi. Ko'cha bo'ylab yugurishni va bu bilan jamoatning diqqatini tortishni istamagan Tullak bilan Charli Beyts muyulishdan o'tishlari bilanoq birinchi uchragan darvozaxonaga urib ketishgan edi. Baqiriq-chaqiriqni eshitib, Oliverning yugurib ketayotganini ko'rganlari zahotiyoq nima gap bo'lganini fahmlashdi-yu, shosha-pisha darvozaxonadan chiqib: «O'g'rini ushlanglar!» deb shovqin ko'targancha, insof-u diyonatli fuqarolarga munosib tarzda ta'qibga qo'shilib ketishdi.

Garchi Oliver faylasuflar qo'lida tarbiya topgan bo'lsa-da, nazariy jihatdan o'z jonini saqlashga tirishish tabiatning birlamchi qonuni, isbotga bemuhtoj ajoyib haqiqat ekanidan bexabar edi. Basharti u bu aqida bilan oshno bo'lganida g'aflatda qolmay, ushbu qonunga amal qilishga tayyor turardi. Biroq bunday choraga tayyor emasdi va shu boisdan ham battar qo'rqib ketdi; oqibatda u bamisoli quyunday uchib borardi, orqasidan esa kekxa jentlmen bilan ikki bola baqirib-chaqirgancha quvishardi.

«O'g'rini ushlanglar! O'g'rini ushlanglar!» Bu so'zlarda sehrli kuch bor. Bu so'zlarni eshitganda boqqol do'konini, izvoshchi izvoshini, qassob kanorasini tashlab chiqadi, novvoy non savatini, sutchi sut paqirini, dastyor qo'lidagi tugunchaklarini, maktab bolasi soqqacha\*larini, tosh yotqizuvchi cho'kichini, bola-baqra volan\*ini tashlab, hammalari ayqash-uyqash bo'lib, oldinma-ketin yugurib qolishadi; bir-birovlarini itarib-surishadi, baqirib-chaqirishadi; muyulishdan burilayotib yo'lovchilarni yiqitib yuborishadi, itlarning o'takasini yorib, tovuqlarni garang qilishadi; ko'cha-ko'y, maydon-u hovlilarni hayqiriqlar tutib ketadi.

«O'g'rini ushlanglar! O'g'rini ushlanglar!» Bu hayqiriqqa yuzlab ovozlari jo'r bo'ldi, olomon bo'lsa har muyulishda ko'paygandan-ko'payib boryapti. Xaloyiq loy-ko'lmaklarni chalpillatib, yo'lkalarni do'pirlatib yugurib kelyapti; sharaqlab derazalar ochilyapti, uylardan odamlar otilib chiqishyapti, olomon shitob-la olg'a intilyapti, tomoshabinlar sarguzashtlari avjga mingan pallada Panch\*ni tark etishyapti, jamikilari odamlar oqimiga qo'shilib, hayqiriqlariga jo'r bo'lib, jon-jahdlari bilan: «O'g'rini ushlanglar! O'g'rini ushlanglar!» deb bo'kirishyapti.

«O'g'rini ushlanglar! O'g'rini ushlanglar!» *Birovga ozor berish*, payiga tushish aslida insonning qonida bor, bu his yuragining qat-qatiga jo. Baxtiqaro, qiynalib ketgan, holdan toyib, nafasi bo'g'ilib qolayozgan bolakay — chehrasida vahima, ko'zlarida umidsizli-u ranj-alam, yonoqlaridan do'lday-do'lday ter yumalayotgan sho'rlik bolakay — har bitta asab tolasi tarang tortilib, zo'r berib ta'qibchilardan qutulib ketishga tirishadi, ular bo'lsa orqasidan quvib kelishyapti, daqiqalaha sayin yaqinlashib qolishyapti, bolakayning tinkasi quriganini ko'rib-bilib kelishyapti, bunga sayin battarroq bo'kirishyapti, suyunganlaridan qiyqirishyapti. «O'g'rini ushlanglar!» O', Yaratgan haqqi, loaqal rahm-shafqat yuzasidan bo'lsa-da, ushlanglar uni!

Nihoyat, ushlashdi. Epchillik bilan musht tushirishdi. Mana, u tosh ko'chada chalak bo'lib yotibdi, olomon bo'lsa qiziqsinib uni qurshab oldi. Keyinroq yetib kelganlar itarishib-turtishib, uni ko'rgani oldinga intilishyapti. «Chetroq turinglar!» — «Unga havo tegsin sal!» — «Bema'ni gap! Bunga arzimaydi u!» — «Anavi jentlmen qayoqda qoldi?» — «Ana, ana, ko'chada kelyapti». — «Jentlmeniga yo'l beringlar!» — «Bu o'sha bolami, ser?» — «Ha».

Eng ildam ta'qibchilar keksa jentlmenni mulozamat bilan boshlab kelib, davra o'rtasiga itarib kiritganlarida Oliver atrofini qurshab olgan odamlarning aftiga telbanoma nigohla javdiragancha, loy-tuproqqa qorilib, og'zi qop-qora qon bo'lib yotardi.

— Ha, — dedi keksa jentlmen, — bu xuddi o'sha bola deb cho'chib turibman.

— Cho'chiyotganmishlar! — to'ng'illadi kimdir olomon orasidan. — Ko'ngilchanliklarini qarang-a!

— Sho'rlikkina! — dedi jentlmen. — Lat yebdi-ku.

— Bu mening ishim, ser! — dedi davangiday beso'naqay yigit oldinga chiqib. — Mushtumim tishiga tegib chaqa bo'ldi. Uni men ushladim, ser.

Yigitcha irshaygancha, mehnatiga biron siylov olish umidida shlyapasini ushlab qo'ydi, biroq keksa jentlmen unga ta'naomuz qarab qo'ydi-yu, o'z navbatida xuddi qochib qolishni chamalayotgan-

dek xavotirlanib atrofga alangladi. Basharti ayni shu soniyada olomonni yorib o'tib kelgan politsiyachi (odatda, bunaqangi paytlarda u eng oxirida yetib keladi) Oliverning yoqasidan olmaganida, qariya shu niyatini amalga oshirishi va yangitdan ta'qib boshlanishi ehtimoldan yiroq emasdi-yov.

— Qani, tur! — o'shqirdi politsiyachi.

— O'lay agar, o'g'irlagan menmasman, ser. O'lay agar, bu ikkita boshqa bola! — xitob qildi Oliver alamzadalik bilan qo'llarini siqimlab, atrofga jalanglagancha. — Ular shu yaqin orada bo'lishi kerak.

— Ular yo'q bu orada, — dedi politsiyachi. U o'z so'zlariga kinoya tusini bermoq niyatida edi, lekin bu so'zlar haqiqatni ifoda etgandi: Tullak bilan Charli Beyts tuyoqni shiqillatib qolishga qulay kelgan birinchi hovli ro'para bo'lishi bilanoq quyon bo'lishgan edi. — Tur deyapman!

— Qo'ying, xafa qilmang uni! — muloyimgina dedi keksa jentlmen.

— E-yo'q, uni sirayam xafa qilmayman-da! — javob berdi politsiyachi va so'zlarining isboti tarzida oz bo'lmasa Oliverning kamzulini yulqib olay dedi. — Qani yur, seni yaxshi taniyman, bunaqangi nayrangbozlikni bas qil. O'rningdan turasanmi o'zi, yo'qmi, shaytonvachcha?

Oyog'ida arang turguday bir ahvoldagi Oliver amal-taqal qilib o'rnidan turdi, shu zamonAQ uni yoqasidan olgancha ko'chadan sudrab ketishdi. KeksA jentlmen politsiyachining yonida borardi, olomon orasidan epchilroqlari bo'lsa oldinga o'tib yo'rg'alashar ekan, dam-badam o'girilishib Oliverga qarab-qarab qo'yishardi. Bolakaylar tantanavor ohangda qiyqirishar, olomon esa yo'lda davom etardi.

---

XI BOB.      **POLITSIYA HAKAMI — MISTER FENG HAQIDA  
HIKOYA QILADI VA UL ZOTNING ADOLATLI  
SUDLOV USULI XUSUSIDA BIR QADAR  
TUSHUNCHA BERADI**

Jinoyat poytaxtning ma'lum-u mashhur politsiya bo'limi tasarrufidagi joyda sodir bo'lgan edi. Olomon Oliveri ikki-uch ko'cha-yu Matton-Xill deb atalmish maskan bo'ylabgina kuzatib borish halovatiga ega bo'ldi xolos, keyin uni gumbazsimon pastak qopqadan politsiya sudining iflos hovlisiga olib kirishdi. Bu sahniga tosh yotqizilgan choqqina hovlichada ularni shapaloqday-shapaloqday baroq chakka soqolli, bir dasta kalitni ushlab olgan barvasta erkak qarshi oldi.

— Yana nima gap bo'ldi? — so'radi u beparvolik bilan.  
— Dastro'mol ovchisi, — javob berdi Oliveri sudrab kelgan kishi.  
— O'zlari, ser, jaf o'rgan taraf bo'ladilarmi? — surishtirdi kalitdor.

— Shunday, — javob qildi kekxa jentlmen, — loxin ro'molchamni xuddi mana shu bola o'g'irlaganiga ishonchim komil emas... Meni... menga qolsa bu ishni gazak oldirishni istamasdim.

— Endilikda sudyaning huzuriga kirishdan o'zga chora yo'q, — dedi kalitdor. — Janoblari bir nafasdan so'ng bo'shaydilar. Kira qol, mitti jinoyatchi.

U shu so'zlar bilan Oliveri o'zi ochgan eshikdan g'ishtin devorli kameraga kiritdi. Bu yerda Oliveri tintib, hech vaqo topisholmagach, eshikni qulflab qo'yishdi.

Kamera ko'rinishi va hajmi bilan yerto'laga o'xshab ketardi-yu, lekin undan ko'ra qorong'iroq edi. U nihoyatda iflos edi; hozir dushanba, ertalabki palla edi, shanba oqshomidan beri bu yerga olti mayxo'r qamab qo'yilgandi. Lekin bu arzimagan gap. Bizning politsiya bo'limlarimizda har oqshom erkag-u ayollarni bo'yniga arzimas bir *aybni taqab* — bu so'zlarga urg'u bersa arzigulik — shunaqangi qamoqxonalarga qamab qo'yishadiki, sud aybdor deb topib, o'limga hukm etilgan eng xavfli jinoyatchilar yotadigan Nyuget\* kameralarini bular oldida hashamdor saroy deysiz. Keling, kimki bunga shubha qilsa, ularni o'zi solishtirib ko'rsin.

Qulfga solingan kalit shirq etib buralganda kekxa jentlmen xuddi Oliver singari ma'yus tortdi. U sodir bo'lgan butun mashmashaning beixtiyor sababchisi — kitobga xo'rsiniq bilan murojaat etdi.

— Bu bolakayning chehrasida, — dedi kekxa jentlmen asta eshik dan uzoqlashib, o'ychan bir qiyofada kitob bilan iyagiga urib qo'yarkan, — bu bolakayning chehrasida yuragimni tirnaydigan va meni qiziqtirib qo'ygan nimadir bor. U aybsiz bo'lishi ham mumkin-ku, axir? Yuzi shunaqangi... Ha, darvoqe! — xitob qildi kekxa jentlmen va to'satdan to'xtab, ko'kka tikildi. — Ey, Yaratgan egam! Bunaqangi chehrani ilgari qayerda ko'rgan bo'lishim mumkin?

Bir necha daqiqalik o'y surishdan so'ng kekxa jentlmen o'shanday parishonhol qiyofada hakam-sudyaning xonasi qarshisidagi, hovliga chiqiladigan yo'lakka chiqib keldi-da, shu yerda, bir burchakka chekinib, talay yillar muqaddam zulumat pardasi chirmagan siymolarning uzundan-uzun silsilasini xotiri ko'zgusida jonlantirdi.

— Yo'q! — dedi kekxa jentlmen boshini sarak-sarak qilib. — Bu shunchaki xayol bo'lsa kerak!

Chol ularni yana bir-bir xayol ko'zgusidan o'tkazdi. Ularni yo'qlik olamidan chaqirib oldi, endi ularni tag'in shunchalar uzoq yillardan beri yashirib kelgan parda ortiga jo'natib yuborish oson emasdi. Shu topda do'stlarining, g'animlarining, xiralik bilan olo-mon orasidan mo'ralab turgan sal-pal ko'zga tanish odamlarning qiyofalari saf tortgandi: bu safda hozir qarib-chirigan kampirlarning bir paytlardagi navqiron, gul-gul yashnagan chehralari, o'lim o'z muhrini bosgan va qabr bag'riga olgan chehralar mavjud edi. Ammo o'lim ustidan hukmdorlik qiluvchi ruh bu chehralarga ilgarigidek husn va malohat hamda tetiklik baxsh etib, xotira ko'zgusida ularning xoki jismlari qatlaridan nurday sizib chiquvchi ko'zlari ziyosini, yorqin tabassumlari-yu qalblari yolqinini jonlantirmoqda edi. Arshi a'loga eltguvchi so'qmoqni mayin-u nozik shu'lasini bilan yoritsin deb, keyin yanada yorqinroq mash'ala bo'lib porlasin deb, yer izmidan tortib olingan go'zallik narigi dunyo qaridan nimalarnidir shivirlayotibdi.

Biroq kekxa jentlmen ular orasidan Oliverning qiyofasiga o'xshash bironta chehrani topolmadi. U o'zi tiriltirgan xotirotni bilan chuqur xo'rsinib vidolashdi-yu (baxtiga u anchayin faromushxotir edi), shu ondayoq ularni go'yo yana qo'lidagi sarg'ayib ketgan kitob sahifalari qatiga dafn etdi.

U kalitdor kiftiga turtib, orqasidan sudyaning xonasiga yurishini taklif etganda o'ziga keldi. U shosha-pisha kitobni yopdi-yu, salobatli hamda mashhur mister Feng qarshisida hozir bo'ldi.

Sudyaning bo'lmasi devorlari yog'och qoplamali birinchi xonada joylashgan ekan. Mister Feng xonaning to'rida, panjara to'siq ortida o'tirar, bu vahimali manzarani ko'rgandayoq vujudida qaltiroq tur-

gan mushtdakkina Oliver bechorani esa allaqachon eshikning yonginasidagi qafassimon katalakka kiritib qo'yishgan edi.

Mister Feng qotma, uzun bel va xoda yutgandek g'oz bo'yin, o'rta bo'y odam bo'lib, siyrakkina sochlari gardani va chakkalari-nigina qoplab turardi. Yuzi qip-qizil va badqovoq. Aslida ham o'ziga hayonidan ko'ra ko'proq ziyoni tegadigan darajada ichadigan odati bo'lmaganidami, bundan u talay naf ko'rishi, bu men-ga bo'hton yog'diradi, deb o'z turqi ustidan sudda ish qo'zg'ab, ko'rgan zarari evaziga mo'maygina siylov undirib olishi ham mum-kin edi.

Keksa jentlmen ehtirom-la ta'zim bajo keltirdi-da, sudyaning sto-liga yaqinroq borib:

— Mana mening ism-sharifim bilan turarjoyim, ser, — deya tashrifnomasini uzatdi.

Keyin ikki qadam chekinib, yana bir bor ehtirom-la jentlmenona ta'zim bajo qildi-da, so'roqni kuta boshladi.

Shundoq hol sodir bo'ldiki, aynan shu soniyada mister Feng tonggi gazetaning o'zining yaqin kunlardagi hukmi qarorlaridan biri tilga olingan va ichki ishlar vaziriga uch yuz elliginchi marta bun-ga alohida hamda maxsus e'tibor berish taklif etilgan bosh maqola-sini diqqat bilan o'qiyotgan edi. Uning kayfiyati buzuq edi, shu bois chimirilib, zarda bilan boshini ko'tardi.

— Kim bo'ladilar o'zlari? — so'radi mister Feng.

Keksa jentlmen xiyol ajablanib, o'z tashrifnomasiga qarab imo qildi.

— Polismen, — dedi mister Feng, nafrat-la tashrifnomani gazeta-ga qo'shib nariga itqitar ekan, — bu nusxa kim?

— Mening ism-sharifim, ser, — dedi qariya jentlmenlarga xos so'zlash tarzida, — mening ism-sharifim, ser, Braunlou... O'z lavo-zimi panohida e'tiborli bir kekxa odamni hech qanday asossiz hamda behudadan-behuda haqorat qilayotgan hakamning ism-sharifini bil-sak bo'ladimi ijozatlari bilan.

Shu so'zlarni aytar ekan, mister Braunlou xuddi o'zi talab qilayot-gan ma'lumotni olsa bo'ladigan biron odamni izlayotgandek, xonaga alangladi.

— Polismen, — takrorladi mister Feng, bir varaq qog'ozni chetga qarata ulotqirib, — bu nusxa nima vaj bilan ayblanayotir?

— U hech nimada ayblanayotgani yo'q, muhtaram janob, — javob berdi politsiyachi. — U manavi bolakayga qarshi ayblovchi bo'lib kel-gan, muhtaram janoblari.

Muhtaram janoblari esa buni juda yaxshi bilib turardi: ammo bu guvohning jig'iga tegishning ajoyib, ustiga-ustak, mutlaqo xavfsiz usuli edi.

— Bolaga qarshi ayblovchi bo'lib keldi degin-a? — dedi Feng mister Braunlougga boshdan-oyoq nafratomuz nazar tashlab chiqar ekan. — Qasam ichiring unga!

— Qasam ichirishlaridan avval bir og'izgina so'z aytishimga ijozat so'rayman, — dedi mister Braunlou, — chunonchi: mabodo o'z tajribamdan o'tkazib, ishonch hosil qilmaganimda, men hech qachon inonmasdimki...

— Tilingizni tiyib turing, ser! — dedi mister Feng amirona ohangda.

— Istamayman buni, ser! — javob berdi kekxa jentlmen.

— Hoziroq tilingizni tiying, yo'qsa sizni bu yerdan quvib chiqarishlarini buyuraman! — o'shqirdi mister Feng. — Surbet ekansizku! Sudyaga betgachoparlik qilishga qanday jur'at etdingiz?

— Nima dedilar? — qichqirib yuborayozdi kekxa jentlmen qizarib.

— Bu odamga qasamyod ettiringlar! — dedi Feng o'z xodimiga. — Ortiq bir og'iz so'zini eshitgum yo'q. Qasamyod ettiringlar unga.

Mister Braunlouning qahr-u g'azabi had-hududsiz edi-yu, lekin, basharti his-tuyg'umga erk berib yuborsam, balki bolakayga faqat jabr qilib qo'yarman, degan mulohazaga borib, g'azabini jilovladi-da, itoatkorlik bilan qasamyod etdi.

— Xo'sh, — dedi Feng, — bu bolakayni nimada ayblashyapti? Nima deya olasiz bu borada, ser?

— Men kitob do'konida turgandim... — deya so'z boshladi mister Braunlou.

— Uningizni o'chiring, ser, — dedi mister Feng. — Polismen! Polismen qay go'rda qoldi?.. Ana u. O'sha polismenga qasam ichiring... Xo'sh, polismen, nima gap?

Politsiyachi munosib tarzda itoatgo'ylik-la aybdorni qanday qo'lga olganini, Oliverni qanday tintib, yonidan hech nima topa olmaganini, keyin bu borada boshqa narsani bilmasligini ma'ruza qildi.

— Yana guvohlar bormi? — surishtirdi mister Feng.

— Boshqa hech kim yo'q, ser, — javob berdi politsiyachi.

Mister Feng bir necha daqiqa sukut saqladi, so'ngra esa jabrdiydaga o'girilib, darg'azab dedi:

— Bu bolakayga qanday ayb qo'yayotganingizni bayon etish niyatingiz bormi yoki bunday niyatingiz yo'qmi? Siz qasamyod etdingiz. Basharti guvohlik berishdan bosh tortadigan bo'lsangiz, sizni sudga hurmatsizlik ko'rsatgan shaxs sifatida jazolayman. Hey o'sha sizni...

Bu jumlaning oxiri chala qoldi, zotan aynan kerakli paytda sud xodimi bilan turma nazoratchisi qattiq-qattiq yo'talib qolishdi va ulardan birinchisi — tasodifan, albatta — og'ir kitobni yerga tushirib yubordi-yu, buning oqibatida gapning davomini eshitib-anglab bo'lmadi.

Dam-badam og'ziga urib, ustma-ust haqorat eshitib turgan mister Braunlou amallab bu ish qanday sodir bo'lganini, oldiniga shoshib qolib, qocha boshlagan bolakayning ortidan quvishga tushganini gapirib berdi; keyin sudyaning bolakayni o'g'irlikda emas, balki o'g'rilar bilan sheriklikda ayblab, qonunni buzmaganda, unga shafqat ko'rsatajagiga umid bildirdi.

— U shundoq ham jazosini yedi, — dedi oxirida keksa jentlmen. — Yana shu narsadan qo'rqamankim, — qizg'inlik bilan qo'shimcha qildi u sudyaga nigoh tashlab qo'yarkan, — rosti bilan tobi qochib qoldi chog'i deb qo'rqib turibman!

— Bo'lmasam-chi, albatta-da! — dedi mister Feng masxaraomuz irshayib. — Hoy daydi, maynavozchilikni bas qil! Bari bir foydasi yo'q. Isming nima?

Oliver javob berishga urindi, lekin tili itoat etmadi unga. Rangi murdadek pag'a bo'lib ketgandi, nazdida, xonadagi jamiki narsa ko'z oldida charxpalak singari aylanayotganday tuyuldi.

— Hey o'ng'almas bezori, oting nima? — so'radi mister Feng. — Polismen, uning ismi nima?

Bu savol panjara yonida turgan qo'polroq, ko'rinishidan oqko'ngil, yo'l-yo'l jiletkali qariyaga qaratilgan edi. U Oliverga engashib, savolni takrorladi, ammo bola chindan ham gapini tushunadigan holatda emasligiga ishonch hosil qildi va bolaning indamayotgani sudyani beshbattar quturtirib yuborib, qattiqroq hukm chiqarishiga sabab bo'lishini anglab, tavakkaliga javob qilishga jazm etdi.

— U aytyapti, ismim Tom Uayt deyapti, muhtaram janoblari, — dedi bu yumshoqko'ngil o'g'rilar ovchisi.

— O', hali gapirishni ham istamayptilarmi? — dedi Feng. — Yaxshi, juda soz. Qayerda turarkan u?

— To'g'ri kelgan joyda, muhtaram janoblari! — dedi politsiyachi, go'yo bu gal ham Oliver o'ziga javob qilgandek.

— Ota-onasi hayot ekanmi? — surishtirdi mister Feng.

— U, men judayam yoshligimda o'lib ketishgan, deyapti, muhtaram janoblari, — deya javob qildi politsiyachi odatdagidek tasmollab.

So'roq shu yerga yetganda Oliver boshini ko'tardi-da, iltijoli nigoh tashlab qo'yib, arang eshtiladigan qilib bir qultum suv so'radi.

— Bema'ni qiliq! — dedi mister Feng. — Meni laqillataman deb xomtama bo'lma!

— Nazarimda, uning rostdan ham tobi yo'qqa o'xshaydi, muhtaram janoblari, — e'tiroz bildirdi politsiyachi.

— Menga yaxshiroq ayon, — dedi mister Feng.

— Yordamlashib yuboring unga, polismen, — dedi keksa jentlmen beixtiyor qo'lini o'sha yoqqa cho'zib, — hozir yiqilib tushadi.

— Chetraq turing, polismen! — qichqirdi Feng. — Agar xohlasa, mayli, yiqilaversin.

Oliver bu iltifotli izndan foydalanib, hushidan ketdi-yu, shilq etib yiqildi. Shu yerda hozir bo'lganlar bir-birlari bilan ko'z urishtirib olishdi-yu, biroq birortalari qimir etishga botinmadi.

— Mug'ambirlik qilayotganini o'zim ham bilib turgandim, — dedi Feng, bamisoli ushbu hol mug'ambirlikning rad etib bo'las isbotidek. — Qo'yaveringlar, shunday yotaversin. Hademay joniga tegadi bu.

— Mazkur ish yuzasidan qanday hukm chiqarasiz, ser? — so'radi sud xodimi.

— Oddiygina! — javob qildi mister Feng. — U uch oy qamoq muddatiga hukm etiladi, turgan gapki, og'ir mehnat qilishga. Xona bo'shatilsin!

Eshikni ochishdi, ikki kishi endi behush bolani qamoqxonaga olib ketishga shaylangan ham ediki, to'satdan xonaga eski qora kamzul kiygan, ko'rinishidan xushodob, biroq kambag'alroq keksa bir kishi otilib kirdi-yu, sudyaning stoliga qarab yurdi.

— Shoshmanglar! Olib ketmay turinglar uni! Xudo haqqi, bir daqiqagina shoshmanglar! — deya xitob qildi yangi kelgan kishi, tez yurganidan halloslab.

Garchandki bunday maskanlarda hukmronlik qiluvchi ruhlar erk-ozodlik ustidan, yaxshi nom-u obro'-sha'n ustidan, oz bo'lmasa hazrati oliylarining fuqarolari (ayniqsa, faqir sinflar vakillarining) hayoti ustidan to'liq hamda cheksiz hukmdorlik qilsalar-da va garchandki bu devorlar ichkarisida kun-bakun hatto farishtalar ko'z yoshi to'kkunday aql bovar etmaydigan manzaralar sodir bo'lib tursa-da, matbuotda chiqib qoladigan uncha-muncha narsani hisobga olmaganida<sup>1</sup> bu ishlar jamoatchilikdan pinhon tutiladi. Ana shu tufaylidan ham mister Feng shunchalar nopisandlik bilan ushbu tartibni buzgan bu chaqirilmagan mehmonni ko'rganida hazilkamiga achchiqlanmadi.

— Nima gap? Kim bu? Quvib chiqarilsin bu odam! Xona bo'shatilsin! — o'shqirdi mister Feng.

— Men *gapirmoqchiman!* — qichqirdi u kishi. — Meni quvib chiqarishlariga yo'l qo'ymayman! Men hammasini ko'rganman. Men kitob do'koni egasiman. Talab qilaman, meni qasamyod ettirishsin! Mening og'zimni yumib qo'yolmaysiz. Mister Feng, mening gaplarimga quloq solishingiz kerak. Yo'q demasligingiz kerak, ser.

Bu kishi haq edi. Uning avzoyi qat'iy, ish esa, bosdi-bosdi qilib yuborishning imkoni qolmay, jiddiy tus ola boshlagandi.

---

<sup>1</sup> Aqalli o'sha zamonlarda shunday bo'lgan.

— Qasamyod ettiringlar bu odamni! — deya g'oyatda adovatli ohangda to'ng'illadi mister Feng. — Xo'sh, nima gaplari bor aytadigan?

— Gap bundoq: uch bola — ushlangan va yana ikki bola — manavi jentlmen kitob o'qib turgan paytda ko'chaning narigi betida ivirsib yurishganini o'zim ko'rdim. O'g'irlik qilgan boshqa bola. Bu qanday bo'lganini o'zim ko'rib turgandim, innaykeyin, manavi bolakayning butunlay o'zini yo'qotib, dovdirab qolganini ham ko'rgandim.

Bu paytga kelib kitob do'koni sohibi sal nafasini rostlab olgan va endi o'g'irlik qanday sharoitda sodir bo'lganini picha ravon hikoya qila boshlagandi.

— Nega avvalroq kelmadingiz bu yerga? — so'radi Feng bir nafas sukut saqlagach.

— Do'konni tashlab kelgani odam bo'lmadi, — javob berdi do'kondor. — Menga yordam berishi mumkin bo'lganlarning bari quv-quvga qo'shilib ketishdi. Besh daqiqa burunroq ham hech kimni topolmadim qo'yib kelgani, bu yoqqa bo'lsa yo'l bo'yi yugurib keldim.

— Da'vogar kitob o'qib turgan ekan-da, shundaymi? — surishtirdi Feng yana picha sukut saqlagach.

— Shunday, — javob berdi do'kondor. — Qo'lidagi, mana shu kitobni.

— Xuddi shuning o'zinimi? — dedi Feng. — Haqini to'laganmidi o'zi?

— Yo'q, pulini bermagandi, — iljayib javob berdi kitobfurush.

— Yo Tangrim, butunlay esimdan chiqib ketibdi-ku, — soddadilik bilan xitob qildi faromushxotir keksa jentlmen.

— Nimayam derdik, hag'oyat bohurmat zot ekanlar-u o'zlari, yana sho'rlik go'dakni aybdor qilib yuribdilar-a! — dedi Feng kulgini qistatadigan tarzda o'zini rahmdil qilib ko'rsatishga urinib. — O'ylaymanki, ser, siz ushbu kitobga sha'ningizga dog' tushiradigan va shubha tug'diradigan vaziyatda ega bo'lib olgansiz. O'zingizni omadim bor ekan, deb hisoblayverishingiz mumkin, zotan kitob egasining sizni sudga berish niyati yo'q ko'rinadi. Ushbu hol sizga bir saboq bo'lsin, azizim, yo'qsa odil sud o'zlari bilan shug'ullanishi ham mumkin hali... Bola oqlanadi... Xona bo'shatilsin!

— Jin ursin! — qichqirib yubordi keksa jentlmen ortiq g'azabini jilovlayolmay. — Jin ursin! Men...

— Xona bo'shatilsin! — dedi hakam. — Polismenlar, eshityapsizlarmi? Xona bo'shatilsin!

Buyruq ado etildi. Jazavasi qo'zigan, g'azab va nafratdan joni bo'g'ziga kelgan mister Braunlouni bir qo'lida kitob va ikkinchi qo'lida hassasi bilan xonadan chiqarib qo'yishdi. U hovliga chiqdi-

yu, shu ondayoq jazavasi tarqadi-ketdi. Ko'ylagi tugmalari yechiq, boshi-chakkalari ho'l mitti Oliver Twist tosh yotqizilgan hovlida yotardi; yuzi murdadek oqargan, butun a'zoyi badani qaltirayapti.

— Bechora bola, sho'rlik bolagina-ya! — dedi mister Braunlou uning ustiga engashib. — Izvosh! Iltimos, birortanglar izvosh chaqiringlar. Tezroq!

Izvosh yetib keldi, Oliverni avaylab o'rindiqqa yotqizishgach, keksa jentlmen ikkinchisiga o'tirdi...

— Siz bilan birga ketishimga ruxsat etasizmi? — iltimos qildi kitobfurush izvosh ichiga mo'ralab.

— Yo Tangrim, albatta-da, qadrdon! — tez javob qildi mister Braunlou. — Sizni unutibman. E Xudoyim-a! Bu baxti qaro kitob hanuzgacha qo'limda ekan-ku! Tezroq chiq qoling! Bechora bolakay! Biron daqiqani behuda ketkazib bo'lmaydi.

Kitobfurush usti yopiq izvoshga chiqdi va ular yo'lga tushishdi.

---

**XII BOB. OLIVERGA UMRI BINO BO'LGANIDAN BERIGA  
KO'RMAGAN G'AMXO'RLIKNI KO'RSATGANLARI  
HAQIDA VA YANA QUVNOQ KEKSA JENTLMEN  
BILAN UNING YOSH DO'STLARI TO'G'RISIDA  
HIKOYA QILADI**

Izvosh deyarli Oliver Tullak hamrohligida ilk marta London-ga kirib kelgan o'sha yo'ldan taraqa-turuqlab borib, Izlingtondagi «Farishta»ga yetgach, boshqa tomonga burildi va nihoyat, Pentonvil yaqinida, serdaraxt osuda ko'chadagi ozodagina uy oldida to'xtadi. Bu yerda darhol Oliver uchun o'rin to'shaldi, yosh do'stini unga avaylab yotqizishlarini mister Braunlouning shaxsan o'zi kuzatib tur-di; bu yerda bolakayga benihoya mehr-u oqibat hamda g'amxo'rlik bilan parvona bo'ldilar.

Biroq Oliver do'stlarining mehribonchiliklarini talay kunlargacha sezmay-payqamay yotdi. Quyosh chiqaverdi, yana botaverdi, bu talay marta davom etdi; bola esa hamon ilgarigidek tanni qaqshatadigan isitma xurujida o'rinda to'lg'anib yotaverdi. Qurt-qumursqa murda tanasida o'z yumushini bu tirik vujud bo'ylab imillab o'rmalayotgan haroratchalik ishonch-la ado etolmaydi.

Joni qiltillab, eti ustuxoniga yopishib ketgan va rangida rang qol-magan bolakay bamisoli yilday uzoq davom etgan behalovat uyqudan uyg'onganday bo'ldi.

— Bu qanaqa xona? Meni qayerga olib kelishdi? — so'radi Oliver.  
— Men bu yerda sirayam uxlamagandim.

U nihoyatda holdan toygan va zaiflashgandi, shu bois bu so'zlarni shivirlabgina aytdi-yu, lekin shu xaxotiyoy uni eshitishdi. Darrov ka-ravotning bosh tomonidagi parda surildi va shundoqqina karavotga taqab qo'yilgan yumshoq kursida chevarlik qilib o'tirgan ozoda ham-da odmigina kiyingan mehribon keksa xonim o'rnidan turdi.

— Jim, bo'talog'im, — dedi keksa xonim mehribonlik bilan. — Tinch, qimir etmay yotishing kerak, bo'lmasa tag'in mazang qochib qoladi. Ahvoling judayam chatoq edi, shundoq chatoq ediki, bundan battari bo'lmaydi. Yot, aqlli bola bo'l!

Shu so'zlar bilan keksa xonim Oliverning boshini avaylabgina yana qayta yostiqqa qo'ydi-da, peshonasiga tushgan sochini surar-kan, unga shunday bir mehribonlik va ko'ngilchanlik bilan tikildiki, bolakay nimjon qo'li-la xonimning qo'lidan ushlab, beixtiyor o'zining bo'yniga chirmashtirdi.

— O'zingni rahming kelsin, ey Xudoyim! — ko'zlarida yosh miltillab dedi kekxa xonim. — Qanday oqko'ngil, qanday yaxshi bo-la ekan-a! Bordi-yu, mening o'rnimda shuncha paytdan beri boshida onasi o'tirgan bo'lsa-yu, unga hozir mana shunday tikilsa naq yurak-chasi yorilib ketarmidi-ya!

— Balki u hozir meni ko'rib turgandir, — shivirladi Oliver qo'lla-rini ko'ksida qovushtirib. — Balki u tepamda o'tirgandir. Nazarimda nuqul boshimda o'tirganga o'xshab ko'rinaverdi.

— Isitmada shunday ko'ringan senga, jonginam, — dedi kekxa xonim muloyimgina.

— Ehtimol, — javob berdi Oliver, — chunki osmon bizdan ju-dayam uzoqda, u yoqda bo'lsa ular juda baxtiyor yashashadi, kasal bolaning tepasiga kelib o'tirishga vaqtlari bormidi deysiz. Shun-dayam meni kasalligimni bilsalar o'shoqdayam achingan bo'lardilar, o'limlari oldida o'zlariram qattiq kasal ekanlar-da, axir. Aytmoq-chi, men to'g'rimda hech nimani bilolmaydilar bari bir, — ozroq sukutdan so'ng qo'shib qo'ydi Oliver. — Meni xafa qilishayotgani-ni ko'rganlaridami, judayam qayg'urgan bo'lardilar, lekin tushimda ko'rganimda doim baxtiyor va mehribon bo'ladilar.

Kekxa xonim hech nima demadi; oldin ko'zlarini, keyin esa adyol ustida yotgan ko'zoynagini (go'yo u ko'zlarining ajratib bo'lmaydigan bir qismiday) artdi-da, Oliverga odamni muzdek qiladigan allaqanday ichimlik berdi, so'ngra yuzini silay turib, qimirlamay yotishi zarurligini, yo'qsa tag'in tobi qochib qolishi-ni uqtirdi.

Oliver qisman bu mehribon kekxa xonimning hamma aytgan-larini so'zsiz bajarish, qisman esa, rostini aytganda, hozirgi suh-batdan keyin nihoyatda madori qurigani sababli qimir etmay yo-tardi. Hademay mudrab ketdi, bir payt to'shagi yoniga keltirib qo'yilgan sham shu'lasidan uyg'onib, qattiq-qattiq chiqillayotgan kattakon oltin soatni ushlagan ko'yi o'zining tomir urishini tek-shirayotgan jentlmenni ko'rdi, u kishi, bola ancha tuzalib qolib-di, dedi.

— Ancha tuzalib qolding-a, shunday emasmi, bo'tam? — dedi o'sha jentlmen.

— Ha, rahmat sizga, — javob berdi Oliver.

— Durust bo'lib qolganingni ko'rib turibman, — dedi yana o'sha jentlmen. — Innaykeyin, qorning ham ochqab turibdi-ya, to'g'rimi?

— Yo'q, ser, — javob qildi Oliver.

— Hm! — dedi jentlmen. — Ovqat yeging kelmayotganini o'zim ham bilaman. Uning ishtahasi yo'q, missis Beduin, — dedi jentlmen donishmandona qiyofada.

Keksa xonim ehtirom-la bosh egib qo'yar ekan, bu bilan doktorni g'oyatda dono odam deb hisoblashini anglatayotganday bo'ldi. Aftidan, doktorning o'zi ham shu fikrda edi.

— Nuqul uyqing kelaveradi, to'g'rimasmi, bolakay? — dedi doktor.

— Yo'q, ser, — javob qildi Oliver.

— Shundoq degin! — dedi doktor nihoyatda mamnun hamda zakiyona bir qiyofada. — Seni hadeb uyqu ham bosavermaydi. Keyin, suv ichging ham kelmaydi-ya.

— Suv ichgim keladi, ser, — javob berdi Oliver.

— O'zim ham xuddi shunday deb o'ylagandim, missis Beduin, — dedi doktor. — Suv ichgisi kelgani judayam tabiiy. Unga ozroqqina choy, keyin yog'siz bo'g'irsoq bersangiz bo'ladi, xonim. Judayam unaqangi isitib yuboradigan qilib qalin burkab qo'ymang, illo ehtiyot bo'ling, sovqotib ham qolmasin.

Keksa xonim tiz bukib, ta'zim bajo keltirdi. Doktor tetiklantiradigan ichimlikdan totinib, uni maqtab qo'ydi-da, shoshilinch chiqib ketdi; u pillapoyadan tushayotganida boshmoqlari qattiq va oliftachasiga g'archillangani eshilib turdi.

Shundan so'ng hech qancha vaqt o'tmay Oliver yana mudrab ketdi, uyg'onganida esa yarim kecha bo'lib qolgandi. Keksa xonim erkalatib xayrli tun tilab, uni kichkinagina duolar kitobchasi bilan kattakon tungi qalpoq o'ralgan tugunchasini ko'tarib hozirgina kirib kelgan semiz kampirning izmida qoldirib, chiqib ketdi. Kampir qalpog'ini boshiga qo'ndirib, duolar kitobchasini stolga qo'ygach, kechasi unga qarab turgani kelganini aytdi, keyin kursini kaminga yaqinroq surdi-da, uyquga ketdi; uyqusi bo'lsa dam-badam buzilib turardi, nega deganingizda xuddi don cho'qiyotgan tovuqdek boshi munkib-munkib ketar, ihrab-inqillar va pihillardi. Darvoqe, u bundan hech qanaqangi ziyon-zahmat chekmayotgandi, faqat vaqti-vaqti bilan uyg'onib ketib, burnini qattiq-qattiq ishqab qo'yardi-da, tag'in uyquni uraverardi.

Tungi soatlar imillab o'tardi. Oliver allamahalgacha qamish sham\* shu'lasini tushib shiftda hosil bo'lgan va lipillayotgan yorug' doirachalarni sanab, yoxud horg'in nigohi-la devorga yopishtirilgan gulqog'ozlarning aji-buji rasmlarini tomosha qilgancha uxlamay yotdi. Xonani o'z og'ushiga olgan g'ira-shiralik va osudalik vahimali tantanavorlik kasb etardi. Ular bolaning ko'ngliga talaygina tun-u kunlar mobaynida bu yerda ajal kezib yurgan, ehtimol, hozir ham uning bu yerda bo'lganidan dalolat beruvchi dahshatli izi saqlanib qolgandir, degan qutquli fikrni solib turardi: bola yuzini yostiqqa bosganicha, zo'r berib duo o'qishga tushib ketdi.

Axiyri u yaqiningnada chekilgan iztiroblardan keyingina keladigan gattiq va xotirjam, buzish azob beradigan orombaxsh, tinch-u osuda uyquga ketdi. Basharti o'lim shunday bo'ladigan bo'lsa, yashash uchun kurashmoq, hayotning shu topdagi jamiki tashvish-g'amlarini chekmoq, kelajagi tashvishini tortmoq va avvalo, o'tmishining og'ir xotirotlarini yodlamoq uchun qaytadan tirilishni kim ham istardi deysiz!

Oliver ko'zini ochganida allaqachon tong otib bo'lgandi; u o'zini tetik va baxtli his etdi. Kasalning xatarli davri muvaffaqiyatli o'tib bo'lgandi. Oliver yana hayotga qayta boshlagandi.

Oradan uch kun o'tdi, u atrofiga yostiq qo'yib kresloda o'tira oladigan bo'ldi; lekin hamon kamquvvat bo'lgani va yura olmasligi tufaylidan missis Beduin — ro'zg'or boshqaruvchi — uni pastga, o'zi turadigan mo'jazgina xonaga ko'tarib olib tushdi. Bu yerda uni kamin oldiga o'tqazib, mehribon kekxa xonimning o'zi ham o'tirdi-da, bolaning o'zini yaxshi his qilayotganidan xursand bo'lib, hazilakamiga yig'lab olmadi.

— Menga parvo qilma, bolajonim, — dedi kekxa xonim. — Bir yig'lab yuragimni bo'shatib olmoqchiman... Mana, bo'ldi, tamom, mening ham ko'nglim chiroqday yorishib ketdi.

— Siz juda, judayam mehribonlik qilyapsiz menga, xonim, — dedi Oliver.

— Qo'y-qo'y, buni kallangdan chiqarib tashla, bolajonim, — dedi kekxa xonim. — Sho'rvangga buni sirayam aloqasi yo'q, sen bo'lsang uni allaqachon ichib olishing keragiydi, nimaga desang, doktor mister Braunlougga bugun ertalab seni kirib ko'rishiga ruxsat bergan, shuning-chun aft-angoring joyida bo'lishi kerak: rangi ro'ying qanchalik yaxshi bo'lsa, u shunchalik xursand bo'ladi. Shunday deya kekxa xonim kastyulkadagi talaygina qaynatma sho'rvani ilitishga kirishdi, sho'rva shunchalik quyuq va mazali ediki, Oliverning fikricha bu sho'rvaga o'rinlatib suv qo'shilsa, kam deganda uch yuz ellik qashshoqqa tushlik ovqat o'rnida o'tishi mumkin edi bimalol.

— Sen suratni yoqtirasanmi, bolaginam? — deb so'radi kekxa xonim Oliverning o'zi o'tirgan kresloning ro'parasida, devorda osig'liq turgan suratga tikilayotganini payqab.

— Rosti, o'zim ham bilmayman, xonim, — javob berdi Oliver rasmdan ko'zini olmay. — Suratni juda kam ko'rganman, shuning-chun o'zim ham yaxshi bilmayman. Bu xonimning yuzi judayam chiroyli, muloyim ekan-a!

— Be-ye! — dedi kekxa xonim. — Suratkashlar xonimlarni hami-sha asldagiga qaraganda chiroyliroq qilib chizishadi, bo'lmasa hech kim suratini buyurtirmaydi-da, bolaginam. Surat oladigan mashi-

nani o'ylab chiqargan odam o'sha mashinasi muvaffaqiyat qozonolmasligining fahmiga yetishi keragidi. Nega deganingda, u borini, ha, qozonda borini cho'michga chiqaradi-qo'yadi, — dedi kekxa xonim o'zining o'tkir so'z topganiga chin dildan quvonib.

— Bu... bu qo'lda chizilganmi, xonim? — so'radi Oliver.

— Ha, — dedi kekxa xonim bir nafasgina sho'rvadan diqqati chalg'ib, — bu portret.

— Kimniki, xonim? — so'radi Oliver.

— Ochig'i, bilmayman, bolajonim, — ochiqko'ngillik bilan javob qildi kekxa xonim. — Menimcha, suratdagi bu xonimni ikkovimiz ham tanimasak kerak. Chog'imda surat senga yoqib qolganga o'xshaydi, a?

— Judayam chiroyli ekan, — dedi Oliver.

— Tag'in undan cho'chiyotgan bo'lmagin? — so'radi kekxa xonim, bolakayning suratga qandaydir bir ixlos, ayni chog'da hadik-la javdirab tikilayotganini ko'rib bag'oyat taajjublanar ekan.

— Yo'-o'q! — tez javob qaytardi Oliver. — Ko'zlari juda qayg'uli ekan, keyin men o'tirgan joydan nuqul yuzimga tikilayotganga o'xshab ko'rinyapti. Shundan bo'lsa kerak, yuragim gusura-gusur urib ketyapti, — deb qo'shib qo'ydi Oliver shivirlab, — xuddi bu suratning joni bor, men bilan gaplashgisi kelayotibdi-yu, lekin gapirolmayotganga o'xshaydi.

— Xudovandi karimning o'zi kechirsin-a! — deya xitob qildi kekxa xonim, bir seskanib tusharkan. — Bunaqa deyish yaxshimas-a qo'zichog'im. Hali zaifsan, innaykeyin, kasaldan keyin asablarning ham hali joyiga tushgani yo'q. Kel, kresloingni narigi devor tomonga surib beray, ana unda ko'rinmaydi senga. Mana bundoq! — dedi kekxa xonim o'ylagan rejasini amalga oshirib. — Mana endi uni ko'rmaysan.

Oliver uni, go'yo joyini o'zgartirmagandek, ruhiyati, — dil ko'zlari bilan yaqqol ko'rib turardi; biroq mehribon kekxa xonimni ranjitgisi kelmadi; shu boisdan ham u xonim yuziga qaraganida muloyimgina jilmayib qo'ya qoldi. Uni tinchlandi deb suyungan missis Beduin esa sho'rvaga tuz solib, qoq nondan tashladi; ana shu tantnavor tadorik-tadbirni kuydi-pishdilik bilan ado etdi. Oliver sho'rvani hash-pash deguncha surobini to'g'riladi. Oxirgi qoshiqdagi sho'rvani yutib bo'lar-bo'lmasidan eshik astagina tiqilladi.

— Kiravering, — dedi kekxa xonim.

Shunday deyishi bilanoq mister Braunlou kirib keldi.

Kekxa jentlmen xonaga dadil kirib keldi-yu, lekin Oliverga tuzukroq tikilish uchun ko'zoynagini peshonasiga ko'tarib, qo'llarini xalati ostidan ortida chalmashtirgani zahoti afti g'alati bir tarzda uchib

-uchib qo'ya boshladi. Oliver darddan so'ng tinka-madori qurigan va rangi nihoyatda siniqqan ko'rinardi. U o'z valine'matiga hurmati yuzasidan turmoqchi bo'lib urindi-yu, ammo bu urinishi qaytadan kresloga shilq etib tushish bilan tugadi. Bashartiki haqiqatni aytadigan bo'lsak, mister Braunlouning insonparvarlikka moyilligi besh-o'n chog'li kekxa jentlmenga yetgulik ulkan qalbidagi allaqanday bir ichki tuyg'u ko'zlariga yosh qalqtirdi, yetarli darajadagi faylasuf bo'lmaganimiz tufaylidan buning qanday tuyg'u ekanini tushuntirib berishdan bosh tortamiz.

— Bechora bola, sho'rlik go'dakkina-ya! — tomoq qira-qira dedi mister Braunlou. — Bugun desangiz, missis Beduin, tomog'im picha bo'g'ilib qolibdi. Shamollab qoldimmikin, deb cho'chib turibman-da.

— Xudo asrasin-a, ser, undaymasdir-ov, — dedi missis Beduin. — Hamma buyumlaringiz yaxshilab quritilgandi, ser.

— Bilmadim, Beduin, bilmadim, — dedi mister Braunlou. — Nazdimda, kekxa tushlik paytida menga ho'l sochiq berishganday bo'lishgandi, lekin buning ahamiyati yo'q... Ahvoling qalay, tuzuk-misan, bo'talog'im?

— Juda yaxshi, ser, — javob qildi Oliver. — Menga ko'rsatayotgan mehribonchiligingiz uchun rahmat sizga, ser.

— Ajoyib bola... — dedi mister Braunlou qat'iy. — Biron nima berdingizmi unga, Beduin? Suyuqqina sho'rva-po'rva ichirdingizmi?

— Ser, u hozirgina kobili qaynatma sho'rvadan bir taqsimchasini ichib oldi, — missis Beduin qaddini g'oz tutib javob berarkan, suyuqqina sho'rva pazandalik ila tayyorlangan qaynatma sho'rva bilan ikki dunyoda ham tenglasha olmasligiga shama qildi.

— Uh! — deb qo'ydi mister Braunlou yelkalarini uchirib. — Yaxshi portveyndan ikki qadahginasi undan ko'ra ko'proq foyda qilgan bo'lardi bolaga. To'g'rimasmi, Tom Uayt?

— Mening ismim Oliver, ser, — dedi kichkina bemor hayron bo'lib.

— Oliver, — takrorladi mister Braunlou. — Oliver, xo'sh, u yog'ichi? Oliver Uayt, shundaymi?

— Yo'q, ser, Twist; Oliver Twist.

— G'alati ism-sharif! — deb qo'ydi kekxa jentlmen. — Nimaga unda sudyaga Uayt deding?

— Men unga bunday deganim yo'q, ser, — e'tiroz bildirdi Oliver esankirab.

Uning bu gapi shunchalik yolg'onga o'xshab ketdiki, oqibatda kekxa jentlmen nihoyatda jiddiy tikildi. Bolaga ishonmaslik aqlga to'g'ri kelmasdi shu topda: etsiz, latif chehrasida rostgo'ylik aks etib turardi.

— Qandaydir tushunmovchilik bo'libdi-ku! — dedi mister Braunlou.

Uning Oliverga tikilib turish uchun boshqa asosi qolmagandi, biroq shu topda bolaning qaysidir tanish chehraga o'xshashligi haqidagi fikr kekxa jentlmenni qaytadan shunday bir kuch-la band etib olgandiki, qariya sira undan ko'z uzolmasdi.

— Mendan jahlingiz chiqmayotgan bo'lsa kerag-a, ser? — so'radi Oliver unga iltijo-la javdirab.

— Aslo! — dedi kekxa jentlmen. — Bu qanaqasi bo'ldi?.. Beduin, bir qarang-a!

Shunday derkan, u shosha-pisha bolaning tepasidagi suratni, keyin Oliverning basharasini ko'rsatdi. Quyib qo'ygandek o'zginasi. O'sha suratdagi yuz bichimi, o'sha ko'z, o'sha manglay, o'sha og'iz. Yuz ifodasi naq o'zginasi, bamisoli har bitta chiziq zargarona san'at bilan ko'chirib qo'yilganday!

Oliver bunday tasodifiy xitobning boisini bilolmadi, zero buning oqibatida kelib chiqqan asabiy hayajonga dosh beradigan quvvati yo'q edi hali, shul sabab u hushdan ketdi.

Unda namoyon bo'lgan zaiflik hozircha bolani holi qoldirib, kitobxonning quvnoq kekxa jentlmennning ikki o'spirin shogirdiga bo'lgan qiziqsinishini qondirib, Tullak va uning muhtaram do'sti yosh Beytsning yuqorida tavsif etganimizdek, mister Braunlougga qarashli xususiy buyumni g'ayriqonuniy ravishda o'zlariniki qilib olganlari oqibatida boshlangan ta'qibda qatnashib, Oliver ketidan quvayotgan paytlarida o'z jonlari g'amini yeyishdek maqtovga loyiq tuyg'u izmida bo'lganlari to'g'risida hikoya qilish imkonini beradi. Bashartiki haqiqiy ingliz eng avvalo va nihoyatda mag'rurlanib, o'z fuqarolik erk-ixtiyori-yu shaxs erkinligi bilan maqtanib yurar ekan, u choqda Tullak hamda yosh Beytsning xatti-harakati (o'z tinchligi-yu halovati tashvishini chekayotganining ushbu rad etib bo'lmas dalil-isboti, ba'zi teran fikrli faylasuflar Tabiat deb atalmish farishtaning butun faoliyat-qilmishlarini asos qilib olgan mo'jazgina qonunlar majmuasi qayd va tasdiq etgani kabi) jamiki jamoat arboblari-yu vatanparvarlar ko'zi o'ngida oshnalarining mavqei-e'tiborini bir pog'ona ko'tarishi lozim ekaniga kitobxon diqqatini tortib o'tirishning hojati bo'lmasa kerag-ov! Hozirgina zikr etib o'tganimiz faylasuflar o'sha saxiy farishtaning faoliyatini nazariya va tartib-qoidalarda g'oyatda donishmandlarcha mujassam etib, uning teran dahosi, oqil-u fozilligiga seriltifot, xushyoqar hamdu sano o'qiganlar-u, ammo unga yurakka, olijanob tilag-u maylga hamda his-tuyg'ularga dohil jamiki narsani mutlaqo yo'latmaganlar. Zotan, ushbu sifat-u fazilatlarini umumning rizoligi-la o'z jinsiga xos behisob mayda-chuyda qusur-u ojizliklardan ustun turadi, deb tan olingan farishta uchun mutlaqo nomunosib hisoblaganlar.

Mabodo kaminalari uchun falsafiy jihatdan bu yosh jentlmenlarning xulq-atvorlariga nafi tegadigan birorta dalil-isbot zarur bo'lganidami, kamina shu zamonAQ (ushbu hikoyatimizning oldingi bobida aytib o'tilgan) bir dalilni, ya'ni hammaning diqqat-e'tibori Oliverga qaratilgach, ularning ta'qibni bas qilib, darhol eng qisqa yo'l bilan uyga qaytganlarini misol keltirgan bo'lardim. Kamina ma'lum-u mashhur, hamma narsadan boxabar donolar buyuk fikr-xulosalarga eltguvchi so'qmoqlarni qisqartirish odatiga egalar, deb da'vo qilmoqchi emasman-u (aslida, ular ko'proq mavzudan chalg'ituvchi turlicha ezmalik va ikkilanishlar yordamida, qorishib, g'uj'ona o'ynab ketgan fikr-o'ylari tazyiqi ostida qolgan mast kishilarday, masofani uzoqlashtirishga moyildirlar), biroq shuni aytish niyatidaman va buni ishonch bilan qayd etamanki, talay buyuk faylasuflar nazariyani rivojlantira turib, o'zlari uchun zarracha bo'lsin xavf tug'diradigan jamiki tasodiflarga qarshi oldindan chora ko'rib qo'yadilar va bu bilan beqiyos donishmandlik va tadbirkorliklarini namoyon etadilar. Shu tariqa, ulug'vor ezgulik yaratmoq uchun siz kichkinagina yomonlik qilish huquqiga egasiz, oldingizga qo'ygan niyat-maqsadningiz pirovardida bemalol oqlay oladigan har qanday tadbir-u usulni qo'llasangiz bo'laveradi. Yaxshilik va yomonlik darajasini, hatto ular orasidagi tafovutni aniqlash butunicha bundan manfaatdor faylasufning inon-ixtiyoriga berib qo'yiladi, zotan u har bir ayrim voqeahodisani oqilona, aniq hamda xolisanolillo tahlil-u tadqiq yo'li bilan aniqlayversin.

Ikkala bola tor hovli-yu jinko'chalardan g'izillagancha o'tib borib, pastak va g'ira-shira darvozaxonaga yetganlaridagina to'xtashga jur'at etishdi. Bu yerda nafasni rostlab yana gapira oladigan holatga kelgunlaricha qancha vaqt zarur bo'lsa, roppa-raso shuncha vaqt miq etmay turishdi, keyin yosh Beyts sho'xligi tutib, qiyqirib kulgancha, o'zini tappa pillapoyaga tashladi-yu, zavqi jo'shib u yoqdan-bu yoqqa ag'anayverdi.

— Nima bo'ldi? — surishtirdi Tullak.

— Xa-xa-xa! — xoxolardi Charli Beyts.

— Yum og'zingni, — buyurdi Tullak ehtiyotkorlik bilan atrofga alanglab. — Nima, ilintirib ketishlarini xohlayapsanmi, ahmoq?

— Hech o'zimni to'xtatolmayotibman, — dedi Charli, — o'zimni to'xtatolmayotibman. Qandoq juftakni rostlaganini qara, muyulishdan burildi-yu, yo'l chetidagi ustunga urilib ketdi, o'ziyam xuddi ustunga o'xshab temirdan yasalganday, yana o'pkasini qo'ltiqlagancha tuyog'ini shiqillataverdi, ro'molcha bo'lsa mening kissamda, o'zim bo'lsam ketidan, ushlanglar, deb baqirib yotibman. E Xudoyim-ey!

Yosh Beytsning tasavvuri butun manzarani haddan ziyod yorqin bo'yoqlarda jonlantirgan edi. Shunday deya xitob qilgach, u yana pil-lapoyada u yoqdan-bu yoqqa dumalaganicha, battarroq xoxolayverdi.

— Fedjin nima deydi endi? — deb so'radi Tullak sherigi kulaverib nafasi tiqilib qolgan paytdan foydalanib.

— Nima? — qaytarib so'radi Charli Beyts.

— Xuddi shu — nima bo'ldi deyishini aytyapman-da, — takrorla-di Tullak.

— Xo'sh, u nima deyishi mumkin? — so'radi Charli xursandchili-gi birdan ichiga tushib ketib, nega deganingizda Tullakning avzoyi jiddiy edi. — Nima deyishi mumkin?

Mister Daukins bir-ikki daqiqa hushtak chalib turdi, so'ngra shlyapasini yechib, boshini qashib, uch karra bosh irg'ab qo'ydi.

— Nima demoqchisan o'zi? — so'radi Charli.

— Tarala-bedod! Bema'ni gap bo'ldi-ku, jin urgur! — dedi Tullak. Shu asnoda uning aqli basharasida istehzoli kulgi paydo bo'ldi.

Bu — odamni qanoatlantirmaydigan sharhlov bo'ldi. Yosh Beyts aynan shunday deb topdi va takroran so'radi:

— Nima demoqchisan o'zi?

Tullak javob bermadi; shlyapasini kiyib, uzun kamzuli barini ba-landroq ko'tardi-da, odaticha tili bilan lunjini olti martacha g'urra qilib shishirib keyin ma'nodor qilib qanshariga sharaq etkizib tu-shirdi-yu, tovonida chir aylanganicha hovliga urib ketdi. Yosh Beyts o'ychan qiyofada orqasidan ergashdi.

Ana shu suhbatdan bir necha daqiqa o'tgach, g'ijildoq zinapoya-dan kelayotgan odim sharpalari o'choq oldida chap qo'lida arzon kolbasa bilan non, o'ng qo'lida esa buklama pichoqni ushlab o'tirgan keksa quvnoq jentlmenning diqqatini tortdi; uchoyoqda qalayi kas-tryulka turardi. U qayrilib qarab qo'ydi, keyin baroq malla qoshlari ostidan sergaklik bilan tikilgan ko'yi eshikka tomon burilib, quloq sola boshlaganida zahil yuziga jirkanch bir irshayish qalqdi.

— Qanaqasi bo'ldi bu? — ming'irladi juhud avzoyi o'zgarib. — Ikkitasi qaytibdimi? Uchinchisi qayoqda qoldiykin? Ishlari pachava bo'lishi mumkinmasdi-ku.

Odim sharpalari tobora yaqinlashib kelardi; mana, deyarli zi-napoyaning tepadagi maydonchasidan eshitilyapti. Eshik astagina ochildi, Charli Beyts bilan birga ichkari kirgan Tullak uni yopib qo'ydi.

---

**XIII BOB. ZIYRAK KITOBXONNI YANGI SHAXSLAR BILAN  
TANISHTIRADI; SHU MUNOSABAT BILAN  
MAZKUR HIKOYATGA TAALLUQLI TURLI  
QIZIQARLI NARSALAR HAQIDA HIKOYA QILADI**

— Oliver qani? — dag'dag'ali qiyofada so'radi juhud o'rnidan sapchib turarkan. — Bola qani?

Yosh o'g'rivachchalar o'z ustozlariga, uning keskin harakatlari-dan tahlikaga tushib tikilishar ekan, xavotirda bir-birovlariga qarab qo'yishdi. Ammo ular churq etib javob qaytarishmadi.

— Bolaga nima bo'ldi? — deya qichqirdi juhud Tullakning yo-qasiga chang solib, keyin kurakda turmaydigan haqoratli so'zlar bilan so'ka ketdi. — Javob ber, bo'lmasa bo'g'ib o'ldiraman!

Mister Fedjin mutlaqo hazillashmayotgandi, shunda o'z xavfsizligi g'amini yeyishni maqbul bilgan va keyin o'zining ham bo'g'ilib o'lish navbati kelishi tayin ekanini ko'rib turgan Charli Beyts tiz cho'kdi-yu, quturgan buqa bilan karnayning o'kirig'i oralig'idagi o'kiriqqa o'xshash ovozda qattiq, to'xtamay bo'kiraverdi.

— Gapirasanmi, yo'qmi? — ovozi boricha baqirdi juhud, Tullak-ni u shunday kuch bilan silkilardiki, bolaning nega keng kamzuli ichidan otilib chiqib ketmayotgani bir mo'jizadek tuyulardi.

— Iskovuchlar ilintirib ketishdi, bor gap shu! — dedi Tullak zarda bilan. — Qo'yvoring meni, eshityapsizmi!

Tullak bir yulqinib, keng kamzulini juhudning qo'lida qoldir-gancha ichidan surg'ilib chiqdi-yu, bo'g'irsoq qovuradigan sanchqi-ni ola solib, keksa quvnoq jentlmenning nimchasini mo'ljallab tu-rib daf qildi; mabodo bu hamlasi muvaffaqiyatli chiqqanda bormi, qariya ancha-muncha quvnoqligidan ayrilishi turgan gap edi, keyin uning o'rnini to'ldirish oson bo'lmasdi.

Aynan shu tahlikali lahzada juhud bunday zaif va to'kilib tur-ganday ko'ringan odamdan kutish qiyin bo'lgan bir chaqqonlik bi-lan chetga sapchidi-yu, ko'zani ola solib, raqibi boshini mo'ljallab baland ko'tardi. Biroq xuddi shu soniyada Charli Beyts rostdan ham odamning kapalagini uchirib yuboradigan bo'kirig'i bilan diqqatini tortib qoldi-yu, chol to'satdan fikridan qaytib, ko'za bilan yosh jentl-menlardan o'shanisini tushirdi.

— Bu qanaqangi mashmasha! — deya to'ng'illadi kimdir. — Buni kim uloqtirdi? Yaxshiki ko'zani o'zimas, ichidagi pivosi tegdi menga, bo'lmasa birortalaringni abjaqlaringni chiqarib qo'yardim-a!.. Xud-



di shundoq! Bu jin chalib, jabbor urgur boy, talonchi, qari juhuddan boshqa kim ham shundoq ichimlikni uvol qilardi! Ehtimol, suvni to'kar, o'shandayam mabodo har uch oyda Vodoprovod kompaniyasini aldab tursagina... Nima gap, Fedjin? Obbo, sharfim pivo tegib shiltayi shalabbo bo'ldi-da!.. Beri kel, hoy pastkash maxluq, xuddi o'z egangdan uyalayotganday, nimaga eshikning orqasida o'ralashyapsan. Kir bu yoqqa!

Bu so'zlarni aytayotgan nusxa o'ttiz besh yoshlar chamasidagi qora chiyduxoba kamzul, isqirt kalta cholvor, tizimchali boshmoq va kulrang ip paypoq kiygan barvasta yigit bo'lib, paypog'i ostidan bol-diri bo'rtib turardi — basharti uni kishan bezab turmagan bo'lsa bunday kiyinilganda unaqangi oyoqqa nimadir yetishmayotganday tuyuladi hamisha. Yigitning boshida jigarrang shlyapa; bo'yniga o'rab olgan olachipor sharfining uzun uchi bilan esa pivo sachragan aftini artardi. Bu ishini tugatarkan, dag'al, yapasqi yuzi ko'rindi, soqoli esa bir necha kundan buyon ustara ko'rmagan; ko'zlari g'amgin; bir ko'zi tegrasini yaqindagina yegan zarbasidan dalolat beruvchi rang-barang dog'-dug'lar qurshab olgan.

— Bu yoqqa deyaрман, eshityapsanmi? — to'ng'illadi bu yoqimtoy nusxa.

Xonaga tumshug'i tirnalgan, oppoq baroq junli it jilpanglab kirib keldi.

— Nega oldinroq kirmading? — dedi yigit. — Men bilan odamlarning ko'ziga ko'rinishdan or qiladigan bo'lib, juda-a dimoqlari shishib ketibdi-da, a? Yot!

Buyruq tepki hamrohligida yangradi, jonivor it xonaning narigi burchiga borib tushdi. Lekin it bunga ko'nikib ketgan shekilli: jimgina, g'ing demay, sovuq ko'zlarini har daqiqada yigirma martalab pirillatib yumib-ochgancha burchakda pusibgina yota qoldi, u go'yo xonani nazardan o'tkazishga jazm qilganga o'xshardi.

— Nimalar qilyapsiz bu yerda: qurumsoq, ochofat, yebto'ymas chol, o'g'irlik mollar gumdonchisi, bolakaylarni qiynab yotibdilar-mi deyman-a? — so'radi barvasta yigit, xotirjamgina kursiga cho'kar ekan. — Bularning shu paytgacha sizni gumdon qilib qo'ya qolishmaganiga hayronman! Ularning o'rnida bo'lsam, albatta shundoq qilardim! Ha, allaqachon shundoq qilgan bo'lardim, sizning shogirdingiz bo'lganimda... va... e-yo'q, sotolmasdi sizni, nimagayam yarardilar o'zlari?! Faqat noyob bedavo nusxa sifatida shisha bankada asrasa bo'larku-ya, lekin bunaqangi katta shisha bankalarni yasashmaydi chog'i.

— Sekinroq, — dedi juhud qaltirab. — Mister Sayks, bunaqangi shang'illamang.

— Qo'ying o'sha mister-pisterlaringizni! — javob qaytardi barvasta yigit. — Mana shunaqangi balandparvoz gapira boshladigiz deguncha doim dilingizda bironta shum niyat bo'ladi. Mening ismi sharifimni biladilar o'zlari, shundoq ekan, o'z otimni aytavering-da! Vaqti-soati yetganda unga dog' tushirmayman, ishonavering!

— Barakallo, ayni haq gap, Bill Sayks, — dedi juhud qabihona yaltoqilik bilan. — Kayfiyatingiz buzuk ko'rinadimi, Bill?

— Balkim shundaydir, — javob qildi Sayks. — Men sizga aytsam, o'zlariniyam kayfiyatlari joyidamasroq shekilli, yoki ko'zani ulotqirganda hech kimga ziyon keltirmayman deb hisoblaydilar mi yoki...

— Esingiz joyidami o'zi? — ovozini xiyol balandlatdi juhud yigitning yengidan ushlab, bolalar tomonga ishora qilib.

Mister Sayks chap qulog'i ostida xayoliy tugunni tugib qo'ygandek bir harakat bilan kifoyalanib, boshini o'ng yelkasiga qiyshaytirdi, juhud bu so'zsiz ishorani juda yaxshi tushundi chamasi. Keyin mister Sayks butun gap-boshi tushunib bo'lmaydigan so'zlar bilan to'lib-toshgan lahjada — agar bu so'zlarni shu yerda keltiradigan bo'lsak, bari bir mutlaqo tushunilmay qolishi turgan gap — bir qadahgina ichimlik talab qildi.

— Lekiniga zahar solishni xayol qilib o'tirmasinlar-a, — dedi u shlyapasini stolga qo'yar ekan.

Bu gap hazil tariqasida aytilgan edi, ammo u juhudning darg'azab chimirilib, qoni qochgan labini tishlagancha bufetga qarab o'girilib olganini ko'rganida bormi, ehtimol kallasiga, ehtiyotkorlik keksa quvnoq jentlmen uchun ham ortiqchalik qilmaydi, har qalay, ichimlik quvvatini oshiraman, deb yanglishib ketishi ham mumkin-ku, degan o'y kelarmidi.

Mister Sayks ikki-uch qadah otib olgach, yosh jentlmenlarga e'tibor qilishdek iltifot ko'rsatdilar; u kishi tomonlaridan ko'rsatilgan iltifot shunday suhbatga olib keldikim, oqibatda Oliverning qo'lga tushishining barcha sabab-u tafsilotlari — faqat Tullak mazkur sharoitda zarur va o'rinli deb sanagan ba'zi qo'shib-chatishlar-u o'zgartishlar bilan, bittama-bitta, batafsil bayon qilindi.

— Ishqilib, og'zidan biron nimani gullab qo'yib, falokat orttirib o'tirmasin deb cho'chiyapman-da... — dedi juhud.

— Har balo bo'lishi mumkin, — javob berdi Sayks zaharxanda tirjayib. — Sizni sotishlari turgan gap, Fedjin.

— Keyin, yana shundan cho'chib turibmanki bilsangiz, — so'zini davom ettirdi juhud gapini bo'lganlariga e'tibor bermayotganday va ayni paytda suhbatdoshidan ko'zini uzmay, — shundan cho'chiymanki, agar ishimiz ketiga ketadigan bo'lsa, unda boshqa

ba'zi birovlar ham chetda qolmas, o'zlariga esa, chamamda, mendan ko'rayam chatoqroq bo'lsa ajab emas, azizim.

Barvasta yigit bir seskanib tushib, shartta juhud tomon o'girildi. Shunda kekxa jentlmen kiftlarini naq quloqlarigacha uchirib qo'ydi, ko'zlari bo'lsa qarshi tomondagi devorga parishonhol tikilgandi.

Oraga uzoq jimlik cho'kdi. Aftidan, bu e'tiborli shirkatning har qaysi a'zosi o'z o'y-xayollariga cho'ngandi, go'yo it ham bundan mustasno emasday, xuddi ko'chaga chiqqanida dastlab uchraydigan jentlmen yoki xonimning oyog'iga tashlanishi ustida bosh qotirayotganday badxohlik bilan yalanib-tamshanardi.

— Birov borib, u yoqda, sudyaning xonasida nima bo'lganini bilib kelishi kerak, — dedi mister Sayks xiyla bosiq ohangda.

Juhud maqbul deganday bosh irg'ab qo'ydi.

— Agar u sotmagan va turmaga tushgan bo'lsa, to uni qo'yib yuborgunlaricha qo'rqadigan joyi yo'q, — dedi mister Sayks, — keyin esa uni ko'zdan qochirmaslik kerak. Siz uni bir amallab yana qo'lga olishingiz zarur.

Juhud yana bosh irg'adi.

Bunday harakat qilish rejasi oqilona edi-yu, lekin baxtga qarshi, bitta g'oyatda jiddiy vaj monelik qilib turardi. Gap shundaki, Tullak ham, Charli Beyts ham, Fedjin-u mister Uilyam Sayks ham, har qanday asos-u har qanday bahonalari bo'lgan taqdirda ham, politsiya mahkamasi atrofida o'ralashishni jin-jinlaridan xushlamasdilar.

Bundayin ko'ngilsiz holatda, bir-birovlariga tikilgan ko'yi yana qancha o'tirishlari mumkinligini aytish mahol edi. Darvoqe, bi-ror taxmin-u chama qilib o'tirish zaruriyati ham qolmadi, negaki to'satdan Oliver ilgari ko'rgan ikki navqiron xonimchalar kirib kelishdi-yu, suhbatga jon kirdi-qo'ydi.

— Mana, o'zi yetkazdi bizga kerak odamni! — dedi juhud. — Bet boradi. Borasan-a, qizalog'im?

— Qayoqqa? — surishtirdi yosh xonim.

— Bor-yo'g'i, shu, politsiya mahkamasiga, xolos, azizim, — dedi juhud yaltoqlanib.

Yosh xonimga tan berish kerak: u to'g'ridan-to'g'ri bormayman, deb shartta aytmadi-yu, biroq «u yoqqa borgandan ko'ra baloginaga yo'liqib qo'ya qolgani» yaxshi ekanligini ayon qildi kuyib-pishib. Bu xushmuomalalik bilan, muloyimgina qilib gapni chalg'itish yosh xonimning o'z yaqinlarini betgachoparlik va shartakilik bilan ranjitishga yo'l qo'ymaydigan chinakam hoo-dob qiz ekanining dalolati edi.

Juhudning afti cho'zilib ketganday bo'ldi. U, bashang deb bo'lmasa hamki, rang-barang qilib — qizil ko'ylak, yashil tufli, sariq

papilotka<sup>1</sup> — kiyingan bu navqiron xonimdan yuzini burib, boshqasiga murojaat etdi:

— Nensi, qizginam, — xushomad qildi qizga, — sen nima deysan?

— Bunday qilish yaramaydi, deyman, shundoq bo'lgach, majbur qilishning hojati yo'q, Fedjin, — javob berdi Nensi.

— Bu bilan nima demoqchisan? — gapga aralashdi mister Sayks qizga xo'mrayib qararkan.

— Hozir aytganimni, Bill, — javob qildi xonimcha sovuqqonlik bilan.

— Hammadan ko'proq sen bopsan-ku bunga, — dedi mister Sayks. — U yerda sen to'g'ringda hech kim hech nima bilmaydi.

— Shuning uchun ham hech nima bilmay qo'ya qolishsin deyman-da, — dedi Nensi boyaginday bosiqlik bilan, — shuning uchun «xo'p» demay, «yo'q» deganday qilyapman-da, Bill.

— Boradi u, Fedjin, — dedi Sayks.

— Yo'q, u bormaydi, Fedjin, — dedi Nensi.

— Boradi u, Fedjin, — takrorladi Sayks.

Mister Sayks yanglishmagan edi. Do'q-po'pisa, va'da-yu xayr-sadaqalar yordamida nomi zikr etilgan xonimchani oxir-oqibat bu vazifani ado etishni o'z zimmasiga olishga majbur qildilar. Haqiqatini olganda ham, jonajon dugonasiga monelik qilib turgan mulohazalar unga xalal berolmasdi: chekkaroqdagi, biroq Retklif katta yo'li\* yaqinidagi aslzodalar dahasidan Fild-Leynga yaqiningada ko'chib kelgani sababli behisob tanish-bilishlaridan birortasi ko'rib qolishidan xavotir qilmasa ham bo'lardi.

Axiyri ko'ylagi ustidan oppoq, chinniday peshband tutib, papilotkasini poxol shlyapa ostiga yashirgan — bu buyumlar juhudning bitmas-tuganmas bisotidan tanlab olingandi — miss Nensi topshiriqni bajarishga otlandi.

— Birpasgina shoshma, qizginam, — dedi juhud unga qopqoqli savatni uzatarkan. — Buni ko'tarib ol. Ma'sumaroq ko'rsatadi seni.

— Fedjin, uyning kalitini ham bering unga, qo'lida ko'tarib olsin, — dedi Sayks. — Bu yanayam tabiiy va ishonchliroq ko'rinadi.

— Haq gap, azizim, — dedi juhud kattakon eshik kalitini yosh xonimning o'ng qo'lining shahodat barmog'iga ilib qo'yarkan. — Mana mundoq! Qoyil! Juda antiqa bo'ldi, qizalog'im! — dedi u qo'llarini bir-biriga ishqab.

— Voy ukajonim-a! Zig'irchayam gunohi yo'q, farishtadakkina, sho'rlik ukajonginam-a! — obidiyda qilardi Nensi ko'ziga yosh olib, alamidan savat bilan kalitni g'ijmlagan bo'lib. — Ahvoli nima kech-

<sup>1</sup> Papilotka — sochni jingalak qilish uchun ishlatiladigan qog'oz. (Tarj.)

diykin? Qayoqlarga olib ketishdi uni? Voy, rahmlaring kelsin menga, jentlmenlar, bola sho'rlikni nima qilganlarini aytinglar, iltijo qilaman sizlardan, jentlmenlar!

Miss Nensi tinglovchilarni benihoya qoyil qoldirib, nihoyatda mungli, yurakni ezadigan hazin tovush bilan shu so'zlarni aytdi-da, keyin jim bo'lib, butun jamoatga ko'z qisib qo'yib, iljaygancha chiqib ketdi.

— Eh, azizlarim, qanday oqila qiz-a! — xitob qildi juhud yosh do'stlariga o'girilib, go'yo hozirgina ko'rganlarning ajoyib qizdan ibrat olinglar deganday, g'olibona bir qiyofada.

— U o'z jinsi — toifasiga shon-sharaf keltiryapti, — deya gap qistirdi mister Sayks, qadahini to'latib, gurziday mushti bilan stolga bir tushirarkan. — Uning sog'lig'iga ko'taraman va barcha xotinlarning unga o'xshashini tilayman!

Muhtarama Nensining sha'niga ushbu madhiyalar yog'ilayotgan bir paytda bu navqiron xonim politsiya mahkamasi sari shoshilib borardi, ko'cha-ko'ydanda hamrohsiz yolg'iz o'zi borayotgani sababli ko'nglida hadik tug'ilganiga qaramay, hash-pash deguncha u yerga eson-omon yetib ham keldi.

U orqa eshikdan kirib borib, qo'lidagi kalit bilan kameralardan birining eshigini astagina tiqillatib, quloq solib turdi. Ichkaridan tiq etgan tovush eshitilmadi; shunda u bir yo'talib oldi-da, tag'in quloq sola boshladi. Javob bo'lmadi, shundan keyin tilga kirdi.

— Noli, jonginam! — muloyimgina shivirladi u. — Noli!

Kamerada sibizg'a chalgani uchun hibsga olingan aftodahol, yalangoyoq jinoyatchidan bo'lak kimsa yo'q edi; jamoatchilikka qarshi qilgan jinoyati to'la isbot etilgani tufaylidan mister Feng uni axloq tuzatish uyiga uch oy muddatga hukm etarkan, g'oyatda o'rinli hamda hajviya tarzida, agar nafasi shunaqangi o'pkasiga sig'may ketayotgan bo'lsa, uni nag'madan ko'ra charxpalak-g'ildirakka sarflagani foydaliroq, deb qo'ygandi. Jinoyatchi hech nima deb javob qaytarmagandi o'shanda, zero uning fikr-yodi graflik foydasiga musodara qilingan sibizg'asiga aza tutish bilan band edi. Shundan so'ng Nensi navbatdagi kameraga yaqinlashib, eshigini tiqillatdi.

— Nima kerak? — deya javob berdi biron past va zaif tovush bilan.

— Bu yerda bir bolakay yo'qmi? — so'radi Nensi oldindan xo'rsinib olib.

— Yo'q! — javob qildi mahbus. — Xudo saqlasin!

Bu sibizg'a *chalmagani* uchun — boshqacha qilib aytganda, ko'cha-ko'yda tilanchilik qilib yurgani va tirikchiligini o'tkazmoq uchun hech nima qilmay sandiroqlab yurgani uchun — qamoqqa hukm etilgan oltmish besh yashar sayoq edi. Qo'shni kamerada be-

ijozat uyma-uy qalayi kastyulka sotib yurgani — bo'lakcha qilib aytganda, soliq to'lashdan qochib, tirikchilik o'tkazish uchun nimadir qilgani vajidan xuddi o'sha turmaga jo'natiladigan odam o'tirardi.

Bu jinoyatchilardan hech qaysisi Oliver deb so'ralganida javob bermagani va uning to'g'risida hech nima bilmagani sababli Nensi bevosita yo'l-yo'l nimchali soddadil cholga murojaat etdi va nola-yu fig'on bilan — qo'lidagi savat bilan kalitni mohirona yulqib-silkitganidan uning afg'oni, ayniqsa mahzun chiqayotgandi — *ukajonisini* talab qildi.

— Bu yerda yo'q u, azizam, — dedi chol.

— Qayoqda bo'lmasa? — chinqirib yubordi Nensi.

— Uni anavi jentlmen olib ketdi, — javob berdi chol.

— Qanaqa jentlmen? Voy xudoyim-ey! Qaysi jentlmen? — chiyiladi Nensi.

Chol vahima bosgan «opa»ning bu majmag'il savoliga javoban Oliveri sudyaning xonasida mazasi qochib qolganini, uni oqlaganlarini, negaki, bir guvoh bergan shohidlikka qaraganda go'yoki o'g'irlikni u emas, balki qochib qutulib qolgan boshqa ikki bola qilganini va da'vogarning hushidan ketgan Oliveri uyiga, o'z uyiga olib ketganini gapirib berdi. Bu uy xususiga kelganda Nensi suhbatdoshi u qayerdadir Pentonvilda ekanligini bilar ekan, xolos; bu so'z izvoshchiga buyruq berayotganlarida cholning qulog'iga chalinib qolgandi.

O'zini yo'qotib qo'yayozgan va bag'oyat iztirobga tushgan yosh juvon kalovlangancha darvozaga qarab sudralib bordi, so'ngra hurkak odim tashlashdan yugurishga o'tib, qo'lidan kelganicha alkash-chalkash yo'l-u ko'chalardan juhudning uyiga yetib keldi.

Mister Bill Sayks uning safari hisobotini eshitib bo'lar-bo'lmasoq shosha-pisha oq itni chaqirdi-yu, qolayotganlar bilan xayr-ma'zur qilishdek rasmiyatchilikka vaqtini sarflab o'tirmay, shlyapasini boshiga qo'ndirgancha zing'illab chiqdi-ketdi.

— Azizlarim, uning qayerdaligini bilishimiz shart... Uni topishimiz zarur! — dedi juhud haddan ziyod hayajon-la. — Charli, sen hozircha hech nima qilmay tur, toki u to'g'risida biron darak topmaguningcha hammayoqni izg'ib chiq. Nensi, azizam, uni qanday bo'lmasin topishim kerak. Senga butunicha inonaman, azizam, — sen bilan Tullakka! Shoshmanglar, shoshmanglar, — qo'shib qo'ydi juhud titrayotgan qo'llari bilan stol g'aladonini ochayotib, — mana sizlarga pul, azizlarim. Men buguncha do'konni yopa turaman. Meni qayerdan topishni o'zlaring bilasizlar! Qani, biron daqiqayam fursatni boy bermanglar. Biron lahzaniyam, azizlarim!

U shu so'zlar bilan yoshlarni xonadan itarib chiqarib, qulf kalitini ikki marta burab, eshik lo'kidonini surib qo'ygach, Oliver bexos-

dan ko'rib qolgan qutichani xufiya joydan oldi. Keyin hovliqib soat-u qimmatbaho buyumlarni qo'yni-qo'njiga yashira boshladi.

Shu asnoda eshikning taqillashi uni cho'chitib yubordi va bu yumushidan chalg'ishga majbur etdi.

— Kim u? — deya qichqirdi u naq quloqni teshgudek.

— Men! — kalit solinadigan teshikdan Tullakning ovozi eshitildi.

— Ha, nima deysan yana? — baqirdi juhud toqatsizlanib.

— Nensi so'rayapti, uni qayoqqa olib kelinadi — boshqa uyagami? — surishtirdi Tullak.

— Ha! — javob qildi juhud. — Qidiringlar uni, izlab topinglar, gap tamom! U yog'iga nima qilishimni o'zim bilaman. Qo'rqmanglar!

Bola tushundim, degandek g'o'ldirab, o'rtog'i ketidan yugurdi.

— Hozircha u sotgani yo'q, — dedi juhud boyagi yumushiga kishisharkan. — Bordi-yu, yangi oshnalariga biz to'g'rimizda valdirash xayolida bo'lsa, giribonidan olishga ulguramiz hali.

---

---

**XIV BOB. OLIVERNING MISTER BRAUNLOUNIKIDA  
BO'LISHI TAFSILOTINING DAVOMI, SHUNINGDEK,  
BIR TOPSHIRIQNI ADO ETMOQQA OTLANGAN  
OLIVER XUSUSIDA MISTER GRIMUIG DEGAN  
KIMSANING LOL QOLARLI BASHORATI HAQIDA**

Mister Braunlouning nogahoniy xitobidan keyin hushidan ketgan Oliver tezda o'ziga keldi, kekxa jentlmen bilan misis Beduinlar endi surat to'g'risida gap ochmaslikka tirishdilar: suhbat davomida Oliverning na o'tmishi, na yaqin kelajagi og'izga olinardi, faqat uni yupatib, xursand qiladigan-u, ammo aslo hayajonlantirmaydigan narsalar ustidagina gap borardi. Oliver hali o'rnidan turib, nonushtaga tushishga zaiflik qilardi, biroq shunga qaramay ertasi kuni ro'zg'orboshining xonasiga tushib, avvalo sabrsizlik bilan go'zal xonimning chehrasini yana bir bor ko'rish umidida devorga nigoh tashladi. Ammo uning umidi puchga chiqdi — suratni olib qo'yishgandi.

— E, gap bu yoqda degin! — dedi ro'zg'orboshi Oliverning nigo-hini kuzatib. — O'zing ko'rib turganingday, uni opchiqib ketishdi.


— Opchiqib ketishganini ko'rib turibman, xonim, — javob berdi Oliver. — Uni nimaga opqo'yishdi?

— Uni, bo'talog'im, mister Braunlouning gapicha, seni bezovta qilgani uchun olib qo'yishganmish. Bilasanmi, tag'in u tuzalib ketishingga xalaqit bersa nima bo'ladi, — dedi kekxa xonim.

— Yo'q-yo'q, rosti bilan! Hecham meni bezovta qilgani yo'q, xonim, — dedi Oliver. — Uni tomosha qilish judayam yoqqandi menga. Judayam yaxshi ko'rib qoldim uni.

— Voy bolam-a! — dedi kekxa xonim. — Bo'talog'im, ishqilib tez-roq tuzalib ket, ana o'shanda suratni ilgarigi joyiga osib qo'yishadi. Senga so'z beraman! Endi kel, boshqa biron narsa to'g'risida gaplashaylik.

Oliver o'sha paytda surat haqida olishga muvaffaq bo'lgan ma'lumotlarning bori mana shundagina iborat. O'sha kezda u bu to'g'rida o'ylamaslikka tirishardi, sababki, kekxa xonim kasal paytida unga judayam mehribonlik ko'rsatardi: u kampirning yoqimtoy va ajoyib odamga tekkani, qishloqda turadigan mehribon va suluv qizi to'g'risidagi, Vest Indiyada bir savdogarga gumashtalik qiladigan, xuddi qizi singari benuqson-u bejirim, yiliga to'rt marta (kampir buni eslaganini o'zidayoq ko'zidan yosh chiqib ketardi) xat yozib turadigan o'g'li haqidagi so'ngsiz-nihoyasiz hikoyalarni jon qulog'i bilan



tinglardi. Keksa xonim o'z bolalarining ajoyib xislat-u fazilatlarini ustida shunaqangi eshilib, og'zidan bol to'lib, shuningdek, o'z saxovatli, yoqimtoy eri — roppa-raso yigirma olti yil muqaddam bandalikni bajor keltirgan mehribon sho'rlik erining izzatini o'rniga qo'yib ta'riflab, uzoq-uzoq hikoya qilardi... Keyin choyxo'rlik fursati yetardi. Choydan so'ng u Oliverga kribbedjni\* o'rgatardi, xonim qandayin osonlik bilan o'rgatsa, bola shundayin osonlik bilan bilib-anglab olardi o'yinni; bu o'yinni ular to' bemorga suv qo'shilgan iliq vino ichirib, yumshoqqina o'ringa yotqiziladigan fursat yetguniga qadar katta qiziqish va dabdaba bilan o'ynayverardilar.

Bu baxtli kunlar — Oliverning darddan xalos bo'lish kunlari edi. Hammayoq tip-tinch, chinniday top-toza va batartib, hamma shunday mehribon va shirin so'z ediki, uning nazdida shu kungacha hayoti shovqin-suron, g'ala-g'ovur, ur-sur bilan kechganidan keyin xuddi jannatga tushib qolganga o'xshardi. U kiyina oladigan darajada quvvatga kirishi bilanoq, mister Braunlou yangi kamzul-ishton, yangi shlyapa va yangi boshmoq sotib olishlarini buyurdi. Eski kiyimlarini nima qilish o'zining ixtiyorida ekanini Oliverga aytishganida, u narsalarini kuyib-pishib mehr-oqibat ko'rsatgan oqsochga berib, bularni birorta juhudga soting-da, pulini o'zingiz ola qoling, dedi. Bu iltimosni oqsoch bajonidil bajardi. Qisqasi, Oliver deraza oldida turib, juhudning ko'ylaklarini qopga tiqib, jo'nab qolganini ko'rgach, bu narsalarimni olib ketishdi, endi ularni boshqatdan kiyaman, deb qo'rqmasam ham bo'ladi, degan fikrdan xursand bo'lib ketdi. Rostiga ko'chganda, bu narsalar uvada-juldur kiyimlar edi, Oliverning esa hech qachon yangi kiyimi bo'lgan emasdi.

Bir kuni kechqurun, surat hangomasidan taxminan bir haftacha o'tgach, Oliver missis Beduin bilan suhbatlashib o'tirganida, mister Braunlou odam kiritib, agar Oliver Twist o'zini yaxshi his qilayotgan bo'lsa, uni o'z xonasida ko'rish va u bilan picha gaplashish istagi bor ekanini aytib, bolani chaqirtirib qoldi.

— Voy Xudoyim, o'z panohingda asra bizni, o'zing yarlaqa! Bola-jonim, qo'lingni yuvib ol, innaykeyin, kel, sochingni yaxshilab tarab qo'yay! — xitob qildi missis Beduin. — E Xudovandi karim-a! Seni ko'rishni istab qolishini bilganimizdami, senga chinnidakkina yoqa kiygazib qo'ygan, ana unda yap-yangi olti penslikday yaraqlab ketgan bo'larding-a!

Oliver itoatkorlik bilan o'zini kekxa xonimning ixtiyoriga topshirdi, garchand kampir ko'ylagining qat-qat burmali yoqasini dazmollab berish uchun vaqt o'tganidan kuyib-pishib shikva-shikoyat qilayotgan bo'lsa hamki, shunday zaruriy bezakning yo'qligiga qaramay bola nihoyatda nozik hamda yoqimtoy ko'rinardi; shunda kam-

pir uning boshidan-oyog'igacha bag'oyat mamnun razm solib chiqarkan, bordi-yu, hatto ilgariroq ogohlantirib qo'ygan taqdirlaridayam uni bundan ko'ra chiroyliroq qilish amrimahol edi-yov, degan xulosa keldi.

Bu so'zlar dalda bergan Oliver xona eshigini tiqillatdi.

Mister Braunlou kirishga ruxsat etgach, u kitoblarga liq to'la, derazasi so'lim bog'chaga qaragan mo'jazzina xonada ko'rdi o'zini. Derazaga yaqin qo'yilgan stolning narigi tomonida mister Braunlou kitob o'qib o'tirgan ekan. Oliverni ko'rib kitobni chetga qo'yidida, stolga yaqinroq kelib o'tirishni taklif etdi unga. Oliver itoat etarkan, aftidan, insonlarning aqlini peshlash uchun yozilgan shuncha ko'p kitobni o'qib chiqadigan odamlar ham bormikin, deganday hayratda qolgandi. Bu narsa hanuzgacha Oliverga qaraganda chandon bora ko'zi pishigan odamlar uchun ham jumboq bo'lib kelmoqda.

— Kitoblar juda ko'p-a, to'g'rimi, bo'tam? — so'radi mister Braunlou, Oliverning yerdan to shiftgacha kitob taxlangan tokchalarga qanday qiziqish bilan tikilayotganini payqab.

— Judayam ko'p ekan, ser, — javob berdi Oliver. — Buncha ko'p kitobni sirayam ko'rmagandim.

— Agar yaxshi bola bo'lsang, bularni hammasini o'qib chiqasan, — muloyimgina dedi kekxa jentlmen, — muqovani tomosha qilgandan ko'ra ko'proq yoqadi, bu senga. Darvoqe, hamishayam shunday bo'lavermaydi, shunaqangi kitoblar ham bo'ladiki, ichidagisi muqovasi bilan muhrasiga arzimaydi.

— Ehtimol, huv anavi katta, og'ir kitoblarga o'xshaganlari o'shanaqa bo'lsa kerag-a, ser, — deb qo'ydi Oliver zarrin muqovali katta-katta jildlarni ko'rsatib.

— Xuddi shunday bo'lishi shart emas, — javob qildi kekxa jentlmen uning boshini silab, jilmaygan ko'yi. — Shunaqangi kitoblar ham bo'ladiki, o'zi shunaqa og'ir-u, lekin hajmi xiyla chog'roq. Aqli yigit bo'lishni, kitob yozishni xohlamaysanmi?

— Menimcha, ser, ko'proq o'qigim keladi, — javob berdi Oliver.

— Ie! Kitob yozging kelmaydimi hali? — so'radi kekxa jentlmen.

Oliver picha o'ylab ko'rib, keyin, undan ko'ra kitob sotgan ancha yaxshiga o'xshaydi, dedi: bunga javoban kekxa jentlmen yayrab kuldi va gaping chakkimas, deb qo'ydi. Garchi, buning nimasi chakki emasligiga aqli yetmagan bo'lsa ham, Oliver suyunib ketdi.

— Qoyil! — dedi kekxa jentlmen kulgini bas qilib. — Cho'chima! Rostki bironta halol hunarga yoki g'isht teruvchilikka o'rgatishning iloj-imkoniyati bor ekan, seni yozuvchi qilmaymiz.

— Tashakkur sizga, ser, — dedi Oliver.

Uning jiddiy javobini eshitib, kekxa jentlmen tag'in xaxolab kulib yubordi-da, tabiiy his-tuyg'uning g'alati jihatlarini to'g'risida nimalardir deb qo'ydi, biroq Oliver tushunmadi va e'tibor ham bermadi.

— Ana endi, bo'tam, — gapini davom ettirdi mister Braunlou imkon boricha mayinroq ohangda, ammo uning chehrasi ayni chog'da Oliver hali ko'rmagan jiddiy tus olgandi, — aytmoqchi bo'layotgan so'zlarimni jon qulog'ing bilan tinglashingni istardim. Sen bilan ro'yirost gaplashmoqchiman, sababki, talaygina o'zingdan katta-roqlarga qaraganda ham gapimni tuzukroq tushunishingga imonim komil.

— O', o'tinaman sizdan, ser, seni haydab yuboraman demang! — xitob qildi kekxa jentlmenning jiddiy ohangda so'zlayotganidan cho'chigan Oliver. — Yana ko'chalarda tentirab yurgani quvib chiqarmang meni! Shu yerda qolib, xizimatingizni qilib yurishimga ruxsat eting. Meni yana o'sha o'zim kelgan qo'rqinchli, yomon joyga qaytarib yubormang! Bechora bir bolaga rahmingiz kelsin, ser!

— Bo'tam, — dedi kekxa jentlmen Oliverning nogahoniy va qizg'in iltijosidan ko'ngli buzilib, — qo'rqma, agar o'zing sababchi bo'lmasang, seni hech qachon tashlab qo'ymayman.

— Hech qachon, hech qachon bunday bo'lmaydi, ser! — uning so'zini bo'ldi Oliver.

— Ishonaman, — javob qildi kekxa jentlmen. — Seni aslo bunday qiladi deb o'ylamayman. Yordam bermoqchi bo'lgan odamlarim meni laqillatib ketgan paytlar ham bo'lgan, lokin senga ko'nglim ishonib turibdi, nimaga senga bunchalik dilim chopib qolganini o'zim ham tushunolmayapman. Butun mehr-u muhabbatimni baxshida qilgan odamlarim lahadda yotishibdi; garchi hayotimdagi baxtiyor hamda quvonchli damlarim o'shalar bilan birga qabrga kirgan bo'lsa-da, men o'z qalbimni turbatga aylantirganim yo'q va u hamisha ezgu his-tuyg'ularim uchun ochiq. Behad g'am-qayg'ular bu tuyg'ularni mustahkamladi, ularni pokladi.

Kekxa jentlmen ohista, suhbatdoshidan ko'ra o'ziga murojaat qilayotganday ohangda gapirgani, so'ngra esa jim qolgani boisidan Oliver ham sukutini buzmedi.

— Shunaqangi gaplar! — dedi kekxa jentlmen nihoyat picha quvnoqroq ohangda. — Bu gaplarni shuning uchun aytyapmanki, yoshsan, qalbing ham beg'ubor, men tortgan qayg'u-alamlar va iztiroblardan xabardor bo'lganingdan keyin, balki menga yangi ranj-alam yetkazmaslikka harakat qilarsan. Gaplaringga qaraganda, sen yetimsan va birorta ham do'sting yo'q: men topishga muvaffaq bo'lgan ma'lumotlar ham bu so'zlaringni tasdiqlaydi. Menga o'zing to'g'ringda jamiki narsani gapirib ber: qayerdan kelding, seni kim tarbiyalagan, men se-

ni topgan to'daga qanday tushib qolding? Agar rostini gapirsang, toki men hayot ekanman, yoningda hamisha do'sting bo'ladi.

Xo'rsiniq va piqillash bir necha daqiqa davomida Oliverning so'zlashiga xalal berib turdi; keyin, o'zini fermada qanday tarbiyalaganlari, mister Bamblning mehnat uyiga qanday boshlab borgani to'g'risida aytib bermoqchi bo'lib og'iz juftlagan paytida esa tashqari eshikni ustma-ust, toqatsizlik bilan taqillatib qolishdi, shunda oqsoch zinapoyadan zipillagancha chiqib kelib, mister Grimuig kelganini xabar qildi.

— Bu yoqqa chiqyaptimi u? — surishtirdi mister Braunlou.

— Ha, ser,— javob berdi oqsoch. — U kishi, uyda yog'li bulkadan bormi, deb so'radilar, men, ha, deb javob berganimdan keyin, choy ichgani kelganlarini aytdilar.

Mister Braunlou kulib qo'ydi va Oliverga qarab, mister Grimuig eski oshnasi ekanini tushuntirdi, bolaga uning o'zini sal qo'polroq tutishiga parvo qilmaslikni aytdi, negaki u aslida nihoyatda olijanob odam, mister Braunlouning bunday deyishga asosi bor ekan.

— Men pastga tusha qolaymi, ser? — so'radi Oliver.

— Yo'q, — javob qildi mister Braunlou, — shu yerda qolishingni istardim. Xuddi shu payt xonaga yo'g'on hassa tayanib, bir oyog'i sal oqsabroq harvasta keksa jentlmen kirib keldi; egnida moviy frak, yo'l-yo'l nimcha, novvotrang dag'al ip gazlamadan cholvor bilan qo'njlik, yashil hoshiyali soyaboni kengbar oq shlyapa. Nimchasi ostidan mayda burmali ko'ylagi chiqib, undan pastroqda esa uzundan-uzun soati-ning po'lat zanjiri salanglab turibdi, zanjirning uchiga bo'lsa bittagina kalit osib qo'yilibdi. Oq galstugining uchi apelsindek qilib tugilgan, aftida zohir bo'lgan tirish-burushlar antiqa, ta'rif-tavsifga bo'y bermaydigan darajada. So'zlashayotganda boshini bir tomonga qiyshaytirib, qiya boqish odati bo'lib, g'alati bir tarzda to'tiqushga o'xshab ketardi. U xonaga kirar-kirmas xuddi shu qiyofada to'xtadi va apelsin po'chog'i bo'lagini tutgan qo'lini olg'a cho'zgan ko'yi norozi, vaysaqi ovoz-la xitob etdi:

— Buni qarang! Ko'ryapsizmi? Juda g'alati va ajoyib narsa emasmi bu? Kimnikiga kirmay, zinapoyasidan sho'rlik tabiblarning mana shunaqangi ko'makchisini topaman-a. Bir paytlar mana shu apelsin po'chog'ining kasofatidan oqsoq bo'lib qolganman, keyin desangiz, oxir-oqibatda ajalim shu apelsin po'chog'ida ekanini ham bilaman. Ko'rasiz, xuddi shundoq bo'ladi, ser! Apelsin po'chog'i o'limimga sabab bo'ladi, agar shu to'g'ri chiqmasa, o'z boshimni o'zim g'ajishga ham tayyorman, ser!

Mister Grimuig o'zining har bir bayonotini aynan shu qoyilmaqom ibora bilan xulosalab, shu ibora bilan ta'kidlardikim, bu juda g'alati ko'rinardi, xo'p, ilm-fan hatto jentlmen (agar istasa) o'z boshi-

ni o'zi yeya oladigan darajaga yetadi ham deya qolaylik, o'shanda ham mister Grimuigning kallasi shunchalik katta ediki, eng xushchaqchaq, eng abjir odam ham bir o'tirishda bu kallani yeb tugatishga umid bog'lashi amrimahol edi.

— O'z boshimni o'zim g'ajiganim bo'lsin, ser! — takrorladi mister Grimuig hassasi bilan polni do'qillatib urgancha. — Shoshmang! Bu qanaqasi bo'ldi? — qo'shimcha qildi u Oliverga qarab qo'yib, ikki qadam orqaga tisarilarkan.

— Bu oldinroq gaplashganimiz yosh Oliver Twist bo'ladi, — dedi mister Braunlou.

Oliver ta'zim bajo keltirdi.

— Inonamanki, o'zlari bu o'sha isitmada alahlab yotgan bolakay demoqchi bo'lmasalar kerak? — dedi mister Grimuig orqasiga tisarilgan ko'yi. — Birpasgina sabr qiling! Hech nima demay turing! Shoshmang-chi... — dedi duduqlanib mister Grimuig, isitma qarshisidagi har qanday vahimasi barham topib va tantanavor tarzda yangilik kashf etib, — bu o'sha apelsin yegan bolaning o'zimi? Mabodo bu o'sha apelsin po'chog'ini zinapoyaga tashlagan bolaning naq o'zi bo'lmasa, ser, o'z boshimni o'zim g'ajiganim bo'lsin, qo'shimchasiga buning boshini ham!

— Yo'q, buning apelsini yo'g'iydi, — dedi mister Braunlou kulib. — Bas, yetar! Shlyapangizni qo'ying-da, bu yosh do'stim bilan suhbatlashing.

— Meni bu masala nihoyatda tashvishga soladi, ser, — dedi serzarda kekxa jentlmen qo'lqopini yechayotib. — Butun boshli ko'chamizning boshdan-oyog'igacha apelsin po'chog'i sochilib yotadi doim, yana shunisi ham *ma'lumki* menga, uni muyulishda turadigan jarrohning o'g'illari tashlashadi. Kecha kechqurun yoshgina juvon po'choqni bosib toyib ketib, bog'imning panjarasi oldida ag'darilib tushsa bo'ladimi. O'rnidan turishi bilan qarasam, juvon jarrohning unsizgina ichkariga imlab turgan qizil fonusiga\* javdirayapti-da. «Kirmang o'shanikiga! — deb qichqirdim men derazadan. — Qotil u! Yo'lga qopqon qo'yadi u!» Illo bu gapim rost. Bordi-yu shundoq bo'lmasa...

Gap shu yerga kelganda jizzaki kekxa jentlmen hassasi bilan polni do'qillatib tushirdi, bu qiligi og'iz bilan aytmagan paytlarida, uning odatdagi iborasi o'rniga o'tishini bilishar edi. So'ngra, hassasini qo'lidan qo'ymay o'tirdi-da, enli tasmada osilib turgan dastali buklama ko'zoynagini rostlab Oliverga to'g'rilagandi, bola o'zi kuzatish nishoniga aylanganini ko'rib qizarib ketdi-da, yana bir bor ta'zim qildi.

— Bu o'sha bola-ya, shundoqmasmi? — dedi nihoyat mister Grimuig.

- Xuddi o'sha, — javob qaytardi mister Braunlou.
- Ahvoling qalay? — so'radi mister Grimuig.
- Ancha tuzukman, tashakkur sizga, ser, — javob berdi Oliver.

Mister Braunlou go'yoki devonavash do'stining biror yoqimsiz gap aytib yuborishidan xavfsiraganday, Oliverdan pastga tushib, missis Beduinga ayt, choy buyursin, deb tayinladi, bola bajonidil itoat etdi, negaki mehmonning gap-so'zlari-yu xatti-harakati uncha yoqmagandi.

- Yaxshi bola, a, to'g'rimasmi? — so'radi mister Braunlou.
- Qaydam, — javob qildi mister Grimuig ijirg'anibroq.
- Bilmadim deng?

— Ha, bilmayman. O'g'il bolalarning hammasi bir go'r, farqi yo'q ularni. O'g'il bolalarning faqat ikki toifasini bilaman: qiltiriq bolalar, go'shtdor bolalar, vassalom.

- Xo'sh, Oliver bulardan qay biriga kiradi?

— Qiltiriqlariga. Bir og'aynimning o'g'li go'shtdor bola; ular bolalarini juda ajoyib bola deyishadi; boshi yum-yumaloq, ikki yuzi qip-qizil, ko'zlari chaqnoq. Juda bema'ni bola. Tanasi, qo'llari va oyoqlari shunaqangiki, kiyimi naq chok-chokidan so'kilib ketay-so'kilib ketay deb turadi; ovozi xuddi darg'alarning ovozigacha o'xshaydi, ishtahasi bo'lsa bo'rini yo'lda qoldiradi. Bilaman uni! Yaramas bola!

— Bas-bas! — dedi mister Braunlou. — Bu belgi-sifatlar yosh Oliver Twistga yopishmaydi; binobarin, u jahlingizni qo'zg'ama kerak.

— Rost, unaqangi belgilari yo'q, — deb qo'ydi mister Grimuig. — Uniki bundan beshbattar bo'lishi ham mumkin.

Gap shu yerga yetganda mister Braunlou yo'talib qo'ydi, bu, aftidan, mister Grimuigga beqiyos lazzat baxsh etdi.

— Uniki bundan ham beshbattar bo'lishi mumkin, deyapman, — takrorladi mister Grimuig. — Qayoqdan kelib qoldi u? O'zi kim? Qanday odam? Isitmalab yotibdi. Xo'sh, yotsa yotar! Isitma insof-andishali odamlarning alohida imtiyozi emas, shundoqmasmi? Beandisha, bema'ni odamlar ham goho isitmaga chalinadilar, to'g'ri emasmi? Men bir odamni bilardim, uni Yamaykada o'z sahibini o'ldirgani vajidan dorga osganlar. U olti marta isitmalab yotgan ekan: shu sabab bo'lib uni gunohidan o'tganlari yo'q. Tfu! Safsata!

Gap shundaki, mister Grimuig qalbining eng ichkarigi xilvatxonasida Oliverning qiyofasi va xulq-odobi benihoya darajada yoqimli ekanligini tan olishga moyillik pinhona kurtak yoza boshlagandi; biroq o'sha kuni topib olgan apelsin po'chog'i tufaylidan betizgin aksligi battar gazak olgandi; bolaning yoqimtoy yoki sovuqligini tan olishga olamda hech bir odam majbur qilolmaydi meni, deya diliga tugib qo'ygani sababli u do'sti og'iz ochib so'ramasidanoq og'ziga urib, e'tiroz bildirishga o'tgandi. Mister Braunlou bu savollardan bi-

rortasiga hozircha qanoatlantirarli javob berishga ojiz ekanini, negaki Oliverning o'tmish hayotiga taalluqli gaplarni so'rab-surishtirishni toki bola quvvatga kirgunicha qo'ya turish niyatida ekanini aytganda, mister Grimuig badxohlik bilan iljayib qo'ydi. Istehzoli kulimsirab, ro'zg'orboshi kechasi, yotar oldidan kumush tovoq-qoshiqlarni ko'zdan kechirib turadimi o'zi, deb so'radi; bordi-yu, u bir kuni ertalab bir-ikkita osh qoshiq yo'qolganini payqab qolgudek bo'lsa, unda... tayyormish va hokazo...

O'z do'stining antiqa qiliqlarini bilgan mister Braunlou — garchi uning o'zi ham tajang jentlmen bo'lsa-da, bu gaplarning bariga ochiqko'ngillik bilan quloq solib turdi; keyin mister Grimuig choy ustida bulkalarni maqtab iltifot ko'rsatgani, choyxo'rlikda ishtirok etgan Oliver ham endi jahldor jentlmendan unchalik xijolat chekmayotgani boisidan hamma ish nihoyatda osoyishta bordi.

— Xo'sh, Oliver Twistning hayoti va sarguzashtlari borasidagi muassal, haqqoniy va mukammal hisobotni qachon eshitmoqchilar? — so'radi Grimuig mister Braunloudan nonushta tugagach va shu haqda gap ocharkan, Oliverga ko'z qirini tashlab qo'ydi.

— Ertaga ertalab, — javob berdi mister Braunlou. — Bu paytda u bilan tanho bo'lsam degandim. Sen, bo'tam, ertaga ertalab soat o'n-larda kirarsan oldimga.

— Ixtiyor sizda, ser, — dedi Oliver. U bir oz dovdirabroq javob berdi, sababki, uni mister Grimuigning tikilib turishi xijolatga solib qo'ygandi.

— Sizga aytadiganim shuki, — shivirladi bu jentlmen mister Braunloug, — u ertaga ertalab oldingizga kirmaydi. Esankirab qolganini o'zim ko'rdim. U sizni aldayapti, qadrdon do'stim.

— Ont ichishga tayyorman, aldamayapti! — dedi mister Braunlou jo'shqinlik bilan.

— Agar aldamayotgan bo'lsa, unda men boshimni g'ajishga tayyorman... — Shunday deya turib hassasi bilan polni do'qillatib urib qo'ydi.

— Hayotim bilan kafolat beramanki, bu bolakay aldayotgani yo'q! — dedi mister Braunlou stolga musht tushirib.

— Men bo'lsam — boshim bilan, u aldayapti! — javob qaytardi mister Grimuig, shuningdek, u ham stolni mushtladi.

— Ko'ramiz! — dedi mister Braunlou avjlanib borayotgan g'azabini jilovlab.

— Mutlaqo to'g'ri! — javob qildi mister Grimuig g'ashga teguvchi irshayish-la. — Ko'ramiz!

Taqdir taqozosini qarangki, xuddi shu asnoda missis Beduin mister Braunlou bugun ertalab ushbu hikoyatda bir ko'rinish berib o'tgan o'sha kitobfurushdan sotib olingan kichikroq kitob dastasini

ko'tarib kirib qoldi. U kitoblarni stolga qo'yib, endi chiqib ketmoqchi bo'lganda, mister Braunlou:

— Dastyor bolani ketkizmay turing, missis Beduin, undan unchamuncha narsani berib yubormoqchiman, — dedi.

— Ketib bo'ldi u, ser, — javob qildi missis Beduin.

— Qaytaring uni, — dedi mister Braunlou. — Bu muhim ish. Kitobfurush — bechorahol odam, kitoblarining bo'lsa haqi berilmagan. Innaykeyin, yana bir necha kitobni qaytarib yuborish kerak.

Tashqari eshik ochiq edi. Oliver bir tomonga qarab, oqsoch ikkinchi tomonga yugurishdi, missis Beduin esa ostonada turgancha chiyillab dastyor bolani chaqirishga tushdi, ammo hech qanaqangi bolaning qorasi ko'rinmadi. Oliver bilan oqsoch qaytib, halloslagancha, u allaqachon ketib bo'lganini xabar qilishdi.

— Yo Xudovandi karim-a, chakki ish bo'пти-ku! — xitob qildi mister Braunlou. — Bu kitoblarni shu bugun kechqurun qaytarib yuborsam degandim-a!

— Oliverdan berib yubora qoling, — dedi mister Grimuig istehzoli iljayib. — Shubhasiz bekam-u ko'st eltib beradi.

Keksa jentlmen bir ko'ngli, Oliverni o'la qolsam yubormayman, demoqchi bo'ldi, lekin mister Grimuigning badxohona tomoq qirishi o'zgacha qarorga kelishga majbur etdi uni: Oliver topshiriqni zumda bajarib kelib, mister Grimuigning aqalli shu xususdagi shubhasi nohaq ekanini isbotlaydi, ha, isbotlaganda ham birpasda isbotlaydi!

— Juda soz! Sen borasan, bo'tam, — dedi keksa jentlmen. — Kitoblar stolimning yonidagi kursida turibdi, ularni bu yoqqa olib kel.

Oliver foydasi tegadigan fursat kelganidan sevinib, darrov kitoblarni qo'ltig'iga urdi-yu, shapkasini ushlaganicha, nima deyishi kerakligini aytishlarini kuta boshladi.

— Unga aytasanki, — so'zini davom ettirdi mister Braunlou mister Grimuigga tikilganicha, — unga aytginki, bu kitoblarni qaytarib olib keldim, degin, keyin unga qarzimni, to'rt funt-u o'n shilling haqini berasan. Mana senga besh funt. Demak, menga o'n shilling qaytimini olib kelasan.

— O'n daqiqa o'tar-o'tmas shu yerda bo'laman, ser! — dedi Oliver qizg'in.

Qog'oz pulni tugmali kamzuli cho'ntagiga yashirib, qo'ltig'idagi kitoblarni mahkam qisganicha, ehtirom-la ta'zim bajo keltirdi-da, xonadan chiqib ketdi u. Missis Beduin uni tashqari eshikkacha kuzatib bordi, talaygina yo'l-yo'riqlar ko'rsatib, qaysi yo'l qisqaligini, kitobfurushning ismi sharifi va ko'chasining nomini tayinladi; Oliverning gapiga qaraganda, hammasini juda yaxshi tushunib olibdi.

Buning ustiga tag'in bola shamollab qolmasin uchun ancha-muncha maslahatlar berib, nihoyat yo'lga tushishiga ijozat etdi kekxa xonim.

— Iloyo yoqimtoy bu go'dakni o'zi yomon ko'zdan asrasin! — deb qoldi kekxa xonim orqasidan tikilgancha. — Nimagadir uni ko'zdan yiroqlashtirgim qiyinroq bo'lib turibdi-da.

Xuddi shu payt Oliver sho'x-shodon o'girilib qarab, muyulishdan burilib ketishdan oldin unga bosh irg'ab qo'ydi. Kekxa xonim bunga javoban kulib qo'ydi-da, eshikni yopib, o'z xonasiga qarab ketdi.

— Qani, ko'raylik-chi: yigirma daqiqa o'tmayoq qaytib kelar-ov, — dedi mister Braunlou soatini chiqarib, uni stolga qo'yar ekan. — Bu orada qosh qorayib qoladi.

— O! Astoydil qaytib keladi deb o'ylaysizmi? — surishtirdi mister Grimuig.

— Siz-chi, siz bunday deb o'ylamaysizmi? — kulib turib so'radi mister Braunlou.

Baayni shu asnoda mister Grimuigning vujudini qarama-qarshilik kayfiyati batamom qamrab oldi, do'stining takabburona kulgisi uni battarroq vasvasaga soldi.

— Bunday deb o'ylamayman! — dedi u stolga musht tushirib. — Bolaning egnida yap-yangi kiyim, qo'ltig'ida bir dasta qimmat kitob, cho'ntagida bo'lsa besh funt pul. U o'g'rivachcha oshnalarining oldiga jo'naydi va sizni mazax qilib kuladi. Mabodo shu bola bu yerga qachon bo'lmasin qaytib kelsa, ser, men o'z boshimni o'zim g'ajishga tayyorman.

Shunday deya u kursisini stolga yaqinroq surdi. Ikki do'st jimgina o'tirishar, o'rtalarida esa soat yotardi.

Shu narsani aytib o'tmoq joizkim, biz o'z hukmi muhokamamizning ahamiyatini oshirmoqqa urinamiz va yana g'ururimiz tazyiqida eng mulohazasiz hamda oshig'ich xulosalar chiqaramiz, shundoq ekan, mister Grimuigning mutlaqo toshbag'ir odam emasligini va bordi-yu, uning qadrdon do'stini laqillatib, ahmoq qilsalar astoydil ranjishi tayin ekanligini, lekin shu bilan birga ayni damda Oliver Tvistning hech qachon qaytib kelmasligiga chin dildan, samimiy umidvor ekanligini ta'kidlab o'tmoq darkordir.

Qorong'ilik shunchalik quyuqlashdiki, soat raqamlarini ilg'ab bo'lmay qoldi, biroq ikki kekxa jentlmen boyagidek sukut saqlab o'tirishar, o'rtalarida esa soat yotardi.

---

---

XV BOB.      **KEKSA QUVNOQ JUHUD BILAN MISS NENSINING  
OLIVER TVISTNI QANCHALAR MEHR-LA  
SUYGANLARINI NAMOYISH ETADI**

Kichik Safren-Xillning eng iflos qismidagi, qishda uzzukun gazchiroq yonib turadigan, yozda tangaday oftob ko'rmaydigan, gar-digacha spirt hidi singib ketgan yarim qorong'i va diqqinafas, ho-latirazm qovoqxonaning g'ira-shira xonasida chiyduxoba kamzul, kalta odmi ishton, uzun paypog'-u boshmoq kiygan bir kishi qalayi ko'zacha bilan qadahni oldiga qo'yib o'tiribdi; hatto xira chiroq shu'lasida eng tajribasiz politsiya agenti ham uning mister Uilyam Sayks ekanini darhol payqashi tayin edi. Uning oyog'i ostida dam egasiga qarab ko'zini pirillatib, dam tumshug'idagi yangigina jaro-hatini (aftidan, yaqinginadagi olishuv oqibatida orttirgandi) yalab, ko'zlari qizil oq it cho'nqayib o'tiribdi.

— Tek o'tir, razil! Tek o'tir! — buyurdi mister Sayks qo'qqisdan tinchlikni buzib.

O'y-xayollari itning ko'z pirillatishi xalal beradigan darajada nozik tortib turganmidi yoxud mulohaza girdobiga sho'ng'ib ketga-nidan asab torlari shunchalar taranglashgan, uni bayov torttirmoq uchun beozor jonivorni tepish talabi tug'ilganmidi — hunisi qorong'i. Sababi qandoq bo'lmasin, it birvarakay nasibasiga ham tepki, ham so'kishdan ulushini oldi.

Odatda, it zoti egasi yetkazgan ranj-alam uchun qasos olishga moyil emas, biroq mister Sayksning iti o'z egasi kabi bema'ni fe'lli edi va ehtimolki, shu pallada tortgan xo'rligi-yu eshitgan haqora-ti ta'sirida bo'lsa kerakki, hech qanday takalluf-pakallufsiz shart-ta egasining boshmog'ini tishladi-oldi. U boshmoqni yaxshigina silkilab, irillagancha kursi tagiga urib ketdi — zap vaqtida, mis-ter Sayks qalayi ko'zachani naq boshi uzra ko'targan lahzada qo-chib qolgandi.

— Hali shunaqa ekan-da! — g'o'dilladi Sayks bir qo'li bilan ko-sovni changallab, ikkinchisi bilan esa cho'ntagidan chiqargan katta-kon buklama pichog'ini shoshilmay ocha boshlarkan. — Bu yoqqa chiq, iblis! Eshityapsanmi?

It shubhasiz eshitayotgan edi, chunki mister Sayks g'oyatda dag'dag'ali ovoz va tahlikali ohangda so'zlayotgandi, lekin u, chama-si, tomog'iga tig' tortilishini istamayotgandek allaqanday bir g'alati

tuyg'uni his etib, panohgohidan chiqmadi va battarroq irilladi, kosov uchini g'archcha tishlab, yirtqich hayvonday g'ajiy boshladi.

Bunday qarshilik ko'rsatish mister Sayksni battar quturtirib yubordi xolos, u tizzalab olib, g'azab-la jonivorga qarshi hamla-ga o'tdi. It o'zini u yoqdan-bu yoqqa otar, kosovni g'ajigancha iril-lar, hurardi, egasi bo'lsa so'kinar, itni urar, og'zidan bodi kirib-sho-di chiqardi; olishuv avj pallasiga yetgan bir paytda to'satdan eshik taraqlab ochildi-yu, it xonadan otilib chiqdi-ketdi, mister Sayks ko-sov bilan buklama pichog'ini ushlagancha qolaverdi.

Urishmoq uchun hamisha ikki raqib tomon bo'lmog'i shart, de-gan ko'hna naql bor. Shu bois tarafkashlik maydonida raqibi bo'lmish itdan ayrilgan mister Sayks o'sha zamonog g'azab tig'ini yangi kirib kelgan odamga qaratdi.

— E, asfalasofilinga keting-e, itim bilan oramizga tushib nima qila-siz? — jahl bilan aftini burushtirib, qo'llarini paxsa qilib qichqirdi Sayks.

— Bilmabman, azizim, bilmabman, — muloyimlik bilan javob qildi Fedjin (kirib kelgan xuddi o'sha edi).

— Bilmabdilar, quyonyurak o'g'ri amakim? — to'ng'illadi Sayks.  
— Shovqinniyam eshitmabdilar-da?

— Tiq etgan shovqinni eshitmadim, Bill, eshitgan bo'lsam turgan joyimda til tortmay o'lay, — javob berdi juhud.

— Bo'lmasam-chi! Turgan gap, o'zlari hech nimani eshitmaydilar, — dedi Sayks zaharxanda kulib. — O'zlarियam shundoq pisib yuradi-larki, na kirganlarini birov biladi, na chiqqanlarini! Afsus, Fedjin, yarim daqiqagina oldinroq ana shu itning o'rnida bo'lmadingiz-da!

— Sabab? — surishtirdi juhud yasama kulgi bilan.

— Negaki, hukumat sizga o'xshagan har qanaqangi ko'ppakdan ham razilroq odamlarning hayotiga g'amxo'rlik qiladi-yu, lekin odamga istagan paytida itlarni o'ldirishga ruxsat beradi, — javob berdi Sayks ma'nodor bir qiyofada pichog'ini buklab yoparkan. — Sababi ana shunda.

Juhud qo'llarini ishqab, stol yoniga o'tirar ekan, o'z oshnasi-ning haziliga javoban zo'rma-zo'raki iljaydi. Ammo-lekin allanechuk bo'lib ketgani yaqqol ko'rinib turardi.

— Mayli-mayli, irshayavering! — so'zini davom ettirdi Sayks ko-sovni joyiga qo'yib, unga yeb qo'ygunday darg'azab o'grayib qarar-kan. — O'ylamang, ikki dunyoda mening ustimdan kulish nasib qil-maydi o'zlariga, mabodo dorda irshayishlarini hisobga olmagan-da. Joningiz mening qo'limda, Fedjin, bordi-yu, qo'ldan chiqarib yubo-radigan bo'lsam kafansiz ketay. Ha, shundoq! Men ilinadigan bo'lsam — siz ham ilindim deyavering. Shundoq bo'lgach, menga ehtiyotroq muomala qiling.

— Ha, ha, azizim, shunday, — dedi juhud, — bari menga besh qo'lday ayon. Bizni... bizning manfaatlarimiz bir, Bill, manfaatlarimiz bitta...

— Hm... — to'ng'illadi Sayks, go'yo hamma manfaatlarimiz ham bir emas, degan ma'noda. — Xo'sh, nima gapingiz boriydi menda?

— Barini xamirdan qil sug'urganday eson-omon tinchitdik, — javob berdi Fedjin, — sizning ulushingizni olib keldim. Sizga tegadiganidan ko'ra ko'proq, azizim, lekin kelasi safar meni ranjitmasligingizni bilganimdan keyin...

— Safsatani bas qiling! — sabrsizlik bilan uning gapini bo'ldi o'g'ri. — Qani u? Cho'zing bu yoqqa!

— Yaxshi-yaxshi. Bill, shoshiltirmang meni, shoshiltirmang, — tinchlantiruvchi ohangda javob berdi juhud. — Mana u! Hammasi bus-butun!

Shu so'zlar bilan u qo'ynidan eski ip ro'molchani chiqarib, bir uchidagi kattagina tugunni yechdi-da, qalin qog'ozdan qilingan paketchani olarkan, Sayks juhudning qo'lidagi paketchaga chang soldi-yu, shosha-pisha og'zini ocha solib, ichidagi soverenlarni\* sanashga tushdi.

— Hammasi shumi? — so'radi Sayks.

— Hammasi, — javob qildi juhud.

— Tag'in, yo'lda tugunchani ochib, bir-ikki tangani yutib-putib yuborganingiz yo'qmi mabodo? — gumonsirab so'radi Sayks. — Basharangizni xuddi xafa bo'lganday burushtirishingizning hojati yo'q. Bunaqangi ishni bir necha marta qilgansiz-ku, axir. Jing'irlating!

Oddiy ingliz tiliga tarjima qilinganda bu, qo'ng'iroqni chaling, deb buyurgan ma'noni bildirardi. Qo'ng'iroq ovozi eshitib, Fedjindan yoshroq, lekin deyarli xuddi shunaqa so'xtasi sovuq boshqa bir juhud kirib keldi.

Bill Sayks bo'shagan ko'zachani imladi. Juhud imoni juda yaxshi fahmlab, ko'zachani olib, qaytadan to'latib keltirgani chiqib ketishdan avval ayni shu soniyada xuddi uning nigohini kutganday birrovgina boshini ko'targan Fedjin bilan ma'nodor ko'z urishtirdi, shunda chol bunga javoban har qanday sergak kuzatuvchi ham arang payqaydigan qilib xiyolgina bosh irg'ab qo'ydi. Shu topda boshmog'ining it uzib yuborgan ipini bog'lash uchun engashgan Sayks buni ko'rmadi. Balki, gazzob agar ularning ko'z ochib-yumgunchalik fursat ichidagi imo-ishoralarini payqagani taqdirda, bu narsa o'zi uchun yaxshilikdan dalolat bermasligi xayoliga kelgan bo'larmidi.

— Bu yerda biron kimsa bormi, Barni? — so'radi Fedjin; endi Sayks boshini ko'targanida u yerdan ko'zini uzmay so'zlardi.

— Hech zog' yo'q, — javob qildi Barni, so'zlari — dildan aytyaptimi yo yo'qmi, buni bilmadik — dimog'idan chiqayotgandi.

— Hech kim-a? — so‘radi Fedjin hayron bo‘lganday bir ohangda va bu bilan u Barniga to‘g‘risini aytaver deya shama qilib.

— Miss Nensidan boshqa hech kim yo‘q, — javob berdi Barni.

— Nensi! — xitob qildi Sayks. — Qayerda? Tug‘ma iste‘dodi uchun bu qizni hurmat qilmasam ko‘zlarim oqib tushsin.

— Qaynatma mol go‘shni buyurib, bufetda o‘tiribdi, — dedi Barni.

— Bu yoqqa jo‘nating uni, — dedi Sayks stakanga aroqdan quyayotib. — Bu yoqqa yuboring uni.

Barni, xuddi izn so‘rayotgandek Fedjingga cho‘chibgina ko‘z qirini tashladi; juhud miq etmay va ko‘zini yerdan ko‘tarmay o‘tirgani tufayli Barni chiqib ketdi, hayal o‘tmay bashang kiyinib, peshband tutib olgan, boshida chepets, qo‘lida savat bilan kalit — Nensini boshlab qaytdi.

— Izini topdingmi, Nensi? — so‘radi Sayks unga qadahda aroq taklif qilarkan.

— Topdim, Bill, — javob berdi yosh xonim qadahni bo‘shatib, — o‘ziyam rosa charchadim-da. Bolakayning mazasi yo‘q ekan, ko‘rpa-to‘shak qilib yotganmish desang...

— Eh, Nensi, azizim! — dedi Fedjin ko‘zlarini yerdan uzib.

Ehtimol, juhudning malla qoshlari antiqa bir tarzda chimirilishi, chuqur cho‘kkan ko‘zlarining yarim yumuqligi miss Nensini ortiqcha valaqlayapsan, deb ogohlantirgandir, biroq buning unchalik ahamiyati yo‘q. Mazkur holatda birgina dalilga qiziqmog‘imiz lozim. Bu dalil esa miss Nensining birdan o‘z gapini bo‘lib, mister Sayksga ishvali tabassum tuhfa etib, gapni boshqa mavzuga hurib yuborganidir.

Oradan o‘n daqiqalar o‘tgach, mister Fedjinni quv-quv yo‘tal tutdi; shunda Nensi shol ro‘molini yelkasiga tashladi-da, ketadigan vaqti bo‘lganini aytdi. Mister Sayks yo‘lning ma‘lum qismigacha qiz bilan birgalashib borsa bo‘lajagini bilgach, uni kuzatib borish istagini bildirdi: ikkovlon birga yo‘lga chiqdilar, orqalaridan esa picha keyinroqda, egasi yo‘lga tushishi bilan orqa eshikdan zipillagancha yugurib chiqqan it ergashib borardi.

Sayks xonadan chiqqanida, juhud eshikdan mo‘ralab, uning qorong‘i yo‘lakda uzoqlashib borayotganini kuzatib turarkan, mush-tini o‘qtalib, allanima deb koyidi g‘udullab, keyin manfurona tirjay-gancha stol yoniga qaytib o‘tirdi va hademay qiziqarli «Ushla! Tut!»\* gazetasini o‘qishga berilib ketdi.

Bu orada o‘zini kekxa quvnoq jentlmen bilan bunchalik qisqa masofa ajratib turganidan bexabar Oliver Twist kitob do‘koni sari borardi. Klerke-nuelga yetgach, u yanglishib, kirmasa ham bo‘ladigan tor ko‘chaga burildi; o‘z xatosini anglaganida allaqachon yo‘lning yarmini bosib qo‘ygandi; bu tor ko‘cha ham ko‘zlagan yeriga olib

chiqishini bilardi, shuning uchun ham orqaga qaytmaslikka ahd qildi va kitoblarni qo'ltiqlaganicha ildam olg'a boraverdi.

U o'zini qanchalik baxtiyor hamda hayotdan mamnun his etishi lozimligi ustida, innaykeyin, ochlik va kaltaklashlardan azob chekan, ehtimolki aynan shu damda yum-yum yig'lab o'tirgan bechora jajji Dikni loaqal bir martagina ko'rishga bor bisotini ham berishga tayyor ekanligi ustida o'y surib borardi. Banogoh qandaydir yosh ayolning ayyuhannosidan cho'chib sapchib tushdi: «Voy ukajonim-a!» To atrofiga alanglab nima bo'lganini ko'rib, anglab yetmasidanoq kimningdir qo'llari bo'yniga chirmashdi.

— Qo'yvoring! — qichqirdi Oliver yulqinib. — Qo'yvoring meni! Kim o'zi bu? Meni nimaga to'xtatdingiz?

Uning so'rovlariga berilgan javob qo'lida savat bilan eshik kalitini ko'tarib olgan yosh ayolning uvvos tortib chiyillashigina bo'ldi, xolos.

— Voy Xudoyim-a! — chiyillardi juvon. — Topdim uni! Voy Oligverginam-a! Ha, yaramas bola, shuncha kuydirding-a meni. Yur uyga, ukajonginam, uyga yura qol! Voy o'rgilib ketayin-a, topdim-a uni! Ey rahmdil xudoyim, o'zingga shukr, uni topdim-a!

Ushbu poyintar-soyintar xitoblardan so'ng, yosh xonim yana uvvos tortib yig'larkan, jazavasi tutib shunaqangi telbalarcha ahvolga tushdiki, bu paytda yonlariga kelib qolgan ikki ayol go'sht do'konida xizmat qiladigan, mol yog'i surtilgan sochi yaltillagan boladan, chopqillab doktorga borib kelolmaysizmi, deb so'rashdi. Qassoblik do'konidagi bola erindi deyishdan ko'ra dam olish mayli ko'proq ekan shekilli, bu shart emas, deb javob qildi.

— Voy qo'yaveringlar, parvo qilmanglar, — dedi juvon Oliverning qo'lini mahkam qisib ushlagancha. — Ancha tuzalib qoldim. Hoziroq yur uyga, toshbag'ir bola! Yur deyaipman!

— Nima bo'ldi, xonim? — so'radi ayollardan biri.

— Voy aylanay xonim-a! — nido soldi yosh juvon. — Bir oycha oldin ota-onasi, boobro', zahmatkash odamlarnikidan qochib ketib, o'g'ri-muttahamlarga qo'shilib, sho'rlik onaginamni yuragini qon qilib yubordi.

— O'larday yaramas bolaykan! — dedi birinchi ayol.

— Bor uyingga, gazanda! — ilib ketdi ikkinchisi.

— Yo'q, yo'q! — xitob qildi Oliver vahima ichra. — Men uni taniyman! Meni opam yo'q, otam ham, onam ham yo'q. Men yetimman. Men Pentonvilda turaman.

— Buni qarang-a, baqrayib turib hammasidan tonadi-ya! — chiyilladi juvon.

— Ie, bu Nensi ekan-ku! — nido soldi Oliver endigina juvonning yuziga ko'zi tushib, hayratdan o'zini chetga tashlarkan.

— Ko'ryapsizlarmi, meni taniyapti u! — chiyilladi Nensi atrofda hozir bo'lganlarga qarata. — Mendan tonib, qutulib bo'пти. Xudo xayrlaringni bersin, uyga qaytishga unatinglar buni, yo'qsa mehribon onasi bilan otasini go'rga tiqadi, meni bo'lsa yuragimni adoyi tamom qiladi.

— Jin ursin, nima gap bo'lyapti bu yerda? — o'dag'ayladi pivoxonadan zing'illab chiqib kelgan allaqanday odam, orqasidan esa izma-iz oq it ergashib kelardi. — Iya, Olivercha-ku! Itvachcha, bor bechora onangni oldiga! Qani, bir uyga qarab g'izilla-chi!

— Bular meni hech qanaqa qarindoshimmas! Ularni tanimayman! Yordam beringlar! Yordam! — dodladi Oliver bu odamning gurziday qo'lidan chiqib ketish uchun yulqinib.

— Yordam beringlar? — takrorladi haligi odam. — Hozir yordam beraman-da, zinqarcha firibgar! Bu qanaqangi kitoblar? O'g'irlagandirsan-da bularni? Qani, bu yoqqa ber-chi ularni!

Shunday deya u bolaning qo'lidagi kitoblarni tortib oldi-da, ular bilan boshiga tushirdi.

— Bopladin! — chordoq derazasidan qichqirdi bir bekorchixo'ja. — Faqat shu yo'l bilan aqlini kirgizish mumkin uni.

— To'ppa-to'g'ri! — gapiga qo'shildi uyqudan yuzlari ko'pchigan duradgor chordoq derazasiga maqbullab qarab qo'yar ekan.

— Bu o'zini foydasi! — degan qarorga kelishdi boyagi ikki ayol.

— Ha, foydasi tegadi buni unga! — dedi haligi odam tag'in Oliverni urib, yoqasidan olarkan. — Qani yur, muttaham!.. Hoy, Fonuscha, beri kel! Ba! Eslab ol buni! Eslab!

Yaqingina chekkan dardidan darmoni qurigan, nogahoniy hamla-yu kaltaklardan gangrab qolgan, itning dag'dag'ali irillashi-yu bu odamning hayvonona muomalasidan o'takasi yorilayozgan, atrofda yig'ilganlarning uni go'yo chindan ham o'ng'almas muttahamligiga ishonch hosil qilganlaridan ezilgan sho'rlik bolakayning qo'lidan nimayam kelardi? Qosh qorayib qoldi: bu atrofda shubhali-yu johil odamlar yashardi; yaqin orada yordam beradigan inson zoti topilmasdi. Qarshilik ko'rsatish befoyda edi. Biron daqiqa o'tmayoq uni zim-ziyo tor hovlilardan sudrab borishardi, bordi-yu, u ahyon-ahyonda dodlashga botinadigan bo'lsa, shunaqangi zing'illatgancha sudrab ketishardiki, nima deyayotganini anglab bo'lmay qolardi. Aslini olganda, mabodo bu hatto tushunarli bo'lgan taqdirda ham, bari bir dodlashiga e'tibor beradigan biron kimsa bo'lmaganidan keyin tushunarli bo'lishining qanday ahamiyati bor?

Chiroqlarni yoqishdi; missis Beduin xavotirlanib lang ochiq eshik oldida kutardi; oqsoch Oliver kelmayaptimikin deb yigirma martacha ko'chaga yugurib chiqdi-yov. Ikkala keksa jentlmen esa hanuz qorong'i mehmonxonada o'tirishar, o'rtalarida soat yotardi.

---

XVI BOB.    NENSI QARINDOSHLIK HAQ-HUQUQINI TALAB  
QILGANIDAN KEYIN OLIVER TVISTGA NIMA  
BO'LGANLIGINI HIKOYA QILADI

Tor ko'cha va hovlilar nihoyat qo'tonlari hamda qoramol savdosi uchun barcha zarur narsalar mavjud bo'lgan keng, ochiq maydonga olib chiqdi. Shu yerga yetganda Sayks odimini sekinlatdi: qizning bunday tez yurishga ortiq madori qolmagandi. U Oliverga o'girilib, Nensining qo'lidan ushlab ol, deb buyruq qildi do'q urib.

— Nima, eshitmayapsanmi? — to'ng'illadi Sayks, negaki Oliver imirsilab, atrofga alanglay boshlagandi.

Shu paytda ular odam gavjum ko'chalardan chetroqda, pasqam, qorong'i jinko'chada turishardi. Qarshilik ko'rsatgani bilan hech ish chiqmasligini Oliver juda yaxshi tushunardi. U qo'lini uzatgandi, Nensi mahkam ushlab oldi.

— Ikkinchi qo'lingni menga ber, — dedi Sayks bo'sh qo'li bilan Oliverni ushlab olarkan. — Fonuscha, bu yoqqa!

It boshini ko'tarib, irillab qo'ydi.

— Qara! — dedi u ikkinchi qo'li bilan Oliverning gardanini ko'rsatib. — Agar g'ing deb ovoz chiqaradigan bo'lsa, shu yeridan olasan! Yodingda bo'lsin!

It yana bir bor irillab, tumshug'ini yalagancha, go'yo giribonidan olishga sabri chidamayotganday, vajohat-la Oliverga tikildi.

— Qochsa it uni har qanaqangi nasroniydan ko'ra chapdastlik bilan ushlab olmasa otimni boshqa qo'yaman!.. — dedi Sayks jonivorga qandaydir g'alati o'qraygancha tikilarkan. — Ana endi, mister, o'zingizni nimalar kutayotganini bilasiz, demakki, ko'nglingiz tusanicha dodlayvering: ko'ppak birpasda bu mashmashani bas qiladi-qo'yadi... Qani, olg'a, ko'ppakvoy!

Fonuscha bunday g'ayriodatiy erkalash evaziga dumini likillatib, Oliverni ogohlantirib qo'yayotganday yana bir marta irilladi-da, oldinga tushib yo'rg'alay ketdi.

Ular Smitfildni kesib o'tishdi, biroq Oliver hatto Grovenor-skverdan borishgan taqdirilarida ham bari bir yo'lni tanimagan bo'lardi. Qorong'i hamda tumanli oqshom edi. Ko'cha-yu uylarni qa'riga tortib, daqiqa sayin quyuqlashib borayotgan vazmin tuman pardasi aro do'konlarning chiroqlari elas-elas miltillar va notanish joylar Oli-



verga yanada begonaroq ko'rinar, uning esankirab sarosimalanishi battar iztirobli tus olib, noumidligi orta borardi.

Ular tag'in bir necha odim bosisharkan, cherkov soatining bosinqi darang-durungi eshitildi. Birinchi zangdayoq Oliverning ikkala ham-rohi ham to'xtab, zang ovozi kelayotgan tomonga o'girilib qaradi.

— Soat sakkiz bo'pti, Bill, — dedi Nensi soat zangi tingach.

— Buni gapirib nima qilasan? Nima, meni eshitmadi deyapsanmi? — javob qildi Sayks.

— Shuni bilmoqchiydim, *ular* ham eshitishayotganmikin? — dedi Nensi.

— Turgan gap, eshitishadi, — javob berdi Sayks. — Meni Varfolomey kuni\* ilintirishgandi, o'shanda desang, yarmarkadagi tiq etgan tovushni ham eshitib turardim. Tashqaridagi shovqin-suron, shovur-shuvur oldida la'nati ko'hna turma shunaqangi jimjit ediki, yuragim yorilayozganidan temir eshikka kalla qilib boshimni qatig'ini o'ynatib yuborishimga sal qolgan.

— Sho'rliklar! — dedi Nensi, u hanuz soat zang urgan tarafga qarab turardi. — Eh, Bill, qanday ajoyib yigitchalar-a!

— Ha, ayol zotining kallasida shundan boshqa gap yo'q, — javob qaytardi Sayks. — Ajoyib, azamat yigitlar! Hozir ularning o'likdan farqlari yo'q. Shundoq bo'lgach, safsata sotib o'tirishning hojati yo'q.

Tasalli berguvchi ushbu so'zlarni aytar ekan, mister Sayks dilida uyg'onay degan rashkni jilovlagan bo'ldi chamasi va Oliverning qo'lini mahkamroq siqib, olg'a yurishni burdi.

— Birpasgina shoshilma! — xitob etdi qiz. — Mabodo keyingi soat sakkizga zang urganida sen dorda osilib yotadigan bo'lganingda men sirayam oshiqmasdim, Bill. Unda men o'sha joydan jilmasdim, to holdan toyib yiqilib qolmagunimcha, hatto yerni qor qoplab olgan, mening esa o'rangani shol ro'molim bo'lmagan chog'idayam o'sha atrofda o'ralashib yuraverardim.

— Bundan nima foyda chiqardi? — so'radi ta'sirchanlig-u ko'ngil-bo'shlik mutlaqo begona mister Sayks. — Agarki egov bilan yigirma yard pishiq arqonni ichkariga kiritib berolmas ekansanmi, ellik chaqirim olisda tentiraysanmi yoki bir joyda qotib turasanmi, buning menga sariq chaqalik foydasi bo'lmasdi bari bir. Yur, bu yerda turib olib, va'zxonlik qilishning hojati yo'q!

Qiz qah-qah urib kulib yubordi, shol ro'moliga o'ranib oldi, keyin ular yo'lga tushishdi. Lekin Oliver uning qo'li qanday titrayotganini sezdi, gaz fonus oldidan o'tib ketayotganlarida esa yuziga qararkan, rangi murdadek ko'karib ketganini ko'rdi.

Pasqam va iflos ko'chalar bo'ylab yarim soatcha yurishdi, yo'lakay kamdan-kam yo'lovchilar uchrar, bular ham turqlariga qaragan-

da jamiyatda mister Sayksdan ortiqroq mavqe tutmasdilar. Axiyri, ular nihoyatda tor, iflos, deyarli eskifurushlar do'konlari egallagan ko'chaga chiqishdi: oldinda chopib borayotgan it, xuddi ortiq sergak bo'lishiga hojat qolmaganini fahmlagandek, yopiq do'kon oldida to'xtadi, aftidan, do'kon bo'm-bo'sh ko'rinardi. Uy qiyshayib ketgan, eshigiga bo'lsa, ijaraga beriladi, degan yozuv qoqib qo'yilgan edi; chamasi bu yozuv ko'p yillardan beriga osig'liq turganga o'xshardi.

— Hammasi joyida! — dedi Sayks ehtiyotkorlik bilan atrofga alanglab.

Nensi deraza qopqog'i sari engashdi, shunda Oliver qo'ng'iroqchaning jiringlagan ovozini eshitdi. Ular ko'chaning u betiga o'tib, bir necha daqiqa fonus ostida turishdi. Shovqin eshitildi, allakim xuddi deraza romini ohistagina ko'tarayotganga o'xshadi; ko'p o'tmay esa astagina eshikni ochishdi. Keyin mister Sayks betakalluflik bilan shartta bolaning yoqasidan oldi-yu, uchovlari tez ichkariga kirishdi.

Yo'lak butunlay qop-qorong'i edi. Ular to o'zlarini ichkari kiritgan odam eshikni yopib, lo'kidonni surib, zanjirini ilgunicha kutib turishdi.

— Hech kim bormi? — so'radi Sayks.

— Hech zog', — javob berdi birov.

Oliverning nazdida bu ovozni oldin eshitganday tuyuldi.

— Chol-chi, shu yerdami? — so'radi o'g'ri.

— Shu yerda, — javob qildi boyagi ovoz. — Esxonasi chiqib ketgan. Sizlarni ko'rib suyunmaydi deb o'ylaysizmi? Suyunish ham gapmi!

So'zlayotgan kimsaning gapirish maromi, xuddi ovozi singari, Oliverga tanish tuyuldi-yu, lekin qorong'ida uning hatto qaddi-qomatini tuzukroq ko'rib bo'lmasdi.

— Chiroq-piroq yoqsang-chi, — dedi Sayks, — bo'lmasa biron yerimizni qashqa qilib bir falokat orttirib yo itni bosib olamiz. Mabodo uni bosib-mosib olsang, oyog'ingni ehtiyot qil-a.

— Birpas shoshmay turinglar, hozir sham yoqaman, — javob berdi haligi ovoz.

Olislashib borayotgan odim sharpasi eshitildi, biror daqiqalardan so'ng mister Jek Daukins, boshqacha qilib aytganda — Epchil Tullak paydo bo'ldi. Uning o'ng qo'lida bir uchi yorilgan tayoqqa qistirilgan sham bor edi.

Yosh jentlmen Oliverni tanigani belgisi sifatida istehzoli iljayib qo'ya qoldi va o'girilib, keluvchilarga izma-iz zinadan pastga tushaverishlarini aytdi. Ular bo'm-bo'sh oshxonadan o'tib, zax yer isi kelib turgan shifti past xonaga kirishar ekan, birdan qahqahlagan kulgi ko'tarildi.

— Voy, voy jonim, voy, chidolmayman! — dedi yosh Charli Beyts tomog'i yirtilgudek qah-qah urgancha. — Mana u! Voh, mana o'zlari tashrif buyurdilar! Voy, Fedjin, uni bir ko'rib qo'ying-a! Yo'q, o'zingiz bir qarang-a unga, Fedjin! Ortiq kuchim qolmadi. Ana tomosha-yu mana tomosha! Hoy, birortanglar ichagim uzilib qulab qolmasimdan ushlab tursanglar-chi meni!

Bejilov, sho'x-shodon kulgi jazavasida yosh Beyts tappa yerga qulagancha, talvasalanib, besh daqiqalar chamasi o'z hayratini oyoqlarini tapirlatish bilan ifodaladi. So'ngra sakrab turdi-yu, Tullakning qo'lidan sham qistirig'liq tayoqni yulqib oldi-da, Oliverga yaqinlashib, atrofida aylangancha uni boshdan-oyoq kuzata boshladi; bu paytda juhud tungi qalpog'ini yechib, esankirab qolgan bolakayga ikki bukilib ta'zim bajo keltirmoqda edi. Bu borada g'amginligi bilan ajralib turadigan va basharti ishga xalal beradigan bo'lsa ko'ngilxushlikka kamdan-kam yo'l qo'yadigan Tullak beqiyos g'ayratla Oliverning cho'ntaklarini axtarib-tintib yotgandi.

— Kamzulini qarang, Fedjin! — deya Charli shamni Oliverning yap-yangi kurtkasiga shunchalik yaqin keltirdiki, oz bo'lmasa u lov etib yonib ketayozdi. — Kamzulini bir ko'ring-a! Nozik-muloyim movutdan, yana-tag'in qotirib tikilgan! Ana tomosha-yu mana tomosha! Ustamasiga kitoblari ham bor-ku! Eh-hey, chinakam jentlmen bo'p ketibdi-ku, Fedjin!

— Seni shunday bashang, basalomat ko'rib boshim osmonga yetdi, azizim, — dedi juhud yasama muloyimlik bilan ta'zim qilib. — Tullak senga bo'lak kiyim beradi, tag'in ko'chalik sarpangni kir qilib qo'ymagin. Nega bizga bir enlikkina qilib yozib yubormading, azizim, kelayotganingdan mundoq ogohlantirib ham qo'ymabsan-a! Kechlikka biror tuzukroq issiq ovqat tayyorlab qo'yarmidik.

Gap shu yerga yetganda yosh Beyts yana shunaqangi xoxolab kulib yubordiki, bundan Fedjinning ko'ngli ochilib yayrab ketdi, hatto Tullakday odam ham ishshaydi, ammo aynan shu soniyada Tullak cho'ntakdan besh funtlikni chiqarayotgandi, shu bois uning kulgisiga nima — hazilmi yoki topildiqmi sabab bo'lganini aytish amrimahol edi.

— Hey, bu qanaqasi bo'ldi tag'in? — so'radi Sayks juhud pulni yulqib olarkan, olg'a bir qadam tashlab. — Bu mening o'ljam, Fedjin.

— Yo'q, yo'q, azizim! — xitob qildi juhud. — Meniki bu, Bill, meniki. Kitoblar sizga tegadi.

— Bo'lmagan gap! — dedi Sayks qat'iy vajohat-la shlyapasini kiya turib. — Bu men bilan Nensiga tegishli, yo'qsa bolani orqasiga qaytarib olib borib qo'yaman.

Juhud seskanib tushdi. Oliver ham shunda seskanib tushdi, lekin mutlaqo boshqa sababdan: uning dilida qaytarib olib borib qo'yishadi degan umid uchqunlagan edi.

— Bu yoqqa cho'zing! Eshityapsizmi! — dedi Sayks.

— Bu adolatdanmas, Bill. To'g'rimasmi axir, Nensi? — so'radi juhud.

— Adolatdanmi yo adolatdanmasmi, — e'tiroz bildirdi Sayks, — cho'zing deyaрман sizga. Nahotki Nensi bilan ikkovimizning ko'chama-ko'cha izg'ib, sizning aybingiz bilan tuzoqqa tushgan bolalarni o'g'irlashdan boshqa ishimiz yo'q, deb o'ylasalar o'zlari? Pulni cho'z bu yoqqa, ziqna, qari arvoh! Eshityapsanmi?!

Shu so'zlardan keyin mister Sayks juhud bosh va shahodat barmog'i bilan mahkam tutib turgan pulni tortib olib, sovuqqonlik ila cholning basharasiga tikilgan ko'yi, pulni hafsala bilan bukladi-da, ro'molchasiga tugib qo'ydi.

— Bu mehnat haqimiz, — dedi Sayks, — aslida ikki baravar ko'proq bo'lishi keragidi. Kitoblar o'zlariga qola qolsin, kitob o'qishga ishqiboz bo'lsangiz, albatta. Yoki pullarsiz.

— Juda chiroyli ekan-a bular! — dedi Charli Beyts, aftini bujmaytirib, go'yo kitoblardan birini o'qiyotgan bo'ldi. — Qiziq kitoblar-a, to'g'rimi, Oliver?

Oliverning o'z zulmkorlariga qanday g'amgin javdirayotganini ko'rgan yosh Beytsning (hamma narsada kulgili jihatini ko'ra bilish iste'dodiga ega edi u) hayrati yana ham jo'sh urib ketdi.

— Bu kekxa jentlmenning kitoblari! — xitob qildi Oliver zorlanib. — Isitmalab o'lay deb qolganimda meni uyiga olib borib parvarish qilgan mehribon, saxiy, yaxshi kekxa jentlmenniki! Itimos qilaman, ularni qaytarib yuboring, kitoblari bilan pulini o'ziga qaytarib yuboring! Meni to o'lgunimcha shu yerda olib qolinglar-u, lekin bularni egasiga qaytarib beringlar. U bularni meni o'g'irlab ketdi deb o'ylaydi. Kekxa xonim ham, menga mehribonlik qilgan boshqalarining hammasi ham bularni meni o'g'irlab ketdi deb o'ylashadi! Rahmingiz kelsin menga, bularni qaytarib yuboring!

Oliver benihoya g'am-anduh-la shu so'zlarni aytgancha juhudning oyoqlariga yiqilib, zor qaqshadi.

— Bolakay haq, — deb qo'ydi Fedjin atrofga o'g'rinchani goh tashlab olarkan baroq qoshlarini chimirib. — Sen haqsan, Oliver, gaping to'g'ri: ular, albatta, bu narsalarni seni o'g'irlab ketdi deb o'ylashadi. Hi-hi-hi! — kuldi juhud qo'llarini ishqab. — Har qancha tirishganimizda ham, bunaqangi o'ljani qo'lga kiritolmasdik.

— Albatta-da, kiritolmasdik, — javob qildi Sayks. — Men buni kitoblarni qo'ltiqlab olgancha Klerkenuelda kelayotganida bolaga ko'zim tushgani hamonoq fahmlagandim. Hammasi joyida. Bu

odamlar — ko'ngli bo'sh, xudojo'y odamlar ekan, yo'qsa unga uylaridan boshpana berisharmidi. Innaykeyin, ular bola haqida so'rab-surishtirib yurishmaydi, negaki, tag'in sudga murojaat qilishga to'g'ri kelib qolmasa go'rga edi deb xavfsirashadi, ana unda, bolani katorgaga jo'natishga to'g'ri keladi. Hozir u xavf-xatarsiz.

Ushbu suhbat davom etarkan, Oliver nima gap bo'layotganini tuzuk-quruq tushunolmayotganday goh unisiga, goh bunisiga javdirardi; biroq Bill Sayks jim qolgach, u to'satdan bir sapchidi-yu, yordam so'rab butun boshli bo'm-bo'sh uyni boshga ko'targancha dod solib xonadan qochishga tushdi.

— Itingni ushla, Bill! — deya qichqirdi Nensi juhud bilan uning ikki shogirdi orqadan quvib ketishgach, eshik tomon tashlanib, uni taraqlatib yoparkan. — Itingni ushlab tur. Bolani naq tilka-pora qilib tashlaydi-ya bo'lmasa!

— Jazosi shu uni! — o'dag'ayladi Sayks qizning qo'lidan chiqishga urinib. — Yo'limni to'sma, qoch, yo'qsa boshingni devorga urib pachaqlayman!

— Menga bari bir, Bill, bari bir menga! — shang'illadi qiz jonjahdi bilan yigitga yopishib. — Oldin meni o'ldirmaguningcha bu it bolani hech qachon tilkalayolmaydi, bilib qo'y!

— Tilkalayolmaydi de! — dedi Sayks tishlarini g'ijirlatib. — Agar qo'yvormaydigan bo'lsang, o'zim shunday qilganim bo'lsin!

Gazzob qizni xonaning narigi burchagiga uloqtirib yubordi, xud-di shu payt juhud bilan ikki shogirdi Oliverni sudragancha kirib kishdi.

— Nima gap? — so'radi Fedjin atrofga alanglab.

— Bu qiz aqldan ozganga o'xshaydi, — javob berdi Sayks darg'azab.

— Yo'q, u aqldan ozganicha yo'q, — dedi olishuvdan rangi gezarib, hansirab qolgan Nensi. — Hecham aqldan ozgani yo'q u, Fedjin, bunaqa deb o'ylamang sira!

— Bo'lmasa o'zingni bosib ol, eshityapsanmi? — dedi juhud qizga tahlikali o'qrayib.

— Hecham bunday qilmayman, — qarshilik bildirdi Nensi ovozi-ni balandlatib. — Xo'sh, bunga nima deysiz?

Mister Fedjinga Nensi toifasidagi odamlarning odati va fe'li yetarlicha tanish edi, yana tag'in u shu topda qiz bilan adi-badi aytishib o'tirish xatarli ekanini ham bilardi. Hozir bo'lganlarning diqqat-e'tiborini chalg'itish uchun u Oliverga o'girildi.

— Demak, juftakni rostlab qolmoqchiydilar-a, azizim, shunday emasmi? — dedi juhud o'choq yonboshida yotgan serko'z tayoqni olayotib. — Shunday emasmi?

Oliver miq etmadi. U juhudning har bir harakatini kuzatar va entikib-entikib nafas olardi.

— Yordamga odam chaqirmoqchimidilar, politsiyani chaqirmoqchimidilar, shundaymi? — mazax qildi juhud bolaning qo'lidani turtarkan. — Seni bu darddan xalos qilib qo'yamiz, o'spirin jentlmen-cha!

Juhud tayoq bilan Oliverning yelkasiga qarsillatib tushirib, yana tayog'ini ko'tardi, biroq qiz oldinga tashlandi-yu, uni ushlab qoldi. U tayoqni shunday zarb bilan olovga qarab uloqtirdiki, lang'illab turgan cho'g'lar yerga sochilib tushdi.

— Men bunga indamay qarab turolmayman, Fedjin! — qichqirdi qiz. — Bola qo'lingizda, yana nima kerak sizga? Tegmang unga, agar tag'in qo'l tekkizadigan bo'lsangiz, bo'yningma bevaqt sirtmoq tushsa hamki, birortalarini pacha qilaman-qo'yaman!

Shunday dag'dag'a bilan qiz darg'azab depsindi va lablarini qimtib, qo'lini mahkam musht qilib tukkanicha nigohini juhuddan ikkinchi gazzobga ko'chirdi; asta-sekin avjga mina borgan g'azab tug'yonida tusi murdaday ko'karib ketgandi.

— Eh, Nensi! — dedi juhud kelishuvchanlik ohangida, mister Sayks bilan ko'z urishtirib olib. — Bugun sen har qachongidan aqlli-roq, zehni o'tkirroq bo'p qolding-ku. Ha-ha! Jonginam, o'z rolingni qotirib ijro etyapsan.

— Shunaqa deng! — dedi qiz. — Ehtiyot bo'ling, tag'in haddidan oshirib yubormay. Agar shundoq bo'lsa o'zingizga qiyin, Fedjin, men sizni oldindan ogohlantirib qo'yyapman, o'zingizni nariroq tuting mendan.

Jazavasi tutgan, ayniqsa, boshqa bo'yin bermas ehtiros-u tuyg'ulariga telbalik, noumidlik va alamzadalik omixta bo'lib ketgan ayol zotida shunday bir narsa borki, bunga ro'para bo'lishni istaydigan erkak kamdan-kam topilsa kerag-ov. Juhud o'zini go'yo Nensining g'azabi kelganiga ishonmayotgan qilib ko'rsatish befoyda ekanini fahmladi va beixtiyor orqaga tisarilarkan, munozarani davom ettirish endi sening galing, deganday Sayksga iltijoli hamda hurkibgina nigoh tashladi.

Mister Sayks bu unsiz iltijoni anglab va ehtimolki, agar darhol miss Nensining esini kiritib qo'ymasa g'ururi hamda sha'niga putur yetajagini his etganidanmi, ishqilib, o'nlab haqorat-u do'q-po'pisalarni qalashtirib tashladi, bu so'kishlarning quyilib kelishi uning ushbu sohadagi kashfiyotchilik obro'-e'tiborini chandon orttirib yubordi. Ammo bu so'z tig'lari ayolga zarracha ta'sir qilmagani vajidan u yanada tagdor, yanada jiddiy qilib qisti-bastiga oldi.

— Bu qanaqa qiliq bo'ldi tag'in? — dedi Sayks, inson chehrasining eng go'zal bezagiga qaratilgan g'oyatda keng tarqalgan haqorat bilan o'z

savolini ta'kidlab; basharti arshi a'lodagilar ellik ming bora aytilgan bu-naqangi haqoratlardan loaqal bir galgisiga quloq osganlaridami, basirlik xuddi qizamiqday oddiy bir dard bo'lib qolarmidi. — Bu qanaqa qilib bo'ldi yana? Buni ko'rib, eshitganimdan ko'ra asfalasofilinga ravona bo'lganim maqbul-ku! O'zing kimsan-u nimasan, bilasanmi o'zi?

— Ha, hammasini bilaman, — javob berdi qiz telbanoma kulgan-cha, boshini sarak-sarak qilib va o'zini beparvo qilib ko'rsatishga behuda tirishib.

— Undoq bo'lsa, shallaqilikni yig'ishtir, — dedi Sayks itiga gapirib o'rganib qolgan to'ng bir ohangda, — yo'qsa bir umrga uningni o'chirib qo'yaman-a!

Qiz battar asabiy qah-qah urdi-da, Sayksga bir qarab qo'yib, teskari o'girildi va labini shunday tishladiki, qon chiqib ketdi.

— Barakalla senga! — qo'shib qo'ydi Sayks unga nafrat-la olayib. — O'zing ham xuddi insonparvar va olijanob odamlar toifasi bop-san-da. O'zing aytganingday, bolakay bilan do'stlashishga munosib xonimchasan-da o'ziyam!

— Bu to'g'ri, iloyo Qodir Xudoning o'zi madadkor bo'lsin menga! — xitob qildi qiz jo'shib. — Uni bu yerga olib kelishda sizlarga yordam berganimdan ko'ra ko'chada til tortmay o'lib qo'ya qolganim yoki bugun yonginalaridan o'tib kelgan ayollarning o'rnida bo'lib qolganim ming marta yaxshiydi-ya! Shu oqshomdan boshlab u o'g'ri, aldoqchi, iblis va har balolarga aylanadi. Nahotki, bu yaramas cholga shuyam kamlik qilsa, kaltaklash yetishmasa unga!

— Bas, yetar, — nasihat qilgan bo'ldi juhud, Sayksga bo'layotgan mashmashalarni diqqat-la kuzatayotgan bolalarni imlab ko'rsatib. — Odob bilan so'zlashmog'imiz lozim, Bill, odob bilan.

— Odob bilan! — chinqirdi qiz, shu topda dahshatli qiyofada edi u. — Odob bilan so'zlarmishlar-a, voy razil-e! Ha, mendan boodob so'zlarni eshitadigan ish qilib qo'yibdilar-da o'zlariyam! Siz uchun o'g'irlik qila boshlaganimda bundan ikki baravar yosh edim-a! — Shunday deb Oliverni ko'rsatdi u. — Bu hunar bilan shug'ullanib, sizga xizmat qilib kelayotganimga o'n ikki yil bo'ldi. Buni bilmaysiz-a? Gapiring axir! Bilmaysiz-a?

— Bas-bas! — uni tinchlantirishga urindi juhud. — Rostki shundoq ekan, shu yo'l bilan rizq-ro'zingni, nasibangni ishlab topyapsan-ku, axir.

— Ha, albatta! — so'zni ilib ketdi qiz; u gapirardimas, chinqirardi — so'zlar bamisoli shiddatli oqimday quyilib kelardi. — Tirikchiligim shu bilan o'tyapti... Sovuq, nam, iflos ko'chalar — mening uyim! Siz bo'lsangiz — talay yillar ilgari ana o'sha ko'chalarga quvgan va meni kun-bakun, tun-batun, toki o'lgunimcha o'sha yoqda tentirashga majbur qiladigan muttahamsiz...

— Shundoq qilamanki, bu kuning ham holva bo'p qoladi! — gapini bo'ldi ushbu ta'nalardan darg'azab bo'lgan juhud. — Agar yana bir og'iz so'z chiqadigan bo'lsa og'zingdan, ta'ziringni berib qo'yaman!

Qiz ortiq hech nima demadi; jazavasi qo'zib sochlarini yulgancha juhudning ustiga tashlandi, mabodo Sayks zarur paytda uning qo'lidan ushlab qolmaganida bormi, juhudning biron yerida intiqom asarini qoldirishi turgan gap edi, shundan keyin qiz yigitning qo'lidan yulqinib chiqishga bir necha marotaba befoyda urindi-yu, hushidan ketdi.

— Ana endi hammasi joyiga tushdi, — dedi Sayks qizni xona burchagiga yotqizar ekan. — Mana shunaqangi quturib ketganida qo'lga shunchalik kuch kiradiki, hayron qoladi odam.

Juhud manglayini artib, iljayib qo'ydi, aftidan, xavotir-u tashvish o'tib ketgach, o'zini yengil sezgandi, biroq u ham, Sayks ham, it ham, bolalar ham, chamasi, bu mashmashalarni o'zlarining hunarlari bilan bog'liq kundalik voqea deb hisoblashgan ko'rinardi.

— Xotinlarga kuning qolmasin deb shuni aytadilar-da, — dedi juhud tayoqni joyiga olib qo'yar ekan, — lokin ular juda ayyor bo'lishadi, shuning uchun ham bu kasb-u korimizda ularsiz ishimiz bitmaydi... Charli, Oliverga to'shagini ko'rsatib qo'y.

— Menimcha, Fedjin, ertaga u yangi kiyimini kiymagani maqbuldir-a? — dedi Charli Beyts.

— Albatta, — javob berdi juhud, Charli shu savolni berganida qanday miyig'ida kulgan bo'lsa, u ham o'shanday iljayib.

O'ziga topshirilgan bu ishdan oshkora quvongan yosh Beyts uchi yoriq tayoqni oldi-da, Oliverni ilgari bittasida o'zi yotib yurgan ikki-uchta to'shak tashlab qo'yilgan qo'shni oshxonaga boshlab kirdi. Bu yerda qotib-qotib kulgancha, Oliver mister Braunlouning uyida suyu-na-suyuna qutulgan xuddi o'sha kiyimni chiqardi; uni sotib olgan juhud Fedjinga tasodifan ko'rsatib qolgan, bu kiyim Oliverning turarjoyini aniqlashga xizmat qilgan, kalavanning bir uchi vazifasini o'tagan edi.

— Qani, hay-hay kiyimingni yech-chi, — dedi Charli, — uni Fedjinga opchiqib beraman, o'shanda bus-butun turadi. Zab tomosha bo'ldi-da!

Sho'rlik Oliver istar-istamas itoat etdi. Yosh Beyts yangi kiyimlarni o'rab qo'ltig'iga qistirgancha xonadan chiqdi-da, Oliverni qorong'ida qoldirib, eshikni yopdi.

Charlining sharaqlab kulgani, dugonasiga suv purkab va boshqa yordamlarni ko'rsatib hushiga keltirish uchun zap vaqtida yetib kelgan Betsining ovozi, balki, Oliverga qaraganda osoyishta-baxtiyor sharoitdagi ko'plab odamlarning uyqusini qochirib yuborarmidi, ammo bola tamoman holdan toygan, qiynalib ketganidan dong qotib uxlab qolgandi.

---

---

XVII BOB. QISMAT OLIVERNI TA'QIB ETISHNI DAVOM  
ETTIRGANI VA UNI BADNOM QILMOQLIK UCHUN  
LONDONGA BUYUK BIR ODAMNI YETAKLAB  
KELGANI HAQIDA

Cho'chqa to'shida qizg'ish et qavati bilan oppoq moy qavati navbatma-navbat almashinib joylashganidek, teatrdagi ham barcha bama'ni qonli melodramalarda qat'iy tartib bilan fojiaiy sahnalar bilan kulgili manzaralarni galma-gal joylashtirish taomili bor. Kishan va g'am yuki ostida ezilgan tomosha qahramoni poxol uzra muk tushadi; keyingi ko'rinishda uning sodiq, lekin hech nimadan bexabar yaroqbardori tomoshabinlarga kulgili qo'shiq tuhfa etadi. Asarning ayol qahramonini yuraklarimiz terak bargidek titragan ko'yi mutakabbir hamda bag'ritosh baron hukmida ko'ramiz: uning nomusi va hayoti — har ikkisi xavf ostida; u nomusini asrab qolish uchun hayotini qurbon qilmoqqa shaylanib qo'lga xanjar oladi; aynan shu daqiqada, hayajonimiz eng so'nggi nuqtasiga yetgan bir damda ho'shtak yangraydi-yu, biz o'sha ondayoq hayotdagi qasrning har yerda hozir-u nozir oppoq soqolli saroy og'asi — baland gumbazli cherkovlarda ham, saro-yu qasrlarda ham — mamlakat bo'ylab hami-sha qo'shiq aytib yurguvchi antiqa qarollar jo'rligida g'alati qo'shiq aytayotgan keng-mo'l xonasiga borib qolamiz.

Manzaraning bunday o'zgarishi go'yo bema'ni va qovushiqsizday tuyuladi, ammo bu hol tezkorlik bilan birinchi qarashda tuyulganidan ko'ra xiyla tabiiyroqdir. Zotan, hayotda noz-ne'matlar uyilgan dasturxon yonidan o'lim to'shagi yoniga ko'chish, aza libosini bayram libosiga almashtirish kishini aslo hayron qoldirmaydi; faqat hayotda biz sustkash tomoshabin emas, faol aktyorlarmiz, asosiy farqi aynan mana shundadir. Aktyorlar taqlidiy teatr hayotida oddiy tomoshabin ko'ziga o'sha zahotiyoq qoralashga mahkum noo'rin-u nojo'ya, behuda-yu bema'ni bo'lib ko'rinadigan his-tuyg'ularning zudlik bilan almashinishini ularchalik tuymaydilar.

Sahna va manzaralarning nogahoniy almashinishi zamon va makonning zud o'zgarishi kitoblarda nafaqat ko'p yillik udum-utajriba asosida munavvar etadi, ayni chog'da bu narsalar adibning beqiyos mahoratining dalil-isboti sifatida e'zozlanadi, ana shunday e'tiqoddagi tanqidchilar toifasi adibning san'atini uning o'z qahramonlarini har bir bobning oxirida qanday mushkul holatda qoldirgani bilan baholaydilar, shu boisdan ham undaylar mazkur

bobning ushbu qisqacha muqaddimasini, ehtimolki, nojoiz hisoblashar. U holda, keling, ushbu debocha hikoyanavisning Oliver Twist tug'ilgan shaharga qaytayotganidan dalolat beruvchi kamtarona sha'masi bo'la qolsin; innaykeyin, kitobxonning yo'lga tushish uchun muhim hamda asosli sabablar borligiga imoni komil bo'laversin, aks holda, unga bunday safarga chiqish taklif etilmagan bo'lurdi.

Erta saharda mister Bambl mehnat uyi darvozasidan chiqib, vajo-hat bilan salobatli odim tashlagancha Xay-strit bo'ylab keta boshladi. O'zining bidllik lavozimidan mast bo'lib, og'zi qulog'iga yetgudek yayrab-yashnab borardi; uch qirra qalpog'i va shineli-dagi zarrin uqayu jiyaklar ertalabki oftob nurida yarqirardi; u hassasini mahkam ushlab olgandi, vujudidan sog'lomlik ufurib turar, o'z kuch-qudratidan mamnun-u sarmast edi. Mister Bambl hamisha boshini g'oz tutardi. Ammo bu tong u boshini odatdagidan ham balandroq ko'tarib olgandi. Sinchkov kuzatuvchi parishon boqishi, purviqor qiyofasidan bidlning boshi shu topda so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan o'yu fikrlar bilan band ekanini payqab olishi mumkin edi.

Mister Bambl mayda-chuyda do'konlar yonidan o'tib borayotganida o'ziga ehtirom ko'rsatishlariga qaramay, ular bilan valaqlashmay, to'xtamay odimlardi. Ularning salomlariga faqat qo'l imosi-lalalik olib, salobatli odimini zarracha sekinlatmay, oxiri missis Mann gadovachchalarni qavm taomilidagi g'amxo'rlik bilan parvarish qilayotgan fermaga yetib keldi.

— Oti o'chsin-da shu bidlni! — dedi missis Mann ko'cha eshikning qulog'iga yaxshi tanish taqillashini eshitib. — Shundoq kallai saharda o'shandan boshqa kim ham kelardi... Voy, mister Bambl, qadamlariga hasanot! Voy Xudoyim-ey, kelganingizdan naq boshim osmonga yetdi-ya! Mehmonxonaga marhamat qiling, ser, marhamat!

Ushbu nutqning birinchi qismi Syuzenga qaratilgan, zavq-shavqqa to'la hayajonli so'zlar esa mister Bamblga tegishli edi; yoqimtoy xonim bog' eshikni ochib, ehtirom-u xushomadgo'ylik bilan bidlni uy sari boshladi.

— Missis Mann, — deya gap boshladi mister Bambl o'tirmay va bir xil surbetlarga o'xshab kresloga tappa o'zini tashlamay, vazminlik bilan astagina cho'kar ekan, — missis Mann, ertangiz xayrli bo'lsin.

— O'zingiznikiyam, ser, — deya javob qildi missis Mann og'zining tanobini yig'ishtirolmay iljayib. — Umid qilamanki, o'zingizni yaxshi his qilayotgandirsiz?

— Bir navi, missis Mann, — javob berdi bidl. — Qavm hayoti — parto'shakda yotishmas, missis Mann.

— Ha-ya, rost aytasiz, mister Bambl! — gapni ilib ketdi xonim.

Bordi-yu shoʻrluk bolakaylar bu gapni eshitishganida bormi, ular ham kezi kelib qolganidan foydalanib baravariga shu soʻzlarni takrorlashgan boʻlarmidi.

— Qavm hayoti, xonim, — soʻzini davom ettirdi mister Bambl hassasi bilan stolga tushirarkan, — tashvish, koʻngilsizlik va mashaqqatlarga toʻla, biroq shuni aytishim mumkinki, jamiki jamoat arboblari taʼqib-u mushkulotlarga bardosh berishga mahkumdirlar.

Bidlning nima demoqchi ekaniga unchalik tushunmagan missis Mann hamdardlik bilan qoʻllarini yoyib, xoʻrsinib qoʻydi.

— Ha-a, chindan ham xoʻrsinadigan hol bu, missis Mann! — dedi bidl.

Oʻzining toʻgʻri qilganiga ishonchi komil boʻlgan missis Mann yana bir karra xoʻrsindi, bu narsa jamoat arbobini mamnun etdi va u magʻrurona kulgisini yashirib, oʻzining uch qirra qalpogʻiga xoʻmrayib bir qarab qoʻydi-da, dedi:

— Missis Mann, men Londonga ketyapman.

— Iloyo Oʻzi yor boʻlsin, mister Bambl! — xitob qildi missis Mann tisarilib.

— Ha, Londonga, xonim, — takrorladi matonatli bidl, — pochta foytunida. Men va yana ikki qashshoq, missis Mann. Oʻtroqlikka oid sud\* boʻladi, shu bois kengash menga — menga, missis Mann — Klerkenuelda kvartal majlislarida\* shu ish yuzasidan guvohlik berishni topshirdi. Inchunin, kamina, Klerkenuel majlislarida, ishqilib, hakamlar meni tamom qilishdan burun oʻzlari oʻsal boʻlib qolish-masa goʻrga edi, deb hazilakamiga choʻchimayapman-da, — deya qoʻshib qoʻydi mister Bambl qaddini roslar ekan.

— Qoʻying, ularga nisbatan bunchalik qattiqqoʻl boʻlmang, ser! — dedi missis Mann tulkilik qilib.

— Klerkenuellik hakamlar oʻzlarini oʻzlari shu koʻyga solib qoʻyishgan, xonim, — javob berdi mister Bambl. — Basharti, ish ular uchun oʻzlari kutgandan koʻra xunukroq tomonga burilib ketadigan boʻlsa — mayli, oʻzlaridan koʻrib, oʻzlariga tashakkur aytaverishsin!

Mister Bambl bu soʻzlarni shu qadar qatʼiyat va oʻz burch-vazifasiga shunchalik sadoqat tuygʻusi bilan shu qadar dagʻdagʻali ohangda aytdiki, missis Manning naq oʻtakasi yorilayozgandek boʻldi. Nihoyat, u ovoz berdi:

— Foytunda ketasizmi, ser? Men boʻlsam bu gadovachchalarni aravada joʻnatiladi, odatda deb oʻylardim.

— Agar ular betob boʻlsa, missis Mani, — dedi bidl. — Yogʻin-sochinli kunlarda biz bemorlarni ochiq aravalarda joʻnatamiz, ularni tagʻin shamollab qolishmasin deymiz-da.

— E-ha! — deb qo'ydi missis Mann.

— Orqaga qaytib ketayotgan foytun ikkovini eltib qo'ymoqchi, buning ustiga, desangiz, arzoniginaga, — dedi mister Bambl. — Ikkoviniyam ahvoli chatoq, shu boisdan ham biz foytunda olib borish ularni ko'ngandan ko'ra arzonroqqa tushadi, deb hisoblaymiz — basharti, ularni boshqa qavm qo'liga tutqaza olsakkina, buni men mutlaqo eplashtirsa bo'ladigan ish deb hisoblayman — ishqilib, bizga qasdma-qasdlikka yarim yo'lda jon taslim qilib qolishmasa bas. Ha-ha-ha!

Mister Bambl jindakkina kuldi, keyin nigohi tag'in uch qirra qalpog'iga tushib, jiddiy tus oldi.

— Ishni unutib qo'yibmiz-ku, xonim, — dedi bidl. — Manavi sizga qavmdan tegadigan oylik maosh.

Mister Bambl kartmonidan qog'ozga o'rog'liq kumush tangalarni chiqardi-da, tilxat talab qilgan edi, missis Mann yozib berdi.

— Ser, aji-buji qilib yubordim-ku, — dedi go'daklar murabbiyasi, — lekin hammasi qoidadagidek qilib yozilibdi shekilli. Tashakkur sizga, mister Bambl; ser, rostdan ham sizdan bag'oyat minnatdorman.

Mister Bambl missis Manning ta'zimiga javoban iltifot ko'rsatib bosh irg'ab javob qaytargan bo'ldi-da, bolalarning ahvolini surishtirdi.

— Yaratganning o'zi yarlaqasin ularni! — dedi missis Mann haya-jonlanib. — Go'dakkinalar soppa-sog', bundan ortiq nimaniyam tilardik ularga! Albatta, o'tgan hafta olamdan ko'z yumgan anavi ik-kitasi va mitti Dikdan boshqalari.

— Bu bolakay haliyam tuzalay demayaptimi? — so'radi mister Bambl.

Missis Mann bosh chayqadi.

— Bu qavmdagi badg'araz, buzuq, beadab bola, — dedi mister Bambl jahl bilan. — O'zi qayerda?

— Hoziroq huzuringizga zing'illatib kelaman, ser, — javob berdi missis Mann. — Bu yoqqa kel, hoy Dik!

Dikni ovozlari boricha chaqirishdi, nihoyat u topildi. Uning yuzini suv purkagichga ro'para qilib, missis Manning etagiga artishdi, ana shundan so'ng u vajohatli, berahm mister Bambl — bidlga ro'baro' bo'ldi.

Bolaning rangi za'faron, o'zi qiltiriqday: lunjlari ich-ichiga botib ketgan, ko'zlari katta-katta va chaqnoq. Egnidagi juldurvoqi qavm bergan ust-bosh — uning qashshoqligi ramzi — zaif gavdasida halpilla turar, bolakayning qo'l va oyoqlari keksalarnikiday quruqshab-qovjirab ketgan edi.

Mister Bambl qarshisida zir titrab, ko'zlarini yerdan uzolmay, hatto bidlning ovozini eshitishdan qo'rqib turgan bu kichik jon ana shunday holatda edi.

— Xah qaysar bola, nima, jentlmenning yuziga qarolmaysanmi? — dedi missis Mann.

Bola hurkibgina ko'zini ko'targandi, mister Bamblning nigohi bilan to'qnashdi.

— Senga nima bo'ldi, qavmning Dikkinasi? — surishtirgan bo'ldi mister Bambl juda yopishib tushadigan hazilomuz ohangda.

— Hech nima, ser, — sekingina javob qildi bola.

— Albatta-da, hech gap bo'lgani yo'q! — dedi missis Mann, mister Bamblning haziliga chin dildan kulib olishni kechiktirmay. — Ishonamanki, seni hech nimaga muhtoj joying yo'q.

— Men shuni xohlardimki... — gap boshladi bola duduqlanib.

— Hali shunaqa degin! — bolaning so'zini bo'ldi missis Mann. — Sen, nazarimda, o'zingga nimadir yetishmayotganini aytmoqchisan shekilli? Voy, yaramas zumrasha-ey!

— Jim, jiming, missis Mann! — dedi bidl qo'lini hokimona ko'tarib. — Xo'sh, nimani istardilar o'zlari, ser?

— Men shuni xohlardimki, — davom ettirdi bolakay duduqlanib, — birortasi meni o'rnimga bir parcha qog'ozga bir nechta so'zni yozib, uni buklab yelimlasa-da, meni yerga ko'mishganidan keyin bokitib qo'ysa uni.

— Nimalar deyapti o'zi bu bola! — garchi bunday narsalarga ko'nikib ketgan bo'lsa-da, bolakayning jiddiy so'zlashi va sillasi qurigan vujudi bir qadar ta'sir ko'rsatgan mister Bambl xitob qildi. — Nima deypsiz, ser?

— Men shuni xohlardimki, — dedi bolakay, — men bechora Oliver Twistga qizg'in salom demoqchiydim, yana tag'in tez-tez uning qorong'i kechalari sandiroqlab yurganlarini, yordam beradigan hech kimi yo'qligini o'ylab o'tirishlarimni bilsa degandim. Yana unga shuni aytishni istardimki, — so'zini davom ettirdi bolakay mushtchalarini mahkam tugib va kuyib-pishib, — yosh bolaligimda o'lib ketayotganimdan xursandligimni aytmoqchiydim unga: agar katta bo'lsam, keyin qarib qolsam osmondagi singlim meni tanimay qo'yadi yoki uning o'zi menga o'xshamay qoladi, shuni-chun ikkalimiz bolaligimizda o'sha yoqda uchrashganimiz ming marta yaxshi.

Mister Bambl betavsif bir hayrat-la mitti notiqni boshdan-oyoq ko'zdan kechirdi-da, suhbatdoshiga o'girilib, dedi:

— Bularning bari bir go'r, missis Mann. Anavi bezbet Oliver hammasini buzdi.

— O'z qulog'im bilan eshitmaganimda bunga ikki dunyodayam ishonmagan bo'lardim-a, ser! — dedi missis Mann qo'llarini ko'kka cho'zib, Dikka yeb qo'ygunday olayarkan. — Shu paytgacha bunaqangi ashaddiy yaramas bolani ko'rmaganman!

— Olib boring uni, xonim! — dedi mister Bambl amirona ohangda. — Missis Mann, bu xususda kengashga axborot berish lozim.

— Umid qilamanki, jentlmenlar bu mening aybim emasligini tushunishar-a, ser? — dedi missis Mann ayanchli hiqillab.

— Ular tushunishadi buni, xonim: ishning chinakam holatidan xabardor qilinajak ular, — dedi mister Bambl. — Ana endi olib chiqing uni, aftiga qarasam, ko'nglim ayniyapti.

Dikni hayallamay olib chiqib ketishdi va ko'mir saqlanadigan yerto'laga qamab qo'yishdi. Shundan keyin hech qancha vaqt o'tmay mister Bambl safar tadorigini ko'rgani ravona bo'ldi.

Ertasi kuni, ertalab soat oltida uch qirra qalpog'ini dumaloq shlyapaga almashtirib, qalpoqli havorang yomg'irpo'shga burkanib olgan mister Bambl aloqa foytunining sirtqi o'rindig'iga joylashib, o'troqlik huquqlari hakamlari hukmiga havola qilinajak ikki jinoyatchi hamrohligida yo'lga tushdi. Mana u o'shalar bilan tegishli vaqtda Londonga yetib keldi. Qaysarlik bilan titrab-qaltirashni bas qilmagan va sovuqotdik, deb zorlangan qashshoqlarning razilona xulqi atvorlaridan tashqari yo'lga hech qanday ko'ngilsizlik ro'y bermadi; ular sovuqdan shunday nola qilishdiki, mister Bamblning gapiga qaraganda, garchi yomg'irpo'shga burkanib olgan bo'lsa ham, uning o'zini ham tishlari takillab, sovuq et-etidan o'tib ketibdi.

Kechasiga bu niyati buzuq nusxalardan xalos bo'lgan mister Bambl foytun kelib to'xtagan uyga joylashib, kamtarona ovqat — go'sht qovurdoq, qisqichbaqali qayla bilan qora pivo buyurdi. Suv qo'shilgan iliq jinli stakanni tosh tokchaga qo'yib, kreslosini olovga yaqinroq surdi-da, eng keng tarqalgan qusur — norizolik hamda nonko'rlik — xususidagi yuksak ma'naviy mushohadalardan so'ng gazeta o'qishga shaylandi.

Mister Bamblning nigohi tushgan dastlabki satrlar quyidagi bo'ldi:

### *«Besh giney mukofot*

*O'tgan hafta, payshanba kuni kechqurun Pentonvildagi uydan Oliver Twist ismli bola qochgan yoxud zo'rlab olib ketilgan, o'shandan beri u haqda hech qanday xabar yo'q. Yuqorida ko'rsatilgan mukofot nomi zikr etilgan Oliver Twistning qayerdaligini topishga yordam bergan yoki ushbu e'lonni bergan shaxs talay sabablarga ko'ra nihoyatda qiziqayotgan bolaning o'tmishi haqida ozgina bo'lsa-da, ma'lumot bergan kimsaga beriladi».*

Davomida Oliverning kiyimi va shaxsining batafsil tasviri, uning qanday paydo bo'lgani-yu g'oyib bo'lgani, shuningdek, mister Braunlouning ism-sharifi-yu turarjoyi berilgan edi.

\* Mister Bamblning ko'zlari chaqchayib ketdi, e'lonni shoshilmay, hafsala bilan uch marta ketma-ket o'qib chiqdi va besh daqiqalardan so'ng esa stakandagi iliq jinga qo'l ham tekkizmay, foytunda, haya-jon iskanjasida Pentonvilga tomon ketib borardi.

— Mister Braunlou uydamlar? — so'radi u eshikni ochgan qizdan. Bu savolga qiz odatdagiday, biroq xiyla chalg'itib javob qildi.

— Bilmadim... O'zingiz qayerdan bo'lasiz?

Mister Bambl tashrifi sababini aytib, Oliverning ismini tilga ol-gani hamonoq mehmonxona eshigi oldida gap poylab turgan missis Beduin nafasi tiqilgancha yo'lakka otilib chiqdi.

— Kiring, kiravering! — nido soldi keksa ledi. — Uning dara-gi chiqishini bilardim! Sho'rlikkinam! Uning daragi chiqishini bi-lardim-a! Bunga imonim komil edi. Xudoning o'zi yarlaqasin uni! Doim shundoq deganim-degandi.

Muhtarama keksa xonim orqasiga, mehmonxonaga shoshildi, di-vanga o'tirib, ko'zlaridan duvva yosh to'ka ketdi. Bu orada unchalik ta'sirchan bo'lmagan oqsoch tepaga yugurdi va ketiga qaytib tushib, mister Bamblga darhol orqasidan yurishni aytgandi, mister Bambl shunday qildi.

Uni oldilarida grafin va stakanlar turgan, mister Braunlou bilan do'sti mister Grimuiglar o'tirgan mo'jazgina xonaga boshlab kirishdi. Keyingi jentlmen xitoblarni qalashtirib tashladi:

— Bidl! Agar bu kishi qavm bidli bo'lmasa o'z kallamni g'ajishga tayyorman.

— Baraka topkur, jim turing, — dedi mister Braunlou. — Marha-mat qilib, o'tirsalar qanday bo'larkin?

Mister Bambl o'tirdi, u mister Grimuigning g'alati qiliqlaridan ang-tang bo'lib qolgandi.

Mister Braunlou chiroqni bidlning afti yaxshiroq ko'rinadigan qilib surdi-da, picha toqatsizlik bilan dedi:

— Xo'sh, ser, e'longa ko'zingiz tushib kelandirsiz-a?

— Shunday, ser, — dedi mister Bambl.

— Keyin, siz bidlsiz-a, shunday emasmi? — so'radi mister Grimuig.

— Men — qavm bidliman, jentlmenlar, — g'urur bilan dedi mis-ter Bambl.

— Aytmadimmi, — gap qistirdi mister Grimuig o'z do'stiga qa-rab. — O'zim ham xuddi shunday deb o'ylagandim. Turish-turmushi g'irt bidlman deb turibdi-da o'ziyam!

Mister Braunlou oshnasiga jim turing, degan ma'noda salgina bosh chayqab qo'ydi-da, surishtirishni davom ettirdi:

— Bu sho'rlik bolaning hozir qayerda ekani o'zlariga ma'lummi?

— Boshqalardan ortiqmas, — javob berdi mister Bambl.

— Xo'sh, unda nimalarni bilasiz u haqda? — so'radi kekxa jentlmen. — Aytadigan biron gapingiz bo'lsa gapira qoling, do'stim. Nimalarni bilasiz uning to'g'risida?

— Yaxshi gap bo'lishi dargumon-ov, shundoqmasmi? — dedi mister Grimuig zaharxandalik ila, mister Bamblning aftiga diqqat bilan tikilib.

Mister Bambl bu savol ohangini darhol payqab, viqor ila vajohatli bir tarzda bosh irg'ab qo'ydi.

— Ana ko'rdingizmi? — dedi mister Grimuig mister Braunlougatantavor nigoh tashlab qo'yar ekan.

Mister Braunlou mister Bamblning tumtayib olgan basharasiga xavotirlanib qarab qo'ydi-da, undan Oliver haqida bilganlarining barini iloji boricha qisqagina qilib so'zlab berishini o'tindi.

Mister Bambl shlyapasini qo'ydi, syurtugi tugmalarini yechdi, qo'llarini ko'ksida chalishtirdi-da, bir oz o'y surib turgach, o'z hiko-yasini boshladi.

Uning yigirma daqiqalar cho'zilgan hikoyasini bidlning og'zidan chiqqanday qilib so'zlab bergunday bo'lsak, sizni zeriktirib yuborardik, ammo-lekin mazkur hikoyaning mohiyati shundan iborat ediki, bunga qaraganda Oliver — past, qora halq nasabidan bo'lmish badaxloq kimsalardan tug'ilgan yetimcha ekan; innaykeyin, u dunyoga kelgan kunidan boshlaboq xiyonatkorlik, ayyorlik, noshukurlik hamda tajanglik kabi xislatlarni namoyon etganmish; ona shahridagi qisqagina hayotini yuvoshgina bir bolakayni qonxo'rlarcha, razilona do'pposlash bilan tugallab, kechasi o'z xo'jasining uyidan qochib qolganmish. Mister Bambl o'zining chindan ham o'zi aytgan shaxs ekanini isbotlaydigan dalil sifatida shaharga olib kelgan qog'ozlarini stolga chiqarib qo'ydi. To mister Braunlou bular bilan tanishib chiqqunicha qo'llarini qovushtirgancha kutdi.

— Bu gaplarning bari rost bo'lmasa deb cho'chib turibman, — dedi kekxa jentlmen qog'ozlarni ko'zdan kechirarkan. — Siz keltirgan ma'lumot uchun beriladigan mukofot unchalik katta emas, lokin men agar bular bolaning sha'ni uchun maqbul bo'lib chiqqanida jonjon deb uch karra ko'proq berishga ham tayyor edim.

Mister Bambl buni ilgariroq bilganida bormi, o'zining qisqagina hikoyasiga mutlaqo o'zgacha rang bergan bo'lishi ehtimoldan yiroq emasdi. Ammo endi fursat o'tgandi, shu boisdan ham u vazminlik bilan bosh chayqab qo'ydi-da, besh giney pulni cho'ntagiga yashirib, chiqib ketdi.

Mister Braunlou bir necha daqiqa davomida xonada nari-beri borib-kelib turdi, aftidan, u bidlning hikoyasidan shunchalik dili

vayron bo'lgan ko'rinardiki, hatto mister Grimuigday odam ham ortiq jig'iga tegmay qo'ydi.

Nihoyat u to'xtab, shaxt bilan qo'ng'iroq chaldi.

— Missis Beduin, — dedi mister Braunlou ro'zg'orboshi kirib kelganida, — bu bola Oliver, yaramas bo'lib chiqdi.

— Bundoq bo'lishi mumkinmas, ser, sirayam mumkinmas! — dedi kekxa xonim kuyib-pishib.

— Aytyapman-ku sizga — yaramas ekan! — e'tiroz bildirdi kekxa jentlmen. — «Bundoq bo'lishi mumkinmas» deyishga qanday asosingiz bor? Biz hozirgina dunyoga kelgan kunidan boshlab u to'g'risidagi batafsil hikoyani o'z qulog'imiz bilan eshitdik. U umri bo'yi epchil zinqarcha, yaramas bo'lib kelgan ekan.

— Ikki dunyodayam ishonmayman bunga, ser, — qat'iy ohangda dedi kekxa xonim. — Ikki dunyodayam!

— Siz kampirlar faqat qalloblar-u bema'ni cho'pchaklarga ishonasizlar, — to'ng'illab qo'ydi mister Grimuig. — Men buni avval boshdayoq payqagandim. Nega darrov maslahat solmadinglar o'zi? Isitmalab qolmaganida, ehtimol, shunday qilardinglar, a? U yaxshi, g'alati bola ko'rindimi, shundaymi? Shunday! Mana, oqibati! — Shunday deya mister Grimuig kosovni silkiib turib zarb bilan kaminaga suqdi.

— O'zi yoqimtoy, mo'min-qobil, ko'ngilchan bolaydi, ser! — qarshilik bildirdi missis Beduin achchiq-alam bilan. — Bolalarni farqiga boraman, ser. Ularni farqiga boradigan bo'lganimga qirq yildan oshdi; bu ishda tajribam bor deyolmaydiganlar esa og'iz ochmay qo'ya qolgani maqbul! Men shundoq deb o'ylayman.

Bu bo'ydoq mister Grimuigga qaratilgan keskin chovut edi. Lekin bu hamla kekxa jentlmenga kor qilmay, u jilmayibgina qo'ya qolgani tufayli kekxa xonim boshini bir silkib, peshbandini to'g'rilarkan, yangi hamlaga hozirlandi, biroq uni mister Braunlou to'xtatdi.

— Yetar! — dedi kekxa jentlmen o'zini jahli chiqqanga solib, aslida esa mutlaqo bunday emasdi. — Bu bolani otini eshitishni ortiq istamayman! Shuni aytib qo'ygani chaqirgandim sizni. Hech qachon! Hech qachon, zinhor-bazinhor! Yodingizda bo'lsin bu! Ketishingiz mumkin, missis Beduin. Yodda tuting-a! Hazillashayotganim yo'q men.

Shu kecha mister Braunlou uyi istiqomatchilari qalban iztirob chekib chiqdilar.

Saxovatli, mehribon do'stlarini o'ylar ekan, Oliverning yuragi siqilib ketardi; yaxshiyamki ularning qanday ma'lumotlardan xabar topganlarini bilmasdi, yo'qsa yuragi paqqos yorilib ketishi mumkin edi.

---

XVIII BOB. OLIVERNING DILGA NAJOT BERUVCHI  
MUHTARAM OSHNALARI DAVRASIDA VAQTNI  
QANDAY O'TKAZGANI HAQIDA

Ertasi kuni, choshgoh pallasida Tullak bilan yosh Beyts odatdagi yumushlariga jo'nagach, mister Fedjin fursatdan foydalanib Oliverga nonko'rlikdek gunohi azim borasida uzundan-uzun va'z o'qidi. Oliver qasddan do'stlarini tashvishga solib, ular davrasidan qasddan qochib ketib, ustiga-ustak shunchalik tashvish-u xarajatlardan keyin ham ular qo'lidan qochib qutulishga urinib ana shunday gunohga yo'l qo'ygani ochiq-oydin isbotlab berdi. Mister Fedjin, ayniqsa Oliverga boshpana bergani hamda o'z vaqtida qanoti ostiga olib isitmaganida ochdan o'lib ketishi aniq ekanini ta'kidladi; keyin mister Fedjin xuddi shunday sharoitda odamgarchilik qilib o'zi yordam qo'lini cho'zgan, ammo uning ishonchini oqlay olmagan va politsiya bilan aloqa qilish istagi borligini bildirib qo'yan, oqibatda, ming afsuski, bir kuni ertalab Old-Beylida\* dorga osilgan bir bolakayning boshidan kechgan achinarli va ta'sirli voqealarni so'zlab berdi. Mister Fedjin ushbu halokatda o'zini ham hissasi bor ekanini yashirishga urinmadi; lekin yuqorida zikr etilgan bolaning nobakorligi, xoinligi uchun sudda (garchi asl haqiqatga to'g'ri kelmasa-da) ba'zi bir guvohliklar berishga to'g'ri kelganligini, ana shuning oqibatida uning qurbon bo'lganini ko'ziga yosh olib gapirib berdi va uning (mister Fedjinning) va ba'zi sara do'stlarning xavfsizligini ta'minlash uchun shunday qilishlari juda ham zarur bo'lganini aytdi. Xulosasida mister Fedjin osilish jarayonida sodir bo'ladigan noqulayliklarni nihoyatda yoqimsiz bir tarzda ta'riflab berdi va hech qachon Oliver Twistni bunday ko'ngilsiz qismatga ro'para etish niyati yo'qligini xushfe'llik bilan qizg'in bayon qildi.

Juhudning va'ziga quloq solarkan, bu gaplar zahirida yashiringan mudhish tahdid va po'pisani sal-pal anglab yetgan mitti Oliverning o'takasi yorilayozdi. Endilikda unga mabodo aybsiz bilan aybdor ikkalasi tasodifan baqamti kelib qolganida hatto odil sud ham aybsizni aybdor deb topishi mumkinligi ma'lum edi. Shuningdek, uning nazdida keksa juhud shu paytgacha bir necha marta ko'p narsadan xabardor yoki og'zi bo'sh odamlarni gumdon qilish maqsadida yashirincha rejalar o'ylab topib, ularni amalga oshirganday bo'lib tuyuldi; negaki Oliver shu topda mazkur jentlmen bilan mister Sayks

orasidagi bordi-keldi gaplarni esladi, bu gaplar ilgari bo'lib o'tgan xuddi ana shunaqangi yashirincha ishga taalluqli bo'lishi kerak. U ko'zlarini cho'chibgina ko'tarib, nigohi juhudning sinchkov nazari bilan to'qnash kelarkan, o'zining rangi qum o'chgani va titrab turgani cholning nazaridan qochib qutulmaganini hamda bu hol ziyrak kekxa jentlmenni mamnun etganini fahmladi.

Juhud kishini jirkantiradigan bir qiyofada irshayib, Oliverning boshini silagan ko'yi, agar u o'zini yaxshi tutadigan bo'lsa va ishni boshlasa hali do'stlashib ketajaklarini aytdi. So'ngra shlyapasini olib, eski yamoq paltosini kiydi-da, xonadan chiqib, ustidan qulflab qo'ydi.

O'sha kuni kechgacha va keyingi kunlari erta sahardan to yarim kechagacha Oliver hech kimni ko'rmadi, bir necha soatlab o'z o'y-xayollari bilan bo'ldi. Bu o'y-xayollari esa mehribon do'stlariga qaratilgan va o'zi to'g'risida ular qanday xayollarga bordiykin, degan g'oyatda g'amgin savolga borib taqalar edi.

Oradan bir haftalar o'tgach, juhud eshikni qulflashni bas qildi, shundan keyin Oliver uchun butun uyni aylanib yurish imkoni tug'ildi.

Bu yer nihoyatda iflos edi. Yuqori qavatdagi xonalarda haybatli, baland-baland yog'och kaminlar bor edi, eshiklari ham katta-katta, yog'och panel bilan qoplangan devor-u shift ostidagi navolari vaqt o'tishi va is boylashdan qorayib ketgan, biroq turli xil naqsh-u bezaklar bilan bezatilgandi. Bularning bari Oliverning talay yillar muqaddam, hali kekxa juhud tug'ilmasidan burun bu uy xiyla boobro' odamlarniki bo'lgan va garchi hozir befayz va xunuk, huvillab qolgan bo'lsa-da, u paytlarda hozirgidan fayzliroq hamda chiroyliroq bo'lgandir, degan xulosa chiqarishiga izn berardi.

Xonalarning burchaklariga o'rgimchaklar to'r to'qib tashlagan, goho esa Oliver astagina xonaga kirganida g'ujg'on o'ynagan sichqonlar to'rt tarafga qarab qochib, o'z inlariga kirib pildir-pis bo'lib olardilar. Sichqonlardan bo'lak jonivor zotining na o'zi ko'rinardi-yu, na sasi eshitilardi bu yerda; ko'pincha, qorong'i tushib, Oliver xonama-xona sanqiyverib charchagan paytlarida odamlarga yaqinroq bo'lish uchun tashqaridan kiriladigan eshik oldidagi burchakka qisinib olardi-da, to juhud yoki bolalar qaytmagunlaricha tiq etgan ovozza quloq solib, soatlarni sanagancha shu yerda o'tiraverardi.

Hamma xonalarning liqildoq deraza qopqoqlari zich berkitig'liq, ularni mustahkam tutadigan murvatlar yog'ochga qoqilib, mahkam burab qo'yilgan; shiftdagi dumaloq tuynukdan tushib turadigan yorug'lik xonalarni yanayam nimqorong'i ko'rsatar va ularda g'aroyib ko'lankalar hosil qilardi. Chordoqning hovliga qaragan, tashqaridan zanglab ketgan panjara o'rnatilgan derazasida qopqoq yo'q edi, zerikib siqilib ketgan Oliver, ko'pincha soatlab ana shu deraza-

dan tashqariga tikilardi; deraza ortida behisob tomilar ayqash-uyqash bo'lib, qalashib-mingashib ketgandi; u qoraygan mo'rilar, darchalarni ko'rardi, xolos. Rost, goho olisdagi bironta uyning panjarasi ortidan mo'ralayotgan oppoq sochli bosh ko'zga chalinib qolardi, lekin u ham zumda g'oyib bo'lardi; Oliverning rasadxonasi derazasi mixlab tashlangani va uzoq yillar davomida oynasi dud va yog'in-sochindan xiralashib ketgandi, shu sababli bolakayning, o'zini birov ko'rib qolishi yoki ovozini eshitishidan umid ham qilmay, turli narsalarning shakli-tarhiga tikilishdan o'zga chorasi yo'q edi — o'zini ko'rib yoxud ovozini eshitib qolishlariga esa avliyo Pavel jomesi gumbazi ostida yashagani taqdirida ham umid-u ishonch kamroq edi.

Bir kuni choshgohdan keyin, Tullak bilan Beyts kechki ishga otlanayotganlarida, qayd etganimiz yosh jentlmenlardan birinchisining boshiga o'z shaxsiga oro berishdek fikr kelib qoldi-yu (haqiga ko'chib, tan berish kerakki — odatda uning bunday qusurga moyilligi yo'q edi), aynan shu niyatda u muruvvat ko'rsatib, Oliverga amirona ohangda darhol egnini epga keltirishiga yordamlashib yuborishni buyurdi.

Oliver birovga yordam qilish imkoni tug'ilganidan xursand, yaramas bo'lsalar ham, har qalay odamlarni ko'rayotganidan baxtiyor holda, atrofida gilarining iltifotiga erishishni jon-jahdi bilan istardi (bunga agar insofsiz biron ish qilmay erishishning iloji bo'lsa, albatta), ana shu sababdan bunday buyruqqa u qarshilik bildirishni xayoliga ham keltirmadi. O'zining buyruqni bajo keltirishga tayyor ekanini namoyish etishga shoshildi va yerga cho'kka tushib, stolga o'tirgan Tullakning oyog'ini tizzasiga qo'ydi-da, mister Daukins «o'z yo'rg'asiga pardoz berish» deb ataydigan yumushga kirishdi. Bu so'zlar oddiy ingliz tiliga tarjima qilinadigan bo'lsa, etik tozalash deganini anglatar edi.

Chamasi stolga joylashib olib, trubkasini tutatib o'tirgani, oyog'idagi etigini yechib aziyat chekmagani, to bir poyini tozalagunlaricha ikkinchi oyog'ini beparvolik bilan likillatib o'tirgani, keyin ularni qayta kiyishdek ko'ngilsiz mashaqqatdan qutulganidan huzurlanib, o'zini erkin his qilayotganidanmi yoki ajoyib tamaki ko'nglini iydirdigani boisidanmi, balki xotirjam tortkizuvchi kuchsiz pivo ta'sir qilgandir — sababi qanday bo'lmasin, Tullak shu asnoda odatdan tashqari dimog'i chog', xursand kayfiyatda edi. Oldiniga Oliverga o'ychan qiyofada tikildi, so'ngra esa boshini ko'tarib, astagina xo'rsinib qo'ydi-da, o'z-o'ziga aytdimi, Beyts gami, ishqilib, shunday dedi:

— Esizgina, yurgan bolamas-da!

— Ha, — dedi yosh Charli Beyts, — o'z foydasini tushunmaydi bu.

Tullak yana xo'rsinib qo'ydi-da, tag'in tamakisini tutataverdi; Charli Beyts ham shunday qildi. Ikkovlon bir necha lahza jimgina chekishdi.

— Sen hali hatto yurgan bola degani nimaligini ham bilmasang kerag-a? — so'radi Tullak o'ychan.

— Menimcha, biladiganga o'xshayman, — javob qildi Oliver boshini ko'tararkan. — Bu o'g'... siz o'shalardan bittasisiz, to'g'rimi? — so'radi u sal tutilib qolib.

— To'ppa-to'g'ri, — javob berdi Tullak. — Ikki dunyoda ham boshqa kasbni qilmasdim past ketib.

Mister Daukins o'z ahdini ana shunday bayon qilgach, jahl bilan shlyapasini chakkasiga surib qo'ydi-da, xuddi e'tiroz bildirib ko'rchi, deganday yosh Beytsga tikildi.

— To'ppa-to'g'ri, — takrorladi Tullak. — Charli ham, Fedjin ham, Sayks ham, Nensi ham, Bet ham xuddi shunday. Biz hammamiz yurganlarmiz, kuchuk ham bundan mustasnomas. Hali u hammamizdan ham epchilroq bo'lib ketadi, ko'rasan!

— Kim-kim-u, u sirayam sotmaydi-da! — qo'shib qo'ydi Charli Beyts.

— U sudda gullab qo'ymay deb cho'chiganidan aqalli «vov» ham demasdi... e yo'q, hatto bordi-yu, uni bog'lab qo'yib, ikki hafta ovqat bermagan chog'laridayam, — dedi Tullak.

— Sirayam «vov» demasdi, — tasdiqladi Charli.

— Ja ajoyib kuchuk-da, — so'zini davom ettirdi Tullak. — Oldida kulmoqchi yoki ashula aytmoqchi bo'lgan begona odamga qanaqangi vahshiyona olayishini aytmay-sanmi! G'ijjak chalayotganlarida iril-lashi-chi! Jamiki zoti boshqa itlarni g'ajib tashlashga tayyor! O'!

— Asil nasroniy-da o'ziyam! — dedi Charli.

U faqat itni xislat-u fazilatlarini uchun maqtamoqchi edi, biroq mulohazasi, garchi yosh Beyts buni bilmasa-da, o'zga ma'noda juda o'rniga tushgandi; o'zlarini asil nasroniy deb hisoblashga da'vogar talay xonim va jentlmenlar bor ediki, bular hayron qolarli darajada mister Sayksning iti bilan o'xshash jihatlarga egadirlar.

— Xo'p, bo'pti, — dedi Tullak o'tlab ketgan mavzulariga qaytib, zotan u o'z kasbini hamisha yodda tutardi. — Buning bizning go'lga hech qanaqangi aloqasi yo'q.

— To'ppa-to'g'ri, — gapiga qo'shildi Charli. — Oliver, sen nimaga Fedjinga shogird tushishni xohlamaysan?

— Innaykeyin, osongina boylik orttirishniyam? — kulimsirab qo'shimcha qildi Tullak.

— Ana undan keyin ishni yig'ishtirib, tinchgina, maza qilib yashamaysanmi-ya? Mana meni aytaylik, tag'in to'rtta kabisa yili o'tishi bilan, keyingi kabisa yilida, Troitsa bayrami haftasining qirq ikkinchi seshanbasidan boshlab xuddi shundoq qilmoqchiman, — dedi Charli Beyts.

— Yoqmaydi bu menga, — dedi Oliver hurkibgina. — Men shuni xohlardim-ki, meni qo'yib yuborishsa. Men... men ketsam degandim.

— Fedjin xuddi shuni xohlamaydi-da! — e'tiroz bildirdi Charli.

Buni Oliverning o'zi ham yaxshi bilardi-yu, lekin tuyg'ularini ochiq-oshkora izhor etishni xavfli sanaganidan faqat xo'rsinib qo'ya qoldi va etikni tozalashni davom ettiraverdi.

— Ketsam degandim-a! — xitob qildi Tullak. — Nima balo, uya-ting ham yo'qmi deyman-a? Zig'irchalik g'ururing ham yo'q ekan! Ho, ko'ngillari ketishni istaydi-yu, o'zlari oshnalarining hisobiga ayshlarini surmoqchi ekanlar-da?

— E, jin ursin! — bo'g'ildi yosh Beyts cho'ntagidan ikki-uch shoyi dastro'molni chiqarib, javonga uloqtirar ekan. — Bu pastkashlik, boshqa gapmas!

— Men bo'lsam, bunaqangi pastkashlikka bormasdim, — dedi Tullak gerdayma-nafratomuz ohangda.

— O'z do'stingizni tashlab qochish qo'lingizdan keladi-ya, — dedi Oliver so'nik iljayish-la, — innaykeyin, sizlarni deb uni jazolashlariga ham qo'yib beraverasizlar-a?

— E, haligi, bilasanmi, — javob qildi Tullak trubkasini silkib, — Fedjinni o'ylab shundoq qildik, axir iskovuchlar birga ishlashimizni bilishadi-ku, agar biz juftakni rostlab qolmaganimizda uning ishi ishkal bo'lishi mumkin edi-da... Gap ana bu yoqda, to'g'rimi, Charli?

Yosh Beyts maqbullab bosh irg'adi va nimadir deb qo'shimcha qilishga chog'langan paytida Oliverning qanday qochgani qo'qqisdan esiga tushib ketib qah-qah urib kulib yubordi, xuddi shu asnoda ichiga tortgan tutun boshqa yo'lga ketib qolib, oqibatda u besh daqiqacha yo'talib, oyoqlarini tapillatib deysinib turdi.

— Mana ko'r! — dedi Tullak cho'ntagidan bir hovuch shilling va yarim penslik tanga-chaqani olarkan. — Mana bu farovon hayot bo'pti-da! Qay go'rdan kelib qolgani bari bir emasmi? Ma, ol! Bularni olgan joyimizda tag'in ancha-munchasi qolgan. Nima, xohlamaysanmi? Voy, sen merovni qara-yu!

— Bu judayam yomon ish-a, to'g'rimi, Oliver? — dedi Charli Beyts. — Odam oxiri bu ishi uchun sirtmoqqa tushadi, shundaymi?

— Bu nima deganini bilmayman, — javob qildi Oliver.

— Mana bundoq degani bu, oshnam! — dedi Charli.

Shunday deya yosh Beyts galstugi uchidan ushlab, yuqoriga siltab ko'rsatdi-da, boshini yonga qiyshaytirib, tishlari orasidan allaqanday g'alati tovush chiqarar ekan, bu sho'xchan harakatlari yordamida sirtmoq tortish bilan osish — ikkovi bir go'r ekanini tushuntirgan bo'ldi.

— Mana shunaqa degani bu, — dedi Charli. — Qara, Jek, ko'zlari kosasidan chiqib ketay deyapti-ya! Bunaqangi lavangni umrim bino bo'lib ko'rmaganman. Bir kun kelib ichagimni uzadi bu, bilaman, tamom qiladi meni.

Yosh Charli Beyts tag'in ko'zlaridan yosh chiqquncha xoxolab kulgancha, trubkasini og'ziga oldi.

— Senga juda yomon tarbiya berishgan ekan, — dedi Tullak benihoya mamnuniyat bilan Oliver tozalab bo'lgan etigini ko'zdan kechirayotib. — Aytmoqchi, Fedjin sendan bir nima chiqaradi, yoki u hech ish chiqarolmagan birinchi odam sen bo'lasan. Yaxshisi, hozirdanoq boshlayver, chunki bari bir ham shu hunar bilan shug'ullanishga majbur bo'lasan, bunaqada vaqtni bekor ketkizyapsan, xolos, Oliver.

Yosh Beyts bu maslahatni har xil ma'naviy-axloqiy o'gitlar bilan quvvatladi; pand-u nasihatlarini tugagach, u va oshnasi mister Daukins o'zlari boshdan kechirgan hayot bilan bog'liq bo'lgan son-sanoqsiz huzur-halovatli damlarni yorqin bo'yoqlarda tavsif-u tasvirlashga o'tishdi va Oliverga paysalga solmay, ularning o'zlari foydalangan chora-vositalar yordamida tezda mister Fedjinning iltifotiga sazovor bo'lib olgani maqbul ekanini shama qilishdi.

— Keyin shu narsani miyanga mahkam joylab olki, Qovoqbosh, — dedi Tullak juhudning yuqoridagi eshikni ochganini eshitib, — agar artgich va chiqillagichlarni o'marib kelmaydigan bo'lsang...

— Bunaqangi gaplarni ishlatishdan foyda bormi-ya? — gapga aralashdi yosh Beyts. — Nima deyayotganingni tushunmayapti u.

— Agar dastro'mol bilan soatlarni sen o'marmaydigan bo'lsang, — dedi Tullak o'z nutqini Oliverning zehn-idroki darajasiga moslab, — bari bir boshqa birov o'maradi. Bundan oldirgan odam zarar ko'radi, senga ham ziyon bo'ladi, keyin, bu ishda o'sha buyumni kissasiga urgan boladan bo'lak hech zog' yutmaydi, o'sha narsaga ega chiqishga u bolaning qanchalik haqqi bo'lsa, sening ham xuddi o'shanchalik haqqing bor.

— Barakalla! — dedi juhud, Oliver uning xonaga kirganini payqamay qolgandi. — Bu gaplarning bari jo'ngina, azizim; judayam jo'n, Tullakning gapiga bemalol ishonaver. Hi-hi-hi! U o'z hunarini miridan-sirigacha biladi.

Qariya xursand kayfiyatda kaftlarini bir-biriga ishqab, Tullakning mulohazasini tasdiqlar va shogirdining iste'dodiga qoyil qolib hirlinglardi.

Juhud uyga miss Betsi bilan Oliver hali biron marta ham ko'rmagan jentlmenni ergashtirib kelgani boisidan bu galgi suhbat uzilib qoldi; Tullak uni Tom Chitling deb atadi chog'i; u xonim bilan mulozamat qilishib zinapoyada ivirsib qolib, endigina xonaga kirib kelgandi.

Mister Chitling Tullakdan kattaroq edi — ehtimol o'n sak-kiz qishni ko'rgandir, lekin bu yosh jentlmen bilan picha ehtirom-

la muomala qilar, aftidan, ushbu hol u o'zini Tullakdan pastroq tutishining shahodati edi, negaki, gap quvlik hamda kasbga oid iste'dod xususida borardi. Uning ko'zlari jimitday, chaqnoq; aftiga chechak gul chiqqan; boshida mo'yna qalpoq, egnida yo'l-yo'l qora chiy baxmal kalta kamzul, moy tekkan dog'-dug' paxmoq shim. Ochig'ini aytganda, uning engil-boshi bir ahvolda; lekin u ulfatlaridan uzr so'rab, o'zini atigi bir soatgina muqaddam «bo'shatganlarini», keyingi olti hafta davomida forma kiyib yurgani tufaylidan fuqarocho kiyimiga qarashga imkoni bo'lmaganini aytdi. Mister Chitling g'oyatda asabiylik bilan ust-boshni dudlashning yangicha usuli mutlaqo konstitutsiyaga zid ekanini qo'shib qo'ydi, negaki, matosi kuyib qolar-kan; lekin graflik ma'murlari bilan bunga qarshi kurashishning imkoni ham, iloji ham yo'q emish. Sochni olish to'g'risidagi ko'rsatma borasida ham u xuddi shu taxlit fikrni izhor etdi, buni ham u tamoman qonunga xilof hisoblarkan. Mister Chitling o'z ma'ruzasini og'ir mehnat-la o'tgan, har biri yilday uzun qirq ikki kundan beriga og'ziga bir tomchi ham ichkilik olmagan va «qurib-qovjirab ketmagan bo'lsam, mayli, turgan joyimda gumdon qilib qo'ya qolinglar» kabi jumlar bilan nihoyaladi.

— Qani, Oliver, bu jentlmenni qayerdan keldi deb o'ylaysan? — deb so'radi juhud boshqa ikki bola stolga bir shisha viskini keltirib qo'yishgach, miyig'ida kulib.

— B-bilmadim, ser, — dedi Oliver.

— Bu kim bo'ldi yana? — so'radi Tom Chitling Oliverga nafatomuz ko'z qirini tashlab qo'yarkan.

— Bu, azizim, yosh do'stlarimdan biri, — javob qildi juhud.

— Demak, omadi kelibdi uni... — dedi yigitcha Fedjinga ma'nodor boqib. — Qayoqdan kelganimni nima farqi bor, bolakay? Kallamni garovga qo'yib bas boylashamanki, u yoqqa olib boradigan yo'lni tez orada o'zing topib olasan!

Bu hazildan bolalar kulib yuborishdi. Tag'in bir muddat xuddi shu mavzuda hangomalashgandan so'ng, ular Fedjin bilan ikki og'izgina pichirlashib olib, chiqib ketishdi.

Yangi mehmon chekkaroqda Fedjin bilan so'zlashdi, keyin ikkalasi ham o'tirgan kursilarini o'choqqa yaqinroq surishdi, shunda juhud Oliverni imlab chaqirib, yoniga o'tirishni buyurdi-da, quloq solayotganlarni hammadan ko'ra ko'proq qiziqtiradigan narsadan gap ochdi. So'z o'z kasblarining beqiyos naf keltiruvchi jihatlari, Tullakning mahorati, Charli Beytsning xushfe'l-u muloyim tabiati, juhudning o'zining saxovatligi ustida bordi. Bu mavzular nihoyat adog'iga yetdi, shuningdek, mister Chitling ham adog' bo'lgandi, zotan axloq tuzatish uyida bo'lish bir-ikki haftaning o'zidayoq surobnini to'g'rilab

qo'yardi. Shu sababdan ham miss Betsi ulfatlarga dam olish imkonini berib chiqib ketdi.

Shu kundan e'tiboran Oliverni kamdan-kam yolg'iz qoldiradigan bo'lishdi; u deyarli har kuni juhud bilan o'sha eski o'yinni o'ynaydigan ikkala bola bilan birga bo'lardi (o'z malakalarini oshirish uchunmi, yo Oliver o'rgansin debmi — nima maqsadda bunday qilishlarini hammalaridan mister Fedjin yaxshiroq bilardi). Ba'zan chol ularga yoshligida qilgan o'g'irliklarini hikoya qilib berar va bu hangomalarda shunaqangi kulgili hamda qiziqarli holatlar tasvirlanardiki, Oliver beixtiyor chin dildan kular, o'zining jami ajoyib fazilat-u xislatlariga qaramay, bu hangomalar uni qiziqtirayotganini yashira olmasdi.

Xullasi kalom, ayyor juhud chol bolani o'z to'rlari bilan chirmab tashladi. Bolakayni yolg'izlik va umidsizlik iskanjasiga solib, uni yolg'iz, g'amgin o'y surib o'tirgandan, yaxshimi yo yomonmi, ishqilib, odamlar davrasida bo'lishni maqbulroq ko'rishga tayyorlab borgan chol endilikda uning vujudiga tomchi-tomchilab zahar quyar, ushbu zahar tomchilari esa bola qalbini abadulabadga o'zgartirib, loyqalatadi, deya umid qilardi.

---

---

XIX BOB.    ANTIQA BIR REJA USTIDA BAHSLASHIB,  
UNI QABUL ETGANLARINI HIKOYA QILADI

Juhud qoq suyak tanasiga yopishib turgan paltosining jamiki tugmalarini qadab, chakag-u og'iz-burnini yashirish uchun yoqasini quloqlarigacha ko'tarib olib uyasidan chiqqanida badqovoq, rutubatli, shamol esib turgan tun edi. U to ortidan eshikni zanjirlab olgunlaricha zinada kutib turdi-da, bolalarning yaxshilab berkitib olganlariga va odim tovushlari ichkariga kirib tinganiga ishonch hosil qilgach, ko'chada yo'rg'alay ketdi.

Oliverni boshlab kelishgan uy Uaytchepl\* bilan yonma-yon edi. Juhud muyulishda bir nafasgina to'xtab, atrofga shubhali alanglab oldi-da, ko'chani kesib o'tib, Spitel-Filds tomonga yurdi.

Tosh ko'chani to'piqqacha loy qoplagan, ko'chalarni zimiston qorong'ilik chirmagan; shivalab yomg'ir yog'ar, havo muzdek; havo ham, yer ham — hammasi chip-chip yopishqog'-u ilashqoq edi. Juhud singari nusxalar aynan mana shunday kechada ko'chalarda tentiraklashga munosibday tuyulardi. Manfur chol devor-u dolonlar panasida pisibgina ilgarilarkan, o'zi oralab horayotgan axlat-u zulmot qo'ynida tug'ilgan allaqanday jirkanch sudraluvchi jonivorga o'xshab ketardi; u tun qo'ynida xo'rakka yog'liroq o'laksa izlab o'rmalab borardi.

U ilang-bilang hamda tor ko'chalarni bosib o'tib, Betnel-Gringa yetib bordi; keyin shartta chapga burilib, ushbu aholi qalin joylashgan dahada to'lib-toshib yotgan ilonizi tor ko'chalardan chiqib qoldi.

Aftidan, juhud hozir o'zi turgan joyni juda yaxshi bilardi, shu bois zimiston tun-u mashaqqatli yo'l zarracha cho'chitmasdi uni. U zipil-lagancha bir nechta jinko'chadan o'tdi va nihoyat, narigi boshidagi bittagina fonus yoritib turgan ko'chaga burildi. Shu yerdagi uylardan birining eshigini tiqillatib, eshikni ochgan odam bilan ikki og'izgina allanimalar deb pichirlashdi-da, zinadan tepaga ko'tarila boshladi.

U eshik tutqichiga qo'l tekkizgan onda it irilladi, shunda erkak kishi kim bu deb so'radi.

— Bu menman, Bill, yolg'iz o'zimman, azizim, — dedi juhud xonaga mo'ralab.

— E-ha, qani, marhamat, ichkariga, — dedi Sayks. — Tek yot, tentak maxluq! Nima balo, palto kiyib olsa iblisni tanimay qolasan chog'i?

Turgan gapki, itni mister Fedjinning ust kiyimi chalg'itib qo'ygandi aftidan, zero juhud tugmalarini yechib, paltosini stul suyanchig'iga tashlagani zamonog, endi tanidim, deganday dumini likillatgancha (bu tuyg'u uning tabiatiga xos edi-da, axir) o'z joyiga ketdi.

— Xo'sh! — dedi Sayks.

— Nima bo'lardi deysiz, azizim! — javob qildi juhud. — E-ha, Nensi!

Uning ovozida murojaatimni qanday qabul etarkin, deya ikkilanishdan dalolat beruvchi pichagina sarosima ohangi sezildi: mister Fedjin bu yosh do'sti bilan qiz o'sha Oliverning yonini olgan kundan beriga ko'rishishmagan edi. Yosh xonimning xatti-harakati uning bu boradagi jamiki gumonlarini zumda tarqatib yubordi. Qiz kamin panjarasidagi oyog'ini pastga tushirdi, kursini yaqinroq surib, ortiqcha gap-so'zsiz Fedjinga o'choqqa yaqinroq o'tirishni taklif qildi — nimasiniyam aytasiz, kecha nihoyatda sovuq edi-da.

— Ha, azizam Nensi, judayam sovuq, — dedi juhud qoqsuyak qo'llarini o'tga toblab isitarkan. — Suyak-suyagingdan o'tib ketyaptiya, — qo'shib qo'ydi chol biqinlarini uqalaganicha.

— Sizningki yuragingizgacha kirib borgan ekan, izg'irin judayam qattiq bo'lishi kerak, — dedi mister Sayks. — Nensi, otgani unga qit-tak biron nima ber. Tezroq qimirlay qolsang-chi, jin urgur! Bu to'g'ri lahaddan chiqib kelayotgan murdor arvoqqa o'xshagan razil keksa skeletning qanday titrayotganiga qarab turib birpasda o'zingni ham dardga chalinib qolishing hech gapmas.

Nensi ko'rinishidan ming bir xil ichimlikka to'la javondagi qator-qator qilib terib qo'yilgan shishalardan bittasini chaqqonlik bilan oldi. Sayks stakanga brendi quyib, juhudga uzatdi.

— Bo'ladi, bo'ladi... Rahmat, Bill, — dedi juhud stakanga nomi-gagina og'iz tegizib, stolga qo'yarkan.

— Gumdon qilib qo'yishmasin deb cho'chiyaptilar shekilli, a? — dedi Sayks juhudga tikilib qarab. — Uh!

Mister Sayks xirillab, nafratomuz to'ng'illagancha stakanni shart-ta yulqib oldi-yu, brendidan qolganini kul ustiga sepib yubordi — bu takallufsiz harakat keyin o'zi uchun qadahni qaytadan to'latishidan bir nishona edi, u shunday qildi ham.

To u ikkinchi qadahni jig'ildoniga quyar ekan, bu orada juhud xonani nazardan o'tkazdi — qiziqsinganidan emas albatta, negaki bir necha marta ko'zdan kechirgandi bu yerni ilgari, o'ziga xos shub-hachiligi, tabiatan bezovta-yu behalovatligidan shunday qilayot-gan edi. Bu faqirona jihozlangan xona edi, javondagi narsalargina bu yerda mehnatsiz turmush kechiradigan odam istiqomat qilishidan dalolat berib turardi; burchakdagi bir nechta so'yil, innaykeyin,

o'choq tepasidagi osiqlik turgan qo'rg'oshin uchli cho'qmordan bo'lak shubhali hech nima ko'zga tashlanmasdi.

— Mana endi tayyorman, — dedi mister Sayks labini yalab.

— Ish xususida gaplashib olamizmi? — so'radi juhud.

— Bo'пти, ish xususida bo'lsa bo'la qolsin, — ko'ndi Sayks. — Boshlang ashulangizni, qani, nima gaplari bor?

— Chertsidagi ish xususidami, Bill? — so'radi juhud kursisini yaqinroq surib, ovozinı pasaytirib.

— Bo'пти. Xo'sh, bu borada nima deysiz? — so'radi Sayks.

— Eh, azizim, qanday fikrdaligimni o'zingiz bilasiz-ku, axir... — dedi juhud. — Axir o'zi biladi-ku, Nensi, to'g'rimasmi?

— Yo'q, bilmaydi, — irshaydi mister Sayks. — Yo bilishni istamaydi, har ikkalasiyam bir go'r. Ochiqchasiga, ro'yirost gapiravering! Xuddi o'marish fikri birinchi bo'lib o'zingizning boshingizga kelmaganday, bu yerda ko'z qisib, qosh uchirib, imo-ishora-yu shama bilan tushuntirishingizni qo'ying! Qani, kallangizga qanaqangi reja keldi?

— Sekinroq, Bill, sekinroq! — dedi juhud birdan toshib kelgan g'azab jazavasini jilovlashga behuda urinib. — Gapimizni eshitib qolishlari mumkin.

— Eshitsa eshitaverishsin! — dedi Sayks. — Menga bari bir emasmi?

Ammo mister Sayks uchun bari bir emasdi, shu tufaylidan ham u mulohaza qilib ko'rib, xiyla bosiqlik bilan, tovushini pastlatib gapira boshladi.

— Gap bundoq bo'пти, — dedi juhud jilpanglanib. — Men shunchaki ehtiyotkorman, xolos. Ana endi, azizim, Chertsidagi ishdan gaplashib olaylik. Qachon do'ndiramiz uni, Bill? Qachon? Kumush asboblari qalay ekan, azizim, kumushlari! — dedi juhud huzur qilib qo'llarini ishqab, qoshlarini uchirib.

— Hech ish chiqmaydi bundan, — sovuqqina javob qildi Sayks.

— Bu ishdan hech vaqo chiqmaydi deng?.. — xitob qildi juhud kursi suyanchig'iga suyanarkan.

— Ha, hech ish chiqmaydi, — dedi Sayks. — Har holda, bu biz o'ylaganchalik jo'n ish emas.

— Demak, yaxshi kirishmabmiz unga, — dedi juhud darg'azablikdan rangi gezarib. — Ortiq gapirmay qo'ya qoling!

— E yo'q, hammasini gapirib beraman sizga, — e'tiroz bildirdi Sayks. — O'zingiz kimsizki, hech nimani gapirmay qo'ya qolarkanman sizga? Men sizga aytсам, Tobi Krekit o'sha joy atrofida ikki hafta o'ralashib yurib, xizmatkorlaridan birortasi bilan til topisholmabdi!

— Nahotki, siz, Bill, o'sha ikki xizmatkordan aqalli bittasini og'dirishning iloji bo'lmabdi demoqchi bo'lsangiz? — so'radi juhud suhbatdoshining qizisha boshlaganidan ko'ngli joyiga tushib.

— Ha, xuddi shundoq demoqchiydim sizga, — javob berdi Sayks. — Ular yigirma yildan beriga kekxa xonimning xizmatini qilisharkan, bordi-yu, siz besh funt tutqazganingizda ham bari bir tuzoqqa ilinishmasdi ular.

— Nahotki siz, azizim, hatto xotinlarniyam hech kim laqillatolmaydi demoqchi bo'lsangiz? — so'radi juhud.

— To'ppa-to'g'ri, laqillatib bo'lmaydi, — javob berdi Sayks.

— Bu qanaqasi bo'ldi, hatto Tobi Krekitday yulduzni benarvon uradigan abjir odam ham-a? — dedi juhud ishonqiramay. — Bu ayollarning qanaqangi loydan yasalganini eslab ko'ring-a bir, Bill!

— Ha, hatto Tobi Krekitday abjir ham, — javob qildi Sayks. — U aytdiki, yasama chakka soqol yopishtirib, och-sariq nimcha kiyib rosa o'ralashib ko'ribdi-yu, jamiki urinishlari bekor ketibdi.

— Hammasidan ham, azizim, mo'ylov bilan askarcha ishtonni sinab ko'rgani maqbuliydi, — e'tiroz bildirdi juhud.

— Buniyam ishlatib ko'rgan u, — dedi Sayks, — bundan ham foyda chiqmagan.

Bu xabar juhudning ko'ngliga g'ulg'ula solib qo'ydi. Iyagini ko'ksiga tiragancha bir necha daqiqa o'yga cho'mdi, so'ng boshini ko'tardi-da, chuqur xo'rsinib, agar abjir Tobi Krekit rostini gapirgan bo'lsa, ishni boy beribmiz, deb cho'chiyotganini aytdi.

— Har qalay, — dedi chol, qo'llarini tizzasiga qo'yar ekan, — butun fikr-o'yimiz shunga qaratilgan bir paytda shuncha boylikni qo'ldan chiqarib yuborish alam qilarkan, azizim.

— Rost, — qo'shilishdi mister Sayks. — Omadimiz kelmadi.

Oraga uzoq jimlik cho'kdi; juhud chuqur o'yga g'arq bo'ldi, shu topda uning burush afti darhaqiqat haddan ziyod jirkanch ko'rinib ketdi. Vaqt-vaqti bilan Sayks unga o'g'rincha ko'z qirini tashlab qo'yardi. Nensi bo'lsa gazzobni jig'iga tegishdan ochiq-oshkora qo'rqqanidan olovga tikilganicha o'tirar, go'yo bo'layotgan gaplarning mutlaqo unga daxli yo'qdek edi.

— Fedjin, — so'z qotdi Sayks oraga cho'kkan jimlikni to'satdan buzib, — bu ish ellik tilladan ortiqqa arziydimi?

— Ha, — dedi juhud shunda to'satdan jon kirib.

— Demak, kelishdikmi? — surishtirdi Sayks.

— Ha, azizim, — javob qildi juhud, uning ko'zlari yiltirab ketdi, basharasidagi har bitta tuki ushbu savoldan hayajonga tushgani tufayli titray boshladi.

— E, gap bundoq, — dedi Sayks bir qadar mensinqiramay qariyaning qo'lini nari surgancha, — bunga istagan vaqtda ulguramiz. O'tgan kuni kechasi Tobi ikkovimiz bog' devoridan oshib tushib, eshik bilan deraza qopqoqlarini paypaslab ko'rdik. Kechasi uyni xud-

di turmaday taqa-taq berkitib olishar ekan, lekin bitta joy bor, o'sha yerdan hech zog'ga sezdirmay, bexitgina kirsak bo'ladi.

— Qayerda ekan o'sha joy, Bill? — sabrsizlik bilan so'radi juhud.

— Bilasizmi, o'tloqni bosib o'tish kerak... — shivirlab dedi Sayks.

— Shunaqami? — gap qistirdi juhud bo'ynini cho'zib va ko'zlarini naq kosasidan o'ynab chiqib ketgundek chaqchaytirib.

— Uh! — nido soldi Sayks va so'zi bo'g'zida qoldi, negaki shu lahzada qiz qo'qqisdan o'girilib, boshi bilan juhud tomonga imo qilgan edi. — Buning qayerdaligi bari bir emasmi? Bilaman, men-siz hech ish chiqarolmaysizlar bari bir... Lekin, shundayam sizga o'xshagan odam bilan aloqa qilganda hushyor bo'lgan maqbul.

— Ixtiyoringiz, azizim, ixtiyoringiz, — javob qaytardi juhud. — Sizlarga yordam-pordam kerakmasmi, Tobi ikkovlaring eplashtira olasizlarmi?

— Yordam-pordam kerakmas, — dedi Sayks. — Bizga faqat parma bilan bitta bolakay bo'lsa bas. Birinchisi o'zimizda bor, ikkinchisini esa bizga siz topib berasiz.

— Bolakay deng-a! — nido soldi juhud. — O', unda gap taxta devor haqida borayotgan ekan-da?

— Buning sizga hech qanaqangi aloqasi yo'q! — javob qildi Sayks. — Menga bitta bolakay kerak, bu bolakay ozg'in bo'lsin. Yo Tangrim! — dedi mister Sayks xayolga tolib. — Mo'ri tozalovchi Nedning o'g'lini qo'lga kiritolganimda edi-ya! U bolasini ataylab qoraqumga belab qo'yar, doim ishga yuborib turardi. Lekin otasini katorgaga itob qilishdi, ana shunda norasta jinoyatchilarni qaramog'iga oluvchi Jamiyat aralashib ishni pachavasini chiqardi-qo'ydi, bolani choychaqa berib turgan hunaridan ayirib, xat-savod o'rgatgani va vaqt-soati bilan xalfa bo'lib yetishtirgani olib ketishdi. Doim tumshuqlarini suqqanlari-suqqan bular! — dedi mister Sayks ko'rgan jamiki ranj-alamlari yodiga tushib, jig'ibiyroni chiqib, tobora achchiqlanib. — Qachon qarasang tumshuqlarini suqqanlari-suqqan-a! Bordiyu yetarlicha mablag'lari bo'lsa bormi (xudoga shukrki, aqchalari yo'qroq-da), bir-ikki yilda qarabsizki, bizning kasbimizga yaraydigan beshtagina bola ham qolmasdi.

— To'ppa-to'g'ri, — unga qo'shildi juhud, u suhbat davomida o'z xayollariga berilib, faqat oxirgi gapnigina eshitib qolgan edi. — Bill!

— Xo'sh, yana nima? — dedi Sayks.

Juhud hanuz o'tga tikilib o'tirgan Nensini boshi bilan imo qilib, qizni xonadan chiqarib yuborganing maqbulmidi, degan bo'ldi. Sayks, go'yo bunday ehtiyotkorlikni ortiqcha deb bilgandek; betoqatlik bilan yelkasini uchirib qo'ydi-yu, lekin itoat etib, miss Nensiga bir krujka pivo keltirishni buyurdi.

— Hecham pivo ichging kelayotgani yo'q-da, — dedi Nensi qo'llarini chalishtirgancha, pinagini buzmay joyida o'tirgan ko'yi.

— Senga aytyapman, ichgim kelyapti! — o'shqirdi Sayks.

— Yolg'on! — sovuqqonlik bilan javob qildi qiz. — So'zingizni davom ettiravering, Fedjin. Uni nima demoqchi bo'layotganini bilaman, Bill. Menga mutlaqo parvo qilmasa ham bo'ladi.

Juhud hamon ikkilanardi. Sayks hayratli ko'zlarini choldan uzib, qizga qadadi.

— Fedjin, nahotki qiz sizga xalaqit berayotgan bo'lsa? — dedi u axiyri. — Bu qanaqangi maynabozchilik! Uni ko'pdan beri bilasiz, unga bemalol inonsangiz bo'laveradi. U og'zi bo'sh vaysaqilardan emas. To'g'rimi, Nensi?

— To'g'ri bo'lganda qandoq! — javob berdi yosh xonim o'tirgan kursisini stolga yaqinroq surib, tirsagi bilan tayanib olarkan.

— Ha, ha, azizam, buni bilaman, — dedi juhud, — lokigin... — Cholning tag'in nafasi ichiga tushib ketdi.

— Xo'sh, nima? — so'radi Sayks.

— U haligi, tunov kuni oqshomdagiga o'xshab jazavasi tutib qolmasaydi, deb o'ylayapman, — javob berdi juhud.

Uning bu iqrorini eshitgan miss Nensi xoxolab yubordi-da, stakandagi brendini bir ko'tarishda bo'shatib, behayolarcha bosh silkib: «Qo'rqmay boshlayvering ashulangizni», «Sirayam bo'sh kelmang», «Hecham tashvish tortmang» qabilidagi xitoblarni qalash-tirib tashladi. Aftidan, bu daldalar har ikkala jentlmenning ko'nglini joyiga tushirdi chog'i, negaki, juhud mamnun qiyofada bosh iring'ab qo'ydi-da, tag'in o'z o'rniga cho'kdi; mister Sayks ham xuddi shunday qildi.

— Qani, Fedjin, — dedi Nensi kulib. — Billga tezroq Oliver to'g'risida gapira qoling!

— Ha, balo-ya! Judayam oqila qizsan-da, azizam! Bunaqangi zukko qizni umrimda ko'rmaganman-da o'ziyam! — dedi juhud qizning bo'ynini siypab. — To'g'ri, men Oliver to'g'risida gapirmoqchiydim. Xa-xa-xa!

— Qani, u to'g'risida nima demoqchiydingiz? — so'radi Sayks.

— Eng sizlarbopi xuddi shu bola, azizim, — xirqiroq ovozda shivirlab javob qaytardi juhud, barmog'ini burni ustiga qo'yib, manfuro-na ishshayib.

— O'sha-ya?! — nido soldi Sayks.

— Olaver uni, Bill, — dedi Nensi. — Agar sening o'rningda men bo'lsam, albatta olgan bo'lardim. Balki u boshqalarga o'xshagan ep-chilmasdir, lekin senga u eshikni ochib bersa bo'lgani-ku, axir. Ko'ngling to'q bo'lsin, Bill, unga ishonsa bo'ladi.

— Bunga shubham yo'q, — tasdiqladi Fedjin. — Keyingi haftada uni rosa o'qitdik, innaykeyin, nonini o'zi topib yeydigan fursati yetdi. Buning ustiga qolganlarining hammasiyam qo'pollik qiladi juda.

— To'g'ri, bo'yyim quyib qo'yganday mos keladi, — dedi mister Sayks o'ychan.

— Keyin, Bill, azizim, nimaniki buyursanglar, barini ado etadi, — qo'shimcha qildi juhud. — Uning o'zga iloji yo'q. To'g'ri, boplab yuragini olib, cho'chitib qo'ysanglar, albatta.

— Cho'chitib deng! — so'zni ilib ketdi Sayks. — Yodingizda bo'lsin, bir o'takasini yorayki, u yog'ini qo'yaverasiz. Agar ishga kirishganimizda juftakni rostlab qolishni xayol qiladigan bo'lsa terisiga somon tiqaman. Uni tirik ko'rmaysiz, Fedjin. Uni bu yoqqa jo'natishdan burun shuni yaxshilab o'ylab ko'ring. Gaplarim esingizda tursin-a! — dedi gazzob karavoti ostidan chiqargan misrangni ko'rsatib.

— Hammasini tarozuga solib ko'rganman, — qizg'in javob qaytardi juhud. — Men... uni diqqat bilan, sinchiklab kuzatganman, azizim. Faqat shunday qilish kerak, bizga sherik ekanini tushunsin, o'g'ri bo'lib qolganini kallasiga quyish kerak — ana shunda o'zimizniki deyavering uni! Umrbod, bizniki bo'lib qoladi. O'ho! Bu ishlar naq uzukka ko'z bo'lib tushdi-da!

Chol qo'llarini ko'ksida chalishtirdi; boshini quyi solintirib, buchayib o'tirar ekan, u xuddi xursandligidan o'zini-o'zi quchoqlayotganga o'xshardi.

— Bizniki! — takrorladi Sayks. — Meniki demoqchisiz shekilli!

— Ehtimol, azizim, — dedi juhud qattiq xiringlab. — Shuni istasangiz, meniki, Bill!

— Nimaga endi, — so'radi Sayks qoshlarini chimirib, qadrdon do'stiga xo'mrayib qarab qo'yarkan, — nimaga endi Kommon-Gardenda har kuni kechqurun elliklab bolalar sanqib yurishini, ulardan xohlaganingizni tanlab olishingiz mumkinligini bila-ko'ra turib, shu o'limtik bolaga qanchadan-qancha mehnat sarflab o'tiribsiz?

— Chunki ulardan sariq chaqalik naf yo'q, azizim, — bir oz xijolat tortinqiraganday javob qildi juhud. — Gapirishga ham arzimaydi. Mabodo oyoqlari ostidan falokat chiqib qolgudek bo'lsa, aftangorlarining o'ziyoq kimliklarini aytib beradi-qo'yadi, ana unda ulardan ayrildi deyavering meni. Bordi-yu bu bolakayni qo'lbola qilib pishitilsa, azizlarim, boshqa yigirmalab bolalar bilan birgalashib qilgandan ko'ra chandon ortiqroq ishni eplashtiraman. Buning ustiga, — qo'shib qo'ydi juhud xijolatdan picha o'ziga kelib, — hozir quyon bo'lib qolishning uddasidan chiqqudek bo'lsa, bizni sotishi tayin, shundoq ekan, u bizning qismatimizga sherik bo'lishi *shart*. Buning

qanday sodir bo'lishi bari bir emasmi? Uni o'g'irlikda qatnashishga majbur qilish mening qo'limda — menga ana shuning o'zi kerak, vassalom. Innaykeyin, bechora go'dakni yo'ldan supurib tashlagandan ming karra yaxshiroq-ku bu. Unday qilgan esa xavotirli, ustiga-ustak, bu ishda yutqizgan bo'lardik.

— Qaysi kunga tayin qilingan? — deb so'radi Nensi, Fedjinning insonparvarona gapiga javoban mister Sayksning g'azab-la og'zidan bodi kirib-shodi chiqishiga xalal berib.

— Darvoqe, qaysi kunga tayinlangan, Bill? — gapni ilib ketdi juhud.

— Tobi bilan indinga, kechasiga kelishib qo'yanman, — javob berdi Sayks qovog'i uyilib. — Biror gap chiqib qolsa, uni ogohlantirib qo'yaman.

— Juda soz, — dedi juhud, — oy chiqmaydi.

— Ha, chiqmaydi, — tasdiqladi Sayks.

— Demak, o'ljani qo'lga kiritish uchun hammasi tappa-taxt ekan-da? — so'radi juhud.

Sayks bosh irg'adi.

— Keyin, anavi xususida ham...

— Hammasini kelishib olganmiz, — gapni bo'ldi Sayks. — Ikir-chikirigacha hisob berib o'tirishning hojati yo'q. Yaxshisi, bolani ertaga oqshom olib kelavering. Tong otganidan bir soat o'tgach, yo'lga tushaman. Siz esa tilingizni tishlang-u dekchangizni tayyor qilib turavering, sizdan boshqa hech nima talab etilmaydi.

Uchalalari ham qizg'in ishtirok etgan qisqagina suhbatdan so'ng, shunga kelishishdiki, ertaga, qosh qoraygan pallada Nensi juhudnikiga borib, Oliverni olib chiqib ketadigan bo'ldi; ayni choqda, Fedjin ayyorlik bilan, mabodo Oliver qarshilik qiladigan bo'lsa, o'zi, ya'ni Fedjin, yaqindagina Oliverning yonini olgan qizni bajonidil kuzatib borishga tayyor ekanligini qistirib o'tdi. Shuningdek, rejalashtirilgan ekspeditsiya munosabati bilan sho'rlik Oliver butunlay mister Uilyam Sayksning himoyasi-yu izmiga berilajagi va nomi zikr etilgan Sayks unga o'zi zarur deb bilganiday muomala qilajagi, basharti Oliverning boshiga biror falokat tushsa yoki uni jazolash lozim bo'lib qolsa juhud javob talab etmasligi borasida ham tantanali ravishda bitishib olishdi; aynan shu band xususida yana shunga ahdlashildikim, bunga binoan uyga qaytgach, mister Sayksning har bir so'zi, har bir muhim jihati abjir Tobi Krekit tomonidan tasdiqlanishi hamda guvohlik berilishi lozim edi.

Dastlabki muzokaralar nihoyasiga yetgach, mister Sayks brendini shafqatsizlarcha sipqorishga kirishdi, u qo'lidagi misrangni dag'dag'ali silkib, allaqanday qo'shiqni tomog'i yirtilgudek bo'kirib

aytar, orasida bo'ralab so'kinib qo'yardi. Nihoyat, kasb-koriga xos zavqi jo'shib ketib, o'g'rilik asbob-uskunalari solingan yashigini ko'z-ko'z qilishni istab qoldi. Uni xonaga ko'tarib kirib, ichidagi turli xil asbob-uskunalarining xizmati va sifatini ta'riflash hamda ularning tuzilishini tushuntirish uchun qopqog'ini ochib ulgurmasidananoq yashik-pashigi bilan guppa quladi-yu, qulagan joyida uxladi-qo'ydi.

— Yaxshi tushlar ko'rib yot, Nensi, — dedi Juhud yana yuz-ko'zigacha burkanar ekan.

— O'zingiz ham yaxshi yotib-turing.

Shunda nigohlari to'qnashdi, juhud qattiq tikildi qizga. Qiz esa mijja qoqmadi ham. U shu topda xuddi aldashni xayoliga keltirmagan, shuningdek, ishga bamisoli Tobi Krekitning naq o'zginasiday jiddiy qarayotgandek edi.

Juhud tag'in bir karra qizga xayrli tun tilarkan, uning panasida turib, uzala tushib yotgan mister Sayksning gavdasini pinhona asta tepib ko'rdi-da, zinapoyadan paypaslanib pastga tusha boshladi.

— Qachon qaramasang shunaqa, — deya g'o'ldirardi juhud uyga qaytayotib. — Bu xotinman deganlarning eng yomon tomoni shundaki, arzimagan narsa allazamonlarda unut bo'lgan allaqanaqangi tuyg'ularini qo'zg'ab yuboradi, yaxshi tomoni esa — tez o'tib ketadi bunday holat. Ha-ha! Kap-katta erkak bir go'dakka qarshi bo'lib o'tirsa-ya — bir xalta oltinni deb-a!

Mister Fedjin ana shunday yoqimli o'ylar bilan chilp-chilp loy kechib Tullak uning kelishini toqatsizlik bilan kutib bedor o'tirgan zimiston uyiga yetib keldi.

— Oliver uxlayaptimi? U bilan gaplashmoqchiydim, — ular pastga tushishganida Fedjinning og'zidan chiqqan birinchi savoli shu bo'ldi.

— Allaqachon uxlab qoldi, — javob qildi Tullak eshikni ochib. — Ana u!

Bola yerga to'shalgan qattiq o'rinda tosh qotib uxlardi; xavotirlik, g'am-tashvish va o'z zindonining dimiqqan havosidan tusi pag'a bo'lib ketgan, bamisoli murdaga — kafanga o'ralib, tobutda yotgan o'likka emas, joni hozirgina uzilgan, norasida ruhi bir soniyagina muqaddam arshi a'loga ravona bo'lgan, yerning qo'lansa havosi chirib bitguvchi terisini hali-hozircha aynitib ulgurmagan jasadga o'xshab ketardi...

— Hozirmas, — dedi juhud astagina undan uzoqlashayotib. — Ertaga. Ha, ertaga.

---

---

XX BOB.     OLIVERNING MISTER UILYAM SAYKS IZMIGA  
O'TISHI HAQIDA HIKOYA QILADI

Oliver ertalab uyg'onib, o'rni yonida turgan tagcharmi qalin va pishiq yap-yangi boshmoqni ko'rib nihoyatda hayron bo'ldi, eski-si bo'lsa qayoqqadir g'oyib bo'lib qolibdi. Oldiniga bu yangilikdan xursand bo'ldi, bu ozodlik belgisi chog'i, degan umid tug'ildi dilida, ammo juhud bilan nonushta qilgani o'tirgach va chol uni bugun kechqurun Bill Sayksning qarorgohiga olib borishlarini aytarkan, bu umidi birpasda tutunday tarqab ketdi, juhudning so'zlash ohangi hamda turqi ko'nglidagi xavotirni beshbattar orttirib yubordi qaytaga.

— Ke... keyin butunlay o'sha yerga tashlab kelishadimi, ser? — deb so'radi Oliver bezovtalanib.

— Yo'q, yo'q, azizim, tashlab kelishmaydi, — javob berdi juhud. — Sendan ajralish istagimiz yo'q. Qo'rqma, Oliver, tag'in qaytib kelasan bu yerga! Hi-hi-hi! Biz judayam unaqangi toshbag'irlardan emasmiz, azizim. Sirayam undoqmas!

O'choq ustiga engashib, bir burda nonni yog'da qovurayotgan qariya o'girilib qarab, Oliverni mazax qilib hiringlarkan, bu bilan imkonni tug'ildi deguncha Oliverning jon-jon deb qochib qolishga tayyor ekanligini juda yaxshi bilishini anglatgan bo'ldi.

— Fikri ojizimcha, azizim, — dedi juhud Oliverga tikilib, — seni Billnikiga nimaga yuborayotganimizni bilging kelyapti-yov?

Oliver qari o'g'rining ko'ngliga kelgan o'yni payqaganini ko'rib beixtiyor qizarib ketdi, biroq tap tortmay, buni bilishni xohlayotganini aytdi.

— Xo'sh, o'zingcha qanday o'ylaysan, nimaga? — deya so'radi Fedjin javob berishdan qochib.

— Rostini aytsam, bilmayman, ser, — javob qaytardi Oliver.

— Voy seni qara-yu! — xitob qildi juhud va bolaning betiga tikilib turdi-da, keyin norozi qiyofada o'girilib oldi. — Oshiqmasang, Billni o'zi aytib beradi.

Oliverning ko'pda qiziqsinmagani go'yo juhudga alam qilganday edi. Ayni paytda, ish mana bunday mazmun kasb etardi: garchi Oliver qattiq tashvishga tushib qolgan bo'lsa-da, Fedjinning jiddiy hamda ayyorona boqishlari va o'zining xayoliga kelgan fikrlar haddan zi-

yod dovdiratib qo'ygani boisidan shu topda biron-bir savol beradigan, surishtiradigan holatda emasdi. Lekin ortiq savol berib, surishtirishning kezi ham, o'rni ham kelmadi, zero juhud to kech kirguniga qadar qosh-qovog'i uyilib, miq etmay yurdi, so'ngra esa uydan chiqib ketishga chog'landi.

— Shamni yoqsang bo'ladi, — dedi u shamni stolga qo'yayotib. — Mana kitob, to chaqirib kelishgunicha o'qib o'tira tur. Xayrli tun!

— Sizning ham tuningiz xayrli o'tsin, — sekingina javob qaytardi Oliver.

Juhud eshikka tomon yurdi, kifti osha bolaga qarab qo'ydi. To'satdan to'xtab, uni chaqirdi.

Oliver boshini ko'tardi; juhud imo bilan shamni yoqishni buyurdi. Bola itoat etdi va shamdonni stolga qo'yar ekan, juhudning xonaning qorong'i burchagidan xo'mrayib, qoshini chimirib o'ziga tikilib turganini ko'rdi.

— Ko'zingga qara, Oliver, ehtiyot bo'l! — dedi chol o'ng qo'li bilan po'pisa qilib ogohlantirarkan. — U qo'pol odam. Jahli chiqquday bo'lsa birovning qonini daryoday oqizish chikora unga! Nimaiki bo'lmasin — churq etma. Keyin nimani buyursa, barini qil. Yodingda bo'lsin-a!

Oxirgi so'zga urg'u berib aytdi-da, xunuk irshayib, bosh irg'ab qo'ydi-yu, xonani tark etdi.

Chol chiqib ketgach, Oliver boshini qo'lga qo'ygan ko'yi, yuragi bezillab, Fedjinning so'zlarini mushohada qila ketdi. Juhudning ogohlantiruvchi po'pisasi ustida bosh qotirgani sayin uning asli ma'nosi nimadaligiga yetishi battar mushkullasha bordi. U o'zini qanaqangi manfur ish yuzasidan Sayksning huzuriga jo'natmoqchi ekanliklarini va nima sababdan uni shu yerda qoldirib, o'sha niyatlarini amalga oshirolmasliklarini o'ylayverib sira tagiga yetolmadi. Xullasi, uzoq o'y surishdan so'ng, u, o'sha tomteshar toki boshqa, o'zi boproq bolani topgunicha yordam berib mayda-chuyda yumushlarini qilib turgani meni tanlashgan bo'lishsa kerak, degan qarorga keldi.

U jafolarga shunchalar ko'nikib ketgan va bu yerda shunchalar behad azob chekkandiki, bo'lajak o'zgarishdan shikva-shikoyat qilish xayolida ham yo'q edi. U bir necha daqiqa o'z xayollariga g'arq bo'lib o'tirdi, keyin chuqur xo'rsinib, shamning kuyuk so'xtasini tushirib tashladi-da, juhud qoldirgan kitobni olib o'qishga tutindi.

U kitobni varaqlay boshladi. Dastlabiga parishonlik bilan shunchaki ko'z yugurtdi, ammo diqqatini tortgan bir parchani o'qib qiziqib qoldi-yu, hademay qiroatga berilib ketdi. Bu mashhur jinoyatchilarning tarjimaiy hollari va sud ishlari hisobotlari edi: sahifalar kir-chir, iflos

barmoqlar dog'-dug' qilib tashlagandi. Ushbu kitobdan u yurak orqaga tortib, et muzlab ketadigan jinoyatlar to'g'risida o'qidi; qishloqlararo kimsasiz yo'llarda pisib turib qilingan qotilliklar; odam ko'zidan yiroq jar, o'ra-yu quduqlarga tashlangan murdalar — bunday qabrlar qanchalik chuqur bo'lmasin, jasadlarni tubida abadiy saqlab qololmagan, oradan talay yillar o'tib, oxir-oqibatda jasadlarni yuzaga chiqarib olganlar va bu manzara qotillarni shunchalar dahshatga solganki, ular dahshat ichra tavbalariga tayanib, vijdon azobidan qutulish uchun tezroq osinglar, deb iltijo qilganlar. Shuningdek, u yarim kechada to'shakda yotib, jinoyatkorona o'ylarga berilgan (o'zlarining so'zlariga qaraganda), so'ngra esa ko'z oldiga keltirganning o'zidayoq odamning a'zoyi badanlariga muz yugurtirib, oyoq-qo'lini dag'-dag' qaltiratib yuboradigan vahshiyona qotilliklarni amalga oshirgan jinoyatchilar to'g'risida ham o'qidi. Bu vahimali tasvirlar shunchalik haqqoniy hamda yorqin chiqqan ediki, sarg'ayib ketgan sahifalar bamisoli laxtalanib qonday qizarib borayotganday, so'zlar esa, xuddi o'lganlarning arvohlari shivirlayotganday, Oliverning quloqlari ostida shang'illab turganday edi.

Qo'rqib ketgan bola kitobni shartta yopdi-yu, uloqtirib yubordi. Keyin tizzalab Tangriga iltijo qilib, o'zini bunaqangi badbin ishlardan xalos etishini, bunaqangi dahshatli hamda manfur jinoyatlarni qilgani hayotini saqlab qolgandan ko'ra shu topdayoq, turgan joyida jonini olgani maqbulligini aytib yolvordi. Asta-sekin tinchlana bordi va past, titroq ovoz bilan joniga tahdid solib turgan xavfdan saqlashni va agar iloji bo'lsa hamma yuz o'g'irgan bechora bir bolaga madad qo'lini cho'zishini, hech qachon yaqinlari, qavm-qarindoshi mehriini ko'rmagan, hozirda jinoyat-u illatlar uyasida bo'lgan, hamma o'z holiga tashlab qo'ygan yakka-yu yolg'iz bolakayga yordam berishini o'tinib, Yaratganga munojot qila boshladi.

U iltijoni bas qilib, lekin hanuz yuzini qo'llari bilan yashirgancha turar ekan, qo'qqisdan allaqanday sharpa hurkitib yubordi.

— Nima bu? — xitob qildi u va eshik oldida turgan kimningdir qorasiga ko'zi tushdi. — Kim bu?

— Men... menman bu, — eshitildi titroq ovoz.

Oliver shamni boshi uzra ko'tarib, eshik tomonga qaradi. U yerda Nensi turardi.

— Shamni qo'y, — dedi qiz teskari burilib. — Ko'zimni qamash-tiryapti yorug'i.

Oliver uning rangi bo'zday oqarib ketganini payqadi va muloyimlik bilan undan, kasalmasmisiz, deb so'radi. Qiz unga orqasini qilib o'zini stulga tappa tashladi, oh-voh qildi-yu, lekin hech nima deb javob qaytarmadi.

— O'zing kechir, xudoyim! — xitob qildi u bir ozdan so'ng. — Bu yog'ini o'ylamagan ekanman.

— Bir narsa bo'ldimi? — so'radi Oliver. — Sizga biror yordam berolmaymanmi? Kuchim yetgan hamma narsani qilishim mumkin. Rostini aytyapman, hammasini.

Qiz tomog'idan ushlab olgancha orqa-oldiga borib kelar, piq-piq yig'lab, kappa-kappa havo yutardi.

— Nensi, — qichqirdi Oliver, — nima bo'ldi sizga?

Qiz tizzalarini mushtladi, yer tepindi, keyin to'satdan tek qoldida, sovuqdan qaltirab, shol ro'moliga yaxshiroq o'ranib oldi.

Oliver o'choqdagi o'tni titkiladi. Qiz stulni o'tga yaqinroq surib, oldiniga indamay o'tirdi; axiyr boshini ko'tarib, atrofga alangladi.

— Goh-gohida o'zingma nima bo'lganini tushunmay qolaman, — dedi u o'zini go'yo ko'ylagini tuzatayotgan qilib ko'rsatib. — Bunga zax, iflos xona sababchi bo'lsa kerak... Xo'sh, Noli, jonginam, tayyormisan?

— Men siz bilan birga borishim kerakmi? — so'radi Oliver.

— Ha, meni Bill yubordi, — javob qildi qiz. — Men bilan bora-sanmi?

— Nimaga? — so'radi Oliver o'zini orqaga tashlab.

— Nimaga? — takrorladi qiz va boshini ko'tardi, biroq bolaga ko'z tashladi-yu, o'sha zahotiyuq teskari o'girilib oldi. — Qo'rqma, yomon ishga emas.

— Ishonmayman, — dedi uni muttasil kuzatib turgan Oliver.

— Ana, sen aytgancha bo'la qolsin, — javob qildi qiz yasama kulgi bilan. — Balki yaxshi ishgamasdir.

Oliver sal bo'lsa-da qizning ko'nglini iydira olishi mumkinligini ko'rib-sezib turardi, shu boisdan, o'zga najot chorasini topolmay, uning rahmini keltirishni xayol qildi. Biroq, hozir soat o'n birgina bo'lgani, bu pallada ko'cha yo'lovchilar bilan gavjum bo'lishi haqidagi fikr miyasida yilt etdi-yu, gapimga ishonadigan bironta odam yo'liqib qolar ular orasida, albatta, deb o'yladi. Shunday xulosaga kelarkan, u olg'a odim tashladi va shosha-pisha yo'lga tushishga tayyor ekanini aytdi.

Uning birpaslikkina o'yga tolгани, taraddudlanganini Nensi payqagandi, albatta. Qiz so'zlayotganida bolani kuzatib turgan va unga o'tkir bir nigoh tashlab qo'ygandiki, bu nigohi bolakayning xayoliga qanday o'y kelganini anglaganini yaqqol aytib turardi.

— Jim!.. — shivirladi qiz unga tomon engashib, keyin astagina atrofga alanglab oldi-da, eshik tomonga ishora qildi. — Hech nima qilolmayсан. Men ilojim boricha senga yordam berishga urinib ko'rdim, lekin bundan hech qanaqangi naf chiqmadi. Oyoq-qo'ling

kishanlangan. Mabodo bu yerdan qutulib ketish peshonangga bitilgan bo'lsayam, har qalay hozir emas, keyinchalikdir.

Qizning ta'sirchan ovozidan lol qolgan Oliver unga hayrat-la javdirardi. Chamasi, qiz to'g'risini gapirayotgandi; rangi oqargan va tashvishli, o'zi hayajondan shaq-shaq titardi.

— Seni bir marta kaltaklanishdan asrab qolgandim, tag'in bir marta qutqarib qolaman, inkaykeyin, mana hozir ham shunday qilyapman, — davom ettirdi so'zini qiz ovozi bilan balandlatib. — Agar mening o'rnimga boshqa biror odamni yuborishganida sen bilan bunaqangi muloyim gaplashib, pachakilashib o'tirmasdi. Seni, o'zini yuvosh, mo'min-qobil tutadi, deb kafillik berdim. Agar gapga kirmaydigan bo'lsang, o'zingga ham, menga ham shikast yetkazdirasan, ehtimol, meni go'rga tiqasan. Esingda bo'lsin-a! Manavini ko'rib qo'y, tepamda turgan xudo haqqi, seni deb tortgan jafolarim mana!

Qiz shoshqaloqlik bilan bo'yni va qo'llaridagi momataloqlarni ko'rsatib bidillay ketdi:

— Bu esingda tursin-a! Hozir ham seni deb bundan battarroq azob tortishga majbur qilib yurmagin-a, tag'in. Agar senga yordam qilish qo'limdan kelganida, allaqachon yordam qilgan bo'lardim, lekin ilojim yo'q bunga. Ular senga yomonlik qilishmoqchiyamas. Seni nimaniki qilishga majbur etishsa, hammasini bajar — gunohi sengayamas. Keyin, churq etmagin-a! Og'zingdan chiqqan har bitta so'z meni nobud qilishi mumkin. Qani, qo'lingni ber! Tezroq! Qo'lingni ber!

Nensi bola beixtiyor uzatgan qo'ldan tutdi-yu, shamni puflab, uni zina tomon yetaklab ketdi. Qorong'ida ko'zga ko'rinmay turgan allakim o'sha zahotiyoyq eshikni lang ochdi va ular chiqishlari bilan xuddi o'shanday tez berkitdi. Ularni kira qilingan usti yopiq izvosh kutib turgan ekan; qiz Oliverga qanday tez gapirgan bo'lsa, o'shanday shitob-la izvoshga surgab kirdi-yu, pardalarini yaxshilab yopib qo'ydi. Izvoshchiga hech qanaqangi ko'rsatma berishning hojati yo'q edi — u otga qamchi bosdi-yu, yeldirib ketdi.

Qiz hanuz Oliverning qo'lini mahkam qisgan ko'yi pichirlab, bola uning og'zidan allaqachon eshitgan ogohlantirish-u pand-nasihat o'qishini davom ettirardi. Bu ishlar shunchalik tez va qo'qqisdan sodir bo'ldiki, bola to qayerdaligi-yu nimaga bu yerga chiqib qolgani-ni tuzuk-quruq anglab yetmasidanoq izvosh juhud kecha kechqurun qadam ranjida qilgan uyning ro'parasiga kelib to'xtadi.

Shunday bir soniya ham bo'ldiki, Oliver huvillagan ko'chaga, zud nazar tashladi-yu, lablaridan yordam beringlar, degan nido uchishiga bir bahya qoldi. Ammo qizning afsun singari ta'sirchan ovoz-la qilgan iltijosi hamon qulog'i ostida shang'illab turgani sababli baqirish-

ga yuragi dov bermadi. Toki u taraddudlanib turarkan, qulay fursat o'tib bo'lgandi: uni ichkariga yetaklab kirishgan va eshikni yopishga ulgurishgan edi.

— Bu yoqqa! — dedi qiz, shundagina qo'lini qo'yib yuborib. — Bill!

— Ha, nima deysan?! — ovoz berdi Sayks shamni ko'tarib zinapoya tepasida paydo bo'larkan. — O'! Qoyil! Marhabo!

Mister Sayksdek ters zotning og'zilaridan bunday so'zlarning parvoz etishi bag'oyat qat'iy maqbullash hamda favqulodda samimiy kutib olishning yorqin ifodasi edi. Nensi, bunday iltifotdan mamnun bo'ldi chog'i, u bilan qizg'in salomlashdi.

— Fonuscha Tom bilan unikiga ketdi, — dedi Sayks yo'lakka sham tutarkan — Bu yerda xalaqit berardi.

— To'g'ri, — javob qaytardi Nensi.

— Shunday qilib, olib kelibsan-da bolakayni? — dedi Sayks uchalarini xonaga kirishgach, eshikni berkitayotib.

— Ha, mana u, — javob berdi Nensi.

— Yuvoshgina bo'lib keldimi? — surishtirdi Sayks.

— Naq qo'zichoqday, — dedi Nensi.

— Buni eshitishdan xursandman, — dedi Sayks Oliverga xo'mrayib qarab qo'yar ekan, — o'ziga yaxshi bo'пти, yo'qsa joni qiy-nalardi. Bu yoqqa o'tsinlar, yigitcha, nasihatlarimni quloqlariga quyib olsinlar; bu ishni hoziroq bir yoqlik qilib qo'ya qolgan maqbul.

Mister Sayks o'zining yangi shogirdiga shu so'zlar bilan murojaat qilib, Oliverning boshidagi shapkani yulqib oldi-da, burchakka uloqtirdi; keyin uning yoqasidan ushlagancha kursiga cho'kib, bolani ro'parasiga turg'azdi.

— Xo'-o'sh, avvalo, manavining nimaligini bilasanmi? — dedi mister Sayks stolda turgan cho'ntakka solib yuriladigan to'pponchani qo'lga olarkan.

Oliver: «Ha», degandek bosh irg'adi.

— Ana endi bu yoqqa qara, — nasihatini davom ettirdi Sayks. — Manavi pitra, manavi o'q, manavi bo'lsa tutatqiga ishlatiladigan eski shlyapaning bir parchasi.

Oliver bu narsalarning nimaga ishlatilishidan xabardor ekanini pichirlab aytdi, mister Sayks esa hafsala bilan to'pponchani o'qlay boshladi.

— Mana endi u o'qlog'liq, — dedi mister Sayks bu ishni tugatib.

— Ko'rib turibman, ser, — dedi Oliver.

— Menga qara, — so'zini davom ettirdi talonchi Oliverning bir qo'lini mahkam siqib ushlab, to'pponcha og'zini chakkasiga tiragancha, shunda bola beixtiyor qaltirab ketdi, — mabodo ko'chaga

chiqqanimizda, agar o'zim gap so'ramasam, churq etib og'iz ochadigan bo'lsang, o'sha zahotiy o'q miyangning qatig'ini o'ynatib yuboradi. Agar beruxsat gapiradigan bo'lsang, oldindan kalima keltirib ol.

Mister Sayks o'zining ogohlantiruvchi so'zlari kor qilishi, ta'siri zo'rroq bo'lishi uchun yeb qo'ygundek bir o'qrayib qo'yib, so'zlashda davom etdi:

— Bilishimcha, u dunyoga jo'natganlarida ham senga kuyib, tashvishingni chekadigan biror kimsang yo'q. Shuningchun, senga yaxshilik qilishni o'ylamaganimda, shuncha qiynalib, hamma gapni tushuntirib o'tirishimning hojati yo'g'iydi. Eshityapsanmi?

— Gapni qisqa qilganda, — shartta gapga aralashdi Nensi, gapimga diqqat qilsin deb u Oliverga qaragan ko'yi, — agar Oliver o'ylagan ishingni boshlaganingda jahlingni chiqaradigan bo'lsa, keyin og'zidan gullab yurmasligi uchun, buning oqibatida dorga osiladigan bo'lsang ham, shartta kallasidan otib tashlaysan-a! Negaki kasbing o'zi shunaqangi, yil o'n ikki oy arzimagan ishni deb joningni tahlikaga qo'yan.

— To'ppa-to'g'ri! — maqbulladi mister Sayks. — Xotinlar ikki og'iz gap bilan tushuntirib qo'ya qolishadi, jazavasi tutib turmagan bo'lsa, albatta, hordi-yu jazavasi tutib turgan bo'lsa, diydioylari boshlandi deyaver. Mana, endi bu hamma tomondan o'qitildi... Qani, ovqatlanaylik endi, undan keyin yo'l oldidan ko'zni ilintirib olamiz.

Nensi uning amrini ado etib, tezgina dasturxon tuzadi; bir necha daqiqa g'oyib bo'lib ketib, ko'zada pivo bilan tovoqda do'lmal qo'y kallasini ko'tarib kirgan edi, mister Sayks so'z o'yini asosiga qurilgan o'tkir askiya qilib qoldi desangiz: negaki bu taom ham, uning hamkasabalari orasida keng tarqalgan ajoyib bir asbob ham «jemmi\*» degan antiqa nom bilan atalardi-da. Muhtaram jentlmen juda xursand va dimog'i chog' edi; ehtimolki darhol ishga kirishish imkoniga ega ekani hayajonini qo'zg'ab qo'yganidandir bu; har qalay, ushbuning isbot-u dalili sifatida quyidagi holni misol keltirish mumkin, u pivoni bir ko'tarishda, huzur qilib ichdi, keyin ovqat ustida taxminiy hisob-kitobga qaraganda og'zidan saksondan ortiq la'nat-u haqoratli so'z chiqqani yo'q.

Kechlik ovqatdan so'ng — Oliverning ishtahasi bo'lmaganini anglash qiyin emas — mister Sayks ikki stakan suv qo'shilgan viskini sipqardi-da, o'zini tappa karavotga tashlab, Nensiga roppa-raso soat beshda uyg'otishni tayinlar ekan, agar shunday qilolmaydigan bo'lsa kunini ko'rsatishini aytib, oldindan bo'ralab so'kib qo'ydi. Xuddi o'sha hurmatli zotning buyrug'i bilan Oliver yechinmay-netmay, yerga to'shalgan to'shakka cho'zildi, qiz esa ularni tayinlangan soat-

da uyg'otishga tayyor bo'lib, o'choqqa o'tin tashlab, o'sha yerda o'tira qoldi.

Oliver, bu fursatdan foydalanib Nensi yana birorta maslahat berar shivirlab, degan umidda alla-pallagacha uyg'oq yotdi, biroq qiz g'amgin o'yg'a tolancha o'choq oldida qimir etmay o'tirar, ahyon-ahyonda shamning so'xtasini olib tashlardi, xolos. Bedor yotaverish va tashvish qiynog'i toliqtirib, oxiri uyqu elitdi uni.

Bola uyg'onganida nonushta hozirlab qo'yilgan, Sayks esa allanilmalarni kursining suyanchig'iga tashlog'liq paltosi cho'ntaklariga tiqishtirayotgan edi. Nensi nonushta tadorigini ko'rayotgandi. Hali tong oqarmagandi; sham yonib turar, deraza orti qop-qorong'i edi. Buning ustiga yomg'ir deraza oynaklarini chertayotgan, osmon ham qop-qora, bulutli edi.

— Bo'la qol! — to'ng'illadi Sayks Oliver o'rnidan sakrab turarkan. — Besh yarim bo'ldi! Tezroq bo'l, yo'qsa nonushtasiz qolasan. Shundoq ham kech qolyapmiz o'zi.

Oliver zud yuvinib-tarandi; naridan-beri nonushta qilib olarkan, Sayksning zardali savoliga, tayyorman, deya javob berdi.

Nensi bolaga qaramaslikka harakat qilib, bo'yniga o'rab olishi uchun ro'mol itqitdi unga; Sayks dag'al matodan tikilgan yomg'irpo'shni uzatib, kiyib, tugmalarini taqib olishni buyurdi. Kiyinib bo'lgach, Oliver paltosining yon cho'ntagidagi to'pponchani ko'rsatish uchun picha hayallagan qulfbuzarga qo'lini uzatdi, gazzob qo'lini mahkam ushlab oldi-da, Nensi bilan xayrlashib, uni yetaklab ketdi.

Eshik yoniga yetganlarida Oliver qizning nigohini uchratish umidida o'girilib qaradi. Ammo qiz tag'in ilgarigi, o'choq oldidagi joyiga joylashib, qimir etmay o'tirardi.

Ular ko'chaga chiqqanlarida xafagazak, rutubatli tong edi: shamol esar, yomg'ir yog'ar, ko'k betini badqovoq qora bulut qoplab olgandi. Yomg'ir tun bo'yi yog'ib chiqqandi — tosh ko'chada katta-katta ko'lmag-u halqoblar ko'l-ko'l bo'lib yotar, tarnovlardan sharillab suv tushardi. Yorishib kelayotgan kunning shirava yorug'i mungli manzarani beshbattar hazinlashtira borardi; nimtati yorug'likda ko'chadagi fonuslar xira tortib, shalabbo tomalar-u zimziyo ko'chalarga iliqlig-u yorqinlik baxsh etolmasdi. Shaharning bu qismida hech zog' uyg'onmagandi chog'i: jamiki uylarning deraza qopqoqlari yopig'liq, ular o'tib borayotgan ko'chalar esa jimjit va kimsasiz edi.

Ular Betnel-Grin-Roudga burilgan paytlarida kun tamoman yorishib bo'lgandi. Fonuslarning aksari o'chirilgan edi. Londonga qarab bir nechta qishloq aravalari imillab kelayotgandi; onda-sonda loyga belangan usti berk aloqa aravalari taraqlagancha o'tib qolar, shunda haydovchi ko'chaning xuddi o'sha tomonida imirsilab kelayotgan aravakashni ogohlantirib qamchi bilan siylab qolardi, negaki, buning oqibatida u idorasiga chorak daqiqa kechikib borishi mumkin edi-da, axir. Qovoqxonalar allaqachon ochilgan, ularda gazchiroq yonib turardi. Do'konlarni ham ocha boshlashdi, unda-bunda yo'lovchilar ham yo'liqa boshladi. Keyin to'da-to'da bo'lishib ishga ketayotgan usta-xalfalar paydo bo'lishdi. So'ng liq to'la baliqli savatlarni boshlariga qo'yib olgan erkag-u ayollar; sabzavot ortilgan eshakaravalar, tirik mol-u go'sht ortilgan aravalalar, chelak ko'targan sutchi ayollar — shaharning sharqiy chekkasiga oziq-ovqat-u yeguliklarni tashmalab kelayotganlarning keti ko'rinmay qoldi. Sitiga yaqinlagani sayin arava-ulovlarning taqir-tuquri avjga mina borardi; Shorditch bilan Smitfild oralig'idagi ko'chalardan o'tayotganlarida bu shovqin guvullashga aylandi, chor atrofni g'ovur-g'uvur bosib ketdi. Kun butunlay yorishib bo'ldi — endi bundan ortiq yorishmasligi tayin edi — va London ahlining yarmi uchun ish boshlanadigan fursat yetdi.

San-strit va Kraun-stritni bosib o'tib, Finsberi-skvernini ortda qoldirgan mister Sayks Chizuel-strit bo'ylab borib Barbikenga chiq-

di, keyin Long-leynga, undan so'ng Smitfildga o'tar ekan, hammay-oqni Oliver Twistni hayratga solgan quloqni batang qiluvchi tartibsiz ola-shovur tutib ketdi.

Bozor kuni edi. Oyoqlar naq to'piqqacha loyga botgan; ho'kiz va sigirlarning bo'g'riqqan sag'risidan ko'tarilgan quyuq bug' bamisoli mo'rilarda dam olgan tuman bilan qorishib, og'ir bulut yanglig' bosh uzra muallaq suzadi. Kattakon maydonning o'rtasidagi mol qamaladigan qo'tonlarning jamikisi, shuningdek, bo'sh joydagi vaqtincha qo'tonlar ham qo'y-qo'zilar bilan tirband; novlar yoqalab uch-to'rt qator bo'lib tizilib ketgan ustunlarga buqalar-u bo'lak qoramollar bog'langan. Dehqonlar, qassoblar, mol haydovchilar, chorbozorchi-lar, bola-baqralar, o'g'rilar, bekorchilar va ming bir xil daydi-sayoqlar aralash-quralash bo'lib ketgan; har tomondan mol haydovchilarning hushtaklari, itlarning akillashi, buqalarning mo'rashi, qo'y-qo'zilarning ba'rashi, cho'chqalarning hurillashi-yu chiyillashi, chorbozorчилarning qichqiriqlari, baqiriq-chaqiriq, qarg'ash-u so'kishlar eshitiladi; qo'ng'iroqchalarning jingillashi, har bir qovoq-xonadan toshib chiqayotgan g'ovur-g'uvur, tiqilinch, itar-itar, nari sur-beri sur, urish-to'polon, bozorning to'rt tarafidan dam-badam kelib turgan hayqirig'-u dod-faryod, chinqiriq, u yoqdan-bu yoqqa tanda qo'yib, izg'iyotgan, yuz-qo'li — suv, soch-soqoli ustara ko'rmagan, ayanchli va isqirt odamlar — jami qo'shilib-qorishib kishini dovdiratib, gangitib, karaxt etib qo'ygundek ta'sir qilardi.

Oliverni surgab ketayotgan mister Sayks tirsaklari bilan olomon orasidan yo'l ochib borar, bolaning qulog'ini tom bitqizib, ko'zlarini hayratga solayotgan jamiki narsaga unchalik parvo qilmasdi. Ikki yo uch marta yonidan o'tib borayotgan oshnalari bilan bosh qimirlatib salomlashdi-yu, bir qadahgina ertalabki nasibasini otib ketish haqidagi takliflarini rad etib, to olomon orasidan yorib chiqib, Xouzer-Leyndan Xolbornga qarab yo'lga tushmagunlaricha sabot-la olg'a intilaverdi.

— Qani, bolakay, tezroq, — dedi Sayks Sent-Endryu ibodatxonasining soatiga ko'z tashlab qo'yarkan, — hademay yetti bo'ladi. Tezroq qadam tashla! Oyog'ini sudrab bosadi-ya, yalqov!

Mister Sayks ana shunday deya turib mitti hamrohining qo'lini bir siltab tortdi; Oliver kuchi yetganicha tomteshar o'g'rining il-dam qadamiga moslashishga tirishardi; u — tez desa tez yuribmas, yugurib desa, yuguribmas, lo'killab borardi.

Ular toki Xayd-park muyulishidan o'tib, Kensingtonga bu-rilmagunlariga qadar odimlarini sekinlatishmadi; shu yerga yetgach, Sayks to orqalarida kelayotgan bo'sh arava ularni quvib o'tmagunicha sekinroq yurdi. U aravadagi «Xaunslo» degan yozuvni ko'rib, arava-

kashdan imkoni boricha muloyimlik bilan, bizni Ayluortgacha eltib qo'yaysizmi, deb so'radi.

— Chiqinglar, — dedi aravakash. — O'g'lingizmi bu?

— Ha, — dedi Sayks Oliverga qattiq tikilib va beo'xshovlik bilan qo'lini to'pponchali cho'ntagiga suqib.

— Otangni qadami kattalik qilarkan senga, tez yurarkan-a! Gapim to'g'rimi, yigitcha? — dedi aravakash Oliverning harsillayotganini ko'rib.

— Hecham-da, — gapga aralashdi Sayks. — Bunga o'rganib ketgan u. Qo'limdan ushla, Ned. Qani, chiqa qol!

U Oliverga shunday deb, bolaning aravaga chiqishiga yordamlashdi, aravakash esa bo'sh qoplar uyumiga ishora qilib, ustiga yonboshlab, nafasini rostlab olishini aytdi.

Ular yo'l chetidagi ustunlar yonidan o'tib borishar ekan, hamroh-im qayoqqa olib ketyapti meni o'zi, deb Oliverning tobora taajjubi orta bordi. Kensington, Xamersmit, Chizuik, Kyu-Brij, Brentford orqada qoldi, shunga qaramasdan ular, xuddi hozirgina yo'lga chiqqandek, jahd-la olg'a qarab borishardi. Nihoyat, ular «Foytun va otlar» deb ataluvchi qovoqxona yoniga yetib kelishdi; undan sal o'tilgach, yo'l ikkiga ayrilardi. Arava shu yerda to'xtadi.

Sayks Oliverning qo'lini qo'yib yubormagani holda, shosha-pisha aravadan tushdi; bolani ko'tarib olib yerga tushirdi-da, unga olayib qarab, kafti bilan yon cho'ntagini ma'nodor tarzda to'pillatib urib qo'ydi.

— Xayr, bolakay, — dedi aravakash.

— Arazlayapti, — javob qildi Sayks Oliverni siltab. — Dimoq-fi-roq qilyaptilar! Voy tirmizag-ey! Qo'yavering, parvo qilmang bunga.

— Parvo qilaman deb ko'zim uchib turganakanmi bunga! — deb qo'ydi aravakash aravasiga o'tirayotib. — Lekiniga bugun havo juda ajoyib bo'lyapti-da.

Shunday deb, u o'z yo'lga ravona bo'ldi.

Sayks to u xiyla olislab ketgunicha kutib turdi-da, Oliverga agar xohlasa atrofni tomosha qilib borishi mumkinligini aytib, uni olg'a yetaklab ketdi.

Qovoqxonadan o'tilgach, u chapga, so'ngra o'ngga burildi. Uzoq yurishdi — bog'-rog'li katta-katta qo'ra-yu hovlilar ortda qoldi; yo'lakay pivo ichish uchun bir zumgina to'xtashardi, shu tariqa oxiri shaharga yetib kelishdi. Shu yerga yetganda Oliverning qaysidir uyning devoridagi yirik-yirik harflar bilan «Xempton» deb yozilgan lavhaga ko'zi tushdi.

Bir necha soat shahar atrofidagi dalalarda sandiroqlab yurishdi. Nihoyat, shaharga qaytib, lavhasi o'chib ketgan ko'hna qovoqxona-ga kirishdi-da, o'choq oldiga joylashib, tushlik ovqat buyurishdi.

Shifti past, ko'ndalangiga yo'g'on xari tashlangan zax xona, o'choq qarshisiga suyanchig'i baland kursilar qo'yilgan, ularda korjoma kiygan, ko'rinishi qo'polroq odamlar o'tirishibdi. Ular Oliverga e'tibor ham berishmadi, Sayksga nomigagina qarab qo'ygan bo'lishdi; bir burchakda o'zining yosh hamrohi bilan xo'randalardan zarracha qisinib-tortinmay o'tirishidan Sayksning ham ularga unchalik parvo qilmayotgani ko'rinish turardi.

Tushlikka yaxna go'sht yeyishdi, ovqatdan keyin ham uzoq o'tirib qolishdi, bu orada mister Sayks uch-to'rt marta trubkasini huzur qilib buro'qsatib kayf qildi. Shunda Oliverning endi bundan nari-ga bormasliklariga deyarli shubhasi qolmadi. Kallai saharlab turib, shuncha yo'l yurib sillasi qurigan bolani mudroq bosa boshladi; keyin charchoq va tamaki tutuni ta'sirida uxlab qoldi.

Uni Sayks turtib uyg'otganida qosh qorayib bo'lgandi. U uyquni qochirib, qaddini rostlab o'tirdi, atrofga alanglab, muhtaram jentlmenning qandaydir bir ishchi bilan pivo ustida ulfatchilik qilayotganini ko'rdi.

— Shundoq qilib, Louer-Xalifordga ketyapman deng? — so'radi Sayks.

— Shundoq, — tasdiqladi yigit, go'yo u qittak otganidan o'zini sal yomon his qilayotganga (balki, aksincha, tuzukroq sezayotgandir) o'xshardi, — innaykeyin desangiz, tezda yo'lga chiqaman. Otim yuk-siz qaytadi — ertalabkidaqangi emas, yo'rg'alab ketadi. Keling, uning salomatligiga ichamiz! Ura! O'ziyam asil ot-da!

— Men bilan bolakayimni ola ketmaysizmi? — so'radi Sayks pivo-ni yangi ulfatining oldiga yaqinroq surib qo'yarkan.

— Ola ketganda qandoq, faqat hoziroq yo'lga tushishga tayyor bo'lsanglar, — javob qildi yigit pivoli krujka orqasidan qiyshayib qar-rab. — Xalifordga borasizmi?

— Shepertonga, — javob qaytardi Sayks.

— Eltib qo'yaman... — takrorladi yigit. — Hisob-kitob to'g'ri bo'l-dimi, Beki?

— Ha, manavi jentlmen to'ladi, — dedi qiz.

— E-yo'q! — xitob qildi yigit kayfi oshib qolgan odamday gerda-yib. — Xo'-o'sh, bilasizmi, bunaqasi ketmaydi.

— Nimaga endi? — e'tiroz bildirdi Sayks. — Siz bizning hoja-timizni chiqaryapsiz, qars ikki qo'ldan chiqadi-da, shuni-chun men ham sizni jindakkina pivo bilan ziyofat qilmoqchiman.

Yangi tanish mazkur gap ustida bag'oyat donishmandona bir qiyo-fada bosh qotirib turgan bo'lsa-da, keyin Sayksning qo'lini olib, ju-da ajoyib, ulfati yigit ekansiz, dedi. Uning bu gapiga javoban mister Sayks, hazillashyapsiz, deb qo'ydi; bashartiki yigit shu topda hushyor bo'lganida, u shunday gumon qilsa asosli bo'larmidi.

Bir necha og'iz iltifot-u takallufotdan so'ng, ular boshqalarga xayrli tun tilab, chiqib ketishdi; xizmatkor qiz ko'za va stakanlarni yig'ishtirib, ularni ko'targanicha yo'lga otlanganlarni kuzatib qolgani eshik yoniga keldi.

O'zi yo'g'ida sog'lig'iga qadah ko'tarilgan, aravaga qo'shib bo'lingan ot uyning oldiginasida turardi. Oliver bilan Sayks ortiqcha mulozamatsiz aravaga chiqib olishdi, ot egasi esa tulporiga dalda berish hamda otboqarga va butun olamga tengi yo'q ot ekanini dalolat qilmoqlik uchun bir daqiqagagina hayallab qoldi. Keyin otboqarga otni qo'yib yuborish amr etildi, ushbu farmoyish ado etilganida esa ot o'zini g'oyatda telbalarcha tutib, beqiyos nafrat-la boshini silkitib, qarshi tomondagi uyning derazasiga suqdi, ana shu jasoratdan keyin ikki oyog'ini ko'tarib tikka turdi-da, so'ngra kuchi boricha, shasht bilan, aravani taraqlatgancha shahardan naq uchib chiqib ketdi.

Zimiston shom pallasi. Anhor-u yaqindagi botqoqliklardan nam tuman ko'tarilib, mungli dalalar uzra pag'a-pag'a bo'lib suzib yuribdi. Izg'irin suyak-suyakdan o'tib ketadi. Hammayoq qop-qora va hazinlik og'ushida. Hech kimdan sado chiqmaydi: aravakashni uyqu eltyapti, Sayksning esa uni gapga solgisi yo'q. Noxush tuyg'udan ko'ngli g'ash tortib, vahima iztirobida qolgan Oliver g'ujanak bo'lib, aravaning bir burchiga tiqilib olgan, shox-shabballari bamisoli xazin manzara qo'ynida lazzat topayotgandek g'amgin chayqalib turgan so'lg'in daraxtlar ko'ziga g'alati jonivorlar bo'lib ko'rinyapti.

Sanberi ibodatxonasi yonidan o'tib borayotganlarida soat yettiga zang urdi. Ro'para, kirakash qayiqchining uyidagi bitta dera-zada chiroq ko'rinar, o'shandan yo'lga yorug' tushib turar, buning oqibatida qabrlarga ko'lanka tashlagan tis daraxtini yanada quyuqroq zulmat chirmab olganga o'xshardi. Qayerdandir yaqin-oradan pastga otilyotgan suvning shovullashi eshitar, qari daraxtning yaproqlari esa shabadada ohista shildirardi. Go'yo bu marhumlarga orom-u osudalik baxsh etayotgan mayin musiqa edi.

Sanberi orqada qoldi, ular tag'in kimsasiz, huvillagan yo'lga chiqishdi. Yana ikki-uch milya yo'l bosilgach, arava to'xtadi. Sayks pastga tushib, Oliverning qo'lidan ushlab oldi-yu, ular tag'in yo'lga tushishdi.

Holdan tolgan bolaning umidini chippakka chiqarib, Sheper-tonda bironta uyga kirmadilar, boyagi-boyagidek qorong'ida loy kechib, mahzun qishloq yo'llaridan yurib, sovuq, shamollarga bag'ri ochiq yalang joylarni kesib o'tib, to shahar chiroqlari ya-qingina ko'rinmagunicha boraverishdi. Shunda Oliver tikilib qarab oyoqlari ostiginasida suvni ko'rdi va ko'priikka yaqinlashayotganlarini tushundi.

Sayks hech yoqqa burilmay, to'g'ri ko'prik oldigacha bordi, keyin to'satdan chapga, qirg'oqqa qarab burildi. «U yoqda suv bor-ku! — xayolidan kechdi Oliverning, qo'rquvdan dong qotib qoldi u. — Meni o'ldirgani boshlab kelgan ekan-da bu hech kim yo'q joyga».

U jonini saqlab qolish harakatida o'zini tappa yerga tashlashga chog'langan ham ediki, birdan allaqanday tashlandiq, yarim xaroba uy yoniga yetib kelganlarini ko'rib qoldi. Chirib bitayozgan pillapoya-ning har ikki tomonida bittadan deraza bor edi; tepada — yana qavat, lekin hech yerida milt etgan chiroq ko'rinmasdi.

Uy qop-qorong'i, arang qaddini ko'tarib turibdi, chamasi unda hech kim yashamasa kerak.

Sayks, hamon Oliverning qo'lini qo'yib yubormay, pastakkina pillapoyaga astagina yaqinlab, lo'kidonni ko'tardi. Salgina itargandi, eshik ochilib, ichkari kirishdi.

---

---

## XXII BOB. DARICHA BUZIB QILINGAN O'G'RILIK

— Hey! — degan baland, xirildoq ovoz ular dahlizga kirgan zahotilariyoq eshitildi.

— Bo'kirishning hojati yo'q, — javob qildi Sayks eshikni yopayotib. — Mundoq chiroq-piroq yoqib yuborsangiz-chi, Tobi.

— E-ha! Axir bu oshnam-ku! — qichqirdi yana o'sha ovoz. — Chiroq, Barni, chiroq! Jentelmenni kutib ol... Iya, oldin o'zlari uyg'onib olsalar bo'larmidi?

Aftidan, so'zlayotgan kimsa avvaliga o'zi murojaat qilayotgan odamga qarab, uyqusi tarqasin deb boshmoq kiyishda ishlatiladigan qoshiqchami yoki shunga o'xshash biror nimani ulotirdi chog'i, negaki allaqanday yog'och buyum taraqlab tushdi, keyin esa uyqu bilan bedorlik oralig'ida bo'lgan bir zotning tushuniksiz g'o'ldiragani eshitildi.

— Eshityapsanmi, yo'qmi? — surishtirishda davom etdi boyagi ovoz. — Bill Sayks dahlizda turibdi, uni hech kim qarshi olmayapti-ya; sen bo'lsang xuddi ovqat ustida ko'knori ichib olganday pishilaysan nuqul. Xo'sh, o'zingga keldingmi yo butunlay ko'zing ochilishi uchun temir shamdon bilan tushirib qolaymi?

Shu so'zlar aytilishi bilan oq yaydoq xona sahnida eski kavushning tez-tez shipillagani eshilib, o'ng tarafdagi eshik ortidan oldin lipil-lab yonayotgan sham, so'ngra esa yuqorida ta'riflab o'tilgan nusxa — Safren-Xilldagi qovoqxonaning manqa xizmatkorining o'zi chiqib keldi.

— O, mister Sayks! — xitob qildi Barni samimiymi yoxud yasa-mami, har qalay, quvnoqlik bilan. — Marhamat qilsinlar, ser, marhamat!

— Qani, sen oldin kir, — dedi Sayks Oliverni olg'a itarib. — Qimirla, bo'lmasa tovoningni bosib olaman-a.

Sayks Oliverni imirsilagani uchun koyib, itarib yubordi va ular kaminini qurum bosgan, bir-ikkita siniq stul, stol va oyoqlarini boshidan balandroq qilib ko'tarib, trubka so'rib bir erkak uzala tushib yotgan shaloq divani bor pastakkina xonada ko'rishdi o'zlarini. Bu erkakning egnida tamaki tusli matodan bopta qilib tikilgan, yirik-yirik jez tug-mali kamzul, zarg'aldoqrang galstuk, dag'al, darrov ko'zga tashlanadi-



gan chipor nimcha va odmi kalta cholvor bor edi. Mister Krekit (zotan, bu o'sha kishi edilar)ning boshidagi sochlari ham, chakkalaridagi soqol-mo'ylovlari ham siyrakkina, qizg'ish tusli, nax shisha tiqinini ochadigan parma yanglig' qo'ng'iroq-qo'ng'iroq qilib burab qo'yilgan bo'lib, kattakon, arzongarov uzuklar taqilgan iflos barmoqlari bilan bot-bot tarab qo'yardi. O'zi o'rta bo'ydan xiyol balandroq, chamasi oyog'i picha zaifroq ko'rinardi-yu, lekin bu narsa baland ko'tarib yotgan qo'nji uzun etiklarini ko'z-ko'z qilishiga aslo xalal bermasdi.

— Bill, oshnam! — dedi mazkur nusxa boshini eshik tomon burib qararkan. — Sizni ko'rib boshim osmonga yetdi. O'ylagan rejamizdan qaytdingizmi deb cho'chiy boshlagandim, unda tavakkal qilib yolg'iz kirishardim-da. O'ho'!

Oliveri ko'rib nihoyatda taajjublanganini ifodalovchi ushbu niodan so'ng mister Tobi Krekit buning kim-nima ekanini bilmoq uchun turib o'tirdi.

— Bolakay, bor-yo'g'i bitta bolakay, — dedi Sayks stulni kaminga yaqinroq surarkan.

— Mister Fedjinning shogirdlaridan biri, — gapni ilib ketdi Barni miyig'ida kulib.

— E-ha, Fedjinni degin-a! — dedi Tobi Oliveri nazardan o'tkazar ekan. — Tozayam bemisl bolakay ekanmi — ibodatxonadagi jamiki kampirsho xonimlarning cho'ntaklarini chip-chinniday qilib shilib ketishni bunaqangilar uchun hech qanaqangi qiyin joyi yo'q! Bu mo'mintoy Fedjinning itini tuvagini oltindan qilib yuboradi-ku!

— Bas-bas, yetar! — toqatsizlik bilan uning gapini bo'ldi Sayks va oshnasi tomon engashib, uning qulog'iga ikki og'izgina shivirlagan edi, mister Krekit o'zini tutolmay qahqahlab yubordi-yu, Oliverga sinchkov hamda hayratangiz nigoh in'om etdi.

— Ana endi, — dedi mister Sayks boyagi joyiga o'tirib, — bu yerda picha kuta turadigan bo'lganimizdan keyin bizga biron yegulik va ichimlik beringlar, bu bizni tetiklantiradi — aqalli meni. Kaminga yaqinroq o'tir, bolakay, damingni ol — unchalik uzoq bo'lmasa ham, tag'in kechasi yurishga to'g'ri keladi.

Oliver Sayksga pisibgina va unsiz hayrat-la qarab qo'ydi; keyin kursisini o'tga yaqin surib, boshini qo'llariga qo'ygan ko'yi o'tirdi — boshi og'rib turardi, shu topda uning qayerda ekani, atrofida nimalar bo'layotganining fahmiga yetayotgan-yetmayotgani dargumon edi.

— Qani, — dedi Tobi yosh juhud yigit ovqat bilan bitta shishani stolga keltirib qo'ygach. — Ovimiz baroridan kelsin!

Shu qadah so'zini aytib, u o'rnidan turib, bo'sh trubkani avaylab burchakka qo'ydi-da, stakanga aroq quyib, ichib yubordi. Mister Sayks ham undan ibrat oldi.

— Bolakayga ham bir qultumgina berish kerak, — dedi Tobi qadahga yarim qilib quyar ekan. — Bir ko'tarishda ichib yubor, hoy bolakay.

— Rostini aytsam, — deya yamlana boshladi Oliver unga zorlanib tikilib, — ochig'ini aytsam, men...

— Shartta ko'tar! — takrorladi Tobi. — Nima, senga nima foyda-yu nima zararliligini bilmaydi deysanmi meni?.. Buyuring unga, Bill, ichsin.

— Yaxshisi, ichib yuborsin! — dedi Sayks cho'ntagi ustidan tappillatib urib qo'yarkan. — Do'zaxni shafe' keltirib aytamanki, butun boshli tullaklar oilasidan ko'ra ko'proq boshimni qotiradigan ko'rinadi bu! Ich, shaytonvachcha, ich deyapman!

Ikkala yigitning dag'dag'asidan o'takasi yorilayozgan Oliver shosha-pisha qadahni ko'tardi-yu, qalqib yo'taldi, buni ko'rgan Tobi Krekit bilan Barnining zavqi keldi, hatto badqovoq mister Sayks ham ishshayib qo'ydi.

Bu ishlar adog'iga yetgach, har ikkala erkak kursilarga yalpayib joylashib, jindek mizg'ib olishga shaylanishdi (Oliverni esa bir tishlamgina nonni chaynashga majbur qilishdi). Oliver kamin oldidagi kursisiga o'tirdi yana; Barni ko'rpaga o'ralgancha shundoq kamin panjarasi oldiginasiga, xona sahniga cho'zildi.

Picha vaqtgacha ular mizg'ishdi yoxud uxlayotgan bo'lishdi; Barnidan bo'lak hech zog' qimir etmadi, u kaminga ko'mir tashlagani bir-ikki marta o'rnidan turdi. Oliverni mudroq bosdi; nazdida go'yo u zimiston qishloq yo'llarida tentirab, zim-ziyo qabristonda adashib-uloqib yurdimi-ey, kun bo'yi ko'zi oldida o'tgan manzaralarni yana boshqatdan ko'rayotganday bo'ldimi-ey; shunda birdan o'rnidan sapchib turib, allaqachon bir yarim bo'pti-ku, deb shang'illagan Tobi Krekit uyg'otib yubordi uni.

Oradan biron daqiqa o'tmayoq anavi ikkalasi ham oyoqda turishardi, shunday qilib hammalari g'ayrat-la hozirlana boshladilar. Sayks bilan oshnasi bo'yni va iyaklarini enli odmi sharf bilan yaxshilab o'rab, paltolarini kiyishdi; Barni javonni ochib, undan turli xil asbob va uskunalarni chiqarib, oshig'ich ularning cho'ntaklariga tiqishtira ketdi.

— Barni, bobovlarni olivor, — dedi Tobi Krekit.

— Mana! — javob berdi Barni unga to'pponchalarni uzatib. — O'z qo'lingiz bilan o'qlagansiz bularni.

— Juda soz! — dedi Tobi ularni yashirayotib. — Egov-arralar qani?

— Menda, — javob qildi Sayks.

— Ombur, parma, ochqich, fonus — hech nimani esdan chiqarmadinglarmi? — deya so'radi Tobi chog'roqqina misrangchani palto-si bari ostidagi ilmoqqa mahkamlar ekan.

— Hammasi joy-joyida, — javob berdi sherigi. — So'yilni keltir, Barni. Vaqt bo'ldi.

Shunday deya u Barnining qo'lidan yo'g'on tayoqni oldi. Barni ikkinchi tayoqni Tobiga tutqazib, Oliverning yomg'irpo'shi tugmalarini qadashga tutindi.

— Qani, — dedi Sayks qo'lini uzatib.

Ko'nikilmagan sayohat, sof havo va majbur qilib ichirishgan aroqdan butunlay sarxush bo'lib qolgan Oliver qo'lini beixtiyor Sayksning o'zi tomon uzatilgan qo'lga tutqazdi.

— Narigi qo'lidan ushlab ol buni, Tobi, — dedi Sayks. — Tashqariga bir ko'z tashlab yubor-chi, Barni.

Barni eshikka qarab yurdi va qaytib kirib, hammayoq tip-tinch, dedi. Ikki tomteshar Oliverni yetaklagancha chiqib ketishdi. Barni esa eshikni yaxshilab berkitdi-da, yana ko'rpaga burkanganicha uyquga ketdi.

Tim-qorong'i tun. Tuman kechqurungiga qaraganda chandon quyuqlashgan, havo esa shunaqangi nam ediki, garchi yomg'ir yog'magan bo'lsa ham, uydan chiqqanlaridan bir necha daqiqa o'tmayoq Oliverning sochi-yu qoshlari ivib ketdi. Ular ko'prikdan o'tib, Oliver boya ko'rgan chiroqlar miltillayotgan tarafga qarab borishardi. Yo'l unchalik olis emasdi, keyin tez yurganlaridan hech qancha vaqt o'tmay ular Chertsiga yetib kelishdi.

— Shahar oralab o'tamiz, — shivirladi Sayks. — Kechasi yo'lda hech kim uchramaydi.

Tobi rozi bo'ldi va ular kichkinagina shaharchaning bunday bemahalda mutlaqo huvillab yotadigan asosiy ko'chasidan odimlay ketishdi. U yer-bu yerda biror-yarim yotoqxonalarning derazasida xiragina yorug' miltillab ko'rinardi; ahyon-ahyonda itlarning hirqiroq hurishi tun sukunatiga raxna solib qolardi. Ammo ko'chada biror jondor zotining qorasi ko'rinmasdi. Cherkov soati ikkiga zang urgandida ular shaharchadan chiqib olishgan edi.

Ular qadamlarini tezlatib, chapga ketgan yo'lga burilishdi. Taxminan chorak milcha yo'l bosgach, atrofi devor bilan o'ralgan yolg'izgina uy yoniga yetib kelishdi. Tobi Krekit hatto nafasini ham rostlab o'tirmay, bir sakrashda devorga chiqib oldi.

— Qani, bolani chiqaring bu yoqqa, — dedi Tobi. — Uni ko'taring, men tortib olaman.

Oliver xash-pash deguncha bo'lmay, Sayks shartta uning qo'l-tig'idan oldi-yu, uch-to'rt soniya o'tmayoq bola bilan Tobi devorning narigi tomonidagi maysa ustida yotishardi. Ko'z ochib-yumgunchalik fursat o'tmay, Sayks ham ular yonida hozir bo'ldi. Shunday qilib, ular pisibgina uyga qarab yurishdi.

Qoʻrquv va alamidan hushidan ayrilayozgan Oliver bu sayohatdan murod, mabodo qotillik boʻlmaganida ham, talonchilik ekanini ana shundagina tushundi. U barmoqlarini musht qilib tugdi, oʻzini tiyolmay, qoʻrquv ichra asta dodlab yubordi. Koʻz oldi qorongʻilashib, rangi quv oʻchgan yuzlariga ter qalqdi, oyoqlari itoat etmay qoʻydi-yu, tizzalab qoldi.

— Tur! — tishlari orasidan oʻshqirdi Sayks gʻazabdan qaltirab, choʻntagidan toʻpponchani chiqarar ekan. — Tur deyapman, yoʻqsa miyangning qatigʻini oʻynatib yuboraman!

— Xudo xayringizni bersin, qoʻyib yuboring meni! — iltijo qildi Oliver. — Qochib ketaman, dalada oʻlib ketaman. Londonning yaqiniga ham bormayman, sirayam, hech qachon! O, rahmingiz kelsin menga, oʻgʻirlik qilishga majbur etmang! Butun avliyo-yu anbiyolar haqqi, rahmingiz kelsin!

U iltijo qilayotgan odam boʻralab soʻkib berdi va toʻpponcha tepkisini koʻtardi, biroq Tobi uning qoʻlidan toʻpponchani urib tushirib, qoʻli bilan bolaning ogʻzini yopdi-yu, uy tomon sudrab ketdi.

— Sekin! — shivirladi u. — Buning foydasi yoʻq bari bir. Yana gʻing deydigan boʻlsang, men oʻzim tamom qilib qoʻya qolaman seni — kallangga bitta tushirsam tamom. Uning ham chiqmaydi, hech zogʻ payqamaydi ham, osongina bitadi-qoʻyadi hammasi. Bill, qani, manavi deraza qopqoqni eplashtiring. Endi bolakayning yuragi joyiga tushib qoldi, bunga kafil boʻla olaman. Bunaqangi sovuq kechada bundan kattaroq odamlarning ham oldiniga dovdirab qolgan paytlariyam boʻlgan — buni oʻz koʻzim bilan koʻrganman.

Sayks shunday ishga Oliverni yuborgan Fedjinning goʻriga gʻisht qalab, boloxonador qilib soʻkkanicha, shasht bilan, ammo shovqin chiqarmaslikka tirishib misrangni ishga soldi. Sal fursat oʻtmay Tobining koʻmagi bilan ilgagi solib qoʻyilgan deraza qopqoqni oshiqmoshigʻini koʻchirib, ochishga muvaffaq boʻldi.

Bu — uyning orqa qismidagi, uzun dahlizning eng oxiridagi idishoyoq yuviladigan yoxud pivo qaynatiladigan xonaning kichkina-gina, yerdan besh yarim futcha balandda joylashgan, panjarali derazachasi edi. Deraza tuynugi nihoyatda kichik edi, shu bois uy istiqomatchilari uni tuzukroq berkitishni zarur topmagan boʻlsalar kerak; biroq choʻgʻi Oliverga oʻxshagan xipcha qadli bola undan bemalol oʻtsa boʻlardi. Mister Sayks tagʻin picha ovora boʻlgach, surma zulfinni eplashtirdi; hademay derazacha lang ochildi.

— Quloq sol, shaytonvachcha! — dedi Sayks gʻijinib, choʻntak fonarini chiqarib uning shuʻlasini Oliverning basharasiga toʻgʻrilarkan. — Seni mana shu derazadan ichkariga tushiraman. Manavi fonnarni olasan-da, zinadan sekin tepaga koʻtarilasan — zina shundoq

ro'parangda, keyin kichik dahlizdan tashqari eshikning oldiga o'tib borasan-u uni ochib berasan bizga.

— U yoqda, tepada lo'kidoni bor, unga bo'ying yetmaydi, — gapga aralashdi Tobi. — Dahlizdagi stulni qo'yib, ustiga chiq... U yoqda uchta stul bor, Bill. Suyanchig'iga kattakon ko'k karkidon bilan tilla panshaxaning rasmi solingan, bu keksa xonimning tug'rosi.

— Jim! — so'zini bo'ldi Sayks unga o'qrayib. — Xonalarga kiriladigan eshik ochiqmi?

— Lang ochiq, — javob berdi Tobi oldindan deraza orqali ichkargiga mo'ralab olib. — Bu yog'i qoyil! O'sha yerga to'shamasi tashlab qo'yilgan it uyqusi kelmagan paytlarda yo'lak va dahlizda aylanib yursin uchun hamisha ochiq qo'yishadi uni. Barni bo'lsa bugun itni aldash olib ketgan. Qalay, qoyilmi?!

Garchi, mister Krekit eshitilar-eshtilmas shivirlab gapirayotgan va sassiz kulayotgan bo'lsa-da, Sayks unga amirona ohangda nafasini o'chirib, ishga kirishishni buyurdi. Tobi itoat etdi: avvaliga cho'ntagidan fonarni chiqarib, yerga qo'ydi, so'ng boshini deraza ostiga, devorga mahkam tiradi-da, qo'llarini tizzalariga tirab, engashib supacha hosil qildi. Bu tadorik bitgach, Sayks uning ustiga chiqib, Oliverning oyog'ini oldinga qilib ushlagancha derazachadan astagina ichkariga kiritdi-da, keyin yoqasidan ushlab yerga tushirdi.

— Manavi fonarni ol, — dedi Sayks xonaga mo'ralagan ko'yi. — Qarshindagi zinani ko'ryapsanmi?

Oliver: «Ha», deb javob berarkan, u na tirik, na o'lik holatdiligini bilib bo'lardi. Sayks to'pponchasi bilan ko'cha eshikni ko'rsatar ekan, lo'ndagina qilib, to'pponcha muttasil uni mo'ljalga olib tura-jagini, bordi-yu, xiyol hayallaydigan bo'lsa, o'sha zahotiy oq asfalosofilinga ketajagini aytdi.

— Hammasi bir zumda bajarilishi kerak, — so'zini davom ettirdi Sayks salgina eshitilardi qilib. — Qo'yib yuborishim bilanoq ishga kirish. Iya, nima bu?

— Nima bo'lyapti u yoqda o'zi? — pichirladi sherigi. Ikkovlari-ning quloqlari ding bo'ldi.

— Tinchlik! — dedi Sayks Oliverni qo'yib yuborib. — Qani, bo'!

Bola fikrini yig'ib olishiga yetgulik qisqa fursat ichida — agarchi bu urinish hayoti evaziga tushsa ham — kiraverishdagi zinadan chopgancha chiqib, dod solib, uyni boshga ko'tarishga qat'iy ahd qildi. Shunday qarorga kelgach, o'sha ondayoq pisibgina eshikka qarab intildi.

— Orqaga! — to'satdan baqirib qoldi Sayks. — Qayt! Orqaga!

Uyni chulg'agan qabrison sukunatini qattiq qichqiriq buzib yuborgan damda qo'rqqanidan Oliverning qo'lidagi fonar tushib ket-

di-yu, bola olg'a tomon yurishini ham yoki qochishini ham bilmay garangsib qoldi.

Tag'in baqiriq eshitildi — allanima yarq etdi; ro'parasida, zina-ning eng tepadagi poyasida esxonasi chiqayozgan, chala-chulpa kiyingan ikki kishi paydo bo'ldi. Yarq etib chaqin chaqdi, quloqni batang qilib nimadir varangladi, dud taraldi, allanimalar qarsilladi — Oliver jon holatda orqaga tashlandi.

Sayks bir lahzaga g'oyib bo'ldi, biroq yana ko'zga tashlandi-yu, dud tarqab ulgurmasidan burun uning yoqasidan ushlab oldi. U orqaga qocha boshlagan odamlarga qarata to'pponchasidan o'q uzdi va bolani tepaga tortdi.

— Dadil bo'l, — dedi uni derazachadan tortib chiqararkan. — Ey, sharfni uzatib yubor. O'qlari tegibdi bolaga. Tezroq! Bolakaydan tirqirab qon ketyapti.

Keyin Oliver qo'ng'iroqchanning jiringlaganini, o'q sadolarini, baqiriq-chaqiriqlarni eshitdi va o'zini kimdir o'ydim-chuqur yerdan zippilagancha ko'tarib ketayotganini tuydi. So'ngra esa shovqin-suron olislashib borib tindi, yuragini bamisli muz qopladi. Shundan keyin u hech nimani ko'rmadi ham, hech nimani eshitmadi ham.

---

---

XXIII BOB. MISTER BAMBL BILAN BIR XONIM ORASIDAGI  
YOQIMLI SUHBATNI HIKOYA QILADI VA BA'ZI  
HOLLARDA HATTO BIDLDAY ODAM HAM  
HISSİYOTDAN MAHRUM EMASLIGIGA ISHONTIRADI

Oqshom qirchillama sovuq turdi. Yer burkanib olgan qor ko'paning betini qattiq muz qobiq qopladi; qishloq yo'llari va past ko'cha-yu jinko'chalardagi qor uyumlari ustiga lashkar tortgan shiddatli, jangari shamol, xuddi o'ljasi ko'rib beshbattar quturib ketgandek, ayyuhannos solib, bu yerlardagi hali beti qotib ulgurmag qorni to'zonday shopirib, chirpirak qilib, atrof-tevarakka sochqi qilardi. Qorni to'q, usti butun, issiq boshpanasi borlarni kamin oldiga to'planib, shunday paytda o'z uylarida ekanliklari uchun xudoga ming qatla shukrona o'qib o'tirishga, bevatan, ochlikdan o'lim sari yuzlangan qashshoqlarni esa yerga uzala tushib, jon taslim qilishga majbur etguvchi qahrli, zim-ziyo, ayozli oqshom edi bu. Bunday kechalarda ochlikdan sillasi qurigan talay-talay rasvoyi raddilar kimsasiz ko'cha-ko'ylarda ko'z yumadilar va — jinoyatlari qanday bo'lishidan qat'iy nazar — ular ko'zlarini ochadigan dunyo bunisidan shafqatsizroq bo'lmasa kerag-ov.

Kitobxonlarimizga Oliver Tvistning kindik qoni to'kilgan joy sifatida allaqachon tanish bo'lgan mehnat uyining nozirasi bo'lmish missis Kornni o'zining mo'jazzgina xonasida raqs tushayotgan olov ro'parasiga joylashib, ko'ngildagidek, huzurlanib ovqat qilishi uchun zarur bo'lgan anjomlar qo'yig'liq jajji patnis turgan chog'roqqina dumaloq stolga mamnun ko'z tashlab qo'ygan bir paytda tashqarida ana shunday hangoma bo'layotgan edi. Missis Kornni bir piyolagina choy lazzatini totishga chog'langandi. Missis Kornni nigohini stoldan uzib olamdagi choynaklar ichida eng jajjisi nozik tovush-la ohistagina o'z xirgoyisini boshlagan kaminga ko'chirarkan, uning ko'ksidagi mamnuniyat hissi shunchalar jo'sh urib ketdiki, xonim beixtiyor iljaydi.

— O'ziga shukr! — dedi nozira stolga tirsaklarini tirab, o'ychan qiyofada o'tga tikilgan cha. — Har bir bandasi peshonasiga talay narsa bitilgani rost, shundoq ekan, shukr qilishimiz kerak. Ha, talay narsa bitilgan, lekin biz buni fahmlamaymiz. Ming afsus!

Missis Kornni, xuddi buni tushunmaydigan qashshoqlarning ma'naviy ko'rligiga aza tutayotgandek, g'amnok bosh chayqab qo'yib, kumush qoshiqchani (shaxsiy mulki) chorak qadoqcha choy ketadigan qutiga botirib, quruq choy oldi-da, choy damlashga tutindi.



Ojiz qalbimiz oromini buzmoqlik uchun jindakkina narsa kifoya. Missis Kornī fikr-mulohazalar bilan band ekan, mushtdakkina qora choynak zumda to'lib, toshib chiqqan suv missis Kornining qo'lini xiyolgina kuydirdi.

— Voy, yashshamagur-ey! — nido soldi muhtarama nozira sho-sha-pisha choynakni kaminga qo'yib. — Zinqarcha bo'lmay o'! Bor-yo'g'i ikki chinnioyoqqina ketadi o'ziga! Kimga foydasi tegardi bu sabilni?.. Axir, — picha o'ylab turib qo'shib qo'ydi missis Kornī, — axir menga o'xshagan so'qqabosh bir bechoradan hoshqa kimga ham nafi tegardi! Voy xudoyim-a!

Nozira ana shu so'zlar bilan o'zini kresloga tashladi va yana stolga tirsaklarini tiragancha o'zining so'qqabosh qismatini o'ylay ketdi. Jajji choynak bilan bitta-yu bitta chinnioyoq mister Kornī haqidagi qayg'uli xotiralarini yodiga soldi (u bor-yo'g'i yigirma besh yilgina muqaddam olamdan o'tgandi) u bundan ezilib ketdi.

— Endi boshqa bunaqasi peshonamga sirayam bitmaydi! — dedi missis Kornī alami ziyoda bo'lib. — Ha, unga o'xshagani peshonamga bitmaydi hech qachon!

Bu gap kimga yoxud nimaga taalluqli ekani: erigami yo choynakkami — noma'lum edi. Balki keyingisigadir, negaki shu so'zlarni aytar ekan, missis Kornī choynakka tikilib turardi, keyin esa uni o'tdan oldi. U endigina birinchi chinnioyoqni ichib bo'lgan ham ediki, to'satdan eshikning astagina tiqillashi oromini huzdi.

— Ha, kiravering! — dedi missis Kornī shang'illab. — Birorta kampirshoning joni uzilayotgandir-da. Ular nuqul endi bir nima totinay degan paytimda o'lishadi. U yerda turavermang, sovuq kirib ketyapti ichkariga. Ha, nima gap bo'lyapti u yoqda?

— Hech gap, xonim, hech gap, — javob qildi erkak kishi.

— Voy xudoyim! — xitob qildi nozira xiyla muloyim ovoz bilan. — Nahotki, mister Bamblning o'zlari qadamranjida qilgan bo'lsalar?

— Xizimatingizga hozirman, xonim, — dedi eshik oldida boshmog'ini tozalab, paltosiga ilashgan qorni qoqib tashlash uchun picha uymalashib qolgan mister Bambl, keyin esa bir qo'lida shlyapasini, ikkinchisida tuguncha ko'targancha kirib keldi. — Eshikni yopishga ruxsat etadilarmi, xonim?

Xonim mister Bambl bilan eshikni berkitib suhbatlashish sha'nimga munosib kelarmikin degan hadik-la, odob yuzasidan javob berishga ikkilanib qoldi. Mister Bambl uning ikkilanishidan foydalanib, buning ustiga sovqotgani sababli ruxsatni kutib o'tirmay, eshikni yopdi.

— Havo buzuq, mister Bambl, — dedi nozira.

— Ha, xonim, buzuq, — javob berdi bidl. — Bunaqangi havo qavm uchun koni zarar, xonim. Bugun choshgohdan keyin, missis Kornı, biz yigirmata to'rt qadoqlik non bilan bir yarım bo'lak pishloq tarqatdik, shunga qaramay desangiz, bu yalangoyoqlar hamon norizo.

— Ha, albatta. Qachon rizo bo'lishgan o'zi, mister Bambl? — dedi nozira choy ho'plab.

— Haq gapni aytasiz, xonim, qachon? — gapni ilib ketdi mister Bambl. — Bir odamga desangiz, ayoli va oilasi kattaligini e'tiborga olib, to'rt qadoq non bilan naq bir qadoq pishloq berdik, yana tag'in toshidan zig'irchayam urmay desangiz. Xo'sh, nima deb o'ylaysiz, uni minnatdor bo'ldi, chinakamiga minnatdorchilik bildirdi, deysizmi? Yo'q, xonim. Sariq chaqalik ham! U nima qildi, deb o'ylaysiz, xonim? Ustamasiga ko'mir so'radi — jindakkina, bitta dastro'molchada bo'lsayam mayli, deydi-ya! Ko'mir-a! Xo'sh, ko'mirni nima qiladi u? Pishloqni ilitadi, undan keyin kelib, tag'in so'raydi. Bularning hunari ana shunaqa, xonim: bugun etagiga uyib ko'mir solib bersang, u, benomus, birisi kuni yana so'rab keladi.

Nozira ushbu jonli mulohazani batamom quvvatladi, shundan so'ng bidl o'z ma'ruzasini davom ettirdi.

— Bunaqangi qiliq qayergacha yetib borishini xobi-xotirimga ham keltirmagan ekanman, — dedi mister Bambl. — Uch kun burun — siz turmush ko'rgan ayolsiz, xonim, shu bois sizga gapirib bersam bo'ladi, — uch kun burun desangiz, bir nusxa, ustidagi uvadasi orqasini arang yopib turibdi desangiz (gap shu yerga yetganda missis Kornı yerga qaradi), peshingi ziyofatga mehmonlar jam bo'lib turgan paytda nozirimizning eshiklari turumiga kelib olib, yordamga muhtojman, desa bo'ladimi, missis Kornı. Ketmay ostonada turib olgani va mehmonlarning ta'bini tirriq qilgani tufaylidan nozirimiz unga bir qadoq kartoshka bilan bir siqim su-li uni berishni buyurdilar. «Yo xudo! — dedi u nonko'r. — Bu nima bo'ladi? Tishimizni kovagiga kirgundek urvoq ham bo'lmaydiku!» «Juda soz, — dedi nozirimiz, bergan ehsonini qo'ldan tortib olarkan, — unda o'sha urvoq ham yo'q sizga». «Demak, ko'chada o'ladigan bo'pman-da!» — dedi daydi. «Yo'q, o'lmaysan», — dedi nozirimiz...

— Xa-xa-xa! Qoyil! Mister Granat sira aynimaydi, juda topib gapiradi-da o'ziyam, to'g'rimasmi? — gapni bo'ldi nozira. — U yog'ichi, mister Bambl?

— Shunday qilib, xonim, — so'zini davom ettirdi bidl, — u ketdi va axiyrı ko'chada o'lib qolibdi. Bu gadovachchaning o'jarligini qarang-a!

— Men bunga u dunyo-yu bu dunyo ishonmagan bo'lardim! — qat'iy ohangda dedi nozira. — Lekiniga, mister Bambl, sizningcha, daydi-sayoqlarga yordam berish bema'ni ish emasmikin? Siz — jentlmen, ko'pni ko'rgan, tajribali odamsiz, buni bilishingiz kerak. Xo'sh, qandoq hisoblaysiz?

— Missis Korni, — dedi bidl o'zini bilimdon deb biladigan odamlar singari jilmayib, — bunaqangi odamlarga yordam qo'lini cho'zish — tegishli tartib-qoidalariga amal qilinganda, tegishli tartib-qoidalariga muvofiq deyaqman, xonim! — bu qavm uchun najot yo'lidir. Yordam berayotganingda amal qilinadigan tartibotning birinchi bandi shundan iboratki, qashshoqlarga mutlaqo keragi yo'q narsani tutqazmoq darkor... Ana shunda qatnash jonlariga tegadi.

— Voy xudoyim-ey! — nido soldi missis Korni. — Qanday oqilona o'ylab topilgan-a bu!

— Bo'lmasam-chi! Gap oramizda qolsin-u, xonim, — javob qildi mister Bambl, — bu qoidaning ahamiyati juda katta: basharti siz anavi beadab gazetalarga tushadigan voqealarga qiziquqdek bo'lsangiz, muhtoj oilalar ehsonni pishloq bo'laklari sifatida olayotganlarini darrov payqaysiz. Missis Korni, butun mamlakat bo'yicha shunaqangi tartib joriy etilgan. Darvoqe, — qo'shib qo'ydi bidl tugunchasini yecharkan, — bu xizmat siri, xonim, siz bilan bizga o'xshagan qavm amaldorlaridan bo'lak hech bir zog'ga og'iz ochmoq joiz emas... Manavi, portveyn, xonim, buni qavm kengashi shifoxonalar uchun buyurtirgan: yangi, haqiqiy portveyn, tariqchayam qilvir joyi yo'q, shu bugun bochkadan quyilgan — shishaday tip-tiniq, mutlaqo quyqasiz!

Mister Bambl shishalardan bittasini yoruqqa solib, a'lo sifatli ekaniga ishonch hosil qilish uchun yaxshilab chayqatib ko'rdida, har ikkala shishani pastak javon tepasiga qo'ydi, shisha tugilgan ro'molchasini to'rt buklab, ehtiyotlab cho'ntagiga soldi, so'ng xuddi ketmoqchidek shlyapasiga qo'l cho'zdi.

— Shundoq izg'irinda ketadigan bo'ldingiz-da, mister Bambl, — deb qo'ydi nozira.

— Qattiq shamol esyapti, xonim, — javob qaytardi mister Bambl shineli yoqasini ko'tarar ekan. — Naq quloqni yulqib ketay deydi-ya.

Nozira nigohini jajji choynakdan uzib, eshikka tomon yo'nalgan bidlga qaradi, shunda bidl unga xayrli tun tilashga shaylanib tomoq qirarkan, xonim tortinibgina, bir ho'plamgina choy... bir ho'plamgina choy ichishga maylingiz yo'qmi, deb so'radi.

Mister Bambl shu zahotiyq yoqasini tushirdi, shlyapasi bilan asosini kursiga qo'ydi, ikkinchi kursini esa stolga yaqinroq surdi. U astagina kursiga cho'kar ekan, xonimga ko'z qirini tashladi. Xo-

nimning ko'zlari jajji choynakka qadaldi. Mister Bambl yana tomoq qirib, xiyol jilmaydi.

Missis Korniyavondan boshqa chinnioyoq bilan likopcha olganidan turdi. Qaytib joyiga o'tirarkan, ko'zlari bo'ldob bidlning ko'zlari bilan uchrashdi; u qizarib ketib, bidlga choy quya boshladi. Mister Bambl tag'in tomoq qirib oldi — bu gal oldingisidan qattiqroq.

— Shirinroq bo'lsinmi, mister Bambl? — so'radi nozira qanddonini olib.

— Ijzatingiz bilan, shirinroq bo'lsa ham mayli, xonim, — javob berdi mister Bambl. Shu gapni ayta turib u missis Korniyaga tikildi; bordi-yu, umuman, bidl muloyim bo'la olsa, ayni soniyada mister Bambl xuddi o'sha bidlning naq o'zginasi edi.

Choy indamaygina quyildi va indamaygina uzatildi. Mister Bambl qoyilmaqom kalta cholvori iflos bo'lmasin uchun dastro'molini tizzasiga yoyib, choy ho'plab, tamaddi qilishga kirishdi. Bu ko'ngilli mashg'ulotini ora-sira chuqur xo'rsiniqlar bo'lib turar, ammo xo'rsiniqlari mutlaqo ishtahasiga ziyon yetkazmas, aksincha, uning choy bilan bo'g'irsoqni eplastirishiga ko'mak berardi.

— Xonim, mushugingiz ham bor ekan-da, — dedi mister Bambl kamin oldida bolalari bilan isinib o'tirgan mushukka qarab. — Yana tag'in, bolalariyam.

— Nimasini aytasiz, mister Bambl, ularni qanchalik yaxshi ko'rishimni tasavvur ham qilolmaysiz! — javob berdi nozira. — Bular shunaqangi sho'x, shunaqangi o'yinqaroq, shunaqangi beg'amki, asti qo'yaverasiz, ochig'ini aytsam, yolg'iz ovunchog'im shular.

— Juda ajoyib jonivor-da o'zlariyam, xonim, — deya maqbullab qo'ydi mister Bambl. — Judayam uybo'p...

— O, nimasini aytasiz! — xitob qildi nozira zavq-shavq-la. — Uylarini shunchalik yaxshi ko'rishadi, shunchalik unga o'rganib qolishganki. Rosti, bular chinakam halovat berishadi.

— Missis Korniy, — bafurja, qoshiqni tiqillatib, ovozin maqomga solayotgandek bir ohangda so'zlay boshladi mister Bambl, — xonim, sizga bitta gapni aytmoqchiman: modomiki mushuk yoki mushukvachchalar siz bilan yashab turib, xonim, o'z uylarini yaxshi ko'rmaydigan bo'lsalar, unda, xonim, eshshakdan farqlari qolmaydi-ku!

— Eh, mister Bambl-a! — xitob qildi missis Korniy.

— Haqiqatini yashirishni nima keragi bor, xonim! — gapini davom ettirdi mister Bambl choyqoshiqni oshiqona bir qiyofada, sipohlik bilan ohista aylantirib: uning bu harakati, ayniqsa kuchli taassurot qoldirayotgandi. — Menga qolsa, bunaqangi mushukni jon-jon deb o'z qo'llarim bilan suvga cho'ktirardim.

— Unda yomon odam ekansiz-da! — gapni ilib ketdi nozira bidlning chinnioyog'iga qo'l uzatib. — Buning ustiga qahri qattiq!

— Qahri qattiq deysizmi, xonim? — takrorladi mister Bambl. — Qahri qattiq deng?

Mister Bambl ortiqcha gap-so'zsiz o'z chinnioyog'ini missis Korniga tutqazdi, shunda u xonimning jimjilog'ini siqib qo'ydi-da, uqali nimchasi ustidan kafti bilan ikki bora tapillatib urib, chuqur xo'rsindi va o'tirgan kursisini kamindan jichcha nari surdi.

Stol yumaloq edi; missis Korn bilan mister Bambl bir-birlariga qarama-qarshi, olovga qarab o'tirishar, oralari yaqin edi; shundoq bo'lgach, o'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, mister Bambl boyagiday stol yonidan jilmay, olovdan nariroq surilarkan, bu bilan missis Korn ikkovlari o'rtasidagi oraliqni kattaytirayotgandi; ba'zi oqil kitobxonlar bunday qilmishga shubhasiz tasanno o'qishlari va mister Bambl tomonidan ko'rsatilgan buyuk qahramonlik namunasi sifatida ehtirom etishlari turgan gap; vaqt, joy hamda qulay sharoit ma'lum darajada uning (yengiltabiat va beg'am-u betashvish odamlar og'ziga qanchalik yarashiqli bo'lmasin) — mazkur mamlakatning hakamlari, parlament a'zolari, vazirlari, lord-merlari va bo'lak ulug' jamoat arboblari, ayniqsa bu odamlar orasida (juda yaxshi ma'lumki) eng qahri qattig'i, eng sabotlisi bo'lishni o'z burchi deb bilgan bidldek buyuk hamda sipo zotning sha'niga yarashmaydigan nazokatli-yu yoqimli so'zlarni aytishga da'vat etardi.

Ammo, mister Bamblning niyati qanday bo'lishidan qat'iy nazar (niyati esa shubhasiz, yaxshi edi), baxtga qarshi, quyidagi hol sodir bo'ldi: yuqorida ikki bora tilga olib o'tganimizdek stol yumaloq edi, buning oqibatida mister Bambl o'tirgan kursisini jindak-jindak sura-sura, hech qancha vaqt o'tmay o'zini nozira bilan ajratib turgan masofani qisqarta boshladi va doira bo'ylab harakatini davom ettira borib, pirovardida, kursisi nozira o'tirgan kursiga taqaldi. Darhaqiqat, har ikkala kursi taqalgandi, bu hol sodir bo'lganidan keyin esa mister Bambl siljishdan to'xtadi.

Endilikda nozira mabodo kursisini o'ngga suradigan bo'lsa, biqinini o'tda kuydirib olishi tayin edi; bordi-yu, so'lga surgudek bo'lsa, o'zini mister Bamblning quchog'ida ko'rishi aniq edi; xullasi (kamsuqumgina nozira bo'lgani va hozirgina aytib o'tilgan oqibatni darhol payqagani sababli, albatta), u joyidan qimirlamay o'tirgancha, mister Bamblga ikkinchi bora choy uzatdi.

— Qahri qattiq ekanmanmi, missis Korn? — takrorladi mister Bambl qoshiq bilan choyni aralashtirgan ko'yi noziraning aftiga tikilib. — O'zingiz-chi, bag'ritosh emasmisiz, missis Korn?

— Voy xudoyim-ey! — xitob qildi nozira. — Bunaqangi savolni bo'ydoq odamning og'zidan eshitish juda qiziq-ku! Buni bilishni sizga nima keragi bor, mister Bambl?

Bidl choyni bir tomchisini ham qoldirmay ichdi, bo'g'irsoqni yeb bitirib, tizzasidagi ushoqlarni tushirib, labini artidi-da, bamaylixotirgina nozirani o'pib oldi.

— Mister Bambl! — deya shivirlab xitob qildi bu pokiza, iffatli xonim, zero — shunchalik qo'rqib ketgandiki, hatto ovozi chiqmay qolgandi. — Mister Bambl, dodlayman hozir!

Javob o'rniga mister Bambl shoshilmay, ehtirom-la, noziraning belidan quchdi.

Garchandki ushbu xonim dodlamoqlik niyati borligini namoyon etgan ekan, u chog'da, albatta, bidlning bu navbatdagi jasurona qilmishidan keyin ovoz solgan bo'lardi-yu, lekin shosha-pisha eshikni tiqillatishlari bunga hojat qoldirmadi: tiqillagan ovoz eshitilgani hamonoq mister Bambl epchillik bilan vinoli shishalarga tashlandi-yu, jon-jahdi-la ularning ustidagi changni arta boshladi; nozira bo'lsa qahrli ovoz bilan tiqillatayotgan kim ekanini so'radi. Shu yerda bir qiziqarli holni ta'kidlab o'tmoq joiz: hayratlanish uning qo'rquviga shunchalik ta'sir ko'rsatgandiki, oqibatda ovozi tag'in rasmiy dag'alligiga qaytgandi.

— Afv etasiz, missis, — dedi qoqsuyak qashshoq kampirsho qiya eshikdan mo'ralab, uning aft-angori nihoyatda ta'viya edi, — Salli kampir bandalikni bajo keltiryapti.

— Xo'sh, buning menga nima daxli bor? — so'radi nozira zarda bilan. — Axir, uni tiriltirolmayman-ku.

— Albatta, albatta, missis, — javob berdi kampirsho, — bu hech kimning qo'lidan kelmaydi: unga endi yordam berib bo'lmaydi. Odamlarning jon berayotganlarini — go'daklarning ham, baquvatlarning ham — ko'p ko'rganman, shundoq bo'lgach, kuni bitganini men bilmay, kim bilsin! Lokiniga vijdoni azoblanayotganga o'xshaydi, negaki, og'rig'i qo'yib yuborganida — bunaqa paytlar ah-yon-ahyonda bo'lib turibdi, chunki u qiynalib, azobda jon beryapti — sizga nimanidir aytishim kerak, deyapti. Missis to siz bormagunin-gizcha xotirjam oyoq uzatolmaydi.

Bu xabarni eshitgach, muhtarama missis Kornii jo'rttaga o'zidan mavqei baland shaxslarning jig'iga tegmagunicha hatto o'lolmaydigan kampilarni pichirlab qarg'ab, go'riga g'isht qalagan ko'yi tezgina issiq ro'molini olib o'randi-da, mister Bamblga, tag'in g'ayriodatiy biron kor-hol sodir bo'lib qolmasin deb, qaytib kelgunicha kuta turishini iltimos qildi. O'zini chaqirib kelgan kampirshoga toshbaqaday imillab zinama-zina sudralmay, tez yurishni buyurib, bag'oyat

qahrli avzoyda uning orqasidan xonani tark etdi va yo'l bo'yi qarg'anib bordi.

O'zi bilan o'zi yakka qoldirilgan mister Bamblning xatti-harakati, aslini aytganda, tushuniksiz edi. U javonni ochib, choyqoshiqlarni sanadi, qand ushatg'ichni qo'lida chamalab ko'rdi, kumush sut idishni diqqat-la ko'zdan kechirdi va shu bilan o'z sinchkovligini qondirib, ko'ngli joyiga tushdi-yu, uch qirra shlyapasini chakkasiga dol qo'ndirib, vajohat-la o'yinga tushib, stol tegrasidan to'rt qur aylanib chiqdi. Shunday antiqa mashg'ulotini tugatib, shlyapasini yana yechdi-da, o'tga teskari qaragan ko'yi kamin oldiga o'tirdi; chamasí, uydagi buyum-u jihozlarni xayolan aniq hisobdan o'tkazishga kirishgandi.

---

XXIV BOB. G'OYATDA ARZIMAS BIR NARSA XUSUSIDA  
IZOHOT BERADI. BIROQ BU QISQA BOB MAZKUR  
HIKOYATIMIZDA ORTIQCHALIK QILMAS DEGAN  
UMIDDAMIZ

Noziraning xonasidagi oromga raxna solgan zot ajalning munosib darakchisi edi. Keksalik tanasini dol qilgan, qo'l-oyoqlari qaltirar, shaftoliqoqiday burushib-tirishgan afti tabiat ijodidan ko'ra ko'proq telba bir kimsaning qalami bilan chizilgan qo'rqinchli niqobga o'xshab ketardi.

E-voh! Tabiat yaratgani bo'yicha o'zgarmaydigan va o'z chiroyi bilan ko'zlarimizni quvnatadigan chehralar qanchalik kam saqlanib qoladi-ya! Bu dunyo tashvishlari, g'am-g'ussalari-yu muhtojliklari chehralarni xuddi yuraklari kabi o'zgartib yuboradi; hirs-u ehtiros, zavq-u shavqlari uyquga ketib, o'z ho'kmini yo'qotgachgina beboshvoq bulutlar tarqab, samo toqi ravshan tortadi. Aksar holda, shunday ham bo'ladiki, marhumlarning hatto tosh qotgan, muzdek yuzlari (bamisoli uyquga ketgan bolaning chehrasiday) allaqachonlar unutilgan qiyofaga kirib, ma'sum go'dak chehrasini yodga soladi; bu odamlar shundayin beozor, shundayin mo'min-qobil bo'lib qoladilarki, ularni baxtiyor holaliklaridan beriga taniydiganlar tobutlari qoshida tiz bukib, ko'kdan tushib kelgan farishtaday telmirib boqadilar.

Kampirsho hamrohining qarg'ishlariga javoban allanimalardir deb ming'illagan ko'yi dahliz-u yo'laklardan sudralib, zinalardan imillab ko'tarilgancha ilgarilab borardi; nihoyat nafasini rostlamoq uchun to'xtab, qo'lidagi shamni boshlig'iga tutqazdi-da, orqasidan ergashar ekan, bemor yotgan xonaga yo'nalgan o'zidan chandon bora chaqqonroq bekasidan ortda qolib ketmaslikka tirishdi.

Bu chordoqdagi ayanchli, g'aribona bir katalak edi. Narigi burchagida xiragina sham lipillab yonyapti. Bemorning to'shagi tepasida boshqa bir kampir o'tiribdi; dorixonachining shogirdi kamin oldida tik turganicha patdan o'ziga tish tozalagich yasayapti.

— Sovuq kecha bo'ldi-da, missis Korni, — dedi bu yosh jentlmen kirib kelgan noziraga.

— Chindanam juda izg'irin kecha bo'ldi-da, ser, — javob qildi xonim o'tirayotib, g'oyatda nazokatli ohangda.

— Ta'minotchilaringiz eng a'lo ko'mirdan berishlari keragidi sizga, — dedi dorixonachining shogirdi zanglagan otashkurak bilan ka-



mindagi ko'mir bo'lagini maydalar ekan, — bunaqangi ko'mir sovuq kechada yaramaydi.

— Kengash shuni tanlagan, ser, — javob berdi nozira. — Aslida kengash jilla bo'lmasa sovg'otmasligimizni g'amini yeyishi keragidi, nimaga deganingizda, ishimiz juda og'ir.

Gap shu yerga yetganda bemorning inqillashi suhbatning beliga tepdi.

— O! — deya yigit karavot tomonga shunday bir qiyofada o'girildi, go'yo bemor mutlaqo esidan chiqib ketgandi. — Missis Korn, buning masalasi hal.

— Nahotki, ser? — so'radi nozira.

— Yana biron ikki soatga borishiga ham ishonmayman, — dedi dorixonachining shogirdi, butun diqqat-e'tiborini tish tozalagichning uchiga qaratib. — Jamiki tana a'zolari adoyi tamom bo'lgan. Kampirsho, bir qarab yuboring-chi, mudrayaptimikin?

Kasal boquvchi kampir karavot uzra engashib, boshi bilan tasdiq ishorasini qildi.

— Agar shovqin qilmasanglar, shu ko'yi u dunyoga ravona bo'lishi ham mumkin, — dedi yigit. — Shamni yerga qo'ying. O'sha yerda tursa unga xalaqit bermaydi.

Kampir buyruqni bajardi va ayni vaqtda, ayollar osongina jon taslim qila qolmaydi, degan ma'noda bosh chayqab qo'ydi; so'ngra u bu orada yetib kelgan boyagi kampirning yonidagi joyiga borib o'tirdi. Nozira asabiy kayfiyatda ro'moliga tuzukroq o'ralib oldi-da, karavotning oyoq tarafiga cho'kdi.

Dorixonachining shogirdi tish kavlagichni bitkazib, kamin ro'parasiga joylashib oldi-da, o'n daqiqalar chamasi isindi; axiyri, zerikdi shekilli, missis Korn bilan xayr-xo'shlashib, oyoq uchida yurib chiqib ketdi.

Ikkala kampir bir necha daqiqa jimgina o'tirishdi, keyin karavotdan nariroq borib, olov qarshisida cho'nqayishdi-da, qoqsuyak qo'llarini isita boshlashdi. Shu tariqa, cho'qqaygan ko'yi shivirlashib gurunglashaverishdi; alanga yolqinlanib, shaffof shu'lasini tushganida badburush basharalari, tasqara turqlari vahimali ko'rinardi.

— Enni, azizim, men yo'g'imda boshqa hech nima demadimi? — deb so'radi nozirani chaqirib kelgani borgani.

— Bir og'iz ham, — javob berdi ikkinchisi. — Oldin qo'llarini chimdib, tirnab-timirskilay boshladi, men ushlab turdim, keyin tinchidi. Judayam bo'shashib, kuchi qolmagan, shuni-chun osongina tinchlantirdim. Kunim qavm beradigan yovg'onga qarab qolgan bo'lsa ham, hali kuchdan qolganimcha yo'q!

— Doktor buyurgan ilitilgan vinoni ichdimi? — soʻradi birinchisi.

— Ogʻziga quyishga urinib koʻrdim, — javob qildi ikkinchisi, — qarasam, tishini mahkam qisib olibdi, qoʻllari bilan boʻlsa krujkani shunaqangi changallab olganki, arang boʻshatdim-da; shundan keyin oʻzim ichib qoʻya qolgandim, otdek boʻldim-qoʻydim.

Ikkala shum kampir astagina oʻgirilib qarab, gaplariga hech kim quloq solmayotganiga ishonch hosil qilgach, olovga yaqinroq surilib, hihilab qoʻyishdi.

— Avvallari, — yana gapga kirdi birinchisi, — oʻzi shunday qilgan, keyin desang, kalaka-mazax qilib yurgan paytlari ham boʻlgan.

— Boʻlmasam-chi! — gapni ilib ketdi ikkinchisi. — Juda quvnoq edi-da oʻziyam. Qancha-qanchalab ajoyib marhumlarni yasantirgan, tagʻin hammasi shunaqangi yoqimtoy, shunaqangi bashang ediki, naq mumdan yasalgan qoʻgʻirchoq derding. Bu kekxa koʻzlarim ularni koʻrgan, mana shu kekxa qoʻllarim ularni ushlagan, nimagaki, men oʻn martalab yordamlashganman unga.

Kampirsho qaltiroq barmoqlarini olgʻa choʻzib, suhbatdoshining naq burni ostida oʻynatdi, keyin, choʻntagini kavlashtirib, vaqt oʻtishi ila rangi unniqib ketgan eski tunuka tamakidonni chiqardi-da, dugo-nasining oʻzi tomon uzatilgan kaftiga jindakkina, oʻzining kaftiga esa chiza koʻproq tamaki toʻkdi. Ular bu ishlar-la ovora ekan, jon taslim qilayotgan kampirning hushiga kelishini betoqat kutayotgan nozira kamin oldiga keldi-da, tomdan tarasha tushgandek qilib, yana qancha kutaman, deb soʻradi.

— Oz qoldi, missis, — javob berdi ikkinchi kampirsho boshini koʻtarib.

— Hammamizniyam ajalimiz yetib qolgan, koʻp kuttirmas. Sabr qiling, sabr! Hademay barimizni oʻz quchogʻiga oladi u.

— Tilingizga tirsak chiqsin-e, esini yegan jodugar!.. — deya ogʻziga urdi nozira bobillab. — Sizdan soʻrayapman, Marta: oldinam shunaqangi oʻzini bilmay qolayotganmidi?

— Bir necha marta, — javob berdi birinchi kampirsho.

— Lekigin endi bu boshqa takrorlanmaydi, — qoʻshimcha qildi ikkinchisi, — toʻgʻrirogʻi, yana bir martagina, shundayam birpasgagina koʻzini ochadi, shu gapim esingizda tursin, missis!

— Birpasgami yoki koʻpgami, — dedi nozira asabiylashib, — u hushiga kelganida bu yerda mening qoramni ham koʻrmaydi! Ikki pulga arzimaydigan bunaqangi ishni deb yana bezovta qila koʻrmanglar meni! Bu yerda kampirsholar jon berayotganda tepasida turish vazifamga kirmaydi va bunday qilmayman ham. Bu gapimni quloqlaringga quyib olinglar, benomus jodugarlar! Bordi-yu, meni

tag'in bir marta laqillatadigan bo'lsanglar, ogohlantirib qo'yay — ta'zirlaringni beraman-a!

U achchig'lanib eshikka tomon otildi, biroq shu asnoda karavot tomonga yuzlangan ikki kampirning qichqirib yuborgan ovozi o'girilib qarashga majbur etdi uni. Bemor to'shagidan sal qaddini ko'tarib, qo'llarini olg'a cho'zgancha ularga qarab talpinardi.

— Kim bu? — deya xirilladi u.

— Hay-hay, sekin, urinmang! — chiyilladi kampirlardan biri, uning ustiga engashib. — Yoting, yota qoling.

— Endi qaytib turadigan bo'lib yotmayman sirayam! — xitob qildi u gapga quloq solmay. — Unga aytadigan gapim bor. Yaqinroq keling yonimga! Yaqinroq! Qulog'ingizga aytaman.

Kampir noziraning qo'llarini changallab oldi va karavot yonidagi kursiga zo'rlab o'tqazdi-da, endi gap boshlay deganda, atrofga alanglab, bo'ynilarini cho'zgancha vujudlari quloqqa aylanib eshitishga shaylanib turgan ikki kampirga ko'zi tushib qoldi.

— Ularni haydab yuboring, — dedi bemor ovozi zaiflashib. — Tezroq, tezroq!

Har ikkala yalmog'iz baravariga, sho'rlikning ahvoli bir holatda, o'zining eng yaqin egachi-singillarini ham tanimayapti, deya shikva-shikoyatga tushib ketishdi va sirayam uni yolg'iz tashlab ketmaymiz, deb turib olishdi, lekin nozira ularni hujradan itarib-turtib chiqardi-da, eshikni qulflab, karavot yoniga qaytdi. O'zlarini eshik orqasida ko'rgan kampirsho xonimlar ashulalarini o'zgartib, kalit solinadigan teshikdan, Salli kampir g'irt mast, deb chinqirishga tushishdi; bu gap xiyla haqiqatga yaqin ko'rinardi, zero dorixonachi yozib bergan qittakkina af'yundan keyin saxovatli qari xonimlar yashiriqcha ichirishgan suvli jin o'z ta'sirini ko'rsatgandi bemorga.

— Endi quloq soling menga! — dedi jon taslim qilayotgan kampir, so'nggi hayot uchqunini chaqnatish uchun bor kuchini to'plab. — Bir vaqlar xuddi shu hujrada, xuddi mana shu karavotda yotgan yoshgina suluv juvonning to'shagi tepasida o'tirganman. Uni bir holatda, yuraverganidan oyoqlari tilinib-shilinib ketgan, iflos-u qonga belangan holda olib kelishgandi. Juvon o'g'il ko'rdi-yu, o'zi olamdan o'tdi. Hozir eslayman... qaysi yili bo'lgandi-ya bu?..

— Qaysi yilidaligining ahamiyati yo'q, — so'zini bo'ldi betoqat nozira. — Xo'sh, bu yog'i-chi, nima demoqchisiz u haqda?

— Bu yog'i... — ming'irladi bemor boyagiday yarim behush holatga tusharkan, — yana nima desamikin u haqda? Yana nima... Esimga tushdi! — xitob qildi u o'zini o'nglab; basharasi cho'g'day qizarib, ko'zlari baqrayib qolgandi. — Uni o'margandim. Ha, shunaqa

qilganman! Sizga aytsam — narsasini o'g'irlaganimda joni uzilib bo'lmagandi hali!

— Nimasini o'g'irlagandingiz, ayta qolsangiz-chi, xudo haqqi? — deyarli qichqirib yubordi nozira, xuddi yordamga odam chaqirmoqchidek bir harakat bilan.

— Bitta narsasini, — javob berdi kampir qo'li bilan uning og'zini berkitib. — Bisotidagi bor-yo'g'i bittagina narsasini. Sovqotib qolmasligi uchun engil, yegani ovqat keragidi unga, lekin juvon bu narsasini asrab-avaylab, ko'ksiga taqib yurgan. Men sizga aytsam — bu narsa tillaydi! Sof tilladan, joniga ora kirishi mumkinidi!

— Tilla! — takrorladi nozira yostiqa shilq etib tushgan kampirning ustiga engashib. — Gapiring, gapirsangiz-chi... keyin nima bo'ldi? Ko'zi yorigan juvon kim ekan? Qachon bo'lgandi bu?

— Juvon uni saqlashni tayinladi, — so'zlashda davom etdi bemor inqillab, — to'shagi tepasida o'tirgan bitta-yu bitta ayol — menga ishonib topshirdi. Bo'ynida taqig'liq turgan taqinchog'ini ko'rsatgan zahoti uni o'g'irlashni dilimga tugdim. Balkim go'dagining uvoli ham menga tushar! Bor gapni bilganlarida, balki ular go'dakka tuzukroq qarasharmidi.

— Nimani bilganlarida? — so'radi nozira. — Gapirsangiz-chi, axir!

— Go'dak o'sib, katta bo'lib qoldi, innaykeyin, quyib qo'yganday onasining o'zginasi edi: bolaning yuziga ko'zim tushdi deguncha, esimga kelaverar, sira unutilmasdim, — poyma-poy qilib so'zlashda davom etdi bemor, savolga e'tibor bermay. — Sho'rlikkina juvon! Xah sho'rlikkina-ya! Shundoq yoshgina edi-ya! Qo'zichoqday yuvoshginaydi-ya! Shoshmang. Sizga tag'in bitta gapni aytishim kerak. Axir, buni gapirib berganim yo'g'-a, hali sizga?

— Yo'-yo'q, — javob qaytardi nozira jon berayotgan kampirning zaiflashib borayotgan ovozi yaxshiroq eshitish uchun yanayam pastroq egilib. — Tezroq, bo'lmasa vaqt o'tadi!

— Yosh ona, — dedi kampir jon talvasasida tag'in ham kuchanib, — yosh ona o'lim azobi chang solganida qulog'imga pichirlab, agar bolasi tirik tug'lsa-yu, katta bo'lsa, ehtimol, shunday kun kelarki, u bechora yoshgina onasi haqida bor gapni eshitib, o'zini sharmisor hisoblamas, dedi. «Yo muruvvatli egam! — degandi u. — O'g'il bo'ladimi yo qizmi, musibatlarga to'la bu dunyoda unga do'st-u yor ato qil, shum qismat izmiga tashlab ketilgan bechora, so'qqabosh yetimginaga rahming kelsin!»

— Bolaning oti nimaydi? — so'radi nozira.

— Unga Oliver deb ot qo'yishdi, — xasta ovoz bilan javob qildi kampir. — Men o'g'irlagan tilla buyum...

— Ha, ha... aytavering! — qichqirib yubordi nozira.

U sabrsizlik bilan javobni eshitish uchun kampirning ustiga yanayam engashdi, biroq kampir qaddini bukmay, tag'in ohista ko'tarilib, turib o'tirarkan, beixtiyor o'zini orqaga otdi; kampir ikkala qo'li bilan adyolni changallab, nimalardir deya g'o'ldiradi-yu, shilq etib yostiqa tushdi.

— Joni uzilibdi-ku! — dedi eshik ochilishi bilan hujraga otilib kirgan kampirlardan biri.

— Birortayam ma'nili gap aytmadiyam, — javob qaytardi nozira va xotirjamgina chiqib ketdi.

Ikkala kampir o'zlarining mash'um vazifalarini ado etishga hozirlik ko'risharkan, aftidan, ishga shunday kirishib ketishgan ediki, bunga javob qaytarishga ham fursatlari bo'lmadi.

---

---

XXV BOB. YANA MISTER FEDJIN VA UNING SHIRKATI  
XUSUSIDA HIKOYA QILADI

Chekka viloyatdagi mehnat uyida bu voqea sodir bo'lib turgan bir pallada mister Fedjin o'zining ko'hna uyasida — qiz Oliverni yetaklab chiqib ketgan aynan o'sha xonada — o't pastgina lipillab, tutab turgan o'choq oldida nimanidir xayol surib o'tirardi. Tizzasida dam beradigan bosqoncha yotibdi, chamasi uning yordamida olovni tuzukroq alangalatish niyatida ko'rinadi, ammo o'yga tolib, bosqon ustiga qo'lini qo'ygancha, bosh barmog'ini iyagiga tirab o'tiribdi, ko'zlari parishonlik bilan zanglagan panjaraga tikilib qolgan.

Orqasidagi stol tegrasida Epchil Tullak, yosh Charli Beyts va mister Chitlinglar o'tirishibdi; uchovlari qarta o'yiniga sho'ng'ib ketishgan; Tullak «qalpoq qolip» bilan sherikchilikda Beyts va mister Chitlingga qarshi o'ynayapti. Nomlari zikr etilgan jentlmenlardan birinchisining hamishagi ajabtovur farosatli basharasi shy topda o'yinga batamom berilib ketgani, o'ylab o'ynayotgani va mister Chitlingning qartalarini o'rganayotgani, ya'ni qulay kezi kelib qoldi degunicha qiyalatib ko'z tashlab, qo'shnisining qartalarini kuzatib, shunga qarab oqilona o'ynayotgani tufaylidan yanada antiqa ko'rinardi. Sovuq kecha bo'lgani sababli Tullak shlyapasini yechmagandi, darvoqe, uning odati shunaqa edi. U trubkasini qattiq tishlab olgan, uni stolga qo'yib qo'yilgan ko'zadagi suvli jindan totinib qo'yish fursati yetdi deb hisoblagan paytidagina og'zidan olardi.

Yosh Beyts ham badiqqat o'ynar, biroq u tabiatan iste'dodli oshnasiga qaraganda xiyla ta'sirchanroq edi, shu bois suvli jindan bot-bot tatib turar, ustiga-ustak, har xil hazil-mutoyiba va kurakda turmaydigan, jiddiy o'yin paytida mutlaqo mos tushmaydigan beodobona koyishlar-la dimog'ini chog'lardi. Tullak bir necha marta, qalin do'stlik haq-huquqlariga tayanib, uni bunday nojo'ya xulq-u qiliqlari uchun koyidi ham, ammo yosh Beyts bu pand-u nasihatlarga beqiyos xushfe'llik-la quloq berib, do'stiga yo baloga daf bo'lishni, boshiga qop kiyib ola qolishni, yoxud xuddi shu ohangda va xuddi shu xildagi nazokatli askiyalar bilan javob qaytararkan, bu javoblarning naq o'rnida ishlatilgani mister Chitlingni qoyil qoldirardi. Shunisi qiziqki, keyingi jentlmen va uning sherigi, albatta yutqizishayotgan edi, bu hol yosh Beytsning jahlini chiqarish u yoqda tursin, chamasi, unga bitmas-tu-

ganmas halovat bag'ishlayotganga o'xshardi; negaki, u har o'yindan so'ng quloqni qomatga keltirib xoxolar va tug'ilganidan beriga bu-naqangi qoyilmaqom o'yinni ko'rmaganiga ishontirmoqchi bo'lardi.

— Kuyib ketdi, — dedi mister Chitling afti tirishib, nimchasi cho'ntagidan yarim kronlik tangani chiqarar ekan. — Senga o'xshagan bolani birinchi marta ko'ryapman, Jek. Nuqul yutganing-yutgan. Charli ikkovimizga yaxshi qarta chiqqanidayam yutib yotib-san, biz bo'lsak sira epini qilolmayapmiz.

Ushbu holning aynan o'zimi yoxud bu so'zlarning g'amgin ohangda aytilganimi, har qalay Charli Beytsning shunaqangi zavqini keltirdiki, uning navbatdagi qahqahasi juhudni xayolot og'ushidan chiqib, nima gap deb so'rashga majbur etdi.

— Nima gap deysizmi, Fedjin?! — dedi Charli qiyqirib. — Afsus, o'yinni tomosha qilmadingiz-da. Tommi Chitling aqalli bir marta yutmasa-ya, ikkovimiz Tullak bilan «qalpoq qolip»ga qarshi o'ynadik.

— Shundoq denglar-a, — dedi juhud irshayib, irshayishi esa buning sababi unga ayon ekanidan dalolat berib turardi. — Yana bir qur o'ynab ko'ring, Tom, tag'in bir qo'r.

— Shunisiyam yetadi, tashakkur, Fedjin, — javob qildi mister Chitling. — yetadi! Hozir uning toza omadi kelib turibdi, bas kelib bo'psan!

— Hi-hi-hi, voy azizginam-ey! — kulib yubordi juhud. — Ertalab barvaqtroq turilsa, ana o'shandagina Tullakni yutsa bo'ladi.

— Ertalab! — takrorladi Charli Beyts. — Agar uni yutmoqchi bo'lsangiz, kechqurundan boshmog'ingizni kiyib, ikkala ko'zingizga bittadan durbin, ustamasiga yelkangizga ham binokl osib olishingizga to'g'ri keladi.

Mister Daukins ushbu iltifotli xushomadlarni faylasufona xotirjamlik bilan tinglab turdi-da, hozir bo'lganlardan xohlaganiga kim katta qarta olishga bir shillingdan o'ynashni taklif qildi. Hech qaysilari talabgor bo'lib chiqmagach, u stolga ermak qilib bo'r bilan Nyuget turmasining umumiy tarxini chiza boshladi; bu ermagi ustida esa u cho'zib hushtak chalardi.

— Sen bilan ulfatchilik qilgan odam o'larday xit bo'lib ketadi-da, Tommi! — dedi Tullak uzoq jimlikdan so'ng hushtak chalishni bas qilib, mister Chitlingga o'girilar ekan. — Ayting-chi, Fedjin, sizningcha u nimalarni o'ylayptiikin?

— Men qayoqdan bilay, azizim? — javob qaytardi bosqoncha bilan o'choqdagi o'tga dam berayotgan juhud burilib qaragancha. — Ehtimol, yutqizig'i yoki o'zi yaqindagina tark etgan ovloqdaggi xilvatgohi to'g'risida o'ylayotgandir. Hi-hi-hi!.. To'g'ri topdim-mi, azizim?

— Sirayam-da, — e'tiroz bildirdi Tullak javob berishga hozirlangan mister Chitlingning og'ziga urib. — Xo'sh, sen nima deysan, Charli?

— Mening gapim shuki, — javob berdi yosh Beyts kulimsirab, — u Betsiga oshiqi beqaror bo'lib qolgan. Ana-ana, qizarib ketganini ko'ringlar. Yo Tangrim! Qoyil-e! Tommi Chitling oshiqi beqaror-a!.. Eh, Fedjin, Fedjin, ana shunaqangi hangomalar!

Yosh Beyts nazokatli mayl-u havas qurboni bo'lmish mister Chitlingning ahvoli-ruhiyasini qotirib namoyish etishga berilib ketib kursi suyanchig'iga shunday shaxt bilan suyandiki, muvozanatini yo'qotib, gursillab yerga yiqildi-yu, toki xoxolab qongunicha uzala tushib yotaverdi (bu hol uning zavqiga zarracha putur yetkazolmadi), keyin ilgarigi joyiga o'tirib, tag'in qah-qah uraverdi.

— Parvo qilmang unga, azizim, — dedi juhud, mister Daukinga ko'z qisib qo'yib, jazosini berayotgandek yosh Beytsni dam beruvchi bosqoncha bilan tushirar ekan. — Betsi — ajoyib qiz. Etagidan mahkamroq tuting, Tom. Qadriga yeting.

— Bir narsani aytib qo'yay, Fedjin, — javob qaytardi mister Chitling duvva qizarib, — buning hech kimga daxli yo'q.

— Albatta, — tasdiqladi juhud. — Charli shunchaki valaqlayapti, xolos. Parvo qilmang unga, azizim, e'tibor bermang. Betsi — ajoyib qiz. Uning aytganini qilavering, Tom, badavlat bo'lib ketasiz shunda.

— O'zimam xuddi u aytganday qilyapman, — javob berdi mister Chitling. — Uning gapiga kirmaganimda meni qo'lga tushirisholmagan bo'lardi. Bu siz uchun qo'l keldi, to'g'rimasmi, Fedjin? Olti hafta degan nima bo'пти, axir. Ertami yo kech, bari bir shunday bo'lishi turgan gap edi, shuning-chun ko'chada sandiroqlab yurging kelmaydigan qishda bo'lgani yaxshimasmi bu, to'g'rimi, Fedjin?

— Mutlaqo to'g'ri, azizim, — javob qildi juhud.

— Tom, basharti Bet bunaqangi yaxshi maslahat bergan ekan, unda yana bir marta o'sha yerda o'tirib chiqishga rozi bo'larmiding? — so'radi Tullak Charli bilan juhudga ko'z qisib qo'yarkan.

— Yo'q demagan bo'lardim, demoqchiman! — javob qaytardi Tom jahl bilan. — Bo'ldi endi! Shuni bilmoqchiman, qani, mendan boshqa yana kim shundoq deya oladi, Fedjin?

— Hech kim, azizim, — javob qildi juhud, — biror inson bolasi, Tom. Sizdan bo'lak shundoq deya oladigan bironta odamni bilmayman. Hech zog'ni, azizim.

— Agar uni sotganimda, meni qo'yib yuborishardi. To'g'rimi, Fedjin? — asabiy davom ettirdi so'zini bechora, laqma, dumbul-tentak yigit. — Buning uchun bir og'izgina gapim kifoya edi. To'g'rimi, Fedjin?

— Shubhasiz, qo'yib yuborishardi, azizim, — dedi juhud.

— Lekin men sotmadim. To'g'rimi, Fedjin? — dedi Tom, shiddatla ustma-ust savol yog'dirib.

— Yo'q, yo'q, shubhasiz, miq etmadingiz, — javob qildi juhud, — siz unaqangi sotadigan nomardlardanmassiz. Mard yigitsiz, azizim!

— Ha, shundoq bo'lsa kerak, — javob qaytardi Tom atrofiga alanglab. — Rostki shundoq ekan, buni qanaqangi kuladigan joyi bor ekan, a, Fedjin?

Mister Chitlingning hazilakam achchiqlanmaganini ko'rgan juhud, hech kim kulayotgani yo'q, deb ishontirishga shoshildi; xonada hozir bo'lganlarning unga nisbatan jiddiy muomala qilishlariga erishmoqlik uchun u birinchi dilozor yosh Beytsni koyidi. Ammo, baxtga qarshi, Charli, umrida biron marta hozirgidek jiddiy bo'lmaganini aytishga chog'lanib, og'iz juftladi-yu, o'zini tiyolmay qolib, shunaqangi xoxolab yubordiki, bundan haqoratlangan mister Chitling takallufotni yig'ishtirib qo'yib, xonaning narigi burchiga otildi va dilozoriga tashlandi, lekin ta'qibchilarga chap berishning poy-havosini olgan yigitcha chapdastlik bilan o'zini opqochib qoldi va bunda shunday qulay fursatni tanladiki, zarba quvnoq kekxa jentlmenning ko'kragiga tegib, galdirab borib, hansiragancha devorga suyanib qoldi, mister Chitling bo'lsa unga dahshat-la javdirardi.

— Jim! — gichqirdi Tullak xuddi shu lahzada. — Bir nima ting'illayapti.

U shamni olib, pisibgina zinadan ko'tarila boshladi.

Yana toqatsizlik bilan qo'ng'iroqcha jing'illadi. Qolganlar qorong'ida o'tirishardi. Tezda Tullak qaytib kelib, sirli bir qiyofada Fedjingga nimadir deb pichirladi.

— Qanaqasiga? — chiyilladi juhud. — Bir o'zimi?

Tullak tasdiq ma'nosida bosh iring'adi-da, qo'li bilan sham shu'lasini to'sib, Charli Beytsga imo-ishora bilan endi kulmagani ma'qul ekanini o'g'rincha shama qildi. Ushbu do'stona xizmatdan so'ng juhudga qarab, uning buyrug'ini kuta boshladi.

Bir necha soniya davomida chol sarg'imtil barmog'ini qimtigan-cha o'yga tolib turdi, xuddi bir narsadan xavotirlanayotgandek va eng xunuk xabarni eshitishdan qo'rqayotgandek yuzi pirpirab uchardi. Nihoyat, u boshini ko'tardi.

— Qayerda u? — so'radi juhud.

Tullak shiftni ko'rsatdi va go'yo xonadan chiqib ketmoqchidek bir harakat qildi.

— Ha, — dedi juhud, sassiz savolga javob berib. — Bu yoqqa, pastga boshlab tush uni. Jim!.. Sekinroq, Charli! Tinchlaning, Tom! Yuvib oling!

Mazkur lo'nda farmoyishni Charli Beyts va uning hozirgigina raqibi itoatkorlik bilan, hayallamay ado etdilar. Sham ko'targan Tullak bilan keng-u kalta dag'al korjoma kiygan kishi xonaga kirgan paytida ularning shu yerda ekanidan dalolat beruvchi tiq etgan ovoz eshiltimasdi. Korjomali odam xonaga zud ko'z yugurtib chiqqach, iyagi va og'zini berkitib turgan enli sharfini yechgandi, abjir Tobi Krekitning horg'in, yuvuqsiz, soqoli o'siq basharasi namoyon bo'ldi.

— Ahvollar qalay, Fegi? — dedi ushbu muhtaram jentlmen juhudga bosh silkib. — Tullak, manavi sharfni movut shlyapamga solib qo'y, toki bu yerdan tuyog'imni shiqillatayotganimda qayerdan ola ketishim lozimligini bilay. Ana shunaqangi zamonlarga qoldi kunimiz! Sendan esa manavi qari firibgarga qaraganda xiyla tuzukroq tomteshar chiqadi.

U shu so'zlar bilan ko'ylagi etagini cholvori ichidan sug'urib olib, beliga o'radi-da, kursini o'tga yaqinroq surib, oyog'ini o'choq panjarasiga qo'ydi.

— Buni qarang-a, Fegi, — dedi u qo'nji qaytarma etigiga g'amgin ishora qilib. — Dey va Martin moyidan\* iskamaganiga qancha kun bo'lganini o'zingiz bilasiz, xudo haqqi, biror martayam tozalanmadi u!.. Menga bunaqangi ko'zingizni chaqchaytirishingizning hojati yo'q, qariya. Hammasining o'z vaqt-fursati bor. To qornimni to'yg'azib, otib olmagunimcha ishdan gap ocholmayman. Qani, bu yoqqa ovqat keltiringlar, keyingi uch kun mobaynida birinchi marotaba xotirjam tamaddi qilay!

Juhud Tullakka stolga yeguliklarni keltirib qo'yishni imo qildi-da, qulfbuzarning ro'parasiga o'tirib kuta boshladi.

Ravshan ko'rinib turibdiki, Tobi suhbatni boshlashga aslo shoshi-layotgani yo'q. Avvaliga juhud, go'yo qanday xabar keltirganini yuz ifodasidan uqib olmoqchidek, uning basharasini sabr-toqat-la kuzatish bilan qanoatlandi-yu, lekin bundan hech nima chiqmadi. Tobi charchagan va qiynalgan ko'rinardi, biroq basharasi odatdagidek beparvo-xotirjam, iflosligi, soqol-mo'ylovi qirilmaganiga qaramay, chehrasida hanuz abjir Krekitga xos mag'rurona, bema'no kulgi aks etib turardi. Shunda toqati toq bo'lgan juhud u og'ziga tashlayotgan har bir luqmani kuzatishga tushdi va hayajonini yashirmay, xonada nari borib-beri kela boshladi. Ammo bu harakatlarining baridan zarracha naf chiqmadi.

Tobi to obdan to'ygunicha pinagini buzmay, bafurja tanovul qilaverdi; so'ng Tullakka xonadan chiqib turishni buyurib, eshikni berkitib, stakanga suvli viskidan quydi-da, suhbatga shaylandi.

— Avvalambor, Fegi... — deya gap boshladi Tobi.

— Xo'sh, xo'sh? — uning so'zini bo'ldi juhud kursisini yaqinroq surib.

Mister Krekit suvli viskidan totinish uchun picha hayallab, juda ajoyib ekan, deb qo'ydi; keyin oyog'ini ko'zlari barobarida balandga ko'tarib, pastak o'choq tepasidagi taxtaga tirab oldi-da, xotirjam so'zlashda davom etdi.

— Avvalambor, Fegi, — dedi qulfbuzar, — Billning ahvoli qalay?

— Nima! — chinqirib yubordi juhud kursidan sapchib turarkan.

— Bu qanaqasi, nahotki siz demoqchisizki?.. — deya savol berishga chog'landi Tobi rangi o'chib.

— Demoqchimishman! — bo'kirdi juhud quturib yer depsirkan.

— Qayerda ular? Sayks bilan bola qayerda? Qayerda edi ular? Qayerda berkinib yotishibdi? Nimaga bu yoqqa kelishmadi?

— Uyni o'marish rejamiz barbod bo'ldi, — dedi sekingina Tobi.

— Bundan xabarim bor, — dedi juhud cho'ntagidan gazeta chiqarib, uni ko'rsatar ekan. — Keyin nima bo'ldi?

— Ular otishdi, bolani yaralashdi. Bolani olvolib uyning orqa tomonidagi daladan qochishga tushdik, o'zimiz ham olg'a qarab quzg'undan tez uchdig-ov... g'ov va zovurlardan sakrab yugurdik. Orqamizdan quvib kelishardi. Padariga la'nat! Tevarak-atrofdagi aholi uyg'onib ketib, itlarini olkishlashdi ketimizdan...

— Bola, bola-chi?

— Bill uni opichlagancha quyunday uchib borardi. Keyin uni ikkovlashib ko'targani to'xtadik; boshi shilqillab osilib qolgan, tanasi muzdek edi. Anavilar bo'lsa izma-iz quvib kelishayotgandi. Shunda sichqonni ini ming tanga bo'lib, har kim o'z jonini saqlab, bo'ynini sirtmoqdan asrash payiga tushib qoldi! Biz ajralishdik, bolani esa zovurga yotqizib qo'ydik. Tirikmidi yo o'likmidi — bilmayman.

Juhud bu yog'ini eshitib o'tirmadi. Voh deb, boshini changallaganicha uydan yugurib chiqib ketdi.

---

---

XXVI BOB. SIRLI BIR ZOT PAYDO BO'LGANI VA USHBU  
HIKOYA BILAN CHAMBARCHAS BOG'LIQ  
HODISALAR HAQIDA HIKOYA QILADI

Chol Tobi Krekit yetkazgan xabarlardan es-hushini yig'ishtirolmay yugurganicha ko'cha muyulishiga borib qolgan edi. U aql-u hushini yo'qotib, esankiragancha hanuz yugurgilab borarkan, banogoh yonginasidan g'izillab o'tayotgan izvoshning shovqini va yo'lovchilarning cholning joniga tajovuz qilgan xavfni ko'rib baqirib yuborishlari uni yo'lkaga chiqib olishga majbur etdi. Shundan so'ng, u iloji boricha gavjum ko'chalarni chetlab, aylanma yo'llar va past ko'cha-yu tor ko'chalardan o'tib, nihoyat Snou-Xillga chiqib bordi. Bu yerda u odimini yanayam tezlatdi va toki o'zini qadrdon maskanida his qilib, odati bo'yicha imillab, oyog'ini surgab bosa boshladi, qandaydir bir hovliga kirib borgunicha biror marta to'xtamadi ham, faqat shundagina u erkin nafas olayotganday tuyuldi.

Snou-Xill Xolborn-Xillga kelib tutashadigan joydan beriroqda, Sitidan boriladigan bo'lsa, o'ng tarafda Safren-Xillga olib chiqadigan qorong'i, ko'rimsiz jinko'cha boshlanadi. Ko'cha bo'ylab tizilgan irkit do'konchalarda katta-yu kichik, ming bir xil tusli tutilgan ipak dastro'mollar dasta-dasta qilib uyib tashlangan, zotan kissavurlardan ro'molchalarni sotib oladigan do'kondorlar ana shu yerda turadilar. Do'kon ichkarisidagi peshtaxta-yu tokchalarga ro'molchalar uyib tashlangan, oyna orqasidagi qoziqlarga yuzlab dastro'mollar ilib qo'yilgan yoki eshik yondorlarida hilpirab turibdi. Fild-Leynning sarhadi qanchalik kichik bo'lmasin, bu yerda o'z sartaroshxonalari, qahvahona, pivoxona va o'z baliqxonolari bor. Bu yer o'ziga xos bir o'lka, kallai saharlab va qosh qorayishi bilan indamas olibsotarlarda tanda qo'yadigan, zimiston ichkari xonalarda imi-jimida ishlarini bitirib, qanday kelgan bo'lsalar, o'shandayicha pinhona jo'nab qoladigan xashaki o'g'rilar bozori. Bu yerda ko'ylakfurush, etikdo'z va eskifurushlar o'z mollarini yoyib qo'yadi, bu narsalar patak o'g'rilar uchun do'kon lavhasi vazifasini o'taydi: bu yerda zanglagan temirtersak, suyak-sayoq uyumlari, mog'or bosgan jun mato va gazmol laxtak-luxtaklari qorong'i yerto'lalarda chirib, ilvirab yotadi.

Juhud xuddi ana shu jinko'chaga burildi. Chol mazkur olamning chirkin-u arvohsifat istiqomatchilariga yaxshi tanish edi, ulardan ba'zilari yonginalaridan o'tib borayotganida qariyaga eski oshnala-

riday bosh irg'ab salom berishardi. Ularning salomiga chol ham bosh irg'ab javob qaytarardi, lekin u jinko'chaning oxiriga yetguniga qadar birortalari bilan so'z qotishmadi; ko'cha oxiriga yetgach esa to'xtab, pak-pakana, gumbazday gavdasini bir amallab bolalar kreslosiga joylashtirgan va do'koni ostonasida trubkasini buruqsatib o'tirgan bir do'kondor bilan gaplashdi.

— Sizni ko'rganni o'zidayoq, mister Fedjin, odamni bahri-dili ochilib, dardi-kasali tumanday tarqab ketadi! — dedi bu muhtaram do'kondor sog'lig'ini so'ragan juhudning savoliga javoban.

— Qo'shnilaringiz odamni toza qoniga tashna qilishdi-da, Layvli, — dedi Fedjin qoshlarini chimirib, qo'llarini chalishtirar ekan.

— Ha, ikki marta shunaqangi shikoyatni eshitishimga to'g'ri keldi, — javob qildi do'kondor. — Lekigin bot kirishgan tez qaytadi, degan gap ham bor-ku axir, to'g'rimasmi?

Fedjin ma'qullab bosh irg'atdi. Safren-Xill tomonga imo qilib, bugun oqshom u yoqqa biror kimsa kelgan-kelmaganini so'radi.

— «Majruhlar»gami? — so'radi do'kondor.

Juhud yana bosh irg'atdi.

— Shoshmang-chi, — dedi u odam o'ylaninqirab. — Ha, besh-olti kishi o'tishdi u yoqqa. Menimcha, sizning do'stingiz yo'q u yerda.

— Sayks yo'qmi u yerda? — so'radi juhud, aft-angori bag'oyat bezovta edi shu topda.

— Non istventus<sup>1</sup>, qonunshunoslar aytganiday, — javob qaytardi pakana boshini sarak-sarak qilib, g'oyatda ayyorona bir qiyofada. — Bugun menga tegishli biron nimalari yo'qmidi?

— Bugun hech nima yo'q, — dedi juhud uning yonidan jilarkan.

— «Majruhlar»ga ketyapsizmi, Fedjin? — orqasidan qichqirdi pakana. — Shoshmang! Siz bilan bittagina qadah otsam degandim!

Biroq juhud o'girilib qarab, yolg'iz bo'lishni ma'qul ko'rganini anglatib qo'l silkigani va buning ustiga do'kondorning kreslochadan turishi mahollik qilgani tufayli ushbu safar «Majruhlar» lavhasi osiqlik qovoqxona mister Layvlidek zotning tashrifiga muyassar bo'lolmadi. Bu paytda, do'kondor oyoqqa turgan pallada juhud ko'zdan g'oyib bo'lgandi, shu boisdan mister Layvli oyoq uchiga ko'tarilib, uni ko'rarman, degan umidi puchga chiqdi-yu, yana o'z tanasini kreslochaga joylashtirdi va qarama-qarshi do'konchadagi xonim bilan bosh irg'ab salomlasharkan, bu bilan shubha hamda ishonchsizlik ifodasini izhor etgan bo'lib, tag'in trubkasini tutatishga kirishdi.

<sup>1</sup> Lotincha yuridik «Non est inventus» degan iboraning buzib ishlatilgani — «Topilgani yo'q».

«Uch majruh» yoki aniqrogʻi, «Majruhlar» — zero bu maskan hamishagi mijozlariga ana shu nomda mashhur edi — mister Sayks oʻz iti bilan qadam-ranjida qilib turadigan qovoqxona edi. Fedjin peshtaxta ortida turgan odamga imo qilib, zinadan yuqoriga koʻtarildi, eshikni ochib, oʻzini lip etgancha xonaga oldi-yu, birovni izlayotgandek qoʻlini soyabon qilib, bezovta bir holatda atrofga alanglay boshladi.

Xonani ikkita gazchiroq yoritib turardi; deraza qopqoqlar taqataq berkitilib, tusi aynigan qizil pardalar zichlab yopib qoʻyilganidan tashqaridan qilday ham nur tushmasdi. Tutab yonayotgan chiroq dudi aynitmasin uchun shift qora rangga boʻyalgan, keyin xona shunaqangi quyuq tamaki tutuniga toʻlgandiki, oldiniga hech nimani koʻrib boʻlmadi. Tutun qiya ochiq eshikdan asta-sekin sizib chiqib ketgach esa, xonani toʻldirgan olagʻovur singari betartib-u olaquroq odamlar toʻdasi koʻzga tashlandi va koʻzi ushbu manzaraga koʻnika borgan sayin kuzatuvchi uzun stol tegrasida ayol-u erkaklardan tashkil topgan talaygina odamlar davra qurishganiga qanoat hosil qila bordi: stolning toʻrida bolgʻacha ushlagan maʼraka raisi joylashib olgan, bir burchakdagi siniq fortepyano yonida boʻlsa burni sholgʻomday qip-qizil, tishi ogʻriyotgani sababli chakagini bogʻlab olgan mashshoq jentlmen oʻtirardi.

Fedjin lip etib oʻzini ichkariga olgan damda mashshoq jentlmenning barmoqlari musiqa debochasini ijro etgandek klavishlar uzra bir karra oʻrmlab oʻtdi-yu, oʻtirganlarning hammasi ovozlari baralla qoʻygancha qoʻshiq aytib berishni soʻrashga tushdilar; qiyqiriqlar tinishi bilanoq yoshgina xonim toʻrt misra-toʻrt misradan iborat kalta qoʻshiqlar hadya etib, jamoatni xushnud qilishga kirishdi, toʻrtliklar orasida esa mashshoq kuyni iloji boricha baland pardada boshdan-oyoq takroran chalib chiqardi. Qoʻshiq tugagach, rais oʻz fikr-mulohazasini bayon qildi, shundan soʻng uning oʻng va soʻlida oʻtirgan sanʼatchi jentlmenlar duet ijro etib berish istaklari borligini bildirdilar va muvaffaqiyatli ijro etdilar ham.

Davradagilar orasida ajralib turgan bir xil basharalarni kuzatish qiziq edi. Avvalo — raisning oʻzi (qovoqxona sohibi), qoʻpol, gungursday, besoʻnaqay kishi boʻlib, toki ashulabozlik davom etarkan, koʻzlari toʻrt tomonga javdirab olma-kesak terib, oʻzini koʻp qatori xursandchilikka qatnashayotgan qilib koʻrsatayotgan esa-da, sodir boʻlayotgan bari narsani koʻrib, gapirilayotgan jamiki gaplarni eshitib turar, qulogʻi ovda edi. Yonida oʻtirgan ashulachilar ulfatlarning maqtovlariga oʻz kasb-korlariga xos bir tarzda beparvo quloq tutib, navbati bilan qiziqqon muxlislari tutgan suv aralash viskili qadahlarni lablariga tekkazib qoʻyishar va simirishardi; bu muxlislarning

taraqqiyot jarayonining deyarli jamiki bosqichi o'z muhrini bosgan turqlari aynan jirkanchligi-yu razolatgo'yligi kishi diqqatini tortardi. Bu basharlarda ayyorlik, toshbag'irlik va badmastlik yaqqol aks etib turardi; ayollarga kelganda esa, ulardan ayrimlari ko'z o'ngingizda go'yo xiralashib, tarovatini yo'qotib borayotgandek tuyulguvchi yoshlik malohati-yu durkunligini saqlab qolganday edi hali-hozircha; bir xillari bo'lsa o'z jinlariga xos fazilat-u belgilardan mutlaqo ayrilgan va jirkanch buzqlik hamda jinoyatkorlik timsoliga aylanib qolganlar, xolos; bu qizlar, bu yoshgina juvonlar — ulardan birortasi ham hali yoshlik ostonasidan hatlab o'tmagan — mazkur qabih fahshxonada eng qayg'uli, eng mudhish manzara kasb etardi.

Bu orada jiddiy o'y-mulohazalar aslo tashvish-u xavotirga sololmagan Fedjin zo'r berib o'tirganlarning aftiga tikilardi, chamasi, izlayotgan odamini topolmayotgan ko'rinadi. Nihoyat, u raislik qilayotgan kimsaning nigohini uchratishga muvaffaq bo'lgach, unga imi-jimida imo qildi-da, qanday kirib kelgan bo'lsa, xonadan xuddi o'shanday lip etib chiqib ketdi.

— Qanday xizmatlari boriydi, mister Fedjin? — so'radi rais uning orqasidan dahlizga chiqarkan. — Davramizga qo'shilishga mayllari qalay? Hammamizni, ha, barchamizni boshimiz osmonga yetardi-da.

Juhud bafurja bosh chayqab, shivirlab so'radi:

— Shu yerdami u?

— Yo'q, — javob qildi unisi.

— Barnidan ham dom-darak yo'qmi?

— Hech qanaqangi, — javob qaytardi «Majruhlar» sohibi, zero bu o'sha edi. — Hammasi bosdi-bosdi bo'lmagunicha Barni pildirp-is yotaveradi. Imoningiz komil bo'laversin, u yoqda izlarini iskab qolishibdi, shuning uchun u mabodo qorasini ko'rsatgudek bo'lsa, anavilarni o'sha zahotiyoyq ilintirishlari aniq edi. Barniga balo ham urgani yo'q, unda allaqachon eshitardim. Garov boylashamanki, Barni o'zini azamatlarcha tutyapti. Undan xavotirlanmasangiz ham bo'ladi.

— Anavi bugun keladimi bu yerga? — so'radi juhud yana olmoshga ma'noli urg'u berib.

— Monksni aytyapsizmi? — ikkilanibroq so'radi sohib.

— Sekinroq!.. — pichirladi juhud. — Ha.

— Albatta, — javob berdi sohib cho'ntagidan oltin soatini chiqararkan. — Ilgarroq kelar deb kutgandim uni. Agar o'n daqiqacha kutsangiz, u...

— Yo'q, yo'q! — shosha-pisha dedi juhud, u ham so'z borayotgan odamni ko'rishni istayotganga, ham o'sha odamning yo'qligidan suyunayotganga o'xshardi. — Unga bu yerga uchrashgani kelganimni

aytib qo'ying; bugun oqshom menikiga borsin. Yo'q, yaxshisi, ertaga. Bugun yo'q bo'lsa, ertaga uchrashsak ham kechlik qilmas.

— Xo'p bo'ladi! — javob qildi sohib. — Yana nima dey?

— Hech nima, — dedi juhud zinadan tushayotib.

— Menga qarang, — ovozi xirillab shivirladi sohib zinapoya panjarasi ustidan engashib, — hozir bitta ishni do'ndiradigan juda qulay fursati-da! Fil Barker shu yerda; shundoq o'chib qolganki, istagan go'dak bermalol surobini to'g'rilasa bo'ladigan.

— E-ha! Aytmoqchi, Fil Barkerni hali fursati kelganicha yo'q, — javob qildi juhud boshini ko'tarib qararkan. — Fil to u bilan vidolashgunimizcha ishlab turishi kerak. Bora qoling, azizim, ulfatlaringizni yoniga, aytib qo'ying ularga... hayot ekanlar... xursandchilik qilib qolishsin! Xa-xa-xa!

Qovoqxona sohibi unga kulib javob qaytardi-da, mehmonlari yoniga qaytdi. Juhud yolg'iz qolgani zamonAQ aftiga tashvish hamda xavotirlanish ifodasi qalqdi. Bir nafaslik mulohazadan so'ng u izvosh yollab, izvoshchiga Betnel-Grin-Roudga haydashni buyurdi. Mister Sayksning qarorgohiga chorak chaqirim qolganda izvoshchini jo'natib yuborib, bu qisqagina masofani yayov bosib o'tdi.

— Qani ko'raylik-chi, — g'udrandi juhud eshikni tiqillatarkan, — agar bironta shumlikni o'ylagan bo'lsalar, qanchalik mug'ambir bo'lmang, jonginam, hamma siringizni bilib olaman.

U nazarda tutgan ayol o'z xonasida edi. Fedjin astagina zinadan chiqib borib, ortiqcha takallufsiz ichkari kirdi. Qiz yolg'iz edi; u sochlari yoyilib, titilib ketgan boshini stolga qo'yib o'tirardi.

«Ichib olibdi, — sovuqqonlik bilan xayolidan kechirdi juhud, — yoki, ehtimol, shunchaki nimaningdir azasini tutyapti».

Shu xayol bilan u eshikni berkitmoqchi bo'lib o'girildi, shovqinni eshitgan qiz seskanib ketdi. Cholning quv aftiga tikilganicha, biron yangilik yo'qmi, deb so'radi va choldan Tobi Krekit keltirgan xabar-ni eshitdi. Cholning gapi tugaganidan keyin u tag'in boyagi holatiga qaytdi, biroq bir og'iz ham churq etmadi. U sabr-toqat saqlagan ko'yi shamni nari surdi, jonsaraklik bilan ikki marta holatini o'zgartirdi, oyoqlarini tap-tap tashlab qo'ydi, shundan nariga o'tmadi.

Oradagi sukut davom etarkan, juhud bezovtalik bilan, Sayksning yashirincha qaytib kelganidan dalolat berguvchi hech qanaqangi belgi yo'qligiga qanoat hosil qilishni istaganday atrofga alangladi. Avzoyidan kuzatishdan qoniqish hosil qildi chog'i, ikki-uch bora yo'talib olib, gap ochishga urinib ko'rdi, biroq qiz, qarshisida misoli bir tosh turgandek, unga qatracha e'tibor bermadi. Oxiri chol yana bir kar-ra urinib ko'rishga chog'landi va qo'llarini bir-biriga ishqagan ko'yi, bag'oyat tilyog'lamalik ohangida suradi:

— Sizningcha qandoq, azizam, hozir Bill qayerda bo'lsaykin?

Qiz bunga javoban, qayerdaligini bilmadim, deya g'udrandi, ixrab, piqillashidan uning yig'layotganini bilsa bo'lardi.

— Bolakay-chi? — surishtirishni davom ettirdi juhud qizning yuziga qarashga tirishib. — Sho'rlik bolagina! Uni zovurga tashlab ketishibdi-ya! Nensi, buni o'zing bir o'ylab qaragin-a!

— Bu yerdan ko'ra bolakayga o'sha yoq yaxshi, — dedi qiz to'satdan boshini ko'tarib. — Agar buning evaziga Billning boshiga kulfat tushmaydigan bo'lsa, umid qilamanki, bola zovurda o'lib yotibdi, iloyo suyaklarigacha chirib bitsin o'shoqda.

— Nima-nima?! — hayrat-la xitob qildi juhud.

— Ha, umidim shu! — javob qaytardi qiz uning ko'zlariga tik boqib. — Ko'zimdan yo'qolganini, yomon kunlari orqada qolganini bilsam, suyunaman, shukr qilaman. Yonimda bo'lsa asti chidayolmayman. Unga qaradim deguncha — o'zim-o'zimga yomon ko'rinib ketaman, hammalaring jirkanch ko'rinasizlar.

— Safsata! — dedi juhud nafratomuz. — Sen mastsan...

— Shunaqami hali! — alam bilan nido soldi qiz. — Mast bo'lgan chog'imdayam, buni sizga daxli yo'q! Agar ixtiyor sizda bo'lganida bormi, meni faqat bugun emas, doim ichirib mast qilardingiz-a. Shu topda bu qilig'im ko'nglingizga o'tirishmay turibdi-a, to'g'rimasmi?

— To'ppa-to'g'ri! — javob qaytardi juhud darg'azab. — Ko'nglingma o'tirishmay turibdi!

— O'zgartira qoling bo'lmasa uni! — dedi qiz kulib.

— O'zgartiring! — baqirib berdi suhbatdoshining sira kutilmagan sarkashligi va bu tungi o'kinchli va alamli voqealar sabr kosasini limmo-lim to'ldirib yuborgan juhud. — Ha, o'zgartiraman ham! Quloq sol menga, qizgina! Eshit — Sayksni g'ippa giribonidan olish uchun (o'shaning ho'kizisifat bo'ynidan mana shu barmoqlarim mana bundoq qilib g'ippa olganday) ikki og'iz gapim kifoya. Bordi-yu o'zi qaytsa-yu, bolani o'shoqqa tashlab kelsa, agar o'zi qutulib kelsa-yu, menga bolaning tirigi yo o'ligini olib kelib bermaydigan bo'lsa, basharti uning Jek Ketchning\* qo'liga tushishini xohlamasang, uni o'z qo'ling bilan o'ldir! Mana shu xonaga kirib kelgan zahotiyoc o'ldir, yo'qsa, gapim yodingda bo'lsin — kech bo'ladi.

— Bu nima deganingiz? — beixtiyor xitob qildi qiz.

— Bu nima deganingiz? — deya takrorladi Fedjin jazavada hushini yo'qotayozib. — Bu bolakay yuzlab funt turadi-ya, shundoq bo'lgach, hech qanaqangi xavf-xatarsiz, qurtdakkina boylikni qo'ldan chiqarib yuborib, qarab qolaverarkanmanmi, mast-alast to'daning ahmoqona tantiqligi jatiga-ya! Buning ustiga, faqat vasiyatgina kerak

bo'lgan g'irt iblisning o'zginasi bilan bitishib qo'ygan bir paytimdalya, innaykeyin u... haligi... haligi...

Nafasi bo'g'ziga tiqilgan chol kerakli so'zni izlab duduqlanib qoldi, biroq shu ondayoq junbishga kelgan g'azabini jilovlab oldi-yu, muomalasi mutlaqo o'zgardi-qo'ydi. Birgina lahza burun changak panjalari-la havoga chang solib, ko'zlari chaqchayib, darg'azablikdan rangi ko'karib turgan bo'lsa, endi u kursiga cho'kdi, g'ujanak bo'lib, qandaydir qabihona bir sirni o'z og'zim bilan gullab qo'ymadimmi degan xavfda qaltiray boshladi. Qisqagina sukutdan so'ng suhbatdoshiga ko'z qirini tashlashga jur'at etdi. Aftidan, u xiyol tinchlandi chog'i, zotan chol qizni dastlab qay holatda uchratgan bo'lsa, o'sha holatda, boyagidek loqayd-u karaxt o'tirganini ko'rdi.

— Nensi, jonginam! — dedi juhud xirillab, odatdagi ovozi bilan. — Gapimni eshitdingmi, azizam?

— Tirg'alavermang hozir menga, Fedjin, — javob berdi qiz boshini erinibgina ko'tarib. — Agar Bill bu gal uddalolmagan bo'lsa, boshqa safar eplashtiradi. Ozmuncha yaxshi ishni bajardimi siz uchun, agar qo'lidan kelsa tag'in ozmuncha ishni do'ndirib bermaydi. Bordi-yu qo'lidan kelmasa, unda, demak, bu to'g'rida gapirib o'tirishning hojatiyam yo'q.

— Xo'sh, bola-chi, bola nima bo'ladi, azizam?.. — so'radi juhud qo'llarini asabiy ishqab.

— Bolaning joni, hammamiz qatori, xavf ostida, — shartta uning og'ziga urdi Nensi. — Aytyapman-ku sizga: umid qilamanki, u o'lgan va jamiki jabr-sitamlardan, sizdan qutulgan — agar Billga hech nima bo'lmasagina, albatta. Tobi qutulib qolgan ekanmi, unda turgan gapki, Bill ham xavf-xatarsiz bo'lishi kerak, chunki Bill Tobiga o'xshaganlarning ikkitasiga arziydi.

— Xo'sh, men aytgan gap xususida nima deysan, azizam? — so'radi juhud chaqnab turgan ko'zlarini qizdan uzmay.

— Agar siz uchun biron nima qilishimni xohlayotgan bo'lsangiz, hammasini bir boshdan qaytaring, — javob berdi Nensi. — Yaxshisi, buni ertaga qoldira turganingiz ma'qulmidi. Bir nafasagina hushimni joyiga keltirgandingiz, lekin hozir tag'in karaxt bo'lib qoldim.

Fedjin ehtiyotsizlik qilib og'zidan chiqib ketgan shamaga qiz e'tibor bergan-bermaganini aniqlash maqsadida yana bir necha savol berdi; ammo qiz unga shundayin bajonidil javob qaytarar va badanni teshib yuborgudek qarashlarini shunchalik beparvolik bilan qarshi olardiki, oqibatda cholning ilk taassuroti — qiz mast degan xayoli uzil-kesil qat'iylashdi.

Nensi chindan ham juhudning zaifa shogirdlari orasida keng tarqalgan, yosh bolalik chog'laridanoq qaytarish o'rniga ustoz-

lari atayin rag'batlantiradigan shunday qusurga muhtalo edi. Uning xunuk, irkit qiyofasi, xonani tutgan o'tkir jin hidi cholning taxmini to'g'ri ekanligini yetarli darajada tasdiqlab turardi. Yuqorida tavsiflab o'tganimiz jazavadan keyin qizning oldiniga allaqanday sarxush holatga tushgani, so'ngra esa hayajoni jo'shib, buning ta'sirida dam ko'zyoshi qilgani, dam: «Noumid bo'lmang!» — deya har maqomda nido solgani va qayliqlarning urishi doka ro'molning qurishi, degan qabilda mulohaza yuritganidan bunaqangi ishlarda tajribasi katta mister Fedjin, zo'r mamnuniyat bilan, qizning g'irt mastligiga ishonch hosil etdi.

Ushbu kashfiyotdan ko'ngli joyiga tushgan, bir kesak bilan ikki quyonni mo'ljalga olgan, ya'ni qizga o'sha oqshom eshitganlarining barini yetkazgan va Sayksning yo'qligiga o'z ko'zlari bilan ishongan mister Fedjin uyga qarab jo'nadi. Uning yosh suhbatdoshi esa boshini stolga qo'yganча uyquga ketdi.

Tun yarimlashiga bir soatcha vaqt qolgandi. Zim-ziyo, izg'irin kecha edi, shu bois Fedjinning hayallash istagi yo'q edi. Ko'chada daydiyotgan shamol go'yo yo'lovchi-o'tkinchilarni — o'tkinchilar nihoyatda siyrak, ular, chamasi, uylariga oshiqishayotgandi — bamisoli gard-u changday supurib tashlaydiganday vajohatda esardi. Darvoqe, juhud uchun shamol ayni muddao edi shu pallada; Fedjin qo'qqisdan bostirib kelgan quyun epkini zo'ravonlik bilan qichab haydab qolganda qaltiraganча, bukchayib olg'a odimlayotgan edi.

U o'z ko'chasi muyulishiga yetib kelib, cho'ntagidagi eshik kalitini paypaslay boshlagan ham ediki, to'satdan zimiston yo'lakdan allaqanday qop-qora sharpa yo'rg'alab chiqdi-da, ko'chani kesib o'tib, sezdimaygina unga yaqinlashdi.

— Fedjin! — kimdir naq qulog'iga shivirladi.

— Eee! — xitob qildi juhud shartta o'g'irilib. — Siz...

— Ha! — uning so'zini bo'ldi notanish kimsa. — Bu yerda ikki soatdan beri sanqib yuribman. Jin ursin, qayoqda edingiz?

— Sizning dardi-kasalingizda yuribman, azizim, — javob qildi juhud bezovtalik-la suhbatdoshiga telmirkanicha, odimini sekinlatib. — Butun oqshom sizning ishingiz bilan o'tdi.

— Ha-ya, bo'lmasam-chi! — dedi notanish kimsa kulimsirab. — Xo'sh, bundan nima chiqdi?

— Ko'ngildagidek hech vaqo, — javob berdi juhud.

— Ishonamanki, ko'ngilsiz hech gap ham bo'lmagandir? — so'radi notanish kimsa kutilmaganda yurishdan to'xtab, hamrohiga hurkak nigoh tashlarkan.

Juhud boshini sarak-sarak qilib, javob berishga shaylangan edi, notanish kimsa uning gapini bo'lib, bu orada o'zlari yetib kelishgan

uyga ishora qildi va kutaverib muzlab ketgani, izg'irin suyak-suyagidan o'tib borayotgani tufayli ichkarida gaplashganlari ma'qul ekani ni aytdi.

Fedjin, aftidan, shunday bemahalda uyga birovni boshlab kira olmasligini bahona qilishga ham tayyor edi, hatto kaminga o't qalanmagandi, deb g'udranib ham qo'ydi, biroq hamrohi o'z talabini amirona ohangda takrorlagach, u eshikni ochdi va to sham keltirgunicha eshikni astagina yopib turishni iltimos qildi.

— Bu yer xuddi lahadday qop-qorong'i-ku, — dedi notanish kimsa timirskilanib bir necha qadam bosarkan. — Tezroq bo'la qoling.

— Eshikni yoping, — shivirladi Fedjin yo'lakning narigi boshidan.

Xuddi shu payt eshik taraqlab berkildi.

— Ayb mendamas, — dedi notanish kimsa paypaslanib. — Shamolda bekildi yo o'zi taraqlab yopildi — ikkisidan biri. Tezroq chiroq tuta qolsangiz-chi, bo'lmasa bu la'nati kovakdagi biron nimaga urib olib, peshonamni g'urra qilaman.

Fedjin zinapoyadan pisibgina oshxonaga tushdi. Birpas yo'qolib ketganidan so'ng, yoniq shamni ko'tarib keldi-da, Tobi Krekitning pastdagi ichkari xonada, bolalarning esa old xonada uxlab yotishganini xabar qildi. U notanish kimsaga orqamdan yuring, deya ishora qilib, zinapoyadan yuqorilay boshladi.

— Bu yerda hamma narsani gaplashib olsak bo'ladi, azizim, — dedi juhud ikkinchi qavatdagi xona eshigini ochayotib. — Lokigin deraza qopqoqlarning teshik-mertiklari bor, biz esa uyimizda chiroq yonayotganini ko'rishlarini istamaymiz. Shuning-chun shamni zinapoyada qoldiramiz. Ana shunday!

Juhud shunday deya turib engashdi-da, shamdonni zinapoyaning eng tepasiga, eshikning naq ro'parasiga qo'ydi. Keyin siniq kreslo va eshik orqasida turgan qoplamasiz uzun yumshoq kursimi yo divanmi — o'shandan bo'lak hech qanday uy jihozi yo'q xonaga birinchi bo'lib kirdi. Notanish kimsa ana o'sha divanga horg'in cho'kdi, juhud esa kresloni surdi, ular ro'parama-ro'para o'tirishdi. Bu yer butunlay qop-qorong'i emasdi: eshik qiya ochiq, zinapoya tepasidagi shamning xira shu'lasini qarama-qarshidagi devorga tushib turardi.

Dastlabiga ular pichirlashib gaplashishdi. Garchi bu gurunidan ayrim uzuq-yuluq so'zlardan bo'lak hech vaqoga tushunib bo'lmasada, har qalay zimdan quloq solgan kishi Fedjinning notanish kimsaning tanbeh-u koyishlariga javob berarkan, chamasi, o'zini himoya qilayotganini, sherigining esa nihoyatda achchig'langanini osongina payqashi mumkin edi. Ular shu tariqa chorak soatdan kam suhbatlashishmadi, keyin Monks — juhud gurunlari davomida notanish

kishini bir necha marotaba shu ism bilan atadi — ovozi salgina bandlatib dedi:

— Takror aytaman, bu reja uch pulga qimmat edi. Uni boshqalari qatori shu yerda qoldirib, yaramas bitta cho'ntakkesar, tirrancha kis-savur qilishning iloji yo'qmidi?

— Bu kishining gaplarini qarang-a! — xitob qildi juhud yelkasini qisib.

— Nahotki sizday odam, basharti istaganingizda ham, buning ud-dasidan chiqolmasdim demoqchisiz? — zarda bilan so'radi Monks. — Boshqa o'nlab bolalarni shunday eplashtirgan kim axir? Agar bir yilginaga sabringiz chidaganda, nahotki uning jazoga tortilishiga va ehtimolki, bir umrga Angliyadan badarg'a qilishlariga erisholmas-midingiz?

— Kimga manfaati boriydi buni, azizim? — so'radi juhud xokis-rona.

— Menga, — javob berdi Monks.

— Lokigin mengamas, — dedi juhud yuvosh-muloyimgina. — Bolakayning menga nafi tegishi mumkin edi. Basharti shartnoma tuzishda ikki tomon qatnashar ekan, oqillik har ikkala tomonning manfaati bilan hisoblashishni talab etadi, shundoq emasmi, azizim?

— Xo'sh, u yog'i-chi? — so'radi Monks.

— Uni ishga o'rgatish osonmasligini fahmladim, — javob ber-di juhud. — U xuddi shunaqangi ahvolda qolgan boshqa bolalarga o'xshamaydi.

— Ha, o'xshamaydi, la'nati! — to'ng'illadi Monks. — O'xshaganda allaqachonlar o'g'ri bo'lib ketardi.

— Yo'ldan urishim uchun oldiniga uni yaxshilab qo'lga olvo-lishimga to'g'ri keldi, — so'zini davom ettirdi juhud, suhbatdoshi-ning aftiga xavotirlanib tikilarkan. — Lokigin buni eplolmadim sira. Uni hech nima bilan qo'rqitolmadim, ishni esa aynan ana shun-dan boshlashimiz zarur hamisha, yo'qsa butun harakatlarimiz zoe ketadi. Xo'sh, nima qilishimiz keragidi? Tullak va Charluga qo'shib qo'yishim kerakmidi tag'in? E yo'q, bir martasi ham yetarli, azizim; o'shanda hammamiz uchun rosa jonim halak bo'ldi-da o'ziyam.

— Bunga kamina aybdor emas-ku, axir, — deb qo'ydi Monks.

— Albatta, albatta, azizim! — gapni ilib ketdi juhud. — Bun-dan afsuslanayotganim ham yo'q hozir: agar shu voqea sodir bo'lmaganida siz balki bolani hech qachon ko'rmasdingiz va demak-ki, qidirayotganingiz aynan shu bola ekanligini bilmasdingiz ham. Ana shunaqa gaplar! Anavi qizning yordami bilan uni toptirib keldim siz uchun, keyin bo'lsa qizning rahmi kelib qoldi unga.

— Bo'g'ib o'ldirish kerak qizni! — dedi Monks toqatsizlanib.

— Hozir bunday qilolmaymiz, azizim, — kulib javob berdi juhud. — Buning ustiga biz bunaqangi ishlarga qo'l urmaymiz, bo'lmasa yaqin kunlarda jon-jon deb shunday qilardim-a. Bunaqangi qizlarni yaxshi bilaman, Monks. Bola tobga kelgan kuniyoq qizni aqalli bir to'nkachalik ham qiziqtirmay qo'yadi. Siz bolaning o'g'ri bo'lishini istaysiz. Mabodo, u hayot bo'lsa, buning evini qilaman, bordi-yu... bordi-yu... — dedi juhud suhbatdoshiga yaqinroq surilib, — yodinizda bo'lsin, bu dargumon-ov... lokigin, bordi-yu falokat yuz berib, olamdan o'tgan bo'lsa...

— O'lgan bo'lsa, bunga men gunohkor emasman, — deya gapni bo'ldi Monks vahima ichra, qaltirayotgan qo'llari bilan juhudning qo'lini changallab. — Esingizda bo'lsin-a bu, Fedjin! Mening bu ishda qo'lim yo'q. Avval boshdanoq men sizga istagan narsangizni qiling-u, lekin o'limi kerak emas, deganman. Men qon to'kishni xohlamaganman: oxir-oqibatda bu bari bir fosh bo'ladi, ustiga-ustak, odam oromini yo'qotadi. Mabodo uni otib o'ldirishgan bo'lsa, bunga mening hech qanaqangi daxlim yo'q, eshityapsizmi?.. Padariga ming la'nat bunaqangi bo'ri uyasining!.. Nima balo bu?

— Nima? — qichqirib yuborayozdi juhud ikkala qo'li bilan o'rnidan turib ketgan qo'rqqoqni quchoqlagancha. — Qayerda?

— Huv anavi yerda! — javob berdi Monks qarshidagi devordan ko'zini uzmay. — Soya! yelkapo'sh va shlyapa kiygan ayolning soyasini ko'rdim, devor yoqalab pildiragancha o'tib ketdi!

Juhud quchog'ini ochdi va ikkovlari xonadan otilib chiqishdi. yelvizakda lipillayotgan sham qo'ygan joylarida turibdi. Uning shu'lasini zinapoya bilan ularning rangi quv o'chgan yuzlarinigina yoritib turardi, xolos. Har ikkovlari diqqat-la, zo'r berib quloq solishardi: butun uyni chuqur sukunat chulg'ab olgandi.

— Ko'zingizga shundoq ko'ringan, — dedi juhud shamni qo'lga olib, suhbatdoshiga o'girilarkan.

— Ont ichaman, ko'rdim uni! — e'tiroz bildirdi Monks qaltirab. — Ko'zim tushgan paytda engashib turuvdi u, gapirganimda bo'lsa ura qochib qoldi.

Juhud suhbatdoshining tusi pag'a bo'lib ketgan aftiga jirkanib qarab qo'ydi-da, agar xohlasa orqasidan yurishni taklif qilib, zinadan ko'tarila boshladi. Ular hamma xonalarni birma-bir ko'zdan kechirishdi; xonalar sovuq, shipshiydam va bo'm-bo'sh edi. Ular yo'lakka tushib, yanayam pastroqqa, yerto'laga qarab yurishdi. Pastak-pastak devorlarni ko'm-ko'k pix bog'lagandi; sham yog'dusida shilliqqurt va chig'anoqlarning izlari yiltirardi, atrof qabristondagi singari jimjit edi.

— Xo'sh, endi nima deydilar? — so'radi juhud ular yo'lakka qaytib chiqqanlarida. — Siz bilan meni hisobga olmaganda, uyda

hech zog' yo'q — Tobi bilan bolalarniyam hisoblamaganda, ulardan xavfsiramasa ham bo'ladi. Mana, ko'ring!

Bu so'zining isboti uchun juhud cho'ntagidan ikkita kalitni chiqardi-da, birinchi gal pastga tushayotganida suhbatlariga hech kim xalal bermasin uchun ular yotgan xonani qulflab qo'yganini tushuntirdi.

Bu yangi dalil mister Monksning ishonchiga xiyla putur yetkazdi. Ikkovlashib qidirishni davom ettirib, hech nima topolmaganlari sayin uning e'tirozlari tobora susaya bordi; axiyri xafagazak qah-qah urib kuldi va hammasiga parokanda, lat yegan xayoloti aybdor ekani ni tan oldi. Ammo u qo'qqisdan soat birdan oshganini eslab qoldiyu, suhbatni qaytadan boshlashni rad etdi. Shunday qilib, shinavanda jo'ralar ajralishdi.

---

---

XXVII BOB. MUALLIFNING OLDINGI BOBLARDAN BIRIDA  
AJOYIB BIR XONIMNI G'OYAT TAKALLUFSIZLIK  
BILAN O'Z HOLIGA TASHLAB KETISHDEK  
ANDISHASIZLIGINI ANDAVALAYDI

Shubhasizki, bidlday e'tiborli zotni shineli barini yig'ishtirganicha kaminga orqasini o'girib to muallif lozim ko'rguniga qadar shu holatda turishga majbur etish muallif uchun munosib ish emas; in-naykeyin, shunday yuksak mavqega ega, shunday sipo bidldek zot, har qanday qiz-u har qanday olimaqom juvonning qalbini titratib yuboradigan so'zlarni pichirlab ayta turib nazokatli hamda oshiqona nigoh hadya etgan xonimga nisbatan xuddi o'shanday iltifotsiz munosabatda bo'lish muallifga hech ham yarashmaydi-da. Qalami ushbu so'zlarni bitayotgan muarrix — o'z o'rni-mavqeimni bilaman, oliy, mutloq hokimiyatga sazovor bo'lgan zotlarga munosib ehtirom bilan muomala qilyapman, degan xayolda — ularning yuksak mansab-u martabalari, baski, saxovatpeshalig-u ezgulik talab etadigan jamiki zaruriy udumlarga rioya qilishga shoshildi.

Muallif shu maqsadda hatto bidlning haq-huquqi ilohiyligi-yu uning begunoh-pokizaligi xususidagi dalil-u isbotlarni keltirishga qasd qildi. Bunday dalil-u isbotlar aqli raso kitobxonga halovat baxsh etishi foydadan xoli emasligi aniq edi-ya, ammo, nadomatlar bo'lsinkim, fursat tanqisligi tufaylidan muallif ushbuni xiyla qulay-roq va maqbulroq vaqtga kechiktirishga majbur; o'shanday fursat keldi deguncha muallif bidl degan so'zni tom ma'nosi bilan tushuntirib berishga tayyor — chunonchi: bidl qavm mehnat uyida xizmat qiluvchi, ayni chog'da qavm cherkovida rasmiy shaxs sifatida xizmat etuvchi kimsadir. U o'z unvon-vazifasiga ko'ra, barcha saxovat-u ezgulik hamda eng a'lo sifat-u fazilatlarga yo'g'rilgandir. Lekin, inchunin, savdo shirkatlarida xizmat qiluvchi bidl, sud bidllari va hatto ibodat-xona bidllari (darvoqe, keyingilari har qalay, garchi jindakkina bo'lsa-da, bunga haqlidirlar) bunday fazilat-u xislatlarning birortasiga da'vo etishga zarracha haqli emaslar.

Mister Bambl choy qoshiqlarni yana bir bor sanadi, qand ushatgichni qo'lida salmoqlab ko'rdi, sutdonni diqqat-la nazardan o'tkazdi, jihozlarning qay ahvoldaligini aniqladi va hatto kursilarning suyanchig'i, o'rindig'idagi ot yollarigacha tekshirdi; xullas, ushbu harakatlarning har birini kamida besh-olti marotabadan takrorlab bo'lgach, missis Kornni allaqachon qaytishi kerak ediku, deya o'ylay

boshladi. Odatda, bir fikrdan ikkinchisi tug'iladi: missis Korniyotganidan hech qanday dalolat bo'lmagani tufayli mister Bamblning miyasiga, mabodo missis Kornining pastakkina javonini birrovgina ko'zdan kechirib qiziqsinishimni qoniqtirsam gunoh bo'lmas, degan o'y keldi.

Mister Bambl kalit solinadigan teshikka qulog'ini tutib, hech kim kelmayotganiga ishonch hosil qilgach, javonning uchta uzunchoq tortmasi ichidagi narsalar bilan tanishishni pastdagi tortmadan boshladi; eski gazeta varaqlari orasiga avaylab joylab, ustidan gulbarglar sepib qo'yilgan anvoyi tur a'lo sifat pardoz-andoz buyumlari bilan liq to'la bu tortmalar, aftidan, unga haddan ziyod lazzat baxsh etdi. O'ng tomondagi (kaliti burnida turardi) tortmaga gal kelib, ichidagi osma qulfli qutichani ko'rdi va uni silkitib ko'rgandi, ichidan xuddi tanganing ovozigacha o'xshash yoqimli jiringlash eshitildi; shunda mister Bambl dabdabali odimlab kamin oldiga qaytib, boyagi holatiga kirdida, jiddiy va qat'iy qiyofada dedi: «Albatta shunday qilaman». Mazkur diqqatga sazovor bayonotdan so'ng, xuddi o'z-o'zi bilan qanday ajoyib yigit ekani xususida bahslashayotgandek, o'n daqiqacha boshini sho'xchan sarak-sarak qilib chayqatib turdi, keyin esa mamnuniyat hamda qiziqsinish bilan oyoqlarini yonlamasiga ko'zdan kechira boshladi.

Missis Korniyonaga to'satdan, nafasi bo'g'iziga tiqilganicha kirib kelib, kamin oldidagi kursiga o'zini tashlaganicha, bir qo'li bilan ko'zlarini berkitib, ikkinchisini ko'ksiga qo'ygan ko'yi nafasini rostdlashga tushgan paytda u hanuz beozor kuzatuvchi bilan mashg'ul edi.

— Missis Korniy, — dedi mister Bambl nozira tomon engashib, — nima gap o'zi, xonim? Nima bo'ldi, xonim? Iltimos, javob bering, bo'lmasa men... men...

Mister Bambl hayajonlanganidan «betoqat bo'lyapman juda» degan iborani topolmay, buning o'rniga «toqatim toq bo'ldi» deb yubordi.

— Voy, mister Bambl-ey! — deya xitob qildi xonim. — Kayfiyatimni buzib, shunaqangi ta'bimni tirriq qilishdiki.

— Kayfiyatingizni buzishdi? — takrorladi mister Bambl. — Kim jur'at etdi? Bilaman, — dedi mister Bambl o'ziga xos ulug'vorlik bilan, g'azabini tiyib, — anavi yaramas gadovachchalarning ishi bu.

— Buni o'ylashni o'zi dahshat-a! — dedi xonim titrab-qaqshab.

— Undoq bo'lsa o'ylamang buni, xonim, — dedi hozirjavoblik bilan mister Bambl.

— Undoq qilolmayman-da, — zorlandi xonim.

— Bo'lmasa biron nima ichib yubora qoling, xonim, — dedi mister Bambl taskin berguvchi ohangda. — Bir qadahgina vino beraymi?

— Ikki dunyodayam ichmasman-a, uni, — javob qildi missis Kornī. — Icholmayman... Voy! Tepadagi tokchasida, o'ng burchagida... Voy jonim-a!

Shu so'zlarni aytarkan, mehribon xonim hushini yo'qotar bir holatda bufetga ishora qildi va sanchiqdan g'ujanak bo'la boshladi. Mister Bambl javonga qarab intildi va mujmallik bilan ishora qilingan tokchadan yashil shishani ola solib, ichidagi ichimlikdan chinnioyoqni to'lg'azdi-yu, xonimning labiga tutdi.

— Voy, sal o'zimga keldim-a, — dedi missis Kornī chinnioyoqni yarmigacha ko'tarib, o'zini kursi suyanchig'iga tashlarkan.

Mister Bambl shukrona ma'nosida ixlos bilan ko'zlarini shiftga qadadi, keyin nigohini chinnioyoqqa ko'chirib, uni burniga yaqinlashtirdi.

— Peppermint\*, — zaif tovush bilan dedi missis Kornī, bidlga nazokatli jilmayib. — Tatib ko'ring. Ozroq bor unda... picha bor yana.

Mister Bambl doridan gumonsirovchi bir qiyofada lablarini cho'lpillatib totib ko'rdi, yana bir marta totindi, keyin bir ko'tarishda chinnioyoqni bo'shatdi.

— Bu odamni judayam tinchlantiradi-da, — dedi missis Kornī.

— Ha, haddan ziyoda tinchlantirib qo'yarkan, xonim, — dedi bidl.

Shunday deya u ostidagi kursini noziraning yumshoq kursisiga yaqinroq surib, muloyim ovoz bilan xonimning avzoyini nima buzganini surishtirdi.

— Hechqisi yo'q, — javob qildi missis Kornī. — O'zi shunaqangi tentak, ojiza odammanki, salga hayajonlanaman-ketaman...

— Sirayam ojiza emassiz-da, xonim, — e'tiroz bildirdi mister Bambl kursisini yanayam yaqinroq surib. — Nahotki siz ojiza bir kimsa bo'lsangiz, missis Kornī?

— Hammamiz ham ojiz bandalarmiz, — dedi missis Kornī barchaga ayon haqiqatni ta'kidlab.

— Ha, to'ppa-to'g'ri, — uning gapiga qo'shildi bidl.

So'ngra har ikkovlari ikki daqiqacha jim qolishdi. Bu muddat orasida mister Bambl aytilgan fikrni sharhlash bahonasida missis Kornī o'tirgan kursining suyanchig'ida turgan qo'lini oldi-da, missis Kornī peshbandining belbog'i ustiga qo'ydi va u asta-asta belga chirmasha boraverdi.

— Hammamiz ham ojiz bandalarmiz, — dedi mister Bambl.

Missis Kornī xo'rsindi.

— Qo'ying, xo'rsinmang, missis Kornī, — dedi mister Bambl.

— O'pkamni bosib ololmayapman, — dedi missis Kornī. Tag'in xo'rsindi.

— Xonangiz judayam shinam, fayzli-da, xonim, — dedi mister Bambl atrofni ko'zdan kechirarkan. — Yana bittagina xona qo'shilsa bormi, xonim, juda ajoyib ish bo'ladi-da.

— Yolg'iz odamga ortiqchalik qiladi, — dedi pichirlab xonim.

— Ikki kishiga hecham-da, xonim, — muloyim tovush bilan qarshilik bildirdi mister Bambl. — Shunday emasmi, missis Korn?

Bidl shu so'zlarni deganida missis Korn boshini quyi soldi, missis Kornining yuziga tikilish maqsadida bidl ham boshini egdi. Missis Korn bag'oyat munosib tarzda, iymanibgina burilib, dastro'molchasini olmoqlik uchun qo'lini bo'shatdi, biroq o'zi ham bilmagani holda, qo'lini mister Bamblning qo'lga qo'ydi.

— Kengash sizni ko'mir bilan ta'minlab turadi, shunaqamasmi, missis Korn? — so'radi bidl uning qo'lini ohistagina siqib qo'yarkan.

— Sham bilan ham, — javob berdi missis Korn, o'z navbatida astagina uning qo'lini siqib qo'yib.

— Ko'mir, sham va tekin boshpana, — dedi mister Bambl. — O, missis Korn, siz — farishtasiz!

Xonim bundayin hislar junbishiga tob berolmadi. U mister Bamblning quchog'iga tashlandi, muhtaram jentlmen esa hayajon ichra uning pokiza burnidan qaynoq bo'sa oldi.

— Eh, qavmning beqiyos nozanini! — xitob qildi mister Bambl zavq-shavq-la. — Ey dilbar malikam, bugun mister Slautning ahvoli og'irlashib qolgani sizga ayonmi?

— Ha, — iymanibgina javob qildi missis Korn.

— Doktorning aytishicha, u bir haftaga ham bormasmish, — so'zini davom ettirdi mister Bambl. — U kishi ushbu tashkilotning rahnamosi; u kishining vafotlaridan keyin o'rin bo'shaydi, bu o'rinni kimdir egallashi lozim. O missis Korn, qanday ajoyib istiqbol! Qalblarimizni qovushtirib, ro'zg'orimizni birlashtirishning qanchalar qulay fursati-ya!

Missis Korn xo'rsinib qo'ydi.

— Bir og'izgina so'z, — dedi mister Bambl uyatchan suluv xonim sari egilib. — Bittagina, jimitdakkina so'z, suyukli Korniginam, xo'sh?

— H... h... ha, — pichirladi nozira.

— Tag'in bitta so'z, jonginam, — qisti-bastiga oldi mister Bambl. — Sal dadilroq bo'ling-u yana bitta so'z ayting. Qachon amalga oshadi bu?

Missis Korn ikki bora aytishga urinib ko'rdi-yu, ammo ikki martasida ham muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Nihoyat, o'zini qo'lga olib, qo'llarini mister Bamblning bo'yniga chirmashtirdi-da, u istagan paytda amalga oshishini va u o'zining «beqiyos lochini» ekani-ni aytdi.

Ish shu tariqa do'stona hamda zo'r mamnuniyat bilan bitgach, shartnomani xonim vujudiga chang solgan hayajon va titroq asoratidan xalos bo'lishida juda-juda asqotgan tag'in bir chinnyoq peppermint ichish bilan mustahkamlashdi. Chinnyoqni bo'shatgach, xonim mister Bamblga kampirning qazosi yetganini aytdi.

— Juda soz! — dedi muhtaram jentlmen peppermint icha turib. — Yo'lakay Sauerberinikiga kirib o'taman, ertaga erta bilan nimaiki zarur bo'lsa, barini jo'natishini tayinlayman. Xo'-o'sh, shundoq qilib, sizni cho'chitib yuborgan shu ekan-da, jonginam?

— Aytarli hech gap bo'lgani yo'q, jonim, — mujmal javob qildi xonim.

— Ammo, har qalay, biron gap bo'lgandir-ku, axir, jonginam, — qistashda davom etdi mister Bambl. — Nahotki o'z Bamblingizga gapirib bermasangiz?

— Hozirmas... — javob qaytardi xonim, — yaqin kunlarda, nikoh bilan qovushganimizdan keyin, jonim.

— Nikoh bilan qovushganimizdan keyin! — xitob qildi mister Bambl. — Nainki bu gadovachchalardan birortasi bezbetlik qilib...

— Yo'q, yo'q, jonim! — darhol gapini bo'ldi xonim.

— Bashartiki men, — so'zini davom ettirdi mister Bambl, — bashartiki men ular o'zlarining manfur ko'zlari bilan bu mohitob chehraga baqrayib turib, jur'atlari yetib...

— Ular jur'at qilolmasdilar ham, jonim, — javob qildi xonim.

— Bu o'zlari uchun yaxshi, — dedi mister Bambl qo'lini musht qilib tugar ekan. — Qavmdagilardanmi yo undan yuqoriroqdami, shunday qilishga yuragi dov beradigan odamni menga bir ko'rsatib qo'ying, uni shunday adabini berayki, ikkinchi marta yurak yutolmasin bunga.

Ushbu bayonot keskin harakat-u imo-ishoralar bilan mustahkamlangan taqdirda dilbar xonimga mutlaqo nomaqbul tuyulishi mumkin edi, biroq mister Bambl o'z dag'dag'asini jangari xatti-harakatlar bilan bayon etgani sababli uning sadoqatining mazkur dalil-u isbotidan xonimning ko'ngli mumday iyib ketdi va benihoya quvonch-la, tasan-no o'qib, chindan ham Bambl o'zining lochinginasi ekanini aytdi.

Shundan so'ng uning lochinginasi shineli yoqasini ko'tarib, uch qirra shlyapasini kiydi-da, bo'lajak umr yo'ldoshi bilan uzoq hamda lazzatli bo'sa olishdi. Keyin yo'lakay qashshoq erkaklar bo'lmasiga birrov kirib, ularni boloxonador qilib koyir ekan, bu bilan mehnat uyi mutasaddisi vazifasini munosib tarzda qattiqqo'llik bilan ado eta olishiga ishonch hosil qildi. Shu sababli bir necha soniyaga hayallab qolgandan so'ng, yana tungi izg'irin shamol istiqboli sari mardona odimlay ketdi. O'z iqtidoriga ishonch hosil qilgan mister Bambl dili

yengil tortib, martabasi ortajagi haqidagi quvonchli orzular og'ushida borarkan, bu shirin xayollar vujudini to u tobutsoz do'koniga yetgunga qadar tark etmadi.

Mister va missis Sauerberilar mehmondorchilikda ovqatlanib, choyxo'rlik qilishayotgan edi bu pallada, Noe Kleypolning esa, yeb-ichish uchun zarur bo'lganidan tashqari har qanday jismoniy harakatlar bilan jonini koyitishga mayli yo'q edi asti. Shu sababdan ham do'kon odatdagi berkitiladigan soati o'tib ketganiga qaramay ochiq edi. Mister Bambl hassasi bilan peshtaxtani bir necha marta taqillatib urdi, lekin hech qanday javob bo'lmadi, shunda do'konning orqa tomonidagi mehmonxonaning oynavon eshigidan ichkarida chiroq yoniq ekanini ko'rib, u yerda nima gap bo'layotganini bilish niyatida o'sha yoqqa ko'z tashlashga ahd qildi. U yerda nimalar sodir bo'layotganini bilgach esa, hayratda lol qoldi.

Stolga dasturxon yozilgan; ustida non bilan yog', likopcha va stakanlar, bir shisha vino va krujkada qora pivo savlat to'kib turibdi. Stolning to'r tarafida, kresloda oyoqlarini yon tutqichi ustidan oshirib tashlagancha mister Noe Kleypol yalpayib o'tiribdi; bir qo'lida tig'i ochilgan buklama pichoq, ikkinchisida esa yog' surtilgan kattakon non bo'lagi. Yonida tik turgan Sharlott bochkachadan olingan ustritsani chig'anog'idan ajratib beryapti-yu, mister Kleypol hayron qolarli ochofatlik bilan liqqa-liqqa yutyapti. Yosh jentlmenning burni odatdagidan ancha qizilroq, buning ustiga o'ng ko'zining pirillab uchayotgani kayfi borligidan shahodat berib turibdi; ustritsani qandayin huzurlanib yutayotgani (uning huzurlanishini yuragini o'rtayotgan haroratni pasaytirib, chanqog'ini bosayotgani tufaylidan bu narsani nihoyatda qadrlayapti deb tushunishgina mumkin edi) ushbu alomatni tasdiqlab turardi.

— Mana ajoyib, biqqidekkinasi, Noe jonginam, — dedi Sharlott. — Keling, yey qoling, bitta shuginani.

— Juda g'alati narsa-da o'ziyam, — deb qo'ydi mister Kleypol uni liqqa yutib. — Ko'proq yeb qo'ysang loxas qilgani yomon-da! To'g'rimi, Sharlott?

— Shunisi judayam chatoq, g'irt shafqatsizlik bu, — dedi Sharlott.

— To'ppa-to'g'ri, — uning gapiga qo'shildi mister Kleypol. — O'zingiz-chi, o'zingiz yaxshi ko'rasizmi ustritsani?

— Unchalikmas, — javob berdi Sharlott. — Uni yeyishdan ko'ra sizning qanday yutayotganingizni tomosha qilish yoqimliroq, jonginam Noe.

— E xudo-e... — dedi Noe o'ychan. — Juda g'alati-ya!

— Tag'in bir donagina! — taklif qildi Sharlott. — Manavinisini mana, kiprik-tukchalari nozik, chiroylikkinasini.

— Ortiq bir donayam yeyayolmayman, — dedi Noe. — Attang... Berroq keling, Sharlott, bitta o'pay.

— Nima-nima? — qichqirib yubordi mister Bambl xonaga otilib kirarkan. — Qani, yana bir marta takrorlang-chi, ser.

Sharlott chiyillagancha, yuzini peshbandi bilan berkitib oldi. Kleypol o'sha holatda, faqat oyoqlarini yerga tushirib, mastlarga xos dahshat-la bidlga baqraygancha tikilib qoldi.

— Qani, yana bir qaytaring-chi, yaramas, surbet bola, — koyishni davom ettirdi Bambl. — Bunaqangi gapni aytishga qanday tilingiz bordi, ser!.. Siz-chi, nomussiz satang, uni vasvasaga solishga qanday jur'at etdingiz?.. O'parmishlar-a uni! — o'shqirdi mister Bambl g'azabidan o'zini unutayozib. — Tuf-e!

— Sirayam bunaqa demoqchimasdim, — g'ingshidi Noe. — Uning o'zi nuqul o'padi, bu menga yoqadimi yo yo'qmi, bari bir.

— Voy, Noe! — ta'naomuz xitob qildi Sharlott.

— Ha, o'pasan. O'pishingni o'zing yaxshi bilasan, — e'tiroz bildirdi Noe. — U doim shunaqa qiladi, mister Bambl, ser; iyagimga urib-urib qo'yadimi-e, ser, har xil muqom-mulozamatlar bilan iydirmoqchi bo'ladimi-e.

— Uningni o'chir!.. — jiddiy o'shqirib berdi mister Bambl. — Pastga tushing, xonimcha... Noe, do'konni yoping. Toki xo'jayiningiz qaytgunicha og'zingizdan tag'in bitta gap chiqadigan bo'lsa, ahvolingizga naq maymunlar yig'laydi. Uyga kelganida unga aytingki, mister Bambl ertaga ertalabga, nonushtadan keyin, bitta kampirga tobut jo'natishni buyurib ketdi, deng. Eshityapsizmi, ser?.. O'pisharmish-a! — vag'illadi mister Bambl qo'llarini paxsa qilib. — Bu qavmdagi qora xalqning buzuvchiligi va gunohkorligi chindan ham dahshatli darajaga yetgan. Basharti, parlament ularning razolatga botgan xulq-atvoriga e'tibor bermasa, mamlakat, u bilan birga esa dehqonlarning axloq-u ma'naviyoti xarob bo'ldi deyavering!

Bidl ana shu so'zlar bilan g'amgin, ayni choqda, ulug'vor qiyofada tobutsoz maskanini tark etdi.

Ana endi, bidlni uyiga jo'natib va kampirshoning dafn marosi-mi uchun jamiki zaruriy tadoriklarni tugatib, yosh Oliver Twist holidan xabar olib, uning hanuzgacha Tobi Krekit tashlab ketgan zovurdan yotgan-yotmaganiga ishonch hosil qilishga ko'chamiz.

---

---

XXVIII BOB. OLIVER TVIST BILAN MASHG'UL BO'LADI  
VA UNING BOSH DAN KECHIRGANLARINI  
HIKOYA QILADI

— Ha bo'g'zilaringni bo'rilar g'ajib tashlagur! — tishlarini g'ijirlat-gancha to'ng'illadi Sayks. — Mening qo'limga tushganlaringda bor-mi, uv tortib yuborardilaring-a.

Sayks o'z xulq-tabiati quvvati yetgunchalik betiyiq qahr-u g'azab bilan shunday la'nat o'qiganicha yaralangan bolani tizzasiga tushirdi-da, ta'qibchilarga qarash uchun bir lahzaga boshini burdi.

Qorong'ilik va tumanda deyarli hech nima ko'rinmasdi, lekin u baqiriq-chaqiriqlarni eshitdi, chor atrofdan hayhaysuron uyg'otib yuborgan itlarning vovillashi kelardi.

— To'xta, hoy quyonyurak maxluq! — qichqirdi u uzun oyoqlarini ayamay undan ancha ilgari lab ketgan qaroqchi Tobi Krekitning keti-dan. — To'xta, deya pman!

Ikkinchi qichqiriqdan keyin Tobi Krekit taqqa to'xtab, qoqqan qoziqday qaqqayib qoldi. Uning to'pponcha o'qi yetmaydigan maso-faga borib olganiga butunlay ishonchi komil emas, Sayks ham shu pallada hazillashadigan avzoyda emasdi.

— Bolani ko'tarishga yordamlash! — qichqirdi Sayks sherigini darg'azab yoniga chorlab. — Qayt orqangga!

Tobi o'zini qaytayotganga soldi, lekin imillab odimlarkan, past tovush bilan entika-entika, qaytishga sira xohishi yo'qligini bildirish-ga jur'at etdi.

— Tezroq bo'! — baqirdi Sayks bolani quruq zovur tagiga, oyog'i yoniga yotqizib, cho'ntagidan to'pponchasini chiqararkan. — Laqil-latib bo'psan meni.

Xuddi shu damda shovqin-suron kuchaydi. Sayks tag'in o'girilib qarab, orqalaridan quvib kelayotgan odamlar dalaning narigi boshi-dagi darvozadan oshib o'tishayotganini, ikkita it bo'lsa ulardan bir necha qadam oldinda yugurgilab kelayotganini ko'rdi.

— Tamom, Bill! — qichqirdi Tobi. — Bolani tashlab, tuyoqni shi-qillatib qol!

Raqiblar qo'liga tushishdan ko'ra do'stining o'qidan o'lim topish imkonini afzal ko'rgan mister Krekit shu maslahat bilan xayr-ma'zurni nasiya qilib, oyog'ini qo'liga olgancha badar qoch-di. Sayks tishlarini g'ijirlatdi, tag'in bir bor o'girilib qarab, chalqa-yib yotgan Oliverning ustiga shoshilishda bolani o'rab olishgan o'sha yelkapo'shni yopdi-yu, ta'qibchilar diqqatini bola yotgan joydan

chalg'itish maqsadida g'ov yoqalab yugurdi, birinchisini tikkasiga kesib o'tgan ikkinchi g'ov oldida bir nafasga to'xtadi-da havoga qaratib o'q uzib, g'ovdan oshib o'tib, g'oyib bo'ldi.

— Ho', ho', bu yoqqa! — eshitildi ketidan ikkilangan ovoz. — Pincher! Neptun! Bah! Bah!

Itlar, aftidan, o'zlari berilib ketgan ermakdan egalaridan ortiq halovat topmayotgan edilar chog'i, chaqiriqni eshitib o'qqa zing'illab qolishdi. Bu orada paykalga yetib kelgan uch erkak to'xtab, maslahatlasha boshlashdi.

— Mening maslahatim, yoki balki mening buyrug'im, deyishim lozimmi, bunday: tezda o'qqa qaytish kerak, — dedi uchovlari orasida eng semizi.

— Mening ta'bim mister Jaylsning ta'biga juda bopta keladi-da, — dedi sal bo'yi pastroq, lekin bir enlik ham eti kam bo'lmagan, judayam rangpar boshqa birovi aksar o'takasi yorilayotgan odamlarga xos tarzda nihoyatda xushmuomalalik bilan.

— Kamina ham odobsiz bo'lib qolishni istamasdim, jentlmenlar, — dedi uchinchi, boyagi itlarni chaqirib olgani. — Mister Jayls nima qilishni yaxshiroq biladi.

— Shubhasiz, — javob berdi pakanasi. — Mister Jayls nimaiki demasinlar, gaplarini ikki qilolmaymiz. Yo'q, yo'q, men o'z o'zni-mavqeini biladigan odamman. Xudoga shukrki, o'z o'rnimni bilaman.

Ochig'ini aytganda, pakana odam go'yoki haqiqatan ham o'z o'zni-mavqeini va o'zni esa shu topda mutlaqo havas qiladigan emasligini ham juda yaxshi biladigan ko'rinadi, zotan, u so'zlayotganida tishlari takillab ketdi.

— Siz qo'rqaysiz, Britls! — dedi mister Jayls.

— Hecham qo'rqayotganim yo'q-da, — dedi Britls.

— Qo'rqaysiz! — dedi Jayls.

— Siz yolg'onchisiz, mister Jayls! — dedi Britls.

— O'zingiz yolg'onchisiz, Britls! — dedi mister Jayls.

Bu to'rt og'izgina dahanaki jang mister Jaylsning mazammati oqibatida kelib chiqqandi, mister Jaylsning mazammati esa achchiq ustida tug'ilgandi, negaki, luqma tashlash yo'rig'i bilan uyga qaytish mas'uliyatini uning zimmasiga yuklab qo'ya qolishgan edi. Uchinchi erkak mulohazakorlik bilan dahanaki jangga chek qo'ydi.

— Kaminaning gapim shuki, jentlmenlar, — dedi u, — uchalamiz ham qo'rqaypmiz.

— O'zingizni biling, ser, — dedi jamlari orasida rangi eng quv o'chgan mister Jayls.

— O'zimni aytyapman-da, — javob qaytardi bu jentlmen. — Bunaqangi vaziyatda qo'rqish tamoman tabiiy va o'rinli. Ha, qo'rqayapman.

— Men ham, — dedi Britls. — Lekiniga shuni shartillatib odamni yuziga solish kerakmi!

Ushbu oshkora e'tirof mister Jaylsni sal yumshatdi-yu, shu zahotiyoq o'zi ham qo'rqayotganini tan oldi, shundan so'ng uchovlon orqaga burilishdi-yu, toki mister Jayls (panshaxa og'irlik qilib, eldan burun hansirab qola boshlagandi) nihoyatda seriltofotlik bilan to'xtashni taklif etgunicha (negaki u o'zining o'ylamay aytib yuborgan gaplari uchun uzr so'ramoqchi ekan) baravariga yuguraverishdi.

— Shunisi hayron qolarliki, — dedi mister Jayls tushuntirishlarini tugatgach, — qoni qaynab ketganida odam nimalarni qilib qo'ymaydi. Odam o'ldirib qo'yishim ham hech gapmasdi — bilaman, agar anavi gazzoblardan bittasini qo'lga tushirganimizda shundoq qilib qo'yishim mumkinidi.

Qolgan ikkitalari ham xuddi shunday hisni tuyayotganlari va ularning ham qonlari xuddi shundoq sovub ulgurgani tufayli bu nogahoniy o'zgarish boisi ustida ushbu topdagi bosiqliklari me'yorida muhloha yurita boshladilar.

— Sababini bilaman, — dedi mister Jayls. — Bu darvoza!

— Chindan ham shundoq bo'lib chiqsa sirayam hayron qolmayman! — xitob qildi Britls shu fikrga yopishib olib.

— Shubha qilmasangiz ham bo'ladi, — dedi Jayls, — mana shu darvoza sovutib qo'ydi. Undan oshib tushayotganimda vujudimdagi butun g'ayrat-u g'azabim to'satdan sovib qolganini sezdim.

Mavjud ahvol-u vaziyatning tang qolarli joyini qarangki, narigi ikovi ham aynan o'sha damda xuddi o'shanaqangi ko'ngilsiz tuyg'uni his qilishibdi-da. Xullasi kalom, kunday ravshan bo'ldiki, jamiga ana shu darvoza sababchi ekan; buning ustiga desangiz, o'zgarish sodir bo'lgan soniya xususida hech qanaqangi shubha-gumon qolmadi, zero uchovlari ham qaroqchilarga xuddi shu daqiqada ko'zlari tushganini esladiilar.

Qulfbuzarlar qaroqchilarni cho'chitib yuborgan ikki erkak va omborxonada yotgan, ikki ko'ppagi bilan ta'qibda qatnashsin uchun uyg'otib chiqilgan sayyor misgar ana shunday suhbatlashib borishardi. Mister Jayls kekxa xonimning xonadonida eshikog'asi hamda xo'jalik mutasaddisi vazifasini o'tardi; Britls dastyorlik qilardi; u xonim xizmatiga yosh bolalik chog'idan yollangan va garchi yoshi o'ttizdan oshgan bo'lsa-da, hanuzgacha bo'ladigan bola hisoblanardi.

Uch erkak ana shunday gurgung bilan o'zlariga dalda berib, ammo bir-birovlariga yaqinroq bo'lishga intilib va har shamol epki-

ni zaptida shox-shabbalar chirsillagani sayin atrofga olazarak bo'lib, chopgancha fonusni qoldirib ketishgan daraxt yoniga yetib kelishdi; zotan fonus shu'lasini talonchilarga qayoqqa qarab o'q uzishni eslatib, nishonlik vazifasini o'tamasin deb cho'chishgandi. Fonusni olasolib, g'ayrat-la uyga qarab yo'rg'alab qolishdi; ularning qoralarini qorong'ida mutlaqo ko'z ilg'amay qolganidan keyin ham xiyla mahalgacha fonus miltillab, nam va qo'lansa botqoq ustida yiltillayotgan yonar qo'ng'izday lipillab parvoz qilib yurdi.

Tong yaqinlashgani sari borliq yangilanib, tetiklanib borar, yer uzra esa tuman bamisoli quyuq tutun buluti yanglig' o'ralib-buralardi. Maysa jiqqa ho'l, so'qmoq va past-u baland joylar pilch-pilch loy edi; izg'irinli, junjitadigan nam shamol erinchoqlik bilan bosinqi uv tortib bot-bot xuruj qilardi. Oliver Sayks tashlab ketgan joyida hamon qimir etmay, hushsiz yotardi.

Tong yorishib kelardi. Ko'k toqida nimtatir subhi sodiq shu'lasini ilk jilva qila boshlagan pallada — kunning tavalludidan ko'ra, tunning zavol pallasida — shamol shiddat otiga qamchi bosib, kuchaya boshladi. Zimistonlik og'ushida chaplashib, vahimali ko'ringan narsalar asta-sekin tarhi aniqlashib, borgan sayin odatdagi shakl-shamoyiliga kiraverdi. Sharillab quygan jala yalang'och butalarni savay ketdi. Biroq Oliver o'zini yomg'ir qandayin savalayotganini sezmedi, zero ki u hanuz o'zining loy to'shagida behush, ojiz-u nochor bir ahvolda yotardi.

Mana, nihoyat, sukunatni og'riq ingrog'i buzdi-yu, ingrog' bilan birga bola ko'zini ochdi. Sharf bilan naridan-beri o'rab-bog'langan qo'li holsiz, zil-zambilday, shalvirab osilib yotibdi, sharf qonga belangan. U shunchalar darmonsizlanib qolgandiki, arang qaddini ko'tarib, turib o'tirdi; amallab o'tirib olgach, madad istab bazo'r atrofga alanglagan edi, og'riqdan ingrab yubordi. Holsizlik va sovuqdan qalt-qalt titrab, turishga urinib ko'rdi, ammo boshidan-oyog'igacha butun a'zoyi badani zirillab, xuddi oyog'idan birov chalib yuborgandek guppa quladi yerga.

Oliver xuddi tuni bilan davom etgan hushsizlikka o'xshagan hozirgi birpaslik behushligi tarqab o'ziga kelgach, yuragi sari o'rmalay boshlagan va go'yoki shu yerda yotaveradigan bo'lsang o'lasan, deb ogohlantirayotgan bexudlik qistovida oyoqqa bosib, yurishga harakat qildi. Boshi aylanar, xuddi mastday kalovlanib, gandirab ketardi. Biroq u o'zini tik tutib qoldi va boshini horg'in ko'ksiga solintirib, qoqinib-surinib, qayoqqa ketayotganini o'zi ham bilmay, olg'a intildi.

Ana shunda uning ongida allaqanday poyma-poy, mubham sharplar gavdalandi. Nazarida go'yo haliyam Sayks bilan Krekit ikkovlarining o'rtasida ketayotgandek, ular o'zaro so'kishishayotgandek

— hatto ular so'kishishgan xuddi o'sha so'zlar qulog'i ostida jaranglayotgandek edi; yiqilib tushmaslik uchun haddan ziyod zo'r berib, o'ziga kelib qolganida qarasa, ular bilan o'zicha gaplashayotganini fahmladi. Keyin u birgina Sayks bilan qoldi va xuddi kechagidek ilgariga surgalib ketaverdi; yonlaridan shaffof odamlar o'tib ketayotganida esa Sayks uning qo'lini mahkam siqib ushlab olardi. Qo'qqisdan o'q ovozi eshitib sapchib tushdi; dod-voy, baqiriq-chaqiriqlar yangradi; ko'zlari oldida shu'la miltilladi; tevaragida esa shovqin-suron va gumbura-gumbur; kimningdir ko'rinmas qo'llari uni surgab ketdi. Bu ro'yolar shig'illab almashinib turarkan, uni qandaydir mubham, vujudiga orom bermayotgan og'riq hissi tark etmasdi.

U toki yo'lga chiqib olgunicha yo'lida uchragan yog'och darvozalarning ko'ndalang to'sinlari orasidan, g'ov-to'siqlarning tirqishlaridan deyarli ixtiyorsiz o'ta-o'ta, galdirab, sudralgan ko'yi olg'a intilaverdi. Yo'lga yetganida esa shunaqangi jala quyib berdiki, bola zumda o'ziga kelib qoldi.

U atrofga alanglab, yaqinginadagi uyga ko'zi tushdi, u yerga yetib olishga quvvati yetadigandek edi. Ehtimol ayanchli ahvolini ko'rib, u yerdagilarning rahmi kelar, bordi-yu, rahmlari kelmaganida ham, har qalay, huvillagan daladan ko'ra odamlarga yaqinroq joyda o'lgan yaxshiroq-ku, deb o'yladi bola. U ana shu so'nggi sinov uchun bor kuchini to'pladi-da, zo'r-bazo'r uyga qarab odimlay boshladi.

Yaqinlashib qolganida bu uyni ilgari ko'rgandek bo'lib tuyuldi nazarida. Mayda-chuyda tafsilotlari yodida yo'g'-u, lekin uy unga tanishdek ko'rindi.

O'sha bog'ning devori-ku! Bu devorning naryog'ida u kechasi maysaga tiz cho'kib, anavi ikki sherigidan shafqat qilishlarini so'rab rosa iltijo qilgandi. Bu ular o'marib ketishmoqchi bo'lgan xuddi o'sha uy edi.

Uyni tanigach, Oliverning shunchalik kapalagi uchib ketdiki, bir lahzaga azob berayotgan jarohatini ham unutib qo'yib, xayolini faqat juftakni rostlab qolish fikrigina band etdi-oldi. Qochish kerak! Biroq u oyog'ida arang turardi, keyin, mabodo bolakayning nozig-u nimjon tanasini hatto kuch-quvvat tark etmagan taqdirda ham, qayoqqa qochib boradi? Bola eshikni itardi: yuziga yopiq ekan, lang'illab ochilib ketdi. Oliver qoqina-surtina maysazorni kesib o'tib, zinadan ko'tarildi-da, zaif qo'li bilan eshikni tiqillatdi, ammo shu payt daroni xiyonat qildi-yu, chog'roqqina pillapoya-ayvoncha ustunlaridan biriga kuragi bilan suyangancha zinaga o'tirib qoldi.

Xuddi shu asnoda ushbu tungi qiyinchilik hamda dahshatlardan keyin mister Jayls, Britls va misgarlar oshxonada choyxo'rlik qilib,

turli taomlardan totinib o'tirgan edilar. Mister Jayls oddiy xizmatkorlar bilan muruvvatparvarona (illo har qalay mazkur jamoat orasida o'zining mavqei xiyla baland ekanini eslatib turguvchi) iltifot-la munosabatda bo'lar va bu muomalasi qo'li ostidagilarga yoqib tushardi. Shunday bo'lsa-da, mister Jaylsni oddiy xizmatkorlar tomonidan ko'rsatiladigan ortiqcha takallufotsizlikka ko'nikib ketgan deb bo'lmadi. Ammo o'lim, yong'in va o'g'ri urib ketishdek falokatlar hammani bab-baravar qilib qo'yadi; ana shu boisdan ham mister Jayls oyoqlarini o'choq panjarasi sari uzatgan ko'yi o'tirarkan, chap tirsagini stolga tirab, o'ng qo'lini silkigancha o'g'irlik to'g'risida batafsil hamda atroflicha hikoya qilar, tinglovchilar (ayniqsa, davrada hozir bo'lgan oshpaz ayol bilan oqsoch) beadam qiziqish bilan quloq solishar edi.

— Soat uch yarimlar chamasi edi... — hikoyasini boshladi mister Jayls, — roppa-raso shundoq deb qasam icholmayman-u, lekin uchlar atrofi bo'lsa kerak... uyg'onib ketib, karavotda ag'darildim, aytaylik, mana bundoq (gap shu yerga yetganda mister Jayls o'tirgan kursisida burilib, ko'rpa vazifasini o'tashi lozim bo'lgan dasturxonning bir chekkasini ustiga tortdi), shunda desangiz, birdan allaqanday shovqin chalinganday bo'ldi qulog'imga...

Hikoyachi o'z hikoyasining shu joyiga kelganida oshpazning rangi quv o'chib ketib, oqsochdan eshikni yopishini o'tindi; unisi bo'lsa Britlsdan, Britls misgardan iltimos qildi, misgar esa o'zini eshitmanganga soldi.

— ... shovqin eshitilganday bo'ldi desangiz, — hikoyasini davom ettirdi mister Jayls. — Oldiniga: "Shundoq tuyulgan bo'lsa kerak", dedim o'z-o'zimga va endi uyquga ketay deb tursam, to'satdan tag'in, bu gal aniqroq, shovqinni eshitdim.

— Qanaqa shovqinidi? — so'radi oshpaz.

— Xuddi bir narsa qirsillaganday bo'ldi, — javob berdi mister Jayls atrofga alanglab.

— Yo'q, to'g'rirog'i, birov temirni muskat yong'og'i qiriladigan qirg'ichga ishqagandek bo'ldi, — gap qistirdi Britls.

— Siz shovqinni eshitganingizda shunaqangi ovoz chiqayotgandidi, ser, — e'tiroz bildirdi mister Jayls, — lekin men eshitganda qirsillagandi. Shunda ko'rpani ochib, — hikoyasini davom ettirdi mister Jayls dasturxon chetini qayirib qo'yarkan, — o'rnimda turib o'tirdim-u quloq sola boshladim.

Oshpaz bilan oqsoch baravariga: «Voy xudoyim!» — deb yuborishdi-yu, bir-birovlarining pinjiga kirib olishdi.

— Endi shovqinni aniq-tiniq eshitib turardim, — so'zlardi mister Jayls. — «Kimdir eshikni yoki derazani qo'poryapti, deyman

o'zimga-o'zim. Nima qilsamikin? Sho'rlik yigitgina Britlsni uyg'otib, qutqarib qolay, tag'in yotgan karavotida o'ldirib ketishmasin, bunaqada, deyman o'zimcha, pichoqni o'ng qulog'i tagidan solib chap qulog'igacha tortib yuborib, bo'g'izlab tashlagunlarichayam bilmay yotaveradi».

Hikoya shu yerga yetganda hammaning ko'zi hikoyachiga baqraygancha og'zi kappa ochilib, butun vujudidan had-hududsiz dahshat-u vahima yog'ilgancha tikilib qolgan Britlsga qadaldi.

— Ko'rpani itqitib tashladim-u, — davom ettirdi mister Jayls dasturxon chetini itqitib yuborib, oshpaz bilan ro'zg'orboshiga dag'dag'ali o'grayib, — sekingina karavotdan tushib, kiy...

— Mister Jayls, xonimlar bor-a, — shivirladi misgar.

— ... boshmog'imni, ser, — dedi Jayls unga o'girilib qararkan, shu so'zga alohida urg'u berib, — hamisha kumush anjomlar solingan savatga qo'shib tepaga olib chiqib qo'yiladigan o'qlog'liq to'pponchani ola solib, oyoq uchida buning xonasiga kirib bordim. «Britls, — dedim uni uyg'otib, — qo'rqma!...»

— To'g'ri, shunday degandingiz, — ohistagina luqma tashladi Britls.

— «Chamamda, kuning bitgan ko'rinadi, Britls, dedim, — hikoyasini davom ettirdi Jayls, — lekiniga cho'chima».

— U qo'rqib ketgandir-a? — so'radi oshpaz.

— Zig'irchayam, — javob qildi mister Jayls. — U ham xuddi... ha, xuddi menday qilt etmadi.

— Rostini aytsam, uning o'rnida men bo'lganimda, o'sha yerda yoq yuragim paqqa yorilib o'lib qo'ya qolardim, — dedi oqsoch.

— Siz — ayol kishisiz, — qarshilik bildirdi Britls sal dadillashib.

— Britls haq, — dedi mister Jayls, xayrixohona bosh irg'ab, — xotin kishidan bundan boshqa nimanियam kutilardi. Ammo biz, erkaklar, Britlsning kaminida turgan shishali fonusni oldig-u zimiston qorong'ilikda paypaslana-paypaslana zinapoyadan tusha boshladik — aytaylik, mana bunday qilib...

O'z hikoyasini muqobil harakatlar ila tasvirlar ekan, mister Jayls o'rnidan turdi va ko'zini yumib ikki qadam bosdi-yu, to'satdan xuddi boshqalar singari qattiq seskanib tushib, orqasiga, kursisi tomon tashlandi. Oshpaz bilan oqsoch chiyillab yuborishdi.

— Kimdir taqillatdi, — dedi mister Jayls o'zini osoyishta-xotirjam ko'rsatib. — Qani, birortanglar eshikni ochinglar-chi.

Hech zog' qimir etmadi.

— Bu yog'i g'alati bo'ldi-ku, — kallai saharlab taqillatishsa-ya, — dedi mister Jayls tevaragidagi rangi pag'a bo'lib ketgan basharalarga bir-bir nazar tashlarkan, o'zining ham rangi devor edi bamisoli, —

shundoq bo'lsayam eshikni ochish kerak-ku. Birortalarining turinglar, eshityapsizlarmi?

Shunday deya mister Jayls Britlsga qaradi, biroq tabiatan kamsuqumgina bu yigit o'zini xokisor bir kimsa hisoblasa kerak, shu boisdan mazkur gapning o'ziga zarracha aloqasi yo'q deb o'yladi chog'i: har holda u miq etmadi. Mister Jayls keyin misgarga iltijo-la javdiradi, ammo unisi to'satdan uxlab qoldi. Ayollarni-ku gapirib o'tirmasa ham bo'ladi.

— Mabodo Britls guvohlar hozirligida eshikni ochishga rozi bo'lsa, — dedi mister Jayls andak sukutdan so'ng, — ulardan biri bo'lishga tayyorman.

— Kamina ham tayyor, — dedi misgar qanday dabdurustdan uxlab qolgan bo'lsa, o'shanday qo'qqisdan uyg'onib.

Shu shart bilan Britls yon berdi va butunlay kun yorishib ketganidan picha ko'ngli joyiga tushgan jamoat (deraza qopqoqlarini ochganda bunga ishonch hosil qilishgandi) zinadan ko'tarila boshladi — oldinda itlar borardi. Pastda qolishga qo'rqqan ikkala ayol izdihom oxirida odimlashardi. Mister Jaylsning maslahatiga binoan tashqaridagi har qanday jinoyatchini ular ko'pchilik ekanlaridan ogoh etib hammalari qattiq-qattiq gapirishardi; eshik oldiga yetganlarida esa, yana o'sha ixtirochi jentlmenning kallasida tug'ilgan dohiyona rejani amalga oshirib, baland ovoz bersin, degan maqsadda itlarning dumi-dan qattiq tortib qo'yishdi.

Ushbu ehtiyot choralari ko'rilib bo'lingach, mister Jayls misgarining qo'lidan (uning ehtirom-la ta'riflashicha, qochib qolmasin deb) mahkam changallab oldi-da, eshikni ochishni buyurdi. Britls buyruqqa itoat etdi; boshqalar qo'rqa-pisa bir-birovlarining orqalaridan mo'ralar ekanlar, bechora, jimit Oliver Tvistdan bo'lak hech qanaqangi qo'rqinchli zotni ko'rmadilar. U holsizlikdan og'zini ham ocholmay, faqat zilday qovog'ini ko'tarib, shafqat tilab unsizgina iltijo qila oldi, xolos.

— Bola-ku! — nido soldi mister Jayls misgarni botirlik bilan orqaga surib. — Nima qipti unga... a?... Nima? Britls... qara-chi... Taniyapsanmi?

Britls Oliverni ko'rishga ulgurmasidanoq — ochmoqchi bo'lib eshik orqasiga tisarilgan edi — baqirib yubordi. Mister Jayls shappa Oliverning ham oyog'i, ham qo'liga (yaxshiyamki sog' qo'liga) chang solib, ichkariga tortdi-da, yerga qo'ydi.

— Mana u! — bo'kirdi Jayls hayajonda hovliqib, zina tomonga burilarkan. — Talonchilardan biri shu, xonim! Mana u, talonchi, miss! Yaralangan u, miss! Buni men otgandim, Britls bo'lsa chiroq tutib turgandi.

— Fonusni tutib turgandim, miss! — qichqirdi Britls ovozim baland chiqsin deb qo'lini og'ziga karnay qilib tutib.

Har ikkala xizmatkor ayol mister Jaylsning o'g'rini tutganini xabar qilgani tepaga zing'illashdi, misgar bo'lsa dorga osmaslaridan burun o'lib qolmasin uchun Oliverni hushiga keltirishga urina ketdi. Ana shunday hay-haysuron va to's-to'polon orasidan muloyim ayol kishi ovozi eshitildi-yu, hammayoq suv quyganday tinchidi-qoldi.

— Jayls! — deya pichirlagan ovoz keldi zinaning tepasidan.

— Bu yerdaman, miss, — javob berdi Jayls. — Qo'rqmang, miss, unchalik jarohatlanganim yo'q. Jon-jahdi bilan qarshilik ko'rsatgani yo'q u, miss! Birpasda surobini to'g'riladim.

— Sekinroq! — dedi yoshgina xonim. — Xolaginamni o'g'rilardan battar o'takalarini yorib yuborasiz-a... Sho'rlikkina, og'ir yaralanganmi?

— Judayam, miss! — javob qaytardi Jayls tavsifga sig'mas bir mag'rurlik bilan.

— Hozir o'lib qoladiganga o'xshaydi, miss, — qichqirdi Britls o'sha o'sha ovozda. — Pastga tushib, o'lib qolmasidan bir ko'rmaysizmi, miss?

— Baraka topkur, sal sekinroq! — dedi xonim. — Bir zumgina jim turing, hozir xolam bilan gaplashib olay.

Qisqasi, u ichkariga kirib ketdi — odim olishi xuddi ovozi singari muloyim, yumshoqqina edi. Hademay qaytib chiqdi va yaradorini avaylab tepaga mister Jaylsning hujrasiga olib chiqishni — Britlsga esa toki otni egarlab, imkoni boricha tezroq konstebel bilan doktor jo'natishlari uchun hayallamay Chertsiga qarab yo'lga tushishni buyurdi.

— Oldin bir ko'rmaysizmi, miss? — so'radi mister Jayls kekkayib, go'yoki Oliver u otib tushirgan antiqa qushday. — Bittagina qiyo boqmaysiz hammi, miss?

— Yo'q, hozirmas, hozir sirayam ko'rgim yo'q, — javob qildi oyimqiz. — Voy sho'rlikkina-ya! Meni desangiz, Jayls, unga muruvvat bilan muomala qiling, tuzukroq qarang!

Keksa xizmatkor xonim ketishga chog'lanib endi burilgan onda unga shunaqangi g'urur va zavq bilan qarab qo'ydiki, buni ko'rib go'yo xonim uning nuridiydasi ekan-da, deyishingiz hech gapmasdi. Keyin u Oliver uzra engashib, bamisoli ayol kishiday mehr-muhabbat-la, avaylabgina bolani tepaga olib chiqishlariga yordamlashdi.

---

---

XXIX BOB. OLIVER BOSHANA TOPGAN UY  
ISTIQQOMATCHILARI HAQIDA DASTLABKI  
MA'LUMOTLARDAN XABAR BERADI

Jihozlari zamonaviy hashamdorlikdan ko'ra ko'proq ko'hna taomil qulayligidan dalolat berib turganiga qaramay, shinamgina xonada nafis idishlar-la tuzalgan dasturxon ustida ikki xonim nonushta qilib o'tirishardi. Qora bejirim ust-bosh kiygan mister Jayls ularning xizmatida; Jayls orqaga tashlangan boshini xiyolgina yonga bukib, chap oyog'ini oldinga qo'yib, o'ng qo'li bilan nimchasi yoqasidan tutgan-cha, pastga tushirilgan chap qo'lida patnisni ushlagan ko'yi qaddini g'oz tutib turarkan, qiyofasida o'z xizmati va mavqeini zo'r mamnu-niyat bilan anglab yetgani ifodasi namoyon edi.

Ikkala xonimga kelganda esa, ulardan biri yoshi allaqayerga borib qolgandi, lekin o'zi o'tirgan yumshoq eman kursining suyanchig'iday qaddini tik tutardi. U tamomila eskicha bichimda, lekin nazokat-u did-la tikilgan ko'ylakda, qo'llarini stolda bir-biri ustiga qo'yib, ulug'sifat bir qiyofada o'tiribdi. Ko'ylagi eng so'nggi bichimga picha yon bosgandi, biroq bu nuqs umumiy taassurotga aslo zarar yetkazmagandi, aksincha, eski bichimning nafosatini yanada bo'rttirib turardi. Uning ko'zlari (yillar bu ko'zlarning nur-jilvasini xiralashtir-olmagan edi) navqiron suhbatdoshiga tikilgandi.

Kichik xonimning esa gul-gul ochiladigan, ayollarga xos lato-fat-u nazokat bahori yetishgan va (tahqir-u masxaralash botqog'iga botmay, halol tan olinadigan bo'lsa) basharti Tangri taolo marha-mat-u lutf-karamini darig' tutmay biron vaqt maloikalarini foni-y xilqat qobug'iga jo etadigan bo'lsa, bu vujud farishtalar jon-jon deya maskan tutadigan yoshda edi.

U o'n yettilar chamasida edi. Qaddi-qomati shunchalar nozig-u bejirim, chehrasi esa shunchalar muloyim-u nafis, shunchalar lato-fatli-yu yuvosh, shunchalar tinig'-u suluv ediki, go'yo ona-yer shun-day maxliqo mavjudligidan minnatdor bo'lmog'i darkor edi, barcha zamin maxluqotlari unga nomunosib hamrohga o'xshardi. Hat-to tubsiz moviy ko'zlarida chaqnab, latif manglayida aks etib turgan zukkoligi na yoshiga va na bu dunyoga mos-u muvofiq kelmaydi-gandek ko'rinardi; illo beozorligi-yu ko'ngilchanligi, chehrasini nuraf-shon etgan va unda zarra g'ubor qoldirmagan ming-minglab shuur-u shu'la yallig'i, eng asosiysi esa — tabassumi, yoqimtoy, quvnoq ta-

bassumi oila uchun, oilaviy orom-u baxt nashidasini surish uchun yaratilgandi.

U dasturxon ustida bekalikni o'rniga qo'yardi. Keksa xonim unga qarayotgan lahzada tasodifan ko'zlarini ko'tarib qoldi-yu, oddiygina taralgan, peshonasiga tushib turgan sochini quvnoqlik bilan orqaga silkidi, shunda chaqnoq nigohida shunchalar mehr va asl nazokat jilva qildiki, buni ko'rganda hatto samoviy farishta-yu maloikalar beixtiyor jilmaygan bo'lardilar.

— Britls yo'lga chiqqaniga bir soatdan oshdi-yov, to'g'rimasmi? — so'radi keksa xonim birpas dam saqlagach.

— Bir soat-u yigirma daqiqa bo'ldi, xonim, — javob berdi mister Jayls, qora tasmasidan ushlab kissasidan chiqargan soatiga qarab.

— Doim imillagani-imillagan, — dedi keksa xonim.

— Britlsning o'ziyam o'lgundek tepsa-tebranmasligicha qolganda, xonim, — javob qaytardi xizmatkor.

Darvoqe, agar Britlsning o'ttiz yildan beriga tepsa-tebranmasligicha qolganini e'tiborga olinsa, uning biron vaqt kelib chaqqon yigit bo'lib ketishi dargumon ko'rinadi-yov.

— Nazarimda, tuzalish o'rniga, battarlashib boryapti u, — dedi keksa xonim.

— Mabodo o'ziga o'xshash og'aynilari bilan aylanishib hayallab qolgan bo'lsa, uni sirayam kechirib bo'lmaydi, — dedi yosh xonim kulimsirab.

Mister Jayls, hurmat yuzasidan jilmayib qo'ysam o'rnimikin yo nojo'ya chiqarmikin, deya taraddudlanib turardi aftidan, biroq ayni shu soniyada bog' eshik oldiga ikki g'ildirakli yengil izvosh kelib to'xtab, undan semiz jentlmen sakrab tushdi-yu, to'g'ri eshikka qarab yugurgiladi va qandaydir sirli tarzda ko'z ochib yumgunchalik daqiqada uyda paydo bo'lib, xonaga otilib kirarkan, sal bo'lmasa mister Jaylsga qo'shib nonushtalikka tuzab qo'yilgan stolni ag'darib yuborayozdi.

— Umrin bino bo'lib bunaqa gapni eshitmagandim! — xitob qildi semiz jentlmen. — Azizam missis Meyli... Yo Tangrim!.. Yana tag'in tun qorong'usida-ya... sirayam eshitmagandim bunaqasini!

Semiz jentlmen shu tariqa o'z hamdardligini namoyon etgancha, har ikkala xonimning qo'lini siqib ko'rishdi-da, kursini yaqinroq surib, ulardan hol-ahvol so'rashga tutindi.

— Omonatini topshirib qo'yishingiz hech gapmasdi, ha, qo'rquvdan o'lib qolishingiz mumkinidi, — dedi semiz jentlmen. — Nega men-ga odam yubormadingiz? Vijdonan aytaman, xizmatkorim ko'z ochib-yumguncha yetib kelardi, shuningdek, o'zim ham, keyin yordamchim ham xizmatingizda bo'lsa boshi ko'kka yetardi, boshga falokat tush-

ganda har qanday odam qarab turmaydi-ku, axir. Yo Rab, yo Tang-rim! Shunday kutmagan bir paytda-ya! Yana tag'in qop-qorong'i tunda-ya!

Chamasi, doktor, go'yoki janobi o'g'rilar o'z ishlarini kup-pa-kunduzi bajarishlari va aloqa bo'limi orqali ikki-uch kun burun ogohlantirib qo'yishlari rasm bo'lib qolganday, uyni o'marib ketish-ga to'satdan, innaykeyin, kechasi uringanlaridan, ayniqsa tashvishga tushib qolgandi.

— Siz esa, miss Roz, — dedi doktor yosh xonimga murojaat qilib, — men...

— Shunday, albatta, — uning so'zini bo'ldi Roz, — xolam tepada yotgan sho'rlikni ko'rib qo'ysin degandilar.

— Ha, ha, turgan gap, — javob berdi doktor. — To'ppa-to'g'ri! Fikri ojizimcha, bu sizning ishingiz-a, Jayls.

Idishlarni jonsaraklik bilan yig'ishtirayotgan mister Jayls sholg'omday qizarib ketdi va bu sharaf unga tegishli ekanini aytdi.

— Sharaf dedilarmi? — qaytarib so'radi doktor. — Yo'g'-e, yana bilmadim-u lekin o'n ikki qadam masofadan turib bironvi otish qanchalik sharaf bo'lsa o'choqboshida turib o'g'rini otib yaralash ham o'shanchalik sharafdir-ov. Bir ko'z oldingizga keltiring-a, Jayls, siz duelda olishyapsiz-u raqibingiz bo'lsa havoga o'q uzyapti.

Ishga bunchalik yengil-yelpi munosabatda bo'lishni o'z shuhratini kamsitishga urinish, deb hisoblagan mister Jayls ehtirom-la, bu borada bosh qotirib o'tirish uning vazifasi emasligini, ammo-lekin, o'zining fikricha, raqib tomonning ahvoli hazilakam emasligini aytdi.

— Ha, haq gap! — xitob qildi doktor. — Qayerda u? Yoniga boshlang-chi. Qaytishda bu yerga kirib o'taman, missis Meyli. U oshib tushgan o'sha derazami? Voy-bo', ikki dunyoda ham ishonmagan bo'lardim bunga!

Doktor vaysagancha mister Jaylsning orqasidan tepaga ko'tarila boshladi. Toki u zinadan tepaga chiqib borayotgan ekan, bu fursatdan foydalanib kitobxonni mister Losbernning shu yerlik tabib ekani, o'n chaqirimlab tevarak-atrofdagilarning jamikisi uni «doktor» deb bilishi, farovon hayot kechirishdan ko'ra ko'proq bag'ri kengligidan semirib ketgani, g'oyatda yoqimtoy va ochiqko'ngilligi, ustiga-ustak birorta kashfiyotchi bu viloyatdan maydoni besh baravar kattarog'ini chiroq yoqib izlagan taqdirida ham topolmaydigan chiza dumbulroq keksa bo'ydoq ekanidan voqif etsak bo'ladi.

Doktor o'zi va ikkala xonim o'ylaganidan ko'ra xiyla uzoq-roq tutilib qoldi. Izvoshdan kattakon yapasqi yashikni olib kirishdi; xobgohda bot-bot qo'ng'iroq chalinib turdi, xizmatkorlar esa zinadan beto'xtov chiqib-tushib tanda qo'yib qolishdi; ana shu belgi-

nishonalarga asoslanib, tepada nihoyatda jiddiy ish borayotibdi, degan haqqoniy xulosaga kelindi. Nihoyat doktor tushib keldi va hemor xususidagi tashvishli savollarga javoban qiyofasiga o'ta sirli tus berib, eshikni zichlab berkitdi.

— Bu g'ayriodatiy bir hodisa, missis Meyli, — dedi doktor, xuddi birov ochmasin degandek, orqasi bilan eshikka suyanib.

— Nahotki uning hayoti xavf ostida bo'lsa? — so'radi kekxa xonim.

— Butun shart-sharoit e'tiborga olinsa, buning hech qanaqangi g'ayriodatiy tomoni bo'lmasligi ham mumkin-a, — javob berdi doktor, — darvoqe, menimcha, xavfli joyi yo'q. O'zingiz o'g'rini ko'rdingizmi?

— Yo'q, — javob qildi xonim.

— U to'g'risida hech nima eshitmadingiz hammi?

— Hech nima.

— Afv etasiz, xonim, — gapga aralashdi mister Jayls, — doktor Losbern kirib kelganlarida u to'g'risida gapirmoqchi bo'lib endi og'iz juftlab turgandim.

Gap shundaki, oldiniga mister Jaylsning bor-yo'g'i bir bolakayni otganini tan olishga qurbi yetmagandi. Uning jasoratiga shunaqangi maqtov-u tahsinlar yog'ilgan edikim, u metin jasorati tufayli qozongan bebaqo shuhrati cho'qqisida ko'krak kerib turgan maftunkor daqiqalar nashidasini surarkan, sharh-u izoxotni aqalli bir necha fursat keyinroqqa surish istagini aslo tiyolmagandi.

— Roz uni birrovgina ko'rmoqchi bo'lgandi, — dedi missis Meyli, — lekin men buni eshitishni ham istamadim.

— Hm! — deb qo'ydi doktor. — Ko'rinishi mutlaqo qo'rqinchli emas. Kaminaning hamrohligida unga ko'z qiringizni tashlashga qarshimasiz?

— Albatta, agar bu zarur bo'lsa, — javob berdi kekxa xonim.

— Kamina zarur deb hisoblaydi, — dedi doktor. — Har holda, imonim komilki, agar bu ishni keyinga qoldirib; hozir ko'rmaydigan bo'lsangiz, judayam afsuslanasiz. Hozir u tinch, qimir etmay yotibdi. Ruxsat eting... miss Roz, ijozatmi? Sha'nim haqqi ont ichaman, qo'rqishga hech qanaqangi asos yo'q!

---

---

XXX BOB. OLIVERNI ZIYORAT QILGAN YANGI  
ZOTLARNING QANDAY XAYOLLARGA  
BORGANLARINI NAQL ETADI

Doktor jinoyatchini ko'rib hazilakam taajjublanmasliklarini qayta-qayta takrorlagan ko'yi navqiron xonimning qo'lini qo'ltig'iga oldi-da, ikkinchi, bo'sh qo'lini missis Meyliga tutib, ularni tantanavor qiyofada, asasa-yu dabdaba bilan tepaga boshladi.

— Ana endi, — pichirladi doktor astagina xobgoh eshigi bandini burar ekan, — bir eshitaylik-chi, u haqda nima derkansizlar. Odam Ato zamonidan beriga betiga ustara tegmagan, shunga qaramay afti sirayam vahimali emas. Darvoqe, shoshmay turinglar-chi! Oldin qarab ko'ray, mehmonlarni qabul qilishga tayyormikin.

Doktor xonimlardan oldinga o'tib, xonaga qadam qo'ydi. So'ngra, ortimdan kiraveringlar, deya ishora qilib, ularni ichkariga o'tkazib, eshikni berkitdi-da, karavotning chodir-pardasini ehtiyotkorlik bilan qayirdi. Karavotda ular kutganiday badbin, o'ng'almas gazzob o'rnida qiltiriq, og'riqdan azob chekkan bir go'dak dang qotib uxlab yotardi. Jarohati boylangan yarador qo'li ko'ksida, boshini sog' qo'liga qo'yib yotibdi, yostiq bilan bitta bo'lib yoyilgan sochi bilagining yarmini qoplagan.

Muhtaram jentlmen pardani qayirgan ko'yi biron daqiqacha bolakayga indamay tikilib turdi. U bemorini kuzatarkan, yosh xonim lip etib uning qo'li bilan parda oralig'idan o'tdi-yu, karavot yonidagi kursiga o'tirdi-da, Oliverning yuzini yopib turgan sochlarini qaytarib qo'ydi. Bolaning ustiga egilarkan, qiz ko'zlaridan yumalagan yosh uning peshonasiga tom-di.

Bola qimirlab, bamisli bu rahm-shafqat hamda hamdardlik niшонasi bo'lmish yosh tomchilari qandaydir bir yoqimli, u umrida ko'rmagan mehr-oqibat-u erkalash orzusini tug'dirganday, uyqusi-da jilmayib qo'ydi. Xuddi shuningdek, mayin kuy, suvning osudalik qo'ynida chuldirashi, chechak atri yoxud tanish bir kalima so'z ham goho qo'qqisdan kishi hayotida tag-tugida bo'lmagan shirava xotirotni — bu xiyla dorilomon kunlar haqidagi oniy uchqur orzular qanotida paydo bo'lgan va bir xo'rsiniq misoli uchib g'oyib bo'ladigan xotirotlar — zo'rlash bilan xotirotni ko'zgusida aslo jonlantirib bo'lmaydigan xotirotlarni gavdalandiradi.

— Bu qanaqasi bo'ldi? — nido soldi keksa xonim. — Bu sho'rlik go'dak o'g'ri-muttahamlarning sherigi bo'lishi mumkin emas.

— Qusur-u illat aksariyat qasr-u ehromlardan o'ziga maskan topa oladi, — dedi tabib xo'rsinib, parda chetini qo'yib yuborar ekan. — Shundoq bo'lgach, ajoyib qobiq — kelishgan tana — unga manzil bo'lolmaydi deb kim ham ayta oladi?

— Shunday yosh bola-ya? — e'tiroz bildirdi Roz.

— Aziz jajji xonimginam, — dedi tabib nadomat-la bosh chayqab, — jinoyat, xuddi ajal singari, nafaqat keksayib, qiltillab qolganlarga-gina hukmini o'tkazadi. Eng yosh-u eng ajoyib jonlar ham tez-tez tushib turadilar bunday gunoh tuzog'iga.

— Nahotki... o, nahotki siz shu murg'akkina go'dakni eng qabih, rasvoyi raddi ma'raka murtadlarga o'z ixtiyori bilan qo'shilgan, deb o'ylaysiz?

Doktor, juda bo'lishi mumkin-da, degan ma'noda bosh irg'ab qo'ydi; u xonimlarni bolani bezovta qilmasliklarini ogohlantirib, ikkovlarini qo'shni xonaga boshladi.

— Bordi-yu u hatto yo'ldan ozgan taqdiridayam, — so'zini davom ettirdi Roz, — o'zingiz o'ylang, hali g'irt go'dak-ku. Bir o'ylab ko'ring, balki u hech qachon na ona mehrini, na oilaviy huzur-halovatni ko'rmagan, bilmagandir. Ehtimol, yomon muomala, kaltaklashlar yoki ochlik uni zo'rlab jinoyatga boshlagan odamlarga qo'shilib ketishga majbur etgandir... Xola, o'rgilay xola, xudo haqqi, bechora kasal bolani qamoqqa tiqishlariga ruxsat berishdan oldin bir o'ylab ko'ring, u yoqda, turgan gapki, tuzalishiga bo'lgan eng oxirgi umid uchquniyam so'nib, adoyi tamom bo'ladi-ku! Siz meni sevasiz, sizning mehribonchiligingiz va saxovatingiz sharofati bilan hech qachon yetimligimni his qilmaganimni yaxshi bilasiz, lekin buni his qilishim, manavi sho'rlik go'dakka o'xshab, nochor-u notavon, himoyachisiz ojiza bo'lib qolishim ham mumkin edi-ku! Shuning-chun, vaqt borligida bunga ham shafqat qila qoling!

— Jonim bolam-ey, — dedi keksa xonim yig'lab turgan qizni bag'riga bosib, — nahotki meni uning boshidagi hatto bitta tukiga qo'l tekkizadi deb o'ylasang?

— Yo'g'-e! — deya qizg'in xitob qildi Roz.

— Albatta, unday qilmayman, — gapini tasdiqladi keksa xonim. — Umrim poyoni-zavoliga yaqinlab boryapti, shu sababli o'zim marhamat-u shafqat umidida ekanman, odamlarga nisbatan marhamatli bo'lishga harakat qilaman... Uni qutqarib qolish uchun nima qilishim kerak, ser?

— Mulohaza yuritib ko'rishimga imkon bering picha, xonim, — dedi doktor, — bosh qotirib ko'rishga...

Mister Losbern qo'llarini cho'ntagiga suqqancha, bir necha marotaba xonada u yoqdan-bu yoqqa borib keldi, dam-badam yurishdan to'xtab, oyog'i uchiga ko'tarilgan damlarida vahimali qiyofada qovog'i uyilib ketardi. Bir necha marta: «Topdim!» — «yo'q, bo'lmaydi bu!» — deya xitob qildi-da, yana qoshlarini chimirgancha nari-beri borib-kelaverdi, axiyri to'xtab, shunday dedi:

— Nazdimda, basharti Jayls bilan anavi bolakay Britlsni boplab qo'rqitib qo'yishimga izn bersangiz, bu ishni epini qilarman-ov. Bilaman, Jayls — sadoqatli odam va eski xizmatkor, lekin sizning izmingizda u bilan yana inoqlashib ketish, buning ustiga merganligi uchun taqdirlashning minglab yo'rig'i bor. Qarshimasimisiz bunga?

— Agar bolani qutqarib qolishning o'zga chorasi bo'lmasa, — javob berdi missis Meyli.

— Boshqa hech qanaqangi chorasi yo'q, — dedi doktor. — Ha, hech qanaqangi! Gapimga ishonavering!

— Unday bo'lsa xolam sizga cheklanmagan haq-huquq beradilar, — dedi Roz ko'z yoshlari orasidan jilmayib. — Lekin, o'tinaman, u sho'rliklarga nisbatan keragidan ortiqcha qattiqqo'llik qilmasangiz.

— Siz, miss Roz, — e'tiroz bildirdi doktor, — bugun o'zingizdan boshqa hammani toshbag'ir deb hisoblayapsiz chog'i. O'sib-ulg'ayib kelayotgan erkaklar vakillari baxt-saodati haqqi, shu narsagagina umid qilamanki, sizning qalbingizda achinish hissini tug'dirgan dastlabki munosib yigitcha xuddi mana shunday ta'sirchan hamda rahmdil ko'nglingizni darrov iydrib yuboradi. Qani endi shu topda yigitcha bo'lib qolsam-u bugungidek qulay fursatdan hayallamay foydalansam.

— Siz ham xuddi Britlsga o'xshagan soqoli chiqqan bolakaysiz, — dedi Roz lolaqizg'aldoqdek qizarib.

— Nimayam derdim, — samimiy kuldi doktor, — bu unchalik mushkul ish emas. Lekin bola masalasiga qaytaylik. Bitimimizning asosiy bandini muhokama qilib olishimiz kerak hali. Taxminimcha, u biror soatdan keyin uyg'onadi. Garchandki anavi, pastdagi haftafahm konstebelga, bolani bezovta qilish mumkin emas va gaplashish sog'ligi uchun xavfli, deb aytgan bo'lsam ham, o'ylaymanki, u bilan gaplashib olsak bo'ladi, buni xatarli joyi yo'q. Kaminaning sharti shu: sizlarning shohidligingizda undan so'rab-surishtiraman va basharti, uning so'zlari asosida (aql-u zehnimiz qanoatlansa, albatta), butunlay yo'ldan ozgan, degan xulosaga kelsak (bu haqiqatga yaqinroq), bolani o'z qismati hukmiga havola qilamiz, har holda, men ortiq aralashmayman.

— Yo'q-yo'q, xolajon! — iltijo qildi Roz.

— Xo'p deyavering xolasi! — so'zini bo'ldi doktor. — Kelishdikmi?

— U o'ng'almaydigan yaramas emasdir-ov! — dedi Roz. — Aql-ga sig'maydi bu.

— Juda soz! — dedi doktor. — Demak, u taqdirda kaminaning taklifini qabul etish yanayam asosli bo'ladi.

Oxir-oqibatda bitim tuzilib, har ikkala tomon Oliverning uyg'onishini bir qadar sabrsizlik bilan kuta boshlashdi.

Ikkala xonimning sabr-toqatlarini mister Losbern bashorat qilganidan chandon ortiqroq muddatga cho'ziladigan imtihon kutayotgan edi, zeroki soat ketidan soat o'tib borar, Oliver esa hanuz tosh qotib uxlardi. Ko'ngli bo'sh doktor Oliverning gaplasha oladigan darajada o'ziga kelgani xabarini keltirganida kech kirib bo'lgandi. Doktorning so'ziga qaraganda bolaning dardi juda og'ir va qon ketishidan zaiflashib qolgan ekan-u, biroq uning nimanidir aytaman, deb juda qiy-nalayotganini ko'rib, doktor unga bunday imkoniyat berishni ma'qul topdi va go'dakni ertalabgacha bezovta qilmaslikni qat'iy talab qilib o'tirmadi; aks holda, u bu talabini mutlaqo bo'shashtirmagan bo'larkan.

Suhbat cho'zilib ketdi. Oliver oddiygina hayoti ro'znomasini ular-ga iker-chikirigacha so'zlab berarkan, og'riq va darmonsizlik uni bot-bot jim qolishga majbur etardi. Boshiga beshafqat odamlar sol-gan behisob ranj-u alam, falokatlarni marjon yanglig' qat-qat ipga tizib tashlayotgan bemor bolaning zaif ovozi g'ira-shira xonada ha-zin-u g'amgin eshitilardi. O, koshki edi biz, o'z yaqinlarimizni ezib, zulm o'tkazarkanmiz, insoniy xato-yu yanglishishlarning dahshatli dalil-u isboti — boshimizdan intiqom jalasini yog'dirmoqlik uchun ko'kka o'rlayotgan qalin va vazmin bulutlar singari asta-asta, am-mo qat'iy tarzda samo sari parvoz etayotgan dalil-u isbotlar xususida loaqal bir marta o'ylab ko'rsagidi-ya. O, qani endi biz marhumlar-ning olamda hech qanday kuch bo'g'ib qo'ya olmaydigan, hech qan-day g'urur-u takabburlik unini o'chira olmaydigan bosinqi, fosh et-guvchi ovozlari tasavvurotimiz qulog'i bilan aqalli bir lahzagagina eshitolsak! Hayotning har bir kuni yog'dirayotgan haqorat-u adolat-sizlik, g'am-alam-u qashshoqlik, shafqatsizlig-u tahqirlash, ranj-u ozorlardan nima qolardi u chog'da!

O'sha oqshom Oliverning yostig'ini mehribon qo'llar to'g'rilab qo'ydi, to uyquga ketguniga qadar go'zallig-u saxovat timsoli qoshida parvona bo'ldi. U xotirjam va baxtiyor, hatto g'iq etmay jon berishga ham tayyor edi.

Mazkur muhim suhbat tugagani va Oliver yana uyquga keta bosh-lagani hamonoq doktor ko'zlarini ishqalab, ayni chog'da ularning ko'ngilbo'shliklaridan o'pkalagancha pastga, mister Jaylsga qarshi ish boshlagani tushib ketdi.

Old xonalarda hech kimni ko'rmagach, basharti ishni o'choq-boshida boshlaydigan bo'lsam, balki katta muvaffaqiyatga erisharman, deb o'yladi; shunday qilib u oshxona sari yo'l oldi.

Bu yerda, xonadon parlamentining quyi palatasida, oqsochlar, mister Britls, mister Jayls, misgar (ko'rsatgan xizmatlari mukofoti tariqasida u kun oxirigacha mehmon bo'lish xususida maxsus taklif etilgandi) va konstabl jam bo'lishgan edi. Bu keyingi janobning hokimiyat vakili alomati bo'lmish kattakon asosi bor edi, kalasi xumday, yuz tuzilishi dag'al, oyog'ida so'loqmonday boshmoq, basharasidan talaygina sharob ichgan odamga o'xshab o'tirar, aslida ham shundoq edi.

Kechagi tungi sarguzashtlar hanuz muhokama mavzui xizmatini o'tayotgan edi chamasi, zero, doktor kirib kelgan pallada mister Jayls o'zining ruhan qandayin bardam ekanligi borasida og'iz ko'pirtirayotgandi; mister Britls qo'lida krujkada sharob ushlagancha boshlig'ining og'zidan chiqayotgan so'zlarni tasdiqlab turardi.

— O'tiraveringlar, — dedi doktor qo'lini silkib.

— Tashakkur sizga, ser, — javob qildi mister Jayls. — Beka bizga sharob berishni buyurdilar, ser, innaykeyin desangiz, o'z xonamga qaytishga zarracha maylim bo'lmagani hamda ko'nglim jamoat bilan bir otamlashishni tusab qolgani tufaylidan, o'zingiz ko'rib turibsizki, shu yerda ular bilan ulfatchilik qilib o'tiribman, ser.

Birinchi bo'lib Britls, undan keyin xonimlar va jentlmenlar mister Jayls ko'rsatgan iltifot-u muruvvatdan nechog'lik mamnun ekanlarini pichirlabgina izhor etdilar. Mister Jayls, go'yoki o'zlaringni munosib tutar ekansizlar, sizlarni tark etmayman, deyayotgandek, atrofdagilarga bir-bir nazar tashlab chiqdi.

— Bemorning ahvoli qalay shu topda, ser? — so'radi Jayls.

— Yaxshimas, — javob qildi doktor. — Mister Jayls, mushkul ahvolga tushib qolmadingizmikin, deb qo'rqib turibman-da.

— Umid qilamanki, ser, — deya gap boshladi mister Jayls qal-tirab ketib, — bu bilan, u olamdan o'tadi, demoqchimasdirlsiz? Agar bu ishni shunday o'y bilan qilgan bo'lsam, bir umrga oromim yo'qolardi-ya. Birorta bolani nobud qilishga ikki dunyoda rozi bo'lmasdim — hatto manovi Britlsni ham — ha, butun graflikdagi jamiki kumush idish-tovog'-u qoshiq-sanchqilarni va'da qilganlaridayam ko'nmasdim, ser.

— Gap bunda emas... — dedi doktor sirli ohangda. — Mister Jayls, o'zlari protestantmilar?

— Shunday, ser, imonim shohid, — dedi mister Jayls duduqlanib.

— Xo'sh, siz-chi, yigitcha? — deb so'radi doktor Britlsga keskin o'girilib.

— Xudoni o'zi kechirsin, ser, — dedi Britls bir cho'chib tushib. — Men... men mister Jayls nima bo'lsalar, men ham o'shaman, ser.

— Undoq bo'lsa, — so'roqni davom ettirdi doktor, — ikkovinglar javob beringlar-chi, ha ikkovinglar: anavi, tepadagi bolani — kecha kechasi o'g'rilar derazadan tushirishgan aynan o'sha bola deb qasam ichib guvohlik berishga tayyormisiz! Javob beringlar! Xo'sh? Qulog'imiz sizda.

Hammalari olamda eng muloyim odamlardan biri deb hisoblaydigan doktor bu savolni shunchalar qahrli ohangda berdiki, sharob ta'sirida yetarli darajada qizishgan va shirakayf Jayls bilan Britls qutlari uchib, bir-birovlariga qarab olishdi.

— Diqqat bilan quloq soling, konstebel, — dedi doktor shahodat barmog'ini bag'oyat dag'dag'ali o'ynatib va mazkur muhtaram zotning bor zehni-yu sinchkovligini sergak torttirish niyatida o'sha barmog'i bilan qanshariga to'qillatib nuqib. — Hozir ba'zi narsalar oydinlashishi kerak.

Konstebel uddasidan chiqqanicha donishmandona qiyofaga kirdi va kamin oldidagi burchakda bekor turgan hakamlik asosini qo'lga oldi.

— Ko'rib turganingizdek, bu — shaxsni aniqlash masalasi, — dedi doktor.

— Mutlaqo to'g'ri, ser, — javob qaytardi konstebel qattiq-qattiq yo'talib negaki, u sharobini hovliqib ko'tarib yuborgan va sharob boshqa yo'lga ketib qolgandi.

— Uyga o'g'rilar bostirib kirishadi, — so'zida davom etdi doktor, — shunda ichkaridagi ikki kishi qorong'ida, xavf-u xatar eng avjga chiqqan bir paytda, yana tag'in otishma dudi orasidan, allaqanday bir bolakayni birrov ko'rib qolishadi. Erta-mertan xuddi o'sha uyga bir bolakay kelib qoladi, uning qo'li boyloq bo'lgani vajidangina boyagi odamlar uni qo'pollik bilan chippa ushlashadi — bu harakatlari bilan bolaning hayotini jiddiy tahlikaga qo'yishadi va uni o'g'ri deb ont ichishadi. Bundan bitta savol tug'iladi: bu odamlarning xatti-harakatlari haqmikin, bordi-yu nohaq bo'lib chiqqudek bo'lsa-chi, u chog'da bular o'zlarini qay vaziyatga solib qo'yishadi?

Konstebel chuqur mulohazakorlik bilan bosh irg'adi. U, basharti bu g'ayriqonuniy harakat bo'lmasa unda nima ekanini bilishni istashini aytdi.

— Sizlardan yana bir karra so'rayman, — dedi doktor dag'dag'ali ovoz bilan, — bu xuddi o'sha bola, deb tantanali qasamyod qila olasizlarmi?

Britls ikkilanibroq mister Jaylsga qaradi, mister Jayls ikkilanib Britlsga yuzlandi; konstebel javobni ilg'ab olish maqsadida qo'lini qulog'iga tutdi; ikkala ayol bilan misgar yaxshiroq eshitish uchun

oldinga egilishdi; doktor ziyraklik bilan atrofidagilarni kuzatishga kirishgandi, shu asnoda to'satdan darvozaning qo'ng'irog'i jingillab, ayni chog'da g'ildiraklarning taraqlagani eshitildi.

— Bu politsiya izquvarlari! — nido soldi Britls, aftidan, u xiyla yengil tortgandi.

— Nima dedingiz? — qichqirib yubordi doktor, o'z navbatida, endi uni vahima bosib.

— Bou-strit agentlari, ser, — javob berdi Britls shamni qo'liga olarkan. — Mister Jayls ikkovimiz ertalab ularga odam jo'natgandik.

— Odam jo'natgandik, hali shunaqa deng! Padariga ming la'nat sizni... sizni o'sha aravalaringizni — arang surgalib yuradi-ya! — dedi doktor oshxonadan chiqayotib.

---

## XXXI BOB. TANG VAZIYAT XUSUSIDA HIKOYA QILADI

— Kim bu? — so'radi Britls, keyin eshikni qiya ochdi-da, zanjirini tushirmay, kafti bilan shamni pana qilib, tashqariga mo'raladi.

— Eshikni oching, — javob qildi tashqaridagi odam. — Bugun odam yuborganlaring — Bou-strit agentlari bo'lamiz.

Bu javobdan mutlaqo ko'ngli joyiga tushgan Britls eshikni lang ochdi-yu, qarshisida palto kiygan basavlat odamga ko'zi tushdi; u odam ortiq bir og'iz ham so'z aytmay, ichkari kirdi-da, go'yoki shu yerda turadigandek sovuqqonlik bilan oyoq kiyimini bo'yraga surtib tozalayverdi.

— Qani, yigitcha, oshnamning o'rniga birontasini jo'nating-chi, — dedi agent. — U izvoshda otni poylab qoldi. Izvoshni besh-o'n daqiqaga kiritib qo'ysa bo'ladigan joy-poylaring bormi?

Britls ijobiy javob qilib, ularga kerakli binoni ko'rsatgach, basavlat kishi darvoza yoniga qaytib borib, hamrohiga ikki g'ildirakli izvoshni bostirmaga kiritib qo'yishiga yordamlashdi, bu orada o'zida yo'q xursand Britls bajonidil ularga sham tutib turdi. Bu ishlarni tugatgach, ular uyga qarab yurishdi va mehmonxonaga boshlab kirishganida paltolari bilan shlyapalarini yechib, butun husn-jamollari-yu bo'y bastilari ila namoyon bo'lishdi.

Eshikni taqillatgani chayir gavdali, ellik yoshlar chamasidagi, o'rta bo'y, nihoyatda kalta qilib kuzalgan qop-qora yaltiroq sochli, chakka soqol qo'ygan, yumaloq yuzli va o'tkir ko'zli odam edi. Sherigi esa malla, qotmadan kelgan, qaytarma qo'nj etik kiygan bo'lib, basharasi sovuq, xunukdan-xunuk tanqaburun odam ekan.

— Sohibingizga xabar qiling, Bleters bilan Daff kelishibdi, deng, eshityapsizmi? — dedi basavlat kishi, sochini silab, bir juft kishanni stolga qo'yar ekan. — O, oqshomlari xayrli bo'lsin, taqsir! Ijozatlari bilan o'zlariga xoli joyda ikki og'iz gap aytсам.

Ushbu so'zlar xonaga kirib kelgan mister Losbernga qaratilgan edi; mazkur jentlmen Britlsga imo bilan gumdon bo'lishni buyurib, ikkala xonimni ichkariga kiritdi-da, eshikni yopdi.

— Bu kishi xonadon sahibasi bo'ladilar, — dedi mister Losbern missis Meylini ko'rsatib.

Mister Bleters ta'zim bajo keltirdi. O'tirishga izn tekkach, u shlyapasini yerga qo'yib, kursiga joylashdi-da, Daffga ham o'zidan ibrat olishini imo qildi. Tuzukroq davraga ko'pda ko'nikmaganidanmi, bunday davrada o'zini emin-erkin sezmagani-danmi, haytovur mazkur jentlmen bir qator esankiragan, talvasalangan kishi xatti-harakatlaridan so'ng, parokandalik bilan hassasi tutqichini og'ziga tiqqan ko'yi kursiga cho'kdi.

— Ana endi o'g'irlik masalasi bilan shug'ullanamiz, taqsir, — dedi Bleters. — Ish qanday holatda?

Mister Losbern, chamasi, vaqtdan yutish istagida, shart-sharoitni g'oyatda batafsil ham talaygina bo'yab-bejashlar bilan so'zlab berdi. Bleters va Daff janoblarining ko'rinishi o'ta farosatli, tiyrak edi va ahyon-ahyonda bir bosh irg'ab olishardi o'zaro.

— Toki voqea sodir bo'lgan joyni ko'rmasdan turib, qat'iy bir gap aytolmayman, albatta, — dedi Bleters, — lokigin shu topdagi fikrimcha — bu jabhada o'z niyat-rejalarimni o'rta-ga tashlashga tayyor-man, — mening fikrimcha qandaydir biron qishloqining ishiyamas bu. A labbay, Daff?

— Turgan gap, — sado berdi Daff.

— Inchunin, «qishloqi» degan so'zingizni xonimlarga tarjima qilib beradigan bo'linsa, siz, kaminaning fikri ojizicha, bu ishni qishloqda turadigan odam qilmagan, deb hisoblaysiz ekan-da, shundaymi? — kulib turib so'radi mister Losbern.

— Balli, taqsir, — javob berdi Bleters. — O'g'irlik yuzasidan bo'lak hech qanday tafsilot yo'qmi?

— Hech qanday, — dedi doktor.

— Anavi xizmatkorlar allaqanday bola to'g'risida valaqlashyaptimi? — so'radi Bleters.

— Bo'lmag'ur gap, — dedi doktor. — Xizmatkorlardan biri o'takasi yorilayozganidan, qo'rqqanga qo'sha ko'rinadi deganlaridek, o'sha bolani talonchilarga qandaydir aloqasi bor, degan gapga yopishib olibdi, desangiz. Illo bu bema'ni gap, g'irt safsata.

— Bordi-yu, shundoq bo'lsa, ta'zirini berib qo'yishdan osoni yo'q, — dedi Daff.

— To'g'ri aytyapti u, — tasdiqladi Bleters ma'qullab bosh irg'ab va xuddi bir juft qayroqdek, qo'l kishanini beparvogina shiqirlatib o'ynagancha. — Bolaning o'zi kim? O'zi to'g'risida nimalarni gapirib berdi? Qayoqdan kelib qolibdi? Axir, osmondan tushmagandir-ku, taqsirim?

— Shubhasiz, undoqmas, — javob qildi doktor, ikkala xonimga bezovta nigoh tashlab qo'yarkan. — Uning butun tarixi kaminaga ayon, biroq bu haqda keyinroq gaplashsak ham bo'ladi. O'ylaymanki,

avvalambor o'g'rilarning uyga kirishga uringan joylarini ko'rish qiziqirsam kerak sizni?

— Albatta, — gapni ilib ketdi mister Bleters. — Oldiniga o'sha joyni ko'zdan kechirganimiz ma'qul, ana undan keyin xizmatkorlarni so'roq qilarmiz. Ishni tekshirish va tergov qilish tartibi shunday o'zi.

Chiroq keltirdilar, janobi Bleters va Dafflar mahalliy konstabl, Britls, Jayls hamda, qisqa qilib aytganda, boshqalarning jamikisi kuzatuvida uzun yo'lakning narigi boshidagi hujraga kirib, derazadan boshlarini chiqarib qarashdi, shundan keyin uy tevaragidagi maysalar ustidan aylanib o'tib, o'sha derazadan ichkariga mo'ralab ko'rishdi; so'ngra deraza qopqoqlarini ko'zdan kechirish uchun qo'llariga sham tutqazdilar; undan so'ng izlarni aniqlamoqlik uchun fonus tutdilar; eng oxiri butalar orasini titib, axtarib ko'rmoq uchun panshaxa berdilar. Jamiki tomoshabinlarning diqqat-e'tiborli kuzatuvlari ostida shu ishlar nihoyasiga yetkazilgach, ular yana uyga kirishdi, o'sha ondayoq Jayls bilan Britls o'tgan kechasi boshdan kechirgan ta'sirli hamda fojiaiy sarguzashtlarini bayon etishlari lozim edi; sarguzashtlarini ular birinchi gal bir muhim nuqtasida, oxirgi gal esa o'nga yaqin joyida bir-birovlariga zid gapirib, besholti marta takrorladilar. Bleters bilan Daff ana shunaqangi muvaffaqiyatlarga erishgan, hammani xonadan chiqarib yuborib, ikkovlon uzoq vaqt shunchalar maxfiy hamda tantanavor kengash qurdi-larkim, buning oldida tibbiyot jabhasidagi eng mushkul hol-hodisani muhokama qilayotgan ulug' hakamlarning maslahat majlislari bolalar ermagiday bir gap edi.

Bu orada tashvishi had-hududidan ortib ketgan doktor qo'shni xonada u yoqdan-bu yoqqa zir qatnar, missis Meyli bilan Roz unga xavotir-la tikilishardi.

— Rostini aytsam, — dedi u xonada behisob-u besanoq karra borib-kelib, nihoyat to'xtarkan, — nima qilishimniyam bilmay qoldim.

— Ochig'i dedi Roz, — agar bu kishilarga sho'rlik bolaning tarixini haqqoniy gapirib berilsa, uni oqlash uchun shuning o'zi kifoya bo'ladi-ku.

— Dargumon-ov bu, oyimqizginam, — boshini sarak-sarak qilib e'tiroz bildirdi doktor. — Bu narsa na manavilarning ko'z o'ngida, na ulardan ko'ra chandon yuqoriroq martabadagi odil sud hakamlari ko'zi oldida oqlay oladi bolakayni. Sirasini aytganda, kim o'zi u? — deyishadi. — Bitta qochoq-da! Basharti, faqat aql-idrok hukmi a'moliga rioya qilingudek bo'linsa, uning tarixi nihoyat darajada haqiqatdan yiroq...

— Lekin o'zingiz-chi, ishonasizmi unga? — uning gapini bo'ldi Roz.

— Shunisi hayron qolarliki, o'zim ishonaman, innaykeyin, men qari ahmoq bo'lsam kerak aslida, — javob berdi doktor. — Lokin shunga qaramay, bunaqangi safsata tajribali politsiya mansabdori uchun yaramaydi deb hisoblayman.

— Nega endi? — so'radi Roz.

— Shuning uchunkim, mening suluv tergovchim, — javob qildi doktor, — ularning nuqtayi nazari bilan qaralsa, bu hikoyaning xunuk tomonlari talaygina: bola yomon taassurot qoldiradigan dalil-u jihatlarinigina isbotlab berishi mumkin, xolos, lekin o'zi uchun foydasi tegadigan birorta narsani isbotlolmaydi. Padariga la'nat bu nusxalarning! Nimaga-yu nima uchun deb hamma gapni ipidan-ignasigacha bilishni istashadi, keyin og'zaki gapga o'la qolsa ishonishmaydi. Ma'lumimgizkim, uning o'z og'zidan eshitgan gaplarga qaraganda bola ma'lum muddat mobaynida o'g'rilar davrasida bo'lgan; uni bir jentlmenning cho'ntagini shipirib ketishda ayiblab, politsiya mahkamasiga jo'natganlar; o'sha jentlmenning uyidan uni zo'rlab allaqayoqqa olib ketganlar, o'sha joyni bo'lsa bola na tasvirlab, na ko'rsatib bera oladi, buning ustiga hozir yotgan yeri haqida zarracha tasavvur-u tushunchaga ega emas. Xohlaydimi yo xohlamaydimi, uni go'yoki o'ziga yaqin allaqanaqangi odamlar Chertsiga olib keladilar-da, uyni ko'tarib ketish maqsadida derazadan ichkariga itarib kirgizadilar, keyin esa, bola xonadon istiqomatchilarini o'yoqqa turg'azmoqchi, binobarin, zimmasidagi har qanday jinoyatni yuvib ketguchi ishni qilmoqchi bo'lib endi og'iz juftlagan ayni o'sha lahza-da anavi kaltafahm maxluq, to'nka eshikog'asi paydo bo'ladi-yu, unga qarata o'q uzadi. Xuddi ataylab bolaning ezgu niyatiga xalal berishga qasd qilgan deysiz. Endi hammasi tushunarli bo'lgandir?

— Albatta, tushunarli bo'ldi, — javob berdi Roz doktorning haya-jonli nutqiga javoban kulimsirab, — lekin, har holda, buning sho'rlik bolaga zarari tegadigan hech qanaqangi tomonini ko'rmayapman.

— Ha, albatta, hech qanday! — dedi doktor. — Jinsdoshlarinigiz namoyandalarining o'tkir nigohlariga xudo quvvat bergay. Ular ishning bir tomoninigina — yaxshi yoxud yomon tomoninigina ko'radilar, innaykeyin desangiz, hamisha dastlab payqaganlarinigina.

Doktor hayotiy tajribasi samaralarini shu tariqa bayon etib, qo'llarini cho'ntaklariga suqdi-da, xona bo'ylab yanada ildamroq keza boshladi.

— Bu borada qanchalik ko'p o'ylaganim sayin, agar bu odamlarga bolaning haqiqiy tarixini so'zlab beradigan bo'lsak, tashvishdan qutulolmasligimizga shunchalik ishonchim ortib boryapti. Tur-

gan gapki, unga ishonmaydilar. Bordi-yu, tarjimayi holi hatto unga oxir-oqibatda ziyon yetkazmagan taqdirda ham, har qalay, tarixini oshkor etish, shuningdek, bu hol tug'diradigan shubha-gumonlar sizning bolani azob-uqubatdan xalos qilishdek saxovatli niyatingizga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

— Voy, unda nima qildig-a? — dedi Roz hayajon-la. — Voy xudoyim, xudoyim-a! Nimaga odam yuborishibdi-ya bularga?

— To'ppa-to'g'ri aytasan, nega? — nido soldi missis Meyli. — Ularni ikki dunyoda qadam bostirmagan bo'lardim-a uyimga.

— Men yolg'iz bir narsanigina bilaman, — dedi nihoyat Losbern, har qanaqangi ishga qo'l urishga tayyor odam qiyofasida kursiga cho'kar ekan, — yotib qolguncha otib qol qabilida ish tutib, imkoni bor narsaning jamini qilish, qilganda ham dadil bajarish kerak. Niyatimiz xolis va u qilmishimizni oqlovchi omilimiz bo'lsin. Bolada isitmaning jamiki belgi-alomatlari zohir, baski, u gaplashadigan ahvolda emas: bu esa bizga qo'l keladi. Biz bu holatdan iloji boricha foydalanib qolishimiz lozim. Bashartiki, oqibati xunuk bo'lib chiqqudek bo'lsa, bizning aybimiz emas bu... Kiring!

— Xo'sh deganingizdan, taqsir, bu ish pishitilmagan, xom ish, — deya gap boshladi Bletere o'z sherigi bilan ichkari kirib, eshikni zichlab berkitarkan.

— Jin ursin! Xom ish deganingiz nimasi? — sabrsizlik bilan so'radi doktor.

— Pishitilgan o'g'irlik deb, xonimlar, — dedi BleTERS, ikkala xonimga murojaat qilib, ularning johilliklariga achingan, ammo ayni chog'da doktorning omiligidan nafratlangan bir avzoyda, — biz xizmatkorlar ham qatnashadigan talonchilikni aytamiz.

— Mazkur ishda hech kim ulardan shubhalangani yo'q, — dedi missis Meyli.

— Mutlaqo bo'lishi mumkin, xonim, — javob qildi BleTERS, — biroq shunga qaramay ularning tili bir bo'lishi ham mumkin edi-da.

— Ulardan shubha qilmasliklari tufaylidan ham shunday bo'lib chiqishi ehtimoldan xoli emasdi-da, — qo'shib qo'ydi Daff.

— Bu shaharliklarning ishi deb topdik, — dedi BleTERS bayonnomasini davom ettirib. — Bag'oyat puxta ish.

— Ha, ustomonlik bilan bajarilgan, — deb qo'ydi Daff ohistagina.

— Ular ikki kishi bo'lishgan, — davom ettirdi BleTERS, — yonlarida bola ham bo'lgan. Derazaning hajmiga qaraganda bu kunday ravshan. Hozircha ayta oladigan gapimiz mana shular. Endi ijozatlaringiz bilan, biz hayallamay yuqori qavatda yotgan bolani chiqib ko'ramiz.

— Yuqoriga chiqishdan oldin ularni bir ho‘plamgina biron nima bilan siylasak qandoq bo‘larkin, missis Meyli, — dedi doktor chiroyi ochilib, xayoliga birdan qandaydir yangi fikr kelib qoldi chog‘i.

— Aytmoqchi, albatta! — so‘zni ilib ketdi Roz jo‘shqinlik bilan.  
— Agar istasanglar, hoziroq keltirib berishadi.

— Tashakkur sizga, miss — dedi Bleters yengi bilan og‘zini artib.  
— Vazifamiz o‘zi shunaqaki, tomog‘ing naq qaqrab ketadi. Boriga baraka, miss shu yerda boridan quyavering. Bizni deb aziyat chekib, ovora bo‘lib yurmang tag‘in.

— Nimani xohlardingiz? — so‘radi doktor yosh xonim bilan baravar javonga yaqinlashar ekan.

— Agar malol kelmasa, bir qultumgina spirtli ichimlik kifoya, taqsir, — javob qildi Bleters. — Londondan kelayotib yo‘lda sovqotib ketdik, xonim, keyin desangiz, men hamisha sovuqni kesadigan narsa spirt ekanini payqaganman.

Ushbu qiziqarli axborot missis Meyliga qaratilgandi va xonim unga lutfan quloq soldi. Toki bu axborot sharhi bayon etilarkan, doktor lip etib xonadan chiqib ketdi.

— Eh-hye! — dedi mister Bleters qadahni oyog‘idan emas, shahodat va bosh barmog‘i bilan belidan qisib ushlagancha ko‘kragi baravar ko‘tarib turarkan. — Kamina hayotlarida bunaqangi ishlarining ozmunchasini ko‘rmagan, xonim.

— Laoqal Edmonton yaqinidagi qishloq yo‘lida qulfni buzib kirib, uyni ko‘tarib ketganlarini olaylik, Bleters, — eslatdi mister Daff o‘z hamkasbiga.

— U xuddi shu ishga o‘xshardi-a, to‘g‘rimi? — gapni ilib ketdi mister Bleters. — Bu Chikuid Dog‘ulining ishi edi.

— Siz nuqul bu ishni o‘shanga yopishtirganingiz-yopishtirgan, — qarshilik bildirdi Daff. — Men bo‘lsam takror aytaman, bu ishni Pet Oilamand qilgan.

— Qo‘ysangiz-chi! — uning so‘zini bo‘ldi mister Bleters. — Bu kaminaga yaxshiroq ayon. Haligi, Dog‘ulining o‘zini talab ketganlari esingizdami? Toza hangoma bo‘lgandi-da. Har qanaqangi hikoyatdan qiziqroq desangiz.

— Qanday bo‘lgandi bu? — deb so‘radi Roz nomatlub mehmonlarning ochilib-sochilib turgan kayfiyatlarini yanada ko‘tarishni istab.

— Bunaqangi o‘g‘irlikni, miss, biror kimsa jiddiyroq qoralashi amrimahol edi, — dedi Bleters. — O‘sha Chikuid Dog‘ulining o‘zi desangiz...

— Dog‘uli mug‘ambir degani bo‘ladi, xonim, — tushuntirdi Daff.

— Xonimlar bu so‘zni tushunib turishibdi, shunday emasmi?.. — dedi Bleters. — Qachon qarasangiz gapimni bo‘lganingiz-bo‘lgan-da,

oshna... Qisqasi, o'sha Chikuid Dog'ulining Betlbrij yo'lida qovoqxonasi bo'lardi, undan keyin desangiz, yosh-yosh jentlmenlar xo'roz urishtirishni, bo'rsiq bilan itni olishtirishlarini tomosha qilgani uning yerto'lasiga tushib turishardi. Bunaqangi o'yinlar judayam ustomonlik bilan o'tkazilardi — men ham uni tez-tez tomosha qilib turardim. O'sha kezlarda u hali o'g'rilar to'dasiga qo'shilmagan edi. Qisqasi, bir kuni kechasi kanop hamyonga solingan uch yuz yigirma yetti giney pulini o'g'irlab ketishadi; pulni yarim kechada uning yotoqxonasidan allaqanday ko'ziga qora narsa tutib olgan novcha odam o'marib ketgan; o'sha erkak karavot tagiga berkinib olgan ekan, pulni o'margandan keyin esa ikkinchi qavatdagi derazadan sakrabdi. Juda tezkorlik bilan qilibdi buni. Lekiniga Dog'uli ham fursatni o'tkazmabdi: shovqindan uyg'onib ketibdi-yu, karavotdan sapchib turib, o'g'rining orqasidan o'q uzibdi va butun qo'shnilarni uyg'otib yuboribdi. O'sha zahotiyoy quvishga tushishibdi, u yoq-bu yoqni ko'zdan kechira boshlashganida esa Dog'ulining har qalay o'g'rini yaralaganiga ishonch qilishibdi: ancha joygacha qon oqib borгани shundoq ko'rinib turganmish, bu iz to'siqqacha cho'zilib borib, o'sha yerga yetganda yo'qolibdi. Bu yog'i qandoq bo'lsa-bo'pti-yu, o'g'ri o'ljasi bilan juftakni rostlab qolibdi, spirtli ichimliklar bilan savdo qilish uchun guvohnomasi bo'lgan qovoqxona egasi — mister Chikuidning ism-shariflari esa boshqa singanlar qatori «Gazetada»\* bosilib chiqdi. Shunda har xil ro'yxatlar tuzib, talonchilikdan nihoyatda ezilib ketgan jabrdiydaga xayr-ehson yig'ish degan gaplarni o'ylab chiqarishdi: bechora uch-to'rt kungacha jon-jahdi bilan sochlarini yulgan ko'yi ko'chalarda daydib yurdi, buni ko'rgan ko'plar, o'z joniga qasd qilmasa go'rga edi, deb qo'rqishdi. Bir kuni u hovliqqancha politsiya sudiga kirib keladi-da, sudya bilan betma-bet suhbatlashadi, unisi bo'lsa uzoq suhbat qurgandan so'ng qo'ng'irog'ini jing'illatadi-da, Jem Spayersni chaqirtirib (Jem juda epchil agent edi-da o'ziyam), unga mister Chikuid bilan birga borish va uyni o'marib ketgan odamni qo'lga olishga yordamlashishni buyuradi. «Spayers, — deydi Chikuid, — kecha ertalab uning uyimning oldidan o'tib ketayotganini ko'rib qoldim». — «Unda nima-ga shartta yoqasidan olmadingiz?» — deydi Spayers. «Shunaqangi dovdirab qoldimki, o'sha paytda boshimni tish kavlagich bilan urib yorish ham hech gapmasdi, — javob beradi bechora, — lekin mana endi qo'ldan chiqarib bo'pmiz uni. Oqshom soat o'n birlar orasida yana uyim oldidan o'tdi». Bu gapni eshitib Spayers o'sha zahotiyoy, ikki-uch kun o'sha yerda tutilib qolish ehtimoli borligi tufayli, cho'ntagiga toza ro'molchasi bilan tarog'ini soladi-da, yo'lga tushadi, qovoqxonaga yetib kelgach, choqqina qizil parda tutig'liq deraza

oldiga joylashib oladi, istalgan damda tashqariga otilib chiqish uchun shlyapasini ham yechmaydi. O'sha yerda u to kechgacha trubkasini tutatib o'tiradi, shunda Chikuid qo'qqisdan: «Ana u? O'g'rini ushlanglar! O'ldiryapti!» — deb dod solib qoladi. Spayers ko'chaga otilib chiqadi-yu, joni boricha yugurib, baqirib borayotgan Chikuidga ko'zi tushadi. Spayers ketidan yuguradi; Chikuid olg'a qarab o'qday uchib boradi: odamlar o'girilib qarashadi; hammalari: «O'g'rilar!» — deb qichqirishadi; Chikuidning o'zi ham bamisoli telbalarday bo'kirishini qo'ymaydi. Spayers uni muyulishdan buriilgan soniyada bir lahzagagina ko'zdan qochiradi, lekin orqasidan yugurib boraveradi, yetib borib, kichikroqqina to'dani ko'radi-yu, o'zini to'da orasiga uradi: «Bulardan qaysi biri!» — «Jin chalgur, — deydi Chikuid, — yana qo'ldan chiqarib yubordim». Qanchalik g'alati tuyulmasin, u yerdamay, ko'kdayam ko'rinmaydi — tag'in qovoqxonaga qaytishlariga to'g'ri keladi. Erta-mertan yana o'sha joyni egallagan Spayersning ko'ziga qora tutgan baland bo'yli kishi ko'rinib qolar, deb parda ortidan mo'ralayverib ko'zlari og'rib ketadi. Axiyri picha dam berish uchun ko'zlarini yumishga majbur bo'ladi, xuddi shu lahzada Chikuidning: «Ana u!» — deb bo'kirganini eshitadi. U yana quvishga tushadi, Chikuid bo'lsa bu orada ko'chaning qoq yarmiga borib qolgandi. Ikkovlashib kecha kechqurungiga qaraganda ikki baravar masofani bosib o'tganlarida o'sha odam tag'in g'oyib bo'ladi. Bu hol tag'in ikki bora takrorlanadi va nihoyat, qo'shnilardan, aksari, mister Chikuidning pulini shaxsan iblisning o'zi o'g'irlagan, mana endi uni burnidan ip o'tkazib olib, ahmoq qilib yuribdi, deyishadi, boshqalari esa — mister Chikuid sho'rlikni boshiga tushgan kulfatdan miyasi aynib qolgan, deyishadi.

— Jem Spayers-chi, u nima deydi? — so'radi doktor, u mazkur hikoyat boshlangan paytda xonaga qaytgan edi.

— Jem Spayers uzoq vaqtlargacha uzil-kesil hech nima demaydi, — hikoyasini davom ettirdi agent, — va hamma narsadan ko'z-quloq bo'lib, illo hech nimani bilmagan-sezmagan bo'lib yuraveradi; bundan shunday xulosa chiqadiki, u o'z ishini puxta bilgan. Lekigin u bir kuni ertalab qovoqxonaga kirib kelib, trubkasini chiqargancha: «Chikuid, bu o'g'irlikni kim qilganini bildim» — degan. «Rostdan-a! — xitob qilgan Chikuid. — Eh, qadrdonim Spayers, keling, qasdimni olgani imkon bering, ana o'shanda xotirjam oyoq uzataman. Eh, azizim, Spayers, qayerda u, o'sha yaramas?» — «O'zingizni bosing! — deydi Spayers shunda va hidlagani tamaki tutadi unga. — Bema'ni safsatani bas qiling. Buni siz o'zingiz qilgansiz». Aslida ham shunday bo'lgan va bu hangoma orqasidan ozmuncha pul ishlab olmagan ekan, keyin agar Chikuid uydirmasini haqiqiyga o'xshatishga kamroq

uringanida hech qachon hech nimaning isi chiqmagan bo'lardi, — deya hikoyasini yakunladi mister Bleters qadahni qo'yib, qo'l kishanlarini shiqirlatib.

— Darhaqiqat, juda qiziq voqea ekan, — deb qo'ydi doktor. — Ana endi, agar mayllaring bo'lsa tepaga chiqishingiz mumkin.

— O'zingiz ham lozim ko'rsangiz, ser, — javob qildi mister Bleters.

Ikkala agent mister Losbernning ketidan tepaga, Oliver uxlab yotgan xonaga ko'tarilishdi; izdihomni sham ko'tarib olgan mister Jayls ergashtirib borardi.

Oliver mudrardi, biroq ko'rinishi battarlashgandi, ilgarigisiga qaraganda isitma xuruji qattiqroq iskanjaga olgandi. Doktorning ko'magi ila u o'rinda turib o'tirdi-da, nima bo'layotganiga mutlaqo aqli bovar qilmay, notanish kimsalarga javdiradi — u, aftidan, qayerdaligi va nimalar bo'layotganini esolmayotgandi.

— Mana shu bolakay, — dedi mister Lesborn shivirlab, ammo qaynoq mehr-la, — sho'xlik qilib hamsoya janobning, ism-sharifi nimaydi-ya, xullasi, bu uyning orqa tomonidagi mulkka, o'sha yoqqa tushayotib tasodifan o'ziotar qopqondan\* jarohatlangan bola. Bugun erta bilan bu yerga yordam so'rab kelsa manavi sham ko'targan fahm-farosatli jentlmen uni shartta ushlab, salomatligiga jiddiy xavf soladigan qo'pol munosabatda bo'libdi, buning oqibatini vrach sifatida tasdiqlashim mumkin.

Bleters va Daff janoblari shu tariqa tanishtirilgan mister Jaylsga qarashdi. Hangu mang bo'lib qolgan eshikog'asi betida ham qo'rquv, ham esankirash ifodasi zuhur etib, ularga javdirab tikildi, keyin nigohi Oliverga, Oliverdan mister Losbernga ko'chdi.

— O'ylaymanki, buni inkor etish niyatingiz yo'qdir? — so'radi doktor Oliverni avaylab yostiqqa yotqizar ekan.

— Men... istagandimki, haligi... haligi iloji boricha yaxshiroq bo'lsin degandim-da, ser, — javob qaytardi Jayls. — Rostdanam men buni xuddi o'sha bola deb o'ylagandim, ser, yo'qsa unga qo'l ham tekkizmasdim. Axir, men ham juda unaqangi bag'ritosh odammasman, ser.

— Qaysi bola? — deb so'radi agentlardan kattasi.

— O'g'ri bola-da, ser, — javob qildi Jayls, — yonlarida bola ham boriydi-da, albatta.

— Xo'sh? Hozir ham shu fikrdamisiz? — so'radi Bleters.

— Hozir ham shu fikrdamisiz, deysizmi? — g'o'ldiradi Jayls so'roqqa tutayotgan kimsaga anqovsirab tikilib.

— Eh kallavaram, hozir ham bu o'sha bola degan fikrdamisiz deyapman! — toqatsizlik bilan tushuntirdi Bleters.

— Hayronman. Ochig'i, bilmayman, — dedi Jayls mung'ayib. — Qasam ichib tasdiqlayolmasdim buni hozir.

— Unda qanday fikrdasiz, axir? — so'radi mister Bletern.

— Nima deb o'ylashimniyam bilmay qoldim, — javob berdi bechora Jayls. — Menimcha, bu o'sha bolamas. Ha, deyarli aminmanki, uyamas bu. Buning o'sha bola bo'lishi mumkin emasligini o'zingiz ham bilasiz-ku, axir.

— Bu odamning kayfi bormi, ser? — surishtirdi Bletern doktorga yuzlanib.

— G'irt to'nkamijoz yigit ekanlar-ku o'zlari! — dedi Daff beqiyos bir jirkanish-la mister Jaylsqa qarab.

Ushbu qisqa muddatli savol-javob davomida mister Losbern bemorning tomir urishini tekshirish bilan band bo'ldi; mana endi karavot yoniga qo'yilgan kursidan turdi-da, mabodo agentlarda biron-ta shubha-gumonlari qolgan bo'lsa, qo'shni xonaga o'tib, Britls bilan gaplashish istaklari bor-yo'qligini so'radi.

Ular bu taklifni qabul qilib, yon xonaga yo'l olishdi va u yerga chaqirtirilgan mister Britls o'zini ham, muhtaram boshlig'ini ham yangidan-yangi qarama-qarshi fikrlar-u bema'ni gaplardan to'qilgan antiqa o'rgimchak to'ri ila chirmab tashladikim, birgina dalil — Britlsning batamom o'zini yo'qotib qo'yganini istisno etganda, birorta jinoyat belgisi-yu alomatini aniqlab bo'lmadi; darvoqe, yigitcha, agar o'sha bolani qarshisiga keltirib qo'ysalar uni tanimasligini, Oliverni esa Jaylsning ta'kid-u tasdiqlashlari sharofati tufaylidangina o'sha bola deb o'ylaganini va besh daqiqagina burun mister Jayls o'choqboshida ortiqcha shoshqaloqlik qilmadimmikin, deb xavfsirayotganini tan olganini ustma-ust qalashtirib tashladi.

So'ngra bo'lak o'tkir-u oqilona taxminlar orasida — mister Jayls haqiqatan ham birovni otganmikin o'zi, degan savol tug'ildi; mister Jayls otgan to'pponchani tekshirib ko'rilganda o'qdonidan dori bilan losdan bo'lak jarohatlaydigan narsa chiqmadi. Mazkur kashfiyot barchalariga, o'n daqiqacha muqaddam o'qdonidagi o'qni olib qo'ygan doktordan bo'lak albatta, bag'oyat qattiq ta'sir qildi. Illo hammadan ko'ra ko'proq yaqin birodarimni o'ladigan darajada jarohatlamadimmikin degan xavotir ich-etini tatalab, bir necha soatdan beriga iztirob chekayotgan mister Jaylsning o'ziga, ayniqsa katta ta'sir ko'rsatdi-yu, u hayajon-u sevinch-la ana shu yangi fikrga yopishib olib, jon-jahdi ila quvvatlashga tushdi.

Oxir-oqibatda agentlar Oliver haqda o'ylab boshlarini ortiqcha qotirib o'tirmay, u bilan chertsilik konsteblni uyda qoldirib, ertalab kelishni va'da qilib, tunagani shaharga jo'nab ketdilar.

Ertalabga borib esa shubhali vaziyatda kecha tunda qo'lga olingan ikki erkak bilan bir bolani Kingston qamoqxonasiga qamaganlari to'g'risida mish-mish tarqaldi-yu, Bletern va Daff janoblari Kingstonga yo'l oldilar. Aytmoqchi, tekshirish paytida bu shubhali vaziyat shunga borib taqalidikim, o'sha odamlarni poxol g'arami ostida uxlab yotganlarida qo'lga tushirganlar, bunday hol nihoyatda og'ir jinoyat hisoblansa-da, faqat qamoqqa tashlash bilan jazo beriladi va bu borada, qirolik fuqarosiga mehr-u marhamat-la yo'g'rilgan odil ingliz qonunchiligi nuqtayi nazaridan kelib chiqib, g'aram ostida uxlayotgan yoxud uxlayotganlar qulf buzib o'g'irlik qilganlari va turgan gapki, o'lim jazosiga mustahiq ekanliklarini tasdiqlovchi yetarli dalillar yo'qligi inobatga olinadi. Xullas, Bletern va Daff janoblari qanday aql bilan jo'nagan bo'lsalar, o'sha aql bilan qaytdilar yana.

Gapni qisqa qilib aytganda, yangitdan o'tkazilgan so'roq va cheki-chegarasiz suhbatlardan so'ng mahalliy sudya missis Meyli bilan mister Losbernlarning, biron kun kelib chaqiriladigan bo'lsa, Oliverning yetib borajagi xususidagi kafolatlarini bajonidil qabul qildi, ikki gineya mukofot olgan Bletern bilan Daff esa o'z safarlari yuzasidan bir fikrga kelolmay, shaharga jo'nashdi: keyingi jentlmen jamiki shart-sharoitni oqilona mulohaza qilib ko'rib, derazani buzib kirib o'g'irlik qilishga urinilgan bu ishni Pet Oilamandning ishi deb ishontirishga moyil bo'lsa, birinchisi bu xizmatlarning jamini xuddi o'shanchalik ishonch-la buyuk Chikuid Dog'uli sha'niga yopishtirishga tayyor edi.

Bu orada Oliver missis Meyli, Roz hamda ko'ngilchan mister Losbernlarning g'amxo'rligi-yu mehribonchiliklaridan bahramand bo'lib, asta-sekin tuzala boshladi va halovat topdi. Minnatdorchilik ila to'lib-toshgan qalbdan chiqayotgan otashin duo-iltijolar arshi a'loga yetib, mustajo bo'ladigan ersa — arshi a'loga yetmaydigan duo-yu iltijolar munojot bo'lib qayga bordi! — ul chog'da yetim tilagi bilan ko'kdan yog'ilayotgan rahmatlar ularniig qalbiga jo bo'lib, orom-u baxt baxshida etmoqda edi.

---

---

XXXII BOB. OLIVERNING SAXOVATLI DO'STLARI ORASIDA  
KECHA BOSHLAGAN BAXTIYOR HAYOTIDAN  
NAQL ETADI

Oliverning dardi uzoqqa cho'ziladigan hamda og'ir edi. O'q tekkan qo'lidagi jarohatning sekinlik ila bitishi va azobini gapirib o'tirmagan chog'da ham, Oliverning yomg'ir hamda sovuqda talay vaqt qolib ketishi isitmaga muhtalo qilgandikim, uning xuruji allaqancha haftalarga cho'zilib, bolaning majolini quritdi. Illo, nihoyat, asta-asta dardi ariy boshladi, ikkala xonimning benihoya mehr-u saxovatidan bahramand bo'layotganini, tuzalib, quvvatga kirganidan so'ng ularga biron xizmati bilan o'z minnatdorligini izhor etish umidida ekanini va bu xizmati (qandaydir arzimas xizmat bo'lsa hamki), qalbi ularga nisbatan qanchalar muhabbat-u sadoqatga to'la ekanining isboti bo'lajagini, olihimmatliklari sharofati-la azob chekish yoki o'lim changalidan qutulib qolgan bechora bola ularning muruvvat-u marhamatlariga munosib, xizmatlarini astoydil ado etish ishtiyoqida ekaniga ishontiradigan biron ish qilajagi haqida ikki og'izgina so'zlashga madori yetadigan bo'lib qoldi.

— Sho'rlikkina! — dedi Roz bir kuni Oliver gezargan lablarini qimirlatib, ming mashaqqat-la minnatdorchilik bildirishga uringanida. — Agar istasang, hali bizga xizmat qiladigan payting ko'p keladi. Biz shahardan chetga, dalaga jo'naymiz, xolam seniyam ola ketmoqchilar. Osudalik, sof havo va bahor chiroyi-yu barcha shodliklari bir necha kunda darmonga kirishingga yordam beradi. Agar kuching yetadigan bo'lsa, senga yuztalab ish buyuramiz.

— Ish buyurasiz! — xitob qildi Oliver. — O aziz xonim, agar sizning xizmatigingizni qilolsam, agar gullaringizni sug'orib, qushlaringizga qarab yoki kun bo'yi dastyorchilik qilib ko'nglingizni ololsam, sizni xursand etolsam — buning uchun jonimniyam ayamasdima!

— Qo'y, joningni berishni og'zingga olma, — dedi Roz Meyli kulib, — axir aytdim-ku, yuzlab ish buyuramiz senga deb, bizni xursand qilish uchun agarda hozir va'da berayotganingni yarmichalik ishlaydigan bo'lsang ham boshim osmonga yetadi.

— Xursand bo'laman, dedingiz-a, xonim?! — suyunib ketdi Oliver. — Judayam mehribon, saxiysiz-da!

— Meni shunchalik baxtiyor, shunchalik xursand qilasanki, asti qo'yaverasan, — javob berdi yosh xonim. — Aziz, mehribon xolajonimning birovni sen tasvirlab bergan ayanchli qismat changali-

dan qutqarib qolganini o'ylashni o'zi olamjahon halovat beradi, lekin xolam mehribonlik va rahm-shafqat ko'rsatgan odamning, o'z xaloskoriga nisbatan chin yurakdan minnatdorligi hamda sadoqatini izhor etayotganini bilib-anglab turganim sen tasavvur qilganingdan ko'ra ko'proq quvontiradi meni... Gapimga tushunyapsanmi? — deb so'radi qiz Oliverning o'ychan yuziga boqib.

— Ha, ha, tushunyapman, xonim! — dedi Oliver jo'shib. — Lekin o'zimni qanday nonko'rligimni o'ylayotgandim.

— Kimga nisbatan? — so'radi yosh xonim.

— Menga shunchalik g'amxo'rlik qilgan saxovatli jentlmen bilan mehribon kekxa enagaga nisbatan, — dedi Oliver. — Hozir mening shunday baxtiyorligimni bilishganida bormi, juda xursand bo'lib ketisharmidi.

— Ehtimol, — deb qo'ydi Oliverning najotkori. — Innaykeyin, oqko'ngil mister Losbern yo'lga chiqa oladigan bo'lib quvvatga kirishish bilan seni ularnikiga olib borishga so'z berdi.

— So'z berdi deysizmi, xonim? — qichqirib yuborayozdi Oliver xursandligidan gul-gul yashnab. — Bilmadim, ularning mehribon diydorlarini yana ko'rganimda suyunganimdan qay ahvolga tusharkinman.

Ko'p o'tmay Oliver ushbu sayohat munosabati bilan bo'lajak yo'l azobiga dosh bera oladigan darajada sog'ayib qoldi. Bir kuni ertalab missis Meylining choqqina izvoshida mister Losbern ikkovlari yo'lga chiqishdi. Chertsi ko'prigiga yetganlarida Oliverning birdan rangi quv o'chib, qichqirib yubordi.

— Bolaga nima bo'ldi o'zi? — o'z odaticha hovliqib qoldi doktor. — Biron nimani ko'rib qoldingmi... eshitdingmi... sezdingmi, a?

— Ana, ser, — qichqirdi Oliver izvosh oynasidan ko'rsatib. — Shu uy!

— Xo'sh? Nima qipti? Hoy aravakash! Shu yerda to'xtating-chi, — qichqirdi doktor. — Bu qanaqa uy, bo'tam? A?

— O'g'rilar... Ular meni shu yerga olib kelishgandi, — shivirladi Oliver.

— Ha jabbor chalgur-a! — nido soldi doktor. — Hey, u yoqdagilar! Tushishga yordamlashib yuboringlar!

Izvoshchi o'rindig'idan tushib ulgurmasidanoq doktor allaqachon qandaydir yo'sinda izvoshdan chiqib oldi-yu, chopgancha tashlandiq uy yoniga borib, eshikni telbalarcha gursillatib tepa boshladi.

— Kim u? — javob berdi zuvalasi kichkinagina, ta'viyadan-ta'viya bukri to'satdan eshikni ochib yuborib, jon-jahdi bilan eshikni tepayotgan doktor oxirgi tepishida to'g'ri dahlizga otilib kirib ketishiga bir bahya qoldi. — Bir gap bo'ldimi?

— Bo'ldi! — o'shqirdi doktor, o'ylab-netib o'tirmay bukrining yoqasiga chang solib. — Ko'p narsa bo'ldi. O'g'irlik — mana, nima bo'ldi!

— Agar yoqamni qo'yib yubormasangiz, ustiga-ustak qotillik ham bo'ladi bunaqada, — sovuqqonlik bilan javob qildi bukri. — Eshit-yapsizmi?

— Eshityapman, — dedi doktor changalidagi asirini astoydil silkilab. — Qani o'sha, bo'g'ziga iblis sirtmoq solgur, oti nimaydi mal'unni. Ha, Sayks. Qani o'sha Sayks, javob bering, qaroqchi?

Bukri hayrat va g'azab ichra ko'zlari ola-kula bo'lib ketdi, keyin doktorning changalidan epchillik bilan sug'rilib chiqdi-yu, iflos haqoratlarini qatorasiga tizib tashlab, uyga chekindi. Ammo eshikni berkitib ulgurmasidan doktor «ha» yo'q «be» yo'q, xonaga bostirib kirdi. U ko'zlari olma-kesak terib, atrofga alangladi: na jihozlar, na buyumlar, na hattoki javonlarning joylashishi Oliver tasvirlaganiga muvofiq kelardi.

— Xo'sh? — dedi uni ziyrak kuzatib turgan bukri. — Nima sababdan mening uyimga bostirib kirdingiz, bu qanaqasi bo'ldi? Meni talamoqchi yoki o'ldirmoqchimisiz?

— Ey qonxo'r ovsar dajjol, shu niyatda izvosh minib kelgan odamni ko'rganmisiz sira? — dedi qiziqqon doktor.

— Nima kerak o'zi sizga? — baqirdi bukri. — Fursat borida tuyog'ingizni shiqillatib qoling! Hazor la'nat sizga!

— Lozim topgan paytimda jo'nayman, — dedi mister Losbern boshqa xonaga bosh suqib, uni kuzatarkan, bunisi ham birinchisi kabi Oliver tasvirlaganiga tirnoqchalik o'xshamasdi. — Qarab turing, hali ta'ziringizni beradigan payti ham keladi, oshna.

— Shunaqa deng! — dedi manfur mayriq g'ijinib. — Mabodo o'zlariga zarur bo'lib qolsam, shu yerdan topadilar kamina-ni. Bu yerda yigirma besh yildan beri so'qqabosh o'tiraverib aqldan ozib bo'layozdim-u siz bo'lsangiz tag'in do'q-po'pisa qilasiz-a! Buning javobini berasiz, hali, ha, javobini!

Shunday deb ta'viya jimit iblis dod solib, jazavasi qo'zib xonada o'yin tusha ketdi.

— Juda ahmoqona ish bo'ldi-ku, — ming'irlab qo'ydi doktor miyig'ida, — bola yanglishgan ko'rinadi. Mana, buni cho'ntagingizga soling-u ovozingizni o'chiring!

Shu so'zlar bilan doktor bukriga tanga tashlab, izvosh yoniga qaytdi.

Bukri izvosh eshigigacha ortidan ergashib kelarkan, og'zidan betinim noshoyon haqoratlar yog'ilib turdi; mister Losbern izvoshchiga gap qotgan bir paytda izvosh ichiga mo'ralab Oliverga shunday o'tkir, naq badanni teshib o'tgudek, ayni chog'da shundayin g'azabnok

va qasoskorona nigoh tashladiki, bir necha oygacha bu o'qrayish bolakayning na o'ngi-yu na tushida ko'z oldidan nari ketmadi. Bukri izvoshchi to o'z o'rnini egallamagunicha jirkanch so'kishlarini bas qilmadi; izvosh yo'lga ravona bo'lgandan keyin esa, chinakamigami yoki yasamami, tutqanoq jazavasida uning nuqul depsinib, sochlarini yulayotgani olisdan ham bemalol ko'rinib turdi.

— Men — eshshakman... — dedi doktor xiyla jim borgandan so'ng. — Buni oldin bilarmiding, Oliver?

— Yo'q, ser.

— Bo'lmasa keyingi safar esingdan chiqarmagin buni. Eshshak! — takrorladi doktor yana bir necha daqiqa sukut saqlagach. — Bordi-yu bu hattoki xuddi o'sha joy va u yerda xuddi o'sha odamlar bo'lgani taqdirdayam bir o'zimni qo'limdan nima kelardi? Basharti, yonimda ko'makchilarim bo'lgan chog'dayam, bari bir, bundan nima manfaat chiqardi, aqlim yetmay turibdi. Ehtimol, bu ishim oqibatida kaltak o'z boshimga kelib tushardi-yu, mazkur voqeani sir saqlab qolganim, albatta oshkor bo'lardi. Darvoqe, qilgan gunohimning jazosi shu edi. Doim qiziqqonlik ustida ish tutib, kasofatiga qolganim-qolgan. Balki bu esimni kiritar.

Qalbi daryo doktor darhaqiqat umri bo'yi faqat mayl ishtiyoqi-yu dil istagi da'vatiga amal qilib kelar, jiddiy mushkulliklar yo-xud muvaffaqiyatsizliklardan sal bo'lsa-da o'zini chetga olmas, shuningdek, uni taniydiganlarning jamakisining hurmati-yu ehtiromini qozongan ekan, bu ana o'sha faoliyatini boshqarib turgan mayl-u istaklar sharofatidan edi. Agar haqiga ko'chadigan bo'lsak, doktor bir-ikki nafasgagina afsus-nadomat his etib turdi, negaki u dastlabki imkoniyat tug'ilgan bir paytda Oliver gapirib bergan voqeani tasdiqlaydigan dalil-u isbotlarni qo'lga kirita olmagandi. Biroq tezda xotirjam tortdi, Oliverning o'z savollariga xuddi ilgari-gidek erkin, izchil va bama'ni javob qaytarayotganiga, binobarin, xuddi o'shanday samimiy hamda haqqoniy so'zlayotganiga qanoat hosil qilib, shu damdan e'tiboran bolaning gapiga to'la ishonch bilan qarashga ahd qildi.

Oliver mister Braunlou turadigan ko'chaning nomini bilgani sababli ular izvoshni to'g'ri o'sha yoqqa qarab haydashdi. Izvosh muyulishdan burilganida Oliverning yuragi shunaqangi dukirlab ura boshladiki, naq nafasi bo'g'ziga tiqilib qolayozdi.

— Xo'sh, bo'tam, qani o'sha uy? — deb so'radi mister Losbern.

— Ana u, ana! — dedi Oliver bidirlab, izvosh oynasidan ko'rsatgancha toqatsizlanib. — Oq uy. Eh, tezroq haydasangiz-chi! Iltimos, tezroq! Hozir o'lib qoladiganga o'xshayman. Hammayog'im titrab ketyapti.

— O'zingni bos, qo'rqma, — dedi oqko'ngil doktor bolaning kiftiga qoqib. — Hozir ko'rasan ularni, seni soppa-sog'ligingni ko'rib quvonib ketishadi.

— Bo'lmasam-chi, ishonaman bunga! — dedi Oliver sevinchi ichiga sig'may. — Ular menga shunday mehribon edilarki, judayam, judayam mehribonidilar.

Izvosh g'izillagancha olg'a borardi. Keyin u to'xtadi. Yo'q, bu uy emas; keyingi eshik. Yana bir necha odimlik masofani bosgach, izvosh tag'in to'xtadi. Oliver derazalarga tikildi. Quvonchli ko'z yoshlari yonoqlaridan shashqator quyilardi.

— Eh, attang, oq uyda hech kim turmas ekan, derazadagi: «ljara-ga beriladi», degan yozuv shundoqqina ko'rinib turibdi.

— Keyingi eshikni taqillatib ko'ring! — deb qichqirdi mister Losbern Oliverni qo'lidan ushlarkan. — Qo'shni uyda turadigan mister Braunlougga nima bo'lganidan xabaringiz yo'qmi?

Oqsochning bundan xabari yo'q ekan-u, biroq so'rab-surishtirib berishga tayyor ekanini aytdi. U hayal o'tmay qaytib chiqib, mister Braunlou mol-mulkini sotib, bir yarim oy muqaddam Vest-Indiyaga jo'nab ketgan ekan, dedi. Oliver mushtumini qattiq qisgancha, o'zini bemajol o'rindiqning suyanchig'iga tashladi.

— U kishining ro'zg'orboshisiyam ketgan ekanmi? — so'radi mister Losbern picha jim qolgach.

— Ha, ser, — javob berdi oqsoch. — Keksa jentlmen, ro'zg'orboshi va tag'in bitta jentlmen, mister Braunlouning o'rtog'i, hammalari birga ketishgan.

— Modomiki gap shundoq ekan, to'g'ri uyga haydang-u, — dedi mister Losbern izvoshchiga, — bu la'nati Londondan chiqib ketgunimizcha biron yerda otga yem beraman, deb to'xtatib o'tirmang.

— Kitobfurush-chi, ser? U yoqqa boradigan yo'lni bilaman. O'tinaman, o'shanga uchrashing. O'shanga uchrashib ko'ring.

— Bechora bo'talog'im, shuncha hafsalamiz pir bo'lgani bugunga yetadi, — dedi mister Losbern. — Ikkovimizga yetib-ortadiyam. Agar kitobfurushnikiga boradigan bo'lsak, unda, turgan gapki, uning vafot etganini, yo uyiga o't qo'yib yuborganini, yoki qochib ketganini eshitamiz. Yo'q, to'g'ri uyga jo'naymiz.

Shunday qilib, doktorning nogahoniy qistoviga itoat etib, uyga jo'nashdi.

Ushbu umidi puchga chiqish Oliverga, hatto baxti kulib boqqan bir paytda ham, talay qayg'u-alam keltirdi. Kasali davomida mister Braunlou va missis Beduinlar bilan uchrashishlarini, ana o'shanda ularning nima deyishlarini xayol qilib, qanday xursand bo'lishlarini ko'z oldiga keltirib necha-necha marotaba o'ziga

taskin bermagandi. Ko'rsatgan mehribonchiliklari-yu himmatlarini o'ylay-o'ylay, shafqatsiz judolik dastidan motam tuta-tuta necha-necha uzoq kunlar-u yilday tunlarni iztirobda o'tkazganini ularga so'zlab berish orzusida edi. O'zini oqlab olish va zo'rlab sudrab ketganlarini hikoya qilib berish umidi yaqinida boshdan kechirgan sinov kunlarida unga madad bergandi, ruhlantirgandi; ular shunchalar olisga ketib qolishibdi va meni aldamchi, o'g'ri degan ishonch bilan ketishgan, deb o'ylarkan, endi ularning bu ishonchi to o'la-o'lgunimcha ham rad etilmay qolar balki, degan fikr-xayolga asti chidayolmasdi bola.

Darvoqe, bu gaplarning bari valine'matlarining unga bo'lgan munosabatlarini qatracha o'zgartirmadi. Yana ikki haftadan so'ng, havo jo'nashib, dov-daraxtlar kurtak yozgan, g'unchalari lab ochgan iliq kunlarda Chertsidan bir necha oyga jo'nab ketish tadoriki ko'rila boshladi. Fedjinning ishtahasini qo'zg'atib, nafsini hakalak ottirib yuborgan kumush idishoyoqlarni bankka jo'natishdi-da, uyni Jayls bilan yana bir xizmatkorning ixtiyoriga topshirib, shahardan xiyla olisdagi bog' hovliga ko'chib o'tishdi. Oliverni ham o'zlari bilan ola ketishdi.

Ovloqdagi qishloqni qurshab turgan ko'm-ko'k adirlar-u qalin o'rmonlar qo'ynida, muattar, sarin havodan kasalmand bola tuygan quvonch-u zavq-shavq, ruhiy osudalig-u bezavol osoyishtalikni kim tavsiflab bera oladi? Tor-u tanqis, g'ala-g'ovur shahar ahlining iztirob chekkan, toliqqan qalblariga orombaxsh tabiat manzaralari-yu sokinlik qanchalar chuqur ta'sir etayotganini va ularning joziba-lato-fati xun bo'lgan dillarida qanchalar tomir yoya borayotganini kim tasvirlab bera oladi? O'zining butun zahmatli umrini odam qalin, tor ko'chalarda o'tkazgan va hech qachon o'zgarishni qo'msamaganlar, tarki odat amrimahol qolipiga tushib qolganlar, kundalik sayohatlari hadi-chegarasi bo'lib xizmat qiluvchi har bitta g'isht-u har bitta toshni jondan sevib qolayozganlar — hatto shunday odamlar ham boshlariga ajal soya tashlaganida, oqibatda ko'z qirlari bilangina bo'lsa hamki Tabiat jamoliga boqish ishtiyoqida zoriqadilar; ilgari aziyat chekkan va quvongan joylarini tark etarkanlar, ular go'yoki birdaniga hayotning yangi pallasi koshonasiga qadam qo'yganga o'xshaydilar. Ular kun-bakun birorta yam-yashil, oftob nurida cho'milayotgan o'tloqqa o'rmalab qolisharkan, osmon, adir-u tepalar, vodiylar, zilol suvni ko'rib ko'ngillarida shunday xotiralar o'ynardiki, hattoki vujudlariga qutqu solgan oxirat tuyg'usi ularning taqdirga tan berishlarini tezlatardi. Ular bor-yo'g'i bir necha soatgina muqaddam ovloq yo-toqxonalarning derazasidan o'zlari kuzatgandagi ojiz, xira tortib borayotgan ko'zlari o'ngida qirmizi shafaq hosil qilib botgan quyosh

singari osoyishta, tinchgina qabrga kirardilar. Osuda qishloq manzaralari uygʻotgan xotiralar ushbu olamga, uning oʻy-xayollari-yu orzu-niyatlariga begonadir. Koʻngillarga orom-u osoyish berar ekan, bu xotirotlar biz osiy bandalarga suygan kishilarimiz qabrini yangi gulchambarlar bilan bezashni oʻrgatishi, fikr-oʻylarimizni pokizalab, ilgarigi adovat-u nafratga barham berishi mumkin; xayol daftarini varaqlab koʻrishga qodir har bir qalbda bunday xotiralar qoʻri ostida loaqal zigʻirchalik boʻlsa-da, mubham bir tuygʻu mudrab yotadi. Bunday tuygʻular qachonlardir, uzoq oʻtmishda boshdan kechgan; bu shunday tuygʻularki, uzoq kelajak zamonlar haqida ulugʻvor fikrlar uygʻotadi, takabburlik hamda behuda besaranjomlik kabi illatlar-ni jilovlab qoʻyadi.

Ular kelib qoʻngan manzil soʻlim bir joy edi. Chuvrindi, isqirt olomon orasida, shovqin-suron-u haqoratlar ogʻushida oʻsgan Oliver nazdida xuddi ana shu, yangi hayot boshlangandek edi. Uchqat-u atirgullar erkalanib uy devorlariga suykanadi, daraxtlar tanasiga pechakgullar chirmashgan, bogʻdagi gullarning muattar boʻyi havoni tutgan. Shundoq yaqingina joyda chogʻroqqina qabrston joylashgan. U yerda baland-u besoʻnaqay qabrtoshlar yoʻq, hilpiragan maysa-yu yoʻsin bilan qoplangan; ostida qishloqning qari-qartanglari yotgan oddiygina gumbazchalar doʻppaygan. Oliver bu yerni tez-tez kezib turar va goho onasi yotgan gʻaribgina qabr yodiga tushib, kishi koʻzidan ovloqda oʻtirib yigʻlardi; biroq boshini koʻtarib, tepasidagi tubsiz koʻk toqiga tikilarkan, u endi onasining yer qaʼrida yotganini koʻz oldiga keltirolmas va alam bilan emas, balki gʻamgin koʻz yoshi toʻkardi.

Qanchalar baxtli damlar edi. Kunlar osoyishta va charogʻon kechar, tunlar na vahima, na tashvish keltirmay — manfur qamoqxona-da sovqotmay, jirkanch odamlar bilan muloqotda boʻlmay — begʻalva oʻtar, dili quvonchga, boshi yorqin oʻylarga toʻla edi.

Oliver har kuni ertalab kichikkina cherkov yaqinida turadigan soch-soqoli oppoq keksa jentlmennikiga qatnar, u bolaning xat-savodini takomilga yetkazishga yordam berardi; keksa jentlmen Oliverdan muloyim soʻzi-yu diqqat-eʼtiborini sira ayammasdi, shu bois bola kuchi boricha qariyaga yoqishga tirishardi. Keyin u missis Meyli va Roz bilan sayrga chiqar, ularning kitob ustidagi mulohazalariga quloq solar yoki biror salqin yerda yonlarida oʻtirib, yosh xonim oʻqib berayotgan kitobni tinglardi; u toki qosh qorayib, harflarga koʻz oʻtmay qolguniga qadar tinglashga ham tayyor edi. Keyin u ertangi kungi saboqlarini tayyorlar va oʻzining boqqa qaragan moʻjazzgina hujrasida asta-sekin kech kira boshlamagunicha tirishib-tirtishib ter toʻkardi. Oqshom yaqinlaganda esa ikkala xonim yana aylangani chi-

qishar, bola ham ularga ergashar, suhbatlariga bajonidil quloq tutardi. Mabodo ularga birorta gul yoqib qolsa va gulni olib kelish qo'lidan keladigan bo'lsa, bola shunday suyunib ketardiki, oyog'ini qo'ltiqqa urganicha ularga xizmat qilgani otilardi. Qosh qoraygach esa, ular uyga qaytishardi-da, yosh xonim fortepyano yoniga o'rnashib, ajoyib kuy chalishga yoki xolasiga yoqadigan birorta qadimiy qo'shiqni past va shirali ovozda kuylashga kirishardi. Bunday kezlarda sham yoqishmas, deraza yoniga o'tirib olgan Oliver mo'jizakor kuyga zavq-shavq-la quloq solardi.

Yakshanba kunlarini aytmysizmi-ya! Bu yerda yakshanbani u ilgari o'tkazganidan mutlaqo bo'lakcha o'tkazishardi. Mazkur baxtli damlaridagi jamiki kunlar qatori — qandayin baxtli kun edi-ya bu yakshanba kuni. Erta bilan — kichkinagina cherkovda ibodat qilinadi; u yoqda, deraza ortidagi daraxtlarning yaproqlari shovillab-pichirlashadi, qushlar navo qiladi, sarin, muattar havo esa pastak eshikdan yopirilib kirib, kamtarona binoni xushbo'y atirga to'lata boradi. Kambag'allar shundayin ozoda-pokiza kiyingan, shundayin ixlos-la tiz cho'kishadiki, ularni bu yerga og'ir burchlari sharofati bilan emas, balki bamisoli huzur-halovat topish uchun to'planishgan deysiz; qasida kuylashlarini aytmysizmi, unchalik mahoratli chiqmasdir-ku, lekin bularning qasidasi samimiy, astoydil, keyin, chamasi (har holda, Oliverning nazdida), u ilgari eshitganlariga qaraganda ancha xushohangroq, yoqimliroq yangraydi. So'ngra, odatdagidek — sayr qilishadi, zahmatkash kishilarning chinniyi chiroqdek kulbalariga tashrif buyurishadi. Oqshom esa Oliver hafta bo'yi saboq olgan injildan bir-ikki surani takrorlarkan, bamisoli o'zi ruhoniy bo'lib qolganday, hatto o'zini undan ham mag'rur va baxtiyorroq his qiladi.

Sahargi soat oltida Oliver o'rindan turib olgan bo'ladi; dala chechaklarini izlab dalalarni kezadi, ko'kat to'siqlar orasi-yu ortlarini titkilaydi; gul-chechaklarni bir quchoq qilib ko'tarib keladi uyga, shundan keyin nonushtalik dasturxonni bezash uchun hafsala va qunt bilan guldasta tuzaydi. Miss Meylining parrandalarga atalgan qo'nalg'asi ham bor edi; Oliver zo'r didi bilan ularning qafasini yasatadi, bu san'atni u ko'pni ko'rgan qavm xodimidan o'rganib olgandi. Shu ishlar bitgach, uni odatda birortaga yordamlashgani qishloqqa jo'natishadi yoki ba'zan maysazorda kriket o'ynashadi. Goho esa shunaqasi ham bo'ladiki, bog'da bironta yumush topilib qolib, Oliver to miss Roz chiqib kelgunicha uni jon-jon deb (bunday yumushlar ilmini yana o'sha asli kasb-kori bog'bon bo'lgan murabbiysidan o'rgangandi), xushvaqtlik ila bitkazib qo'yadi. Ana shunday kezlarda qilgan ishi uchun maqtovga ko'mib tashlashadi.

Shu tariqa oradan uch oy — eng omadli hamda eng dorilamon yashayotgan bandasining hayotida benihoya baxtli kunlar hisoblasa arzigulik, Oliverning hayotida esa chinakamiga huzur-halovatli bo'lgan uch oy o'tdi. Bir tomon beqiyos musaffo hamda mehr bilan yo'g'rilgan muruvvat-u himmat ko'rsatsa, ikkinchi tomon bunga javoban eng samimiy, eng qizg'in hamda eng chuqur minnatdorlik namoyon etardi. Oliver Twistning ana shu qisqa muddat ichida keksa xonim va uning jiyani bilan nihoyatda yaqinlashib, dillari og'ushta bo'lib ketgani va binobarin, uning murg'ak, ziyrak qalbida jo'sh urgan qaynoq muhabbati xonimlar dilini rom etib, u bilan faxrlana boshlaganlarining hech bir mo'jiza joyi yo'q.

---

XXXIII BOB. OLIVER VA UNING DO'STLARI BAXTIGA  
NOGOHDAN XAVF-U XATAR TAJOVUZ  
QILGANI HAQIDA

Hash-pash deguncha bahor o'tib, yoz fasli yetdi. Agar qishloq bahorda dilrabo bo'lgan bo'lsa, endilikda u o'z boyliklarini ko'z-ko'z qilib, serhasham seplarini yoyib, borliq jamolini to'liq namoyon qildi. Ilgari yalang'och hamda qunushib turgandek ko'ringan azamat daraxtlarga jon bitib, kuch-quvvatga to'ldi, tashna yer uzra choratrofqa quloch yozib, ochiq-yaydoq joylarni quyuq, tangadek oftob tushmaydigan so'lim oromgohlarga aylantirdi; bu oromnishin manzillardan oftob nuriga ko'milgan, olislarda yastanib yotgan bepoyon dalalar jivirlab ko'zga tashlanib turardi. yer o'zining eng yorqin yashil chakmoniga burkanib, anvoyi bo'ylar taratardi. Yilning eng a'lo fasli keldi — borliq tabiat shodiyona tantana qilardi.

Choqqina bog' hovlida hayot tinch-u osoyishta, o'z maromi bilan kechib borar, ana shu beg'am-u betashvish xotirjamlik uning istiqomatchilarini ham o'z og'ushiga olgandi. Oliver allaqachonlar sog'ayib, kuchga kirib ketgandi, biroq u kasaldir yoxud sog'dir, atrofida qilarga nisbatan qizg'in his-tuyg'ulari zarracha o'zgarmasdi; aslida esa odamlar his-tuyg'usida bunaqangi o'zgarishlar bot-bot uchrab turardi. Illo u hamon o'shanday, dard-u iztiroblar sillasini quritgan va hayoti butunlay o'zini parvarish qilayotgan kimsalarning g'amxo'rligi-yu iltifotiga bog'liq bo'lib turgan kezlardagiday yuvosh, minnatdor, mehribon-u oqibatli bola bo'lib qolaverdi.

Kunlardan bir kuni, so'lim oqshom chog'i odatdagidan xiyla uzoqroq sayr qilib qoldilar, negaki kunduz ancha issiq o'tgandi; sutdek oydin, odatdagidan xiyla salqinroq shabada g'ir-g'ir esib turardi, in-naykeyin, Rozning g'oyatda dimog'i chog' edi. Xullasi kalom, sho'x-xandon suhbatlashgan ko'yi hamon ilgarilab boraverdilar, har kungi sayr qilib qaytadigan joylari ancha orqada qolib ketdi. Missis Meyli charchagach, bir-bir bosib uyga qaytdilar.

Yosh xonim odmigina shlyapasini yechib, odatiga ko'ra fortepyano yoniga o'tirdi. Bir necha daqiqa davomida u faromushlik bilan barmoqlarini klavishlar uzra yo'rg'alatib turdi-da, keyin osuda va tantanavor bir kuyni chala boshladi; o'zi chalyapti-yu, bu yoqdagilarning nazarida u yig'layotgandek tuyuldi.

— Roz, jonginam! — hayron bo'ldi kekxa xonim.

Roz indamadi, lekin xuddi bu so'zlar uni allaqanday toliqtiruvchi o'ylardan chalg'itgandek, picha tezroq chala boshladi.

— Roz, azizim! — dedi missis Meyli shoshilib o'rnidan turib, unga engashib qarar ekan. — Bu qanaqasi? Ko'zlaringdan yosh oqyaptimi? Bolajinam, nima ranjitdi seni o'zi?

— Hech nima, xola, hech nima! — javob qildi oyimqiz. — Ni-maykanini o'zim ham bilmayman... gapirib berolmayman... lekin sezib, his qilib turibman...

— Biron joying og'riyaptimi, qizalog'im? — uning so'zini bo'ldi missis Meyli.

— Yo'q, yo'q! Sirayam og'riyotgani yo'q! — javob qaytardi Roz, biroq shu so'zlarni aytarkan, xuddi vujudiga o'lim nafasi tekkandek, bir junjikib ketdi. — Hozir tuzalib qolaman. O'tinaman, oynani yop-sanglar.

Oliver uning iltimosini ado etishga shoshildi. Oyimqiz ilgari-gi xushchaqchaq kayfiyatini qaytarishga zo'rma-zo'raki tirishib, chandon sho'xroq kuyni chala boshladi, ammo barmoqlari kla-vishlar ustida bemajol tek qoldi. U yuzini qo'llari bilan yashirga-nicha divanga cho'kdi-yu, ortiq tiyib turolmagan ko'z yoshlariga erk berdi.

— Bolajonim! — uni bag'riga bosgancha nido soldi kekxa xonim. — Seni sira bunday ahvolda ko'rmaganman-a.

— Qo'limdan kelsa sizni hecham bezovta qilmasdim-a, — javob qaytardi Roz. — Rosti, rosayam urinib ko'rdim, lekin hech nima qilolmadim. Chindanam kasalmanmi, deb qo'rqib turibman, xola.

Rozning darhaqiqat tobi qochib qolgandi: shamni keltirishganida sayrdan qaytishganidan beri oradan o'tgan ana shu qisqagina fursat ichida qizning rangi doka yanglig' oqarib ketganini ko'rdilar. Boyagi-boyagi gulday yashnab turgan chehrasidagi ifoda qandaydir bo'lakcha bo'lib qolgandi. Uning nafis-u muloyim chehrasida ilgari bo'lmagan qandaydir xavotirli hamda tahlikali bir narsa paydo bo'libdi. Oradan biron daqiqa o'tar-o'tmas yonoqlari ol tusga kirdi, muloyim bo-quvchi moviy ko'zlari g'alati chaqnab ketdi. So'ngra barchasi bulut parchasi tashlab o'tgan oniy soyadek yo'qoldi-yu, tusi yana murda-day ko'karib-oqardi.

Kekxa xonimni bezovtalik-la kuzatayotgan Oliver uning bu alo-matlardan tashvishga tushib qolganini payqadi: haqiga ko'chganda, u ham xavotirga tushgandi-yu, biroq xonimning bunga e'tibor ber-maslikka urinayotganini ko'rib, o'zi ham xuddi shunday qilishga ti-rishdi; xullasi, ikkovlari shunga erishishdiki, xolasining maslahati bi-lan yotgani yo'l olgan Rozning kayfiyati ko'tarildi, hatto unchalik

tobi qochmagan ko'rindi va ertalab soppa-sog' turishiga qatra shubhasi yo'q ekaniga ishonitirmoqchi ham bo'ldi.

— Jiddiy hech gap bo'lmasa kerak, a? — so'radi Oliver missis Meyli qaytib kimgach. — Ko'rinishidan kasalga o'xshaydi-yu, lekin...

Keksa xonim imo bilan so'zlashmaslikni o'tindi-da, xonaning qorong'i burchagiga borib o'tirgancha, uzoq jim qoldi. Nihoyat, u titroq ovoz bilan dedi:

— Men ham shunday umiddaman, Oliver. U bilan bir necha yil baxtiyor umr kechirdim, ehtimol, haddan ziyod baxtiyor yashagandirman. Boshimga biror falokat tushadigan fursat kelar-u, lekin bu falokat ishqilib biz o'ylagan narsa bo'lib chiqmasin-da, deb umid qilaman.

— Nimaykin o'sha, — so'radi Oliver.

— Og'ir judolik, — dedi kekse xonim, — shuncha yillar ovunchog'im va saodatim bo'lib kelgan qadrdon qizdan ayrilib qolish.

— O, xudo asrasin! — deb yubordi Oliver o'sha ondayoq.

— Omin, iloyo aytganing kelsin, bolam! — dedi kekse xonim qo'l qovushtirib.

— Axir hech qanaqangi xavotirli joyi yo'q-ku, hech qanaqangi qo'rqinchli ish bo'lmadi-ku? — xitob qildi Oliver. — Ikki soat oldin soppa-sog' edi.

— Hozir qattiq og'rigan u, — dedi missis Meyli. — Ahvoli yanayam yomonlashadi, bunga imonim komil. Jonginam, o'rgilay Rozginam-a! Usiz qayga boraman-u nima qilaman?

U shu qadar kuyib-yonib ketayotgandiki, Oliver o'z xavotirligini yashirib, yosh xonimning salomatligi uchun tinchlanishini o'tinib, yalinib-yolvorib iltijo qila boshladi.

— O'zingiz o'ylab ko'ring, — derdi-yu, Oliver, o'zining bo'lsa, har qancha urinmasin, ko'zlarida yosh halqalanardi, — o'ylab ko'ring-a, u qanday yosh, mehribon, hammani qanday quvontirib, yupatib yuradi! Bilaman, inonaman... qattiq ishonaman, xuddi o'ziday saxiy, mehribon xolasi — sizni deb, o'zini deb o'zi shunday baxtiyor qilib yurgan hamma odamlarni deb o'lmaydi u! Yoshgina bo'lib o'lib ketishiga xudo qo'yib qo'ymaydi.

— Sekin! — dedi missis Meyli Oliverning boshiga qo'lini qo'yib. — Sho'rlik bolaginam, yosh bolaning gapini gapiryapsan. Lekin, har holda, burch-vazifamni o'rgatyapsan menga. Uni bir nafasgagina unutgan ekanman, Oliver, biroq umid qilamanki, meni kechirsa bo'ladi; negaki men qari odamman va umrimda sevgan odamingdan judo bo'lish qanchalik alamlı bo'lishini bilib olgunimcha ozmuncha kasal-u o'limlarni ko'rmadim. Ha, bularni ko'raverib, o'zlarining

suygan odamlarini deb yosh va mehribon nihollar hamishayam omon qolavermasligiga ishonch hosil qilganman. Lekin, iloyo sen aytgan gap haq bo'lsin-u, g'am-qayg'uli dilimizga tasalli bersin. Halloqi olam odil, marhamati benihoya; ushbu esa bu dunyodan yaxshiroq o'zga dunyo borligining alomatidir... u yoqqa ravona bo'lishga kelganda, zumda sodir bo'ladi. Yaratganning irodasi bo'lg'ay! Men Rozni sevaman, uni qanchalik suyishim Tangrining o'ziga ayon!

Oliver missis Meylining shu so'zlarni aytarkan, nola-yu zorini majburan tiyib, qaddini rostlagani va xotirjam-u vazmin tortganini hayrat-la ko'rib turdi. Keyinchalik ham bu vazminlikning davomli, barqaror ekanligiga qanoat hosil qilarkan, taajjubi yanada ortdi. Bundan keyingi bemorni parvarish qilish davomidagi jamiki tashvish-u yugur-yugurlarga qaramay missis Meyli (o'z burchini og'ishmay ado etarkan) hamisha serg'ayrat, xotirjam, vazmin va hatto, chamasi, tetik bo'lib qolaverdi. Biroq bola yosh va shu boisdan ham boshga og'ir sinov tushganda matonatli kishilar nimalarga qodir ekanligini bilmasdi. Aytmoqchi, basharti, matonatli odamlarning o'zlari buni kamdan-kam holda payqaganlaridan so'ng, u qayoqdan ham bilsin.

Tahlikali tun kirdi. Ertalabga borib, taassufki, missis Meylining bashorati amalga osha boshladi. Rozda qattiq, xavfli isitma boshlandi.

— Oliver, qo'l qovushtirib, behuda g'am-hasrat chekib o'tiravermasligimiz kerak, — dedi missis Meyli barmog'ini labiga bosib, bolaning aftiga tikilgancha. — Manavi xatni iloji boricha tezroq mister Losbernga jo'natish zarur. Buni shahar, bozorhoshiga eltish lozim — agar daladagi so'qmoqdan borilsa bu yerdan to'rt milyadan oshmaydi; shaharchadan bo'lsa uni otliq chopar bilan to'g'ri Chertsiga jo'natishadi. Mehmonxonadagilar yo'q deyishmaydi, hammasini ko'ngildagidek qilib bajarishingga ishonaman. Buni bilaman.

Oliver hech nima demadi, biroq hoziroq yo'lga otilishga tayyorligi shundoq ko'rinib turardi.

— Mana yana bitta xat, — dedi missis Meyli va o'yga tolib qoldi. — Ochig'i, bilmadim, shu topdayoq jo'natsammikin yoki sabr qilib, Rozning dardi qandoq kechishini picha kuta tursammikin. Oxiri xunuk bo'lishiga ko'zim yetmagunicha buni jo'natmasam degandim.

— Buniyam Chertsiga jo'natish kerakmi, xonim? — so'radi Oliver, u topshiriqni tezroq bajara qolay deb toqatsizlanarkan, titrab turgan qo'lini xatga cho'zganicha.

— Yo'q, — dedi kekxa xonim, beixtiyor xatni tutqizarkan.

Oliver unga ko'z qirini tashlab, maktubning ustiga mashhur lordning mulkida — aniq qayer ekanligini u o'qiyolmadi — turuvchi eskvayr\* Garri Meyliga deb yozilganini ko'rdi.

— Buni ham jo'nataymi, xonim? — sabrsizlik bilan so'radi Oliver ko'zlarini maktubdan uzib.

— Yo'q, yaxshisi, kerakmas, — javob qildi missis Meyli xatni qaytarib olarkan. — Ertagacha kuta turaman.

Shunday deya u Oliverga kartmonini tutqazdi va bola shu zamonog qo'lidan kelganicha tez-tez odimlay ketdi.

Oliver paykallar va ularni kesib o'tgan yolg'izoyoq so'qmoqlardan yugurib borardi; u dam baland-u bo'liq g'alla poyalari orasida ko'rinmay ketar, dam o'ti o'rilib, g'aram qilinayotgan yaydoq pichanzorga chiqib qolardi; faqat ahyon-ahyonda nafasini rostlagani bir necha lahzagagina to'xtardi: shu tariqa yugura-yugura oxiri terlab-bo'g'riqib, changga belanib, kichkinagina shaharchaning bozorboishi-ga chiqib keldi.

Shu yerga yetganda u to'xtab, mehmonxonani izlab, atrofga alangladi. Maydon tegrasida oppoq bank binosi, qizilga bo'yalgan pivo pishiriladigan bino va sariq ratusha binosi joylashgandi; burchakda esa dang'illama yog'och uy bo'lib, yashilga bo'yalgan, kiraverish peshtoqidagi: «Jorj» degan lavha ko'zga tashlanib turibdi. Ko'zi tushgani hamonog Oliver o'sha uyga qarab yugurdi.

U darvoza oldida mudrab o'tirgan ot haydovchi bilan gaplashdi, haydovchi gapini eshitib bo'lib, bolani otboqar yoniga, unisi esa ot-xona darvozasi oldidagi suv nasosiga suyangancha oppoq tish tozalagich bilan tishini kavlashtirayotgan ko'k galstukli, oq shlyapa, odmi ishton, qaytarma qo'nj etik kiygan baland bo'yli mehmonxona egasi huzuriga yo'lladi.

Mazkur jentlmen hisob-kitobni yozib chiqqani eran-qaran ichkariga qarab yurdi, bu ish ham ancha-muncha vaqtni oldi; hisob-kitob bitib, haqi to'lab bo'linganidan keyin otni egarlash, choparning esa kiyinishiga to'g'ri keldi, bu tadorik uchun ham bemalol o'n daqiqa vaqt ketdi. Oliver shunchalik tashvish va xavotirda oyog'i kuygan tovuqday tipirchilab turar, qo'yib bersa lip etib o'zini egarga otib, keyingi bekatgacha otni uchirib borishdan ham toymasdi shu topda. Axiyri hamma narsa tayyor bo'ldi; kichikkina qog'oz xaltacha tayinlash-u tezroq yetkazish borasidagi o'tinchlar bilan chopar qo'liga tutqazilgach, u otni niqtadi-yu, tosh yotqizilgan notekis bozor maydoni bo'ylab yo'rttirib ketdi; ikki daqiqalar o'tmayoq u shaharni ortda qoldirib, katta shahar yo'lidan yelib borardi.

Yordam so'rab maktub jo'natilgani va biron daqiqa ham fursat bekor ketmaganini o'ylab, bir qadar xotirjam tortgan Oliver ko'ngli sal-pal joyiga tushib, mehmonxona hovlisidan yugurgancha ketdi. Darvozadan chiqishda kutilmaganda mehmonxonadan chiqib

borayotgan, yelkapo'shga o'ralib olgan baland bo'yli kishiga urilib ketdi.

— Iya! — qichqirib yuborayozdi bu odam Oliverga ko'zi tushib, birdan orqasiga tisarilgancha. — Jin ursin, bu qanaqasi bo'ldi?

— Afv etasiz, ser, — dedi Oliver, — uyga juda shoshilganimdan sizning chiqib kelganingizni ko'rmay qolibman.

— Ming la'nat! — to'ng'illadi u odam yirik, qora ko'zlari bilan bolaga yeb qo'ygudek tikilgancha. — Kim ham o'ylabdi buni! Qiy- ma-qiyma qilib tashlasangiz ham, bari bir, tosh tobutdan ham sakrab chiqadi-ya mening yo'limni to'sgani!

— Afv eting, — dedi Oliver duduqlanib, bu g'alati odamning tel- banoma o'qrayishidan xijolat tortib.

— He jin urib, jabbor chalsin seni! — dedi u kishi jazavada tish- larini g'ijirlatib. — Agar bir og'iz shama qilishga yuragim dov ber- ganidami, sendan bir kechaning o'zidayoq qutulgan bo'lardim. Boshingga la'nat-u vabo toshlari yog'ilsin-e, iblisvachcha! Bu yer- larda nima qilib yuribsan?

Bu so'zlarni poyma-poy qilib vaysagan ko'yi musht do'laydi u ki- shi. Go'yo musht tushiradigandek Oliverga tomon bir qadam tashla- di-yu, ammo tappa yerga qulab, og'zidan ko'pik kelgancha, tutqanoq talvasasi tutib qoldi.

Oliver bir soniyagina jinnining (u jinni deb o'ylagandi bu kishi- ni) oyoq-qo'llarini tipirchilatishga hang-mang bo'lib turdi, keyin yordamga chaqirgani ichkariga otildi. Oliver jinnini mehmonxonaga eson-omon olib kirib ketganlariga ishonch hosil qilgach, behuda ket- gan vaqtining hissasini chiqarib olish uchun imkonni boricha ildam- roq yugurgancha, behudud taajjub va hadik-la hozirgina ajralishgan odamining g'alati xulq-atvorini o'ylab borardi.

Darvoqe, bu hodisa Oliverning xayolini ko'pdan band qilmadi, zotan bola bog' hovlilariga qaytib kelarkan, u yerdagi voqealar o'zi haqidagi jamiki o'ylarni xobi-xotiridan sitib chiqarib, bo'lak fikrlar bilan band etishga yetib-ortgulik edi.

Roz Meylining ahvoli battar og'irlashibdi; hali tun yarmiga bor- masdanoq alahlay boshladi u. Shu qishloqlik vrach to'shagi tepasidan jilmasdi; bemorni nazoratdan o'tgazgach, u missis Meylini chekka- roqqa chorlab, xavfli kasal ekanini aytdi.

— Mabodo tuzalib ketsa — bu bir mo'jiza bo'ladi, — dedi u.

O'sha kecha Oliver o'rnidan turib, sekingina zinapoyaga chiqib, bemorning xonasidan eshitalayotgan tiq etgan ovozga necha marta- lab quloq osmadi deysiz! Bexosdan eshilib qolgan shoshilinch odim tovushlaridan necha martalab titrab ketmadi-yu, o'ylashning o'zi bir olam dahshat bo'lgan narsa sodir bo'pti-da, degan xavotirdan necha-

necha martalab peshonasidan muzdek ter chiqib ketmadi! Uning shu topdagi lahad yoqasida turgan dilbar-u mehribon kimsasining hayoti va sog'lig'ini tilab hasrat-u alam ichra qilayotgan duo-yu iltijolarini ilgari qizg'in munojotlari bilan tenglashtirib bo'lmamidi!

O, jondan ortiq sevadigan kishimizning hayoti qil ustida, tarozuning bir pallasida — jon, ikkinchisida ajal toshi tursa — qanchalar beshafqat qiynog'-a bu! O, miyangda g'ujg'on o'ynab, yuragingni o'ynatib, entiktirib qo'yadigan o'y-fikrlar qanchalar iztirobli-ya! O, qo'limizdan kelmaydigan ish — azob-uqubatlarni yengillatish yoxud xavf-u xatarni kamaytishga da'vat etib, aqalli biron chora ko'rishga undovchi jo'shqin istak; o'z o'jizligimizni o'ylaganimizda qalbimizga qutqu soladigan noumidlikni aytmayisizmi, qaysi bir qiynoq tenglasha oladi bular bilan; eng mashaqqatli va tahlikali onda qaysi o'y-fikr yoxud qay kuch ularni bo'shashtira oladi!

Tong otdi, choqqina bog' hovlida esa suv quygandek jimjitlik. Hamma pichirlashib gaplashardi. Vaqt-vaqti bilan darvoza oldida tashvishli chehralar ko'rinib qolardi; xotin-xalaj-u bolalar ko'zlarida g'ilqqa-g'ilqqa yosh bilan chiqib ketardilar. Yilday cho'zilgan kun davomida Oliver to qorong'igacha bog'da kezdi; u titrab-qaltirab dambadam bemor yotgan xonaning derazasiga qarab qo'yardi, nazdida oyna uzra ajal qanot qoqib turgandek tuyulaverdi. Xuftonga borib mister Losbern yetib keldi...

— Qanchalik og'ir bu! — dedi ko'ngilchan doktor, shunday deyar-kan, u yuzini chetga burib oldi. — Hali o'n gulidan bir guli ochilmagan, shunday suyakli navnihol-a. Umid juda kam.

Yana tong otdi. Oftob shunaqangi charaqlab turardiki, go'yoki u na g'am-alam, na musibat-u falokatni ko'rmaganday; atrof-borliq quyuq yaproqlar-u chaman-chaman gul-chechaklarga burkangan; shodlig-u quvonch bashoratchisi bo'lmish sas-sadolar-u so'lim manzaralar hayot va sog'lomlik nafasini ufurib turardi; yoshgina go'zal bir jon esa shitob-la so'nib borardi. Oliver ko'hna qabristonga o'tib borib, yam-yashil gumbazchaga o'tirdi-da, sokinlik qo'ynida uning duoyi jonini qilib, yum-yum yig'ladi.

Atrof shunchalar osuda va shunchalar so'lim, quyosh nuri-ga cho'mgan manzara shunchalar ko'zni quvnatar, qushlar shunchalar sho'x-shodon navo qilar, borliq shunchalar jo'shqin hayot-u shodiyonalikka to'lgan edikim, bola shundoqqina boshiga tegay-tegay deb bemalol uchib o'tgan quzg'un ortidan yig'idan og'riq kirgan ko'zlarini ko'tarib, tevarakka boqarkan, beixtiyor xayolidan hozir o'lim fursati emasligi, jamiki oddiy jonzot-u jondorlar shunchalar shodon, beg'am-u betashvish bir paytda Roz o'lmasligi kerak, albatta, go'rni esa butun olam nurga cho'milayotgan va muattar

bo'ylar nash'-u namosini surayotgan pallada emas, sovuq hamda xafagazak qish faslida qaziladi-ku, degan o'y kechdi. Yana bola ixtiyorsiz ravishda o'yladi: kafan ham ajin bosgan qarilarga atalgan, u hech qachon yosh va ajoyib tanlarni o'zining dahshatli quchog'iga olgan emas.

Shu payt cherkov qo'ng'iroqlarining dafn marosimidan ogoh etguvchi jarang-jurungi ushbu go'dagona o'ylarni cho'rt uzib qo'ydi. Qo'ng'iroqlar tag'in bong urdi! Yana bir bor! Ular janozaga chorlardi. Darvozadan hassakashlarning chog'roqqina to'dasi kirib kela boshladi; ular oppoq kapalaknuxa bant taqib olgandilar, chunki marhum yosh edi. Ular qabr tepasida boshyalang turishar, yig'layotganlar orasida ona — bolasidan ayrilgan ona ham — zor qaqshayapti. Ammo quyosh hamon charaqlab nur sochyapti, qushlar esa navo qilyapti.

Oliver yosh oyimqizdan qanchadan-qancha yaxshilik ko'rgani haqda o'y surib, yana o'shanday kunlar kelib, u qizga o'z minnatdorligi va mehrini hormay-tolmay isbot etishini orzu qilgancha uyga yo'l oldi. O'zini e'tiborsizlik yoxud iltifotsizlikda ayblaydigan hech qanaqangi asosli ta'nasi yo'q edi — u qizga sadoqat-la xizmat qildi; shunga qaramay, yuzlab mayda-chuyda narsalar yodiga kelardiki, uning nazarida, o'sha hollarda yanayam ko'proq g'ayrat-u hafsala ko'rsatsa bo'ladigandek tuyulib, o'shanday qilmaganidan o'kinardi. Atrofimizdagi yaqinlarimizga ehtiyotkorona muomala qilishimiz darkor, negaki har bir o'lim hayot qolganlarning mo'jazgina davrasida qanchalar ko'p xatolarga yo'l qo'yilgani va bir-birlariga qanchalar kam naflari tekkani borasida afsus-nadomatlar uyg'otadi, qancha narsalar unutilgani va undan ham ziyodroq tuzatib bo'lmas nuqsonlar sodir bo'lgani xususida beaded o'kinchlarga soladi. So'nggi pushmon — o'zga dushman deganlaridek, befoyda afsusdan ko'ra beshafqat narsa yo'q olamda; bashartiki befoyda afsusning azob-u iztirobidan o'zimizni xalos etish niyatida bo'lsak, fursat o'tmasidan esga olaylik uni.

U uyga kirib kelganida missis Meyli kichik mehmonxonada o'tirgan ekan. Unga ko'zi tushiboq Oliverning yuragi naq to'xtab qolayozdi: xonim jiyanining to'shagi tepasidan biron marta jilmagandi, shuning uchun ham bolani missisni bu yoqqa chiqishga qanday o'zgarish majbur etdi ekan, deb vahm bosdi. U Rozning qattiq uyquga ketganini, uyqudan uyg'ongach esa yo sog'ayib ketishi, yo bular bilan vidolashib, o'limga yuz tutishi mumkin ekanini bilib oldi.

Ikkovlon bir necha soat mobaynida churq etib ovoz chiqargani cho'chib, jimgina quloq solib o'tirishdi. Tushlik tamaddini qanday bo'lsa shundayicha olib chiqib ketdilar; quyosh pastlay-pastlay borib, nihoyat yer-u samo oqshom cho'yshabiga o'ralayotganini kuzatarkanlar, o'y-xayollari allaqaylardadir, o'zga yerlarda charx urib yurgani

ko'rinib turardi. Shu asnoda ularning sergak quloqlari yaqinlab ke-  
layotgan odim sharpalarini ilg'ab oldi. Ular eshik tomon tashlangan-  
dilarki, shu vaqt xonaga mister Losbern kirib keldi.

— Rozning ahvoli qalay? — deyarli qichqirib so'radi kekxa xonim.  
— Shartta ayting-qo'ying! Chidayman bunga, noma'lumlikdan bo'lak  
hamma narsaga chidayman! Xudo haqqi, gapirsangiz-chi!

— O'zingizni bosing! — dedi doktor uni suxab. — O'tinaman,  
xonim, tinchlaning, azizam!

— Qo'yib yuboring meni, baraka topkur! Voy bolajonim-a!  
O'ldimi-ya! Jon beryaptimi-ya!

— Aslo! — qizishib xitob qildi doktor. — Xudovandi karimning  
marhamati benihoya, hammamizni shoyon shod etib, u yana uzoq  
yillar yashaydi!

Xonim tiz cho'kib, qo'llarini qovushtirishga urindi, ammo shun-  
cha vaqtgacha qaddini tik tutib turgan quvvati ilk shukrona bilan birga  
adoyi tamom bo'lgandi, shu bois do'stining qo'liga shilq etib tushdi.

---

---

XXXIV BOB. SAHNADA PAYDO BO'LGAN NAVQIRON  
JENTLMEN HAQDAGI BA'ZI BIR DASTLABKI  
MA'LUMOTLARNI, SHUNINGDEK, OLIVERNING  
YANGI SARGUZASHTLARINI O'Z ICHIGA OLADI

Bu baxtga dosh berish amrimahol edi. Kutilmagan xabardan Oliver esankirab va garangsib qolgandi. U na yig'lay olar, na gaplasha va na dam ola bilardi. U sodir bo'lgan ishlarni anchayin mashaqqat-la anglab yetayotgan edi; oqshom havosidan simirgancha uzoq tentiradi; axiyri quyilib kelgan yoshdan yengil tortib, xuddi birdan ko'zi ochilib ketgandek, sodir bo'lgan quvonchli o'zgarishni yaxliticha angladi-yu, yelkasidan bosib yotgan xavotir-u g'am-tashvishning behad og'ir yu-ki ag'darildi-qo'ydi.

Bemorning xonasini bezash uchun, ayniqsa hafsala bilan tergan gullarini bir quchoq qilib uyga qaytayotganida qosh qoraya boshladi. Shaxdam odimlagancha uyga qaytayotganda, orqa tomondan uchib kelayotgan arava shovqinini eshitdi. O'girilib qarab, shitob-la bostirib kelayotgan pochta aravasiga ko'zi tushdi-yu, yo'l torligi sababli uni o'tkazib yuborish uchun kimningdir darvozasiga biqinib oldi.

Arava uning yoniga yetib kelganida Oliver ko'z qiri bilan oq tungi qalpoq kiyib olgan odamni ko'rib qoldi; uning afti (garchi zuv etib o'tib ketganidan taniyolmagan bo'lsa-da) tanish ko'rindi. Ikki lah-zalar o'tmayoq tungi qalpoq egasi arava darchasidan mo'raladi-yu, uning aravakashga to'xtatishni buyurgan baland ovozi eshitildi va aravakash otlarni eplashtirgan zamoni, buyruqni bajo keltirdi.

— Beri kel! — baqirdi haligi ovoz. — Oliver, nima yangiliklar bor? Miss Roz qalay? O-li-ver!

— O'zingizmisiz, Jayls? — deb qichqirdi Oliver aravaning darchasi yoniga chopib kelarkan.


Jayls javob bermoqchi bo'lib yana tungi qalpoqli boshini chiqargan edi, o'rindiqning narigi tomonida o'tirgan yosh jentlmen uni nari itarib, sabrsizlik bilan qanday yangilik borligini so'radi.

— Bir og'iz qilib ayt! — qichqirdi jentlmen. — Tuzukmi yo yomonmi?

— Tuzuk, ancha tuzuk! — shosha-pisha javob qildi Oliver.

— Xudoga shukr! — deya shukrona o'qidi yosh jentlmen. — O'zingning ishonching komilmi bunga?

— Mutlaqo komil, ser! — javob berdi Oliver. — Xatar bir necha soat burun o'tdi, mister Losbernning aytishicha, endi xavotir olmasa ham bo'ladi.



Jentlmen bir og'iz ham so'z aytmay, arava eshigini ochib sakrab tushdi-da, Oliverning qo'ltig'idan olib, bir chekkaga boshladi.

— Bunga imoning komilmi? Mabodo yanglishayotganing yo'qmi, ukajon? — titroq ovozda so'radi u. — Tag'in bo'lmaydigan, yo'q nar-saga umidvor qilib o'tirmagina meni.

— Ikki dunyodayam bunday qilmasman, ser,— javob qaytardi Oli-ver. — Rosti, o'zingizga ishongandek ishonavering menga. Losbern-ning «hammamizni shoyon shod etib, yana uzoq yillar yashaydi u», — deganini o'z qulog'im bilan eshitdim.

Shundayin baxtni ato qilgan soniyani tilga olarkan, Oliverning ko'zlarida yosh halqalandi; jentlmen bo'lsa indamay teskari buril-di. Oliverning nazdida bir necha bor uning qo'ng'irog'ini eshitayot-gandek tuyuldi-yu, biroq biron nima deb xalal berishdan cho'chidi; zero bola yigitning qalbidan nelar kechayotganini fahmlab turar-di, shu boisdan ham chekkaroqda o'zini gullari bilan banddek qilib ko'rsatardi.

Bu orada tungi oq qalpoq kiyib olgan mister Jayls usti berk ara-vaning zinasida, ikkala tirsagini tizzalariga tiragan ko'yi, ko'zlarini xol-xol oq gulli havorang ip dastro'moli bilan ishqab o'tirardi. Be-chora mutlaqo o'zini hayajonlanayotganga solayotgani yo'q — navqi-ron jentlmen o'girilib, so'z qotganida, unga tikilgan ko'zlarining qip-qizarib ketgani buning yaqqol dalili edi.

— Jayls, siz foytunga o'tirib, onam huzuriga jo'naganingiz ma'qulga o'xshaydi, — dedi jentlmen. — Men fursatdan yutish niya-tida bir oz piyoda yurib, keyin xonimcha bilan ko'rishsam degandim. Onamga meni hozir keladi, deb qo'ya qoling.

— Ma'zur tutasiz-u, mister Garri, — dedi Jayls hayajon-la aftini dastro'moli bilan arta turib, — mabodo ushbu topshiriqni ado etish-ni foytunchiga yuklasangiz, bag'oyat mamnun bo'lardim. Oqsochlar-ning kaminani bunday ahvolda ko'rishlari yaxshimas, ser... Ularning oldida obro'im bir pul bo'ladi-ya.

— Yaxshi, — jilmaygan ko'yi javob qildi Garri Meyli, — bilga-ningizni qiling. Agar ta'bingizga xush keladigan bo'lsa, mayli, foy-tunchi yuklar bilan oldinroq ketaversin, siz esa biz bilan birga bo-rarsiz. Lekin avval manavi tungi qalpoqni bironta tuzukroq bosh kiyim bilan almashtirib oling, yo'qsa bizni jinni deb o'ylashlari hech gapmas.

Mister Jayls beo'xshov bosh kiyimi haqdagi tanbehni eshita solib qalpog'ini darhol yulqib oldi-yu, cho'ntagiga urdi-da, foytundan bichimi oddiy, ayni paytda salobatli shlyapa olib, boshiga qo'ndirdi. Bu ish o'rinlatilgach, foytunchi otlarni jildirdi; Jayls, mister Meyli va Oliverlar uning ortidan shoshilmay yo'lga tushishdi.

Yo'lakay Oliver yangi kelgan yigitni zo'r qiziqish va sinchkovlik ila kuzatib bordi. Ko'rinishidan yigirma besh yoshlar chamasida; o'rta bo'yli, chiroyli va ochiq chehrali, muomalasi sodda-samimiy. Yosh jihatidan farqlariga qaramay, u kekxa xonimga shundoq o'xshab ketardi-ki, hatto yigit uni onam deb atamagan taqdirida ham Oliver ularning qarindosh ekanliklarini fahmlagan bo'lardi.

Bog' hovliga yetib borganlarida missis Meyli o'g'lini nigoron kutib turgandi. Ko'rishayotganlarida ikkovlariyam nihoyatda hayajonda edilar.

— Oyijon, — shivirladi yigit, — nimaga ilgariroq yozib yubormadingiz?

— Yozishga yozib qo'ygandim, — deb javob qildi missis Meyli, — lekin o'ylab ko'rib, toki mister Losbernning fikrini eshitmagunimcha jo'natmaslikka ahd qildim.

— Lekin ro'y berishiga bir bahya qolgan fojia sodir bo'lay deb turgan bir paytda tavakkal qilishning nima hojati boriydi? — deya so'zini davom ettirdi yigit. — Bordi-yu, Roz... yo'q, aytolmayman bu so'zni... bordi-yu, kasalning oqibati boshqacha bo'lib chiqqanida o'zingizni kechira olarmidingiz sira? Axir, unda men yana baxtiyor bo'la olarmidim?

— Mabodo eng xunuk ish yuz berganida, Garri, — dedi missis Meyli, — qo'rqamanki, sening hayoting bir umrga chilparchin bo'lgan va bu yerga bir kun oldin yo bir kun keyin yetib keldingmi, bari bir, buning ahamiyati juda, judayam kam bo'lardi.

— Bordi-yu, shundoq bo'lgan taqdirdayam, qanday taajjublanadigan joyi bor? — E'tiroz bildirdi yigit. — Mabodo deyishning nima keragi bor? Aslida shundoq, ha, aslida shundoq... buni o'zingiz bilasiz, oyijon... bilishingiz kerak.

— Bilaman, u erkaklar qodir bo'la olgan eng nazokatli va eng pok muhabbatga loyiq, — dedi missis Meyli, — uning sadoqatli hamda mehribon fe'l-atvori yengil-yelpi tuyg'uga emas, balki teran hamda barqaror his-tuyg'uga muhtoj. Mabodo men bundan bexabar bo'lganimda va buning ustiga u mehr qo'ygan odam xiyonat qilgudek bo'lsa o'sha ondayoq hasratda jon berib qo'ya qolishini bilmaganimda, o'z vazifamni unchalik mushkul hisoblamas va o'zimning shakshubhasiz burchimni amalga oshirishga xotirjam kirishgan bo'lardim.

— Bu bag'ritoshlik-ku, oyijon, — dedi Garri. — Nahotki siz menga shu mahalgacha o'z yuragini boshqarolmaydigan va o'z qalbi maylini tushunmaydigan yosh bola deb qarasangiz?

— Menimcha, jonim o'g'lim, — javob qildi missis Meyli uning kiftiga qo'lini qo'yib, — yoshlikka olihimmat, mardonavor ammo umri qisqa orzu-tilaklar yo'ldosh bo'ladi; ular orasida shunaqangilar ham borki, murodlari hosil bo'lgach, mayl-u ishtiyoqlari o'tkinchi,

beqaror ekanligi bilinadi-qo'yadi. Avvalambor men o'ylaymanki, — so'zini davom ettirdi xonim o'g'lidan ko'zini uzmay, — bordi-yu, xushchaqchaq, jo'shqin, shuhratparast odam (garchi uning aybi bilan bo'lmasa-da) sha'niga dog' tushgan qizni nikohiga olsa, toshbag'ir va yaramas odamlar bir umr ularni, hatto bolalarini ham la'natlab, yozg'iradilar. Eri oliy tabaqa davrasida muvaffaqiyat qozona borgan sayin unga har qadamda dakki berib, masxaralashga tushadilar; shundoq ekan, o'ylaymanki, o'sha odam — tabiatan qanchalik og'irkarvon va saxovatli bo'lmasin — bari biram bir kunmas-bir kun yoshlik qilib bunday ayolga uylanganiga afsuslanishi turgan gap. Ayol esa, buni ko'rib, o'z yog'iga o'zi qovuriladi.

— Oyijon, — dedi yigit betoqatlik bilan, — xuddi o'shanday xayolga borgan kimsa erkak nomiga noloyiq, siz ta'riflayotgan ayolning tirnog'iga ham arzimaydi.

— Hozir shunday deb o'ylay boshlading, Garri, — javob qaytardi onasi.

— Va hamisha shu fikrimda qolaman! — deya xitob qildi yigit. — Shu ikki kun qalban chekkan qiynog'-u iztiroblarim o'zingizga yaxshi ma'lum bo'lgan mayl-u istagim kuni kechagina buning ustiga yengiltakligim oqibatida tug'ilgan emasligini tan olishga, sirtimga chiqarishga majbur etyapti. Mening yuragim, qalbim — erkak kishining yuragi ayolga qanday baxshida etilsa, xuddi o'shandayicha — bir umrga Rozga, mehribon, beozor, dilbar qizga baxshida etilgan. Butun fikr-zikrim, o'ylarim, istaklarim, orzu-umidlarim u bilan chambarchas bog'langan; bordi-yu, bu masalada ra'yimga zid chiqsangiz, orom-u tinchligimni, baxt-u saodatimni o'z qo'lingizga olib, shamolga sovurgan bo'lasiz. Oyijon, shular haqda, men haqimda yaxshilab o'ylab ko'ring va mendan kam qayg'urmayotganingiz baxtga nopisandlik bilan qaramang!

— Garri! — deya xitob qildi missis Meyli. — Aynan ana shu jo'shqin va ta'sirchan qalblarni ko'p o'ylayotganim uchun ham ularni behuda jarohatlardan asrab qolishni istayman. Lekin hozir bu xususda yetarlicha, keragidan ham ortiqcha gapirildi...

— U taqdirda, Rozning o'zi hal qilsin, — onasining so'zini bo'ldi Garri. — Yo'limga to'g'anoq bo'lish uchun fikringizda qoyim turib olmaysizmi?

— Yo'q, — javob berdi missis Meyli, — lekin har holda yaxshilab o'ylab ko'rishingni istardim...

— *O'ylaganman!* — degan betoqat javob eshitildi. — Oyi, yillab o'yladim. Jiddiy mulohaza yuritishga qodir bo'lgan paytimdan boshlaboq bu haqda o'ylashga tushganman. Tuyg'ularim barqaror va ular shundayligicha qoladi. Oxiri baxayr bo'lmaganidan keyin buni ichimga

yutib, orqaga surib azob chekib yurishimning qanday nafi bor? Yo'q! Bu yerdan jo'nab ketishimdan oldin Roz dilrozimni bilishi lozim.

— U seni eshitishga tayyor, — dedi missis Meyli.

— Gap ohangingizga va taxminingizga qaraganda, oyijon, u meni sovuq qarshi oladiganga o'xshaydi, — dedi yigit.

— Yo'q, bo'lmagan gap, — javob berdi kekxa xonim. — Aslo undaymas.

— Bo'lmasa qanday? — tiqilinch qilaverdi yigit. — Mabodo u qalbini boshqa birovga hadya qilib qo'ymadimikin?

— Albatta yo'q! — dedi onasi. — Agar yanglishmasam, ko'ngli senda. Lekin shuni aytmoqchiydimki, — deya gapini davom ettirdi kekxa xonim o'g'lining gapini og'zidan olib, — hammasini ko'tara savdo qilishdan oldin, orzu qanotida ko'klarga parvoz qilmasdan burun, jon bolam, Rozning tarixini bir nafasgina o'ylab ko'r va o'zining shubhali kelib chiqishidan xabardorligi uning ahidiga qanchalik ta'sir etishi mumkinligi borasida xulosa chiqar; sababki uning himmatli qalbi bizga nisbatan chin sadoqat-la limmo-lim; keyin xoh jiddiy, xoh mayda-chuyda ish bo'lsin — hamisha o'z manfaatidan voz kechishga jon-tani bilan tayyor.

— Bu bilan nima demoqchisiz?

— O'ylab ko'rishingni maslahat berardim, — javob qildi missis Meyli. — Men bemorning yoniga qaytishim kerak. Iloyo o'zi yarlaqasin seni!

— Bugun kechqurun ko'rishamizmi? — deya hayajon-la so'radi yigit.

— Picha kechroq, — javob berdi xonim, — Rozning yonidan chiqqanimdan keyin.

— Shu yerdaligimni aytasizmi unga? — so'radi Garri.

— Albatta, — javob qildi missis Meyli.

— Keyin, qanchalik xavotirlanganimni, azob chekkanim va uni ko'rishga intiqligimni ham ayting. Bunga yo'q demassiz-a, oyijon?

— Albatta, — dedi kekxa xonim. — Men unga hammasini aytaman.

Shundan so'ng o'g'lining qo'lini mehr-la qisib, chiqib ketdi.

Ushbu oshig'ich suhbat davomida mister Losbern bilan Oliver xonaning narigi burchida turishgandi. Nihoyat mister Losbern Garri Meyliga qo'lini uzatdi va ular qizg'in ko'rishishdi. So'ngra doktor o'z navqiron do'stining behisob savollariga javoban bemorning holati xususida mufassal axborot berdi. Bu javob Oliverning so'zlaridan keyin yigitning qalbida uyg'ongan umidni yana mustahkamladi. Mister Jayls esa o'zini bamisoli yuk bilan ovora qilib ko'rsatsa ham, lekin qulog'i ding bo'lib eshitib turardi.

— Keyingi paytlarda arzirli biron nimani qo'lga tushirolganingiz yo'qmi, Jayls? — deya surishtirdi doktor axborot berib bo'lgach.

— Arzirli hech nima, ser, — javob qaytardi mister Jayls qulog'igacha sholg'omday qizarib.

— Biron-bir o'g'riniyam ushlamadingiz, hech qanday talonchiniyam tanib qolmadingizmi? — tegajaklikni davom ettirdi doktor.

— Hech qanday, ser, — javob qaytardi mister Jayls sipolik bilan.

— Attang, — deb qo'ydi doktor, — nega deganingizda, o'zlari bu-naqangi ishlarning ustasi farangilar-da... Xo'sh, ayting-chi Britlsning ahvoli qalay?

— Yigitcha otday, ser, — javob qildi mister Jayls, yana odatiy rioyagarchilik ohangiga qaytib, — u sizga o'zining chuqur hurmat-ehtiromini yetkazishni kaminaga topshirdi.

— Tasanno, — dedi doktor. — Sizni ko'rib, mister Jayls, bu yoqqa shoshi-linch chaqirtirishlaridan bir kun oldin saxovatli bekangizning iltimosi bilan kichkinagina, sizga yoqadigan bir topshiriqni ado etganim esimga tushdi. Bermalol bo'lsa, bir nafasgagina bu yoqqa, burchakka o'tolmaydirmi?

Mister Jayls salobat-u jindak taajjub ila burchakka o'tib, doktor bilan qisqagina pichirlashib gaplashish sharafiga noil bo'ldi va suhbat intihsosida behisob-u besanoq martaba ta'zim bajo keltira-keltira, bag'oyat sipohona odimlagancha uzoqlashdi. Mazkur suhbat mavzui mehmonxonada siriligicha qoldi-yu, ammo o'choqboshida sira hayallamay oshkora e'lon etildi; zotan mister Jayls to'ppa-to'g'ri o'shoqqa yo'l olgan va bir qadah el (aroq) evaziga, tantanavor ohangda o'sha amalga oshmagan o'g'irlik sodir bo'lgan kuni ko'rsatgan mardonavor jasoratini taqdirlab, beka uning hisobiga mahalliy omonat kassaga yigirma besh funt topshirib qo'yishni ixtiyor etganini xabar qildi. Shunda har ikkala oqsoch qo'llari va ko'zlarini ko'kka qadadilar, negaki ular, endi mister Jaylsning dimog'idan eshakqurt yog'iladigan bo'ptida, deb taxmin qilishgandi. Mister Jayls bunga javoban tomoq qirib olib: «Yo'q, yo'q, aslo», deya javob qildi va bordi-yu ular o'z qo'l ostidagilarga zarracha bo'lsin kibrona muomala qilganini payqasalar-u shartta betiga aytsalar, g'oyatda mamnun bo'lajagini qo'shib qo'ydi. So'ngra esa o'z kamtarin-u kamsuqumlighi qimmatini zig'irchalik kamaytmaydigan yana olamjahon fikr-u mulohazalarni qayd qildikim, bular xuddi ulug' zotlarning odatdagi bag'oyat jo'yali hamda bama'ni pand-nasihatlaridek iltifot-u ma'qullash-la inobatga olindi.

Xufton pallasi xushchaqchaq o'tdi: doktorning juda kayfi chog' edi. Garri Meyli esa dastlabiga qanchalik horg'in va dilxun bo'lmasin, bari bir u ham muhtaram bag'ri keng jentlmenning turfa askiyalari-yu hazil-huzullari, tabibli-giga oid turli-tuman xotiralari

oldida dosh berolmadi. Oliverning nazarida-yu bu hangomalar shu paytgacha eshitganlari ichida eng qizig'i bo'lib tuyular va o'zi ham tinimsiz qah-qah urayotgan doktorni oshkora xursand etib, xandon urib kulardi; ayni chog'da Garrini ham o'shanday zavq-shavq-la kulishga majbur qilardi. Shu tariqa ular, muayyan vaziyat imkon berganicha, vaqtni g'oyat ko'ngilli o'tkazdilar va o'zlari yengil tortib, dillari yozilib, yaqinginadagi xavotirgarchilig-u tashvishlardan so'ng g'oyatda ehtiyoj sezilgan orom — dam olgani turganlarida allamahall bo'lib qolgandi.

Oliver ertalab tetik-bardam uyg'ondi va odatiy mashg'ulotiga beqiyos ishonch hamda xursandchilik bilan kirishdi, negaki talay kunlar mobaynida bunday his-tuyg'uni unutib qo'ygandi. Qushtar eski joylarida sayrasin deb, qafaslar yana ilib qo'yildi, yana xonalarga ko'rk-chiroyi Rozga quvonch baxsh etsin, deb isli-uforli dala chechaklari sochildi. Garchi asli so'limligicha qolgan bo'lsa-da, tashvishga tushgan bolaning g'ussali ko'ziga mungli ko'ringan borliq mavjudot ustidagi qayg'u soyasi go'yo sehrar amri bilan tumandek tarqab ketgandi. Yam-yashil yaproqlar-u maysalarga qo'ngan shabnam tomchisi tiniqroq yiltirayotganday, shabada barglarni mayinroq shitirlatayotganday, osmon moviyligi shaffoflik kasb etgandek tuyulardi. Shaxsiy fikr-o'ylarimiz borliq mavjudotning hatto zohiriy qiyofasiga mana shunday ta'sir o'tkazadi. Tabiat va o'z do'st-yorlarini nazar-pisand qilmaydigan, hamma narsani badbin-u badqovoq deb hisoblaydigan odamlar haq; biroq qora bo'yoqlar ularning jaholat-u safrodan xira tortgan ko'z-u qalblarining aksidir. Aslida esa bu ranglar nafis va xiyla tiniqroq, beg'uborroq nigohni talab etadi.

Oliver endilikda o'zining ertalabki sayrlariga yolg'iz o'tlanmayotganini — bunga uning o'zi ham e'tibor berishni unutmagandi — aytib o'tsak, xalal bermas. Garri Meyli Oliverni bir quchoq gul bilan uyga qaytayotganida uchratgan tongdan boshlab gulga beqiyos mehr qo'yib, guldasta tuzishda shunchalik didi noziklikni namoyon qildiki, bu sohada yosh hamrohidan sezilarli darajada o'zib ketdi. Garchandki bu jabhada Oliver ortda qolgan bo'lsa-da, bari bir eng a'lo gullarni qaydan topishni yaxshi bilardi; qisqasi, har tongda ikkovlon tevarakatrofni kezib, uyga ajoyib guldastalarni olib qaytishardi. Yosh xonim yotoqxonasining derazasi endilikda ochib qo'yilayotgandi; zotan u xonaga muattar yoz havosi yopirilib kirib, vujudiga surur-u halovat, bardamlik baxsh etishini yoqtirardi; deraza rafida esa har kunni tongda beqiyos tuzilgan guldastacha solib qo'yilgan guldon turardi. Mo'jazgina ko'zacha muntazam yangi uzilgan gullar bilan to'latib turilganiga qaramay, so'ligan gullar hech qachon tashlab yuborilganligini Oliver payqamay qolmadi; shuningdek, doktor boqqa qay

vaqtda chiqishidan qat'iy nazar, albatta deraza tomonga nigoh tashlar va bag'oyat ma'nodor qilib bosh irg'ab qo'yardi, so'ng yigitchalarning ertalabki sayrga jo'nashligi ham uning e'tiboridan qochib qutulolmadi. Oliver kuzatishlar bilan band bo'lar, kunlar esa uchib-yelib o'tar, Roz ham tez tuzala boshlagandi.

Garchi, missis Meyli bilan har zamonda bir atrofni aylanishlarini aytmasa, yosh xonim hali xonasini tark etmayotgan va kechki sayrga chiqolmayotgan bo'lsa-da, Oliver uchun vaqt imillab o'tyapti deyishning o'rne yo'q edi. U keksha, oppoq soqolli jentlmendan olayotgan saboqlariga jahd-u jadalla muk tushgan va shundayin g'ayrat bilan ter to'ka boshlagandikim, bunchalik tez muvaffaqiyatga erishayotganidan hatto o'zi ham hayron edi.

Ammo-lekin bir kuni dars qilib o'tirganida, qo'qqisdan yuz bergan voqea uni behad qo'rqitib, esxonasini teskari qilib yubordi.

Odatda, u kitoblari bilan shug'ullanib o'tiradigan mo'jazgina hujra pastki qavatda, uyning orqa tomonida joylashgan edi. Bu qishloqdagi bog' hovlining oddiy bir xonasi bo'lib — panjarali deraza naryog'ida binoni anvoyi atirlarga to'ldirgan yasmin butalari, uchqat gullari deraza romiga chirmashib ketgandi. Deraza boqqa qaragandi, bog' eshigidan ihotlangan o'tloqqa chiqilardi; undan narida ajoyib yaylov o'rmonga tutashib ketadi. Bu tarafda yaqin-orada turarjoy yo'q, olis-olislargacha bepoyon kengliklar ko'zga tashlanib turadi.

Ajoyib oqshom pallasi, endi qosh qoraya boshlagan bir paytda Oliver kitoblari ustida muk tushib o'tirardi. U ancha vaqtdan beri shug'ullanayotgani, kun haddan ziyod issiq bo'lgani va yaxshigina ter to'kkanligi sababli — kitob mualliflari kim bo'lishlaridan qat'iy nazar bu hol ularni zarracha kamsitolmaydi — Oliver o'zi ham bilmagan holda uyquga ketdi.

Goho uyqu shunday pisibgina keladi-yu, jismimizni bandi qilgani holda, ruhimizni atrofda bo'layotgan voqealarni sezishdan xalos etmaydi va xohlagan yerida charx urib yuraverishiga qo'yib beradi. Basharti, sira yengib bo'lmas bir og'irlikni his etish, oyoq-qo'lda quvvat qolmaganini, o'y-fikrlarimiz-u xatti-harakatimizni boshqara olmay qolishlikni tuyish uyqu deb atalsa — bu uyqudir; ammo biz atrofimizda bo'layotgan hamma narsani anglab, bordi-yu nimanidir tushimizda ko'rayotgan bo'lsak, unda haqiqatan aytilgan so'z va ayni shu damda chinakamiga eshitilgan tovushlar hayron qolarli darajada osongina tushimizga moslashadi-qoladi; oxir-oqibatda voqeyiy hamda xayoliy tasavvurotlar shunday g'alati bir tarzda uyg'unlashib, qorishib ketadiki, keyin ularni deyarli bir-birovidan ajratib bo'lmaydi. Bu masalaning bunday holatga xos bo'lgan eng tang qoldirarli jihati emas hali. Qizig'i bu yoqda, ko'rish va sezish hissiyotimiz bu paytda o'lik

bo'lishiga qaramay, uyquga ketgan tafakkurimiz va qarshimizda li-pillab turgan ro'yolarga bironta unsiz, ammo mavjud narsa (garchi u ko'zimizni yumgan paytda yonimizda bo'lmagan, yaqinligini esa o'ngimizda xayolimizga ham keltirmagan esak-da) moddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Oliver o'z hujrasida o'tirganini, oldidagi stolda kitoblari yotganini, deraza ortida iforli bo'y ufurayotgan shabada gul yaproqlarini shitirlatayotganini juda yaxshi bilib turardi. Lekin, shunga qaramay, u uxlayotgandi. Qo'qqisdan manzara o'zgardi-qo'ydi. Havo bo'g'iq hamda dim bo'lib qoldi, shunda u dahshat-la o'zini juhudning uyi-da o'tirgandek his etdi. U yerda, o'zining odatdagi joyida o'tirib olgan badburch chol nuqul uni ko'rsatib, yonida teskari qarab o'tirgan odamga nimalardir deb pichirlarmish.

— Sekinroq, azizim! — bola nazdida go'yo juhudning ovozi ni eshitayotgandek bo'ldi. — Shubhasiz, bu o'sha! Ketdik.

— O'sha! — go'yoki javob beribdimish boshqasi. — Nima, meni tanimaydi deb o'ylaysizmi uni? Agarda bir to'da arvoqlar uning qiyofasiga kirgan bo'lsa-yu, o'zi ham ular orasida tursa, bari bir nimadir uni tanib olishimga yordam bergan bo'lardi. Agarda uning jasadini yetti qavat yer ostiga ko'mib yuborgan chog'laridayam, qabrida na yodgorlik toshi-yu na biron belgisi yo'qligiga ham qaramay, bari bir topib olgan bo'lardim.

Chamasi, bu odam shunday nafrat-la so'zlayotgan ediki, Oliver qo'rqib uyg'ondi-yu, sapchib turib ketdi.

Yo Rab! Uni yuragini o'ynatib, ovozdan ayirgan, oyoq-qo'lini shol qilib qo'ygan nima? U yoqda... u yoqda... oynaning naryog'ida... shundoq yaqinligida — agar orqaga sapchib ketmaganida shunday qo'li yetadigan yaqinlikda — juhud turardi. U hujra ichkarisiga mo'alarkan, bola bilan ko'zlari to'qnashdi. Yonida bo'lsa — g'azab yo qo'rquvdan, yoxud har ikkovidandir, rangi devorday oqarib ketgan — mehmonxona hovlisida o'shqirib bergan anavi odamning yovuz basharasi yaqqol ko'zga tashlandi.

Bu chaqinday tilkalovchi nigoh bir ongina davom etdi, xolos. Ular go'yib bo'ldilar. Ammo ular bolani tanidilar; bola ham ularni tanidi; ularning basharasi bolaning xotiriga shunchalik muhrlanib qolgan-diki, go'yo ularning nusxalari toshga o'yib tushirilgan-u dunyoga kelganidan beriga ko'z oldidan nari ketmagandek. U bir soniya mixlab qo'yilgan yanglig' serraygancha turib qoldi. Keyin derazadan sakrab tushdi-yu, bog'ni boshiga ko'tarib yordamga chaqira boshladi.

---

---

**XXXV BOB. OLIVERNING SARGUZASHTI QANDAY  
MUVAFFAQIYATSIZ TUGAGANI, SHUNINGDEK,  
GARRI MEYLI BILAN ROZ ORASIDAGI  
AHAMIYATGA MOLIK SUHBAT HAQIDA  
HIKOYA QILADI**

Uy istiqomatchilari baqiriq eshitilayotgan joyga yugurishib kelganlarida rangi quv o'chgan, hayajondan larzaga tushgan Oliver hovli ortidagi yaylov tomonni ko'rsatib, arang: «Chol! Chol!» — deb g'o'ldirardi.

Mister Jayls, bu baqiriq nimani anglatishiga aqli yetmayotgandi, biroq Oliverning tarixini onasidan eshitgan, zukko Garri Meyli darhol hammasini fahmladi.

— U qaysi tomonga qarab qochdi? — so'radi u bir burchakda turgan og'ir so'yilni ola solib.

Anavi yoqqa! — javob berdi Oliver qaroqchilar qochgan tomonni ko'rsatib. — Ko'z ochib yumguncha yo'q bo'p qolishdi.

— Demak, ular zovurda! — dedi Garri. — Orqamdan! Yonmayon yurishga harakat qilinglar.

Shunday dedi-yu, u buta devordan sakrab o'tib, jon-jahdi bilan yugura ketdiki, qolganlarning unga yetib olishlari amrimahol edi.

Jayls baholi qudrat uning ortidan yugurdi; Oliver ham unga ergashdi, ikki daqiqalardan keyin esa sayr qilib endigina uyga qaytgan mister Losbern buta devordan oshaman deb ag'darilib tushdi-yu, lekin g'ayritabiyy chapdastlik bilan sakrab turgancha, oyog'ini qo'lga olib, ovozinig boricha: «Nima gap? Nima gap?» — deb baqirgan kuyi o'sha tarafga qarab yugurdi.

Hammalari toki yo'lboshchilari dalaning Oliver ko'rsatgan joyiga burilib, zovur va uning atrofidagi butalar orasini sinchiklab titpit qilishga kirishmagunga qadar nafas rostlagani biron marta ham to'xtamay olg'a qarab yuguraverishdi. Garrining to'xtashi boshqalarning unga yetib olishlariga, Oliverni bo'lsa mister Losbern-ga bunday oshig'ich ta'qibning boisini tushuntirishiga imkon berdi.

Qidir-qidirdan naf chiqmadi. Hatto yangi tushgan izlardan asar ham ko'rinmadi. Hozir hammalari atrofdagi dalaning uch-to'rt milya narisigacha kaftdagidek ko'zga tashlanib turgan chog'roqqina tepalik ustida edilar. So'l tomondagi pastlikda qishloq joylashgandi, ammo u yerga Oliver ko'rsatgan yo'ldan boriladigan bo'lsa ochiq joydan aylanib o'tishga to'g'ri kelardi, shu tufaylidan bu qisqa mud-



dat orasida boyagilarning ko'rinmay chap berib ketishlari ehtimoldan uzoq edi. Yaylovning bu tarafi esa qalin o'rmonga tutashgan bo'lib, aynan hozir zikr etganimiz sabablarga ko'ra ularning bu panohgohga ham yetib olganlari dargumon edi.

— Tag'in tushingga kirgan bo'lmasin, Oliver? — dedi Garri Meyli.

— Yo'q, xudo haqqi, ser! — xitob qildi Oliver qari ablahning basharasini qayta ko'z oldiga keltirganidanoq seskanib ketarkan. — Aniq-taniq ko'rdim! Ikkalalarini ham xuddi hozir sizni ko'rib turganday appa-aniq ko'rdim.

— Ikkinchisi kim edi? — deyarli baravariga so'rashdi Garri bilan mister Losbern.

— Anavinda sizga aytgandim-ku, xuddi o'shaning o'zi. Mehmonxona oldida to'satdan menga o'dag'aylab bergan o'sha kishi, — javob berdi Oliver. — Ko'zlarimiz to'qnashdi, xuddi o'shaning o'ziligiga ont ichishim mumkin.

— Shu yoqqa qarab qochishdimi o'zi? — so'radi Garri. — Bunga ishonching komilmi?

— Deraza oldida turganlariga qanday ishonchim komil bo'lsa, bunga ham shunday, — javob qildi Oliver va uy bog'chasi bilan yaylovni ajratib turgan buta devorni ko'rsatib: — Novcha kishi manavi joydan sakrab o'tdi, juhud bo'lsa o'ng tomonga bir necha qadam chopib bordi-da, huv anavi ochiq oraliqdan chiqib ketdi, — dedi.

Oliver hikoya qilayotganda, ikkala jentlmen uning hayajon balqigan aftiga tikilib turishardi, keyin ko'z urishtirib olishdi, aftidan, bolaning gaplari to'g'riligiga ishonch hosil qilishgandi. Ammo shunga qaramay, hozirgina juftakni rostlab qolgan odamlarning biron joyda izi ko'rinmasdi. O't baland o'sgandi, lekin o'zlari bosib tashlagan yerlardan bo'lak bironta ham egilgan-toptalgan joyi yo'q. Zovurning ikki beti loyroq edi-yu, biroq birorta erkak kishi boshmog'ining izi yoxud bir necha soat burun bu yerga loqal biror kimsa oyoq bosganidan dalolat beruvchi belgi ko'rinmasdi.

— G'alati bo'ldi-ku, — dedi Garri.

— G'alati ham gapmi! — qo'shilishdi doktor. — Bleters bilan Daff bo'lganidayam tagiga yetisholmasdi buni.

Izlashdan zarracha naf chiqmasligi oshkora ko'rinib turgan bo'lsa-da, ular qanotini yoyib kelayotgan tun bundan-buyongi qidirishlardan umidlarini uzib qo'ymagunicha uyga qaytishmadi; sho'ndan keyin ham chor-nochor niyatlari bahridan o'tishdi. Jaylsni, Oliver qo'lidan kelganicha ta'riflab berganiga muvofiq, notanish kimsalarning aft-basharalari va kiyimlari xususidagi aniq tavsif-u tafsilot bilan qurollantirib, atrof qishloqlardagi qovoqxonalarga jo'natishdi. Juhud har qalay, biron yerga qittak ichgani kirganida yoki yaqin-atrofda

o'ralashib yurganida ko'zi tushgan odamning esida qoladigan turq-tarovatli edi, lekin Jayls sirdan voqif etadigan yoxud aqalli biron nimanı oydinlashtiradigan hech qanday xabar-ma'lumotsiz, ikki qo'linı burnıga tiqqancha qaytdı.

Ertasıga izlashni yangıtdan boshladılar, qaytadan so'rab-surısh-tırdılar, bari bir natıja chiqmadi. Indınıga Oliver bilan mister Meyli bu odamlar darak-paragını eshitib qolish umıdıda bozorlı shaharchaga yo'l oldılar; ammo bu urınıshları ham zoe ketdı. Bir necha kun o'tgach, bu voqea, qızıqsınısh va sinchkovlik yangı ozuqa topmaganıdan keyın o'z-o'zıdan unutiladigan jamiki hodısalar singarı, esdan chıqa boshladı.

Rozga kelganda esa u bu orada xıyla tuzalıb qoldı. Endilikda u uy ichıda bemalol yuradigan, boqqa chıqadigan bo'lib qolgan va hammalarınıng dıllarını quvnatib, yana oıla hayoti oqımıga qo'shilib ketgandı.

Garchı ana shu baxtli o'zgarısh choqqına oilaviy davra hayotıda sezilarlı darajada aksını topgan va garchı bog' hovlıda qaytatdan beg'am-u betashvısh ovozlار, kulgi yangray boshlagan bo'lsa-da, Oliver goho ba'zi bırovlarda — hatto Rozda ham — odatlanılmagan mahdudlik, sıqılısh alomatlarını sezib qolardı. Missis Meyli bilan o'g'lı bot-bot hamda uzoq-uzoq yakka-yolg'iz suhbat qurıshar, Roz esa, ko'pincha yig'ıdan ko'zi qizarib kirib kelardı. Mister Losbern Chertsıga jo'naydigan kunını belgilaganıdan keyın bu alomatlar, aynıqsa sezilarlı bo'lib qoldiki, yosh xonım bilan yana kimningdir oromıga raxna solayotgan allanima sodir bo'layotgani kunday ravshan edi.

Nıhoyat, kunlardan bir kuni ertalab Roz mo'jazgina yemaxxona-da yolg'iz o'zi o'tirganıda Garri Meyli kirib keldı-da, ikkilanibroq u bilan bir necha daqiqağına so'zlashishga ijozat so'radı.

— Andak... jındakına... ko'p vaqtingizni olmayman, Roz, — dedı yigit kursını unga yaqınroq surarkan. — Sizga aytmoqchi bo'lgan gapimni allaqachon payqagan bo'lsangiz kerak... Hali o'z og'zimdan eshitmagan bo'lsangiz ham, yuragimdagi ezgu orzu-umıdlarım sizga ma'lum.

U kirib kelganıda Rozning rangı quv o'chib ketgandı, ammo bunı qızning kuni kechaginadagi betobligıga yo'yish mumkin edi. U boshını xam qilgani kuyi, yonginasidagi gullar uzra engashganıcha, jimgına gapning davomını kutdı.

— Men... men bu yerdan avvalroq jo'nab ketishim keragıdı, — dedı Garri.

— Ha... shunday, — javob qaytardı Roz; — Bu so'zlarım uchun kechiring-u, lekin men ketishingizni istardım.

— Meni bu yoqqa eng dahshatlı va qattiq iztırobga soladigan xavotırgarchilik, — so'zını davom ettırdı yigit, — butun orzu-umıd-

larim, ishonch-u istaklarim murodi bo'lmish yakka-yu yagona aziz kishimdan ayrilib qolish xavfi yetaklab keldi. Siz ajal qazgan choh yoqasiga borib qolgandingiz, joningiz yer bilan arshi a'lo orasida uchib yurgandi. Bizga ayon: go'zal va mehribon yosh qalblarga ajal o'qi tekkanda ularning ruhi bexos boqiy olamning nurafshon maskani sari intiladi... Shunisi ham ayonki bizga — Yaratganning o'zi madadkor bo'lsin bizga! — yaxshiga umr yo'q, deganlaridek, ko'pincha oramizda eng yaxshilarimiz-u eng saralarimiz endi g'uncha ochib, yashnay boshlagan qirchillama paytimizda so'lib, xazon bo'lamiz.

Ushbu so'zlarni eshitganda ko'ngli bo'sh qizning ko'zlariga yosh qalqdi; u ustiga engashib turgan gulga yosh gavhari tomchilab, gulbargida javohirday yiltiray boshlaganida gulning chiroyi chandon ochilib ketdi — bamisli uning navqiron, ma'suma qalbidan uchgan izhori dili haqli ravishda Tabiatning mo'jizavor xilqati ila qondoshligini namoyish etayotgandek tuyuldi.

— Farishtaday go'zal-u pok bir jon hayot-mamot talashuvida qolgandi, — gapini davom ettirdi yigit kuyib-yonib. — Oh, uning ko'z o'ngida o'zi uchun qadrdon bo'lgan olis olam jamoli namoyon bo'lgan bir paytda, uning qayg'u-g'am va musibatlar makoni bo'lmish bu dunyoga qaytishiga kim ham umid bog'lay olardi! Eh, Roz, Roz, sizning samoviy ziyoning yerga tushgan mayin-u nozik ko'lkasidek sirg'alib, ko'kka intilayotganingizni ko'rib turish, bu olamda muz qotayotganlarni deb (nima uchun aynan ularni deb sizning omon qolishingiz kerakligini bilishlari dargumon) omon qolishingizdan umid uzib, qanchadan-qancha go'zal-u saxiy qalb egalari shunchalar barvaqt parvoz qilgan nurafshon olamga mansub ekanligingizni tuyib turish va bari bir, mazkur tasalli beruvchi o'y-fikrlarga qaramay, sizni sevadigan kishilarga qaytib berishini yaratganga iltijo-yu tavallo qilish — bunday azob-u qiynoqqa dosh berishni aql bovar etmaydi! Men bu iztirobni kecha-yu kunduz his etib turdim. U bilan birga vujudimga qo'rquv, xavotirlanish hamda xudbinona shubha-gumonlar — ya'ni siz mening qanchalik sadoqat-la sevishimni bilmay turib o'lib qolayotgandek — shaloladay yopirilib, bostirib kelaverdi, ana shu shalola es-hushimni, aql-u ongimni ham oqizib ketishi mumkin edi!.. Mana, tuzalib ham qoldingiz. Botmonlab kelgan dard kun-bakun, soat-basoat misqollab arib, salomatlik tomchi-tomchi bo'lib qaytib, sillasi qurigan, jildirab turgan hayot chashmangizga jon ato qila borib, bu chashmaga yana shasht-u shitob, quvvat baxsh etdi. Otashin va benihoya muhabbatdan qamashgan ko'zlarim bilan ajal ostonasidan qanday qaytganingizni kuzatib turdim. Keling, meni ana shu baxtdan mahrum etaman demang! Sababki, yuragimni sevgi band etgandan buyon odamlar menga yanada yaqinroq bo'lib qolganlar.

— Men bunday demoqchimasdim, — dedi Roz ko'zlariga yosh olib.  
— Men faqat sizning bu yerdan jo'nab ketib, boshqatdan yuksak va olijanob maqsadlar — o'zingizga munosib maqsadlarga erishishga intilishingizga tilakdoshman, xolos.

— Men uchun, mendan ko'ra olihimmat odam uchun ham, sizning qalbingizni rom etishga harakat qilishdan ko'ra munosib-roq maqsad yo'q! — dedi yigit qizning qo'lidani ushlab. — Roz, azizam, jonginam Roz! Sizni talay, talay yillardan beri sevish bilan birga shon-shuhrat yo'lini zabt etish umidida yashadim, niyatim ana undan keyin, uyga mag'rur qaytib, uni siz bilan baham ko'rish edi... O'sha baxtli dam kelganida muhabbatimning unsiz dalillarini yodingizga solib, oramizda sukut-la tuzilgan ko'hna unsiz bitimni amalga oshirish timsoli sifatida qo'lingizni so'rashni xayol surganim-surgandi! Bu ro'yobga chiqmadi. Lekin shu topda, na shon-shuhrat orttirolmay, na birorta orzuim ushalmay, sizga aslida allazamonlardayoq baxshida etilgan yuragimni taklif qilaman va bundan-buyongi taqdirim bu taklifimga nima javob berishingizga bog'liq.

— Siz hamisha mehribon va olihimmat bo'lib kelgansiz, — dedi Roz bor-lig'ini qamray boshlagan hayajonni arang bosib. — Siz meni behis, bemehr yoki nonko'r deb hisoblamaysiz, shuning uchun javobimni oxirigacha eshiting.

— Menga munosib bo'la olasiz, degan javobni berasiz-a, to'g'rimasmi, azizam Roz?

— Javobim shuki, — dedi Roz, — meni unutishga harakat qilishingiz kerak; yo'q, eski va sodiq do'stingizni emas — bu meni qattiq jarohatlagan bo'lardi — balki sevgilingiz sifatida. Tevarak-atrofinizga bir nazar tashlang-a! O'zingiz o'ylab ko'ring, rom etib maqtanishingizga arzigulik qanchadan-qancha yuraklar bor olamda. Agar xohlasangiz, o'zim bosh-qosh bo'lay yangi sevgingizda... Men eng sadoqatli, sizni suyardigan va vafodor do'stingiz bo'lay.

Oraga jimlik cho'kdi-yu, Roz yuzini bir qo'li bilan berkitgancha ko'z yoshlariga erk berdi. Garri uning ikkinchi qo'lini qo'yib yubormasdi.

— Bunga qanday vajlaringiz bor, Roz, bunday xulosaga kelishga qanday sabablariningiz bor? — sekingina so'radi u nihoyat.

— Buni bilishga haqqingiz bor, — dedi Roz. — Lekin, bari bir sizning gaplaringiz uni o'zgartirolmaydi. Bu — burch, men uni ado etishim kerak. Boshqalar uchun ham, o'zim uchun ham bajarishim shart uni.

— O'zim uchun ham dedingizmi?

— Ha, Garri. Shaxsan o'zim uchun, yor-birodarlari va davlatidan mahrum, sha'niga dog' tushgan menday odam do'stlaringizning

go'yoki meni sizning birinchi muhabbatingizga tama-g'araz bilan yon bergan va sizning butun niyat-rejalaringizga to'g'anoq bo'lgan, deb gumonsirashlariga vaj-bahona bo'lishimga yo'l qo'yolmayman. Siz va qarindoshlaringiz uchun mardlik va olihimmatligingiz qistovi zaptida o'z izmingiz bilan hayotdagi muvaffaqiyatlaringiz yo'liga ana shunday to'siq qurib qo'yishingizga xalaqit berishga majburman...

— Agar tuyg'ularingiz burchingizni anglash hissi bilan mos kel-sa... — deya gap boshladi Garri.

— Yo'q, mos kelmaydi... — javob berdi Roz lolaqizg'aldoqday lovillab.

— Demak, sevgim javobsiz qolmaydi ekan-da? — so'radi Garri. — Faqat shungagina javob bera qoling, azizam Roz, bitta shungagi-na! Mash'um noumidlik alamini xiyolgina yumshating!

— Basharti bu savolga sevgan odamimga shafqatsizona kulfat yetkazmay javob bera olsam, — dedi Roz, — unda men...

— U chog'da bu izhori dilni mutlaqo boshqacha qabul qilarmi-dingiz? — so'radi Garri. — Loaqal shuni yashirmang mendan, Roz!

— Ha! — dedi Roz. — yetar endi! — deb qo'shib qo'ydi u qo'lini bo'shatib olarkan. — Bu mashaqqatli suhbatni cho'zishimizni nima hojati bor? Bir umrga baxtiyorlik va'da qilayotgan bunday suhbatni davom ettirish menga juda og'ir. O'z muhabbatingiz bilan ko'ksimni tog'day ko'tarib yuborganingizni, hayot janggohida qozongan har bit-ta zafaringiz menga kuch va qat'iyat baxsh etishini anglab turishning o'zi bir baxtdir. Xayr, Garri! Endi hech qachon bugungiga o'xshagan taxlitda uchrashmaymiz, ammo munosabatimiz ushbu suhbat oqi-batda keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan munosabatga o'xshamasa hamki, biz ko'p zamonlargacha bir-birovimiz bilan qalin do'st bo'lib qolishimiz mumkin. Iloyo sadoqatli va jo'shqin qalbning duo-yu ilti-jolari sharofati bilan haqiqat chashmasidan otilib chiqqan obirahmat sizga quvonch-u farog'at keltirsin!

— Yana bir og'iz gap, Roz! — dedi Garri. — Ayting-chi, qanday asos-u sabablaringiz bor? Ularni o'z og'zingizdan eshitay!

— Sizni ajoyib istiqbol kutyapti, — qat'iy javob berdi Roz. — Oldin-da beqiyos iqtidoringiz hamda e'tiborli qarindoshlaringiz ko'magida jamoatchilik orasida orttirajak shon-shuhrat-u izzat-ikromlar mahtal sizga. Lekiniga o'sha qarindoshlaringiz kalondimog' odamlar, men-ga kelganda esa, jismimga jon baxsh etgan onaga hazar ko'zi bilan qarab, jirkanib muomala qilishi mumkin bo'lgan odamlar bilan osh-qatiq bo'lishni istamayman. Yana, shuningdek, meni mehr-muhab-bat-la bag'riga olib, onam o'rnini bosgan mushfiq ayolning o'g'lini isnodga qo'yishni xohlamayman. Gapning po'skallasi, — so'zini da-vom ettirdi qiz teskari o'grilib, negaki shu damda matonati tark et-



gandi uni, — mening nomimga dog' tushgan, odamlar esa bu isnodni begunoh bir kimsaga taqashadi! Qo'ying, yolg'iz meni malomat qilaverishsin, buning jabr-u sitamini ham, mayli, bir o'zim tortay.

— Yana bir og'iz, Roz, jonginam Roz, bir og'izgina gap! — xitob qildi Garri qiz qarshisida tiz cho'kib. — Agar bordi-yu men bunday, bunday baxtli bo'lmasam... bordi-yu qismatimda osoyishta, imi-jimida yashab o'tish bitilgan bo'lsa-yu, men qashshoq, dardchil, nochor ahvolda bo'lsam, o'shanda ham mendan yuz o'girarmidingiz? Yoki bu shubha-gumonlar mening kelajakda boylig-u shon-shavkat orttirajagim zahirida tug'ilganmi?

— Javob ber deb qistayvermang, — dedi Roz. — Bunday savol hech qachon tug'ilmagan va tug'ilmaydi ham. Javob bersang ham berasan, bermasang ham berasan deb qiyin-qistovga olish yaxshimas, bu deyarli bag'ritoshlik!

— Agar javobingiz men deyarli umid qilishga jur'at etganimday bo'lsa, — e'tiroz bildirdi Garri, — u qarshimda yolg'izoyoq yo'limni baxt nuri bilan yo'g'irib, borayotgan so'qmog'imni nurafshon etadi. Bir nechtagina so'zni aytish bilan olamda seni hammadan ko'proq sevadigan kimsaga olamjahon narsani baxsh etish — bu hazil gapmas! O Roz, otashin va sobit muhabbatim haqqi, sizni deb chekkan iztiroblarim haqqi, o'zingiz meni mahkum etayotgan narsa haqqi bittagina shu savolga javob bering!

— Ha, agar qismatingiz sal boshqacharoq bo'lganida edi, — dedi Roz, — keyin, siz jamiyatda mendan ancha balandda turmaganingizda, basharti men shuhratparast-u mashhur kiborlar orasida sizni isnodga qo'yib, yo'lingizga to'siq bo'lmay, birorta osuda hamda xilvat bir manzilgohda sizga madadkor va tasalli bo'la olganimda edi — unda biror qarorga kelish osonroq ko'charmidi. Hozir baxtiyor, behad baxtiyor bo'lishimga hamma asoslar bor, lekin tan olaman, Garri, unda yanayam baxtiyorroq bo'lardim.

Roz ushbu iqrori dilni izhor etarkan, allazamonlarda, qizaloqlik paytlarida ardoqlab yurgan orzu-umidlari xotira ko'zgisida yorqin jonlandi; biroq hamisha dilimizga so'nib, xira tortib qaytadigan o'tmish orzu-umidlarimiz kabi bu yorqin xotiralar ko'zlariga yosh qalqtirdi va u ko'z yoshlaridan yengil tortdi.

— Bu o'jizlikni yengolmayapman-u, lekin u mening ahdimni yanada mustahkamlaydi, — dedi Roz yigitga qo'lini uzatib. — Ana endi xayrlashishimiz kerak.

— Faqat bir narsaga so'z bering, — dedi Garri, — bir marta, bir martagina xolos — masalan, aytaylik, bir yildan keyin, balki sal ilgariroq — siz bu haqda yana gaplashishga... oxirgi marta gaplashishga ruxsat etsangiz!

— Lekin ahd-paymoningni o'zgartirasan, deb qistamaslik sharti bilan, — ma'yus jilmayib javob qildi Roz. — Bari bir bundan foyda chiqmaydi.

— Roziman! — dedi Garri. — Ahdingizni yana bir karra takrorlashingizni eshitsam bas; agar istasangiz — oxirgi marta takrorlaysiz! O'shanda erishgan mansab-u jamiki davlatimni oyoqlaringiz ostiga poyandoz qilaman, o'shandayam o'z ahdingizda qoim turadigan bo'lsangiz, unda taqdirga tan berib, yo'lingizga g'ov bo'lmaslikka harakat qilaman.

— Mayli, siz aytgancha bo'la qolsin, — javob qildi Roz, — bu yaramga qaytadan tuz sepadi, lekin u paytga borib bunga chidashga bardoshim yetadigan bo'lib qolar balki.

Qiz yana qo'lini uzatdi. Biroq yigit qizni bag'riga tortib, peshonasidan o'pdi va xonadan shahdam yurib chiqib ketdi.

---

---

XXXVI BOB. JUDA QISQA VA AYNI O'RINDA UNCHALIK  
AHAMIYATGA EGA EMASDEK TUYULADI. AMMO,  
SHUNGA QARAMAY, UNI AVVALGISINING DAVOMI  
HAMDA KEZI KELGANIDA BERILAJAK BOB  
QOPQASINING KALITI SIFATIDA O'QIB  
CHIQMOQLIK DARKOR

— Xo'sh deganingizdan, bugun ertalab kamina bilan yo'lga tushishga qaror beribdilar-da? — deb so'radi doktor, Garri Meyli Oliver bilan nonushtalikka o'tirayotganida. — Har yarim soatda yo' rejangiz, yo kayfiyatingiz o'zgarib qoladi-ya!

— Vaqti-soati kelib butunlay boshqacha gapirib qolarsiz menga, — javob qaytardi Garri besababdan-besabab qizarib.

— Ishonamanki, o'shanda bunga jiddiy asoslarim bo'ladi, — javob qildi mister Losbern, — darvoqe, negadir shunday bo'lishiga ishonchim komil emas. Hali hech qancha vaqt bo'lgani yo'q, kecha ertalab shoshmashosharlik bilan bu yerda qolishga va mehribon o'g'ilga munosib tarzda onangizni dengiz sohiliga olib borishga qaror bergandingiz. Keyin choshgohga bormay turib oq menga iltifot ko'rsatib, kaminani Londongacha kuzatib borish sharafigidan bahramand etish niyatida ekaningizni xabar qilgandingiz. Kechga tomon g'oyatda sirli bir tarzda xonimlar uyqudan turmaslaridan burun oq yo'lga tushishga unatmoqchi bo'ldingiz — buning oqibatida esa yigitcha Oliver har xil chiroyli giyohlarni izlab yaylovda izg'ish o'rniga bu yerda nonushta qilib o'tirishga majbur bo'ldi... Ishlar chatoq, to'g'rimasmi, Oliver?

— Agar, ser, siz bilan mister Meyli jo'nab ketayotganinglarda uyda bo'lmay qolsam judayam afsuslanardim-da, — deya e'tiroz bildirdi Oliver.

— Borakallo! — dedi doktor. — Shaharga qaytganingda meni ziyorat qilgani kirgin... Illo, behazil gapirganda, Garri, ushbu qo'qqisdan yo'lga o'tlanish e'tiborli zotlardan kelgan birorta xabar vajhidan emasmi ishqilib?

— Siz, o'ylashimcha, amakimni ham qatoriga qo'shayotgan e'tiborli zotlardan bu yerga kelganimdan buyon hech qanaqangi xabar-pabar kelgani yo'q, keyin, yilning bu faslida mening ular orasida bo'lishimni taqozo etuvchi bironta hodisa yuz berishi mushkul-ov.

— G'o'rsiz-da, g'o'r! — dedi doktor. — Shubhasiz, ular sizni parlamentga mavlud bayrami arafasida bo'ladigan saylovlar paytida taqdim etishadi, bu to'satdan o'zgarib, aynib qolishlar — siyosiy

hayot uchun chakki tayyorgarlik emas. Bunda qandaydir o'ziga xos ma'no, o'ziga yarasha naf bor. Mansab uchun bahslashishadimi, kubok yoki poyga sovrini uchunmi, hamisha yaxshi mashq qilish, hadisini olish asqatadi.

Garri Meylining vajohatidan go'yoki bu qisqagina savol-javobni doktorni hazilakam hayratga solmaydigan ikki-uch og'iz gap bilan cho'zmoq niyati borligi ko'rinib turganga o'xshardi-yu, biroq u «ko'ramiz» deyish-la kifoyalanib qo'ya qoldi va bu mavzuda qaytib og'iz ochmadi. Ko'p o'tmay eshik oldiga pochta aravasi kelib to'xtadi, Jays yuklarni olib chiqqani kirib kelganida esa oqko'ngil doktor ularni qanday joylashtirayotganlarini kuzatib turgani hovliqqanicha xonadan yugurib chiqib ketdi.

— Oliver, — dedi Garri Meyli ohistagina, — senga ikki og'iz gapim bor edi.

Oliver mister Meyli imlab chaqirgan deraza yonidagi taxmonga o'xshagan kamgak joyga kirdi; yigitning avzoyi g'amgin va ayni paytda ajabtovur hayajonli ekanini ko'rib juda taajjublandi.

— Endi tuzuk yozadigan bo'lib qoldingmi? — so'radi Garri qo'lini uning yelkasiga qo'yib.

— Yomonmas, ser, — javob qildi Oliver.

— Men, balki, uyga tez qaytmasam kerak... Menga xat-pat yozib tursang degandim — aytaylik ikki haftada bir marta, dushanbada, Londondagi bosh aloqa bo'limiga. Bo'ptimi?

— Bosh ustiga, ser! Men buni g'oyatda faxr bilan ado etaman! — deya xitob qildi Oliver o'ziga bunday topshiriq topshirilganidan boshi osmonga yetib.

— Men haligi... haligi... oyim bilan miss Meylining ahvollaridan xabardor bo'lib tursam degandim, — davom ettirdi iltimosini yigit, — sen bir varaqqina qog'ozga qanday sayr qilayotganinglarni, nimalar to'g'risida suhbatlashganlaringni, keyin uning... ularning demoqchiydim... ko'rinishlari qandayligini, xursandmi va sog'lig'i qalay... shularni yozib tursang. Gapimga tushunyapsanmi?

— Bo'lmasam-chi, juda yaxshi tushunyapman, ser, — dedi Oliver.

— Lekin bu haqda ularga aytmasang, — dedi Garri shoshib, — unda oyim tez-tez xat yozaman, deb charchab, tashvishga tushishlari mumkin. Bu ikkovimizning oramizda sir bo'lib qola qolsin. Yodingda bo'lsin — menga hech nimani qoldirmay, hammasini yozgin-a! Senga ishonaman-a!

O'zining ham zarur, kerakli odam ekanligini his etishdan ko'ngli tog'day o'sgan, hayajonga tushgan Oliver sirni oshkor qilmaslikka va hammasini aniq-ravshan yozib turishga va'da berdi. Mister Meyli

ham o'z navbatida murabbiylik qilish hamda iltifot ko'rsatishga so'z berib, u bilan xayrlashdi.

Doktor usti berk aravaning ichida o'tirar, Jayls (kelishganlariga binoan shu yerda qolayotgan edi) arava eshigini ushlab turar, oqsochlar esa bog'da to'planib olib, o'sha yerdan kuzatishardi. Garri panjarador derazaga birrov qaradi-yu, lip etib o'zini ichkariga oldi.

— Haydang! — qichqirdi u. — Tezroq, yanayam, choptirib haydang! Bugun ko'nglim faqat uchib-yelishni qo'msayapti.

— Hey, menga qarang! — baqirdi doktor oldingi tuynuk oynasini shosha-pisha pastga tushirib, aravakashga qarata. — Uchirib haydash sirayam yoqmaydi menga. Eshityapsizmi?

Usti berk arava toki shovqini eshitilmaydigan, ilgarilab borayotganini faqat ko'zgina ilg'ab turgan masofaga yetguniga qadar chang bulutiga ko'milib, goh g'oyib bo'lib, goh yo'lda uchragan narsalar va burilishlar izmi bilan yana ko'zga tashlanib, titrab-silkinib, taraqaturuqlab yo'ldan uchib boraverdi. Kuzatib qoluvchilar hatto chang buluti ham ko'rinmay ketgandan keyingina tarqalishdi.

Kuzatuvchilardan biri esa allamahalgacha yo'lning arava ko'rinmay ketgan nuqtasidan ko'z uzolmay turdi (arava bir necha milya olislab ketgan bo'lsa ham): o'girilib qaragan Garrining ko'zlaridan o'zini pana qilib oppoq parda orqasida Roz o'tirgan edi.

— U xursand va baxtiyor ko'rinadi, — dedi qiz nihoyat. — Kayfiyati boshqacha bo'lib qolmasaydi deb qo'rqib o'tirgandim. Yanglishgan ekanman. Juda, juda xursandman.

Ko'z yoshlari ham quvonch, ham alam alomati bo'la oladi: biroq deraza oldida hanuz o'sha tomonga tikilib xayolga tolib o'tirgan Rozning yonoqlaridan shashqator yumalayotgan yosh marjoni, aftidan, quvonchdan ko'ra ko'proq motamsaro g'ussadan so'ylab turardi.

---

XXXVII BOB. UNDA KITOBXON OILAVIY HAYOTDA  
TEZ-TEZ BO'LIB TURADIGAN MOJARONI  
KUZATMOG'I MUMKIN

Mister Bambl mehnat uyining qabulxonasida, yoz bo'lgani sababli sho'xchan olov tillari lipillamayotgan va tussiz quyosh nurlarigina yaltiroq sirtida aks etib turgan sovuq kamin panjarasiga tikilgan ko'yi qosh-qovog'i uyilib o'tirardi. Shiftidan qog'oz pashshatutqich osilib turar, u har zamon-har zamonda bir g'amgin o'y surgancha shunga tikilib qolar va ola-bula qog'oz to'rda ehtiyotsiz hasharotlarning uymalashayotganini ko'rib, mister Bambl chukur xo'rsinib qo'yar, shunda basharasi yanada tundlashib ketardi. Mister Bambl xayol ummoniga g'arq bo'lgandi; ehtimol, hasharotlar o'z hayotida sodir bo'lgan biron yurakni ezuvchi hodisani yodiga solgandir.

Kuzatuvchining ko'nglini g'ash qiladigan narsa nafaqat mister Bamblning g'amgin kayfiyatigina edi. Talaygina alomatlar, buning ustiga desangiz, u kishining shaxsiyati bilan chambarchas bog'liq belgilar zohir edikim, bular bul zotning ish jabhasida ulug'vor o'zgarishlar ro'y berganini ayon-oshkor etib turardi. Zarrin uqali shineli bilan uch qirra qalpoq — qayda qoldi ular? Tanasining quyi qismini ilgarigidek kalta cholvor bilan qora ip paypoq bejab turibdi; biroq bu sirayam ilgarigi cholvori emasdi. Kamzuli xuddi ilgari-gisidek etagi keng bo'lib, shu jihatdan ilgarigi shineline eslatib turibdi, ammo — farqi qandoqligini aytmaysizmi-ya! Vajohatli uch qirra qalpog'i oddiygina dumaloq shlyapa bilan almashinib qolibdi.

Mister Bambl endilikda qavm bidli emasdi.

Olamda shunaqangi mansablar borki, o'zlari bilan bog'liq bo'lgan arzirli farog'atlardan qat'iy nazar, ularga atog'liq kamzul va nimchalari tufaylidan qadr-qimmat-u ayricha obro'-e'tibor kasb etadi. Feld-marshalning mundiri bor; yepiskopning — shohi jubbasini; oqlovchining — ipak ridosi; qavm bidlining — uch qirra qalpog'i. Yepiskopning jubbasini yoxud qavm bidlining uch qirra qalpog'i bilan uqalarini tortib oling-chi — unda kim bo'lib qoladi ular? Odam. Oddiy odam! Goho odamning qadr-qimmatini va hatto avliyoligi ba'zilar o'ylagandan ko'ra ko'proq kamzul-u nimchalarga bog'liq.

Mister Bambl missis Korniga uylanib, mehnat uyi nazoratchisi bo'lib qoldi. Qavm bidlligi haq-hokimiyati boshqa birovning qo'liga

o'tib ketdi — uch qirra qalpoq ham, zarrin uqali shinel ham, bejirim aso ham o'shanga tegdi.

— Bu ish sodir bo'lganiga ertaga ikki oy bo'ladi-ya! — dedi mister Bambl chuqur xo'rsinib. — Mening nazarimda bo'lsa xuddi asrlar o'tib ketganga o'xshaydi.

Mister Bambl, ehtimol hayotimdagi jamiki baxtiyor kunlarim sak-kiz haftalik ana shu qisqa muddatli vaqt bo'lagiga jo bo'lgan ekan-da, demoqchi bo'lgandir, biroq xo'rsinig'ini aytmaysizmi, nihoyatda ma'nodor edi bu xo'rsiniq.

— Oltitagina choyqoshiq, qand ushatadigan ombir, sudon va us-tamasiga bir-ikkita taqir-tuqur bilan naqd yigirma funt pulga sotil-dim, — dedi mister Bambl xuddi xayolini davom ettirib. — Nar-ximni arzon qilib yubordim. Arzon ketdim, ha, deyarli suv tekinga sotildim!

— Arzon! — mister Bamblning naq quloqqinasi ostida chiyillagan ovoz yangradi. — Senga har qancha berganda ham bari bir qimmat-lik qiladi: sen uchun ortiqcha to'laganim yaratganning o'ziga ayon!

Mister Bambl o'girilib qarab, o'zining yoqimtoy jufti halolining basharasini ko'rdi; u pisibgina quloq solib turib erining nolai-zoridan eshitib qolgani bir necha og'iz so'zning ma'nisiga yetib-yetmayoq yu-qorida zikr etganimizdek qichqirib yuborgan edi.

— Missis Bambl, xonim! — dedi mister Bambl ta'sirli, jiddiy bir ohangda.

— Ha, nima? — bobilladi xonim.

— Marhamat qilib, ko'zimga bir qarasalar, — dedi mister Bam-bl ko'zlarini xonimga qadab. («Agarda u qarashimga bardosh ber-sa, — dedi mister Bambl o'z-o'ziga, — demak, u har qanaqangi nar-saga dosh bera oladi. Bunaqangi tikilishimga birorta qashshoqning chidash berolganini eslolmayman. Agarda tikilib qarashim bunga kor qilmasa, demak, hukmi-hokimiyatimdan ayrilganim».)

Qashshoqlarni muloyim torttirib qo'yish uchun ilgarilari ko'zlarini salgina olaytirib qo'yishining o'zi kifoya edi; ular och-nahor yurishar va ahvol-ruhiyalari ham maymunlar yig'laydigan holatda ekanligi tu-faylidan shundaydir balki; yoki bo'lmasa sobiq missis Korniga aslida bunaqangi o'qrayish-u tikilishlar chivin chaqqanchalik ta'sir qilmas — bu qaysi nuqtai nazardan qaralishiga bog'liqdir. U yog'i qandoq bo'lmasin, mister Bamblning kishi qutini o'chiradigan dag'dag'ali vajohati nozirani zarracha shashtidan tushirolmadi, aksincha, xonim beqiyos nafrat-la qaradi va hatto xandon urib kuldi, kulgisi esa mut-laqo yasamaga o'xshamasdi.

Mister Bambl ushbu sira kutilmagan tovushni eshitarkan, ol-diniga yuzida ishonchsizlik, so'ngra esa taajjub ifodasi aks et-

di. Shundan keyin u boyagi holatiga tushib qoldi va toki turmush o'rtoq'ining ovozi yana diqqatini jalb etmaguniga qadar o'ziga ke-  
l olmadi.

— Nima, kun bo'yi shu yerda muk tushib, xurrak otib o'tirmoqchimisani? — surishtirdi missis Bambl.

— Men bu yerda qancha lozim ko'rsam, shuncha o'tiraman, xonim, — javob qaytardi mister Bambl. — Hozir-ku xurrak otganim-cha yo'q, lekin xohlab qolsam, xurrak ham otaman, esnayman, ak-siraman, kulaman yoki yig'layman. Ixtiyorim, haqqim bor bunga.

— Ol-a, haqlari bormish! — tasvirlab bo'lmas bir nopisandlik bi-lan ishshaydi missis Bambl.

— Ha, xuddi shundoq dedim men, xonim, — dedi mister Bambl. — Erning haq-huquqi — buyurmoq, boshqarmoq!

— Xudo xayrlarini bergur, unda xotinlarning haq-huquqi qandoq? — deya chinqirdi marhum mister Kornining sobiq rafiqasi.

— Itoat etmoq, xonim! — dedi mister Bambl guldurak ovoz bilan. — Baxtiqaro marhum eringiz sizga buni o'rgatishi keragidi, ana unda ehtimol shu kungacha hayot bo'larmidi. Qani endi hozir tirik bo'lsa, bechora!

Missis Bambl hal qiluvchi daqiqa yetganini, u yoxud bu tomon bergan zarba oilada kim hukmron bo'lishini uzil-kesil va qat'yan tasdiqlayajagini darhol fahmladi-yu, marhumning tilga olinishi qulog'iga kirar-kirmayoq o'zini yumshoq kursiga tappa ko'tarib ur-gancha, mister Bamblni toshbag'ir maxluq deb bo'kirdi-da, tel-balarcha o'kirib yig'lay boshladi.

Ammo ko'z yoshlari mister Bamblning qalbiga ta'sir ko'rsa-tolmadi: uning yuragi nam o'tkazmaydigan yurak edi. Uning asab-lari bemalol yuvsa bo'ladigan, yomg'ir tegsa qaytaga ochiladigan movut qalpoqqa o'xshab selava bo'lib quyilayotgan ko'z yoshlaridan yanada mustahkamlasha hamda qayishqoqlasha bordi; zotan bu ko'z yoshlar ojizlik alomati va shuning tazyiqi ostida erning qudratini sas-sadosiz tan olish timsoli ediki, ushbu hol unga yoqayotgan, uni ruhlantirayotgan edi. O'zining suyukli rafiqasiga u zo'r mamnuni-yat bilan tikilar hamda homiyona ohangda yaxshilab yig'lab olishini o'tinardi, negaki, hakimlarning fikricha, bunday mashg'ulot sog'liq uchun g'oyatda foydali emish.

— Ko'z yoshi o'pkani tozalaydi, betni yuvadi, ko'zni o'tkir qi-ladi va asabni tinchlantiradi, — dedi mister Bambl. — Shundoq bo'lganidan keyin, miriqib yig'lab ol.

Mister Bambl ana shunday deb hazillashganidan keyin qoziqdan shlyapasini oldi-da, o'zining ustunligini tegishli ravishda tasdiqla-ganiga amin bo'lgan kishi singari chapanichasiga chakkasiga dol

qo'ndirib, qo'llarini cho'ntagiga tiqdi-yu, batamom mamnun qiyofada, sho'xchan kayfiyatda eshikka tomon yo'naldi.

Sobiq missis Kornl esa yumdalashishdan ko'ra kamroq charchatishi sababli ko'z yoshi qilayotgandi, biroq u oxirgi ta'sir o'tkazish chorasiga ham tayyor edikim, mister Bambl hayal o'tmayoq bunga ishonch hosil qildi.

Bu tadbirning uning ongiga yetib borgan ilk dalolati shu bo'ldiki, avval qandaydir gursillagan tovush eshitildi, keyin o'sha zahotiyoq boshidagi shlyapasi xonaning narigi burchiga qarab uchdi. Mazkur dastlabki tadbirdan so'ng uning boshi yalang bo'lib qolgach, ustasi farang xonim bir qo'li bilan bo'ynini mahkam girraga oldi-yu, ikkinchi qo'li boshiga do'lday musht yog'dira ketdi (mushtlar shunaqangi lol qoldirarli zarb va chapdastlik bilan yog'ilardiki, yoqangizni ushlaysiz). Bu usulni nihoyasiga yetkazgach, xonim usulini o'zgartirib, erining yuz-ko'zlarini timdalab, sochidan ushlab tortqilashga tushdi; uning fikricha eri haqorati evaziga tegishli jazosini olganidan so'ng, baxtiga naq kerakli joyda turgan kursiga itarib yubordi-da, agar mard bo'lsang, o'z haq-huquqingdan yana bir marta og'iz ochib ko'r-chi, deb pisanda qildi.

— Tur o'rningdan! — dedi missis Bambl buyruq ohangida. — Jahl ustida bir balo qilib qo'ymasini desang, qorangini o'chir!

Mister Bambl mahzun qiyofada o'rnidan qo'zg'alarkan, tag'in qanaqangi balo bo'lishi mumkin, deya gangrab qoldi. Shlyapasini olib, eshikka qarab yurdi.

— Ketyapsanmi? — so'radi missis Bambl.

— Shunday, jonginam, shunday, — deya javob berdi mister Bambl eshikka tomon intilganicha. — Men istamagandim... ketyapman men, jonginam! Shu topda jazavang tutib turibdi, tag'in, rostdanam, meni...

Shunda missis Bambl mushtlashuv paytida surilib, yig'ilib qolgan gilamni to'g'rilagani shosha-pisha olg'a qadam tashlagan edi, mister Bambl hatto bo'g'zida qolgan gapini tugatishni xayoliga ham keltirmay, xonadan otilganicha chiqib ketdi, janggoh esa butunicha sobiq missis Kornlning izmiga o'tdi.

Mister Bambl bunday banogoh zarbani kutmagani boisidan kalovlab qolgan va uzil-kesil tor-mor keltirilgan edi. Shubhasiz u do'q-po'pisaga moyilligi bilan ajralib turar, mayda-chuyda, arzimagan qattiqqo'llik ko'rsatib olam-olam halovat topardi va binobarin (o'z-o'zidan ayonkim), aslida qo'rqqoq edi. Bu qusur uning shaxsiyatiga gard yuqtirmasdi aslo, zero odamlar beaddad hurmat-ehtirom bilan qaraydigan, tasanno o'qiydigan aksar mansabdor shaxslar ana shu ojizlik qurbonidirlar. Mazkur sharh-u izohlar unga nisbatan maqtovf sifatida zikr etildi va bundan murod — kitobxonda uning xizmatga loyiq ekanligi xususida to'g'ri tasavvur tug'dirishdir.

Biroq uning xo'rlanishi me'yoriga yetmagan, tahqir jomi to'lmagan ekan. Mister Bambl ilk bora kambag'allar xususidagi qonunning chindan ham haddan ziyod darajada shafqatsiz, qattiq ekanligi ustida, o'z xotinlarini qavm qaramog'iga tashlab qochgan erlar esa, haqiga ko'chganda, jazogina emas, balki ko'p azob ko'rgan hurmatli zotlar sifatida taqdirga loyiq ekani borasida o'y surgan ko'yi binoni aylanib yurib, odatda bir necha boqimanda ayol qavm kiritini yuvadigan xona yoniga kelib qoldi, shu topda ichkaridan g'ovurg'uvur eshitilib turardi.

— Hm! — deb qo'ydi mister Bambl o'ziga xos qadr-e'tibori qayta tiklanarkan. — Jilla bo'lmaganda manavi xotinlar mening haq-huquqimning hurmatini qilishadi-ku... Hey! Namuncha vaqirlashmasalaring, yaramas maxluqlar?!

Mister Bambl shunday deb eshikni ochib, ichkariga kirdi-yu, nigohi kutilmaganda izzatli rafiqasiga tusharkan, qiyofasidagi darg'azablik hamda beshafqatlik ifodasi zumda o'z o'rnini mo'mintoy-muloyimlik va qo'rqqoqlik ifodasiga bo'shatib bera qoldi.

— Jonginam, — dedi mister Bambl, — sening bu yerdaligingni bilmabman.

— Bu yerdaligimni bilmabsan! — takrorladi missis Bambl. — Bu yerda pishirib qo'yibdimi senga?

— Bular ish qilish o'rniga nuqul gap sotib yotishibdi deb o'ylabman, azizam, — javob berdi mister Bambl esankiraganidan tog'ora yonida turib olib, mehnat uyi nozirining mo'mintoy bo'lib qolganidan zavqlanib pichirlashishayotgan ikki kampirga javdiraganicha.

— Bular nuqul valaqlashib yotishibdi deb o'yladilarmi? — so'radi missis Bambl. — Xo'sh, seni nima ishing bor bular bilan?

— To'ppa-to'g'ri aytding, jonginam, bu yerda sen xo'jayinsan, — itoatkorona uning gapiga qo'shildi mister Bambl. — Lekiniga seni bu yerda bo'lmasa kerak deb o'ylabman-da.

— Gap bundoq, mister Bambl, — dedi rafiqasi, — sening aralashishingga muhtoj emasmiz. O'zing ham sira aloqasi yo'q ishga burningni suqishni o'lgudek yaxshi ko'rasan; shundoq burilishing bilanoq orqangdan mayna qilib kulishadi, doim ahmoq bo'lib qolganing-qolgan... Qani, bir jo'nab qol-chi.

Mister Bambl ikkala kampirshoning hihilashib, quvna-b-yayrashayotganini yuragi siqilib kuzatgancha, bir daqiqa taraddudlanib turdi. Har qanday imillashga toqat qilolmaydigan missis Bambl, shartta sovu ko'pigiga belangan yog'log'ini oldi-yu, eshikni ko'rsatib, darhol chiqib ketishni buyurdi; aks holda davangirday qomatini yog'log'i ichidagi mag'zava bilan bejab qo'yajagini aytib dag'dag'a qildi.

Mister Bambl nima ham qila olardi? U atrofiga ma'yus alanglab, asta juftakni rostlab qoldi. U eshik oldiga yetganida kampirlarning hihilashi zavq-shavqlari oshib-toshib ketganidan nishona berguvchi quloqni qomatga keltirarli kulgiga aylandi. Shunisi yetishmay turgandi-da o'ziyam! U shu manjalaqilarning ko'zi oldida qaro tuproq bo'ldi; hatto ana shu qashshoqlar oldida obro'yi va qadr-qimmatini bir pul bo'ldi-ya; u bir megajinning oyoqlari ostida yotgan eriga aylanib, mahobatli bidllik taxtidek yuksaklikdan tubsiz jahannamga qulab o'tirsa-ya!

— Ikki oy ichida shuncha ishlar bo'lib o'tsa-ya! — dedi mister Bambl qayg'u-nadomatdan xun bo'lib. — Ikki oyda-ya! Atigi ikki oygina muqaddam o'zim xon, ko'lankam maydongina bo'lib qolmay, boshqalarga ham sulton edim-a — aqalli mehnat uyida, xo'sh, endichi!..

Bunisi endi quyushqondan chiqib ketgandi. Mister Bambl o'ziga darvozani ochib bergan bolakayning quloq-chakkasiga tarsaki tushirib qoldi (zotan u xayol girdobida, o'zi ham bilmagan holda darvoza oldiga kelib qolgan edi) va dovdirab ko'chaga chiqib ketdi.

U toki sayr dastlabki umidsizlig-u ma'yuslik xurushi nafasini o'chirguncha bir ko'chani bosib o'tdi, keyin ikkinchisini, kayfiyat-ruhiyatining bunday o'zgarishidan esa tomog'i qaqraganini tuydi. U bir talay qovoqxonalar yonidan o'tib, nihoyat tor ko'chadagi bir qovoqxona oldida to'xtadi-da, deraza parda ustidan ichkariga birrov nazar tashlab, yakka-yu yolg'iz mijozdan bo'lak hech zog' yo'qligiga ishonch hosil qildi. Xuddi shu payt yomg'ir quyib berdi. Bu uni bir qarorga kelishga majbur etdi. Mister Bambl ichkariga qadam qo'ydi; peshtaxta yonidan o'ziga biron ichkulik narsa berishni buyurib o'tib borarkan, ko'chadan mo'ralagan xonasiga kirib qoldi.

U yerda o'tirgan odam qorachadan kelgan, bo'yi baland bo'lib, keng-kovul yomg'irpo'sh kiyib olgandi. U muhojirga o'xshar, horg'in ko'rinishi, ust-boshi chang-chungligiga qaraganda olis yo'l bosib kelgan ko'rinardi. Bambl kirib kelganida u ko'z qirini tashlab va salomiga bazo'r bosh qimirlatibgina qo'ya qoldi.

Basharti notanish kishi hatto ulfatiroq odam bo'lgan chog'idayam, mister Bamblning, ikki kishiga tatigulik izzat-nafsi boriydi; shu sababdan ham suv qo'shilgan jinni indamay ho'plaganicha, bag'oyat sipolik va vajohat-la gazeta o'qib o'tiraverdi. Ammo-lekin shunday hol ro'y berdi — bunday vaziyatda uchrashgan kishilarda tez-tez bo'lib turadi bu narsa; mister Bambl o'zi tizginlashga ojizlik qiladigan tuyg'u — notanish kishiga o'g'rincha ko'z tashlab qo'yishdek kuchli ishtiyoqni his etaverdi va har gal xijolatda ko'zlarini olib qochaverdi; zero xuddi shu soniyada notanish kishi ham unga

o'g'rincha qarab turgan bo'lardi. Mister Bamblning sarosimalanishi notanish kimsaning g'alati nigohi ta'sirida orta borardi, negaki uning ko'zlari o'tkir hamda chaqnoq edi-yu, lekin allaqanday shirava ishonchsizlik va nafrat aks etib turardi. Mister Bambl bunday ifodani shu paytgacha hech ko'rmagan va sira ko'ngliga o'tirishmayotgan edi.

Nigohlari shu tariqa bir necha marta uchrashgach, notanish kimsa dag'al, past tovush bilan jimlikni buzdi.

— Derazadan mo'ralaganingizda meni izlamayotganmidingiz? — so'radi u.

— O'ylaymanki, undaymasdir-ov, mabodo siz mister...

Gap shu yerga kelganda mister Bambl yamланib qoldi, negaki u notanish kimsaning ismini bilishga qiziqayotgan va toqatsizlik bilan uning gapni chala qolgan joyini to'ldirishiga umid bog'layotgan edi.

— Ko'rib turibmanki, meni izlamayotgan ekansiz, — dedi notanish kimsa; shunda istehzoli kulgidan lablarining burchi xiyolgina qiyshayib qo'ydi. — Yo'qsa ismimni bilardingiz. Sizga maslahatim shuki, surishtiraman deb ovora bo'lib o'tirmang.

— Men sizni ranjitmoqchi emasdim, oshna, — viqor bilan javob qaytardi mister Bambl.

— Ranjitganingiz ham yo'q, — dedi notanish kimsa.

Qisqagina savol-javobdan so'ng oraga yana sukunat cho'mdi va uni tag'in notanish kimsa buzdi.

— Nazarimda, sizni ilgari ko'rgandayman, — dedi u. — Ko'chada bir ko'zimni qiri tushib qolgandi, unda boshqacharoq kiyingan edingiz, lekin, aftidan, bari bir taniyotganga o'xshayman. Siz bir paytlar bu yerda bidl edingiz-a, shunday emasmi?

— To'ppa-to'g'ri, — dedi mister Bambl hayron bo'lib, — qavm bidli edim.

— Balli, — dedi notanish kimsa bosh irg'ab. — Sizni uchratganimda xuddi shu vazifada edingiz. Xo'sh, hozir qanday vazifadasiz?

— Mehnat uyi noziri, — dedi mister Bambl notanish kimsaning nojoiz betakalluflikka yo'l qo'yishi oldini olish maqsadida bafurja hamda salo-batli ohangda. — Mehnat uyining noziriman, yigit.

— O'ylaymanki, siz, xuddi ilgarigidek, o'z manfaatingizni esdan chiqarmassiz? — so'zini davom ettirdi notanish kimsa bu savoldan hayron bo'lib boshini ko'targan mister Bamblning ko'zlariga tikilib turib. — Xijolat chekmang, ochiqchasiga gapiravering, qariya. Ko'rib turibsizki, men sizni yaxshi bilaman.

— Nazarimda, — javob qaytardi mister Bambl qo'li bilan ko'zlarini pana qilib, oshkora sarosimalik-la notanish kimsani boshidan-oyog'igacha kuzatib chiqarkan, — oilali odam, xud-

di bo'ydoq kishi singari, kezi kelib qolganida halol bir penni ishlab olishdan qaytmasa kerak. Qavm mansabdorlariga ko'pdayam tuzuk maosh to'lanmaydiki, ular jindakkina qo'shimcha daromadni rad etishsa; mabodo bu mukofot izzat-nafsga tegmaydigan qilib, xushfe'llik bilan taklif etilsa, albatta.

Notanish kimsa kulimsirab, bu odam xususida yanglishmaganini anglatgandek, yana bosh irg'ab qo'ydi-da, qo'ng'iroqni jing'illatdi.

— Tag'in bir marta takrorlasalar, — dedi u mister Bamblning bo'sh qadahini qovoqxonachiga uzatar ekan. — Sal o'tkirroq va iliqrog'idan bo'lsin... Umid qilamanki, bundayi o'zlariga yoqsa kerag-a?

— Judayam o'tkir bo'lmasin, — javob qildi mister Bambl sipolik bilan yo'talib qo'yarkan.

— Qovoqxonachi, bu bilan uning nima demoqchi bo'lganini tushunyapsizmi? — so'radi notanish kimsa quruqqina.

Sohib jilmaydi, g'oyib bo'lib, zumda krujkada iliqqina nunsh' ko'tarib keldi: bir ho'plagandayoq mister Bamblning ko'zlaridan yosh chiqib ketdi.

— Endi gapimga quloq bering, — deya gap boshlashdan oldin notanish kimsa eshik va derazani yopib keldi. — Men bu yerga sizni qidirib topish uchun bugun keldim va goho iblis o'z do'stlariga ehson etib turadigan omad sharofati bilan xuddi men o'tirgan xonaga, xususan, xuddi o'zlarini o'ylab turgan paytimda o'z oyog'ingizla kirib keldingiz. Sizdan ba'zi bir ma'lumotlarni olsam degandim. Garchi ular anchayin gaplar bo'lsa hamki, evaziga sizni quruq qo'ymasdim. Xamir uchidan patir deganlaridek, boshlamasiga manavini cho'ntagingizga solib qo'ysangiz.

Shunday deya u stol ustidan — misoli tashqaridagilardan biror kimsa tangananing jiringlashini eshitib qolishidan cho'chiganday astagina — suhbatdoshi oldiga ikki soverenni surib qo'ydi. Mister Bambl tangani soxta emasmikin deb hafsala bilan tekshirib ko'rib, nimchasi-ning kissasiga bag'oyat xursand holda yashirib qo'yganiidan keyin, notanish kimsa so'zida davom etdi:

— Xayolan o'tmishga bir nazar tashlang... Masalan, aytaylik, o'n ikki yil ilgarigi qishni eslang.

— Ancha olis zamonlar ekan, — dedi mister Bambl. — Xo'p, mayli. Esladim.

— Voqea bo'lib o'tgan joy — mehnat uyi.

— Yaxshi.

— Vaqti — tun.

— Shunday deylik.

---

<sup>1</sup> Shakar, suv va meva shirasini qaynatib qilingan spirtli ichimlik. (Tarj.)

— O'sha yerning qayeridadir — jirkanch maxluqlar, ko'pincha o'zlari judo bo'lgan hayot-u sog'liqlari o'rniga yangilarini dunyoga keltiradigan manfur kovak — ingalagan go'daklarni tug'ib, ularni qavm qaramog'iga tashlaganlar-u o'zlari esa, jin urgurlar, sha'nilariga tushgan dog'-u isnodlarini go'rga olib ketganlar.

— Bu deyman, ko'z yoriydigan xonani aytyapsiz chog'i? — deb so'radi mister Bambl notanish kimsa behudud hayajon-la tasvirlagan xonani tuzuk-quruq ko'z oldiga keltirolmay.

— To'ppa-to'g'ri, — dedi notanish kimsa. — O'sha yerda bir o'g'il bola dunyoga kelgan.

— Talay o'g'il bolalar tug'ilgan u yerda, — gap qistirdi mister Bambl g'amnok bosh chayqab.

— Jahannamga daf bo'lsin o'sha shaytonbachchalar! — xitob qildi notanish kimsa. — Men faqat bittasi to'g'risida gapiryapman: bayovgina, dardchil, shu yerdagi tobutsozga shogird bo'lgan — ming afsus, tobutsoz tobut yasab, ichiga gumdon qilib qo'ya qolmagan-da uni — keyinchalik esa, taxmin qilishlaricha, Londonga qochib ketgan bo-la haqda.

— Ie, Oliverni aytayotgan ekansiz-da? Tvistnimi? — xitob qildi mister Bambl.

— Men uning to'g'risida biror gap eshitmoqchi emasman; u to'g'risida eshitganlarim yetib-ortadi, — dedi notanish kimsa mister Bamblning bechora Oliverning qusurlari borasidagi nutqini bo'lib. — Men anavi shumkampir, uning onasiga qarab turgan yosuman to'g'risida so'rayapman. Qayerda u?

— Qayerda u deysizmi? — takrorladi suv qo'shilgan aroqdan so'ng hazilga moyil bo'lib turgan mister Bambl. — Bunga javob berish osonmas. Qayoqqa jo'nagan bo'lsayam, u yerda doyaning keragi yo'q, shuning uchun ham u bekorchixo'ja deb o'ylayman.

— Nima demoqchisiz bu bilan? — zarda bilan so'radi notanish kimsa.

— Mana shu qishda bandalikni bajo keltirganini aytmoqchiman, — javob berdi mister Bambl.

Ushbu so'zni eshitgan notanish kimsa unga tikilib qoldi va garchi uzoq paytgacha ko'zini uzmagani bo'lsa-da, nigohi chuqur o'y domiga tortilgandek asta-sekin parishonlasha bordi. Oldiniga u xuddi bu xabar-ni eshitganidan yengil tortishini yoxud umidsizlikka tushishini bilmay ikkilanayotganga o'xshadi, biroq axiyri erkin nafas oldi-da, nigohini olib qocharkan, buning unchalik ahamiyati yo'q, deb qo'ydi. Shunday derkan, go'yo ketishga hozirlanayotgandek, o'rnidan qo'zg'aldi.

Ammo-lekin mister Bambl ham anoyilardan emas, o'ziga yetgun-cha ayyor edi — o'sha zamonoq yostiqdoshiga tegishli bir sirdan foy-

dalanib qolish imkoniyati tug'ilganini angladi. Qari Salli jon taslim qilgan oqshom juda yaxshi esida edi, zotan o'sha kungi shart-sharoit asosli ravishda xotiraxonasida muhrlanib qolgandi: ana o'sha vaziyat sharofati bilan u missis Korniga yuragini taklif etgandi va garchandki mazkur xonim o'zi yakka-yu yagona shohidi bo'lgan narsani ishonib aytmagan bo'lsa-da, bari bir u ko'p narsani eshitgan, bu sirning kampir Oliver Tvistning yoshgina onasini mehnat uyi hamshira-enagasi sifatida boqib o'tirgan kezlarida sodir bo'lgan qandaydir hodisaga taalluqli ekanini fahmlagan edi. O'sha vaziyatni zudlik bilan xotirida tiklab, sirli bir qiyofada notanish kimsaga shum kampirning joni uziladigan paytida bir ayol bilan yolg'iz qolganini va ana shu ayolni izlash ishlarida unga yordami tegishi mumkin, deb taxmin qilishiga asosi bor ekanini aytdi.

— O'sha ayolni qanday topsam bo'ladi? — deb so'radi g'ofillik tuzog'iga ilingan notanish kimsa bu xabar barcha xavotirlariga, ular qanday bo'lishidan qat'iy nazar, qayta jon ato etganini ochiq-oydin oshkor qilib.

— Faqat mening yordamim bilangina, — dedi mister Bambl.

— Qachon? — xitob qildi notanish kimsa sabrsizlik bilan.

— Ertaga, — javob berdi Bambl.

— Kechqurun soat to'qqizda, — dedi notanish kimsa va bir parcha qog'oz chiqarib, hayajonini fosh etib turgan dastxat bilan daryo yoqasidagi allaqaysi ko'chaning nomini yozdi unga. — Kechqurun soat to'qqizda o'sha ayol bilan birga mana shu joyga borasizlar. Hammasi o'rtada sir bo'lib qolsin, deb tayinlashimning hojati yo'q sizga. Bu o'zingizning manfaatingizga daxldor.

Shundan so'ng u eshik tomonga yo'naldi va ichkilik haqini to'lash uchungina chiza hayalladi, xolos. U bir og'izgina yo'limiz shu yerda ajralishadi dedi-yu, ertasi kuniga belgilangan uchrashuv soatini ta'kidlab, xayr-ma'zurni nasiya qilganicha jo'navordi.

Qavm mansabdori qo'lidagi qog'ozga ko'z tashlarkan, unda ism yozilmaganini ko'rdi. Notanish kimsa hali olislab ketmagandi, shuning uchun ham mister Bambl otini so'ragani uning ketidan yugurdi.

— Nima kerak sizga yana? — O'shqirib berdi u Bambl qo'lga turganida. — Ketimdan poylayapsizmi?

— Bir narsani bilmoqchiydim, xolos, — dedi mister Bambl qog'oz parcha-sini ro'para qilib, — kimni so'roqlayman u yerda?

— Monksni so'raysiz, — deb javob qildi u va shahdam ilgarilab ketdi.

---

---

XXXVIII BOB. ER-XOTIN BAMBLAR BILAN MISTER MONKS  
O'RTASIDAGI XUFTONGI UCHRASHUV VAQTIDA  
SODIR BO'LGAN VOQEALAR HISOBOTINI  
O'Z ICHIGA OLADI

Badqovoq, dim, bulutli yoz oqshomi. Mister va missis Bamblar bosh ko'chadan burilib, shahar markazidan taxminan bir yarim milyacha masofadagi daryo yoqasidagi loy, botqoqli pasqamlikda joylashgan baland-past-u qing'ir-qiyyshiq yarim xaroba uylar to'dasi tomon odimlay boshlaganlarida kun bo'yi suzib-sudralib yurgan bulutlar birlashib, qalin, qoramtir-sur parda hosil qilgan, allaqachon yirik-yirik yomg'ir tomchilay boshlagan va qattiq momaqaldir oq ishi kelib turgan bir payt edi.

Ularning kiyilaverib unniqib ketgan eski ustki kiyimlari ikki maqsadga xizmat qilishi mumkin edi: yomg'irdan saqlash hamda birovning diqqatini tortmaslikka. Er hozircha hech qanday shu'la sochmayotgan fonusni ko'tarib, go'yo xotinim botiq izlarimdan yursin degandek, bir necha qadam oldinda lo'killab boryapti: yo'l loy edi. Ular churq etmay odimlashyapti; vaqti-vaqti bilan mister Bambl qadamini sekinlatib, umr yo'ldoshi orqada qolib ketmaganiga qanoat hosil etmoqlik uchun orqasiga alanglab qo'yadi; keyin u izidan orqama-orqa kelayotganini ko'rib odimini jadallatib, sayohatlaridan ko'zlangan manzil sari yanada ildamroq intiladi.

Bu joyning ta'rif-u tavsifi hech qanday shubha-gumonga o'rin qoldirmaydi: allazamonlardayoq bu yer o'zini bamisoli halol mehnatla kun ko'rayotgan qilib ko'rsatib, aslida o'g'irlik hamda jinoyatkorona ishlar bilan tiriklik o'tkazadigan uchchiga chiqqan gazzoblar maskani ekani otning qashqasidek ayon bo'lgan. Qayoqqa qarasangiz, katalag-u kulbalar: bir xillari — naridan-beri eski g'ishtlardan qurilgan, bir xillari — qurt-qumursqa g'alvir qilib tashlagan ko'hna kema taxta-yog'ochlaridan tiklangan; bu kulbalar tartibot-u obodonchilikni mutlaqo nazar-pisand qilmay g'uj-g'uj to'dalanib olgan va daryodan bir necha gazgina beriroqda joylashgandilar. Loy qirg'oqqa tortib chiqarilib, o'zlarini qurshab turgan pastak to'siqlarga bog'lab qo'yilgan ilma-teshik qayiqalar, shuningdek, u yer-bu yerda yotgan eshkaklar va qo'ltiqda o'ram-o'ram qilib uyib qo'yilgan arqonlar avvaliga bu qashshog'ona kulbalarining egalari daryo yordamida ro'zg'or tebratar ekanlar, degan fikr tug'dirardi. Ammo chor-atrofdagi sochilib yotgan bu almisoqdan qolgan va hech nimaga yaramaydigan

uvadalarga bir nigoh tashlashni o'zidayoq yo'lovchi osongina ulardan biror kimsaning foydalanishi dargumon, keyin shunchaki ko'zni chalg'itish niyatida qo'yib qo'yilgan, degan xulosa chiqarar edi.

Ana shu kulba-yu katalaklarning o'rta belida, naq daryo-ning labginasida ilgarilari fabrika bo'lgan bino savlat to'kib turar, qirg'oqqa yaqinligidan uning yuqori qavatlari hatto suv tepasi-ga turtib chiqqandi. To'g'ri, fabrika bir vaqtlar tevaragidagi kulba istiqomatchilarini maosh bilan ta'minlab turgan, biroq u zamon-lardan beriga xiyla puturdan ketib qolgan. Sichqon-u kalamushlar, qurt-qumursqa va nam kasofatidan tanasini ko'tarib turgan qo-ziqoyoqlar-u sepoyalar chirib, qiyshayib-qing'ayib ketgan — bino-ning katta qismi allaqachon suvga yonboshlagan, qiyshayib, liqillab turgan omon qolgan qismi esa qadimiy oshnasi ortidan borish va uning qismatiga sherik bo'lish uchun qulay fursat kelishini kutayot-gandek tuyuladi.

Muhtaram er-xotinlar olis ko'k toqida chaqnagan ilk momaqaldi-roq ovozi to'liqlanib-taralib, sharros yomg'ir quya boshlagan damda xuddi ana shu uy qarshisida to'xtadilar.

— Shu atrofda bo'lishi kerak, — dedi Bambl qo'lidagi qog'oz par-chasiga sinchiklab tikilgan ko'yi.

— Hey, pastdagilar! — tepadan kimningdir ovozi eshitildi.

Mister Bambl boshini ko'targan edi, ikkinchi qavatdagi eshikdan qaddini beligacha tashqariga chiqarib qarab turgan odamni ko'rdi.

— Bir zum kuta turinglar, — davom ettirdi so'zini u, — hozir tu-shaman oldilaringga. — So'ng o'sha odamning boshi g'oyib bo'lib, eshik ham qarsillab yopildi.

— O'sha odammi shu? — so'radi mister Bamblning nazokatli rafiqasi.

Mister Bambl «ha» degan ma'noda bosh irg'adi.

— Tayinlaganlarim esingda bo'lsin-a, — dedi nozira, — iloji bo-richa kam gapirishga harakat qil, yo'qsa birpasda sirimizni ochib qo'lasan.

Uyni aftini burushtirib kuzatayotgan mister Bambl, chamasi, o'ylagan rejalarini shu topda amalga oshirish o'rinli ekanligi ustida ba'zi shubhalarini aytmoqqa chog'lanib turgan edi, biroq Monksning paydo bo'lishi xalal berib qoldi — u er-xotin shundoq ro'parasida tu-rishgan eshikni ochib, ichkariga chaqirdi.

— Kiringlar! — sabrsizlik bilan shang'illadi u yer tepinib. — Vaqtimni olmanglar bu yerda!

Dastlabiga ikkilanib turgan ayol yana taklif qilishlarini kutib o'tirmay, dadil ichkari kirdi. Mister Bambl uyalganidanmi, yo orqa-da qolib ketishdan hayiqqanidanmi, ishqilib o'zini nihoyatda behu-

zur sezib va o'z xulq-atvoriga xos beqiyos ulug'vorligidan asar ham ko'rinmay, xotini ortidan ergashdi.

— Nima jin urib yomg'irda ivirsib turibsizlar u yerda? — so'radi Monks Bambldan ular ketidan eshikni berkitgach, o'girilib qarab.

— Biz... biz picha shamollamoqchi edik, — dedi Bambl tutila-tutila, xavotirlik bilan atrofga alanglab.

— Shamollamoqchiydik! — takrorladi Monks. — Shu topgacha yoqqan va bundan keyin yog'adigan jamiki yomg'irlar ba'zi odamlarning vujudidagi do'zaxi otashni so'ndirolmaydi. Shundoq bo'lgach, salqinlashlaring osonmas, bunga umid qilmay qo'ya qolinglar!

Shunday xushmuomala nutqdan so'ng Monks shartta noziraga o'girilib, unga qattiq tikilgandi, hatto uncha-munchaga cho'chitib bo'lmaydigan xonimday zot ham ko'zlarini opqochib, yerga qadab qoldi.

— Bu o'sha aytgan xotiningizmi? — so'radi Monks.

— Him... O'sha ayol bu, — javob qildi xotining ogohlantirishlari yodida turgan Bambl.

— Siz, ayollar sir saqlayolishmaydi, deb o'ylayotganga o'xshaysiz-a? — gapga aralashdi nozira, ayni chog'da Monksning sinovchan nigohiga u ham tik boqib.

— Ular faqat bittagina sirni, toki chuvi chiqib qolmagunicha, saqlashni joyiga qo'yishadi, — dedi Monks.

— Qanaqa sir ekan o'sha? — so'radi nozira.

— Pokdomonliklarini yo'qotganlarini, — javob qaytardi Monks. Shundoq bo'lgach, mabodo ayol kishi o'zini dor ostiga yoki qamoqqa olib boradigan sirga oshno ekan, bundan cho'chimayman, u hech qachon biror odamga og'zidan gullab qo'ymaydi, aslo! Gapimga tushunayotgandirsiz, xonim?

— Yo'q, — dedi nozira salgina qizarinqirab.

— Ha, turgan gap bu, — dedi Monks. — Buni tushuna olarmidingiz?

Monks har ikkala suhbatdoshiga yo kinoyaomuz, yo ma'yus qarab qo'yib, er-xotinni yana ketidan ergashtirib hayhotday, lekin shif-ti past xonani shitob-la kesib o'tdi. U bir vaqtlar mol qo'yilgan omborlar joylashgan ikkinchi qavatga olib chiqadigan, xuddi narvonga o'xshagan tik zinapoyadan ko'tarila boshlagan ham ediki, qo'qqisdan chaqnagan chaqin tepadagi darchani yoritib yubordi, ketidan bostirib kelgan momaqaldiroq gulduragi yarim xaroba binoni tag-zamini-gacha larzaga soldi.

— Eshityapsizlarmi? — deya qichqirdi u orqasiga tisarilib. — Eshit-yapsizlarmi? Iblis-u shaytonlar yashirinib yotgan ming-minglab g'orlarni kezib chiqayotganday guldurab, qah-qah urishini qarang. Momaqaldiroqni o'lguday yomon ko'raman!

U bir necha soniya jim qoldi, keyin birdan yuzini yashirib turgan qo'llarini oldi, shunda mister Bambl tavsifga til lol bir sarosima ichra Monksning basharasi bujmayib, rangi quv o'chib ketganini ko'rdi.

— O'zi shunaqa tutqanoqqa o'xshab tutib turadi, — dedi Monks uning qo'rqib ketganini ko'rib, — ko'pincha momaqaldiraq paytida bo'ladi bu. Qo'yavering, parvo qilmang menga, o'tib ketdi hammasi.

Shunday deb u zinadan ko'tarila boshladi va chiqib borgan xonasidagi deraza qopqoqlarini darhol berkitib, arqonning bir uchiga bog'lab, g'altakdan o'tkazib qo'yilgan chiroqni pastga tushirdi. Arqon shiftdagi yo'g'on xarining ustidan o'tkazilgandi, shu bois fonus ostida turgan ko'hna stol bilan uchta kursini xiragina yoritib turardi.

— Ana endi, — dedi Monks uchalalari ham o'tirishgach, — ishga qanchalik tez kirishsak, hammamiz uchun ham shunchalik yaxshi... Gap nima haqda borayotganini xonim biladilarmi?

Ushbu savol Bamblga qaratilgan edi, biroq xotini oldinroq javob berib, ishning mohiyati o'ziga juda yaxshi ma'lum ekanligini aytdi.

— Bu kishi sizni, anavi jodugar jon bergan kuni kechasi tepasida bo'lgan va kampir allanimanidir aytgan, deb to'g'ri gapiryaptimi?...

— Siz aytgan anavi bolaning onasi to'g'risidami? — uning so'zini bo'ldi nozira. — Ha.

— Birinchi masala ushbu ma'lumotning qimmatini — xususiyatini bilishdan iborat, — dedi Monks.

— Bu ikkinchi masala, — luqma tashladi ayol o'ta mulohazakorlik bilan. — Birinchisi bu ma'lumotga qancha to'lanishini kelishib olish.

— Jin ursin, uning qimmatini bilmay turib kim ham javob bera oladi bunga? — so'radi Monks.

— Imonim komilki, sizdan bo'lak hech kim, — dedi jasoratlilik bobida bequsur missis Bambl, bu jabhada esa uning umr yo'ldoshi haqli ravishda guvohlik berishi mumkin edi.

— Hm!.. — deb qo'ydi Monks ma'nodor qilib, behad qiziqsinish ohangida. — Demak, uning ko'magida pul ishlab olsa bo'larkan-da?

— Hamma narsa bo'lishi mumkin, — vazmin javob qaytarildi bu savolga.

— Uning nimasinidir olishgan ekan, — dedi Monks. — Qandaydir narsasini yechib olishgan ekan. Qandaydir buyumini...

— Yaxshisi, oldin bahosini aytsangiz bo'lardi, — so'zini bo'ldi missis Bambl. — Shu eshitgan gaplarimning o'zi ham sizning xuddi men gaplashishim zarur bo'lgan odam ekanligingizga qanoat hosil qilishim uchun yetarli.

Shu paytgacha mehribon yostiqdoshi bir vaqtlar aytganidan bo'lak hech nimani eshitmagan mister Bambl bo'ynini cho'zib, ko'zlarini

chaqchaytirib ushbu savol-javobga quloq tutar, dam xotiniga, dam Monksga tikilar ekan, taajjubini yashirmasdi. Monks sirni ochish uchun qancha talab qilishlarini zarda bilan so'raganida hayrati chandon ortib ketdi.

— Siz uchun qanchalik qimmatga ega u? — so'radi ayol xuddi boyagidek vazmin.

— Ehtimol bir paqirga qimmatdir, balki yigirma funtga arzir, — javob berdi Monks. — So'raydiganingizni aytin-u bor baraka qila qolaylik.

— O'zingiz aytganga tag'in besh funt qo'shing. Oltin pul bilan yigirma besh funt bersangiz, — dedi ayol, — ana undan keyin bilganlarimni barini aytaman sizga. Faqat shundan keyingina aytaman.

— Yigirma besh funt! — xitob qildi Monks kursi suyanchig'iga suyanib qolarkan.

— Oppa-oydin qilib aytdim sizga, — javob berdi missis Bambl. — Uncha-lik katta pulmas bu.

— Narxi bir pulga qimmat bo'lishi mumkin arzimas sir uchun bema'lol yetarli, — qichqirib yubordi Monks toqatsizlik-la. — Innaykeyin, o'n ikki yil muqaddam lahadga kirgan sir, balki bundan ham ilgariroqdir.

— Bunaqangi narsalar yaxshi saqlanadi, vaqt o'tgani sayin esa, xuddi o'tkir sharobga o'xshab, qimmatlari ikki-uch karra ortib boradi, — javob berdi nozira hamon boyagidek mulohazakorona hamda beparvo qiyofada. — Lahadga kirishi masalasiga kelsak, kim biladi, shunaqangi buyumlar ham bo'ladiki, o'n ikki ming yoki o'n ikki million yil ko'milib yotib, oxir-oqibatda g'alati-g'alati voqealarni so'zlab berishi mumkin.

— Bordi-yu, pulni shamolga sovurgan bo'lib chiqsam-chi? — so'radi Monks hardamxayollik bilan.

— Uni oppa-osongina qaytarib olishingiz mumkin: men boryo'g'i ayol kishiman, himoyachim ham yo'q bu yerda.

— Yolg'izmassan, jonginam, keyin himoyasiz ham emassan, — ehtirom-la luqma tashladi mister Bambl qo'rquvdan ovozi titrab. — Men shu yerdaman, jonginam. Innaykeyin, — gapini davom ettirdi mister Bambl tishlari takillab, — mister Monks — jentlmen odam, u qavm amaldorlariga nisbatan zo'ravonlik ishlatmaydi. Azizam, mening yosh yigitcha emasligim va ta'bir joiz bo'lsa, pichagina so'lganim mister Monksga ma'lum. Ammo u eshitgan, bunga zarracha shubham yo'q, mister Monks kaminaning qitig'iga tegib qo'yilsa g'ayrati jo'shib ketadigan nihoyatda jasur, beqiyos baquvvat odam ekanimni eshitgan. Sal qitiq patimga tegib qo'yish kerak, vassalom.

Mister Bambl shunday deb vajohatli jasorat-la fonusni ushlashga urindi, biroq o'takasi yorilayozgan basharasidan birorta jangari harakatni boshlashidan oldin rostdan ham uning qitig'iga tegish, shundayam jonini og'ritadigan qilib qitig'iga tegish darkor ekani yaqqol ko'rinib turardi; bu harakatlari kambag'allarga qarshi yoki xuddi ana shu mo'ljal-u maqsadda qo'lbola qilib o'rgatilgan zotlarga qarshi qaratilgan bo'lsagina, albatta.

— Ahmoqsan-da, — dedi missis Bambl, — jimgina tilingni tishlab turganing yaxshiydi bundan ko'ra!

— Sekinroq gapirishni bilmaganidan keyin, bu yoqqa kelishdan oldin tilini tag-tugi bilan shartta kesib tashlagani ma'qul ekan! — dedi Monks qovog'i uyilib. — Xo'sh, shunday qilib, bu kishi eringiz ekan-da?

— Ha — erim, — tasdiqladi nozira hirlinglab.

— Kirib kelayotganlaringda shunday bo'lsa kerak, deb o'ylagan-dim o'zim ham, — derkan, Monks ushbu so'zlarni aytayotganida xonimning eriga naq yeb qo'ygundek o'qrayib qo'yanini payqadi. — Unda yanayam yaxshi. Bir yoqadan bosh chiqarib ish tutayotganlarini ko'rib-bilganimdan keyin er-xotin bilan qaytaga jon-jon deb birgalashib ish ko'rishga tayyorman. Jiddiy gapiryapman. Mana, qaranglar!

U yon cho'ntagiga qo'l suqib, los hamyonni chiqardi-da, stolga yigirma besh dona soverenni sanab qo'yib, ayolning oldiga surdi.

— Ana endi, — dedi u, — olib qo'ying bularni. La'nati momaqal-diroq tinganidan keyin — hozir tepamizda gumburlab qoladi, sezib turibman — hikoyangizni eshitamiz.

Yanada yaqinroqda, deyarli xuddi tepalarida gulduragan momaqaldiraq tinganidan keyin Monks boshini xiyol ko'tarib, ayolning hikoyasini tinglash uchun oldinga engashdi. Ikkala erkak sabrsizlik bilan chog'roqqina stol uzra engashishgan, pichirlaganimni eshitishsin, deb ayol ham egilganida uchovlarining yuzlari deyarli bir-biriga tekkunday yaqinlashdi. Fonusning xira shu'lasini to'ppa-to'g'ri ularga tushib turganidan basharalari battar xavotirli-za'faron tus olgan, tevaraklarini qurshagan qorong'ilik qo'ynida xayoliy ro'yolarga o'xshab ketishardi.

— O'sha xotin, Salli kampir jon berayotganida, — deya gap boshladi nozira, — ikkovimiz yolg'iz edik.

— Boshqa hech zog' yo'qmidi? — xuddi o'shanday asta shivirlab so'radi Monks. — Birorta bemor kampir yoki biror telba-teskari yotmaganmidi yonidagi karavotda? Gaplaringni eshitadigan, ehtimolki, mag'zini fahmlab yetadigan hech kim yo'qmidi?

— Birortayam jon zoti, — javob berdi ayol, — yolg'iz edik. Joni chiqqanida bir o'zim tepasidaydim.

— Juda soz, — dedi Monks ayolga diqqat-la tikilib. — Davom etavering.

— U bitta yosh juvon to'g'risida gapirdi, — so'zini davom ettirdi nozira, — o'sha juvonning bir vaqtlar xuddi o'sha xonada, faqat o'sha xonadagina emas, hatto kampir jon berayotgan karavotda ko'zi yorigan ekan.

— Rostdanmi? — deb qo'ydi Monks lablari pirpirab, yelkasi osha orqasiga alanglab qo'yarkan. — Ming la'nat-e! To'g'ri kelganini qarang-a!

— Bu kishi kecha kechqurun sizga aytgan xuddi o'sha bola bo'ladi u, — hikoyasini davom ettirdi nozira nopisandlik bilan eri tomonga ishora qilib. — Kasal boqib o'tirgan kampir uning onasini bisotini qoqishtirgan ekan.

— Hayotligidayoqmi? — so'radi Monks.

— Joni uzilganidan keyin, — javob berdi ayol bir seskanib tusharkan. — Juvon jon berayotgan go'dagi uchun asrab qo'yishini iltimos qilgan buyumini kampir uning tanasi sovimasdanoq yechib olgan ekan.

— Kampir o'sha narsani sotib yuboribdimi? — xitob qildi Monks hayajondan o'zini yo'qotayozib. — Sotib yuboribdimi uni? Qayerda? Qachon? Kimga? Ko'p bo'ldimi bunga?

— Nima qilganini qiynala-qiynala, arang gapirib berdi-da, — hikoyasini davom ettirdi nozira, — o'zini shundoq orqaga tashladi-yu, jon berdi-qo'ydi.

— Bundan boshqa biron og'iz ham gap aytmasdan-a?! — deya hayqirdi Monks, uning naq g'azabdan bo'g'ilayozgani ovozi yanada bo'g'iq chiqqanidan sezilib turardi. — Yolg'on! Men bilan hazillashishning oxiri voy bo'ladi-ya. U yana nimanidir aytgan. Ikkovlaringni jahannamga jo'natib bo'lsa hamki, aynan nima deganini bilib olaman bari bir.

— U boshqa bir og'iz ham gapirmadi, — dedi ayol, chamasi u bu g'alati odamning g'azabidan tirnoqchalik ham cho'chimagandi (mister Bambl haqida-yu aslo bunday deyishning o'rni yo'q edi). — U jon-jahdi bilan ko'ylagimni changallab olgandi, joni uzilganini ko'rganimdan keyin panjasini ochib, iflos qog'oz parchasini ko'rdim.

— Qarasangiz, ichida... — uning so'zini og'zidan oldi Monks yanayam engashib.

— Ichida hech nima yo'g'iydi, — javob berdi ayol. — Kafolat pat-tasi ekan.

— Qanaqangi buyum uchun berilgan? — so'radi Monks.

— Hademay bilasiz, — javob qaytardi ayol. — Oldiniga u qimmatbaho taqinchoqni avaylab asramoqchi bo'lgan shekilli, keyin esa garovga qo'ygan va oz-ozdan pul jamg'argan, buyum yana tag'in

qo'ldan chiqib ketmasin deb sudxo'rga garov haqi to'lab turgan. Demak, agar qo'liga tuzukroq narsa tushib qolsa, xohlagan paytida qaytarib olishi mumkin edi. Lekin qo'liga tuzukroq narsa tushmagan va oqibatda, hozirgina aytganimdek, sarg'ayib ketgan qog'oz parchasini changallaganicha ko'z yumdi. Muddati bitishiga ikki kun qolgan ekan. Shunda men ham balki biron nimaga yarab qolar, deb o'yladim-da, haqini berib, garovdan qaytarib oldim.

— Hozir qayerda u? — og'zidan chiqmasidanoq so'radi Monks.

— Shu yerda, — javob qildi ayol.

Shunday deya ayol, qutulganiga shukr qilgandek, shosha-pisha fransuzcha soat zo'r-bazo'r sig'adigan jimitdakkina mayin teri karmonni stolga tashladi. Monks ola solib, qo'llari qaltirab, apil-tapil ochdi — karmonchada chog'roqqina tilla medalon, medalonning ichida esa ikkita soch tolasi bilan nikoh uzugi bor ekan.

— Ichkari tomoniga «Agnes» deb o'yib yozilgan, — dedi ayol. — Uning yonida ota ismiga joy qoldirilgan, undan keyin bo'lsa yil yozilgan, aniqlashimcha bu bola tug'ilgan yildan bir yil oldingi sana.

— Bor-yo'g'i shuginami? — so'radi Monks mitti karmonchadan chiqqan narsalarni diqqat va hirs-la ko'zdan kechirib.

— Bori shu, — javob qaytardi ayol.

Mister Bambl, go'yo hikoya tugagani va yigirma besh funtni qaytarib olish borasida og'iz ham ochilmaganidan xursand bo'lgandek, yengil so'lish oldi; endi u dadillanib, butun savol-javob davomida g'ar-g'ar terlayotgan burni ustidagi ter tomchilarini artdi.

— Men bu voqea haqida, o'zimcha taxmin qilgan narsadan bo'lak, hech nimadan xabarim yo'q, — dedi ayol qisqagina sukutdan so'ng Monksga, — keyin bilishni ham istamayman, shunisi bexavotirroq. Shundoq bo'lsayam, sizdan ikkitagina savol so'rasam maylimi?

— Bermalol, so'rayvering, — dedi Monks hayron bo'lib, — lekini-ga, savollaringizga javob beramanmi yo yo'qmi — bu boshqa masala.

— Jami uchta bo'larkan-da, — deb qo'ydi mister Bambl askiya qilmoqchi bo'lib.

— Mendan umid qilgan, mo'ljalangizdagi narsangizni oldingizmi? — so'radi nozira.

— Ha, — javob berdi Monks. — Xo'sh, ikkinchi savolingiz-chi?

— Bu narsani nima qilmoqchisiz? Menga qarshi ishlatilmaydimi tag'in bu?

— Hech qachon, — dedi Monks, — na sizga qarshi, na men-ga qarshi. Bu yoqqa qarang. Lekin birorta qadam qo'ya ko'rmang, yo'qsa hayotingiz sariq chaqaga ham qimmat bo'p qoladi-ya.

Shunday deb, u to'satdan stolni nari surdi-da, oyoqlari tagidagi temir halqadan ushlab, naq mister Bamblning ostiginasidagi tubsiz

tuynuk qopqog'ini ochib yuborgandi, bu janob jonholatda bir necha odim orqaga tisarildi.

— Pastga bir qarang-a, — dedi Monks fonusni tuynukdan pastga tushirib. — Qo'rqmang. Buni menga foydasi bo'lganida sizni tuynuk ustida o'tirganingizda bamaylixotirgina sho'ng'itib yuborishim hech gapmasdi.

Bu so'zlardan dalda olgan nozira tuynuk chetiga yaqinlashdi, hatto qiziq-sinish ich-etini tatalayotgan mister Bamblning shaxsan o'zlari ham shunday qilishga jur'at etdilar. Pastda jaladan keyin to'lib-toshgan daryo ayqirib, qaynab-ko'pirib oqyapti, ko'm-ko'k suv giyohlari qoplagan sepoya-qoziqoyoqlarga tashlanib, peshonasi qoq yorilayotgan oqimning guvillashi jamiki boshqa tovush-u shovqinlarni bosib ketyapti. Qachonlardir bu yer suv tegirmoni bo'lgan: suv chirik ustunlar-u mashinalarning omon qolgan bo'lak qismlari tevaragidan aylanib, qaynab-ko'pirib oqar va uning quturib qilayotgan hamllarini jilovlashga behuda urinayotgan to'siqlardan xalos bo'lgach, yangi kuch-la olg'a intilayotgandek tuyulardi.

— Mabodo unga birovning murdasini tashlab yuborilgudek bo'lsa, u ertalab qayerga borib qoladi? — so'radi Monks fonusni quduqday qop-qorong'ilikda u yoqdan-bu yoqqa chayqatib.

— Oqim bo'ylab bu yerdan o'n ikki milya quyiga, buning ustiga tilka-porasi chiqib ketadi, — javob berdi mister Bambl bu o'ydan af-ti burushib.

Monks mitti karmonchani shoshilib solib qo'ygan qo'ynidan chiqardi-da, bir vaqtlar chig'irning bir qismi vazifasini o'tagan va hozir yerda yotgan qo'rg'oshin parchasiga bog'lab, uni suvga tashladi. Kar-moncha qo'lomli soqqaday suvga cho'lp etib tushdi-yu, g'oyib bo'ldi.

Uchovlari bir-birovlariga qarab olishib, yengil nafas olgandek bo'ldilar.

— Mana, tamom, — dedi Monks tuynuk qopqog'ini tushirarkan, qopqoq taraq etib boyagi joyiga tushdi. — Mabodo dengiz, kitob-larda yozilganiday, biron vaqti kelib o'z bag'ridagi murdalarni yuza-ga chiqarib tashlagan chog'idayam, bari bir oltin-u kumushni, shu qatorda bu ikir-chikir gapni qa'rida olib qoladi. Ortiq gaplashadigan gapimiz qolmadi, bu ko'ngilli uchrashuvga chek qo'ysak ham bo'ladi.

— Mutlaqo haqsiz, — darhol javob qaytardi mister Bambl.

— Tilingizni tiyib yuring-a, eshityapsizmi? — dag'dag'ali qiyofada dedi Monks. — Xotiningizdan sira xavotirlanmayman-a...

— Bemalol ishonavering menga, yigit, — bag'oyat takalluf bilan javob berdi mister Bambl, ikki bukilib orqasiga tisarilgan ko'yi. — Hammamizning manfaatimiz uchun, shaxsan o'zimning manfaatim uchun, yigit, buni tushunyapsizmi, mister Monks?

— Eshitdim, g'oyat xursandman o'zlaridan, — dedi Monks. — Fonusingizni yoqing-u iloji boricha tezroq jo'nab qolinglar!

Yaxshiyamki suhbat shu yerda tugagani, yo'qsa ta'zim qilganicha tisarilib borayotgan mister Bambl pastki qavatdagi xonaga uchib tushishi turgan gap edi, chunki uning zinaga yetishiga bir qarichcha qolgandi. U qo'lidagi fonusni Monks arqondan yechib, ko'tarib turgan fonusdan o't oldirib, suhbatni davom ettirishni xayoliga ham keltirmay, indamaygina zinadan tusha boshladi, xotini esa ortidan ergashdi. Monks ehtiyotdan yomg'ir va ayqirib oqayotgan daryoning shovullashidan bo'lak sharpa eshitilmayotganiga ishonch hosil etmoqlik uchun zinapoyada bir nafasgina tutilib qolgach, ketlaridan tusha boshladi.

Pastki qavatdagi xonani ohista hamda ehtiyotkorlik bilan bosib o'tishdi, sababki, Monks har bitta sharpaga ko'zi tushganida seskanib ketar, mister Bambl bo'lsa fonusni yerdan bir yarim qarichcha balandroqda osiltirib ushlab olgan nafaqat haddan ziyod ehtiyotkorlik bilan, ayni chog'da shundayin barvasta jentlmen uchun hayron qolarli bir tarzda yengil odim tashlab, biron joyda maxfiy tuynuk yo'qmikin, deya asabiy alanglagan ko'yi ilgarilardi. Monks eshikni sharpa chiqarmay ochdi, shunda er-xotin sirli tanishlari bilan bosh iring'ab xayrlashib, yomg'ir yog'ayotgan qorong'ilik qo'yniga chiqib qoldilar.

Ular ketishlari bilanoq Monks, aftidan, yolg'izlikni jinidan suymaydi shekilli, qayerdadir pastda yashirib qo'yilgan bolani chaqirdi. Bolaga oldinda chiroq tutib yurishni buyurdi va hozirgina tark etgan xonasiga qaytdi.

---

---

**XXXIX BOB. KITOBXONLARGA TANISH BIR NECHA  
HURMATLI ZOTLARNI SAHNAGA CHIQARADI  
VA MUHTARAM MONKS BILAN MUHTARAM  
JUHUDNING QANDAY SUHBAT QURGANLARI  
XUSUSIDA HIKOYA QILADI**

Uch muhtaram zot, oldingi bobda tilga olib o'tganimizdek, o'zaro kichkinagina ish yuzasidan bitishib olganlarining ertasi kuni kechki payt mister Uilyam Sayks mudroqdan uyg'onib ketib, uyqu aralash xirildoq tovush bilan soat necha bo'lganini so'radi.

Ushbu savolni mister Sayks Chertsiga qilingan safardan ilgari turadigan xonasida emas, bo'lak joyda berayotgan edi. Bu yangi turarjoyi o'sha tumanda, lekin eskisidan picha nariroqda edi. Shubhasiz, bunisi ilgarigi turarjoyidan xarobroq — iflos-u tor jinko'chaga qaragan, nishabi baland tomidagi shapaloqdekkinaga derazachasidan-gina yorug'lik tushib turadigan, qashshog'ona jihozlangan, ayanchli hujracha edi. Bu yerning mazkur ajoyib jentlmenning keyingi paytlarda omadi yurishmayotganidan dalolat beruvchi bo'lak alo-matlardan kamchilik joyi yo'q edi; zotan g'aribona uy jihozlari va qulaylikdan mutlaqo nom-nishon yo'qligi, shuningdek, zahira kiyim-kechak hamda ich kiyimdek mol-mulkning g'oyib bo'lgani uning ortiq darajada qashshoqlanib qolganidan darak berib turardi; buning ustiga mister Sayksning oriqlagan va horg'in qiyofasi (mabodo isbotga muhtoj bo'lsa) bu holni to'liq isbotlashi mumkin edi.

Talonchi xalat o'rniga oq paltosiga o'ranib karavotda yotar, kasal tufayli murdadek oqargan tusi hali o'ziga kelmagan, iflos tungi qalpog'i va bir haftadan beri ustara ko'rmagan tikanday qop-qora soqoli rangini battar za'faron qilib ko'rsatardi. Iti karavot yonida cho'qqayib o'tiribdi, u dam egasiga o'ychan tikiladi, dam qulog'ini ding qilib qoladi; goho esa, agar ko'chadagi yoki uyning pastki qavatidagi birorta shovqin diqqatini tortib qolsa, irillab qo'yadi. Deraza oldida bir ayol talonchining kundalik ust-boshining bir qismi bo'lmish eski nimchani hafsala bilan yamab o'tiribdi; qiyinchilik va kasal boqishdan u shunaqangi ozib-to'zgan, shunaqangi rangini oldirib qo'ygandiki, mister Sayksning savoliga javob qaytargandagi ovozini eshitmasangiz uning mazkur hikoyatda ilgariroq sahnaga chiqqan xuddi o'sha Nensi ekanini payqashingiz amrimahol edi.

— Yettidan sal oshdi, — dedi qiz. — O'zingni qanday sezyapsan, Bill?

— Zig'irchalik ham darmonim yo'q, — javob berdi mister Sayks, o'z ko'zlari, qo'l va oyoqlariga la'natlar o'qib. — Qo'lingni ber, bu xonasallot karavotdan bir amallab tushib olishimga yordamlashvor.

Mister Sayksning fe'l-atvorini kasallik ham tuzatolmagandi: qiz o'rnidan turishiga yordamlashib, stol oldiga suyab olib kelar ekan, u qo'polsan deb toza so'kdi, keyin bir urdi.

— Hiqillayapsanmi? — so'radi Sayks. — Bas qil! Obidiydangni keragi yo'q! Agar qo'lingdan shundan boshqa ish kelmaydigan bo'lsa tuyog'ingni shiqillatib qol! Eshityapsanmi?

— Eshityapman, — javob qildi qiz yuzini burib, jilmayishga urinarkan. — Kallangga yana qanaqangi xayol kelib qoldi?

— E, nima balo, aynib qoldingmi deyman? — to'ng'illadi Sayks qizning ko'zlarida halqalangan yoshni ko'rib. — O'zingga yaxshi bu.

— Axir sen, Bill, shu bugun ham menga bag'ritoshlik qilishni istamassan, — dedi qiz qo'lini uning kiftiga qo'yib.

— Xo'sh, nimaga endi? — xitob qildi mister Sayks. — Nimaga?..

— Necha-necha kechadan beri, — dedi qiz xiyolgina ayollarga xos nazokat bilan, buning ta'sirida hatto ovozi ham erkalash ohanglari sezildi, — shuncha kechadan beri sabr-toqat bilan tepangda parvona bo'ldim, xuddi yosh boladay parvarish qildim, bugun bo'lsa o'zingga kelganingni birinchi marta ko'rib turibman. Axir menga hozirgiga o'xshab muomala qilmassan, to'g'rimi? Kel, ayta qol, unday qilmayman degin.

— Bo'pti, — javob qaytardi mister Sayks, — endi bunday qilmayman. Obbo, jin urgur, bu qiz tag'in obidiyda qilyapti-ku!

— Hech gapmas bu, — dedi qiz o'zini kursiga tashlarkan. — Parvo qilma. Hozir o'tib ketadi.

— Nima o'tib ketadi? — zarda bilan so'radi mister Sayks. — Qanaqangi ahmoqona qiliq bo'ldi bu yana? Tur o'rningdan, ishingni qil, bunaqangi xotinja mashmashalaring bilan boshimni qotirma!

Boshqa payt bo'lganida-ku bu koyish va u aytilgan ohang yigit istagandek kor qilgan bo'larmidi-ya, lekin chindan ham madordan ketib sillasi qurigan qiz boshini kursi suyanchig'iga tashlagancha, mister Sayks bunday holatlarda odatan o'z po'pisasiga sayqal beradigan munosib so'kishlarni aytib ulgurmasidanoq, hushidan ketdi-qoldi. Bunday favqulodda vaziyatda (odatda, missis Nensining asabiy tutqanoq jazavasi qo'zish bilan boshlanib, oxirida bemor birovning ko'magisiz o'zini o'nglab olardi) nima qilarini tuzuk-quruq bilmaydigan mister Sayks ustma-ust so'kib ko'rdi va bu xildagi muolaja tad-biri mutlaqo natija bermasligiga qanoat hosil qilgach, shovqin solib yordamga chaqirdi.

— Nima bo'ldi, azizim? — so'radi Fedjin xonaga kirib kelarkan.

— Anavi qizga yordamlashib yuboring, — betoqatlik bilan javob qaytardi Sayks. — Allanimalar deb ming'illab irshayish, lo'q bo'lib tikilishning keragi yo'q menga.

Fedjin hayratda «voh» deganicha qizga ko'makka tashlandi, mo'tabar do'sti ortidan xonaga kirib kelgan mister Jek Daukins (o'zgacha qilib aytganda — Abjir Tullak) esa qo'lidagi tugunni darhol yerga qo'ydi-yu, o'zi bilan izma-iz kelayotgan yosh Charli Beytsning qo'lidagi shishani yulqib ola solib, hash-pash deguncha bo'g'zidagi tiqinni tishlari bilan chiqardi-da, undagi suyuqlikdan bir qismini (tag'in xatoga yo'l qo'ymaslik uchun, albatta, oldin o'zi tatib ko'rgach) bemor qizning og'ziga quydi.

— Bosqonni ol, Charli, toza havodan og'ziga to'g'rila, — dedi mister Daukins, — siz, Fedjin, Bill to yubkasi tasmasini yechguncha qo'llarini shapatilab, uqalab turing.

Barchalari hamkorliklarida, g'ayrat bilan amalga oshirilgan ushbu choralarning bari — ayniqsa, o'ziga topshirilgan muolajaviy tadbirni ochiqchasiga beqiyos ermak deb hisoblagan yosh Beyts qo'llagan chora — darhol ko'ngildagidek samara ko'rsatdi. Qiz asta-sekin o'ziga keldi, gandiragancha karavot yonidagi kursiga borib o'tirdi-yu, mehmonlarni kutib olishni ularning bexosdan kirib kelishlaridan picha taajjubga tushgan mister Sayksga havola qilib, yuzini yostiqqa bosgan ko'yi yotdi-oldi.

— Qay iblisning shamoli uchirib keldi o'zlarini bu yoqqa? — deb so'radi u Fedjindan.

— Hech qanaqangi iblis-piblisning shamoliyamas, azizim. Iblisning shamoli hech kimga yaxshilik keltirgan emas. Men bo'lsam sizga uncha-muncha tuzukkina narsalarni keltirdim... Tullak, azizim, tugunni yechgin-da, bugun ertalab bisotimizda bor pulni xarajat qilib olib kelgan arzimas narsalarni Billga olib ber.

Abjir Tullak mister Fedjinning amrini ado etib, kattakon eski dasturxonga tugilgan tugunni yechdi-da, ichidagi narsalarni hirmabir Charli Beytsga uzata boshladi; u bo'lsa bu narsalarning nodir-u kamyob sifatlarini og'iz ko'pirtirib maqtagancha stolga teraverdi.

— Oh-oh, qanday qoyilmaqom quyon qiymasi-ya, Bill! — kattakon qiyma bo'lagini qo'liga olayotib xitob qildi bu yosh jentlmen. — Shunaqangi mayin, shunaqangi shirin, shunaqangi nozikki jonivor, hatto suyagigacha og'zingda erib ketadi, Bill; qayeridan boshlasamikin, deb bosh qotirib o'tirishning ham hojati yo'q. Yetti shilling-u olti penslik, qaynab turgan suvga bir chimdim solsang, choy-nakning qopqog'ini itqitib yuboradigan quling o'rgilsin ko'k choydan yarim qadoq; to qiyomiga yetgunicha zanjilar rosa ter to'kkan, sal nam tortgan qanddan bir yarim qadoq. Ikki qadoqlik bulkadan ik-

ki dona; bir qadoq nafasingga erib ketadigan yangi sarig' yog'; bir bo'lak tushingizda ham hidlab ko'rmagan a'lo navli sermoy golster pishlog'idan.

Yosh Beyts ushbu maddohona madhiya-yu maqtovlarni o'qigan ko'yi otto'rvaday cho'ntagidan kattakon, og'zi mahkam berkitilgan vinoli shishani chiqardi va ayni chog'da boyagi shishadagi sof spirtidan qadahni chipillatib quygan edi, bemor tap tortmay, shartta og'ziga quyvordi.

— E-e! — xitob qildi Fedjin mamnun qiyofada qo'llarini ishqab. — Nobud bo'lmaysiz, Bill, endi omon qolasiz.

— Omon qolaman! — takrorladi Sayks. — To siz yordamga yetib kelguningizgacha yigirma marta nobud bo'lib ketishim mumkindi-ya. Shundoq ahvoldagi odamni uch haftadan ziyodroq vaqt ichida qismat changaliga tashlab qo'yganingiz qandoq bo'ldi, ey yolg'onchi, tilyog'lama jonivor?!

— Buning gapini qarang-a, bolalar! — dedi Fedjin yelkasini qisib. — Biz bo'lsak unga manavi ajoyib narsalarni olib kelib o'tiribmiz-a.

— Narsalaringiz o'z yo'li bilan chakkimasga o'xshaydiku-ya, lekin o'zingizni nima bilan oqlay olasiz? — gap qo'shdi mister Sayks stoldagi narsalarga ko'z qirini tashlab olgach. — Nega endi meni och, kasal, pulsiz, umuman, hech vaqosiz bir ahvolda tashlab qo'ydingiz bu yerda? Yana kim biladi, menga manavi itchalik e'tibor bermasligingiz tag'in qancha vaqt cho'zilishi mumkinidi?.. Uni nariroqqa hayda, Charli!

— Bunaqangi ajoyib itni hech qachon ko'rmaganman! — xitob qildi yosh Beyts uning iltimosini bajarar ekan. — Xuddi bozorga ketayotgan qari xonimga o'xshab, yeydigan narsani o'n chaqirim naridan hidini oladi-ya. Sahnaga chiqqudek bo'lsa bu it rosa boylik ishlab berardi, buning ustiga desangiz, tomoshagayam jon kiritib yuborardi-da.

— E ovozingni o'chir!.. — o'shqirib berdi Sayks it g'ingshib karavot tagiga o'rmalab kirarkan. — Xo'sh, sharti ketib, parti qolgan, ko'hna qonxo'r, tarasha chol, o'zingizni nima bilan oqlaysiz?

— Bir haftadan mo'lroq Londonda bo'lmadim. Har xil ishlar bilan, — javob berdi juhud.

— Qolgan ikki haftada-chi? — so'radi Sayks. — Men xuddi inida kulala bo'lib yotgan kasal kalamushday bu yerda behush yotgan ikki haftada-chi!

— Hech nima qila olmadim, Bill. Odamlarning oldida uzundan-uzun qilib tushuntirib bo'lmaydi buni... Hech nima qilolmadim, ornomusim haqqi ont ichaman.

— Nimalari haqqi ont ichyaptilar? — to'ng'illadi Sayks jirkanib. — Hey, bolalar, birortalaring anavi qiymadan bir bo'lak kesib bering-

lar, og'zimdagi tamni ketkizmasam, tomog'im qaqrab, bo'g'ilib qolishim ham hech gapmas.

— Qo'ying, achchiqlanmang, azizim, — yuvoshlik bilan tinchlatishta urinardi Fedjin. — Sizni hecham esdan chiqarganim yo'q, Bill, sirayam.

— Ha, meni esdan chiqarmagansiz, bu xususda garov o'ynashga ham tayyorman, — javob qaytardi Sayks alamangiz kulimsirab. — Men alangai otash bo'lib, alahlab yotgan paytimda siz har xil reja-yu nayranglar ustida bosh qotirgansiz: tuzalishi bilan Bill anavi ishni qiladi, Bill manavi ishni bajaradi, innaykeyin, Bill har qanaqangi ishni suv tekinga qotirib tashlaydi — u shunchalik qashshoqki, siz uchun ishlashga majbur. Bordi-yu, ana shu qiz bo'lmaganidami, u dunyoga jo'nashim tayin edi.

— Qo'ying-e, Bill, — e'tiroz bildirdi Fedjin darhol shu gapga yopishib olarkan. — «Bordi-yu ana shu qiz bo'lmaganida» dedingiz-a! Xo'sh, shunday chaqqon qizni bechora qari Fedjin topib bermay, kim topib berdi sizga?

— To'g'ri aytyapti u, — dedi Nensi ildam oldinga odim tashlab. — Qo'y uni, ha, tinch qo'y.

Nensining aralashuvi suhbat tarzini o'zgartirib yubordi, negaki bolalar ehtiyotkor juhudning ayyorona ko'z qisishini payqab, qizni ichkilik bilan siylashga kirishdilar — darvoqe, qiz nihoyatda oz-ozdan, evi bilan ichardi, Fedjin esa o'ziga yetti yot begona quvnoqlikni namoyon qilib, o'zini go'yoki dag'dag'a-po'pisalarni hazil deb sanayotganga solib, buning ustiga talonchining oldin spirtli shishadan yutib olib, keyin bo'ralab so'kkan bir-ikki qo'pol haqoratidan astoydil kulib, asta-sekin mister Sayksning kayfiyatini ko'tara bordi.

— Keltirgan narsalaringizning hammasi juda yaxshi-yu, — dedi mister Sayks, — lekin sizdan qurug'ini naqd olishim kerak.

— Yonimda bir chaqa ham yo'g'iydi-ku, — javob berdi juhud.

— Lekin uyingizda bijg'ib yotibdi, — qarshilik bildirdi Sayks. — Ana o'sha tog'day uyilib yotganidan uncha-muncha tegishi kerak menga ham.

— Uyilib yotibdi! — qichqirib yuborayozdi Fedjin qo'llarini yozib. — Qo'ying-e, hatto aqalli...

— Bisotingizda qancha yig'ilib qolganini bilmadim-u, lekin, aytmoqchi, buni o'zingiz ham bilmaysiz, nega deganda uni sanab chiqishga ancha-muncha vaqt kerak, — dedi Sayks. — Lekiniga menga pul shu bugun kerak, tamom, vassalom!

— Yaxshi, yaxshi! — dedi Fedjin xo'rsinib. — Tullakdan berib yuboraman.

— Bunaqasi ketmaydi, — e'tiroz bildirdi mister Sayks. — Tullak judayam epchil — bordi-yu bu ishni topshiradigan bo'lsangiz, bu yoqqa yetib kelish esidan chiqib qolishi hech gapmas; yo yo'ldan adashib qoladi, yo iskovuchlarni chalg'itaman deb yo'lni boshqa tomonga burib ketadi, yoki o'zini oqlagani boshqa birorta bahonani o'ylab topadi. Yaxshisi, uyangizga Nensi borsin, pulni undan berib yuboring. Shunda hammasi joyida bo'ladi, u borib-kelgunicha esa men yotib, andak mizg'ib olaman.

Fedjin uzoq savdolashish va talashib-tortishishlardan so'ng talab qilinayotgan qarz miqdorini besh funtdan uch funt to'rt shilling-u olti pensgacha tushirarkan, qasam ichib shunda tirikchilik uchun bisotida atigi o'n sakkiz pensgina qolishiga ishontirmoqchi bo'ldi. Mister Sayks qosh-qovog'i uyulib, agar bundan ortig'iga umid qilishning foydasi bo'lmasa, shunga ham qanoatlanishga majbur ekanini aytdi. So'ngra Nensi Fedjin bilan birga yo'lga tushishga hozirlandi, Tullak bilan mister Beyts taomlarni javonga olib qo'yishdi.

Juhud «shakarpalak» do'sti bilan xayr-ma'zurlashib, Nensi va bolalar rafoqatida uyiga jo'nadi; ayni chog'da mister Sayks toki yosh xonim qaytib kelguniga qadar uxlash niyatida o'rniga uzandi.

Ular Fedjinning maskaniga hech qanday moneliqsiz yetib keldilar. U yerda Tobi Krekit bilan mister Chitling kribbedj o'yinining o'n beshinchi davrasi ustida berilib ter to'kmoqda edilar; shunisi ham borki, keyingi jentlmenning ushbu davrani, davra bilan birga esa o'n beshinchi va oxirgi olti penslik chaqasini (yosh do'stlarining dimog'ini benihoyat chog' qilib) yutqizayotganini aytib o'tirish joiz-mikin. Jamoat orasida tutgan mavqei va aqliy layoqati jihatidan o'zidan ancha-muncha pastroq bo'lgan jentlmen bilan o'ynayotgani ustidan chiqqanlari sababli izza tortgan mister Krekit esnab qo'ydi-da, Sayksning ahvolini surishtirib, ketmoqchi bo'lib shlyapasini qo'liga oldi.

— Hech kim kelmadimi, Tobi? — so'radi Fedjin.

— Biron tirik jon zoti, — javob berdi Krekit yoqasini ko'tarayotib. — Zerikishdan xuddi bemaza pivoday achib-bijg'ib ketishimga bir bahya qoldi. Fedjin, uyingizni shuncha poylab o'tirganim evaziga o'tkir ichimlikka qarzdorsiz. Jin ursin! Xuddi sud maslahatchisiga o'xshab miyam g'ovlab, karaxt bo'lib qolayozdim. Mabodo kamsuqumlik qilib manavi yigitchani ovuntirib o'tirishni o'ylab topmagan-imda bamisoli Nyuget turmasidagidek tosh qotib uxlab qolishim tayin edi. Naq yuraging yorilib ketgudek zerikarli-ya!

Mister Tobi Krekit shu so'zlar bilan yutuq pullarni yig'ishtirib, go'yo mayda kumush chaqalar uningdek zot uchun arzimasi matoh-

day, kekkaygancha nimchasi cho'ntagiga soldi; bu ishni adog'iga yetkazgach, u mardona va salobat-la odimlagancha xonadan chiqib ketdi. Shundan so'ng to g'oyib bo'lgunicha uning oyog'i va etigiga zavq-shavq-la qarab-qarab qo'yayotgan mister Chitling butun ulfatlariga qarata, shunday zot bilan tanishish sharofatiga muyassar bo'lganidan xursand ekanini va bu yo'ldagi har bir uchrashuvlari bor-yo'g'i qandaydir o'n beshta olti penslik chaqaga tushishini, bunaqangi yutqiziq o'zi uchun bir chertkichalik ham qimmatga ega emas ekanligini aytdi.

— O'lguday dumbulsiz-da, Tom, — dedi mister Beyts uning gapidan kulgisi qistab.

— Sirayam-da, — javob qildi mister Chitling. — Nahotki dumbul bo'lsam-a, Fedjin?

— Sen judayam dono yigitsan, azizim, — dedi Fedjin uning kiftiga qoqib, boshqa shogirdlariga ko'z qisib qo'yar ekan.

— Mister Krekit bo'lsa haqiqiy po'rim yigit. To'g'rimi, Fedjin? — so'radi Tom.

— Shubhasiz, azizim.

— U bilan oshna-og'aynigarchilik qilishni o'zi katta sharaf. To'g'rimi, Fedjin? — davom etdi Tom.

— Albatta, katta sharaf ham gapmi, azizim. Bular hasad qilishyapti senga, vassalom, nimaga desang, Tobi bular bilan pachakilashishni xohlamaydi.

— Ana! — xitob qildi Tom tantanavor ohangda. — Gap mana bu yoqda! U meni shipshiydam qilib shilib oldi. Lekin men xohlagan paytimda borib, yana ishlab olishim mumkin-ku, to'g'rimi, Fedjin?

— To'ppa-to'g'ri, ishlab olishing mumkin tag'in, Tom; aytmoqchi, qanchalik tez borsang shunchalik yaxshi. Yutqizig'ingni hayallamay chiqarib ol, ha, fursatni o'tkazma... Tullak! Charli! Ishga jo'naydigan vaqtlaring bo'ldi. Qimirlay qolinglar! Hademay o'n bo'ladi, shu vaqtgacha esa hali hech vaqo qilinmadi.

Mazkur shamani inobatga olib, bolalar Nensiga bosh irg'ashdi-da, shlyapalarini ko'tarib xonadan chiqib ketishdi; yo'l-yo'lakay Tullak va uning quvnoq jo'rasi mister Chitlingga qaratilgan turli xil askiya-yu hazillarni o'ylab topib, xushxandon ketib borishardi; mister Chitlingning fe'l-atvorida, tan berish kerakki, hech qanaqangi alohida ko'zga tashlanib turadigan yoxud g'alati jihati yo'q edi; modomiki poytaxtda tuzukroq oshna-og'aynigarchilik davrasiga qo'shilishdek sharafga sazovor bo'lish uchun mister Chitlingga nisbatan talaygina ko'proq to'layotgan uddaburon olifta yigitchalar oz emas; shuningdek, obro'-sha'n imoratini deyarli yulduzni benarvon uradigan Tobi Krekit singari poydevor ustiga quradigan nazokatli jentl-

menlar (hozirgina aytganimiz tuzukroq oshna-og'aynigarchilik davrasini tashkil etgan) ham kam emas.

— Ana endi, — dedi Fedjin bolalar xonadan chiqib ketishgach, — chiqib, senga pul olib kiray, Nensi. Bu, azizam, shunchaki bolalar olib keladigan uncha-muncha narsalarni saqlaydigan javonning kaliti. O'zimning pulimni hech qachon qulflab qo'ymayman, sababki, qulflaydigan pulning o'zi yo'q tagida, jonginam... Hi-hi-hi... qulflab qo'yadigan narsaning o'zi yo'q. Nafi yo'q kasb-da, Nensi, keyin desang, arziyas, notinch kasb. Shundoq bo'lsayam, yosh-yalanglar atrofimda o'ralashib yurganini yaxshi ko'raman, shuning-chun bari-ga toqat qilib, ha, bariga chidab kelyapman. Jim, — xitob qildi u shosha-pisha kalitni qo'yniga yashirarkan. — Kim bo'ldiykin u yoq-dagi? Quloq sol-chi.

Qiz birov kelyaptimi yo ketyaptimi, zarracha qiziqmay, toki qulog'iga erkak kishining noaniq ovozi chalinguniga qadar stol yo-nida qo'l qovushtirib o'tiraverdi. Bu tovush qulog'iga kirar-kirmas, yarq etib o'tgan yashin misol, tezlikda boshidagi shlyapasi bilan sholro'molini yulqib oldi-yu, stol ostiga suqdi. Juhud qayrilib qaraga-nida hozirgina Fedjin orqa o'girib turgani sababidan payqamay qol-gan hayratga solarli chapdast-u chaqqon harakatiga tamom teskari bir xasta tovush bilan issiqdan nolidi.

— Voh! — xalal berganlaridan go'yoki achchiqlanganday to'ng'illab qo'ydi u. — Bu men ilgariroq kutgan odam; zinadan tu-shib kelyapti u. U shu yerdaligida puldan og'iz ocha ko'rma, Nensi. Birpasgina bo'ladi bu yerda. O'n daqiqalardan ortig'mas, azizam.

Qoq suyak shahodat harmog'ini lablariga hosib ishora qilgach, juhud eshik orqasidagi zinapoyadan odim tovushlari eshitilgan pal-lada chiroqni ko'tarib, o'sha tomonga yurdi. U mehmon bilan bir paytda eshikka yetib bordi, unisi eshikni shartta ochib ichkari kirar-kan, qizni payqashdan burun naq yonginasiga kelib qoldi.

Bu — Monks edi.

— Yosh shogirdlarimdan biri, xolos, — dedi Fedjin Monksning notanish odamni ko'rib tisarilganini payqab. — Ketma, o'tiraver, Nensi.

Qiz stolga yaqinroq surilib, Monksga beparvogina birrov ko'z qirini tashladi-yu, teskari qarab oldi; ammo Monks undan ko'zini uzib, Fedjinga qaraganida Nensi boshqatdan shunday bir o'tkir ham-da sinchkov nigoh tashladiki, basharti xonada bo'lak biror kuzatuvchi hozir bo'lib, ushbu o'zgarishni ko'rib turganida bormi? Har ikkala qarash ham birgina shaxsning qarashi ekaniga ishonishi mushkul edi!

— Yangilik bormi deyman-a? — surishtirdi Fedjin.

— Juda muhim.

— H... haligi... xushxabarmi? — deb so'radi Fedjin o'zining had-dan ziyod beparvo va muloyimligi bilan suhbatdoshining g'ashiga te-gishdan xavfsirayotgandek ikkilanib.

— Har qalay, noxush emas, — javob berdi Monks iljayib. — Bu gap vaqtini behuda isrof qilmadim. Siz bilan gaplashib olishim kerak.

Shunda qiz yanayam stolga yaqinroq surildi va garchi Monks o'zini imlab ko'rsatayotganini payqagan bo'lsa-da, xonadan chiqib ketish niyati borligini anglatuvchi biron harakat qilmay, o'tiraverdi. Juhud, tashqariga chiqib turishni so'raydigan bo'lsam, puldan gap ochib qolmasin tag'in, deb cho'chidi chog'i, ko'zlari bilan tepaga im-lab, Monksni ergashtirib chiqib ketdi.

— Faqat ilgari kirganimiz la'nati katalakkayamas, — mehmon-ning ovozi eshitdi qiz ular zinadan chiqib ketishayotganida. Fed-jin kulib qo'ydi, keyin allanima deb javob qaytardi, nima deganini u tushunmadi; taxtalarning g'ijirlashidan suhbatdoshini uchinchi qa-vatga boshlaganga o'xshadi.

Ularning odim sharpalari aks sadosi bino ichra tinib ulgurma-yoq, qiz boshmog'ini yechib, ko'ylagi etagini boshiga yopindi-da, qo'llarini ham o'rab olgancha eshik oldiga borib, quloq sola bosh-ladi. Odim sharpalari tingan zahoti xonadan lip etib chiqdi-yu, zi-nadan hayron qolarli darajada yengil hamda sharpasiz, zipillagancha tepaga ko'tarilib, zulmat qo'yniga singib ketdi.

Chorak soatlar chamasi, bundan ortiqmasdir-ov, xonaga hech kim kirmadi; so'ngra qiz xuddi boyaginday sas-sadosiz kirib keldi, o'sha zahotiyuq zinadan tushayotgan ikki erkakning odim sharpasi eshitil-di. Monks hayallamay, o'shanaqasi ko'chaga chiqib ketdi, juhud esa pul olib tushgani imillagancha tag'in tepaga ko'tarila boshladi. U ki-rib kelganida qiz go'yoki otlamayotgandek shlyapasini kiyib, ro'molini o'ray boshlagandi.

— Nima gap, Nensi? — xitob qildi shamni stolga qo'ygan juhud o'zini orqaga tashlab. — Ranging devorday oqarib ketibdi-ku!

— Devorday oqarib ketibdi? — takrorladi qiz cholga diqqat-la tikilib qaramoqchiday qo'llari bilan ko'zini to'sib.

— Judayam. Nima bo'ldi o'zi senga?

— Hech nima. Bu diqqinafas xonada, xudo biladi, qancha o'tirib qoldim, bor gap shu, vassalom, — javob berdi qiz beparvo. — Qani, baraka topkur, meni jo'nata qoling tezroq.

Fedjin har bitta tanga ustida ming uh tortib, pulni bitta-bittadan sanagancha uning kaftiga tashlayverdi. Ular bir-birovlariga xayrli tun tilab, ortiqcha gap-so'zsiz xayrlashishdi.

Qiz tashqariga chiqqach, eshik tagidagi zinaga o'tirib qoldi va bir necha lahza davomida mutlaqo dovdirab, yurishga qurbi yetmayotgan-

dek tuyuldi. Banogoh u o'rnidan dast turdi-yu, o'zini Sayks kutayotgan tarafga emas, tamoman teskari tomonga otilib, tobora odimini jadallatgancha borarkan, oxiri deyarli yugurishga o'tdi. Batamom silasi quriganidan keyingina nafasini rostlagani to'xtadi; ana shunda hushi joyiga qaytib, o'ylagan rejasini amalga oshira olmasligini fahmladi chog'i, alamidan ho'ngrab yig'lab yubordi. Ko'z yoshidan yengil tortdimi yo butunlay nochor ahvolda qolganini tushundimi, ishqilib, u shartta burildi-yu, xuddi boyagidek yugurgancha — bir tarafi behuda ketgan vaqtning hissasini chiqarib olish, bir tarafi esa odimini qaynab-toshib borayotgan fikr-o'ylari oqimiga moslamoq niyatida — orqaga qaytdi va hech qancha o'tmay gazzobni qoldirib ketgan uyga yetib keldi.

Bashartiki u mister Sayksga ro'para bo'lganida o'z hayajonini biron harakati bilan fosh etib qo'ygan chog'da ham bari bir yigit buni payqamadi; u qizdan pul keltirgan-keltirmaganini surishtirib, ha, degan javobni oldi-yu, allanima deb mamnun g'udrandi-da, tag'in boshini yostiqqa tashlab, qiz kelganda buzilgan uyqusini davom ettiraverdi.

Qizning baxtiga ertasi kuni qo'lida naqd puli borligi Sayksni taom va ichkilikka zo'r berishga undadi; buning ustiga uning fe'l-atvoriga yaxshi ta'sir ko'rsatdi-yu, qo'polligi xiyla barham topib, qizning xulqi-yu xatti-harakatini tanqid qilishga na vaqti va na istagi bo'ldi. Bir qarorga kelishdan oldin jiddiy ichki olishuvni talab etuvchi biror mardonavor hamda xatarli ishga qadam qo'yishga hozirlanayotgan odamda bo'lgani kabi, qizdagi parishonhollik va asabiylik Fedjinning silovsincha o'tkir ko'zlaridan qochib qutulolmasligi, cholning esa darhol xatar bongini urishi shaksiz edi. Biroq mister Sayks, zehn-u ziyraklik bobida «mana-man» deb ajralib turadigan zotlar toifasiga kirmasdi; shu paytgacha har kim va hamma bilan bo'ladigan mu-loqotida hamishagi qo'polligi ko'magida o'zi bemalol daf eta oladigan xavf-u xatardan ko'ra o'tkirroq hadik diliga qutqu solmagandi; ustiga-ustak, yangitdagina zikr etib o'tganimizdek bag'oyat dimog'i chog' kayfiyatda bo'lgan mister Sayks qizning yurish-turishi, aft-an-gorida hech qanaqangi g'ayriodatiy alomatni sezmasdi: sirasini aytganda esa, qizga shunchalik kam e'tibor berdiki, hatto uning hayajoni yuz karra sezilarli bo'lgan taqdirda ham yigitning ko'nglida shubha uyg'otishi dargumon edi.

Kun adog'iga borib qizning hayajoni yanada zo'raydi. Kech kirib, talonchining yonida bemorning mast bo'lib uxlab qolishini poylab o'tirarkan, qizning rangi shunchalar pag'a bo'lib ketgan, ko'zlari shundayin chaqnab turardiki, hatto Sayksdek odam ham taajjublandi bundan.

Mister Sayks isitmadan sillasi qurib karavotda yetgan joyida sal kuchi qirqilsin deb aroqqa iliq suv qo'shib ichardi; shu tariqa, to'latsin deb stakanni Nensiga tomon uchinchii yo to'rtinchii marta surib qo'yishida qo'qqisdan qizning tusiga ko'zi tushib hayron bo'ldi.

— Eh, yotgan joyimda harom qotayin-a! — xitob qildi u tirsagiga tayanib sal qaddini ko'targancha qizning yuziga tikilib. — Xuddi o'lib tirilgan murdaga o'xshab ketibsan-ku! Nima bo'ldi o'zi?

— Nima bo'ldi? — takrorladi qiz. — Hech nima. Namuncha baqrayasan menga?

— Yana nima jin urdi? — so'radi Sayks qizning qo'lidani mahkam ushlab, qo'pollik bilan silkilab. — Nima gap o'zi? Kallangga qanaqa o'y kelib qoldi? Nimani o'ylayapsan?

— Ko'p narsani, Bill, — javob qaytardi qiz bir seskanib tushib, ko'zlarini qo'llari bilan to'sarkan. — Lekin senga bari bir emasmi?

Oxirgi so'zlarning yasama quvnoq ohangi xiyol oldinroq o'ziga qadalgan vahshiyona javdiragan nigohdan ko'ra kuchliroq ta'sir etganday ko'rinardi Sayksga.

— Senga aytadigan gapim shuki, — dedi Sayks, — mabodo isitma yuqmagan va tobing qochmagan bo'lsa, demak, unda boshqa narsaning, jiddiy, buning ustiga xavfli narsaning isi kelib turibdi. Yana tag'in sen... Yo'q, jin chalsin, qo'lingdan kelmaydi bu!

— Nima qo'limdan kelmaydi? — so'radi qiz.

— Butun jahonda, — dedi Sayks qizdan ko'zini uzmay, bu so'zlarni eshitilar-eshtilmas pichirlab, — butun jahonda undan ishonchliroq qiz yo'q, aks holda buni uch oy burun bo'g'izlab tashlagan bo'lardim. Unda isitma xuruj qilyapti, bor gap shu.

Sayks shunday vaj-korson bilan o'z ko'nglini tinchlantirib, stakanini oxirigacha sipqordi, so'ngra esa aljirab so'kinganicha dorisini so'radi. Qiz dik etib turdi-da, unga orqa o'girib turganicha, tezgina doridan quyib, to ichib bo'lgunicha og'ziga tutib turdi.

— Ana endi, — dedi gazzob, — yonimga o'tir, keyin turqing hamishagidek bo'lsin, yo'qsa uni shunaqangi bejab qo'yamanki, hatto o'zing ham tanimay qolasan.

Qiz itoat etdi. Sayks uning qo'lini mahkam ushlab, aftiga tikilgan ko'yi o'zini yostiqa tashladi. Ko'zlari yumildi, yana ochildi, tag'in yumildi va tag'in ochildi. U bezovtalanib ag'anadi, bir necha marta ikki-uch daqiqa mudrab ham ketdi, o'shancha marta cho'chib uyg'onib, sapchib tushdi va atrofga bema'no alangladi; bir payt qo'qqisdan, sal qaddini ko'tarmoqchi bo'lib shaylangan paytida boshi shilq etib tushib, toshdek qattiq uyquga ketdi. Panjalari yozildi, paylari tarang tortilgan qo'li shalvirab tushdi — u bamisoli butunlay behush yotardi.

— Afyun axiyri ta'sir qildi-ya, — deya pichirladi qiz karavotdan uzoqlasharkan, — lekin endi judayam kech bo'lib ketgandir.

U chaqqon shlyapasini kiyib, ro'molini yopinarkan, tag'in uyqu dori berganimga qaramay Sayks yelkamga qo'lini tashlab qolmasin, deganday hadiksirab ora-sira orqasiga qarab qo'yardi; keyin astagina to'shak uzra engashib, qaroqchining labidan o'pdi-da, xona eshigini shovqin chiqarmay ochib, ko'chaga otildi.

Asosiy ko'chaga olib boradigan qorong'i jinko'chada qorovul to'qqiz yarim bo'ldi, deya jar solardi.

— Ko'p bo'ldimi bunga? — so'radi qiz.

— Chorak soatdan keyin o'ngga zang uradi, — dedi qorovul qo'lidagi fonusni uning yuziga tutib.

— Men bo'lsam u yoqqa bir soatdan oldin yetib borolmayman, — deya g'o'ldiradi qiz va uning yonidan yo'rg'alagancha o'tib, ko'cha bo'ylab yugura ketdi.

Qiz Spitel-Fildsdan London Vest-Endi tomon yugurgilab borayotgan pasqam jinko'cha-yu tor ko'chalardagi do'konlarning aksariyati allaqachon yopilgan edi. Soat o'nga zang urganidan keyin esa uning betoqatlanishi oshgandan-oshib ketdi. U kambargina yo'lkadan bamisoli uchib borardi; odamlar ko'chani kesib o'tish imkoniyati tug'ilishini kutib to'dalanishib turgan yerlarda yo'lovchilarni itarib-turtib, gavjum ko'chalarning narigi betiga esa naq otlarning tumshuqlari ostidan yelib o'tardi.

— Jinni-minni bo'lganga o'xshaydi bu juvon, — deb qo'yishardi o'tkinchilar, tig'i parronday uzoqlashib borayotgan qizning orqasidan qarab qolisharkan.

Qiz shaharning birmuncha badavlatroq qismiga yetganida ko'chalar nisbatan bo'shroq edi, shu boisdan ham bu yerda uning bunchalik yugurishi o'zi oralab borayotgan siyrak yo'lovchilarda ko'proq qiziqish uyg'otardi. Ba'zilar qizning qayoqqa oshiqayotganini bilmoqchidek qadamlarini tezlatishar va yetib olganlar o'girilib qarab, uning hamon o'shanday tezlikda chopib borayotganini ko'rib hayron bo'lishardi.

Biroq ular birin-ketin orqada qolib borishardi, shunday qilib, u ko'zlagan manziliga yetib kelganida yolg'iz o'zi qolgandi ko'chada. Bu Xayd-park yaqinidagi osuda, go'zal ko'chada joylashgan oilaviy qo'niladigan mehmonxona edi. Eshik oldida ko'zni olgudek charaqlab turgan fonusning chorlovi bilan qiz uyga yaqinlashgan paytda soat o'n birga zang urdi. Dastlabiga qiz bir oz nafasini rostlab, keyin yaqinlashish niyatida qadamini sekinlatganday bo'ldi, ammo soat zangi unga dadillik baxsh etdi-yu, to'g'ri ichkari kirdi. Darvozabon odatdagi joyida ko'rinmadi. U taraddudlanib u yoq-bu yoqqa alangladi-yu, zinapoyaga qarab yurdi.

— Bu yoqqa qarang, — dedi bashang kiyingan bir ayol orqa tomondagi eshik ortidan mo'ralab qarab, — bu yerda kim kerak sizga?

— Shu uyga tushgan xonim, — javob berdi qiz.

— Xonim deysizmi? — deya so'radi ayol jirkangannamo nigoh tashlab. — Qaysi xonim?

— Miss Meyli, — dedi Nensi.

Bu orada Nensining tashqi qiyofasiga razm sola boshlagan bashang kiyingan ayol saxovatangiz irganishni ifodalovchi nigoh bilangina javob qaytardi-yu, u bilan gaplashishga bir erkakni chaqirdi. Nensi unga o'z iltimosini takrorladi.

— O'zlarini kim deb aytay? — so'radi xizmatkor.

— Ismimni aytishni keragi yo'q, — javob qildi Nensi.

— Bo'lmasa qanday ish bilan kepti dey? — surishtirishni davom ettirdi xizmatkor.

— Buni ham aytib o'tirishning hojati yo'q! — e'tiroz bildirdi qiz. — Men xonimga yo'liqishim kerak, vassalom.

— Qani, bir jo'nab qolsinlar-chi! — dedi xizmatkor uni eshik tomon itarib. — Yetar, bas, tuyoqlarini shiqillatib qolsinlar!

— Meni itarib chiqarib tashlashingiz mumkin, lekin o'z oyog'im bilan chiqib ketib bo'pman! — qattiq qichqirib dedi qiz. — Shundoq oyog'imni tirab olayki, ikki kishilashib ham chiqarib bo'psizlar. Nahotki bu yerda menday bir ayanchli ojizaning iltimosini bajarishga rozi bo'ladigan biror kimsa topilmasa? — deya so'zini davom ettirdi u atrofga alanglab.

Bu zorlanish boshqa xizmatkorlar bilan birgalikda ushbu manzarani xotirjamgina kuzatib turgan oshpazga ta'sir qildi-yu, u mojaroga aralashmoqchi bo'lib oldinga chiqdi.

— Kirib ayta qoling, Jo, biron yeringiz yeyilib qolmaydi-ku axir, — dedi bu zot.

— Bundan nima ma'ni chiqadi? — qarshilik bildirdi unisi. — Nima balo oyimqiz mana shunaqangi ta'viyani qabul qiladi, deb o'ylayotibsiz shekilli, a?

Nensining shubhali kechmish-u sha'niga qilingan bu shama shu yerda hozir bo'lgan to'rtala oqsochning qalbida ma'sumona g'azab tug'yonini uyg'otdi, ular yonib-jo'shib, bunaqangi maxluqlar o'z jinsini isnodga qo'yyapti, deb bobillagancha, uni hech qanday rahmshafqat qilmay, to'ppa-to'g'ri anhorga uloqtirishlarini qat'iyon talab eta boshladilar.

— Meni nima qilsalar qilaveringlar-u, — dedi qiz yana erkaklarga murojaat qilib, lekin oldin iltimosimni bajaringlar, uchrashmoqchi ekanimni kirib aytinglar, yaratgan Parvardigor haqqi.

Ko'ngli bo'sh oshpaz iltimos-u iltijolarni qalashtirib tashladi va oxir-oqibatda ish shu bilan tugadiki, birinchi bo'lib chiqqan xizmatkor bu iltimosni ado etishni o'z zimmasiga oldi.

— Xo'sh, nima dey kirib? — deb so'radi u bir oyog'ini zinaning birinchi poyasiga qo'ygan joyida.

— Bir yosh ayol miss Meyli bilan tanho so'zlashishni o'tinib so'rayapti, — javob berdi Nensi, — u aytmoqchi bo'lgan gapdan aqalli bitta so'zni eshitganidan keyin bu ayolning gaplariga oxirigacha quloq soladimi yo yolg'onchi sifatida quvih yuboradimi, uning ixtiyori deyapti, deng.

— O'ziyam o'lguday qaysar odam ekansiz-da, — dedi xizmatkor.

— Shu gapni aytsangiz bas, — dedi qiz qat'iy, — javobini olib chiqing-a.

Xizmatkor zinadan yugurgancha chiqib ketdi. Rangi quv o'chgan Nensi entika-entika nafas olgan ko'yi, lablari titragancha iffatli oqsochlar ovozlarini baralla qo'yib, ziqnalik qilmay og'zilaridan chiqarib yuborayotgan nafratomuz koyish-u qarg'ishlarga quloq tutgancha pastda turardi; xizmatkor qaytib tushib, yosh ayolga tepaga chiqishini aytgach, ular yanayam saxiylik bilan ta'na-dashnomlarni yog'dira ketishdi.

— Bu dunyoda insof-u tavfiq qolmaganidan keyin, axloq-odobga rioya qilishdan nima foyda borakan? — dedi birinchi oqsoch.

— Oltin o'tda kuymasa, suvda zanglamasa hamki, ba'zan jezni undan a'loroq ko'rishadi, — deb qo'ydi ikkinchisi.

Uchinchisi: "Bu xonimlar nimadan yasalgan o'zi?" degan hayratangiz savol bilan kifoyalanib qo'ya qoldi; to'rtinchilari esa: "Qanday sharmandalik!" — deya yakun yasadi — xullasi kalom, mazkur farishtalarning fikri bir joydan chiqqandi.

Nensi ana shularning barisiga qaramay — chunki yuragini bundan ko'ra chandon og'irroq tosh bosib yotgandi — butun vujudi titrab, xizmatkor izidan shiftda osig'liq fonus yoritib turgan mo'jazzgina dahlizga kirdi. Xizmatkor qizni shu yerda qoldirib o'zi chiqib ketdi.

---

---

**XL BOB.      OLDINGI BOBDA TASVIRLANGAN  
VOQEALARNING DAVOMI BO'LMISH  
ANTIQA UCHRASHUV**

Garchand qizning hayoti ko'cha-ko'yda, Londonning eng chirkin fahshxona-yu eng qabih o'g'rixonalarida kechgan bo'lsa-da, har qalay u ayol zotiga xos insof-u andishani andakka saqlab qolgandi; shu sabab, o'zi kirib kelgan eshikning qarama-qarshisidagi eshikka yaqinlashib kelayotgan yengilgina odim sharpasini eshitganida lahza o'tmay ushbu mo'jazgina xona shohidi bo'ladigan keskin tafovutni xayoliga keltirarkan, o'z avholi qanchalar sharmandali va ayanchli ekanini his etib, uchrashishni talab qilib turib olgan kimsasiga ro'baro' bo'lishga go'yoki qurbi yetmaydigandek qunishib oldi.

Ammo ana shy maqbul tuyg'ulari bilan g'urur — eng fahsh hamda eng tahqirlanganlar, ayni chog'da ulug'vor hamda o'ziga bino qo'ygan kiborlarning ham qusuri bo'lmish g'urur — olishmoqda edi shu topda. O'g'ri va talonchilarning ayanchli hamtovog'i, chirkin fahshxonalar chiqindisi-yu razolat hosilasi, eng palid jinoyatchilarning dor ko'lagasida istiqomat qiluvchi sherigi — hatto illatlar botqog'iga botib ketgan maxluqsifat bir zotning ham g'ururi ayollarga xos bir chimdingina ko'ngilchanlik ko'rsatishga yo'l qo'ymayotgandi; garchi og'ir turmush bolalik yillaridayoq izini sidirib tashlagan ko'ngilchanlik insonlik tabiati bilan o'zini bog'lab turgan birdan-bir rishta bo'lsa-da, bu yagona rishtani u ojizlik hisoblardi. U qarshisida hozir bo'lgan qizning kelishgan qaddi va go'zal chehrasiga birrovgina nigoh tashlash uchungina boshini ko'tardi, xolos; so'ngra yerga qaraganicha, yasama beparvolik bilan bosh silkiib qo'yib:

— Huzuringizga kirish oson emasakan, xonim, — dedi. — Bordi-yu ranjib, bor-e, deb ketib qolganimda (mening o'rnimda bo'lganida ko'pchilikning shunday qilishi turgan gap edi), vaqti-soati kelib pushaymon qilardingiz — ha, behuda pushaymon bo'lmasdingiz.

— Agar sizga qo'pol muomala qilishgan bo'lsa, ma'zur tutasiz, — javob berdi Roz. — Buni unutishga harakat qiling. Ayting-chi, menda nima gapingiz boriydi? Men o'sha siz so'ragan odamman.

Shirin til, muloyim ovoz, dilbarona ehtirom, takabburlikdan yoxud norozilikdan asar ham sezilmaydigan muomalani kutmagan g'ofil qiz bexos ko'zlariga yosh oldi.

— Eh, xonim! — nido soldi u to'liqlanib. — Koshkiydi sizga o'xshaganlar ko'proq bo'lsa-yu, menga o'xshaganlar kamroq bo'lsa... judayam kam...

— O'tiring, — dedi Roz. — Agar qashshoq bo'lsangiz yoki boshingizga biror falokat tushgan bo'lsa, chin qalbidan, baholi qudrat sizga yordam berishga tayyorman. O'tiring.

— Tik turishimga ruxsat eting, xonim, — dedi qiz hanuz piqilab, — keyin toki kimligimni bilmay turib bunaqa muloyim gapirmang menga. Vaqt ham allamahol bo'lib qoldi. Anavi... Anavi eshik berkmi?

— Ha, — dedi Roz, agar lozim bo'lib qolsa tezroq yordamga yetib kelishsin deganday bir necha qadam ortga chekinar ekan. — Nimaga so'rayapsiz buni?

— Chunki, — dedi qiz, — chunki o'z hayotimni va yana boshqalarning hayotini sizning izmingizga topshirmoqchiman. Men kechki payt Pentonvildagi uydan chiqqan Oliverni qo'lidan ushlab olib, Fedjin cholnikiga sudrab ketgan o'sha qiz bo'laman.

— Siz-a?! — deb yubordi Roz Meyli hovliqib.

— Ha, men, oyimqiz, — javob qaytardi qiz. — Men o'zingiz alaqachon ta'rifimni eshitgan, o'g'ri-muttahamlar orasida yashaydigan o'sha benomus qiz bo'laman. Esimni tanigan, ko'zlarimni ochib London ko'chalarini ko'rgan kezlarimdan beriga meni siylashgan so'zlardan muloyim-u yoqimliroq so'zni eshitmadim, menga hadya etganlaridan yaxshiroq hayotni tatib ko'rmadim. Bu yog'iga yaratganning o'zi madadkorim bo'lsin iloyo! Qo'rqmang, mendan bemalol yuz o'girishingiz mumkin, xonim. Aslida ko'rinishimga qaraganda ancha yoshman-u, lekin ko'nikib ketganman bunga. Odam gavjum ko'chadan o'tib borayotganimda eng qashshoq ayollar ham yuzini teskari burib, shataloq otib qochib qolishadi yonimdan.

— Qanday dahshat! — dedi Roz, beixtiyor g'alati suhbatdoshidan nariroq tisarilar ekan.

— Qimmatli xonim, go'daklik chog'laringizdanoq sizga g'amxo'rlik qilgan, ko'z qorachig'idek asrab-avaylagan do'stlaringiz bo'lgani, hech qachon ochlig-u sovqotish nimaligini bilmaganingiz, badmastlig-u g'avg'o-to'polonlarni ko'rmaganingiz, yana... yana men beshikdaligimdayoq tatib ko'rgan bundan ko'ra battarroq ba'zi narsalardan bexabar ekanligingiz uchun tiz cho'kib Tangriga shukrona o'qing, — xitob qildi qiz. — Men bu so'zni bemalol ayta olaman, chunki gadoy topmas jinko'chalar-u pasqam jar-jurlar beshiklik qilgan menga... ajal to'shagim ham o'shalar bo'ladi.

— Rahmim keladi sizga, — dedi Roz ovozi titrab. — Gapingizni eshitib, yuragim tilka-tilka bo'lib ezilib ketyapti.

— Bu rahmdilligingiz uchun sizni Tangri taolo yarlaqasin, — javob qildi qiz. — Agarda goho-goho qanday ahvolga tushganimni bilganingizda edi, rostdan ham achinib ketardingiz menga. Bu yerga yashirinch quloq solgan gaplarimni yetkazgani kelganimni bilib qolishsa, albatta tiriklayin terimga somon tiqadigan odamlarga bildirmay qochib chiqqanman-a, axir. Monks degan odamni taniysizmi?

— Yo'q, — javob berdi Roz.

— U bo'lsa sizni taniydi, — dedi qiz, — shu yerga tushganingizni ham biladi. Bu yerni uning og'zidan yashirinch eshitib topib keldim-da sizni.

— Bu ismni hecham eshitmaganman, — dedi Roz.

— Demak, biznikiga boshqa nom bilan borarkan, — dedi qiz, — ilgariroq ham shunday bo'lsa kerak deb o'ylagandim. Bundan bir necha vaqt burun, uylaringni o'marib ketmoqchi bo'lib Oliverni derazalariningdan tushirishganidan keyin ko'p o'tmay, men o'sha kishidan shubhalanib, bir kuni tunda Fedjin bilan gaplashayotganida yashirinch quloq soldim. Shunda Monks hozir men sizdan so'rab turgan xuddi o'sha odam ekanini tushundim...

— Ha, — dedi Roz, — tushunaman.

— ...Monks xuddi o'sha, — so'zini davom ettirdi qiz, — biz Oliverni birinchi marta yo'qotib qo'ygan kunimiz, uni ikki bolamiz bilan yurganida tasodifan ko'rib qolib, o'zi izlab yurgan bola ekanini shu zahotiyoy tanigan xuddi o'sha odam ekanini tushundim; nima maqsadda izlab yurganini bo'lsa bilolmadim. Fedjin bilan shartlashib olishdi, agar Oliverni yana qo'lga tushirishsa cholg'a ma'lum miqdorda pul tegadigan, keyin, agar uni o'g'ri qilib yetishtirsa bundan ham ko'proq aqcha oladigan bo'ldi, shunday bo'lishi nima uchundir Monksga judayam zarur ekan.

— Nima uchun? — so'radi Roz.

— Nima gapligini bilib olmoqchi bo'lib gap poylayotganimda devordagi soyamni ko'rib qoldi u, — javob berdi qiz, — mendan boshqa kamdan-kam odam vaqtida juftakni rostlab, qutulib ketardi-yov bunday paytda. Lekin men uddasidan chiqdim buni, o'shandan keyin uni kecha oqshomgacha ko'rmay yurgandim.

— Kecha nima bo'ldi, ayta qoling?

— Hozir gapirib beraman, xonim. Kecha kechqurun u tag'in keldi. Ikkovlari tag'in tepaga chiqib ketishdi, shunda men soyam sirni ochib qo'ymaydigan qilib o'ranib-chirmanib oldim-da, yana eshik orqasida gap poyladim. Qulog'imga birinchi chalingan narsa Monksning: «Shunday qilib, bolaning shaxsini aniqlab beradigan yakka-yu yagona dalil daryoning tubida yotibdi, uni bolaning onasidan olgan shumkampir esa tobutda qurtlarga yem bo'lib, chirib yotibdi», degan

so'zlari bo'ldi. Keyin Fedjin ikkovlari qahqahlab kulishdi-da, bu ishlarni omadi chopib, xamirdan qil sug'urganday boplagani to'g'risida gaplashishdi. Monks esa bolani tilga olganida quturib ketib, shaytonbachchanning pulini gumdon qilishga qurbi yetsa hamki, boshqacha yo'l bilan qo'lga kiritgani maqbul ekanini aytdi; otasining takabburo-na vasiyatini masxaralab, bolani shaharning hamma qamoqxonalarida birma-bir sayr qildirib chiqsak, undan keyin birorta og'ir jinoyati uchun dorga torttirib yuborsak, rosa qoyilmaqom hangoma bo'lardida, dedi; keyin, bu ish Fedjinning qo'lidan bemalol kelishini, ungacha esa boladan ancha-muncha foydalanib qolishi mumkinligini aytdi.

— Bu qandoq gap bo'ldi?! — xitob qildi Roz.

— Bu gapni men aytayotgan bo'lsam ham, xonim, chippa-chin gap, — javob qildi qiz. — Keyin Monks menga tanish, lekin sizga begona haqoratlarni qatorlashtirib, adovat-u nafratini qondirdi, bolani o'z jonini tahlikaga qo'ymay gumdon qilishning iloji bo'lsa, allaqachon shunday qilgan bo'lishini aytdi; lekin buning iloji yo'qligi tufayli o'zining sergak yurishini, uning qismati ko'ndalang qiladigan bevafoqliklarni kuzatib borishini, innaykeyin, uning kelib chiqishi va hayotidan xabardor ekanligi — bu o'zining qo'li baland degan gap ekanini va balkim bolaga biron ziyon yetkazishga muvaffaq bo'lishi mumkinligini valdiradi. «Qisqa qilib aytganda, Fedjin, — dedi u, — siz juhud bo'lsangiz ham, hech qachon men inijonim Oliyerga qo'yganimdaga tuzoq qo'ymagansiz».

— Inim! — dedi Roz yuragi qinidan chiqqudek bo'lib.

— Uning og'zidan chiqqan so'z bu, — dedi Nensi, hadik bilan atrofga alanglab olarkan; sirasini aytganda, u so'zlayotganida deyarli muttasil ana shunday cho'chinqirab alanglab qo'yardi, negaki uni Sayksning timsoli muttasil ta'qib etib turardi. — Lekin bu hammasiyamas hali. Siz to'g'ringizda, keyin boshqa xonim to'g'risida gap ochganida dediki, xudoning o'zi yoki iblis unga qasdma-qasdlikka shunday qilganmishki, Oliver sizlarning qo'lingizga tushib qolganmish, bu shundoqqina ko'rinib turganmish. Shunda u xoxolab kuldida, hatto shunisigayam xursandmish, negaki, agar bisotingizda bo'lsa ikki oyoqli itvachchangizning kimligini bilish uchun ming-minglab va yuzlab funtlarni bergan bo'larmishsiz.

— Nahotki shularning barini jiddiy gapirgan bo'lsa? — deb so'radi Roz rangi pag'a bo'lib.

— U haddan tashqari qat'iy va g'azab bilan gapirdi, — deya javob berdi qiz boshini sarak-sarak qilganicha. — Nafrati qaynab, g'azabi qo'zib turganida u hazillashmaydi sira. Bundan ming karra yomonroq ishlarni qiladigan ko'plarni bilaman, Monksning gapini bir marta eshitgandan, ana o'shalarning gapiga o'n martalab quloq solgan

yaxshiroq. Vaqt ham allamahol bo'lib ketdi, nima ish bilan chiqib ketganimni payqab qolmaslaridan uyga yetib olishim kerak, ha, tezroq uyga yetib olishim zarur.

— Lekin men nima ham qila olardim? — so'radi Roz. — Bu xabardan sizsiz nima naf chiqara olaman? Uyga yetib olishim kerak deysizmi? Nega endi shunday dahshat bilan ta'riflab bergan o'sha oshnalaringizning yoniga qaytgingiz kelib qoldi? Agar shu topdayoq qo'shni xonadagi jentlmenni chaqirsam-u, o'sha kishiga bu gaplaringizni so'zlab bersangiz, yarim soat o'tmayoq, qarabsizki, sizni birorta bexavotir yerga joylashtirib qo'yishadi-da.

— Yo'q, qayta qolay, — dedi qiz. — Qaytishim zarur, nimagaki... sizday pokiza xonimga buni qanday aytamikin-a?.. Nimagaki, sizga hikoya qilib bergan kishilarim orasida bittasi, hech narsadan tap tortmaydigan eng ashaddiysi bor, ana o'shani tashlab ketolmayman; ha, hatto hozirgi turmush tarzimdanda qutulib olish evaziga ham tashlab ketolmayman uni.

— Ilgariroq bu yoqimtoy bolaning yonini olganingiz, — dedi Roz, — nihoyatda xatarli ekaniga qaramay, eshitgan narsangizni menga yetkazish uchun bu yerga kelganingiz, aytayotgan so'zlaringizning to'g'riligiga meni ishontira olgan samimiy qiyofangiz, ochiqchasi-ga pushmon yeyayotganingiz va xijolat chekayotganingiz — bularning bari sizning hali tuzalib ketish qo'lingizdan kelajagiga ishonishga majbur etyapti. O, — deya xitob qildi ko'ngilchan qiz qo'llarini chalishtirib, jo'shib, ko'zlaridan esa yosh yumalab, — sizga rahmi kelib, hammadlik bilan murojaat qilayotgan birinchi ayolning — ha, birinchi, bunga imonim komil! — iltijosisiga quloq soling. Gapimga kiring, kelajak ezgu kunlar uchun sizni qutqarib qolishimga imkon bering!

— Xonim, — nido soldi qiz tiz cho'kib, — mehribon, farishtaday saxovatli oyim qizginam! Ha, meni bunday so'zlar bilan baxtiyor etgan birinchi ayol sizsiz. Agarda bu so'zlarni bir necha yil burun eshitganimda edi, unda meni gunoh va g'am-g'ussaga eltuvchi yo'ldan qaytargan bo'larmidi. Lekin hozir vaqt o'tgan, ha, endi judayam kech.

— Tavba qilish va gunohlarni yuvish hech qachon kech bo'lmaydi, — dedi Roz.

— Vaqt o'tgan! — qichqirib yubordi qalban iztirob chekayotgan qiz. — Endi uni tashlab ketolmayman. Uning joniga zomin, o'limiga sababchi bo'lgim yo'q.

— Nega endi siz sababchi bo'larkansiz? — so'radi Roz.

— Unda hech nima qutqarib qololmasdi uni! — dedi qiz qizishib. — Bordi-yu sizga gapirib berganlarimni boshqalarga so'zlab berganimda bormi, hammani qo'lga olishardi, turgan gapki, u o'limdan qochib qutulolmasdi. U oralarida eng dovyuragi, innaykeyin, eng berahmi.

— Shunaqasiyam bo'larkanmi, — ovozini ko'tardi Roz, — shundoq odamni deb kelajakka bo'lgan orzu-umidlaringizdan, gunoh-u jinoyatlardan tezgina forig' bo'lishdek shak-shubhasiz imkoniyatdan voz kechib o'tiribsiz-a. Aqlsizlik-ku bu!

— Nima bu, bilmadim, — javob qaytardi qiz. — Faqat bir narsani bilaman, xuddi shundoq bo'lib kelgan va yolg'iz mengina emas, menga o'xshagan yuzlab fahsh yo'lga kirgan notavonlarning yozmishi shunday bo'lib qolaveradi. Men qaytishim kerak. Bilmadim, qilgan yomonliklarim uchun Xudo buyurgan jazomi bu, ishqilib, chekkak shuncha azoblarim-u yegan kaltaklarimga qaramay, uning yoniga qaytgim kelyapti. Keyin, hatto ajalim o'shaning qo'lida ekanini bilgan taqdirimdayam, bari bir oyog'im o'shoqqa tortaverishi tayin edi.

— Endi nima qildim-a? — dedi Roz. — Sizni qo'yib yubormasligim kerak.

— Ruxsat berishingiz kerak, oyimqiz! Qo'yib yuborasiz meni, buni bilib turibman, — e'tiroz bildirdi qiz tizzalagan joyidan qo'zg'alar ekan. — Ketishimga to'sqinlik qilmaysiz, chunki ko'ngilchanligingizga ishonib, sizdan hech qanday so'z berishingizni talab qilmadim; shunday qilsam bo'lardi-ku, axir.

Unda siz keltirgan xabardan nima foyda chiqdi? — dedi Roz. — Bu sirni fosh etish zarur, yo'qsa o'zingiz yordam qilmoqchi bo'lgan Oliverga menga aytganlaringizning nima nafi tegadi?

— Tanishlaringiz orasida hammasiga quloq solib, sirni ochmay turib, sizga nima qilish kerakligini maslahat beradigan bironta himmatli jentlmen topilib qolar, albatta, — dedi qiz.

— Mabodo zarurati chiqib qolsa sizni qayerdan topaman? — so'radi Roz. — O'sha razillarning qayerda turishlarini bilishni sira-sira istamayman, lekin siz shu bugundan e'tiboran ma'lum vaqtda biron yerda sayr qilganday aylanib yurolmaysizmi?

— Menga bu sirni qattiq asrayman va yolg'iz o'zim yoki sirni ishongan odamim bilangina birga boraman, deb so'z berasizmi? Meni izimga tushmasliklari yoki kuzatmasliklariga va'da berasizmi? — so'radi qiz.

— Qat'iy so'z beraman, — javob qildi Roz.

— Har yakshanba kechasi soat o'n birda, — dedi qiz zarracha ikkilanmay, — agar tirik bo'lsam, London ko'prigida u yoq-bu yoqqa yurib turaman.

— Yana bir lahzagina sabr qiling! — xitob qildi Roz, qiz tezgina eshikka qarab yo'nalar ekan. — O'z shaxsiy qismatingiz va uni o'zgartish imkoniyati ustida yana bir marta o'ylab ko'ring. Men sizning oldingizda o'z ixtiyoringiz bilan bu xabarni yetkazganingiz uchungina emas, deyarli halokat botqog'iga botib ketgan ayol bo'lganligingiz

uchun ham qarzdorman. Nahotki siz bir og'iz so'z halokatdan qutqarib qoladigan bir paytda o'sha talonchilar to'dasi va o'sha odamning yoniga qaytsangiz? Sizni orqaga qaytishga va o'zingizni yovuzlik hamda buzuqlik domiga urishga majbur qilayotgan qandaqangi vasvasa bo'ldi? O, nahot qalbingizda men cherta oladigan birorta tor bo'lmasa? Nahot ko'makka chaqirib, bu bosh-ko'zingizni kishanlab olgan dahshatli joduni yenga oladigan hech nima qolmagan bo'lsa vujudingizda?

— Sizga o'xshagan shunday yosh, go'zal va oqko'ngil xonimlar qalblarini birovga baxsh etarkanlar, — dedi qiz puxta qilib, — muhabbat ularni istagan ko'yiga soladi... hatto sizga o'xshagan o'z boshpanasi, do'stlari, xushtorlari — xullasi, turmushi bekami-ko'st o'tishi uchun jamiki zarur narsasi muhayyo xonimlarni ham. Tobut qopqog'idan bo'lak ishonchli boshpanasi, og'rib-netib qolgan yoki vafot etganida kasalxona enagasidan boshqa koriga yaraydigan birorta ham yor-jo'rasi yo'q menga o'xshaganlar o'zlarining fosiq qalblarini biror erkakka tuhfa qilib, butun musibatli hayoti davomida hech zog' band etmagan joyni egallashga yo'l qo'yib beradigan bo'lsak, biz sho'ring qurg'urlarni bunday darddan xalos etishga kim ham umid bog'lay oladi? Rahmingiz kelsin bizday baxtiqarolarga! Ayol zotiga mansub jamiki tuyg'u-yu fazilatlaridan bizdaqangilarda bittaginasi saqlanib qolgan, sirasini aytganda, bu ham orom-u faxrlanish o'rniga yangidan-yangi zo'ravonlik va azob-uqubatlarga duchor qiladi, ana shuning uchun ham shafqat qiling biz sho'rpeshonalarga.

— Loaqal yanagi uchrashgunimizcha halol kun kechirib turishingizga yetgulik ozroqqina pul bersam maylimi, olasizmi uni? — picha sukutdan keyin dedi Roz.

— Bir penniniyam!— javob qildi qiz qo'lini silkib.

— Qo'ying, bunaqangi oyoq tirab turib olmang, yordamga cho'zgan qo'limni hadeb qaytaravermang! — muloyimgina dedi Roz unga yaqinlashar ekan. — Sizga chin yurakdan yordam bermoqchiman.

— Shu yerning o'zidayoq jonimni sug'urib ololganingizda edi, menga bergan eng yaxshi yordamingiz bo'lardi bu, oyimqiz, — javob qaytardi qiz kuyib-yonib, — chunki bugun har qachongidan ko'ra achchiqroq musibatni totib ko'rdim; o'zim kimman-u nimaman, deb rosa bosh qotirdim; o'lsam ham o'sha yashab turgan jahannamda emas, bo'lak joyda o'lganim maqbulroqqa o'xshaydi. Iloyo o'zi yarlaqasin sizni, mehribon xonimginam, men o'z boshimga qanchalik sharmisorlik yog'dirgan bo'lsam, sizga o'shanchalik baxt ato qilsin Tangri taolo!

Shu so'zlarni deb, sho'rpeshona qiz ho'ngrab yig'lagancha chiqib ketdi. Ushbu o'ngida bo'lgan voqeyi hodisadan ko'ra ko'proq bir zumlik tushga o'xshashroq antiqa uchrashuvdan ezilib ketgan Roz Meyli esa yumshoq kursiga cho'kib, parokanda fikr-o'ylarini ipga tizishga urindi.

---

---

**XLI BOB. YANGI KASHFIYOTLARDAN HIKOYA QILADI  
VA TASODIF HAM XUDDI FALOKATGA O'XSHAB  
QO'SHA-QO'SHALAB KELISHINI NAMOYISH ETADI**

Chindan ham qiz tang-u tanqis hamda mushkul ahvolga tushib qolgandi. U vujudini chulg'agan betizgin, yengib bo'lmas mayl-u ish-tiyoq-la Oliverni qurshagan sirdan voqif bo'lish istagida yonar, ayni vaqtda esa, hozirgina suhbatlashgani baxtiqaro ayol o'ziga — yosh-gina va pokiza zotga — ishongan maxfiy xabarni muqaddas bilmay iloji yo'q edi. Uning so'zlari, qiyofasi miss Meylining ko'nglini bu-zib yubordi; yosh asrandasi — shogirdiga bo'lgan mehri ustiga endi bu tahqirlangan ayolni tavba-tazarru va umid yo'lga burishdek xuddi o'shanday samimiy hamda qaynoq tilak qo'shilgan edi.

Ular Londonda bor-yo'g'i uch kungina turishmoqchi, keyin bir necha haftaga sohil bo'yidagi biror ovloq joyga ketishmoqchi edi. Hozir poytaxtga kelganlarining dastlabki kuni, yarim tun pallasi edi. Qolgan qirq sakkiz soat ichida o'ylagan rejasini qay yo'l bilan amal-ga oshirsin ekan? Yoki safarlarini qanday qilib shubha tug'dirmay ke-yinga sursin ekan?

Mister Losbern ham kelgandi, u yana ikki kun bo'lishi kerak bu yerda; biroq Roz ushbu ajoyib jentlmenning shoshqaloq, tez odam-ligini juda yaxshi bilardi. Oliverni o'g'irlab ketishga ikkinchi bora urinayotganlarini aytsa-yu, mabodo anavi qizning himoyasi uchun u keltirgan dalil-u isbotlarni biron tajribaliroq odam quvvatlab tur-masa, doktorning g'azabdan jazavasi tutib povillab ketishini ham yaqqol ko'z oldiga keltirardi, shu boisdan hozircha bu sirni ishonib bo'lmasdi unga. Xullasi, nihoyatda ehtiyotkorlik va hushyorlik-la ish tutishga asoslari yetarli edi. Bordi-yu, missis Meylini bu ish-dan xabardor etilgudek bo'lsa, u darhol muhtaram doktorga masla-hat solishni ixtiyor qiladi. Adliya maslahatchisiga kelganda esa — hatto unga qanday murojaat qilishni hilgani taqdirda ham — yana boyagi sabablarga ko'ra, buni xayoliga keltirmasa ham bo'ladi. Yo-diga Garridan yordam so'rash fikri kelib qoldi, biroq bu ko'z ol-dida oxirgi uchrashuvlari haqdagi xotirani jonlantirdi va nazdi-da o'sha manzarani takrorlash nomunosibday tuyuldi; balki yigit — xayolidan shu o'y kecharkan, ko'zlarida yosh yiltiradi — uni o'ylamaslikka, undan olisroqda o'zini baxtiyor his etishga ko'nikib ketgandir.

Roz ana shunday o'y-mulohazalarning hayajonli tazyiqi ostida, barcha dalil-u isbotlarni bir-bir fikr elagidan o'tkazgancha, goh bir yo'lni tutishga moyil bo'lib, goh boshqasiga ko'chib va yana jami-kisini yig'ishtirib qo'yib, butun tunni talvasada bedor o'tkazdi. Er-tasiga tag'in bosh qotirib ko'rib, noumidlikka tusharkan, Garriga murojaat etishga ahd qildi.

«Agar bu yerga kelish uning uchun og'ir bo'lsa, — o'yladi qiz, — menga qanchalik azob beradi bu! Ehtimol kelmas u; xat yo-zib yuborishi yoki kelsa ham men bilan uchrashishdan o'zini olib qochishi mumkin — ketayotganida xuddi shunday qilgandi-ku. Bunday qiladi deb o'ylamagandim sira, lekin ikkovimiz uchun ham yaxshi bo'lgandi qaytaga». O'ylari shu yerga yetganda Roz patqalamni qo'lidan tushirib yubordi va hatto o'zining xabarchi chopari bo'lajak qog'oz ko'z yoshlarim shohidi bo'lmasin degan-dek, burilib oldi.

Patqalamni u ellik martalab qo'lga olib, yana joyiga qo'yarkan, maktubning birinchi satri ustida qayta-qayta bosh qotirib, hali bi-ronta ham so'zni qog'ozga tushirolmay garangsib o'tirganida, mister Jayls muhofazasida ko'chalarni sayr qilib yurgan Oliver qo'qqisdan xonaga shunaqangi hovliqib, shunaqangi otilib kirib keldiki, bu hol-ni ko'rgan har qanday odamning, yana yangi falokat yuz beribdi-da, deb kapalagi uchib ketishi tayin edi.

— Ha, ha, nimaga hovliqib ketding? — so'radi Roz uning istiqboli sari o'rnidan turarkan.

— Nima desamikin... Nazarimda, hozir nafasim chiqmay bo'g'ilib qolaman, — javob berdi bola. — Ey xudoyim! Buni qarang-a, axiyri uni ko'radigan bo'ldim-a, siz bo'lsangiz rost gapirganimni ko'rasiz!

— Bunga hecham ikkilangan emasman, — dedi Roz uni tinchlantirib. — Lekin nima bo'ldi o'zi! Kimni aytyapsan?

— Anavi, anavi jentlmenni, menga judayam ko'p yaxshilik qilgan jentlmenni ko'rdim! — javob berdi Oliver arang tushunadigan qilib. — Mister Braunlou bor-ku, ko'p gaplashib turardik-ku u to'g'risida, o'shani!

— Qayerda? — so'radi Roz.

— Usti berk izvoshdan tushib, bitta uyga kirib ketdi! — javob qildi Oliver xursandligidan yig'lagancha. — U bilan gaplash-ganim yo'q, gaplasholmadim u bilan, nimaga desangiz, u meni ko'rmadi, men bo'lsam titrab ketganimdan yaqinigayam borol-madim. Lekin Jayls mening iltimosim bilan, u shu yerda turadimi, deb so'ragandi, ha, deyishibdi. Mana ko'ring, — dedi Oli-ver qog'oz parchasini yoyarkan, — manavi yerda, mana shu yer-da turarkan... Hoziroq boraman o'sha joyga!.. Ey xudoyim, xu-

doyim-a, uni yana ko'rganimda ovozini eshitganimda qay ahvolga tusharkinman-a!

Uzuq-yuluq hamda quvonchli gaplar e'tiborini chalg'itib turgan Roz qog'ozdagi turarjoy nomini o'qidi — Strenddagi Kreyvn-strit. U darhol ana shu uchrashuvdan foydalanishga qaror berdi.

— Tez bo'! — xitob qildi u. — Borib ayt, izvosh yollashsin. Men bilan birga borasan. Hoziroq, bir lahzaniyam o'tkazmay, o'shoqqa olib boraman seni. Bir soatga bir yoqqa borib kelamiz, deb xolamni ogohlantirib qo'yaman-u, men ham tayyor bo'laman ungacha.

Oliverni shoshirishning hojati yo'q edi, qisqasi, oradan besh daqiqa o'tmayoq ular Kreyvn-stritga qarab ketib borishardi.

U yerga yetib kelishgach, Roz go'yoki oldin kirib jentlmen-ni bola bilan uchrashishga hozirlash maqsadida, Oliverni izvosh-da qoldirib, ichkari kirdi-da, tashrif qog'ozini xizmatkorga tutqazib, oshig'ich ish yuzasidan mister Braunlougga uchrashmoqchi ekanini xabar qilishni so'radi. Xizmatkor tezda qaytib, qizni orqasidan tepaga chiqishga taklif qildi; miss Meyli unga ergashib tepa qavatdagi xonaga kirarkan, yuzi farishtali, shisharang frak kiygan kekxa jentlmenga ro'baro' bo'ldi. Undan xiyol nariroqda sariq tusli dag'al ip matodan tikilgan kalta ishton bilan qo'ng'lik kiygan boshqa bir kekxa jentlmen o'tirardi; uning qiyofasi unchalik muloym ko'rinmas va yo'g'on hassasining tutqasini tutamlagancha, iyagini tirab olgandi unga.

— Yo Rabbano! — dedi shisharang frak kiygan jentlmen shoshapisha o'rnidan qo'zg'alib, bag'oyat xushfe'llik bilan. — Ma'zur tutasiz, oyimqiz. Men bo'lsam haligidaqangi xirapashsha birorta xonim shekilli deb o'ylabman... afv etasiz kaminani. Marhamat, o'tiring.

— O'zlari mister Braunloular-a, shunday emasmi, ser? — so'radi Roz gap boshlagan jentlmenga yuzlanib.

— Ha, menman bu, — dedi kekxa jentlmen. — Bu kishi mening do'stim, mister Grimuig bo'ladi... Grimuig, bizni bir necha daqiqaga xoli qoldirolmaysizmi?

— Muhtaram jentlmenni urintirmasak ham bo'laveradi menimcha, — gapga aralashdi miss Meyli. — Agar yanglishmasam, bilishimcha, siz bilan so'zlashmoqchi bo'lgan ishdan bu kishi xabardorlar.

Mister Braunlou qulluq qildi. Takabburona ta'zim bilan o'rnidan turgan mister Grimuig yana bir karra mag'rurona ta'zim bajo keltirib, tag'in joyiga o'tirib oldi.

— Shubhasiz, gapimni eshitib juda hayron bo'larsiz-u, — deya gap boshladi Roz mutlaqo tushunarli tarzda xijolat tortib, — lekin

bir paytlar siz mening yosh do'stinga katta mehribonlik va muruvvat ko'rsatgan ekansiz, shuning uchun ham uning to'g'risida yana eshittish sizni qiziqtirishiga imonim komil.

— Shundoq deng! — dedi mister Braunlou.

— Siz uni Oliver Twist sifatida tanirdingiz, — qo'shib qo'ydi Roz.

Qizning lablaridan shu so'zlar uchgan zahoti go'yo o'zining butun diqqatini stoldagi kattakon kitob mahliyo etgan qilib ko'rsatib o'tirgan mister Grimuig kitobni shaloplatib pastga tushirib yubordi-da, o'zini kursi suyanchig'iga tashlab, baqrayib qizga qarab qoldi, ammo-lekin uning aftidan beadam-u behudud hayratdan bo'lak narsani o'qib bo'lmasdi; u uzoq va bema'no baqrayib turib qoldi, so'ng o'zining bunday yengiltakligidan xijolatga tushdi chog'i, darhol boyagi holatiga qaytdi va to'g'riga qaragancha, cho'ziq, bosinqi hushtak chalib qo'ydi, hushtagi havoga taralib ketmay, balki uning qorin xilvatxonalarida muallaq qotganday tuyuldi.

Mister Braunlou, garchi uning hayrati bunchalik antiqa qiyofada namoyon bo'lmagan esa-da, har qalay, undan kam taajjubga tushmadi. U tagidagi kursisini miss Meyliga yaqinroq surdi-da, dedi:

— Suluv oyimqiz, haraka topgur, mehr-shafqat hamda muruvvatdan og'iz ochmay qo'ya qoling: bu borada hech kim hech nima ni bilmaydi. Mabodo bir vaqtlar o'sha sho'rlik bola xususida menda tug'ilgan noxush fikrni o'zgartirishga qobil birorta dalil-isbot keltirish imkoniyatingiz bo'lsa, unda xudo haqqi, baham ko'ring buni men bilan.

— Yaramas bola! Agar shundoq bo'lmasa, o'zimni boshimni g'ajishga tayyorman, — g'o'ldirab qo'ydi mister Grimuig xuddi og'zini ochmay, ichida so'zlaganday, yuzidagi biror tuki ham qilt etmadi.

— Bu bola tabiatan ko'ngilchan, dili pok, — dedi Roz qizarib, — peshonasiga yoshiga nomunosib ko'rgiliklarni lozim topgan Tangri taolo uning ko'ksiga shunday tuyg'u va shunday sadoqatni jo qilgankim, bu fazilatlar undan ko'ra olti baravar kattaroq talaygina odamlarning izzat-hurmatini ko'kka ko'tarib yuborgan bo'lardi.

— Men endi oltmish birga qadam qo'ydim, — dedi mister Grimuig hamon boyaginday bezrayganicha. — Basharti iblisning o'zi ishga aralashmagan bo'lsa, Oliverning yoshi o'n ikkidan kam emas... Shundoq bo'lgach, kimni nazarda tutyapsiz, bilolmay qoldim?

— Parvo qilmang do'stimning gapiga, miss Meyli, — dedi mister Braunlou, — u bunday demoqchimasdi.

— Yo'q, xuddi shundoq, — to'ng'illadi mister Grimuig.

— Bekor aytibsiz, undok emas, — dedi mister Braunlou, oshkora jahli chiqqa boshlab.

— Agar shundoq demoqchi bo'lmagan bo'lsa, u o'z boshini g'ajishga ham tayyor, — to'ng'illadi mister Grimuig.

— Undoq bo'lsa, kallasi tanasidan judo qilishga juda bop-da o'zi, jazosi shu uni, — dedi mister Braunlou.

— Koshkiydi u bunga qo'l urishga jur'at etadigan o'sha botirni bir ko'rib qo'ysa, — javob qaytardi mister Grimuig hassasi bilan yerni do'qillatib.

Dahanaki jang bahsida janggoh sari shunchalik ichkarilab ketgan ikkala kekxa jentlmen bir chimdim-bir chimdim tamakidan iskashdi-da, keyin o'zgarma odatlarini ado etish uchun bir-birovlari bilan qo'l olishishdi.

— Shunday qilib, miss Meyli, — dedi mister Braunlou, — sizning saxovatli qalbingizni shunchalar iydirdigan narsaga qaytamiz. O'sha bechora bolakay haqida menga bironta xabarni yetkazmoqchimidingiz? Ijzatingiz bilan oldindan aytib qo'yay, uni izlab topish yo'lida izmi-ixtiyorimda bo'lgan jamiki chora-vositalarni ishlatib bo'lganman va Angliyani tark etganimdan beriga go'yoki, u meni laqillatib ketdi, ilgari oshnalari bisotimni o'g'irlashga ko'ndirishgan, degan dastlabki fikrim ma'lum darajada zil ketgan.

Bu orada fikrlarini jamlab ulgurgan Roz shu zahotiyoy jo'ngina va qisqagina qilib, mister Braunlouning uyidan chiqqan damdan beri Oliverning boshidan kechgan hangomalarni (keyinroq o'ziga xoli aytarman degan maqsadda Nensi yetkazganini gapirmay) so'zlab berdi; u o'z hikoyasini Oliverning so'nggi bir necha oy mobaynida ilgari valine'mati hamda do'sti bilan uchrashish imkoniyati bo'lmayotganidan xafa yurgani, uning bundan bo'lak ezgu tilagi yo'q ekaniga ishontirishga urinish bilan yakunladi.

— Xudoga shukr! — suyunib ketdi kekxa jentlmen. — Bu men uchun bir olam, ha, olamjahon quvonch! Illo, miss Meyli, u hozir qayerda ekanini aytmadingiz-ku? Mabodo ta'na bo'lib tuyulsa ma'zur tutasiz-u... nega endi uni birga ola kelmadingiz?

— U tashqarida izvoshda kutib turibdi, — javob berdi Roz.

— Mening eshigim tagida-ya! — dedi kekxa jentlmen hayajonda.

Ortiq hech nima demay, chopganicha xonadan chiqib, zinadan pastga bamisoli uchib tushdi, yugurganicha izvosh yoniga yetib borib, o'zini uning ichiga urdi.

Eshik uning ketidan qarsillab berkilganda mister Grimuig boshini ko'tardi-da, kursining bir oyog'ini tayanch nuqtasi qilib, o'rnidan turmay, stolni ushlab va hassasi yordamida uch marta doira yasab aylandi. Ana shunday mashqni bajargach, u oqsoqlanganicha uddasidan chiqqan tezlikda xonada o'n bora u yoqdan-bu yoqqa borib kel-

di, keyin to'satdan Roz qarshisida to'xtadi-yu, he yo'q, be yo'q, qizni o'pib oldi.

— Jim! — dedi u yosh xonim bu antiqa qilg'iliqdan salgina cho'chinqirab o'rnidan xiyol ko'tarilayotganini ko'rib. — Cho'chimang. Men kekxa, bobongiz tengi odamman. Siz juda ajoyib, yaxshi qiz ekansiz. Menga yoqyapsiz... Mana, ular ham kelishdi!

Darhaqiqat, u ilgari joyini egallab ulgurmasidan mister Braunlou Oliverni boshlab kirib keldi; mister Grimuig bolani bag'oyat muloyimlik bilan qarshi oldi; basharti bu baxtiyor on Oliverni deb chekkan barcha tashvishlari-yu qilgan g'amxo'rliklari evaziga berilgan mukofot o'rniga o'tgudek bo'lsa, Roz Meylini saxiylik-la taqdirlangan sanash mumkin edi.

— Darvoqe, yana bir kimsa borki, uni yoddan chiqarmaslik lozim, — dedi mister Braunlou qo'ng'iroqni chalar ekan. — Marhamat qilib, missis Beduinni bu yoqqa aytib yuborsangiz.

Kekxa ro'zg'orboshi shu zamonAQ yetib keldi-yu, ostonadan o'tiboq, ta'zim bajo keltirib, buyruqni kuta boshladi.

— Kundan-kunga ko'zingiz xiralashib boryapti-da, Beduin, — dedi mister Braunlou birozgina qizishib.

— Haqiqatan ham ko'zim xira tortib boryapti, ser, — javob qaytardi kampir. — Mening yoshimda ko'z yil o'tishi bilan o'tkirlashmas ekan, ser.

— O'zim ham sizdan qolishmayman bilsangiz, — dedi mister Braunlou, — lekiniga ko'zoynagingizni taqib, bu yoqqa bir qarangchi... Sizni nimaga chaqirtirganimizning boisini anglab qolarsiz balki.

Kekxa xonim cho'ntagini timirskilab ko'zoynagini qidira boshladi. Biroq Oliverning toqati bu yangi sinovga bardosh berolmadi, o'zini tutib turolmay, kampirning quchog'iga otildi.

— Voy xudoyim-a! — dedi kekxa xonim bolani bag'riga bosganicha. — Axir bu o'zimning norasta, begunoh bolaginam-ku!

— Mehribon enagajonginam! — qichqirib yuborayozdi Oliver.

— Mana u qaytib keldi — kelishini bilardim o'zim ham! — nido soldi kekxa xonim uni bag'ridan bo'shatmay. — Aft-angori tuppa-tuzuk, kiyimiyam xuddi jentlmenlarning o'g'illarini kiday. Shuncha vaqtdan beri qayoqdayding? O'rgilib ketay, yuzlari o'sha-o'sha yoqimtoygina, lekin unaqangi rangi bir holatdama, ko'zlariyam o'sha-o'sha muloyim, u paytdagidaqa g'amginmas. Bu ko'zlarni, yoqimtoy kulgisini sira-sira unutganim yo'q; sho'x-shodon yoshlik chog'larimda o'lib ketgan aziz bolajonlarim qavatida har kuni ko'rib turardim buginani.

Betnim so'zlagancha, Oliverni bo'yi o'sib qolibdimi deb dam o'zidan uzoqlashtirib, dam yana bag'riga bosib, erkalatib sochlarini barmoqlari bilan taragan ko'yi mehri daryo kampir boshini bolaning kiftiga qo'yib ham kular, ham yig'lardi.

Mister Braunlou kampir bilan Oliverni o'z taassurotlaridan gaplashib bir dardlashib olishsin deb xoli qoldirib, Rozni boshqa xonaga boshlab chiqdi va o'sha yerda qizning Nensi bilan bo'lgan uchrashuvi haqidagi hikoyasini batafsil eshitib, zo'r taajjub hamda sarosima iskanjasida qoldi. Shuningdek, Roz o'z do'sti mister Losbern-ga avvalo nima sababdan ushbu sirni inonmaganini ham tushuntirdi. Keksa jentlmen uning bu qilmishini oqilona deb topdi va muhtaram doktor bilan shaxsan o'zi ushbu borada majlis qurishga bajonidil rozilik berdi. Mazkur rejani tezroq amalga oshirish imkonini berish uchun keksa jentlmen mehmonxonaga kechqurun soat to'qqizda boradigan, ungacha esa miss Meylini yotig'i bilan sodir bo'lgan jamiki gapdan xabardor etib turishadigan bo'ldi. Ana shunday kelishib olingach, Roz bilan Oliver mehmonxonaga qaytishdi.

Roz oqko'ngil doktorning qandayin darg'azab bo'lishini oldindan tasavvur etishda xato qilmagandi. Nensi hangomasini aytib berganlari zahoti u shunchalik tutaqib ketib, shunaqangi po'pisa-yu ko'yishlarni qalashtirib tashladiki, asti qo'yaverasiz; uni birinchi bo'lib mister Bleters va mister Dafflarning ziyrak aqlari qurboni etganim bo'lsin, deb dag'dag'a qildi; hatto o'sha hurmatli zotlardan ko'mak so'ragani taraddudlanib, shlyapasini kiydi ham. Shubhasiz, jahl-u g'azab ustida u (biron soniya oqibati qanday bo'lajagini o'ylab ham turmay) darhol ushbu niyatini amalga oshirardiyam, lekin xuddi o'shanday jizzaki mister Braunlouning qiziqqonligi, shuningdek, uni bemulohaza ish tutishdan qaytarish uchun o'rinli bo'lib tuyulgan dalil-u e'tirozlar to'xtatib qoldi.

— Jin ursin, nima qilish kerak unda? — deb so'radi tinib-tinchi-mas doktor ular ikkala xonim yoniga qaytishgach. — Erkag-u ayol jinsidan bo'lgan o'sha jamiki muttaham sayoqlarga minnatdorchilik bildirib, Oliverga ko'rsatgan mehribonchiliklari uchun ularga bo'lgan izzat-ehtiromimizning kamtarona ramzi sifatida har bittalariga taxminan yuz funtdan mukofot taklif etib, taklifimizni rad qilmasliklarini iltijo etmasmiz axir?

— Aslo unday qilmaymiz, — dedi mister Braunlou kulib, — loकिन biz ehtiyotkorlik bilan, g'oyatda oqilona ish tutishimiz lozim.

— Ehtiyotkorlik va oqillik deng! — dedi doktor jazavasi tutib. Menga qolsa bittalarigacha qo'ymay jamikilarini...

— Qayoqqa jo'natishingizning ahamiyati yo'q! — uning gapini bo'ldi mister Braunlou. — Lokigin o'zingiz mulohaza qilib ko'ring:

ularni biron yoqqa jo'natadigan bo'lsak, maqsadimizga yeta olamizmi?

— Qanaqa maqsad? — so'radi doktor.

— Oliverning nasl-nasabini bilish va agarda bu gap rost bo'lsa, firibgarlik bilan mahrum qilishgan merosini unga qaytarib olib berish.

— Shundoq deng! — dedi mister Losbern dastro'molini silkib. — Bu mutlaqo yodimdan ko'tarilib ketibdi-ku.

— Innaykeyin, — gapini davom ettirdi mister Braunlou, — boringki bu bechora qizni hisobga qo'shmay, unga ziyon-zahmat yetkazmay turib, o'sha ablahlarni sudga bersa bo'ladi-ku, deb faraz ham qilaylik, xo'sh, unda nimaga erishamiz?

— Aqalli bir nechmalarini osishardi, — deb qo'ydi doktor, — qolganlarini bo'lsa badarg'a qilishardi.

— Juda soz! — kulib javob berdi mister Braunlou. — Lokigin hech shubha yo'qki, vaqti-soati yetib dor ostiga o'z oyoqlari bilan boradilar; bordi-yu biz bunga aralashadigan va ularni ogohlantirib qo'yadigan bo'lsak, nazdimda, o'z manfaatimizga hech bo'lmaganda Oliverning manfaatiga zid, don Kixotcha ish tutib, qosh qo'yaman deb ko'z chiqarib qo'yishimiz hech gapmasga o'xshaydi.

— Qanaqasiga? — so'radi doktor.

— Mana bunaqasiga. Kunday ravshan ko'rinib turibdiki, sirni bilib olishga urinib, bordi-yu anavi odamni — Monksni tiz cho'ktirishga muvaffaq bo'lolmasak, biz nihoyatda katta qiyinchiliklarga duch kelamiz. Bunga esa faqat hiyla bilan erishish mumkin; atrofida sheriklari yo'q, tanho paytida qo'lga tushirish kerak uni. Mabodo hibsga olishlariga yo'l qo'yib, bunga imkon yaratib beradigan bo'lsak, unga qarshi hech qanaqangi dalilimiz yo'q qo'limizda. U hatto (bizga ma'lum bo'lishicha yoki ushbu ishning shart-sharoitini tasavvur qilishimizcha) bu qaroqchilar bilan bironta talonchilikka qatnashmagan. Hatto uni oqlab yubormagan chog'larida ham, nari borganda uni qallohlik va darbadarlikda ayblab, qamoqqa hukm etadilar; ana unda, shaksiz, biz uchun bu Monksdan bir umrga judo bo'ldik degan gap, keyin undan birorta telbadan, buning ustiga gung, kar, so'qir bir odamdan chiqadigan bema'ni gapdan ko'ra bama'niroq gap ololmaysan.

— Undoq bo'lsa, — dedi doktor qizishib, — qani ayting-chi, siz o'sha qizga berilgan va'da bilan hammamizni qo'l-oyog'imiz tushovlangan deb o'ylaysizmi? To'g'ri, yaxshi, ezgu niyatda so'z berilgan, ammo ochig'iga ko'chganda...

— O'tinaman, qo'rqmang, azizam, oyimqizginam, — dedi mister Braunlou so'zlamogchi bo'lib og'iz juftlagan Rozning gapini og'zidan

olib. — Va'dangiz buzilmaydi. Bu hol ishimizga tirnoqchalik xalal bermaydi, deb o'ylayman. Lokigin biron aniq chora-tadbirni tanlashdan burun, albatta o'sha qiz bilan uchrashishimiz va undan Monks-ni bizga ko'rsatib bera olish-olmasligini bilishimiz zarur; turgan gapki, Monks odil sudlov hakamlari bilan emas, biz bilan muomalada bo'ladi, degan shart qo'yib. Mabodo qiz buni yo xohlamasa, yo ud-dalayolmasa, u chog'da qaysi fahshxona-yu o'g'rixonalarga qatnab turishini aytib, turqini tasvirlab bersin, bir ko'rganda tanib olaylik o'sha muttahamni, ana shunga erishishimiz kerak. U bilan yakshanba oqshomidan oldin uchrashishning iloji yo'q ekan, bugun esa seshanba. Men shunday maslahat berardimki, o'zlaringizni bosib ol-sanglar va bu ishni hatto Oliverning o'zidan ham sir tutsanglar.

Mister Losbern ishni butun boshli besh kun keyinga surishni talab etuvchi ushbu taklifni garchi aftini bujmaytirib eshitgan bo'lsa-da, ayni damda biror tuzuk-quruqroq rejani topolmaganini beixtiyor tan olishga majbur bo'ldi. Shunday qilib, Roz bilan missis Meyli mister Braunlouni qattiq quvvatlayotganlari boisidan esa mazkur jentlmen-ni taklifi bir ovozdan qabul qilindi.

— Menga qolsa, — dedi u, — do'stim Grimuigdan ko'mak so'rasak degandim. O'zi g'alatirog'-u, lokigin ziyrak, farosatli odam, katta yordami tegishi mumkin bizga; shuni aytib qo'yayki, o'zi hu-quq-adliya ma'lumotini olgan va oqlovchilik faoliyatidan nafrat-la bo'yin tovlagan. O'ziyam yigirma yil mobaynida atigi bittagina ish topshirilgandi unga, lokigin bu tavsianoma o'rniga o'tadimi yoki yo'qmi — o'zinglar hal qilinglar.

— Agarda menga o'z do'stinga murojaat etishimga ruxsat eta-digan bo'lishsa, sizning ham do'stingizdan ko'mak so'rashingizga qarshi emasman, — dedi doktor.

— Buni ko'pchilik ovoz bilan hal qilishimiz lozim, — javob berdi mister Braunlou. — Kim u?

— Manavi xonimning o'g'li... bu navqiron xonimning esa eski do'sti, — dedi missis Meyliga ishora qilib, keyin esa uning jiyaniga ma'nodor nigoh tashlab qo'yar ekan.

Roz lolamisol qizarib ketdi-yu, lekin bu taklifga lom-mim deya e'tiroz bildirmadi (ehtimol, albatta yakkalanib qolishini fahmlagandir) va oqibatda Garri Meyli bilan mister Grimuig qo'mitaga kiritildilar.

— Shubhasiz, toki ushbu tekshiruvni muvaffaqiyatli davom et-tirishga zig'irdakkina umid bor ekan, biz shaharda qolamiz. Men hammamizni shunchalik qiziqtirayotgan maqsad yo'lida hech qanaqangi tashvish-u urinishlardan, har qancha sarf-u xarajatdan qochmayman; innaykeyin, agar umid hali puchga chiqmaganiga ishontira olsanglar bu yerda bir yil turishga ham tayyorman.

— Juda soz! — gapni ilib ketdi mister Braunlou. — Atrofimni qurshab turganlarning chehralaridan dillarida Oliverning hiko-  
yasini tasdiqlash uchun kaminani uyimdan topa olmaganlari va  
mening bunday qo'qqisdan mamlakatdan jo'nab ketganim sababi-  
ni so'ramoqchi ekanliklarini payqab turibman. Bunga tayyorman-u,  
lokigin bitta shartim bor: toki shaxsiy hayotimni hikoya qilarkan-  
man, maqsadga muvofiq topmagan narsalarimni so'rab surishtirib,  
hech qanaqangi savol bermaysizlar. Ishoninglar, bunday iltimos  
qilish uchun jiddiy asoslarim bor, zotan men, aks holda, shundoq  
ham yetarlicha bisyor bo'lgan mushkulliklar hamda noumidliklar-  
ni ko'paytirib, ro'yobga chiqmaydigan orzularni uyg'otishim mum-  
kin. Yuringlar! Kechlik ovqat tayyor ekanini xabar qilishdi; allaqa-  
chon; keyin, qo'shni xonada yolg'iz o'zi sho'ppayib o'tirgan Oliver  
yana tag'in, ularning joniga tegibman, mendan qutulish uchun ham-  
malari til biriktirib olishibdi-da, deb o'ylamasin.

Kexsa jentlmen shunday deya missis Meyliga qo'lini tutdi-da, uni  
yemakxonaga boshladi. Rozni qo'ltiqlab olgan mister Losbern ularga  
ergashdi va shu bilan majlis yopildi.

---

---

**XLII BOB. OLIVERNING ESKI TANISHI YAQQOL DAHOLIK  
ALOMATLARINI NAMOIYISH ETGANI VA  
POYTXATDA MASHHUR ARBOB BO'LIB  
QOLGANI HAQIDA**

Nensi mister Sayksni uxlatib, o'z-o'zicha zimmasiga yuklagan vazifani ado etish uchun Roz Meyli huzuriga shoshilgan o'sha oqshom Katta shimol yo'lidan Londonga qarab yaqinlashib kelayotgan ikki kimsaga picha diqqat-e'tiborimizni ajratmog'imiz lozim hikoyatimizda. Bular erkak va ayol kishi edi — yoki erkak hamda ayol jinsidan bo'lmish kimsalar deb atasak to'g'riroqdir balki, negaki birinchisi yoshini aniq-tiniq aniqlash mushkul bo'lgan bo'ychan, maymoq, beo'xshov, qotma odamlar toifasidan edi: yosh bolaliklarida bundaylar chala bolaga, voyaga yetgach esa yoshiga nisbatan katta ko'rinadigan o'smirda o'xshab ketadilar. Ayol bo'lsa yoshgina, lekin durkun-baquvvat va chidamligina edi, chidamliligi esa shu topda orqalab olgan kattakon tugunining og'irligiga dosh berishida asqatayotgandi. Uning hamrohining deyarli yuki yo'q edi, zotan yigitchaning yelkasiga tashlab olgan tayog'ining uchginasida dastro'molga tugilgan, aftidan parday yengil mushtdakkina tuguncha likillab borardi. Bu hol, shuningdek, oyoqlarining haddan tashqari uzunligi yigitchaga sira jon koyitmay, goho-goho qayrilib qarab, namuncha imillaysan, tuzuk-roq g'ayrat qilsang-chi, deganday ta'naomuz boshini sarak-sarak qilib qo'yayotgani hamrohidan bir necha odim oldinroqda yurishiga imkon berardi.

Pochta aravalariga yo'l bo'shatib, o'zlarini marzaga olgan paytlaridagina atrofdagi narsalarga e'tibor berib, shu taxlit tuproq ko'chadan ilgarilab borishardi; Xayget darvozasidan o'tishganlaridan so'ng esa oldinda odimlayotgan sayohatchi to'xtab, besabrlik bilan hamrohiga o'shqirdi:

— Yura qolsang-chi! Nima balo, oyog'ing surgalib qolyaptimi? O'lgunday tanbalsan-da o'zingam, Sharlott!

— Yukim judayam og'irlik qilyapti, — dedi ayol unga yaqinlasharkan, toliqqanidan arang nafas olib.

— Og'irlik qilyaptimish! Nimalar deb valdirayapsan? — dedi o'spirin o'z yukini bir kiftidan ikkinchisiga olayotib. — Mana, tag'in dam olmoqchilar! Rostini aytganda, bilmadim, sendan boshqa shunaqangi birovni xit qilib yuboradigan odam bormikin bu olamda?!

— Hali uzoqmi? — so'radi ayol chekkadagi tuproq ko'tarmasiga suyanib, yigitga tikilgan ko'yi; yuzlaridan esa shovullab ter quyilardi.

— Uzoqmimish! yetib keldik desak ham bo'ladi, — dedi uzunoyoq yo'lovchi old tomonga ishora qilib. — Qaramaysanmi! Ana, London-ni chiroqlari ko'rinib turibdi.

— U yergacha kam deganda yana ikki milyadan ortiq yurish kerak-ku, — dedi ayol ma'yus.

— Ikki milyami yo yigirmami, boshni qotirmay yuraver, — dedi Noe Kleypol, zotan bu o'sha edi. — Yaxshisi, qaddingni rostlayu yo'lga tush, yo'qsa, oldindan aytib qo'yyapman, shundoq boplab tepib qolamanki!

Noening burni g'azabdan beshbattar qizarib ketgani va shu so'zlar bilan xuddi po'pisasini amalga oshirishga hozirlanayotganday yo'lni kesib o'tganini ko'rgan ayol ortiq gap sotib o'tirmay qaddini tiklab, yonma-yon ilgarilay boshladi.

— Kechasi qayerda tunamoqchisan, Noe? — deb so'radi u yana bir necha yuz qadam yurishganidan so'ng.

— Qayoqdan bilaman, — yuraverishdan avzoyi ayniy boshlagan Noe g'ijinib dedi.

— Biron yaqin-atrofdagi bo'lsa kerag-a, — deb qo'ydi Sharlott.

— Yo'q, yaqin-atrofdamas, — javob qildi mister Kleypol. — Eshit-yapsanmi? Yaqin-atrofdamas. Buni xayolinggayam keltirmay qo'ya qol!

— Nimaga endi yaqin-atrofdamas?

— Biron nimaga hushim yo'qligini aytdimmi senga, tamom-vasalom, nega, nimaga degan gaplarni yig'ishtirib qo'y, — dedi mister Kleypol viqor-la.

— Nimaga jahling chiqadi? — dedi hamrohi.

— Shundoq shahar chekkaginasidagi qovoqxonaga tushsag-u, orqamizdan qu-vib yo'lga tushgan bo'lsa, Sauerberi chol shundoq-qina kirib kelib, qo'limizga kishan ursa-yu aravaga solib orqaga qaytarib olib ketsa, soz ish bo'lardi, a, — dedi mister Kleypol istehzoli ohangda. — E-yo'q! Uzoqroqqa boraman, iloji boricha gadoy topmas jinko'chalarga urib ketaman, yo'limizda uchraydigan eng xarob qovoqxonaga tushaman. Omadli yulduzing bilan baxtli qismatingga shukrona o'qi, negaki yelkamdagi qovoq emas, kalla: agar men ay-yorlik qilib yo'lni chalkashtirmaganimda, dalalardan o'tib kelmaganimizda, siz, xonimcha, bir hafta burunroq qulf-kalit ostida o'tirgan bo'lardingiz! Qilmishingga yarasha jazo bo'lardi-ya bu, nimaga deganda ahmoqsan o'zi!

— Senga o'xshagan donishmand emasligimni o'zim ham bilaman, — javob berdi Sharlott, — lekin hamma aybni bunaqa menga yuklamay qo'ya qol, innaykeyin, qamoqda, o'tirarding, dema unaqa. Agar boshimga shunday savdo tushganida, turgan gapki, o'zingni ham tiqib qo'yishardi qamoqqa.

— Kassadan pulni sen olgansan, buni yaxshi bilasan, — dedi mister Kleypol.

— Pulni seni deb oldim-ku, azizim Noe, — e'tiroz bildirdi Sharlott.

— Xo'sh, men-chi, men qo'lingdan oldimmi uni? — so'radi mister Kleypol.

— Yo'q. Menga ishonning uni, o'zing olib yuraver deding, chunki sen shunaqangi yaxshi, shunaqangi ajoyib yigitsan-da, — dedi xonim yigitchaning iyagiga shapatilab qo'yib, qo'ltig'idan olarkan.

Bu ta'rif haqiqatga to'g'ri kelardi, biroq mister Kleypolning o'z ishonchini ko'r-ko'rona hamda o'ylamay-netmay birovga hadya etish odati yo'q edi; shu boisdan ham mazkur jentlmenga tan berib, ay-ni paytda shu narsani aytib o'tish lozimki, u Sharlottga faqat ma-bodo qo'lga tushgudek bo'lsalar, pul qizning yonidan chiqsin degan o'ydagina ishonib qo'ygandi; bu narsa o'zini o'g'rilikka hech qanday aloqam yo'q deyishiga va sekingina juftakni rostlab qolish umidini ro'yobga chiqarishiga imkon bergan bo'lardi. Hozirgi vaziyatda u, al-batta, o'zining bu vaj-korsonlarini tushuntirib o'tirmasligi tayin edi. Shuning uchun ham ular tinch-u inoqlik bilan yonma-yon yo'llariga ravona bo'ldilar.

O'zining oqilona rejasiga amal qilgan mister Kleypol to Izling-tondagi «Farishta»ga yetib borgunicha to'xtamay yo'l bosdi. Bu yerga yetgach esa, to'da-to'da o'tib turgan yo'lovchilar va arava-izvoshtar-ning soniga qarab London chindan ham shu yerdan boshlanadi degan donishmandona xulosaga keldi. Faqat qaysi ko'chalar eng gavjum-u qaysisini, ayniqsa chetlab o'tish lozimligini aniqlash uchungina bir-rov to'xtab, hanuz ilgari lab borar ekan, u Sent-Jon-Roudga burildi va ko'p o'tmay Greys-Inn-Leyn bilan Smitfild oralg'idagi iflos-u chal-kash-chulkash, zimiston jinko'chalardai ichkarilab ketdi. Garchi bu daha Londonning qoq kindigida joylashgan va tubdan qayta qurilayot-gan bo'lsa-da, ana shu ko'chalarning sharofati bilan shaharning ushbu qismi eng ayanchli hamda eng xunuk joylardan biridek tuyulardi.

Noe Kleypol Sharlottni ergashtirgancha ana shu ko'chalardan il-garilab boraverdi; ahyon-ahyonda birorta qovoqxonani ko'zdan kechirgani tosh yo'lga tushardi-da, agar bu yer tashqaridan qara-ganida serodam ko'rinsa, yana nariga ketaverardi. Nihoyat, u sirti-dan oldin uchratganlariga qaraganda tag'in ham xarob va iflosroq ko'ringan qovoqxona qarshisida to'xtab, ko'chani kesib o'tdi-da, uni ro'paradagi yo'lkada turib kuzatdi, keyin iltifot-la ana shu yerda tu-nashini aytdi.

— Tugunni bu yoqqa ber-chi, — dedi Noe ayolning yelkasiga tang'ilgan tasmani yecha turib, so'ng tugunni o'zi orqalab olib, — to

senga gapirmagunlaricha og'zingni ocha ko'rma tag'in. Nimaykan bu joyning nomi... u-uch... uch kim debdi?

— Majruh, — dedi Sharlott.

— «Uch majruh», — takrorladi Noe. — Nimayam derdik, ajoyib lavha. Qani, olg'a! Orqada qolma tag'in. Ketdik!

Shu gaplarni tayinlagancha, u g'iyqillaydigan eshikni yelkasi bilan itardi-da, hamrohi ikkovlari ichkariga kirishdi.

Bufetxonada peshtaxtaga tirsaklarini tiragancha iflos gazetani o'qiyotgan juhud yigitdan bo'lak hech zog' yo'q ekan. U Noega, Noe esa unga tikilib qarashdi.

Noe basharti yetimxona kiyimida bo'lganida juhudning bunchalik baqrayib tikilishi asosli bo'lardi; biroq Noe yetimxona kamzuli bilan nishonidan qutulib olgan, teri ishtoniga qo'shimcha qilib kalta ishchilar ko'ylagini kiygandi, shu sababli uning tashqi ko'rinishi qovoqxona mushtariylari diqqatini jalb etishiga alohida vaj yo'qdek tuyulardi.

— «Uch majruh»mi bu? — so'radi Noe.

— Ha, shunday deb ataladi bu do'kon, — javob berdi juhud.

— Yo'lda uchragan qishloqdan kelayotgan bir jentlmen bizga shu yerga tushishni maslahat bergandi, — dedi Noe, o'zini hurmat etishlari uchun bag'oyat ustalik bilan muomala qilayotganiga qizning e'tiborini tortish niyatidami, yoki hayron bo'lib sirni ochib qo'yma deb ogohlantirmoqchi bo'libmi, xullas, tirsagi bilan Sharlottni turtib qo'yar ekan. — Shu yerda tunasak degandik.

— Bu masalada biron nima deylmayman, — dedi qovoqxonachining yordamchisi Barni. — Kirib so'rab chiqaman.

— Ungacha bizni boshqa xonaga boshlang, yaxna mol go'shti bilan pivo bering, keyin kirib so'rab chiqaverasiz, — dedi Noe.

Barni shunday qildi — ularni orqadagi chog'roqqina xonaga boshlab kirib, buyurilgan taomlarni oldilariga keltirib qo'ydi; bu yumushlarni ado etib bo'lgach, ularga shu yerda tunab qolishlari mumkin ekanini bildirib, iltifotli juftni bermalol tamaddi qilishlari uchun yolg'iz qoldirib chiqib ketdi.

Bu orqa xona shundoqqina bufetxona ortida joylashgan bo'lib, undan sal pastroq, bir necha zina bilan tushilardi; shu tufayli qovoqxonaning o'z odami sanalgan har qanday kimsa mazkur xonaning devoridagi, uy sahnidan taxminan olti-yetti qarich balandda joylashgan shapaloqdekkina oyna pardasini surib, o'zini payqab qolishlaridan aslo cho'chimay (derazacha burchakda, devor bilan yo'g'on ustun oraliq'ida bo'lib, kuzatuvchi xuddi ana shu oraliqqa turib olishi mumkin edi), nafaqat orqa xonada o'tirgan mehmonlarni ko'rishi, balki to'siqqa qulog'ini bosib turib, gaplarini aniq-tiniq eshitishi ham mumkin edi. Qovoqxona sohibi mazkur xufiya oynadan besh da-

qiqalar chamasi ko'zini uzmad. Barni esa Fedjin yosh shogirdlarini surishtirish niyatida qovoqxonaga kirib kelgan paytda yuqorida zikr etganimiz xabarni yetkazib, endi o'z joyiga qaytgandi.

— Tshsh... — shivirladi Barni. — Qo'shni xonada begonalar bor.

— Begonalar? — chol ham shivirlab takrorladi.

— Ha. Ajoyib juft, — qo'shib qo'ydi Barni. — Chekkadan, lekini-ga, mabodo yanglishmasam, sizga bop keladiganlardan.

Fedjin bu xabarni zo'r qiziqish bilan eshitganday bo'ldi. U kursi ustiga chiqib, ehtiyotlik bilan ko'zlarini oynaga taqadi va xufiya joydan mister Kleypolning tovoqdagi yaxna go'shtdan olib, krujkadagi pivodan ho'playotganini, yonida o'tirgan Sharlottga jindak-jindakinadan tutqizayotganini, ayolning esa itoatkorlik ila dam go'sht yeb, dam pivo ichayotganini bemalol ko'rib turdi.

— Uho', — shivirladi Fedjin Barniga o'girilarkan. — Menga yoqib qoldi bu yigitcha. Ish berishi mumkin bizga. Qizni qandog qilib qo'lga o'rgatishni allaqachon bilib olibdi. Bamisoli sichqon-day pildirpis bo'ling, azizim, eshitishimga xalal bermang, nimalarni gaplashayotganlarini eshitay-chi.

U yuzini yana oynaga yaqinlashtirdi va qulog'ini to'siqqa bosib, aftini eng qari iblisga yarashgulik bir ayyorona tarzda bujmaytirgan-cha diqqat-la tinglay boshladi.

— Xo'sh deganingizdan, men jentlmen bo'lishni istayman, — derdi mister Kleypol oyog'ini uzatib, boshlanishini Fedjin eshitmay qolgan suhbatni davom ettirib. — Shuncha shalag'i chiqqan tobutlar bilan o'ralashib yotganim yetar endi, Sharlott. Men jentlmenchasiga yashashni xohlayman, sen esa, agar xohlasang, xonim bo'lasan.

— Juda-juda xohlayman-da, jonim! — javob qaytardi Sharlott. — Lekin har kuni kassani o'marib, isini chiqarmay juftakni rostlab qolib bo'lmaydi-da.

— Padariga la'nat o'sha kassalarni! — dedi mister Kleypol. — Kassadan boshqa o'marsa bo'ladigan narsalar ham bor.

— Tag'in nimalar kelib qoldi kallangga? — so'radi hamrohi.

— Cho'ntaklar, xotinlarning sumkachalari, uylar, pochta aravalari, banklar bor, — dedi mister Kleypol pivo ta'siridan ilhomlanib ketib.

— Lekin bularni uddalolmaysan-ku, jonginam, — dedi Sharlott.

— Uddalaydiganlar davrasiga kirib olishga harakat qilaman, — javob berdi Noe. — Ana o'shalar oyoqqa turib olishimizga yordamlashishadi. Axir sening bir o'zing ellikta xotinga arziysan-a; umrim bino bo'lib senga o'xshagan hiylagar va makkora xotin zotini ko'rmaganman; men ruxsat bergan paytdagina ishlatasan bunaqangi ustomonlikni, albatta.

— Voy xudoyim-ey, tilingga shakar-e, moyday yoqyapti-ya gaplaring! — dedi Sharlott uning ta'viya aftidan o'pib, o'zida yo'q xursand bo'lib.

— Bas, bas! Erkalanaverma judayam, yo'qsa jahlim chiqib ketadi bir! — dedi Noe viqor bilan, o'zini chetroq tortib. — Biror-ta to'daga boshliq bo'lib olishni istardim; qani endi odamlarning jilovi qo'limda bo'lsa, ularni izidan shundoq poylardimki, o'zlariyam bilmay qolishardi. Tushumi tuzukroq bo'lsa, bu juda menbop ish edi-da. Bordi-yu shunaqangi toifadagi jentlmen-lar bilan topishib qolgudek bo'lsak, men ularga sen yashirib qo'ygan, yigirma funtlik bay puliyam gap bo'ptimi, derdim, buning ustiga undan qanday qutulishni o'zimiz ham mundoq tuzukroq bilmaymiz.

Shu so'zlarni aytib, mister Kleypol buyuk donishmandona qiyo-fada pivo krujkasi ichiga ko'z tashladi-da, yaxshilab chayqatib turib ho'plagan edi, aftidan, nihoyatda tetik tortganday bo'ldi. U yana ho'plasammikin, deb xayol qilib turgan edi, to'satdan eshik lang ochilib, kirib kelgan notanish odam xalal berib qoldi.

Bu notanish odam Fedjin edi. Nazarlarida u g'oyatda nazokatli ko'rindi; u yaqinroq kelib, ikki bukilib ta'zim qildi va eng yaqindagi stol yoniga cho'kib, iljayib turgan Barniga bironta ichimlikdan keltirishni buyurdi.

— Juda yoqimli oqshom-a, ser, lokin bu fasl uchun xiyol salqinroq, — dedi Fedjin qo'llarini ishqalab. — Chamamda shaharga chekaroqdan kelgan ko'rinasizlarmi, ser?

— Qayoqdan bila qoldingiz buni? — so'radi Noe Kleypol.

— Bizzi Londonda bunaqangi chang yo'q, — javob berdi Fedjin Noening, so'ng hamrohining boshmog'iga va nihoyat ikkala tugunga ishora qilib.

— Zehni o'tkir odam ekansiz-ku, — dedi Noe. — Ha-ha!... Buni qara-ya, Sharlott, eshityapsanmi?

— Eh, azizim, bu shaharda idrokli, ziyrak bo'lish kerak, — javob qildi juhud sirini ishonayotgandek pichirlashga o'tib. — Ochig'iga ko'chganda, gapni po'skallasi shu.

Fedjin ko'rsatkich barmog'i bilan burnining biqiniga nuqigancha ushbu fikrini tasdiqlagan bo'ldi; Noe ham buni takrorlashga behuda tirishib ko'rди, zotan uning burni buning uchun xiyla kichiklik qilardi. Shunga qaramay Fedjin, chamasi, uning urinishini o'zicha fikrimga to'liq qo'shildi deb talqin qildi va Barni keltirgan vino bilan yigitchani do'stona mehmon qildi.

— Ajoyib narsa-da! — deb qo'ydi mister Kleypol lablarini cho'l-pillatib.

— Azizim, — dedi Fedjin, — muttasil totinib turadigan bo'lsang kassa, yo cho'ntak, yoki ayollar sumkachasini, yoinki uy, yoki pochta aravasini, yo bankni shilishga to'g'ri keladi.

Mister Kleypol o'z nutqidan keltirilgan mazkur misolni eshitib o'zini stul suyanchig'iga tashladi-yu, qo'rquv ichra nigohini juhud-dan olib qochib, Sharlottga qadadi.

— Kaminaga parvo qilmang, azizim, — dedi Fedjin kursisini ya-qinroq surib. — Ha-ha! Omadingiz borakan, gapingizni faqat men-gina eshitdim. Baxtingizni qarangki, yolg'iz men o'zingina eshitdim gapingizni.

— Men olganim yo'q uni, — dedi Noe duduqlanib: u endi erkin-ozod jentlmenlarga xos tarzda oyoqlarini oldinga uzatmay, shosha-pisha kursi ostiga suqdi, — manavining ishi hammasi... Hozir senda-ya u, Sharlott, o'zingdaligini bilasan-ku axir!

— Pul kimda-yu buni kim qilganining ahamiyati yo'q, azizim, — dedi Fedjin, ammo-lekin qizga ham, ikkala tugunga ham yirtqicho-na qarab qo'ydi. — Mening o'zimni kasbim shu, ana shuning uchun ham menga yoqyapsiz.

— Kasbim nima dedingiz? — so'radi mister Kleypol picha o'ziga kelib.

— Ana shunaqangi ishlar bilan shug'ullanaman, — javob ber-di Fedjin. — Bu uyda turadiganlar ham shunaqangi ish bi-lan shug'ullanishadi. Siz zap nishonga kelib tushibsiz-da o'ziyam, bu yerda butunlay bexavotir bo'lasiz. Butun shaharni izlaganin-gizda «Majruhlar»dan bexavotirroq joyni topolmaysiz; aytmoqchi, bu kaminaga bog'liq. Siz va bu yosh xonim ikkovinglar menga ju-da yoqib qoldinglar. Shuning uchun ham aytyapman-da bu gaplarni, cho'chimang, ko'nglingiz xotirjam bo'lsin.

Ehtimolki ana shu so'zdan keyin Noe Kleypolning ko'ngli xo-tirjam tortgandir, biroq tanasiga esa buning mutlaqo aloqasi yo'q edi; zero u dam qunishib, dam egilib-bukilib beo'xshov holatga kirar va yangi oshnasiga hurkibroq hamda shubhalanib javdirardi.

— Sizga aytadigan ikki og'izgina gapim bor yana, — deya so'zini davom ettirdi Fedjin do'stona bosh irg'ab, bir-ikkita dalda beradi-gan so'z bilan qizning ko'nglini tinchitganidan keyin, — meni siz-ning orzuvingizni ro'yobga chiqara oladigan bir do'stim bor. U sizni to'g'ri yo'lga solib yuboradi. Ana undan so'ng o'zingizcha dastlabiga eng munosib ko'rgan ishni tanlaysiz-da, keyin boshqalarini barini o'rganaverasiz.

— Nazarimda jiddiy gapiryapsiz deyman-a! — dedi Noe.

— O'zgacha so'zlashdan nima foyda menga? — yelkasini qisib de-di Fedjin. — Bilasizmi, qo'shni xonaga chiqsak, sizga bir og'iz gapim boriydi.

— Chiqib ovora bo'lishning nima keragi bor? — qarshilik bildirdi Noe, u asta-sekin oyog'ini tag'in olg'a qarab cho'za boshlagandi. —

Bu buyumlarni tepaga chiqarib qo'yadi ungacha... Sharlott, tugunlarni eplashtir!

Amirona ohangda berilgan ushbu farmoyish hech qanday e'tirozsiz ado etilib, Sharlott tugunlarni orqalab chiqib ketdi. Noe esa eshikni ushlagancha uning ketidan kuzatib turdi.

— Boplab qo'lbola qilib olibmanmi uni, to'g'rimasmi? — joyiga qaytgach so'radi u yirtqich hayvonni qo'lga o'rgatgan o'rgatuvchidek bir ohangda.

— Qoyillatgansiz! — dedi Fedjin uning kiftiga qoqib. — Siz — dahosiz, azizim!

— Nimayam derdim, agar o'shanday bo'lmaganimda hozir bu yerda o'tirmasdim chog'i, — javob qildi Noe. — Lekin menga qarang, agar imillaydigan bo'lsangiz u qaytib tushib qoladi.

— Xo'sh, o'zingiz qanday fikrdasiz bu haqda? — so'radi Fedjin. — Bordi-yu oshnam ko'nglingizga o'tirishib qolsa, unga shogird tusha qolmaysizmi?

— Xo'sh, uning ishi tuzukmi o'zi? Eng muhimi ana shunda, — javob berdi Noe bir ko'zini qisib qo'yib.

— Tuzuk ham gapmi, zo'r! Talay-talay odamlarni yollaydi. Bu kasb-kordagi manaman deganlar u bilan sherik.

— Haqiqiy shaharliklarmi? — so'radi mister Kleypol.

— Chekka yerlardan birortayam yo'q. Shu kunlarda yordamchilarga muhtojligi bo'lmaganida, hatto mening tavsiyam bilan ham sizni qabul qilmasdi-yov.

— Unga uncha-muncha berish kerakdir-a? — deb so'radi Noe cholvori cho'ntagi ustidan shapillatib urib qo'yarkan.

— Busiz ish bitarkanmi, — javob qildi Fedjin qat'iy ohangda.

— Lekiniga yigirma funt... juda katta pul-da.

— Bank qog'ozi bo'lsa ishlatolmaysiz bari bir, — qarshilik bildirdi Fedjin. — Yili va raqami, o'ylaymanki, yozib qo'yilgandir? Banklar to'lanmasin deb ogohlantirib qo'yilgandir? Ana ko'rdingizmi, u ham bu qog'ozdan tuzuk foydalanolmaydi. Uni chet elga jo'natishga to'g'ri keladi, bozorda yuqori narx bilan sotolmaydi.

— Qachon ko'rsam bo'ladi uni? — ikkilanibrog so'radi Noe.

— Ertaga ertalab.

— Qayerda?

— Shu yerda.

— Hm, — deb qo'ydi Noe, — xizmat haqim qancha bo'ladi?

— Xuddi jentlmenlarday yashaysiz, stol va boshpana, tamaki va ichimlik istaganingizcha, o'zingiz ishlab topganning yarmi, u qizning topganini yarmi ham o'zlaringizniki, — javob berdi Fedjin.

Hirs-u harisligining cheki-chegarasi yo'q Noe Kleypol inon-ixtiyori o'zida bo'lganida, hatto ana shunday ajoyib shart bilan ham, bunga rozilik berishi dargumon edi-yov: ammo rad etgan taqdirida bu yangi tanishi uning oyog'ini yerga tekkizdirmay sud qo'liga topshirajagini yodda tutarkan (bundan ham aql bovar qilmaydigan voqealar bo'lgan-ku), asta-sekin yumshab, oxiri bu o'ziga to'g'ri kelishini aytdi.

— Lekin, bilasizmi, — dedi Noe, — anavi qiz og'irroq yumushlarni ham eplashtiradi, shundoq bo'lgach, men o'zim birorta yengilroq ish bilan shug'ullansam degandim.

— Birorta kichikroq, ko'ngilga o'tirishadigan ish bo'lsa-a? — taklif etdi Fedjin.

— Ha, balli, — javob qaytardi Noe. — Sizningcha, qanday, hozircha qaysi ish bilan shug'ullanganim ma'qul? Masalan, aytaylik, odamni uncha qiynab qo'ymaydigan, bilasizmi, keyin, sal bexavotirroq bo'lsa. Xullas, shunga o'xshashroq bir ish.

— Azizim, birovning orqasidan ayg'oqchilik qilsam, deganday bo'luvdingiz shekilli, qulog'imga chalinuvdi bu, — dedi Fedjin. — Oshnam xuddi shu ishni qotiradigan odamga muhtoj-da.

— Ha, shunday degandim, goho shunday qilishgayam qarshimasman, — dedi Noe bafurja, — lekin, bilasizmi, bu ish o'zini oqlamaydi unchalik.

— To'ppa-to'g'ri, — deb qo'ydi juhud o'yga tolib yoki o'zini o'ylayotganga solib. — Yo'q, bo'lmaydi.

— Xo'sh, unda nima maslahat berasiz? — deb so'radi Noe bezovtalanib unga tikilganicha. — Ishonchliroq, xuddi uydan tashqariga chiqmaganday, xavf-xatarsiz ish bo'lsa. Imi-jimida, payt poylab turib o'g'irlik qilganga nima yetsin edi-ya.

— Qari xonimlar haqda qanday fikrdasiz? — deb so'radi Fedjin. — Ularning qo'llaridagi sumka va to'rvachalarni yulqib, muyulishdan o'tib quyon bo'lishning tushumi juda zo'r-da.

— E, ularingiz shunaqangi voydodlab qolishadiki, qo'yaverasiz, ba'zan bo'lsa aft-basharangni yumdalab tashlashadi, — e'tiroz bildirdi Noe boshini sarak-sarak qilib. — Bu menga to'g'ri kelmas-ov. Bundan boshqa birorta yumush topilmasmikin?

— Shoshmang, — dedi Fedjin qo'lini uning tizzasiga qo'yib. — Qushchalarni ilintirish bor-ku.

— Bu nima degani? — surishtirdi mister Kleypol.

— Qushchalar, azizim, bu onalari qo'llariga olti penslik va shilling tutqizib, narsa olib kelgani chiqaradigan yosh bolalar. Ilintirishga kelsak — bu pullarni tortib olish degani... ular hamisha tappa-tayyor qilib qo'llarida ushlab olishadi... keyin o'zlarini yo'lka yonidagi ariqqa itarib yuboriladi-da, xuddi hech nimani ko'rmaganday, yiqilsa

bitta bolakay yiqilib, lat yebdi-da, deganday xotirjamgina ketilaveradi. Hi-hi-hi!

— Xa-xa-xa! — qah-qah urdi mister Kleypol zavq-la oyoqlarini silkiib. — Xudo haqqi, bu juda menbop ekan-da!

— Albatta, shubhasiz, — javob berdi Fedjin. — Keyin joyni Kemden-Taundan, Betl-Brijdan, yana shunga yaqin-atrofdan tanlasangiz bo'ladi; ularni hamisha biror narsa olib kelgani yuborib turishadi o'shoqqa, kunning istagan paytida bir aylanishda ko'nglingizga siqqanicha qushchani tuzoqqa ilintirsangiz bo'ladi bemalol. Hi-hi-hi!

Shunday derkan mister Fedjin mister Kleypolning biqiniga nuqib qo'ydi va ular baravariga, uzoq qotib-qotib kulishdi.

— Mana, hammasi joyida, — dedi Noe; Sharlott xonaga qaytganda u allaqachon bemalol gapira oladigan holga kelgandi. — Ertaga soat nechada?

— O'nga imkonigingiz qalay? — deb so'radi Fedjin va mister Kleypol roziligini bildirib bosh irg'agach, qo'shib qo'ydi: — Saxovatli oshnamga kim deb tavsiya qilay o'zlarini?

— Mister Bolter, — deb javob berdi bunday savolga oldindan tayyorgarlik ko'rib qo'ygan Noe. — Mister Moris Bolter. Bu kishi missis Bolter.

— Xizmatlariga hozirman, missis Bolter, — dedi Fedjin masxaraomuz ta'zim bajo keltirarkan. — Umidvormankim, eng yaqin fursat orasida o'zlari bilan yaqindan tanishib olamiz.

— Jentlmenning gaplarini eshityapsanmi, Sharlott? — shang'illadi mister Kleypol.

— Ha, jonginam Noe, — javob qildi missis Bolter qo'lini uzatib.

— U, meni erkalatib Noe deydi, — dedi mister Bolter, sobiq Kleypol, Fedjingga murojaat qilarkan. — Tushunyapsizmi?

— Bo'lmasam-chi, tushunib turibman, juda yaxshi tushunyapman, — dedi Fedjin, bu gal rostini aytayotgan edi u. — Xayr, yaxshi yotib turinglar!

Uzundan-uzoq xayr-ma'zur va purma'no yaxshi tilaklar izhor etilganidan so'ng mister Fedjin o'z yo'lga jo'nadi. Noe Kleypol muhtarama yostiqdoshi diqqatini jalb etib (o'z qadr-qimmatini anglab yetgan holda), kuchli jins vakili sifatidagina emas, shuningdek, Londondek shahri azimda qushchalarni ilintirishdek lavozimga mu-sharraf bo'lish sharafiga erishgan jentlmenga yarashib tushadigan kalondimog'lik ila o'zi amalga oshirgan bitishuv haqida hikoya qila boshladi.

---

---

**XLIII BOB. ABJIR TULLAKNING QANDAY FALOKATGA  
UCHRAGANINI HIKOYA QILADI**

— Iya, o'sha aytgan do'stingiz shaxsan o'zingiz ekansiz-da? — so'radi mister Kleypol, bo'lakcha qilib aytganda Bolter, kelishilgan bitimga ko'ra, Fedjinning uyiga ko'chib o'tgach. — Xudo haqqi, bu gap kechayoq xayolimga kelgandi-ya o'ziyam.

— Har bir inson o'z-o'ziga do'stdir, azizim, — javob berdi Fedjin makkorona jilmayib. — Boz ustiga, u bunaqangi sodiq do'stni hech yerdan topolmaydi.

— Buning teskarisi, istisno ham bo'ladi, — qarshilik bildirdi mister Bolter kiborona vajohat bilan. — Ba'zi bir xillar, bilsangiz, hech kimgamas, o'z-o'ziga dushman, xolos.

— Bunga inonmang, — dedi Fedjin. — Mabodo biror kishi o'ziga dushman bo'lsa, buning sababi haddan ziyod darajada o'z-o'ziga do'st ekanidir, mutlaqo o'zidan bo'lak barchaning g'amini yeganidan emas. Safsata, g'irt yolg'on bu! Olamda sirayam bo'lmaydi bunaqasi.

— Bordi-yu bo'lgani taqdirda ham bunday bo'lmasligi kerak, — javob qaytardi mister Bolter.

— O'z-o'zidan ayon gap. Ba'zi azayimxonlar uch sonini sehrli desa, boshqalari yetti raqami deyishadi. Na unisi, na bunisi sehrli, qadrdonim, ha, na unisi-yu na bunisi. Bir — xuddi o'sha raqam.

— Xa-xa-xa! — xoxoladi mister Bolter. — Birdan o'taversin.

— Biznikiday kichkinagina jamoatda, azizim, — dedi Fedjin o'z mulohazasini tushuntirishni zarur deb bilib, — bizda umumiy hisob — bir; boshqacha qilib aytganda, toki meni, shuningdek, hamma yigit-qizlarimizni ham birinchi sanamay turib o'zingizni birinchi hisoblayolmaysiz.

— He, jin ursin! — deb yubordi mister Bolter.

— Bilasizmi, — Fedjin o'zini bu xitobni eshitmaganga olib, so'zini da-vom ettirdi, — biz hammamiz umum manfaati yo'lida bir-birovimizga chambarchas bog'langanmiz, o'zgacha bo'lishi ham mumkin emas. Mana, masalan, sizning maqsad va burchingiz — birinchi raqamning, ya'ni o'zingizning g'amingizni yeyish.

— Albatta-da, — javob qildi mister Bolter. — Bu borada siz haqsiz.

— Barakallo. Siz kamina — birinchi raqamning g'amini yemay turib, o'zingiz, ya'ni birinchi raqamli uchun jon kuydirolmaysiz.

— Ikkinchi raqamli demoqchisiz chog'i, — deb qo'ydi qismat xudbinlikdek bekam-ko'st «fazilat» ato etgan mister Bolter.

— Aslo unday demoqchimasman, — e'tiroz bildirdi Fedjin. — O'zingiz uchun o'zingiz qanchalik ahamiyat kasb etsangiz, men ham siz uchun shunchalik ahamiyat kasb etaman...

— Menga qarang, — uning so'zini bo'ldi mister Bolter, — siz judayam ajoyib odam ekansiz, menga juda yoqyapsiz, lekiniga hali ikkalamiz ham oradan qil o'tmaydigan bo'lib do'stlashib ketganimizcha yo'q-ku.

— O'zingiz o'ylab ko'ring, — dedi Fedjin yelkalarini qisib, — ha, mulohaza qilib ko'ring. Siz tuzukkina bir ishni do'ndiribsiz, shu tufayli dilimga o'tirib qoldingiz. Ammo endilikda bo'ynigingizga bo'yinbog' tahdid qilib turibdiki, uni uchidan siltab tortish oson-u ammo yechib tashlash amrimahol, oddiy ingliz tili bilan aytganda, bu — sirtmoq.

Mister Bolter beixtiyor qo'li bilan bo'ynidagi ro'molchani ushladi, nazdida go'yoki u haddan ortiq darajada mahkamlab bog'langandek tuyuldi; keyin allanima deya g'o'ldiradi, so'zi emas, ohangi rozilik berganini anglatdi.

— Dor, — gapini davom ettirdi Fedjin, — dor, azizim, keng-u katta yo'lda talaygina jasur-u dovyurak odamlarning martaba-yu rutbasiga chek qo'ygan eng qisqa hamda eng tik burilish sari yo'llovchi yo'l yoqasidagi mudhish ustundir. To'g'ri yo'ldan og'ishmaslik va o'sha ustundan yiroqroq bo'lish — mana sizning niyat-maqsadingiz, birinchi raqamli janobim.

— Albatta, bu to'g'ri-ku-ya, lekiniga bunaqangi narsalarni gapirib nima qilasiz? — dedi mister Bolter.

— So'zlarimning ma'no-mohiyatini tushuntirib berish uchun-gina gapiryapman, xolos, — dedi juhud yelkasini qisib. — Bunga erishmoqlik uchun menga suyanasiz. O'zimning faqirona ishim bilan tinchgina shug'ullanmoqlik uchun esa men sizga suyanaman. Biri — siz uchun birinchi raqamli, boshqasi — men uchun birinchi raqamli. O'z birinchi raqamingizni qanchalik qadrlasangiz, mening birinchi raqamimning shunchalik ko'proq g'amini yeysiz; mana, nihoyat, boya boshda aytgan gapimga qaytdik yana; birinchi raqamliga g'amxo'rlik qilish barchamizni bir-birovimizga bog'lab turadi. Aslida ham xuddi shundoq bo'lishi shart, yo'qsa butun jamoamiz parday to'zib ketadi.

— Bu rost gap, — dedi mister Bolter o'ychan qiyofada. — Eh, o'lguday ustomon ekansiz-da, voy dog'uli chol-ey!

Mister Fedjin bu tavsif o'zining iste'dodiga nisbatan aytilgan shunchaki bir xushomadli maqtov emasligiga, binobarin, haqiqat-

tan ham yangi shogirdida o'zining dohiyona makkorligi xususida ma'lum tasavvur tug'dira olganiga quvonch-la ishonch hosil qildi; shogirdi vujudida nish urgan bu tasavvurni mustahkamlash esa bag'oyat muhim ish edi. Bunday matlub-u maqbul hamda foydali taassurotni mustahkamlash niyatida u Noeni o'z faoliyatining miqyos-ko'lami bilan yanada batafsilroq tanishtirishga tushdi; rost gap-u uydirmalarni qo'shib-chatib, shunaqangi bo'yab-bejab, shunaqangi mahorat bilan tasvirlay ketdiki, oxir-oqibatda mister Bolterning unga nisbatan hurmat-u ehtiromi oshkora orta borib, vujudini najotbaxsh vahima chulg'ab oldi. Fedjinning niyati ham xuddi shu edi.

— Og'ir judolik damlarida xuddi ana shu bir-birovimizga bo'lgan ishonch tasalli beradi menga, — dedi Fedjin. — Kecha ertalab eng yaxshi ko'makchimdan ayrildim.

— Nima, uni o'ldi demoqchimisiz?! — dedi mister Bolter o'takasi yorilib.

— Yo'q, — javob berdi Fedjin, — ish unchalik xunuk tugagani yo'q. Unchalik xunuk emas.

— Bo'lmasa uni, balki...

— Chaqirtirib olishdi, — luqma tashladi Fedjin. — Shunday, chaqirtirib olishdi.

— Judayam muhim ish yuzasidanmi? — so'radi mister Bolter.

— Yo'q, — javob qildi mister Fedjin, — unchalik emas. Uni cho'ntakni shimon qilishga urinishda ayblashgan va yonidan kumush tamakidon topishgan — o'ziniki, azizim, shaxsan o'ziniki edi u; nega deganingizda uning o'zi tamaki isকাশni jonidan yaxshi ko'rardi. Uni shu paytgacha qamoqda tutib turishibdi, sababki, tamakidonning egasini tanisharmish. E-voh, ellikta tamakidonga arzirdi-ya, uni bo'shatib olish uchun shunchasini pulini to'lashga ham tayyor edim-a. Tullakni bilganingizda chakki bo'lmasdi, azizim ha, Tullakni bilganingizda chakki bo'lmasdi.

— Ha endi, tanishib olarman u bilan hali, siz nima deb o'ylaysiz bu to'g'rida? — dedi mister Bolter.

— Dargumon-ov, — javob berdi Fedjin xo'rsinib. — Agarda ular yana birorta yangi dalilni topisholmasa, unda kam berishadi, bir yarim oylarda yonimizga qaytadi; bordi-yu topishadigan bo'lishsa, unda urdi xudo, musti mahkam tiqinni isi kelib turibdi-da. Qanday aqlli yigitchaligi ma'lum ularga. Bir umrlikka duhob bo'ladi u. Tullakni to'ppa-to'g'ri bir umrlikka duchor qilishadi.

— Tiqin, bir umrlikka deganingiz nimadi? — so'radi mister Bolter. — Men bilan bunaqangi tilda gaplashsangiz nimanियam tushu-nardim? Men tushunadigan qilib gapirsangiz ho'lmaydimi?

Fedjin mazkur sirli iboralarni oddiy tilga tarjima qilib bermoqchi bo'lib chog'langan edi-yu (u chog'da mister Bolter bu so'zlar majmuasi umrbod qamoqni ifodalashini bilib olgan bo'lardi), biroq shu topda qo'llarini cho'ntagiga suqqan, basharasi esa kulgili bir tarzda g'amnok burishib ketgan yosh Beytsning kirib kelishi suhbatga raxna soldi.

— Hammasi tamom, Fedjin! — dedi Charli, u va yangi oshnasi bir-birlari bilan tanishtirilganidan keyin.

— Bu nima deganing?

— Anavilar o'sha jentlmenni, tamakidonning egasini qidirib topishibdi. Tag'in ikki-uch kishi yuzlashtirishga kelarmish, ana undan keyin Tullakni sayohatga jo'nadi deyavering, — javob berdi yosh Beyts. — Menga, Fedjin sayohatga jo'nab ketishidan oldin uni ziyorat qilgani motam libosi bilan shlyapamga qora tasma kerak. Qarang-a, Jek Daukins — azamat Jek — Tullak — Abjir Tullakday odam ikki yarim penslik arzimagan bitta tamakidonni deb o'zga yurtlarga safar qilib o'tirsa-ya. Men doim, bordi-yu, boshiga shunday ish tushadigan bo'lsa buning sababchisi kam deganda zanjiri va tamg'asi bor til-la soat bo'ladi, deb o'ylardim. Eh, nega endi u safarga izzat-izlom-u shon-shuhratsiz, xuddi bir patak o'g'risiday emas, haqiqiy jentlmen-day jo'nash uchun birona badavlat cholning bor boyligini o'mara qolmadi-ya!

Yosh Beyts baxtiqaro do'stiga bo'lgan hamdardligini shu tariqa bayon etib, g'amgin va ezilgan qiyofada yaqinroqdagi kursiga cho'kdi.

— Nimalarni valdirayapsan? — o'shqirdi Fedjin shogirdiga o'qrayib qarab qo'yarkan. — Axir u hammalaringdan yuqori turmas-midi? U bilan tenglasha oladigan, biron nimada baslashish qo'lidan keladigan topiladimi oralaringda o'zi?

— Birortayam, — javob berdi yosh Beyts dilsiyohlikdan ovozi bo'g'ilib. — Bittayam.

— Xo'sh, unda nimalar deb valaqlayapsan? — jahl bilan so'radi Fedjin. — Nima deb obidiyda qilyapsan?

— Bu gaplar sudning hukmi qarorida bo'lmaydi deb kuyyapman, — dedi Charli, shu topda diliga selday yopirilib kelgan afsus-u nadomatlar qari do'stini ochiqdan-ochiq munozaraga chaqirishga undayotgandi, — bu gaplar aybnomada ko'rsatilmaydi deb, hech kim hech qachon uning kimligini to'liq bilmaydi deb o'rtanyapman. Nyuget majmuasida\* qaysi o'rinni egallaydi? Balki butunlay kirmas unga. Yo Xudo, qanday ko'rgilik bu!

— Hi-hi-hi! — qiyqirib kuldi Fedjin o'ng qo'lini mister Bolter tomon cho'zib va go'yoki akashak odamday o'z hiringlashidan butun tanasi silkinib. — Qarang-a, azizim, o'z kasb-korlari bilan qanday faxrlanishadi-ya bular. Ajoyib emasmi bu axir?

Mister Bolter ma'qullab bosh irg'adi. Bir necha soniya mobaynida Charli Beytsning qandayin qayg'urayotganini oshkora mamnuniyat bilan kuzatib turgan Fedjin esa yosh jentlmenga yaqinlashib, kiftiga qoqdi.

— Bas, Charli, yetar, — dedi Fedjin yupatib, — bular ma'lum bo'ladi, albatta ma'lum bo'ladi. Uning qanchalik zehnlı yigit ekanı barchaga ayon bo'ladi, buni uning o'zi ko'rsatib qo'yadi va qadr-don do'stlari bilan ustozlarini uyatga qoldirmaydi. O'zing bir o'ylab ko'rgin-a, Charli, hali u qanday yoppa-yoshgina-ya! Shu yoshda ilinish qanchalar sharaf!

— Rostdan ham sharaftir bu balki, — dedi Charli jindakkina taskin topib.

— Istagan narsasining jami muhayyo bo'ladi, — so'zini davom ettirdi juhud. — Uni xuddi jentlmenlarday tosh ko'zada asrab-avaylashadi, Charli. Ha, xuddi jentlmenday. Har kuni pivosi-yu puli tayyor, nimaga sarflashini bilmasa dovga tikadi.

— Yo'g'-e? — ajablendi Charli Beyts.

— Hammasi bo'ladi, — javob berdi Fedjin. — Undan keyin desang, bizni kattakon — uni himoya qilish uchun hammadan ham qotirib va'xzonlik qiladigan o'z yasama sochlimiz bo'ladi. Tullak, agar xohlasa, o'zi ham nutq so'z-lashi mumkin, biz bo'lsak uni boshidan-oxirigacha gazetalarda o'qiymiz: «Abjir Tullak — tomni ko'targudek kulgi ko'tarildi, sudyalari changak bo'lib tirishib qolishdi». Xo'sh, qalay, Charli, a?

— Xa-xa-xa! — xoxolab yubordi Charli. — Rosa hangoma bo'ladi-da! To'g'rimi, Fedjin? Tullak boplab ta'zirlarini berib, qonlariga tashna qiladi, to'g'rimi?

— To'ppa-to'g'ri! — ovozini ko'tardi Fedjin. — Ha, jonlarini bo'g'izlariga keltiradi u.

— Bo'lmasam-chi, albatta xit qiladi, — takrorladi Charli qo'llarini ishqab.

— Shu, nazarimda, uni shundoqqina ko'rib turgandayman, — dedi juhud shogirdiga tikilib.

— Men ham! — qichqirib yubordi Charli Beyts. — Xa-xa-xa! Men ham. Hammasini ko'rib turibman, xudo haqqi, ko'rib turibman, Fedjin. Qoyil-e! Toza hangoma bo'ldi-ku bu yog'i! Katta yasama sochlilarning hammalari o'zlarini vajohatli qilib ko'rsatishga tirishishyapti, Jek Daukins bo'lsa ularga xuddi sudyaning o'z o'g'lidek, tushlikdan keyin tabrik nutqi so'zlayotgandek, xotirjam va dilkashlik bilan gapiryapti. Xa-xa-xa!

Mister Fedjin darhaqiqat yosh do'stining betuturiq antiqa tabiatiga shunchalik ustalik bilan ta'sir o'tkazgandiki, oldiniga qo'lga olingan

Tullakni qurbon deb bilgan Beyts endilikda unga beqiyos va ajoyib hajvchiligi bilan yaqqol ajralib turadigan eng oldi sahna ijrochisi deb qaray boshlagan, qadrdon do'stining o'z iste'dodini namoyish etish imkoni tug'iladigan damni sabrsizlik-la kutishga tushgandi.

— Hozir ishlari qay ahvoldaligini imi-jimida bilib olishimiz zarur, — dedi Fedjin. — Qani, bir bosh qotirib ko'ray-chi.

— Men bora qolsam bo'lmaydimi? — so'radi Charli.

— Ikki dunyodayam! — u javob qildi Fedjin. — Miyang aynib qolganmi deyman, azizim, agar o'shoqqa borishni xayol qilgan bo'lsang, butunlay esingni yeb qo'yibsan... Bo'lmaydi, Charli, yo'q. Bir yo'la ikki qurbon berib bo'lmaydi.

— Menimcha, o'zingiz bormoqchimasdirlsiz axir? — dedi Charli hazillashib ko'z qisarkan.

— Bu unchaligam to'g'ri kelmaydi, — javob berdi Fedjin boshini qimirlatib.

— Manavi yigitchani jo'natsak nima qiladi? — so'radi yosh Beyts Noening yelkasiga qo'lini tashlab. — Uni hech zog' tanimaydi.

— Nimayam derdim, agar qarshiligi bo'lmasa... — deya gap boshladi Fedjin.

— Qarshiligi? — uning gapini bo'ldi Charli. — Qanaqangi qarshiligi bo'lishi mumkin?

— Aytarli hech qanaqangi, azizim, — dedi Fedjin mister Bolterga tomon o'girilarkan, — aytarli hech qanaqangi.

— O, judayam unchalik emasdir-ov! — qarshilik bildirdi Noe eshik sari tisarilib, hadiksirab bosh chayqagancha. — Yo'q, yo'q, qo'ying bu gapingizni! Bu mening vazifamga kirmaydi.

— Qanday vazifani zimmasiga olgan bu o'zi, Fedjin? — deb so'radi yosh Beyts Noening qotma qaddiga jirkanib nazar tashlarkan. — Sal ishkal bo'lsa juftakni rostlab qolish-u hammasi joyidaligida tomog'iga tiralgudek ovqat tushirishnimi? Uning vazifasi shundaymi?

— Bari bir emasmi? — e'tiroz bildirdi mister Bolter. — Menga qara, tirmizak, o'zingdan kattalarga bunaqangi beadabchilik qilma, bo'lmasa naq abjag'ingni chiqarib qo'yaman-a.

Bu po'pisaga javoban yosh Beyts shunday xandon tashlab kula boshladiki, toki Fedjinning mister Bolterga politsiya boshqarmasida hech qanday xavf-xatar tahdid qilmasligini, negaki, na u qatnashgan arzimas ish haqidagi hisobot va na shaxsi haqidagi ma'lumot poytaxtga yetib kelmagani, shu boisdan uning poytaxtdan boshpana izlaganini hatto xayollariga ham keltirmagan bo'lishlari kerakligini, ana shu sababdan u tegishli tarzda ust-boshini o'zgartirib olsa, Londonning istalgan yeriga, shu qatori o'zini hech kim kutmagan o'sha joyga ham bemalol borsa bo'laverishini tushuntirish uchun gapga aralashgunicha picha vaqt o'tdi.

Qisman ana shu dalil-u isbotlardan dadillangan, ammo vujudini ko'proq Fedjindan qo'rqish hissi chulg'ab olgan mister Bolter bunday safarga xuddi jonini sug'urib olgudek og'rinish-la axiyri rozi bo'ldi. Fedjinning amri bilan o'sha zahotiyoq egnidagi kiyimlarini izvosh-chilarning kamzuli — kalta chiyduxoba ishton va ko'n qo'njlik bilan almashtirdi. Bularning bari Fedjinning bisotidan chiqdi. Shuningdek, uni darvozaxonalarda berilgan pattalar qistirig'liq namat shlyapa hamda aravakashlar qamchisi bilan ta'min etishdi. Ana shu libosda u Kovent-Garden bozoriga kelgan bironta qishloqi yigit siyoqida go'yoki qiziqib, tomosha qilgani sud binosiga kirib borishi lozim edi. Mister Fedjin aynan shunday qo'pol, beso'naqay va qoqsuyak yigit bo'lgani tufaylidan Noening o'z rolini qoyillatib, bekami-ko'st ijro etajagiga shubhalanmayotgan edi.

Mazkur tayyorgarlik ishlari nihoyasiga yetkazilgach, unga Ab-jir Tullakni tanish uchun zarur bo'lgan belgi va alomatlarini aytib berishdi, keyin yosh Beyts uni pasqam-u aylanma yo'llardan boshlab ketdi. Bou-stritga yaqin qolganda to'xtab, politsiya boshqarmasi joylashgan yerni aniq-ravshan qilib tasvirlab berdi. Buning ustiga, bir talay yo'l-yo'riqlar berdi — jinko'chadan qanday borishni, hovlini qanday kesib o'tishni, o'ng tomondagi eshikka olib chiqadigan zinadan ko'tarilib, ichkariga kirishni, kirgach, darrov shlyapasini yechishni o'rgatib, endi ajralishamiz, dedi Charli Beyts va tezroq borishni tayinlab, ajralishgan joylarida uni kutib turishga so'z berdi.

Noe Kleypol yoxud, mabodo kitobxonga ma'qul kelsa, Moris Bolter o'ziga berilgan aniq-ravshan yo'l-yo'riqlarga bandma-band amal qilib (yosh Beyts bu atrof bilan juda yaxshi oshno edi), politsiya boshqarmasiga hech kimdan so'rab-surishtirmay, hech qanday moneliksiz, to'ppa-to'g'ri kirib bordi. Eshikni ochib, aksariyati xotin-xalajlardan iborat odamlar tirband, iflos va dim xonaga kirib qoldi. Xonaning narigi boshida, chap tomondagi devor tagida panjara bilan to'silgan, sudlanuvchilar o'tiradigan kursi qo'yilgan supacha; o'rtada guvohlar shohidlik beradigan minbar, o'ng tomonda sudyalarning uzun stoli; mazkur keyingi dahshatga soluvchi o'rin hakamlarni oddiy bandalar ko'zidan pana qilib turadigan va avomning odil sudning butkul ulug'vorligi-yu salobatini tasavvur etishiga (agar bunga muvaffaq bo'la olsa, albatta) erkin-ozod izn beradigan to'siq bilan to'silgan edi.

Sudlanuvchilar qora kursisida ikkitagina ayol o'tirishar, toki sud mirzasi stol uzra engashib turgan ikki politsiyachi bilan fuqarocha kiyimda bir amaldorga qandaydir guvohliklarni o'qib berarkan, bu ayollar hayratlanib, qoyil qolayotgan do'stlariga bosh iring'ab, imo-ishora qilishardi hadeb. Turma nazoratchisi sudlanuvchilar kursi-

si to'sig'iga suyangan ko'yi qo'lidagi kattakon kalit bilan yalqovlanib burnini to'qillatib urish bilan ovora edi; u birorta tomoshatalabning aybdorlarni gapga solishdek nojo'ya urinishlariga barham berib o'shqirib qo'yish yoki biror ramaqijon go'dak odil sudning tantanavor ishini davom ettirishiga xalal yetkazib, onasining ro'moli ostidan xiyolgina g'ingshib qolganida o'sha ayolga naq yeb qo'ygundek o'qrayib «Yo'qot bu go'dakni!» deb o'dag'aylash uchungina bu mashg'ulotini to'xtatardi, xolos. Xonaning havosi nihoyatda sasib-bijg'ib ketgan va dim edi; ifloslanganidan devorning rang-tusi aynib, shift esa qorayib ketgandi. Tosh tokchada eski, is bosgan haykalcha turibdi, qora kursining tepasida esa — chang bosgan soat — illatlar, qashshoqlik yoxud shular bilan yaqindan oshno bironta qusur o'z tajovuzi asarini qoldirgan jamiki jonli xilqatlar va atrofida sodir bo'layotgan hodisalarni badqovoqlik-la kuzatayotgandek tuyulayotgan yoqimsiz-u ko'rimsizlikda ulardan qolishmaydigan, ustini qalin va quyuq qurum bosgan jamiki jonsiz buyumlar orasida yetarli darajada saranjom-sarishta turgan narsa bamisoli ana shu soatgina edi.

Noe betoqatlik bilan alang-jalang bo'lib Tullakni izlardi, biroq bu yerda hozir bo'lganlardan talayginasi o'sha ma'lum-u mashhur zotning onasi yoxud opasi tengi, bir necha erkak esa otasi qatori bo'lishiga qaramay, mister Daukinsning tashqi qiyofasini chizib, Noening qo'liga topshirishgan tasvir qolipiga tushadigan bironta zot ko'rinmasdi. Noe to ikki ayolning ishlari jinoyatni ko'radigan sudga oshirilib\*, beadablarcha jilpanglab chiqib ketgunlaricha beqiyos bezovtalik hamda ikkilanish-la kutib turdi; keyin esa boshqa mahbusning paydo bo'lishi o'sha zamonaoq ko'nglini joyiga tushirdi-qo'ydi, negaki u ko'rishni istab kelgan odami shu yigitcha ekanligini darhol fahmladi.

Darhaqiqat, bu odatdagicha kamzulining uzun yenglarini himarib olgan mister Daukins edi; xonaga chap qo'lini cho'ntagiga suqib, o'ng qo'lida esa shlyapasini ushlagancha turma nazoratchisi kuzatuvda tasvirga til lol qoladigan bir alfozda — oyoqlarini sudrab bosib, lapanglab kirib keldi-da, qora kursidan joy olarkan, baland ovozda o'zini nima sababdan bunday tahqiromuz ahvolga solib qo'yganlarini bilish istagini bayon etdi.

— Tillarini tiyib tursalar, eshityaptilarmi? — dedi turma nazoratchisi.

— Men — inglizman, yoki bunday emasmi? — e'tiroz bildirdi Tullak. — Xo'sh, unda menga berilgan imtiyozlar qay go'rda qoldi?

— O'sha imtiyozlaringizga ega bo'lasiz hademay, — shartta gapini bo'ldi turma nazoratchisi, — ustiga murch ham sepib berishadi desangiz!

— Bordi-yu shunday bo'lmasa, ko'ramiz, bu lo'ttibozlarga ichki ishlar vaziri nima derkin... — javob qaytardi mister Daukins. — Qani, xo'sh, ishlarimiz qandoq bo'ldi bu yog'iga? Ushbu jimitdakina ishni tezroq oydinlashtirsalar-u, keyin, gazeta o'qib vaqtimni olmasalar, sudyalardan bag'oyat minnatdor bo'lurdim: negaki men Sitida bir jentlmen bilan uchrashishga kelishib qo'yganman. Hamisha o'z so'zining ustidan chiqadigan hamda ishlarini aniq-puxta ado etadigan odam bo'lganim sababli o'z vaqtida yetib bormasam, u ketib qoladi. Shu xususdan, bular meni mabodo ko'proq tutib qolishadigan bo'lishsa, o'sha jentlmen ko'rgan zararini to'lashlarini da'vo qilmaydi, deb o'ylamayaptimikinlar? O, unda ovora bo'lishadi!

Gap shu yerga yetganda Tullak o'zini, bordi-yu, ish shu asosda tus olgudek bo'lsa, sudyalarning ahvollari ne kechishiga juda-juda qiziqayotgan odam qiyofasiga solib, turma nazoratchisidan «anavi hakamlilik kursisida o'tirgan ikki yulg'ichning» ism-sharifi nimaligini surishtirdi. Bu narsa tomoshatalablarning shunaqangi zavqini keltirdiki, bunday talabni eshitganida yosh Beyts qanday xandon tashlashi mumkin bo'lsa, bular ham xuddi o'shandayiga qotib-qotib kula boshlashdi.

— Hey, sekinroq! — o'shqirdi turma nazoratchisi.

— Nimada ayblanyapti bu? — so'radi sudyalardan biri.

— Kissavurlikda, janobi oliylari.

— Bu bola ilgari hech bo'lganmi bu yerda?

— Juda ko'p martalab bo'lishi kerak edi aslida, — javob berdi turma nazoratchisi. — Deyarli boshqa hamma joyga kirib chiqqan. Men uni besh qo'lday bilaman-ku-ya, janobi oliylari.

— O, meni bilarkanlar-da o'zlari, shunaqa deng-a? — javob qildi Tullak bu axborotni eshitib. — Juda soz! Shundoqmi yo yo'qmi, bari bir birovni obro'sizlantirishga urinish bu.

Shunda yana gurr kulgi ko'tarildi va yana tinchlaning, degan o'kiriq yangradi.

— Xo'sh, guvohlar qani unda? — so'radi sud mirzasi.

— Balli, — gapni ilib ketdi Tullak. — Qani ular? Bir ko'rib qo'yay ularni.

Ushbu istak darhol qanoatlantirildi, zero hibsga olingan ayblanuvchining bir jentlmen cho'ntagiga qo'l suqqani va hatto u yerdan eski dastro'molni sug'urib olgani, hech nimaga arzimaydigan bo'lgani tufayli o'zining burnini artib, xotirjamgina tag'in joyiga tiqib qo'yganini ko'rib turgan politsiyachi oldinga chiqdi. U Tullakni xuddi shunga asoslanib, yoniga yetib borgan zahoti qo'lga olgan va tintuv paytida cho'ntagidan qopqog'iga egasining ism-sharifi o'yib

yozilgan kumush tamakidon chiqqan edi. O'sha jentlmenni «Sud ma'lumotnomasi» ko'magida izlab topishibdi. Ayni paytda shu yerda hozir bo'lganligi sababli u qasam ichib, tamakidon uniki ekani-ni, kuni kechagina xuddi o'sha olomon orasidan amallab qutulib chiqqan vaqtida yo'qotganini aytdi. Shuningdek, u olomon orasidan turtinib-surtinib o'tib kelayotgan bir jentlmenga ko'zi tushganini, hozir qarshisida turgan mahbus xuddi o'sha yosh jentlmen ekani-ni tasdiqladi.

— Bolakay, guvohga bironta savolingiz bormi? — dedi sudya.

— U bilan suhbatlashadigan darajada past ketish istagim yo'q, — javob berdi Tullak.

— Hech qanday gapingiz yo'qmi?

— Eshityapsizmi, bironta gapingiz bormi, deb so'rayaptilar janobi oliylari? — deya takrorladi turma nazoratchisi miq etmay turgan Tullakni tirsagi bilan turtib.

— Ma'zur tutasiz! — dedi Tullak hayron bo'lgandek bir qiyofada ko'zlarini yerdan uzib. — Menga aytyapsizmi, muhtaram zot?

— Dunyoga kelib bunaqangi uchiga chiqqan sayoq bolani ko'rmaganman, janob oliylari, — deb qo'ydi politsiyachi miyig'ida kulib. — Biron nima demoqchi emasmisiz, yigitcha?

— Yo'q, — javob qildi Tullak, — bu yerda demoqchimasman, negaki bu do'koncha odil sud olib borishga munosib joy emas, ustiga-ustak, kaminaning himoyachisi bugun ertalab jamoa palatasining vitse-prezidenti bilan nonushta qilishi kerak edi. Ammo-lekiniga bo'lak joyda aytadigan uncha-muncha gapim bor, shuningdek, himoyachim va bisyor hamda e'tiborli tanishlarimning ham, aytadigan gaplari bor. Ana unda bu lo'ttibozlar dunyoga kelganlari yoki bugun ertalab mening ustimdan mana shunday maynabozchilik qilgani o'tlanayotganlarida malaylariga o'zlarini shlyapalari o'rniga qoziqqa osib qo'yishni buyurmaganlari uchun ming-ming pushaymon yeydilar. Men...

— Bas qil! Sudga oshirishga hukm qilinadi. Olib chiqing uni, — gapini bo'ldi mirza.

— Yur! — dedi turma nazoratchisi.

— Ketyapman, — javob qildi Tullak kafti bilan shlyapasini tozalarkan. — Hey (sudyalarga qarata dedi), o'zlaringni qo'rqqanga solmay qo'ya qolinglar, men tariqchalik ham rahm-shafqat qilmayman, ha, yarim pennilik ham! Bu qilmishlaring uchun javob berasizlar, muhtaram zotlar! Butun dunyoning boyligini va'da qilganlaringda ham sizlarning o'rnilaringda bo'lishga rozi bo'lmasdim. Endi hatto oyoqlarimga yiqilib, yer o'pib iltijo qilganlaringda ham bari bir ozodlikka chiqmagan bo'lardim. Hey, qani, turmaga boshlanglar meni! Olib boringlar meni!

Tullak ana shu so'nggi so'zlarini aytarkan, o'zini yoqasidan olib sudrab ketishlariga ruxsat etdi va toki hovliga chiqib qolgunicha parlamentda ish qo'zg'ayman deya dag'dag'a qilib bordi; so'ngra esa politsiyachining basharasiga tikilib, quvnoqlik hamda mag'rurona iljayib qo'ydi.

Daukinsni katalakdek bir kishilik hibsonaga tiqib, eshikni qulflab qo'yanlariga ishonch hosil qilgach, Noe yosh Beytsni qoldirib, kelgan joyiga tomon ildam odimlay ketdi. O'sha joyga yetib kelgach, oqilona ish tutib pana yerdan atrofni diqqat-la tekshirib ko'rib, yangi do'stining orqasidan hech qanaqangi shilqim shaxs ilakishib kelmayotganiga qanoat hosil qilmagunicha ko'zga ko'rinmagan yosh jentlmenni birpas kutib qoldi.

Keyin ikkovlon Tullakning tarbiyat bobida olgan saboqlariga munosib tarzda amal qilib, ajoyib obro'-e'tibor qozonayotgani haqdagi xushxabarni mister Fedjinga yetkazish uchun uyga shoshildilar.

---

---

**XLIV BOB. NENSINING ROZ MEYLIGA BERGAN SO'ZINING  
USTIDAN CHIQISH FURSATI YETADI.  
U MUVAFFAQIYATSIZLIKKA UCHRAYDI**

Nensi ayyorlik hamda hiyla-nayrang, sodda mug'ambirlik san'ati bobida qanchalik tajribakor bo'lmasin, o'z qilmishi duchor etgan sarosima-yu esankirashni butunlay yashira olmadi. Jodugar juhudning ham, bag'ritosh Sayksning ham qizni ishonchga loyiq ko'rib (uni har qanday shubha-gumondan mustasno bilib va bunga to'liq inonganlari holda) hamma uchun sir bo'lib qolgan rejalaridan voqif etganlari uning yodida edi. Bu rejalar qanday mudhish, ularni o'ylab chiqqan odamlar qanday ashaddiy gazzob-u razil bo'lmasin, uni qadam-baqadam jinoyatlar va noumidlikning tubsiz o'p'qoniga izchillik bilan yaqinlashtirayotgan Fedjinga nisbatan g'azab-u alamzadaligi qanchalik behudud bo'lmasin, shunga qaramay, har holda, tag'in sirni fosh etganim cholni shuncha yillar mobaynida qochib-qutulib yurgan temir iskanjaga ilintirmasa (garchi qilmishiga yaraSha jazosi aynan shu bo'lsa hamki) — chol mening kasofatim tufayli halok bo'lmasa edi, degan xavf bilan o'sha yovuzga achingan onlari ham bo'lardi.

Garchi qiz hech qanday o'y-mulohazaga qaramay, butun fikr-yodini bir maqsadga qaratishga va o'ylagan niyatidan og'ishmaslikka qodir bo'lsa-da, bu taxlitdagi ruhan ikkilanishlar ilgarigi sherik va oshnalaridan butunlay ayirib tashlay olmasdi uni. Uning Sayksdan olayotgan xavotiri hali vaqt bor ekanida o'ylagan yo'lidan chekinishi uchun jiddiy sabab bo'lishi mumkin edi; biroq u sirini ehtiromla pinhon tutishni kelishib olgandi. Qiz Sayksni topishga yordam beradigan birorta ip uchini tutqizmagan edi; yigitni deb u hatto o'zini to'r yanglig' qurshagan jinoyatlar hamda qabohat-u razilliklardan xalos bo'lishini ham rad etgandi — bundan ortiq yana nima qila olardi? U shunga jazm etdi.

Garchandki qalbidagi olishuv shunday ahd bilan tugagan bo'lsa ham, bari bir u takror va takror bosh ko'tarib chiqaverdi, izsiz yo'qolavermadi. Ana shu bir necha kun ichida Nensi ozib-to'zib, rangi bir holatda bo'lib qoldi. Ba'zan u atrofida bo'layotgan voqealarga mutlaqo e'tibor bermas va gap-so'zlarga aralashmasdi; ilgarilari esa hammadan balandroq shang'illagani-shang'illagan edi. Ba'zida ma'yus jilmayib qo'yar yo hech narsadan hech narsa yo'q shovqin

ko'tarardi. Goho — oradan biror daqiqa o'tar-o'tmas, ko'pincha — u jimgina, o'yg'a tolqancha boshini qo'llariga qo'yib g'amgin o'tirar va bunday paytda zo'r berib sal tetiklanishga urinayotgani, uning hushi joyida emasligini hamda o'y-xayolining oshnalari gaplashayotgan gapga zarracha aloqasi yo'q ekanligini hozirgina aytgan jamiki alo-matlarimizdan ko'ra oshkoraroq aytib turardi.

Yakshanba oqshomi edi, yaqindagi cherkov qo'ng'irog'i soatni bildirib jom ura boshladi. Suhbatlashib o'tirishgan Sayks bilan juhud jim bo'lib, jom ovozig'a quloq sola boshlashdi. Pastakkina kursida munkayib o'tirgan qiz boshini ko'tardi-da, u ham quloq tutdi. O'n bir.

— Yarim kechaga bir soat qolibdi, — dedi Sayks chiy pardani ko'tarib ko'chaga ko'z tashlab, o'z joyiga qaytar ekan. — Buning ustiga zim-ziyo, havo bulut. Ovbop antiqa kecha.

— Eh! — xo'rsindi Fedjin. — Attang, chamalab qo'yilgan ovimizning yo'qligini qarang-a, azizim.

— Bu gal siz haqsiz, — dedi Sayks tumtayib. — Ming afsus, nega deganingizda, shu topda juda ko'nglim chopib turuvdi-da.

Fedjin uf tortib, ma'yus bosh chayqab qo'ydi.

— Ishimiz jo'nashib ketdi degunicha bekor ketgan vaqtning hissasini chiqarishimiz kerak, shu to'g'rida bosh qotirib turibman, hozir, — deb qo'ydi Sayks.

— Juda to'g'ri o'ylabsiz, azizim, — javob berdi Fedjin, uning kiftiga qoqib qo'yishga jur'at etib. — Bu gapingiz moyday yoqyapti-da, kaminaga.

— Moyday yoqyapti deng! — vag'illadi Sayks. — Nimayam derdim, mayli, yoqsa yoqa qolsin.

— Hi-hi-hi! — go'yoki bu gap ko'nglini tinchitgandek, kulib yubordi Fedjin. — Ilgarilari qandoq bo'lsangiz, bugun xuddi o'shandoqsiz, Bill. Butunlay o'shandoq.

— Kiftimga manavi qoqshoq panjalingizni qo'ygan paytingizda men o'zimni o'shandoq his qilmayman aslo. Shundoq ekan, oling uni, — dedi Sayks juhudning qo'lini siltab tashlarkan.

— Bu jazavangizni qo'zityapti, Bill; nazdimda, xuddi sizni ushlab olishgandek bo'lib tuyulyapti shekilli-da, a? — dedi Fedjin xafa bo'lmaslikka ahd qilib.

— Nazarimda yelkamdan iblisning naq o'zginasi changallaganday bo'ldi, — javob qildi Sayks. — Turqi o'zlarinikiga o'xshagan odam dunyoga kelganmas sira. Otangizniki shunaqa bo'lgan chog'imda, hozir oq oralagan bo'rg'il soqolini jizg'inak qilishayotgandir-ov. Yoki, masalan, o'zlari hech qanaqangi ota-potasiz, naq alvastidan tug'ilgandirsiz balki, bordi-yu, shundoq bo'lganidayam tirnoqchalik hayron bo'lmasdim.

Fedjin ushbu tavsifga hech nima deb javob qaytarmadi, lekin Sayksning yengidan tortib, ularning gapga tushib ketganlaridan foydalanib shlyapasini kiyib olgan va endilikda xonadan chiqib ketishga chog'langan Nensiga ishora qildi barmog'i bilan.

— Hey! — o'shqirdi Sayks. — Nensi! Shu mahalda bu qiz qayoqqa o'tlanib qoldi?

— Uzoqqamas.

— Bu qanaqangi javob bo'ldi? — dedi Sayks. — Yo'l bo'lsin?

— Uzoqqamas, dedim-ku.

— Men, qayoqqa, deb so'rayapman! — o'dag'ayladi Sayks. — Gapimni eshityapsanmi o'zi?

— Qayoqqaligini o'zim ham bilmayman, — javob berdi qiz.

— Unda men bilaman, — dedi Sayks, qizni tashqariga chiqarmaslikka asosli sabablari borligi tufaylidan emas, qaysarligi sababli. — Hech qayoqqa bormaysan!.. O'tir!

— Mazam qochib turibdi. Buni aytgandim-ku senga, — qarshilik bildirdi qiz. — Birpas sof havoga chiqmoqchiman.

— Boshingni oynadan chiqarib, nafas olaver, — javob qildi Sayks.

— Kor qilmaydi unda menga, — dedi qiz. — Tashqariga chiqib nafas olishim kerak.

— O'lib qolmaysan! — javob qildi Sayks.

Shunday deb u o'rnidan turib borib, eshikni qulfladi, kalitini sug'urib oldi-da, qizning boshidan shlyapasini yulqib, eski javonga ulotqirdi.

— Mana shundoq, — dedi gazzob. — Endi joyingga borib, jimgina o'tir, eshityapsanmi?

— Shlyapasiz ham chiqib ketaveraman, — dedi qiz rangi quv o'chib. — Senga nima bo'ldi o'zi, Bill? Nima qilayotganingni bilasanmi o'zing?

— Bilasanmi o'zing degin-a... Ho! — taajjub bilan dedi Sayks Fedjingga yuzlanar ekan. — Buni qarang, miyasini yeb qo'yibdi, yo'qsa, men bilan bunaqangi ganlashishga botinolmasdi.

— Birorta nojo'ya, ishkali qilib qo'yishimga sababchi bo'lasan bunaqa-da, — g'o'ldiradi qiz, xuddi jazavasini tiyishga uringandek ikki qo'lini ko'ksiga bosib. — Qo'yib yubor, eshityapsanmi... hoziroq... shu lahzadayoq!

— Yo'q, — dedi Sayks.

— Fedjin, ayting unga, meni chiqarib yuborsin. Yaxshisi, chiqarib yuborsin. O'zi uchun yaxshi bu. Eshityapsanmi gapimni? — deya qichqirdi Nensi deysinib.

— Eshityapsanmi degin? — dedi Sayks kursida o'tirgan joyida unga burilib qararkan. — Agar tag'in bir daqiqa gapingni eshitadigan bo'lsam, ko'ppak shundoq giriboningdan oladi-yu, o'sha chiyil-

doq ovozingni o'chiradi-qo'yadi. Nima jin urdi seni, alvasti? Nima jin urdi deyaрман?!

— Chiqarib yubor meni, — deb turib oldi qiz ikki oyog'ini bir kavushga tiqib va eshik oldiginasida yerga o'tirib, qo'shib qo'ydi: — Bill, chiqarib yubor meni! Nima qilayotganingni o'zing ham bilmayapsan. Ha, bilmayapsan... Atigi bir soatgagina... Chiqarib yubor! Chiqarib...

— Bu qizning miyasi aynib qolmagan bo'lsa, mayli, tanamni burda-burda qilishlariga ham tayyorman, — xitob qildi Sayks qizning yelkasiga qo'pollik bilan chang solgancha. — Tur o'rningdan!

— Bu yerdan chiqarib yubormaydigan bo'lsang... chiqarmasang... hecham... hecham turmayman!.. — chiyilladi qiz.

Sayks qulay fursatni kutib bir nafasgina qizga tikilib turdi, keyin birdan qo'lini qayirdi-yu, qarshiligiga parvo qilmay choqqina qo'shni xonaga sudrab ketdi. U yerda qizni stulga tashlab, qo'lini qo'yib yubormay, o'zi ham yonidagi kursiga cho'kdi. Qiz to soat o'n ikkiga jom urilgunicha dam yulqinib, dam yalinib-yolvorib ko'rdi, vaqt shu pallaga yetgach esa, charchab va holdan toyib, ortiq tixirlik qilmay qo'ydi. Sayks behisob-u besanoq koyishlar bilan bugun uydان chiqishga ortiq urina ko'rma deb ogohlantirib, uni tinchlansin uchun o'z holiga qoldirib, Fedjinning yoniga qaytdi.

— Antiqa gap bo'ldi-ku! — dedi tomteshar betidagi terni artarkan. — O'lgudek g'alati qiz-da bu.

— Nimasini aytasiz, Bill... — o'ychan qiyofada javob qaytardi Fedjin, — nimasiniyam aytasiz.

— Sizningcha qanday, yarim kechada uydان chiqib ketish xayoli kallasiga nimaga va qayoqdan kela qoldiykin? — so'radi Sayks. — Menga qarang, uni mendan ko'ra yaxshiroq bilasiz-ku axir. Bu qiligi qanaqa bo'ldi?

— Qaysarlik. Menimcha, ayollarning qaysarligi bu, azizim.

— Menimchayam shunaqaga o'xshaydi, — to'ng'illadi Sayks. — Uni gah desa qo'lga qo'nadigan qo'lbola qilib oldim, deb o'ylagandim, ammo u o'sha-o'sha bir paqirga arzimaydigan yaramasligicha qopti.

— Undan ham battarroq, — dedi Fedjin o'ychan. — Bu-naqangi arzimagan narsa uchun shunaqangi jazavasi tutishini sira ko'rmagandim ilgari.

— Men ham, — dedi Sayks. — O'ylaymanki, qonida o'sha isitma-bezgakning asorati bormikin haliyam, a?

— Shunaqaga o'xshaydi.

— Agar yana bir marta shunaqangi qiliq qiladigan bo'lsa, doktorni ovora qilib o'tirmay, jindakkina qonidan olaman-qo'yaman, — dedi Sayks.

Fedjin bunday muolajani ma'qullagandek ma'nodor bosh irg'ab qo'ydi.

— O'lasini bo'lib qimir etmay yotganimga, sizga o'xshagan yovuz bo'rivachcha qorangizni ko'rsatmay qochib yurganingizda, u tun-u kun tepamdan ketmadi, — dedi Sayks. — Bu kamlik qilgandek, hech vaqosiz muhtojlikda qiynaldik, ana shu narsa qiynab, asabini qaqshatmadimikin deb o'ylayman. Innaykeyin, uzoq vaqt hech yoqqa chiqmay qamalib o'tiraverishdan shunaqangi betoqat bo'lib qolgandir, ehtimol.

— Xuddi shundoq bo'lgan, azizim, — shivirlab javob qildi juhud. — Sekin.

U shu so'zni aytib bo'lishi bilan qiz xonaga kirib kelib, boyagi joyiga o'tirdi. Qovoqlari shishib, ko'zlari qizarib ketgandi; qiz orqaga va oldinga silkinib-tebranib, boshini silkib turdi-da, qo'qqisdan qah-qah urib kulib yubordi.

— Mana, endi boshqa navoni boshladi! — dedi Sayks hayrat-la o'z suhbatdoshiga tikilib.

Fedjin, qo'yaver, e'tibor berma, degan ma'noda imo qildi va bir necha daqiqa o'tgach, qiz o'ziga keldi. Fedjin Sayksga, yangi tutqanoq xurujidan cho'chimasa ham bo'ladi, deb shivirlab, shlyapasini oldi-da, xayrli tun tiladi. Eshik yoniga yetganida picha to'xtab, o'girilib qaradi va qorong'i zinapoyani yoritib yubormaysizlarmi bi-rortalarigiz, deb so'radi.

— Chiroq tutib yubor, — dedi Sayks trubkasini to'latayotib. — Tag'in qoqinib ketib qulog'i tagida qolib, bunday tomoshaga qiziqadiganlarni dog'da qoldiradigan bo'lsa juda alam qiladi-da. Sham tutib yubor unga.

Nensi shamni olib, cholning ketidan zinapoyadan tusha boshladi. Dahlizga tushganlarida chol barmog'ini labiga bosib, qizga yaqinlashdi-da, shivirlab so'radi:

— Nima bo'ldi, Nensi, azizim?

— Nimani aytyapsiz? — qiz ham xuddi o'shanday ohistagina so'radi.

— Bu mashmashalarning boisini so'rayapman, — javob qildi ohistagina Fedjin. — Agar-chi u, — qoqsuyak barmog'i bilan tepani ko'rsatdi chol, — senga bunaqangi qahr qiladigan bo'lsa (axir u g'irt mol, Nensi, ho'kizni o'zginasi-ku), unda nimaga haliginday...

— Xo'sh? — dedi qiz Fedjin lablarini deyarli qizning qulog'iga qadagancha, aftiga tikilgan ko'yi jim qolganida.

— Hozir bu haqda gaplashmay qo'ya qolaylik. Keyinroq suhbatlasharmiz. Meni do'st deb bil, Nensi, sodiq do'st. Menda ishonchli va bexavotir vositasi bor buning. Mabodo senga bir it o'rnida

muomala qiladiganlardan o'ch olmoqchi bo'lsang — yo'q, itdan ham battar, nega deganingda u ba'zan itni erkalab qo'yadi — mening oldimga bor. Eshityapsanmi, oldimga borgin-a! Bu yaramasni bilganingga atigi besh kungina bo'ldi, meni esa ko'pdan bilasan, Nensi.

— Ha, sizni juda yaxshi bilaman, — javob qildi qiz mutlaqo xotirjam. — Yaxshi boring.

Qiz Fedjin qo'lini qisib xayrlashmoqchi bo'lganida bir sapchib o'zini chetga oldi, biroq unga qat'iy ovozda xayrli tun tiladi, yana cholning xayr-ma'zur-la boqqan nigohiga ma'nodor bosh irg'ab, ortidan eshikni qulfladi.

Fedjin chuqur xayolga tolib uyi sari borardi. Uning ko'nglida asta-sekin shubha — garchand bugungi mashmasha buning isboti o'rnida xizmat qilgan bo'lsa-da, nafaqat shuning uchungina — bu gazzobning qo'polligidan qiynalib ketgan Nensi yangi do'st orttirish payiga tushgan degan shubha tug'ilib, mudom qat'iylashib bormoqda edi. Uning muomalasidagi o'zgarishlar, uydin tez-tez g'oyib bo'lishlar, qachonlardir o'zi shunchalar sadoqatli bo'lgan sheriklari manfaatiga qiziqsinishi bir qadar sovishi-yu e'tiborsizligi va ustiga-ustak, shu bugun oqshomgi ma'lum soatda o'lamen sattor uydin chiqib ketaman deyishi — ana shularning jami uning gumon-u taxminlarini haqiqatga o'xshatib, aqalli uning uchun ishonchga aylantirgan edi. Ushbu yangi muhabbat egasi uning shogirdlaridan emasga o'xshaydi. Nensiday yordamchisi bilan birgalashsa u bebaho o'lja bo'lishi mumkin, shu boisdan (shu taxlit mulohaza yuritardi Fedjin) qizning mahbubini fursatni o'tkazmay, darhol og'dirib olish zarur.

Yana boshqa bir, tag'inam jinoyatkorona mo'ljalni ham nazardan qochirmaslik lozim. Sayks ko'p narsadan xabardor, uning qo'poldan-qo'pol masxara-yu istehzolari Fedjinni, u qanchalik sir boy bermasin, ozmuncha g'ijintirmasdi. Qiz shu narsani yaxshi bilishi kerakki, bordi-yu, Sayksni tashlab ketadigan bo'lsa, hech qachon uning g'azabidan qochib qutulolmaydi. Bu g'azab, shak-shubhasiz, qizning yangi muhabbati egasi boshiga yog'iladi, ushbu hol esa mayib qilishgacha, ehtimolki, o'lingacha olib boradi. «Qizni ko'ndirishga urinib ko'rish arziydigan gap, — fikr yuritardi Fedjin, — uni zaharlashga rozilik berishiyam ehtimoldan xoli emas sira. Bunday niyatlari- ga erishish uchun ayollar beshbattar ishlarniyam qilishgan. Ana unda men o'lgudek yomon ko'radigan odam, xavfli gazzob yo'ldan g'oyib bo'ladi; uning o'rnini boshqasi egallaydi, jinoyati menga ma'lumligi tufaylidan esa unga nisbatan bo'lgan ta'sirim behad ortadi».

Fedjin tomtesharning uyida o'tirgan qisqa vaqt orasida ana shu o'y-fikrlar miyasidan chappor urib o'tgan va vujudi bu o'ylar bilan band bo'lib, keyinroq, xayrlashuv oldidan imkoniyat tug'ilganidan

foydalanib, bir necha mubham shamalar bilan qizni sinab ko'rgandi. Qiz taajjulanmadi, biroq o'zini go'yoki uning gapiga tushunmayotgan qilib ko'rsatdi. Qiz hammasini fahmlagandi. Xayrlashayotgan paytdagi nigohi yaqqol aytib turardi buni. Ammo, balki Sayksni gumdon qilishni taklif etganida qiz mutlaqo rad etar; bu esa hamisha u yodda tutishi kerak bo'lgan asosiy mo'ljallardan biri edi. «Bu qizga bo'lgan ta'sirimni qanday kuchaytirib, jilovidan qanday mahkamroq tutsamikin?» — deb o'ylardi Fedjin uyi tomon surgalib borayotib.

Bu toifadagi odamlar chora-tadbir topishga usta bo'ladilar. Aytaylik, Fedjin qizni dilini yorishga majbur qilib o'tirmay, izidan poylab, uning yangi ko'ngil qo'ygan kimsasini bilishga urinadi; ana unda bordi-yu, qiz uning niyatini rad etsa, hammasini Sayksga aytaman deb po'pisa qiladi (Sayksdan bo'lsa qiz hazilakam qo'rqmaydi). Xo'sh, shunda qizni rozi qila olasmikin?

— Albatta, shundoq qilaman, — pichirlab qo'ydi Fedjin. — Ana unda gapimni qaytarishga jur'at etolmaydi. Hecham, ha, hecham jur'at etolmaydi. Hammasini puxta qilib o'ylab qo'ydim. Dori qo'limda, chora-tadbir bashang, shaksiz ishga solaman barini. Kunim bitdi deyaver, joning mening qo'limda!

U orqasiga o'girilib, g'amgin nazar tashlab, o'zidan chandon bora dovyurak ablahni tashlab kelayotgan tomonga musht do'layib qo'ydi-da, bamisoli manfur raqibini g'ijimlayotgandek, qoqsuyak panjalari bilan yirtiq yopinchig'i qatlarini yulqib, mijg'ilagancha o'z yo'liga ravona bo'ldi.

---

---

**XLV BOB. FEDJINNING NOE KLEYPOLGA MAXFIY  
TOPSHIRIQ BERGANI**

Ertasiga ertalab chol barvaqt turib, yangi hamtovog'ining kelishini sabrsizlik bilan kuta boshladi; u bo'lsa xiyla kechikib kirib keldiyu, kira solib ochofatlik bilan nonushta qilishga tashlandi.

— Bolter, — dedi Fedjin kursisini yaqinroq surib, Moris Bolterning ro'parasidan joy olarkan.

— Mana, kaminalari hozir bo'ldilar, — javob qildi Noe. — Nima gap? To ovqatlanib bo'lgunimcha gapga solmay turing meni. Bu yerda sira bermalol-xotirjam ovqatlanishga vaqt yetmas ekan, shunisi yomon ekan-da.

— Nima balo, bir vaqtda ham gaplashib, ham ovqatlanayolmaysizmi? — so'radi Fedjin ichida xushmuomala yosh do'stining mechkayligiga la'natlar o'qib.

— Xo'sh, haliginday, gaplasha olaman. Gaplashib turganimda qaytaga ishim unumliroq bo'ladi, — dedi Noe nondan lo'mbozday bo'lagini qirqib olarkan. — Sharlott qayoqda?

— Ketdi, — javob berdi Fedjin. — Ertalab uni boshqa yosh ayolga qo'shib jo'natdim, sababki, siz bilan tanho qolmoqchidim.

— Ehye! — dedi Noe. — Esizgina, oldin unga nonni yoqqa qovurib qo'yishni buyurmabsiz-da. Ha, mayli. Gapira qoling. Menga xalal bermaysiz.

Darhaqiqat, hech nima bilan unga xalal berish xavfi yo'qqa o'xshardi, zotan u stol yoniga astoydil ter to'kish niyatida o'tirgan edi.

— Kecha binoyi ishladingiz, azizim, — dedi Fedjin. — Qoyil, qildingiz. Birinchi kuniyoq olti shilling-u to'qqiz yarim pens. Qushchalarni tuzoqqa ilintirish bobida tuppa-tuzuk boylik orttirib olasiz.

— Bunga uchta qalayi krujka bilan sut soladigan ko'zani qo'shib qo'yishni unutmang-a, — dedi mister Bolter.

— Ha-ha, to'g'ri aytasiz, azizim. Krujka masalasiga kelsak — o'xshatib yasalgan, ko'zaga-ku, havasi keladi odamning.

— Nazarimda, yangi ish boshlayotgan havaskor uchun chakkiyamas bu, — deb qo'ydi mister Bolter mag'rurlanib. — Krujkalarni g'ovga ilib qo'ygan joylaridan o'mardim, ko'za bo'lsa qovoqxona ostonasida naq meni ol, meni ol, deb turibdi-da. Tag'in yog'in-sochin-



da zanglab yoki, bilsangiz, shamollab-pamollab o'tirmasin dedim-da. A labbay? Xa-xa-xa!

Fedjin o'zini astoydil kulayotganga soldi, mister Bolter esa miriqib qah-qah urganicha oldinma-ketin bir nechta bo'lakni og'ziga tashladi va birinchi lo'mbozdek non bo'lagini moy bilan yeb bitirgach, ikkinchisiga kirishdi.

— Bolter, men uchun bitta ishni, nihoyatda ehtiyotkorlik va tishqoqlikni talab qiladigan yumushni ado etishingiz kerak, azizim.

— Menga qarang, — dedi Bolter, — tag'in meni xavfli ishga undash yoki yana politsiyaxonaga yuborishni xayol qila ko'rmang-a. Bu sirayam to'g'ri kelmaydi menga, shartta yuzingizga aytib qo'yyapman buni.

— Hech qanaqangi xavotirli joyi yo'q, zig'irchaligam, — dedi juhud, — faqat bir ayolni kuzatish kerak, xolos.

— Birorta kampirnimi? — so'radi mister Bolter.

— Yosh juvonni, — javob berdi juhud.

— Bunaqangi ishni qotirib tashlayman, — dedi Bolter. — Maktabda juda epchil chaqimchiydim. Xo'sh, nimaga kuzataman uni? Tag'in anavinaqangi...

— Hech nima qilmaysiz, faqat uning qayerga borgani, kim bilan uchrashgani va agar imkoni bo'lsa, nimalarni gaplashganini menga xabar qilib turasiz, vassalom; agar ko'cha bo'lsa — qaysi ko'chaligini, agar uy bo'lsa — qaysi uyligini; keyin qanday ma'lumotni qo'lga kiritsangiz, hammasini menga yetkazasiz.

— Xizmatimga qancha haq berasiz? — so'radi Noe qo'lidagi chinioyoqni qo'yib, o'z xo'jasining basharasiga harislik-la tikilib.

— Qoyillatib eplashtirsangiz — bir funt, azizim. Roppa-raso bir funt, — dedi Fedjin uni ayg'oqchilikka qiziqtirib. — Hech qanaqangi foyda keltirmaydigan ish uchun hech qachon berganmasman buncha.

— Kim o'zi o'sha juvon? — surishtirdi Noe.

— O'zimiznikilardan biri.

— Yo Tangrim! — nido soldi Noe burnini jiyirib. — Demak, undan shubhalanayotgan ekansiz-da?

— U allaqanaqangi yangi do'stlar orttiribdi, azizim, men esam ular kimligini bilishim kerak, — javob qildi Fedjin.

— Tushunaman, — dedi Noe. — Mabodo ular hurmatli odamlar bo'lsa tanishish sharafiga musharraf bo'lish uchungina ekan-da, a? Xa-xa-xa!.. Xizmatimgizga tayyorman.

— Rozilik berishingizni bilgandim o'zim ham! — xitob qildi Fedjin o'z rejasi muvaffaqiyatli chiqayotganidan zavqi oshib.

— Albatta, shubhasiz! — javob qaytardi Noe. — Qayerda u? Qayerda poylashim kerak uni? Qayerga borishim kerak?

— Hammasini o'zim aytaman sizga, azizim. Vaqti-soati yetganda uni o'zim ko'rsatib qo'yaman sizga, — dedi Fedjin. — Siz shay bo'lib turavering-u bu yog'ini menga qo'yib beravering.

O'sha kuni oqshomgacha va keyingi ikki kun mobaynida ayg'oqchi oyog'ida etik, Fedjinning buyrug'i bilan tashqariga chiqishga shay bo'lib, aravakashlarday to'liq kiyinib o'tirdi. Oradan olti oqshom — iztirobli, yilday cho'zilgan olti oqshom o'tdi. Har gal Fedjin uyga hafsalasi pir bo'lib, qovoq-tumshug'i osilib kirib kelar va hali fursati yetgani yo'q, deb gapni qisqa qilib qo'ya qolardi. Yettinchi kun deganda u odatdagidan barvaqtroq, hayajonini arang yashirgancha paydo bo'ldi uyda. Yakshanba kuni edi.

— Bugun uydan chiqadi u, — dedi Fedjin. — Imonim komil, xuddi o'sha ish bilan... Uzzukun yolg'iz o'tirdi uyda, u qo'rqadigan odam bo'lsa sahardan oldin qaytmaydi. Yuring. Tezroq bo'la qoling.

Noe g'ing demay o'rnidan sakrab turdi, zero juhud shunaqangi kuchli hayajonda ediki, buning ta'siri unga ham yuqqandi. Ular uydan pisibgina chiqishib, ilang-bilang, aylanma jinko'chalardan zud ilgari lab borisharkan, axiyri Noe Londonga tashrif buyurgan kuni tunagan qovoqxona qarshisida to'xtashdi, ayg'oqchi uni tanidi.

Shu topda soat o'n birdan oshgan, eshik esa qulflog'liq edi. Fedjin sekingina hushtak chalgandi, u sharpa chiqarmay ochildi. Ular astagina ichkari kirishdi-yu, ketlaridan eshik yopildi.

Fedjin bilan ularni ichkariga kiritgan yosh juhud shivirlab gaplashishga bazo'r botinib va so'z o'rniga imo-ishora bilan Noega shapaloqdekkina oynani ko'rsatib, yon xonada o'tirgan ayolni ko'rib olishni imlashdi.

— Bu o'sha juvonmi? — eshitarlar-eshtilmas qilib so'radi u.

Fedjin «ha» degan ma'noda bosh igr'adi.

— Aftini tuzukroq ko'rolmayapman-ku, — shivirladi Noe. — U boshini egib olibdi, sham bo'lsa orqa tomonida.

— Sabr qiling, — pichirladi Fedjin.

U Barniga imo qilgandi, yigit chiqib ketdi. Lahza o'tmayoq u yon xonaga kirib, go'yo shamning so'xtasini olib tashlamoqchi bo'lgandek zarur joyga surib qo'ydi-da, qizni gapga solib boshini ko'tarishga majbur etdi.

— Endi ko'ryapman uni, — shivirladi ayg'oqchi.

— Aniqmi?

— Ming odamni orasidan ham tanib olardim uni!

U tez pastga tushdi, negaki xonaning eshigi ochilib, qiz ostonada ko'ringandi. Fedjin ayg'oqchini xonaning parda bilan to'silgan burchagiga tortdi va ikkovlon qiz bir necha qarichgina narilaridan o'tib,

hozir o'zlari kirgan eshikdan chiqib g'oyib bo'larkan, nafaslarini ichlariga yutib turishdi.

— Jim! — dedi ularga eshik ochgan yigit. — Vaqt bo'ldi!

Shunda Noe Fedjin bilan ko'z urishtirib olib, qovoqxonadan chopgancha chiqib ketdi.

— Chapga! — qulog'iga shivirladi yigit. — Chapga qarab yuring, keyin ko'chaning u betiga o'tib oling.

Noe xuddi shunday qildi va fonuslar yorug'ida ancha narida uzoqlashib borayotgan qizning qorasini ko'rdi. Mudom ko'chaning narigi betidan ilgarilab borarkan, u o'zi zarur hisoblaganicha qizga yaqinlab bordi, shunda kuzatishi qulay bo'lardi. Qiz ikki yohud uch marta xavfsirab o'girilib qaradi, bir gal orqasidan kelayotgan ikki erkakni o'tkazib yuborish niyatida picha to'xtadi ham. Chamasi, uzoqlashib borgani sayin u dadillashayotganga o'xshardi, mana endi shaxdam, ishonch-la qadam bosyapti. Ayg'oqchi o'zi bilan qiz oraligidagi boyagi masofani saqlagan holda, undan ko'zini uzmay odimlardi.

London ko'prigida ikki kishining qorasi paydo bo'lganida cherkov soati chorakkam o'n ikkiga zang ura boshladi.

Oldinda, tez-tez shoshilinch odimlayotgani ayol kishi bo'lib, xuddi bironi kutayotgan va izlayotgandek toqatsizlik bilan atrofga alanglardi; ikkinchisi, imkoni boricha qorong'i, ko'laga quy-uqroq joylardan yurishga hamda olisdan turib ayolning odimiga moslab qadam tashlashga intilayotgani esa erkak kishi edi. U ayol to'xtaganda to'xtar, yurishi bilan olg'a siljir, ammo ta'qib qizig'ida ham o'ziga ayolga yetib olishga izn bermasdi. Ular shu tariqa ko'prik orqali Midlseksdan Sarri tomonga o'tishdi, shunda yo'lovchilarning yuzlariga xavotirlanib, tikilib borayotgan ayol, umidi ro'yobga chiqmadi chog'i, to'satdan orqaga qaytdi. U qo'qqisdan orqasiga burildi, biroq uni kuzatib kelayotgan odam g'aflatda qolmadi: ko'prik ustunlari oralig'idagi kamgaklardan biriga biqinib, yaxshiroq berkinish uchun panjara osha engashgan ko'yi to ayol narigi betdagi yo'lkadan o'tib ketgunicha pisib turaverdi. Ayol boyagi masofachalik oldinga o'tib ketganidan so'ng u panagohidan astagina chiqdi-da, tag'in juvonning izidan yo'lga tushdi. Juvon ko'prikning deyarli o'rtasiga yetganida to'xtadi. Shunda erkak ham to'xtadi.

Tun zimiston, havo buzuq, buning ustiga bemahalda bunday joyda yo'lovchilar nihoyatda kam edi. Siyrak yo'lovchilar chamasi na ayolni, na uni ko'zdan qochirmay, turgan gapki, o'tkinchilarga e'tibor ham bermay kelayotgan erkakka parvo qilmay, yonlaridan zippilaganicha o'tib borishardi. Ularning qiyofalari tunagani biror muzdek kovak yoxud eshik-derazasiz birorta kapani izlab o'sha oqshom ko'priikka tasodifan kelib qolgan London gadolarining bezorijon qiluvchi shilqim nigoh-u diqqatlarini tortgunday emasdi. Har ikkovlari ham jimgina turishar — hech kimga gap qotishmas, yo'lovchilardan ham hech biri ularga gap tashlamasdi.

Daryo uzra bulut yanglig' suzayotgan tumanda turli bandargohlarga kelib qo'ngan kichik-kichik kemalarda yonib turgan chiroqlarning qizg'ish shu'lasi yanada quyuqlashar, sohildagi mahzun imoratlar beshbattar badbinlashib, chaplashib ketganday tuyulardi. Daryoning ikki qirg'og'ida qalashib-uyqashib, bir-biroviga mingashib ketgan tomlar-u

rah-bo'g'otlar uzra ko'hna, qurum bosgan omborxonalar vazmin-u badqovoqlik-la yuksalib, bamisli g'amnok bir qiyofada suvga termilib turganday, suv esa nihoyatda qoraligidan hatto ularning haybatli shakli-tarhini aks ettirishga ojizlik qilayotganday edi. Qorong'ilik qa'rida ko'hna Najotkor ibodatxonasining minoralari hamda Sent-Mangus cherkovining minora nayzasi — qadimiy ko'prikning azamat posbonlari — ko'zga tashlanib turibdi; ammo pastdagi kema machtalaridan hosil bo'lgan o'rmon-u yuqoridagi chor atrofda bodragan cherkovlar mezana-minoralari deyarli nazardan yashiringan.

Qiz tashvishlanib bir necha marta u yoqdan-bu yoqqa borib keldi — ortidan ayg'oqchi ham muttasil kuzatishda davom etdi; nihoyat avliyo Pavel jomesining zalvorli qo'ng'irog'i yana bir kunning umri tugaganidan darak berib bong urdi. Gavjum shahar uzra yarim tun o'z chodrasini yoydi. Qasr-u saroylarni, tungi mayxonalarni, turmayu jinnixonalarni, yetimxona, tug'ruqxona-yu o'limxonalarni, shifoxona-yu kasalxonalar, qotib-sarg'aygan murdalar beti-yu tinchgina uxlayotgan ma'sum go'daklarni — jami-jamini tun o'z bag'riga oldi.

Soat zang urganidan ikki daqiqacha fursat o'tmayoq ko'prik yaqinginasida to'xtagan yollangan izvoshdan yosh xonim bilan nuroniy jentlmen tushishdi-yu, izvoshti jo'natib yuborib, to'g'ri ko'prikka qarab yurishdi. Ular ko'prikka qadam qo'yanlari hamonoq qiz bir seskanib tushdi-yu, o'sha ondayoq ularning istiqboliga shoshildi.

Qarshilarida to'satdan qiz paydo bo'lganida ular amalga oshishi amrimahol allanimalaridir kutayotgan bir qiyofada atrofga tikila-tikila ilgarilab kelishayotgan edi. Ular hayratdan voh degancha to'xtab qolishdi, biroq o'sha zamonaoq nafaslarini ichga yutishdi, negaki xuddi shu damda shundoq yonginalaridan — hatto ularga surkanib qishloqcha kiyingan qandaydir bir odam o'tib ketdi.

— Bu yerdamas! — dedi Nensi shosha-pisha. — Bu yerda sizlar bilan gaplashgani qo'rqaman. Yuringlar... yo'ldan nariroqqa... manavi zinadan pastga tushaylik.

Qiz shu so'zlarni aytib, qo'li bilan ularni boshlab bormoqchi bo'lgan tomonni ko'rsatayotganida qishloqi yigit orqasiga o'girilib, qo'poldan-qo'pol qilib, nimaga endi butun yo'lkani egallab oldinglar, deb to'ng'illab, nari ketaverdi.

Qiz ko'rsatgan zina Sarri tomonda, "Najotkor" ibodatxonasi joylashgan sohilda bo'lib, daryo bandargohi xizmatini o'tardi. Qishloqi yigitga o'xshab ko'ringan erkak hech kimga sezdirmay o'sha yoqqa oshiqdi va bu joyga tezgina razm soldi-yu, pastga tusha boshladi.

Ushbu zina ko'prikning bir qismi edi; u uchta ravoqdan iborat edi. Ikkinchi ravoqning oxiridagi quyiga qarab ketgan tosh devor so'l tomonda, Temzaga qaragan naqshinkor to'rt qirra ustun bilan tugar-

di. Bu yerga kelganda zinaning quyi poyalari kengayib ketardi, shu bois devorning burilgan joyi orqasiga o'tib olgan odam, mabodo ular yashiringan odamdan loaqal bittagina poya balandda turishgan bo'lsa ham, zinadagilarga ko'rinmasdi. Qishloqi yigit xuddi shu joyga yetib kelib, tevarakka tezgina ko'z yugurtirdi va hech yerda bundan bo'lak xilvatroq panahgoh ko'rinmagani, keyin suv qaytgani sababli bema-lol tursa bo'ladigan joy borligi vajida u shippa o'shoqqa burildi-yu, naqshinkor ustunga qapishganicha, ularning pastga tushmasliklari-ga mutlaqo ishongan holda kuta boshladi; bordi-yu, hatto gaplarini eshitolmagan taqdirida ham yigit butunlay bexavotir yana ularning izidan borishi mumkin edi.

Mazkur xilvatgohda vaqt shu qadar imillab o'tayotgan va ayg'oqchining o'zi kutganiga butunlay o'xshamayotgan bu uchrashuv sababini bilishga shunchalik sabri chidamayotgan ediki, bir necha marta o'zini ishini yutqizgan hisoblashga ham tayyor bo'ldi yo ular ancha tepada to'xtashgan, yo maxfiyona suhbat qurgani butunlay boshqa yoqqa ketishgan, deb qo'ydi o'z-o'ziga. U endi panagohidan chiqib, tag'in tepaga ko'tarilishga shaylangan ham ediki, to'satdan odim sharpalarini, orqama-orqasidan esa naq qulog'i teppaginasidan kelgan ovozlarni eshitib qoldi.

U devorga suyangancha qaddini rosladi-da, damini ichiga yutib, diqqat-la quloq sola boshladi.

— Bas, yetar! — dedi jentlmen, shubhasiz bu o'shaning ovozi edi. — Oyimqizning yanayam nariga borishiga yo'l qo'yolmayman. Siz bilan bu yerga uncha-muncha odam ishonib kelmasdi, illo, ko'rib turibsizki, men sizning ixtiyoringizdaman.

— Yo'l qo'yolmayman! — U kuzatayotgan qizning ovozi keldi. — Haqiqatdan ham juda xushmuomala, muruvvatli ekansiz, ser. Ixtiyo-rimga qo'yib berishs-a! Ha, mayli, buning ahamiyati yo'q.

— Xo'sh, nima maqsadda, — dedi jentlmen xiyla muloyim ohang-da, — nima maqsadda bu g'alati yerga boshlab keldingiz? Bizni bu zimiston va pasqam joyga boshlab kelish o'rniga o'shoqda, ham yorug'roq, ham odamlar o'tib turgan tepada gaplashishimizga nima-ga yo'l qo'ymadingiz?

— Boya aytdim-ku, axir, — javob qildi Nensi, — siz bilan u yer-da gaplashgani qo'rqaman deb. Nimagaligini bilmayman-u, — titrab-qaltirab qo'shimcha qildi qiz, — meni shunaqangi vahm bosyaptiki, oyog'imda arang turibman.

— Nimaning vahimasi? — deb so'radi jentlmen, aftidan, qizga achinib.

— O'zim ham bilmayman, — javob qaytardi qiz. — Koshkiy-di bilolsam. Kun bo'yi o'lim to'g'risidagi dahshatli o'ylar miyam-

dan sira nari ketmadi, ko'zimga allaqanaqangi qonga belangan kafan ko'rinaverdi, vujudimni shunaqangi vahima chulg'ab oldiki, alangayi otash bo'lib o'rtanib ketdim. Kechqurun, vaqt o'tsin deb qo'limga kitob olsam, satrlari orasida tag'in o'shanaqangi narsalar ko'rinaverdi desangiz.

— Xayolingizda shunaqa ko'ringan, — dedi jentlmen uni tinchlantirib.

— Yo'q, bu xayol emas, — dedi qiz ovozi xirillab. — Ont ichib aytishga tayyorman, kitobning har bitta sahifasida katta-katta qora harflar bilan yozilgan "tobut" so'ziga ko'zim tushaverdi, bugun kechqurun bo'lsa shundoqqina yonimadan tobutni ko'tarib o'tishdi.

— Buni sira hayron bo'ladigan joyi yo'q, — dedi jentlmen. — Mening yonimdan ham tez-tez olib o'tib turishadi uni.

— Siz aytayotganingiz rostakam tobut, — e'tiroz bildirdi qiz. — Bunisi bo'lsa boshqacha.

Qizning ovozida shunday bir g'alati ohang bor ediki, u aytgan so'zlarni eshitganida biqinib turgan ayg'oqchining terisidan qumursqa o'rmalab, eti muzlab ketganday bo'ldi. Qizning tasavvuri mahsul bo'lmish bunday xayoliy ro'yolarni pisand qilmay, tinchlanishga da'vat etuvchi oyimqizning tovushini eshitgani damda u shunday yengil tortib ketdiki, hech qachon bunchalik his etmagandi o'zini.

— U bilan muloyimroq gaplashing, — dedi oyimqiz o'z hamrohiga. — Sho'rlikkina! Menimcha, u juda-juda tashna bunga.

— O'sha sizning kalondimog' olijanob odamlaringiz, o'sha tanishlaringiz, hozirgi ahvolimni ko'rishsa burnilarini jiyirishib, do'zaxi doshqozon-u jazodan va'z aytib, pand-nasihat o'qishgan bo'lardi! — xitob qildi qiz. — Eh, jonginam, nimaga endi o'sha o'zlarini Yaratganning amri ma'rufini bajo etuvchi sanaydiganlar biz ayanchli maxluqlarga xuddi sizga o'xshab muloyim va mehribonlik bilan muomala qilishmaydi? Axir ular yo'qotgan narsalar — yoshlik, husn-latofatga ega sizdek odam jindakkina mag'rurlansangiz yarashardi-ku, aslida bo'lsa siz ulardan anchagina kamsuqumroqsiz.

— O! — deb qo'ydi jentlmen. — Tahorat olgan turk sajdaga bosh qo'ymoq-lik uchun qiblaga yuzlanadi, bu yorug' jahon bilan yuzlashgan pallalaridayoq tabassum yuzlarini bir umrga tark etgan taqvo-dorlar esa, albatta olamning eng qorong'i tarafiga o'girilib oladilar. Basharti, musulmon bilan bu munofiqlardan birini tanlashga kelganda, men birinchisini tanlagan bo'lardim.

Aftidan, bu so'zlar oyimqizga qaratilgan edi va ehtimolki Nensi-ning o'zini bosib olishiga imkon berish niyatida aytilgandir. Hech qancha vaqt o'tmay jentlmen yana qiz bilan gaplasha boshladi.

— O'tgan yakshanba kechqurun kelmadingiz bu yerga? — dedi u.

— Kelolmadim, — javob berdi Nensi, — zo'rlik bilan ushlab qolishdi meni.

— Kim?

— Oyimqizga ilgari aytgan odamim.

— Umid qilamankim, siz haqingizda bizni bu yerga yetaklab kelgan ish yuzasidan biror kimsa bilan muzokara olib borishda shubha uyg'onmagandir ularda? — deb so'radi kekso jentlmen.

— Yo'q, — javob berdi qiz bosh chayqab. — Nimaga ketayotganimni bilmasa, undan qutulib chiqish osonmas. Agar o'sha gal unga chiqib ketish oldidan afyun qo'shilgan ichimlik bermaganimda oyimqizga uchrasholmagan bo'lardim.

— U siz qaytib bormasingizdan burun uyg'onib ketibdimi? — so'radi jentlmen.

— Yo'q. Na u, na ulardan birortasi mendan shubhalanadi.

— Juda soz, — dedi jentlmen. — Endi gapimga quloq bering.

— Qulog'im sizda, — javob qildi qiz jentlmen bir lahza jim qolganda.

— Bu oyimqiz, — deya gapini boshladi jentlmen, — menga va xotirjam ishonsa bo'ladigan ba'zi do'stlariga siz deyarli ikki hafta burun gapirib bergan narsalarni xabar qildi. Tan olaman, oldiniga sizga to'liq ishonsa bo'larmikin, degan shubham boriydi, lokigin endilikda bunga aminman.

— Bo'ladi! — deya tasdiqladi qiz jo'shqinlik bilan.

— Takroran aytaman, aminman bunga. Sizga bo'lgan ishonchimning isboti sifatida, chalg'itib-netib o'tirmay, ochig'ini aytib qo'ya qolay, sir qanday bo'lishidan qat'iy nazar, biz uni o'sha Monksni qo'rqitib bilib olishni chamalayapmiz. Lokigin, mabodo... mabodo, — so'zini davom ettirdi jentlmen, — uni qo'lga tushirishning iloji bo'lmasa yoki bordi-yu, qo'lga tushirsag-u, ammo unga o'zimiz o'ylaganchalik ta'sir o'tkazolmasak unda siz juhudni fosh qilasiz.

— Fedjinni-ya! — qichqirib yuborayozdi qiz chetga qarab sapchib ketarkan.

— Ha, o'sha odamni tutib berishingiz kerak, — dedi jentlmen.

— Bunday qilmayman! Hech qachon qilmayman bunday! — dedi qiz o'zini yo'qotayozib. — Garchi u iblis bo'lsa ham, men uchun esa iblisdan ham battar bo'lsa ham, hech qachon bunday qilmayman.

— Qilmaysizmi? — qaytarib so'radi jentlmen, chamasi u bunday javobga oldindan hozirlanib qo'yganga o'xshardi.

— Aslo, — takrorladi qiz.

— Tushuntirib bering menga — nima uchun?

— Bitta sababdan, — qat'iy javob berdi qiz, — manavi oyimqizga ma'lum bo'lgan bitta sababdan, bunday qilolmayman; oyim-

qiz mening tarafimni oladi, buni bilaman, chunki uning va'dasiga ishonaman. Keyin boshqa sababiyam bor: u qanchalik bema'ni hayot kechirgan bo'lmasin, men ham xuddi o'shanday bema'ni yashab keldim; ko'pchiligimiz bir yo'lda birga qadam tashlaganmiz, bir qo'shga qo'shilganmiz, ulardan istagani meni sotishi mumkin edi-yu, lekin qanchalik yaramas odam bo'lishlariga qaramay sotishmadi, men ham sotmayman ularni.

— Unday bo'lsa, — asli murodi ham xuddi shu ekanday, o'sha zahotiyoq dedi jentlmen, — Monksni mening qo'limga topshirgin-u u bilan gaplashishni o'zimga qo'yib bering.

— Mabodo u boshqalarni sotadigan bo'lsa-chi?

— So'z beraman sizga, agar undan haqqoniy iqrorini oladigan bo'lsak, ish shu bilan tugaydi-yu, yopig'liq qozon yopig'ligicha qoladi. Oliverning qisqagina hayotida shubhasiz oshkor etish og'ir holatlar bor, shuning uchun mabodo haqiqatga yetadigan bo'lsak, aytgan odamlaringiz hech qanaqangi jazo tortmaydilar.

— Bordi-yu bunga erisholmasangiz-chi? — so'radi qiz.

— Unda, — so'zini davom ettirdi jentlmen, — o'sha Fedjin sizning roziligingizsiz sudga berilmaydi. O'ylaymanki, u holda sizga shunday dalil-isbotlarni keltirishim mumkinki, ular sizni yon berishga majbur qiladi.

— Oyimqiz ham shunday so'z beradimi? — so'radi qiz.

— Ha, — javob berdi Roz. — Va'da beraman sizga!

— Monks bularning hammasi sizga qayoqdan ma'lum bo'lganini bilmaydimi? — deb so'radi qiz bir nafas jim qolgach.

— Hech qachon, — javob berdi jentlmen. — Bu ma'lumotlarni unga shunday yo'sinda yetkaziladiki, kallasida hironta shubhaga o'rin qolmaydi.

— Men yolg'onchiydim, yosh bolaligimdanoq yolg'onchilar orasida yashab kelganman, — dedi qiz yana jindakkina tin olgach, — lekin sizning so'zingizga ishonaman.

Qiz har ikkalalaridan qat'iy ishonsa bo'ladigan va'da olgach, past tovush bilan, — pinhona quloq solayotgan ayg'oqchi bir necha bora uning so'zlari ma'nosini zo'r qiyinchilik-la tushunib qoldi, — hiko-yasini boshlab, shu kuni kechqurundan e'tiboran o'zini kuzatishga tushishgan qovoqxonaning qayerda joylashgani va nomini tilga oldi. Uning goho-goho to'xtab qolayotganiga qaraganda, go'yoki jentlmen apil-tapil qiz aytgan axborotlarni yozib olayotgandek tuyulishi mumkin edi. Qiz mazkur qovoqxonaning jamiki belgi-yu alomatlarini, Monksning diqqatini tortmay turib kuzatsa bo'ladigan eng qulay joyni, odatda uning qaysi kunlari va qaysi soatlarda qovoqxonaga kelishini hafsala bilan so'zlab berarkan, go'yoki u Monksning

afti va qiliqlarini xotirlashga urinib bir necha lahza o'ylanib qolgan-dek bo'ldi.

— U baland bo'yli, — dedi qiz, — baquvvat, qomatdor, lekin semizmas; u go'yoki yurmaydi, balki pisib kelayotganga o'xshaydi; yurgan yo'lida dam-badam yelkasi osha oldin bir tomonga, keyin boshqa yog'iga alanglab qo'yadi. Shunisini esdan chiqarmangki, ko'zlari o'raday o'pirilgan, bunaqa kosasiga chuqur joylashgan ko'zni boshqa hech kimda ko'rmaganman, o'ylaymanki, bitta shu belgisini o'zidanoq uni tanib olishingiz mumkin. Yuzi bug'doyrang, sochi bilan ko'zlari qora; yoshi yigirma olti — yigirma sakkizlardan oshmagan bo'lsa ham, ko'rinishi horg'in va ma'yus. Lablari rangpar va kemtilganga o'xshaydi, nega deganingizda judayam qo'rqinchli tutqanog'i tutib turadi, ba'zida hatto qo'llarini qonab ketgunicha tishlab tashlaydi. Nimaga seskanib ketdingiz? — deb so'radi qiz to'satdan gapi og'zida qolib.

Jentlmen oshig'ich, sizga shunday tuyulgandir, deb javob qaytardi-da, undan hikoyasini davom ettirishni so'radi.

— Sizga gapirib bergan bu belgilardan bir qismini o'sha uyda turuvchilardan so'rab-surishtirib bildim, nega desangiz, o'zim uni bor-yo'g'i ikki marta ko'rganman, xolos, ikkalasidayam keng yopinchiqqa burkanib olgandi. Uni tanishingiz uchun kerak bo'ladigan va men sizga aytib bera oladiganim mana shular chamasi. Aytmoqchi, shoshmang! — qo'shib qo'ydi u. — Bo'ynida, galstugining ostida, boshini burgan paytlarida...

— Kattakon qizil nori bor, xuddi kuygan joyga o'xshaydi-a? — qichqirib yuborayozdi jentlmen.

— Qanday?.. — dedi qiz. — Siz uni tanirkansiz-da!

Oyimqiz hayratdan voh deb yubordi va hammalari bir necha on shunchalik tek qolishdiki, ayg'oqchi ularning nafas olishini aniq-tiniq eshitib turdi.

— Nazarimda shunaqaga o'xshaydi, — dedi jentlmen jimlikni buzib. — Sizning tasviringizga qarab tanib olarman uni. Yana ko'rarmiz. Bir-biroviga bir olmaning ikki pallasidek o'xshab ketadigan odamlar ko'p. Ehtimol, u emasdir.

U yasama beparvolik bilan shunday deb, biqinib turgan ayg'oqchi tomon ikki qadam tashladi, buni esa ayg'oqchi jentlmenning: "Shubhasiz o'sha!" deya g'o'ng'illab qo'ygani aniq eshtilganidan fahmlashi mumkin edi.

— Siz, azizim, — dedi jentlmen, ovozi qandoq eshtilganiga qaraganda boyagi joyiga qaytgandi u, — bizga nihoyatda katta xizmat qildingiz, shu bois yaxshiligingizga yaxshilik bilan javob qaytarsam, degan niyatdaman. Sizga qanday yordamim tegishi mumkin?

— Hech qanday, — javob qildi Nensi.

— O'jarlikni qo'ying, — dedi jentlmen, ovozi va so'z ohangida shu qadar ko'ngilchanlik hamda ezgulik ufurib turardiki, bu qizning yuragidan ko'ra ming karra metinrog'-u shafqatsizroq qalblarni ham eritib yuborgudek edi. — O'ylab ko'rib, tortinmay aytavering.

— Hech qanday, ser, — yig'i aralash dedi qiz. — Menga hech nima bilan yordam berolmaysiz. Ortiq hech qanaqangi orzu-umidim qolmadi, hammasi chil-chil bo'ldi.

— Siz o'zingizni-o'zingiz mahrum etyapsiz undan, — dedi jentlmen. — Siz to shu kungacha halloqi olam biz bandalariga bir marotaba ato etadigan, keyin hech qachon qaytib kelmaydigan beba-ho xazina — yoshlik kuch-quvvatingizni behuda isrof qilib kelgan-siz, xolos. Kelajak borasiga kelganda esa, umidvor bo'lishingiz mumkin. Men sizning yuragingiz va qalbingizga orom ato etish bizning hukmimizda demoqchi emasman, zero orom uni izlagan odamning vujudiga qo'nadi; ammo Angliyada yoxud, agar bu yerda qolishga qo'rqsangiz, biror bo'lak yurtdan sizga tinch-u osuda boshpana topib berish qo'limizdan keladigina emas, balki ezgu istagimizdir. To tong yorishgunicha, hali bu daryo ilk quyosh nurlari bilan yuz ko'rishib uyg'onib ulgurmasidan, xuddi bir lahzada yer yuzidan g'oyib bo'lgandek, hech qanday iz qoldirmay, siz ilgarigi oshnalaringizning qo'li yetmaydigan joyda bo'lasiz. Yuring, ketdik! O'shoqqa qaytib borishingizni, sobiq hamtovoqlaringizdan birortasi bilan loaqal biron og'iz gaplashishingizni, eski maskaningizga qiyo boqishingizni, o'zingizni halokat va o'lim chohi yoqasiga eltuvchi o'sha havodan nafas olishingizni istamayman. Toki vaqt hamda imkoniyati bor ekan, barining bahridan o'ting!

— Hozir ko'ndirsa bo'ladi uni! — nido soldi oyimqiz. — Imonim komil-ki, ikkilanib turibdi u.

— Undoqmasdir deb qo'rqaman, jonginam, — dedi jentlmen.

— To'g'ri aytyapsiz, ser, men ikkilanayotganim yo'q, — javob berdi qiz qisqa fursatlik ichki olishuvdan so'ng. — Men ilgarigi hayotimga ko'rinmas zanjirlar bilan chambarchas kishanlanib tashlanganman. Hozir hayotim ko'zimga jirkanch va qabih ko'rinyapti, lekin uni bari bir tashlayolmayman. Chamamda, qaytib chiqolmaydigan darajada olistlab ketgan ko'rinaman bu ko'yda, lekiniga, yana bilmadim: agar siz menga shu to'g'rida ilgariroq gapirganingizda xandon tashlab kulgan bo'larmidim. Mana, tag'in dilimni vahm bosyapti, — qo'shib qo'ydi u apil-tapil atrofga alanglab. — Uyg'a ketishim kerak.

— Uyg'a! — deya urg'u berib takrorladi ushbu so'zni oyimqiz.

— Uyg'a, xonim, — javob qildi qiz. — Umr bo'yi ter to'kib o'zim uchun qurgan uyimga. Xayrlashaylik endi. Meni orqamdan poylab kel-

ishlari yoki ko'rib qolishlari mumkin. Boringlar! Bora qolinglar! Agar ozroqqina yordamim tekkan bo'lsa, sizlardan bittagina iltimosim bor — o'z holimga qo'yinglar, o'z yo'limdan borishimga xalaqit bermanglar.

— Buning bari behuda urinish, — dedi jentlmen xo'rsinib. — Balki bu yerda turaveradigan bo'lsak uni xavf-xatarga qo'yarmiz. Chamasi, mo'ljallaganidan ko'ra ko'proq tutib qolgan ko'rinamiz.

— Ha, ha, — gapni ilib ketdi qiz. — Ancha tutib qoldinglar.

— Bu sho'rlik jonning nihoyat ko'rgiligi nima bo'larkin?! — dedi oyimqiz to'qlinlanib.

— Ko'rgiligi nima bo'larkin? — takrorladi qiz. — To'g'ringizga bir qarang-a, oyimqiz. Manavi qop-qora suvga qarang. Orqasida birorta unga kuyadigan, unga aza tutadigan kimsasi bo'lmagan menga o'xshaganlarning o'zini suvga otgani to'g'risida kitoblardan necha-necha martalab o'qimaganmisiz axir! Ehtimol, yillar, balki oylargina o'tar, lekin bari bir oxir-oqibat men ham bundan qochib qutulolmayman.

— O'tinaman sizdan, bunday demang, — dedi oyimqiz piqillab.

— Siz buni hech qachon eshitmaysiz, o'rgilay oyimqiz, bunaqangi dahshatni xudoyimning o'zi eshitgulik qilmasin sizni! — javob qildi qiz. — Xayr, yaxshi qolinglar!

Jentlmen teskari qarab oldi.

— Mana hamyon! — dedi oyimqiz hayajonlanib. — Meni desangiz olasiz, zoriqib qolgan paytlaringizda ozgina bo'lsa ham em bo'lar.

— Yo'q! — dedi qiz. — Men bu ishni pul deb qilganim yo'q. Buni doim esda saqlasam deyman. Lekin... o'zingizning birorta buyumingizdan bera qoling, ha, birorta buyumingiz bo'lsin menda... Yo'q, yo'q, uzugingiznimas... qo'ldopingiz yoki dastro'molchangiznimi... shunga o'xshagan sizdan esdalik bo'ladigan birorta narsangizni, oyimqizginam... Mana, bo'ldi! Iloyo baxtli bo'ling! Xudoyimni o'zi yarlaqasin sizni! Yaxshi qolinglar, xayr!

Qizning, mabodo ko'rib qolgudek bo'lsalar do'pposlaydilar, deya qattiq hayajonlanishi, aftidan, jentlmenni qizning iltimosini ado etishga undagandi. Mana, uzoqlashib borayotgan odim sharpasi eshitildi-yu, g'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovozlar tindi.

Hademay ko'prikda ikki kishining qorasi — oyimqiz bilan uning hamrohi ko'zga tashlandi. Ular zinaning yuqorigi maydonchasida to'xtashdi.

— To'xtang-chi! — dedi oyimqiz qorong'ilikka quloq tutib. — U xuddi bizni chaqirgandek bo'ldi! Qulog'imga uning ovozi chalingandek bo'ldi.

— Yo'q, azizim, — javob berdi mister Braunlou orqasiga g'amgin o'girilib qararkan. — Haliyam o'sha joyida qimirlamay turibdi, to biz ketmagunimizcha joyidan jilmaydi ham.

Roz Meyli imirsilardi, biroq keksa jentlmen uning qo'lini ushlab, o'z qo'ltig'iga qistirdi-da, mehribonlik bilan, ammo qat'iy tarzda boshlab ketdi. Ular ko'zdan yiroqlashishlari hamonoq qiz tosh zinaga tappa o'zini tashlab, deyarli chalqayib yotgudek bir holatda, achchiq-achchiq yig'lab, dard-alamga to'la yuragini bo'shatishga tushdi.

Oradan birmuncha vaqt o'tgach, u o'rnidan turdi-da, gandaragan-cha, entak-tentak qadam tashlab, tepaga — ko'chaga ko'tarildi. Hayrat ichra dang qotgan ayg'oqchi o'z xilvatgohida tag'in bir necha daqiqa qimir etmay turib qoldi, keyin tevarak-atrofga ehtiyotkorlik bilan bir necha bor ko'z tashlab, o'zi tanho ekaniga ishonch hosil qilgach, asta panagohidan chiqib, xuddi bu yoqqa tushib kelganidagidek, devor soyasidan pisanjacha zinadan ko'tarila boshladi.

Noe Kleypol zinaning eng yuqori poyasiga yetgach, birov kuzatmayotganmikin deb qo'rqa-pisa orqasiga ketma-ket alanglab oldi-yu, oyog'ini qo'liga olganicha jon-jahdi ila juhudning uyi sari zing'illadi.

Ko'chalar suv qo'ygandek jimjit va bo'm-bo'sh bo'ladigan, hatto tovushlar ham bamisoli uyquga ketgandek, fahsh hamda aysh-u ishrat gandaragancha dam olgani maskaniga qaytayotgandek tuyuluvchi, kuz faslida haqli ravishda yarim kecha deb atasa bo'luvchi, tong otguniga qadar ikki soatlar chamasi fursat qolgan sahar pallasi. Ana shu sokin-u osuda pallada Fedjin o'zining ko'hna uyida aft-basharasi bujmayib, rang-quti o'chgan, ko'zlariga qip-qizil qon quyilgancha bedor o'tiribdi, bu qiyofasida u odamdan ko'ra zaxlahaddan chiqib kelgan, ko'ksini yovuzlik tirnayotgan manfur arvoonga o'xshab ketardi.

U o'choq oldida eski, yirtiq adyolga o'ranib, yonginasidagi stolda erib tugayozgan shamga yuzlangancha bukchayib o'tiribdi. O'y girdobiga tolgan ko'yi o'ng qo'lining o'siq, qop-qora tirnog'ini mujiyapti, milklari oralig'ida it yoki kalamushnikiga o'xshagan bir nechta so'yoq tishi ko'rinib turibdi.

Xona sahnida, to'shakda Noe tosh qotib uxlab yotibdi. Ah-yon-ahyonda cholning nigohi unga qadalib, tag'in shamga qaytadi, shamning so'xtasi deyarli ikki bukilib tushgani, erigan qaynoq mumning stolga tomchilayotgani esa qariyaning xayoli olislarda chappor urib yurganidan dalolat beradi.

Aslida ham xuddi shundoq edi. Ajoyib rejasining puchga chiqishi boisidan tug'ilgan alami, yetti yot begonalar bilan aloqa bog'lashga jur'at etgan qizga bo'lgan nafrati, qizning uni sotishni rad etgani samimiy ekanligiga mutlaqo ishonmaslik, behudud umidsizlik (zotan, Sayksdan qasдини olish imkonidan ajragandi u), fosh bo'lish xavfi, halokat, o'lim va betizgin quturish-u vasvasa — jamikisi Fedjinning miyasida charx urar, iblisona, ashaddiy yovuzona fikrlar-u g'araz dil-dilini kemirardi.

U holatini buzmay, qilt etmay o'tiribdi, toki sezgir qulog'i ko'chadagi odim sharpalarini ilib olguniga qadar qanchalar uzoq o'tirib qolganini go'yoki payqamayotgandek edi.

— Nihoyat-e! — deya ming'illab qo'ydi u quruq, qovjiroq lablarini artarkan. — Nihoyat keldi-e!

Uning og'zidan ushbu so'z chiqqan mahalda qo'ng'iroqcha ohistagina jing'illadi. Fedjin zinapoyadan sharpa chiqarmay eshik yoniga ko'tarildi va iyagigacha burkanib, tugun qo'ltiqlab olgan allaqanday odamni boshlab qaytdi tezgina. O'tira solib paltosini yechgandi, bu devqomat odam, Sayks bo'lib chiqdi.

— Mana! — dedi u tugunni stolga qo'yib. — Buni o'zingiz eplash-tiring-u mo'mayroq undirishning yo'rig'ini qiling. Qo'lga kiritguncha ozmuncha ovora bo'linmadi: bu yerga uch soatcha burunroq kelarman deb o'ylagandim.

Fedjin churq etmay tugunni oldi-da, javonga berkitib qo'yib, yana joyiga o'tirdi. Bu orada sira gazzobdan ko'zini uzmad; mana hozir ikkovlari ro'parama-ro'para o'tirishganidan keyin ham chol yigitga o'qday tikilarkan, lablari pir-pir uchardi, hayajonlanganidan afti shunchalar o'zgarib ketgandiki, tomteshar beixtiyor o'tirgan kursisini orqaroqqa surib, chinakam qo'rquv-la baqrayib qoldi unga.

— Nima bo'ldi? — shang'illadi Sayks. — Namuncha tikilib qol-dingiz menga?

Fedjin o'ng qo'lini baland ko'tarib, titroq ko'rsatkich barmog'ini silkib dag'dag'a qildi-yu, biroq hayajoni zo'rligidan bir soniya tili ka-limaga kelmay turdi.

— Ming la'nat! — o'shqirdi Sayks bezovta qiyofada qo'ynidagi allanarsa-ni paypaslab. — Aqldan ozganmi deyman bu. Sergak bo'lishim kerakka o'xshab qoldi-ku.

— Yo'q! — e'tiroz bildirdi Fedjin tilga kirib. — Bu unga mu-nosibmas... siz unday odammassiz, Bill. Men hech qanday... hech qanaqangi aybingizni bilmayman.

— Bilmayman deng! Shunaqami hali! — dedi Sayks unga yeb yuborgudek o'qrayib va ko'zi oldida to'pponchasini chiqarib, ustiroq-dagi boshqa cho'ntagiga solib qo'yayotib. — Bu sabil ikkovimizdan birimizga bop. Qay birimizga bop ekanining bo'lsa — ahamiyati yo'q.

— Bill, sizga bitta gapni aytishim kerakki, — deya gap boshla-di Fedjin kursini yaqinroq surib, — eshitib mendan ko'ra beshbattar ahvolga tushasiz.

— Shundoqmi? — ishoninqiramay javob qildi gazzob. — Gapi-ring! Tezroq bo'ling, yo'qsa Nensi meni gumdon bo'lib ketdi deb o'ylaydi.

— Gumdon bo'ldi! — dedi Fedjin entikib. — Uning uchun bu masala hal bo'lgan allaqachon.

Sayks tasvirga til lol qolarli bir hayrat-u esankirash-la juhudga boqdi va ushbu jumboqning bo'lak qoniqarli yechimini topa olmay, panshaxaday qo'llari bilan yoqasidan g'ippa bo'g'ib, astoydil silkiladi.

— Gapira qolsangiz-chi, axir! — o'shqirdi u. — Agar tilga kiravermasangiz, hash-pash deguncha bo'lmay g'ippa giriboningizdan olaman-qo'yaman. Qani, bo'la qoling, ochiq-oydin, lo'nda qilib tushuntirsinar-chi! Gapiring, la'nati qari ko'ppak, gapiring deyaqman!

— Masalan, aytaylik, anavi yerda yotgan yigitcha... — dedi Fedjin.

Sayks, xuddi ilgari payqamagandek, Noe uxlab yotgan tomonga o'girilib qaradi.

— Xo'sh? — dedi u tag'in boyagi holatiga qaytib.

— Masalan, aytaylik, ana shu yigitcha, — gapini davom ettirdi Fedjin, — sotishni xayol qilib qoldi deylik... hammamizni tutib berish niyatida oldiniga qo'l keladigan odamlarni topib, ana undan keyin bizning qiyofamizni, bizni qo'lga olishlari uchun zarur bo'lgan hamma belgilarimizni tasvirlab, hammadan ko'ra bizni osonroq qo'lga tushirsa bo'ladigan joyni aytib berish uchun o'shalar bilan ko'chada uchrashishni kelishib olgan, deylik. Faraz qilaylik, u ana shularni amalga oshirishni o'ylab qo'ydi, buning ustiga biz hammamiz ozmi-ko'pmi aloqador bo'lgan bir ishni fosh qilishni o'z injiqligi tufaylidan diliga tugib qo'ydi, deylik; ruhoniyning undovi bilan emas yoki quruq non-suvga kunini qo'yib emas, yo'q, o'z bema'ni tantiqligi oqibatida, o'z halovatini o'ylab; yashirinch, tag'in tund, hammadan ko'ra ko'proq bizga qarshi tish qayrab, yanib yurgan odamlarni izlab topib, o'shalarga chaqimchilik qildi, deylik. Gaplarimni eshityapsizmi o'zi? — deb chinqirdi juhud ko'zlaridan g'azab uchqunlari chaqnab. — Faraz qilaylik, u ana shu narsalarni bajardi. Unda nima bo'ladi?

— Unda nima bo'ladi? — deya takrorladi Sayks qo'lansa qilib so'kib qo'ygach. — To men kelgunimcha tirik qolgan bo'lsa, etigimning nag'alli poshnasi bilan boshida nechta sochi bo'lsa miya kosasini shuncha bo'lak qilib qiymalagan bo'lardim.

— Bordi-yu, men shunday qilgan bo'lsam-chi? — faryod urib yuborayozdi Fedjin. — Men, shuncha narsadan xabardor va allaqancha odamni, o'zimni hisobga olmaganda, dor ostiga yetaklab boradigan menday bir kimsa qilganida-chi?!

— Bilmadim, — javob qildi Sayks tishini-tishiga bosib, ko'nglida tug'ilgan bir gumondan rangi quv oqarib. — Avaxtada shunday bir nag'ma ko'rsatardimki, qo'limga kishan urishardi, ana undan keyin meni taqsimimni o'zlari bilan birga sud qiladigan bo'lishsa, sudda o'sha kishan bilan o'xshatib tushirib, miyangizni pachaqpachaqlab qilib, qatig'ini o'ynatib yuborardim. Kallangizni naq uyib yuk ortilgan arava pachaqlab o'tganday yanchib tashlashga kuchim yetadi bemalol, — to'ng'illadi gazzob mushakdor qo'llarini baland ko'tarib.

- Shundoq qilgan bo'larmidingiz rostdan?
- Rostdan qilarmidingiz deysizmi? — qaytarib so'radi tomteshar.
- Sinab ko'ra qoling bo'lmasa.
- Agar bu Charli bo'lsa-chi, yoki Tullak, yoki Bet, yo...
- Kim bo'lsayam bari bir menga! — toqati toq bo'lib javob qildi gazzob. — Kim bo'lganidayam, xuddi shundoq, kallasini atalasi-ni chiqarardim.

Fedjin talonchiga tikildi va unga jim bo'lishni ishora qilib, xona sahniga to'shalgan to'shak ustiga engashdi-da, uxlab yotgan yigitchani uyg'otish niyatida silkita boshladi. Sayks qo'llarini tizzasiga qo'yib oldinga enkaygan ko'yi, bu savol-javob-u tayyorgarliklarning baridan murod nima ekanini fahmlayolmay hayron edi.

— Bolter, Bolter deymani! Bechora bola! — dedi Fedjin jumboqning yechimidan lazzat topish xayolida qahrli chaqnagan ko'zlarini ko'tarib, bafurja hamda ma'nodor ta'kidlab. — Charchagan u... uzoq kuzatib, uni uzoq kuzatib... ha, uni kuzatib charchagan, Bill!

— Nima deganingiz bu? — so'radi Sayks o'zini kursi suyanchig'iga tashlaran.

Fedjin hech nima demadi va tag'in uxlayotgan yigit ustiga engashib, ko'tarib o'tqazib qo'ydi uni. O'zi yangidan tanlagan ism-sharifi bir necha bor takrorlangach, Noe ko'zlarini ishqalab, cho'zib homuza tortdi-da, uyqusirab alanglay boshladi.

— Menga hammasini yana bir marta gapirib bering, bu kishi ham eshitsin, — dedi juhud Sayksni ko'rsatib.

— Nimani gapirib beraman? — dedi uyqusirab Noe, norozi qiyofada mudrog'ini haydab.

— Anavi... Nensi to'g'risida gapirib bering, — dedi Fedjin, tag'in gapni oxirigacha eshitmay uydan otilib chiqib ketmasin uchun Sayksning qo'lidan ushlab. — Uning izidan poylab bordingizmi o'zi?

— Ha.

— London ko'prigigachami?

— Ha.

— O'sha yerda u ikki kishi bilan uchrashdimi?

— Balli, shundoq...

— O'z xohishi bilan ilgariroq jentlmen va xonimga uchrashgan, ular bo'lsa Nensiga hamma do'stlarini, birinchi navbatda Monksni sotishni taklif qilishgan, qiz xuddi shundoq qilgan ham; biz qayerda yig'ilishadigan va borib turadigan uyni ham so'rashgan, u buni ham aytgan; keyin Monksni pisib turib kuzatish qulay joyni so'rashgan, qiz buni ham aytib bergan; u yerda qay paytda jam bo'lishimizni surishtirishgan, qiz buni ham sotgan. Hamma-hammasini sotgan. Hech qanaqangi dag'dag'a qilishmagan bo'lsa ham, o'z ixtiyori bilan

ipidan-ignasigacha gapirib bergan u. Shundoq qildimi u yo yo'qmi? — qichqirdi Fedjin g'azabdan telbalanib.

— To'ppa-to'g'ri, — javob qildi Noe boshini qashib. — Hammasi xuddi shundoq bo'ldi!

— Anavilar o'tgan yakshanba to'g'risida nima deyishdi?

— O'tgan yakshanba to'g'risida deysizmi? — xiyol o'ylab turib so'radi Noe. — Axir aytgandim-ku sizga.

— Yana bir marta. Tag'in bir marta gapirib bering! — qichqirdi Fedjin bir qo'li bilan Sayksni qattiqroq ushlagancha, ikkinchisini paxsa qilib o'ynatarkan, og'zi burchida ko'pik paydo bo'lib.

— O'sha ikkovlari undan so'rashdi... — dedi Noe, go'yoki u uyqusi tarqagani sayin Sayksning kimligini anglab borayotganga o'xshardi, — ikkovlari undan shartlashilganiday o'tgan yakshanba kuni nimaga kelmaganini so'rashdi. U: «Ilojini qilolmadim», — dedi.

— Nimaga? Nimagaligini ayting bunga.

— Nimaga deganda, uni Bill degan odam — ularga ilgariroq gapirib bergan odam — zo'rlik bilan ushlab qolibdi, — javob berdi Noe.

— Buning to'g'risida yana nimalar dedi? — chiyilladi Fedjin. — Ularga ilgari gapirib bergan odami to'g'risida tag'in nimalar dedi? Shuni ayting bunga, aytib bering bunga!

— Haligi, agar qayoqqa ketayotganini u bilmasa uydan chiqib ketishi osonmasligini aytdi, — dedi Noe, — shunichun birinchi gal, xonimning huzuriga borganida u o'sha odamga — shunday deganida toza kulgimni qistatdi-da o'ziyam! — afyun qo'shilgan ichimlik ichiribdi.

— Ming la'nat! — o'kirib yubordi Sayks quturib, juhudning qo'lidan chiqmoqchi bo'lib yulqinib. — Qo'yvoring meni!

Cholni itqitib yuborib, u xonadan otilib chiqdi-yu, g'azabdan o'zini yo'qotib, zinadan pastga yugurib tushib ketdi.

— Bill, Bill! — baqirdi Fedjin orqasidan yugurgancha. — Bir og'iz gap! Bir og'izgina gap bor!

Gazzob eshikni ocha olganida bu gap aytilmagan bo'lardi. Juhud entikkancha yetib borganida u kuchi va so'kishlarini behuda isrof qilib, hadeb eshikni ochishga urinardi.

— Chiqarib yuboring meni! — o'dag'ayladi Sayks. — Joningizdan umidingiz bo'lsa, gapga solmang. Sizga aytyapman, chiqarib yuboring tez!

— Quloq soling, bir og'izgina gap, xolos, — e'tiroz bildirdi Fedjin qo'lini qulf ustiga qo'yar ekan. — Tag'in siz...

— Xo'sh?! — dedi gazzob.

— Tag'in... judayam haligidaqangi jazavaga tushib, vahshiylashib ketmassiz-a, Bill?

Tong yorishib, har ikkovlari ham bir-birovlarining yuzini ko'ra oladigan bo'lib qolgandi bu orada. Ular yashin tezligida ko'z urishtirib olishdi; ikkalovining ko'zi zarracha shubhaga o'rin qoldirmaydigan bir tarzda o't bo'lib chaqnardi.

— Shuni aytmoqchimanki, — so'zini davom ettirdi Fedjin, endilikda har qanday mug'ambirlig-u yasamalik befoyda deb bilayotgani-ni yashirmay, — shuni aytib qo'ymoqchimanki, haddan tashqari jazavaga tushib ketish xatarli. Tullakroq bo'ling, Bill, haddan ziyod shafqatsiz bo'lmang...

Sayks hech nima deb javob qilmadi, Fedjin qo'lfini ochgan eshik-ni shartta ochdi-yu, kimsasiz ko'chaga otilib chiqdi.

Gazzob na biror marta to'xtamay, biron soniya o'ylab ko'rmay, boshini na o'ngga, na so'lga burmay, ko'zlarini na osmon-u na yerga qadamay, shafqatsizona qat'iyat ila to'g'riga boqqanicha, tishlarini naq chakagi terisini yorib chiqqudek darajada mahkam bir-biriga bosgancha, to'z eshigiga yetguniga qadar shitob-la, churq etmay, birorta mushagini ham bo'shashtirmay yelib bordi. Shunda u yonidagi kalit bilan sharpa chiqarmay eshikni ochdi, zinadan shipillagan-cha ko'tarilib, o'z xonasiga kirdi-da, kalitni ikki marta burab, og'ir stolni eshikka taqab surib qo'ydi, keyin karavot pardasini ochdi.

Qiz yarim yalang'och yotgan edi. Uning sharpasidan uyg'onib ketib, shosha-pisha cho'chib qaddini xiyol ko'tardi.

— Tur! — dedi yigit.

— Voy, senmisan, Bill! — dedi qiz, aftidan u yigitning kelganidan quvongandi.

— Bu, menman, — degan javob bo'ldi. — Tur!

Sham yonib turardi, biroq yigit uni shamdondan yulqib oldi-yu, kamin panjarasi tagiga uloqtirdi. Yorishib qolgan kunning shiravagina yorug'ini payqagan qiz deraza pardani ochib qo'ymoqchi bo'lib o'rnidan turdi.

— Kerakmas, — dedi Sayks qo'li bilan yo'lini to'sib. — Niyatimni o'rinlatishga yetadi shu yorug'ni o'ziyam.

— Bill, — dedi qiz ohista, xavotirli tovushda, — menga nimaga bunaqa tikilyapsan?

Talonchi burun parraklari kengayib, ko'kragi ko'tarilib-tushgan ko'yi bir necha lahza qizga tikilgancha o'tirdi; keyin boshi va bo'ynidan changalladi-yu, xona o'rtasiga sudrab bordi-da, eshikka qarab olib gurziday qo'li bilan qizning og'zini g'ijimladi.

— Bill, Bill, — xirilladi qiz o'lim xavfi tug'dirgan qo'rquv ichra yigit changalidan qutulishga urinib. — Men... men dodlamayman ham, baqirmayman ham... hatto g'iq demayman... Gapimga quloq sol... gaplash men bilan... nima qilibman, ayt!

— O'zing bilasan buni, shaytonning urg'ochisi! — javob qildi bosqinchi nafasini rostdlab. — Bugun kechasi ketingdan poylashgan. Har bitta gapingni eshitishibdi.

— Xudo haqqi, yosh jonimga rahm qil, men senga rahm qilgan-dim-ku, axir! — nido soldi qiz uning pinjiga suyanib. — Bill, jongi-nam Bill, meni o'ldirgani qo'ling bormaydi bari bir. O, loaqal shu kecha seni deb nimalardan voz kechganimni bir o'ylab ko'rgin-a. O'zing o'ylab ko'r, jinoyat botqog'idan qutqar o'zingni; seni qo'yib yubormayman, meni uloqtirib yuborolmaysan bari bir. Bill, Bill, xudovandi karim haqqi, o'zingni, meni desang, qonimni to'kishga shoshilma! Men senga sodiq qoldim, gunohkor tani-jonim haqqi, senga sodiq qoldim!

Yigit jon-jahdi-la qo'llarini bo'shatishga urinar, biroq qizning qo'llari ularni chirmab olgandi, u qanchalik tirishmasin qizni o'zidan ajratolmasdi.

— Bill! — dedi qiz entikib, boshini yigitning ko'ksiga bosishga harakat qilarkan. — O'sha jentlmen bilan mehribon oyimqiz men-ga bugun qolgan umrimni tinchgina va tanholikda o'tkazgani biron-ta o'zga yurtdan boshpana topib berishni va'da qilishdi. O'shalar bi-lan tag'in bir marta uchrashgani ruxsat ber, oyoqlariga bosh urib, senga ham xuddi shunaqa saxovat va mehribonlik qilishlarini iltijo etib, yolvoray; ana unda ikkalovimiz ham bu dahshatli joyni tash-lab, bir-birovimizdan olisda yangicha hayot boshlaymiz, ilgarigi tur-mushimizni unutamiz, faqat ibodat paytlaridagina eslab qo'yamiz, keyin boshqa uchrashmaymiz. Tavba qilishning erta-kechi bo'lmaydi. Ular menga xuddi shunday deyishdi... buni mana hozir shundoqqi-na his qilib turibman... lekin bizga vaqt kerak... ozroqqina bo'lsayam vaqt kerak.

Tomteshar bir qo'lini bo'shatib, to'pponchaga chang sol-di. Qaynab-toshib kelgan g'azab tug'yoniga qaramay, agar otadigan bo'lsa darhol qo'lga tushajagi haqidagi fikr yilt etib o'tdi miyasidan. Shu sababli u bor kuchini jamlab turib, o'ziga qaragan, deyarli yuzi-ga tegay-tegay deyayotgan yuzga to'pponcha bilan ustma-ust tushirdi.

Qiz bir chayqalib, peshonasida hosil bo'lgan chuqur jarohatdan quyilayotgan qon ko'zlarini deyarli to'sib qo'ydi-yu, shilq etib qula-di; arang tizzalab, qo'ynidan oppoq dastro'molchani — Roz Mey-lining dastro'molini — chiqardi-da, uni qovushtirilgan qo'llari bilan madori yetgancha baland ko'tarib, pichirlab, xalloqi olamga iltijo qi-la boshladi.

Shu topda u dahshatli ahvolda edi. Qotil gandiraklab devor sari chekinarkan, ko'zlarini qo'li bilan berkitgan ko'yi zil-zambil so'yilni olib, bir zarba bilan qizni yer tishlatdi-qo'ydi.

Keng quloch yoygan London doirasida tun o'z chodrasini yopgan damdan buyon zulumat qanoti ostida sodir bo'lgan yovuzliklar ichida eng dahshatlisi edi bu yovuzlik. Sahargi sarin havoni qo'lansa isi bilan bulg'agan mudhish jinoyatlar ichida bu jinoyat eng qabih hamda eng shafqatsizi edi.

Quyosh — inson uchun nafaqat ziyo, ayni chog'da yangi hayot, umid va tetiklik baxsh etguvchi quyosh — kulib, charaqlab jamol ko'rsatdi azim shahar uzra. Rangli qimmatbaho oyna-yu qog'oz yopishtirilgan derazalardan, jome gumbazlari-yu aftodahol devor yoriq-tirqishlaridan bab-baravar nur purkadi. U o'ldirilgan ayol yotgan xonani ham yoritib, uning jasadini nurga ko'mdi. Sayks uning yo'lini to'sishga urindi, ammo nur har qalay dasta-dasta bo'lib tushaverdi. Ushbu manzara sahargi g'ira-shirada dahshatli ko'ringandi, endilikda, ko'zni qamashtirguvchi yorug'likda qanday qiyofa kasb etarkin-a!

Sayks qimir etmasdi: u qilt etgani qo'rqardi. Ingroq eshitildi, ayolning bir qo'li silkinib qo'ydi, shunda u g'azab-la omixta bo'lib ketgan qo'rquv ichra ketma-ket zarba tushirdi. Keyin ayol jasadi ustiga adyolni tashladi, ammo, go'yoki xona sahnidagi qon halqobining aksi shiftda quyosh nurida qanday titrab, raqs tushayotganini kuza-tayotgandek mudom tikilib qolgan ko'zlarni ko'rib turishdan ko'ra bu ko'zlarni o'ziga qadalib turgan, deya tasavvur etish og'irroq edi. Shu bois u adyolni yana olib tashladi. Bu yerda et-u qondangina iborat tana yotibdi, xolos — ammo qanday tana va nega muncha qon ko'p!

U gugurt chaqib, o'choqqa o't yoqdi va so'yilni olovga tutdi. So'yilning uchiga soch tolalari yopishib qolgandi, ana shu tolalar jizg'inak bo'lib, buralib, kulga aylandi-yu, mo'ridan yuqoriga o'r'ladi. Qanchalar dovyurakligiga qaramay, hatto shu hol ham cho'chitib yubordi uni, biroq gazzob qurolini to' ikki bo'linib tushgunicha ham o'tga tutib turaverdi; ana shundan keyin esa uni butkul yonib kulga aylansin deb o'choqqa tashladi. U yuvini, kiyimini tozaladi; lekin bir nechta dog'ni ketkizolmadi, o'sha joylarni qiyib olib, yoqib yubordi. Xonada bunaqangi dog'lardan qancha edi-ya! Hatto itning panjalari ham qon edi.



Bu yumushlar mobaynida u biror marta ham jasadga orqasini o'girib turmadi biror lahzaga ham. Tadorik ishlarini bitirgach, u eshik yoniga orqasi bilan tisarilib bordi, yana panjalarini qoniga bulg'ab, ko'chaga yangi jinoyat izini ilashtirib chiqmasin uchun itni yetaklab olgandi. U eshikni astagina ochdi, uni qulflab, kalitni yoniga soldi-yu, uyni tark etdi.

U ko'chani kesib o'tib, tashqaridan hech nima sezilmayotganiga ishonch hosil qilish niyatida derazasiga qaradi. Qiz o'zi ko'rolmay ketgan yorug'likni tushsin, deb surib qo'ymoqchi bo'lgan parda hanuz yopiq turardi. Hozir u shundoqqina deraza tagida yotibdi. Gazzob huni biladi. Yo Tangrim, xuddi o'sha joyga qanchalar quyosh nuri quyilayotganini qarang-a!

Daqiqalik ko'z tashlash. O'sha xonadan chiqishi bilan yengil tortgandek bo'ldi. U itiga hushtak chalib, shaxdam odimladi.

U Izlingtondan o'tib borib, Vittington sharafiga tosh qo'yilgan\* Xayget yaqinidagi tepalikka ko'tarildi-da, Xayget-Xill tomonga tusha boshladi. U bemaqsad, qayerga borishini bilmay odimlayapti; pastga tusha boshlaganiga hech qancha bo'lmay, tag'in o'ngga hurildi va dalalar oralab ketgan yolg'izoyoq yo'ldan borib, Siin-Vudni aylanib o'tdi-da, shu tariqa Xemsted-Xitga chiqib qoldi. Keyin Veyl-Xit soyligini bosib o'tib, tepaga narigi tomonidan chiqib keldi-da, Xemsted va Xayget qishloqlarini bog'lovchi yo'lni kesib, supurgigullar bosib yotgan yalanglikning narigi chekkasiga yetib borib, Nor-End dalalariga o'tdi-da, ko'kat devor ostiga cho'zilib, uxlab qoldi.

Ko'p o'tmay tag'in o'rnidan turib, yo'lga tushdi — Londondan nariga qarab emas, teskarisiga, shaharga qarab yurdi; keyin qatnov yo'lidan yana orqaga qaytdi, boyagi yalanglikni endi boshqa tomonidan kesib o'tdi, so'ngra dalalarda tentirashga tushdi; zovur yoqasida yotib dam olar, tag'in sakrab turib, boshqa qulayroq joy izlab ketardi, yana orqasiga qaytar va tag'in hoshi oqqan tomonga tentib ketardi.

Picha ichib, tamaddi qilib olgani qayerga kirsam bo'larkin? Xendonga! Bu ajoyib joy, o'zi ham yaqin, yo'lovchilar ham kam kiradi. Dam yugurgilab, dam injiqligi tutgan shilliqqurtday imillab, goho esa hatto to'xtab, qo'lidagi tayog'i bilan butalarning shoxchalarini urib sindirgan ko'yi xuddi o'sha yoqqa yo'l oldi. Biroq u yerga yetib kelganida nazarida yo'lda uchragan odam borki — hatto eshiklari oldida turgan bolakaylargacha — hamma unga shubhalanib qarayotgandek bo'ldi. Shunda yana orqaga qaytdi, talay vaqtdan beri tuz totmaganiga qaramay, tamaddi qilgani yoxud ichgani biror nima totib olishga botinolmadi; qayoqqa borishini bilmay, tag'in supurgigullar qoplagan yalanglikni keza boshladi.

U chaqirim ketidan chaqirim yo'l bosib, tag'in eski joyiga qaytardi. Ertalab ham, yarim kun ham o'tdi, kech ham kirib qoldi, u bo'lsa hamon boyagi-boyagi goh u yoqqa, goh bu yoqqa borib-kelar, dam tepaga ko'tarilar, dam pastga tushar, tag'in orqaga qaytar, hanuz bir joy tevaragida girdikapalak bo'lib o'ralashardi. Axiyri u olg'a jilib, Xetfild tomonga qarab yurdi.

Butunlay sillasi qurigan yigit bilan ko'nikilmagan bunchalik yo'l bosishdan oyog'i oqsab, surgalib qolgan it tepadan cherkov yonidagi osuda qishloqqa tushib kelib, choqqina ko'chadan o'tib, xiragina chirog'i o'zlarini chorlagan chog'roqqina qovoqxonaga sekingina kirib kelgan paytda kechki soat to'qqiz bo'lgan edi. Ichkarida kaminga o't yoqilgan, uning oldida qishloqliklar ichib o'tirishardi. Ular mehmonga joy bo'shatishdi, ammo u bir burchakka borib o'tirdida, yolg'iz, to'g'rirog'i, o'z iti bilan (unga vaqti-vaqti bilan ovqatdan tashlab turardi) birgalikda yeb-ichib, tamaddi qilishga tushdi.

Bu yerda hozir bo'lgan jamoat qo'shni dalalar, fermerlar haqda suhbat qurardi, bu mavzu tugaganidan keyin esa o'tgan yakshanba dafn etishgan qaysidir cholning yoshi xususida so'zlasha boshladilar; yosh-yalanglar uni munqillab qolgandi deyishsa, qariyalar, hali juda yosh edi, deb ta'kidlashar, oqsoqol bir bobo esa, u mendan kattamasdi, o'zini avaylaganida tag'in o'n-o'n besh yil umr ko'rsa bo'lardi, deb qo'ydi... o'zini avaylaganida emish-a!

Bunday suhbat aslo diqqatni tortmas yoki xavotirga solmasdi. Shu tufayli qotil hisob-kitob qilib bo'lib, o'z burchagida churq etmay va hech kimning ko'ziga tashlanmay o'tirar, hatto mudroq bosa boshlagandi, shunda to'satdan yangi bir odamning shovqin-la kirib kelishi uni uyg'otib yubordi.

Bu qishloqma-qishloq piyoda kekadigan, qayroqtosh, ustara charxlaydigan tasma, ustara, yumaloq sovun, egar-jabduq moyi, moyupa, it va otlarga ishlatiladigan dori, arzonarov atir, upa-elik va shunga o'xshash ashqol-dashqollarni yashikka solib orqalab yuradigan chorbozorchi attor, masxaraboz hamda qallob bir odam edi. Uning kirib kelishi qishloqliklar uchun har xil yengil-yelpi hazil-mutoyibalarga ishora bo'ldi-yu, bu hazil-huzullar toki attor tamaddi qilib olib, boyligi solingan yashigidagi bisotini yoymaguni va ustomonlik bilan yoqimli-jimjimador gaplar bilan foydali so'zlarni omixta qilib, ish boshlab yubormagunicha tinmadi.

— Anavi qanaqangi narsa? Ta'mi qanaqa o'zi, Garri? — so'radi bir qishloqi miyig'ida jilmayib, yashikning bir burchida turgan pay-sacha qilib o'ralgan narsaga ishora qilib.

— Manavi-da, — dedi yigit o'shandan bittasini yashikdan olarkan, — bu har qanaqangi dog'ni, zangni, iflosni, u xoh atlas-u ipaklikda,

xoh ip mato-yu batistda, xoh movut-u yupqa gazlamada bo'lsin, xoh jun gazlama, gilamda bo'lsin, xoh nozik-mayin junli, xoh dag'al junli matoda bo'lsin — bari-barini chinni-yu chiroqday qilib ketkizadigan tengi yo'q va bebaho dori. Sharobning dog'imi, meva-chevanikimi, pivonikimi, suvnikimi, bo'yoq yoki qoramoynikimi — har qanaqangi dog'ga mana shu tengi yo'q va bebaho dorini shundoq surildi deguncha, yo'qoladi-qo'yadi. Mabodo biror xonim o'z pokiza nomiga dog' tushirgan bo'lsa, mana shundan bittaginasini yutib yuborsa vassalom — o'sha zahoti yarasi bitadi-qoladi, nega deganingizda bu zahar. Mabodo biror jentlmen buni tekshirib ko'rmoqni istasa, mana shu jimitdakkina paysani ichib olsa kifoya — hech qanaqangi shubha-gumoni qolmaydi, negaki bu o'qdan kam jarohatlamaydi: innaykeyin, ta'mi ham badta'mgina, shundoq ekan, ushbuni yutishni o'zi unga shon-sharaf keltiradi ko'proq... Bir donasi bir penni, xolos! Shuncha hayon-u nafi bor-u narxi atigi bir pennigina!

O'sha zahotiyog doriga ikkita xaridor chiqdi, quloq solayotganlardan aksariyatining qiziqishi ortib qoldi unga. Buni payqagan atorning yanayam gapdoni ochilib ketdi.

— Bu yoqdan yetkazib bermaslaridan bu yoqdan talab ketishadi desangiz! — diydiosini davom ettirdi yigit. — O'n to'rtta suv tegirmon, oltita bug' mashinasi, bitta galvanik batareya beto'xtov ishlab chiqarib tursa hamki, bari bir yetkazib berolmayapti-da; buning ustiga odamlar ham to jonlari uzilgunicha ter to'kib yotishibdi, ularning bevalariga darrov nafaqa belgilashib, har bir bolasiga yiliga yigirma funt, egizaklarga bo'lsa ellik funtdan berib yotishibdi... Shunga qaramay, bir donasi bir penni, xolos! Sharobning dog'imi, meva-chevanikimi, pivonikimi, suvnikimi, qoramoymi, bo'yoqmi, qonmi jamini!.. Manavi jentlmenning shlyapasida dog' bor ekan, u to menga pivo buyurib ulgurmasidan top-toza qilib yetkazib bo'laman.

— Ey! Bu yoqqa bering! — qichqirdi Sayks seskanib tushib.

— Zumda yetkazib beraman uni, ser, — qarshilik bildirdi attor jamoatga qarab ko'z qisib qo'yarkan, — xonaning u burchidan yetib kelguningizcha yetkazib bo'laman. Jentlmenlar, jamoat, mana qaranglar, bu jentlmenning shlyapasidagi shillingdan katta bo'lmagan, lekin qalinligi yarim kronlikday keladigan qora dog'ga e'tibor beringlar-a. Bu dog' nimaniki bo'lmasin — sharobnikimi, mevanikimi, pivonikimi, suvnikimi, yo qoramoy, bo'yoq tegib ifloslanganmi, qon tekkanmi...

Attor gapini nihoyasiga yetkazolmadi, zero Sayks qabihona haqorat-la stolni to'ntarib tashladi-yu, uning qo'lidan shlyapani tortib olib, binodan otilgancha chiqib ketdi.

Ixtiyoriga zid ravishda kun bo'yi vujudini qamrab olgan g'alati talvasa-yu injiqlik hamda ikkilanishlar ta'sirida bo'lgan qotil orqasidan ta'qib etmayotganlariga, ehtimolki o'zini shunchaki badqovog'-u odamovi mast yigit, deb qo'ya qolganlariga qanoat hosil qilgach, shahar tomon burildi va kichikkina aloqa idorasi oldida turgan usti berk izvosh yonidan lip etib o'tib ketmoqchi bo'ldi-yu, lekin aravaning Londondan kelganini bilib qoldi. Shu topda qanday gaplarni eshitishi mumkinligini fahmlasa hamki, yo'lni kesib o'tdi-da, sekin quloq so-la boshladi.

Eshik oldida pochta sumkasini poylagancha arava pattachisi turardi. Shu payt o'rmonchi libosidagi bir odam unga yaqinlashdi, pattachi tosh yo'lda turgan savatni o'rmonchiga topshirdi.

— Bola-chaqangizga bu, — dedi pattachi. — Hey, ichkaridagilar, qimirlanglar sal! E padariga la'nat o'sha sumkaning, kechayam tay-yormasdi shunaqa. Bunaqasi ketmaydi, bilib qo'yinglar!

— Shaharda nima yangiliklar bor, Ben? — so'radi o'rmonchi, ot-larni tuzukroq tomosha qilish uchun deraza darchalari sari chekinar-kan.

— Deyarli hech gap chalinmadi-yov qulog'imga, — javob qaytardi unisi qo'lgopini kiya turib. — Nonning narxi jindakkina ko'tarildi. Yana Spitel-Flidsda birovni o'ldirib ketganlari sal-pal qulog'imga chalinganday bo'luvdi-yov, lekin ko'pam ishonavermayman bunga.

— Yo'q, bu to'g'ri, — dedi pochta aravasida derazachadan tashqariga qarab o'tirgan jentlmen. — Buning ustiga desangiz, vah-shiyona qotillik.

— Shunaqa deng-a, ser! — dedi pattachi shlyapasini ushlab qo'yarkan. — Kimni o'ldirishibdi, ser: erkaknimi yo ayolni?

— Ayolni, — javob qildi jentlmen. — Taxmin qilishlaricha...

— Hey, Ben! — qichqirdi aravakash toqatsizlik bilan.

— He jahannamga daf bo'lsin-a o'sha sumka! — xit bo'ldi pat-tachi. — Nima balo, uxlab qoldilaringmi o'zi?

— Ketyapman! — qichqirdi idora mudiri chopgancha chiqayotib.

— Ketyapmanmish! — to'ng'illadi pattachi. — Xuddi menga ko'ngil qo'yishga chog'lanib, muhabbat izhor qiladigan yosh va ba-davlat oyimqizga o'xshab (qachon yetib kelarkin o'zi, buni bilmay-man) imirsilashlarini qarang-a! Qani, bera qoling bu yoqqa! Bo'ldi, tayyor!

Shunda muguz sho'xchan sado taratdi-yu, pochta aravasi yo'lga ravona bo'ldi.

Sayks ko'chada turib qoldi; chamasi hozirgina eshitgan xabari uni hayajonga solmagan, qayoqqa borishini bilmay ikkilanayotganidan bo'lak biron his-tuyg'u bezovta qilmayotganga o'xshardi. Nihoyat, u

yana orqasiga burildi-da, Xetfilddan Sent-Elbansga eltuvchi yo'ldan keta boshladi.

U sarkashlik bilan olg'a intilardi. Biroq shaharni ortda qoldirib, huvillagan va qop-qorong'i yo'lga chiqib olgach, diliga qo'rquv hamda vahima qutqu solib, vujudining eng xilvatgohlarigacha kirib borayotganini his etdi. Oldinda nimaiki bo'lsa — mavjud narsami yoxud sharpa-ko'lagami, harakatlanadiganmi yo qo'zg'olmasmi — jamikisi vahimali qiyofaga kirardi; ammo bu vahima o'zi ertalab ko'rgan shaffof tana bamisoli bir qarich ham ortda qolmay izma-iz ergashib kelayotgandek tuyulayotgan hissiyoti oldida hech gapmasdi. U xayol ko'zi bilan zimistonlikda sharpani kuzatishi, shakl-shamoilini aniq-tiniq tiklashi va uning sira og'ishmay, tantanavor bir tarzda odimlayotganini ko'rib turishi mumkin edi. Barglar shildirashida uning ko'ylagi shitirlashini eshitar, shabadaning har bir nafas epkini uning so'nggi bemajol ingrog'ini uchirib kelardi qanotida. Agar u to'xtaydigan bo'lsa, sharpa ham to'xtardi. Agar u yuguradigan bo'lsa, tana ham ergashardi ortidan — yo'q yugurmasdi tana (unda ancha yengil tortardi-ku-ya), balki qandaydir beixtiyor harakatlanadigan, bir maromdagi, kuchayib, kuchaymaydigan, tinib tinmaydigan mungli shamol surib kelayotgan murda yanglig' suzib kelardi.

Ba'zan u mazkur ro'yoni, hatto uning bir qiyo boqishining o'zi o'limga giriftor qilgan chog'dayam, quvib-solish uchun shasht bilan orqasiga burilib ham qo'yardi; bunday damda uning sochlari tippatik bo'lib, yuragi qinidan chiqib ketayozardi; zero ro'yo ham u bilan birga burilar va orqa tomoniga o'tib olgan bo'lardi. Ertalab uni ko'z o'ngidan — ro'parasidan jildirmagandi, endi bo'lsa orqa tomoniga o'tib olgandi. U yo'l chetidagi ko'tarmaga suyandi va ro'yo tepasida, tungi muzdek havoda muallaq turganini his etdi. U yerga cho'zilib, chalqanchasiga yotib oldi, ro'yo poyida qabr toshiga qon bilan bitilgan marsiyasi bor jonli haykal misoli unsizgina, qilt etmay, qomatini tik tutgancha boshi uzra qotib turaverdi.

Hech kimsa odil hakam-u intiqomdan qutulib ketgan qotil haqida so'z ochmay, arvoh-u ro'yolar g'aflat uyqusida, deya bashorat qilmay qo'ya qolsin. Iztirobga soluvchi ana shunday vahimali, beintiho lahzaning o'ziyoq o'nlab majburiy o'lim bilan barobardir.

U o'tib borayotgan dalada tunasa bo'ladigan ombor bor edi. Eshigi oldida o'sgan uch tup osmono'par terak ko'lankasida ombor ichkarisi battar qorong'ilashib, terak shox-shabbalariga urilayotgan shamol zorlanib nola qilardi. U to tong otmagunicha bundan nariga borolmasdi, shu sababli yangi qiynoqlarga ko'ksini qalqon qilish uchun naq devor takkinasiga uzana qoldi.

Endilikda yana boyagi-boyagiday shilqim, biroq undan ham battarroq, qutulganidan ko'ra dahshatliroq ro'yo ro'parasiga kelib turib oldi. Qorong'ilik qa'ridan tikilib turgan xira, chaqchayib qotib qolgan ko'zlarni xayolida o'ylashdan ko'ra ko'rib turgani yengilroq ko'chardi uning uchun; bu ko'zlarda nur bor edi-yu, biroq hech nimaga ziyo socholmas, hech nimani ko'rmasdi. Bir juftgina ko'z, qayoqqa qarasa o'sha yoqdan tikilib turibdi. Bordi-yu u ko'zini yumsa, qarshisida jamiki jihoz-u ashyolari juda yaxshi tanish bo'lgan xona gavdalanardi (mabodo jihozlarni xotirasida tiklamoqchi bo'lsa, ulardan ba'zilarini eslolmasligi turgan gap edi, albatta), har bir buyum joy-joyida turgan bo'lardi. Jasad ham o'sha joyida yotibdi, ko'zlari ham u pisibgina chiqib ketayotganida qanday bo'lsa, xuddi o'shanday baqrayib turibdi.

U sakrab turib, dala bo'ylab yugura ketdi. Jasad sharpasi orqasidan quvib kelardi. U omborga qaytdi va yana g'ujanak bo'lib oldi. U oyog'ini uzatib ulgurmasidan ilgariroq tag'in chaqchaygan ko'zlar ro'parasida paydo bo'lib qoldi.

Shunda vujudini hech qachon hech zog' tuymagan vahima chulg'ab oldi-yu, a'zoyi badani qaltirab, borlig'i muzdek terga g'arq botib turgan bir paytida qo'qqisidan tun shamoli olislardan baqiriq-chaqiriq hamda tahlikaga tushgan, vahima bosgan odamlar g'ala-g'ovurini qanotlarida uchirib kelib qoldi. Bunday xilvat joyda inson ovozini eshitib — mayli, shovqin hatto qandaydir falokatdan darak berayotgan bo'lsa ham — u bir oz yengil tortdi. Tahdid solayotgan xavfni tuyish hissi Sayksga yangi kuch baxsh etdi-yu, o'rnidan sapchib turib, ombordan otilib chiqdi.

Bepoyon samoga naq o't tutashganga o'xshardi. Bir-biri bilan baslashib ko'kka o'rlayotgan alanga tillari atrofga son ming uchqun sachratib, bir necha chaqirimlab tevarak-atrofni mash'ala yanglig' yoritib turar, u tomonga qarab tutun bulutlarini ufurardi. Qiy-chuv yanada kuchaydi, negaki dod-voylarga yangidan-yangi faryodlar qo'shila borardi; shunda u qo'ng'iroqlar bongi, allaqanday og'ir narsalarning gumburlab qulashi, olovning biror yangi to'siqqa ko'ndalang bo'lganida yalmog'iz tillari bilan yamlab, yangi ozuqa quvvati bilan ko'kka yanada balandroq sapchiy boshlaganida battarroq charsillab-guvillashiga qorishib ketayotgan: «Yong'in!» degan baqiriqlarni anglay oldi. U kuzatib turar ekan, shovqin tobora zo'rayib borardi. U yoqda odamlar — erkag-u ayol barchasi, yorug'lik, alanga to's-to'polon. Bu manzara unga go'yo yangicha hayot bo'lib ko'rindi. U olg'a tashlandi — to'ppa-to'g'riga qarab, joni boricha, supurgio'tlar va butalarni oralab, to'sig'-u g'ovlardan sakrab o'tganicha, oldinda qattiq-qattiq hurgancha bamisoli uchib borayotgan iti singari sira to'xtamay yuguraverdi.

Chopgancha yetib bordi. Yarim yalang'och odamlar zir yugurishyapti: bir xillar otxonalardan qo'rqib ketgan otlarni tashqariga olib chiqishga harakat qilishyapti, boshqalar mol-hollarni hovli-yu qo'ralardan, og'ilxonalardan dalaga haydab chiqishyapti, tepalaridan uchqun yomg'irday yog'ilib, laqqa cho'g' to'sinlari bosib tushayotgan, alanga ichida qolgan uylardan qaqir-ququrlarini tashmalashyapti. Bir soatgina muqaddam eshik va derazalar berkitib turgan darchalardan junbishga kelgan olov ummoni ko'zga tashlanib turardi; devorlar lopillab-lopillab turib, jahannamiy o't dengiziga qulayapti; o'tda erigan qo'rg'oshin-u temir-tersak qirov bog'lagan laqqa cho'g'day yerga quyilib-oqib tushyapti. Xotin-xalaj-u bola-baqralar chuvvos solishyapti, erkaklar esa baqirib-hayqirishib bir-birovlariga dalda berishyapti. Suv sepgichlarning jarang-jurungi, lovillab yonayotgan yog'och-u taxtalarga urilayotgan suvning vishillashi quloqni qomatga keltiruvchi shovqin-suron-u o'kirikka qorishib ketyapti.

U ham ovozi bo'g'ilib qolguncha baqirib-chaqirdi, xotirotlari hamda o'z-o'zligidan yiroqroq qochib, olomon qalin yerga urdi o'zini. Shu tunni u dam suv purkagichlar yonida ter to'kib, dam tutun-u o't orasiga sho'ng'ib, ammo hamisha odam qalin-u shovqin-suron kuchliroq joyda bo'lishga tirishib, u yoqdan-bu yoqqa zir yugurib o'tkazdi. U devorga qo'yilgan narvonda deysizmi, tepayu pastda deysizmi, tom-u o'zining og'irligidan to'shama taxtalari g'ijirlab-lopillayotgan, tosh-u g'ishtlar do'lday yog'ilib turgan bino ichida deysizmi — qayerdagi o't quturayotgan bo'lsa o'sha joyda hozir edi. Ammo-lekin uning hayoti sehr-u jodu qilingandi bamisoli: na biron joyi tirnaldi, na biron yeri lat yedi; toki tong otib, atrofda dud-u qop-qora ko'mirga aylangan xarobazor qolguncha na charchoqni bildi, na biron nimani o'yladi.

Bu telbanamo hayajon tarqagach, qilgan jinoyati haqidagi dahshatli o'y o'n karra kuchliroq bo'lib qaytdi. U shubhalanib atrofiga alanglab qo'ydi; odamlar to'da-to'da bo'lishib gaplashishardi, shunda u, tag'in meni gaplashishayotgan bo'lishmasin, deya xavotirga tushdi. Iti uning barmog'ining ma'nodor harakatiga itoat etdi va ular imi-jimida nari keta boshladilar. U suv purkagich yonidan o'tib borarkan, o'sha yerda o'tirgan bir necha kishi, kel, biz bilan tamaddi qilib ol, deb chaqirib qolishdi. U non bilan go'shtdan yeb, endi pivodan ho'play boshlagan ham ediki, Londondan kelgan o't o'chiruvchilarning qotillik haqida gaplashayotganlari qulog'iga chalinib qoldi.

— Aytishlaricha, u Birmingem tarafga ketganmish, — dedi ulardan biri, — bari bir ushlashadi uni, nega deganda, izquvarlar oyoqqa turishgan, ertaga kechgacha bo'lsa buni butun mamlakat eshitadi.

U shosha-pisha yo'lga tushdi, to oyoqlari chalishib qolgunicha yuraverdi, ana shundan keyin to'g'ridan-to'g'ri so'qmoqqa cho'zildi-yu, uzoq, ammo behalovat uxladi. Keyin taraddudga tushib, ikkilanib, tunni yana yolg'iz o'tkazishdan naq yuragi yorilgudek bo'lib, tag'in surgala ketdi. Banogoh u tavakkaliga Londonga qaytishga qaror berdi.

«U yerda aqalli gaplashadigan odamim bor-ku, — o'yladi u, — innaykeyin, yashiringani ishonchli joy ham. Rostki meni shu atrofda degan gap tarqagan ekan, u yoqda tuzoqqa ilintirish xayollariga kelmaydi. Oldin biror hafta berkinib yotib, keyin Fedjindan loy qoqishtirib, Fransiyaga quyon bo'lsam-chi? Tavakkal, shundoq qilganim bo'lsin!»

U darhol o'z azmi qaroriga amal qilishga kirishdi va eng pasqam yo'llarni tanlab, poytaxt yaqinida biror joyga borib yashirinib turish, qosh qorayganidan so'ng esa gadoy topmas ko'chalardan shaharga kirib, mo'ljallab qo'ygan dahasiga jo'nash niyatida yo'lga ravona bo'ldi.

Xo'sh, it-chi? Agar uning qiyofasi-yu belgilarini hammayoqqa tarqatishgan bo'lsa, unda itning ham g'oyib bo'lganini esdan chiqarishmaydi va egasi bilan ketgan, deb o'ylashlari shubhasiz. Bu narsa ko'chalardan o'tib borayotganida qo'lga tushib qolishiga sababchi bo'lishi hech gapmas. U itni suvga cho'ktirib yuborishga ahd qilib, birorta hovuz-povuz uchrab qolar, deya yo'lida davom etdi; yo'lakay og'ir toshni dastro'moliga tugib oldi.

Ana shunday tayyorgarlik ko'rilar ekan, it egasidan ko'z uzmadi; itni xatardan savqi tabiiy ogoh etdimi yoxud gazzobning shig'rayib qarashi odatdagidan qahrliroq chiqdimi, har qalay, u egasidan hamishagidan sal orqaroqda, dumini qisib kelar va tomteshar odimini sekinlatishi bilan u ham sal nariroqda to'xtardi. Egasi bir hovuzning oldida to'xtab, uni yoniga chaqirganida joyidan qimirlamadi ham.

— Eshityapsanmi, chaqiryapman seni! Kel bu yoqqa, ba! — qichqirdi Sayks.

It odati ta'sirida yoniga keldi, biroq Sayks ro'molchani bo'yniga bog'layman deb engashar ekan, u bo'g'ilib irillagancha chetga qochdi.

— Qayt orqangga! — qichqirdi gazzob.

It dumini jilpanglatdi-yu, lekin turgan joyida qolaverdi. Sayks yana va yana chaqirdi.

It yaqinroq keldi, tag'in nariroqqa tisarildi, bir lahzagina turib qoldi, keyin shartta burildi-yu, zipillagancha qochdi-ketdi.

Sayks ketma-ket hushtak chaldi, o'tirib, u qaytib keladi degan umidsiz kuta boshladi. Biroq it shu ketgancha badar ketdi va egasi nihoyat yana yo'lga tushdi.

---

---

**XLIX BOB. MONKS BILAN MISTER BRAUNLOU NIHOYAT  
UCHRASHADILAR. ULAR O'RTASIDAGI SUHBAT  
VA USHBU SUHBATGA RAXNA SOLGAN XABAR**

Mister Braunlou uyi kiraverishida yollagan izvoshidan tushib, eshikni taqillata boshlaganida, qosh qorayib qolgan edi. Eshik ochilgach, izvoshdan chiqib kelgan devqomat erkak izvosh zinasi-ning bir tomonidan joy oldi; bu orada izvoshchi o'rindig'ida o'tirgan odam esa, o'z navbatida pastga tushib, ikkinchi tomoniga o'tib turdi. Mister Braunlouning ishorasi bilan ular izvoshdagi uchinchii erkak-ning pastga tushishiga yordamlashishdi-da, o'ng-u so'ldan o'rtaga ol-ganlaricha tezgina uyga olib kirib ketishdi. Bu odam — Monks edi.

Xuddi shu tarzda ular indamaygina zinadan yuqoriga ko'tarilishdi, oldinda borayotgan mister Braunlou ularni orqa xonaga boshladi. Oshkora norizolik-la arang tepaga chiqayotgan Monks xona eshigi oldida to'xtadi.

— Mayli, ikkidan birini tanlasin, — dedi mister Braunlou, — agar tixirlik qilsa yoki salgina qarshilik ko'rsatadigan bo'lsa, ko'chaga sudrab chiqib, politsiyani chaqiringlar-da, mening nomimdan ayb qo'yib, topshirib yuboraveringlar.

— Men haqimda shunday deyishga qanday tilingiz boryapti? — so'radi Monks.

— Yigit, meni bunga majbur qilishga siz o'zingiz qanday jur'at etyapsiz? — savolga savol bilan javob qaytardi mister Braunlou yigitning aftiga tik boqqancha. — Bu uydan qochib qolmoqchi bo'layotganingizga qaraganda aqldan ozgan ko'rinasiz chog'i?.. Qo'yib yuboringlar uni... Gap bundoq, ser: siz ozodsiz, horavering, biz esa ketingizdan yuramiz. Lokigin ogohlantirib qo'yay — jamiki men uchun muqaddas bo'lgan narsalar haqqi ont ichaman! — ko'chaga qadam bosdim deganingizdayoq sizni qalloblik va talonchilikda ayb-lab hibsga oldirtiraman. Qarorim qat'iy va so'zim jiddiy. Agarda bu yog'iga o'zingizni xuddi shundoq tutishga ahd qilgan bo'lsangiz, gu-noh-u uvolingiz o'z bo'yningizga.

— Bu ko'ppaklar kimning buyrug'i bilan meni ko'chada ushlab olib, bu yerga olib keldi? — so'radi Monks yonida turgan erkaklar-ning betiga birma-bir tikilarkan.

— Mening buyrug'im bilan, — javob berdi mister Braunlou. — Bu odamlar uchun men javob beraman. Basharti siz, meni ozodlik-

dan mahrum etishdi, deb shikoyat qiladigan bo'lsangiz — bu yoqqa kelayotganingizda siz ozodligingizni qaytarib olish huquqi hamda imkoniyatiga ega edingiz, lokigin shovqin ko'tarmaslikni afzal topdingiz — u chog'da, takror aytaman, o'zingizni qonun panohiga topshiring. Kamina ham o'z navbatida qonunga murojaat etgum. Illo bu ko'ydan keyin orqaga qaytib chiqa olmaydigan darajada ichkarilab ketadigan bo'lsangiz, haq-huquq boshqa qo'llarga o'tganidan so'ng, mendan muruvvat kutmang va o'zingizni o'zingiz uloqtirgan jahan-namga siz itarib yubordingiz, deya ta'na qilib o'tirmang.

Monksning xijolat tortgani va buning ustiga xavotirga tushgani ko'rinib turardi. U taraddudlanmoqda edi.

— Tezroq bir qarorga kelishingiz lozim, — dedi mister Braunlou bag'oyat qat'iy va bosiqlik bilan. — Basharti jamoatchilik shohidligida zimmangizga ayb yuklashim va jazoga (garchi bu jazoni nadomat-la olddan ko'ra olishga qodir-u, ammo o'zgartishga ojiz bo'lsam-da) duchor etishimni ma'qul ko'rsangiz, u holda, yana bir karra aytib qo'yayki, yo'lni bilasiz, marhamat. Bordi-yu maqbul bo'lmasa va mendan muruvvat-u o'zingiz shunchalik yovuzlik qilgan kimsalarin-gizdan marhamat istasangiz, u chog'da ortiqcha gap-so'zsiz manavi kursiga o'tiring. Ikki kundirki, u sizga muntazir.

Monks allanimadir deb mujmal g'udrandi-yu, hanuz ikkilanib turaverdi.

— Bo'la qoling, — dedi mister Braunlou. — Bir og'izgina so'z aytsam bas —qay birini tanlashingizning imkoniyati yo'qqa chiqadi.

Monks hamon taraddudlanardi.

— Muzokara olib borishga maylim yo'q, — so'zini davom ettirdi mister Braunlou. — Buning ustiga, bashartiki o'zgalarning eng zarur manfaatlarini himoya qilayotgan ekanman, bunga haqqim ham yo'q.

— Haligi... — dedi Monks duduqlanib, — haligi birorta murosaga kelish chorasi yo'qmi?

— Hech qanaqangi.

Monks kekxa jentlmenga xavotirlanib qaradi, biroq uning chehra-sida beshafqatlig-u qat'iyatdan bo'lak narsani ko'rmagach, xonaga kirdi-da, yelkasini qisib qo'yib, stulga cho'kdi.

— Eshikni tashqaridan qulflab qo'yinglar, — dedi mister Braunlou xizmatkorlarga, — o'zim qo'ng'iroq chalganimdan keyingina ki-ringlar bu yerga.

Xizmatkorlar uning amrini ado etishdi va ular tanho qolishdi.

— Chakkimas muomalangiz, ser, — dedi Monks shlyapasi bilan yelkapo'shini yecharkan, — tag'in otamning qadr-don do'stisiz-a.

— Barakalla, otangizning eski qadr-doni bo'lganim sababidan ham shunday, yigit!— javob berdi mister Braunlou. — Aynan yoshlik va bax-

tiyorlik yillarimdagi orzu-umidlarim u bilan va unga qondosh, navqiron pallasida Tangri huzuriga yo'l tutib, meni yolg'iz qoldirib, g'am-qayg'u quchog'iga tashlab ketgan sohibjamol bilan bog'liq bo'lgani sababli; uning yosh bolaligidayoq Yaratganning irodasi bilan menga nasib etmagan, menga umr yo'ldoshi bo'ladigan kuni ertalab peshonasidagi yakka-yu yolg'iz opasining o'lim to'shagi tepasida, shundoq yonginamda tiz bukib turganligi sababli; mening muhtar yuragim o'sha kundan boshlab toki umrining oxirigacha, u tortgan jamiki musibat-u jamiki yanglishmovchiliklariga sherik, hamdam-u hamroz bo'lib kelganligi sababli; aynan yuragim o'sha ko'hna xotiralar-u mehr-oqibatga to'la ekanligi va hatto sizni ko'rgan chog'larimda u haqdagi allazamonlardagi o'y-fikrlarim qayta jonlangani tufayli; aynan sizga nisbatan ko'nglimda mehr saqlanib qolganligi, muloyim muomala qilish istagi mavjudligi sababli shunday muomala qilyapman... Ha, shunday, Eduard Liford, hattoki shu kundayam... Bu nomga noloyiq bo'lganingizdan siz uchun men nomus qilaman!

— Mening nomimni nima aloqasi bor bu gaplarga? — so'radi shu topgacha suhbatdoshining hayajonini hayrat-la, qovog'ini solib, churq etmay kuzatib o'tirgan Monks. — Men uchun nomni o'zi nima degan gap ekan?

— Hech vaqo, — javob berdi mister Braunlou, — siz uchun hech nima. Illo o'sha farishtaning ham nomi edi bu, hattoki hozir, oradan shuncha yillar o'tganidan keyin ham bu nomni eshitsam bas, u mening, qariya bir odamning vujudiga o't qalab, tanasini larzaga keltiradi. Uni o'zgartirganingizdan g'oyat xursandman... ha, g'oyatda xursandman.

— Bularning hammasi ajoyib gaplar, — dedi Monks (o'zi qo'yib olgan ismini saqlab qolamiz) qo'llari bilan yuzini to'sganicha jimgina o'tirgan mister Braunlougga qovog'ini solib, yeb yuborgudek tikilgan ko'yi kursida g'ujanak bo'lib, uzoq sukut saqlagach. — Lekin mendan nima istaysiz?

— Sizni iningiz bor, — dedi mister Braunlou o'ziga kelib — ukan-giz... Ko'chada orqangizdan ketayotganimda sizni hayrat va xavotirga tushib ketimdan ergashishga majbur etish uchun qulog'ingizga ismini shivirlab aytishimning o'zi kifoya edi.

— Hech qanaqa ukam yo'q, — e'tiroz bildirdi Monks. — Yakka-yu yagona bola ekanimni o'zingiz bilasiz. Nega endi ukang bor deb boshni qotirasiz? Buni mendan ko'ra yaxshiroq bilasiz-ku!

— Qani, menga ayon bo'lgan va ehtimolki o'zingiz bexabar bo'lgan gaplarga quloq bering, — dedi Braunlou. — Hash-pash deguncha gapimga qiziqtirib qo'ysam kerak o'zlarini. Bilaman, o'sha mash'um nikoh, hali yoshgina yigitcha ekaniga qaramay, oilaning g'ururi hamda g'arazli, shafqatsizona shuhratparastlik tazyiqi ostida otan-

gizni zo'rlab o'qitilgan nikohdan bunyodga kelgan yakka-yu yagona hamda manfur zurriyod — bu sizsiz!..

— Bunaqangi achchiq-tiziq gaplarni parvoyimga keltirmayman, — uning gapini bo'ldi Monks zaharolud kulib. — Bu haqiqat o'zlariga ayon, shuning o'zi kifoya menga.

— Illo men ushbu muvaffaqiyatsiz nikoh oqibatida tug'ilgan jonni qiymalovchi qiynoq, behad azoblarni ham bilaman, — so'zini davom ettirdi kekxa jentlmen. — Yana tag'in bu baxti qaro er-xotining zil-zambil turmush zanjirini o'zlari uchun og'ulangan hayot so'qmog'idan qanchalar sillalari qurib, bema'no-yu bemaqsad surgab yurganlari ayon menga. O'zaro sovuqdan-sovuq, rasmiy muomalalari qanday ochiq-oshkora tahqirlashga aylanganini, beparvolig-u loqaydlik qanday adovatga, adovat — nafratga, nafrat esa jirkanishga joy bo'shatib berganini, alal-oqibat bu narsa o'sha zanjirlarni jaranglatib chilparchin qilishlarigacha olib borganini ham bilaman. Ajralishib, har qaysisi har yoqqa ketarkan, o'zi bilan o'sha me'dalariga tekkan jirkanch zanjirning o'limdan bo'lak hech narsa parchalay olmaydigan halqalarini jingirlatgancha ola ketishdi va yangi sharoitda ota-onangiz uni qo'lidan kelganicha quvnoqlik pardasi ostiga yashirib yurishdi. Onangiz buning uddasidan chiqdi; u o'tmishini tez unutdi; illo mash'um zanjir halqalari talay yillar mobaynida zanglay borib, otangizning qalbini kemirib bitkazdi.

— To'g'ri, ular ajralishgandi, — dedi Monks. — Xo'sh, ajralishsa nima bo'пти?

— Ular ajralishganidan birmuncha muddat o'tgach, — javob qildi mister Braunlou, — onangiz qit'ada butkul beg'am-u betashvish puch hayotga sho'ng'ib ketib, o'zining kelajagi-yu dunyodan umidini uzgan bir kayfiyatda ona yurtida qolgan yoshgina erini mutlaqo unutilib yubordi. Illo otangiz shunda yangi do'stlar orttirdikim, bundan o'zingizning ham xabaringiz bor, har qalay.

— Yo'q, xabarim yo'q, — dedi Monks ko'zlarini chetga olib qochib, jamini rad etishga qasd qilgandek, oyog'i bilan yer depsib. — Bexabarman.

— Avzoyingiz, qilmishlaringiz qatori, bu narsani hech qachon esdan chiqarmaganligingiz va hamisha alam bilan o'ylab yurganinigizni isbot qilib turibdi, — e'tiroz bildirdi mister Braunlou. — Bundan o'n besh yil muqaddam, siz hali o'n bir yasharlik paytingizda sodir bo'lgan voqeani aytyapman; otangiz bo'lsa o'sha paytda endigina o'ttiz birga qadam qo'ygan edi, zero, takror aytaman, otasi uylanishni buyurgan pallasida u hali yosh yigitcha edi. Padaringizning xotirasiga soya tashlaydigan o'sha voqealarga qaytishim kerakmi yoki bundan meni xalos etib, o'zingiz haqiga ko'chasizmi?

— Haqiga ko'chadigan hech qanaqangi gapim yo'q meni, — qarshilik bildirdi Monks. — Agar xohlasangiz, bemalol gapiraverishingiz mumkin.

— Nima ham derdim, bo'пти! — so'zini davom ettirdi mister Braunlou. — Shunday qilib desangiz, o'sha yangi do'stlaridan biri iste'foga chiqqan dengiz zobiti bo'lib, xotini ikki bolasini unga qoldirib yarim yil burun olamdan o'tgan edi. Bolalari ko'proq bo'lgan-u lekin baxtlariga ikkitasigina omon qolishgandi. Bular: biri o'n to'qqiz yashar sohibjamol qiz, ikkinchisi hali go'dak, ikki-uch yoshlardagi qizaloq edi.

— Bu bilan mening nima ishim bor ekan? — so'radi Monks.

— Ular mamlakatimizning otangiz sargardon bo'lib yurgan kezarlarida borib, o'rnashib qolgan qismida yashashardi. Ular tezda tanishib, yaqinlashib, do'stlashib ketishdi. Otangiz nihoyatda iqtidorli yigit edi. Qalbi ham, fe'l-atvori ham xuddi opasinikiga o'xshardi. Keksa zobit yaqindan bilgani sayin unga bo'lgan mehr-muhabbati orta bordi. Ish shu bilan tugagan bo'lsa koshki edi-ya. Lekiniga qizi ham uni sevib qolgandi.

Keksa jentlmen tek qoldi. Monks labini tishlagancha yerga tikilardi. Buni payqagan jentlmen darhol hikoyasini davom ettirdi:

— Yil oxiriga borib u o'z zimmasiga majburiyat, muqaddas majburiyat yuklab, bu qiz oldida burchli bo'lib qoldi, ya'niki u soddadil, ma'suma qizning samimiy, qizg'in, chinakam ilk muhabbatini qozondi.

— Hikoyangizning nihoyasi ko'rinmaydiganga o'xshaydi-ku, — deb qo'ydi Monks o'tirgan joyida besaranjomlanib.

— Bu, yigitcha, iztirob, azob-uqubat va g'am-tashvish haqidagi haqqoniy hikoya, — e'tiroz bildirdi mister Braunlou, — bunaqangi hikoyalar, odatda uzun bo'ladi; basharti beg'ubor baxt-u xursandchilikdan hikoya qilganimda qisqagina bo'lardi. Nihoyat, manfaatlari yo'lida otangiz qurbon qilingan badavlat qarindoshlardan biri olamdan o'tadi (bunday qurbonlik esa oddiy bir hodisadir), o'zi quroli bo'lgan yovuzlikni endilikda tuzatish istagida u otangizga pul qoldirib ketarkan, bu pul jamiki balo-qazo-yu falokatlarining davosi bo'lib tuyulgan unga. Zudlik bilan Rimga yetib borish zarurati tug'iladi shunda, zero bu odam davolangani borib, ishlarini o'lda-jo'lda qoldirib, o'sha yerda vafot etgan. Otangiz yo'lga otlangan va o'sha yoqda bedavo dardga chalingan. Bu haqdagi xabar Parijga yetib kelishi bilanoq onangiz sizni olib yo'lga tushgan. Sizlar yetib borgan kunning ertasiga hech qanday vasiyat — *hech qanday vasiyat* qoldirmay joni uzilgan uning, shunday qilib, bor boyligi onangiz bilan sizga tekkan.

Endilikda Monks, garchi hikoyachining betiga qaramayotgan bo'lsa-da, butun vujudi diqqatga aylanib, nafasini ichiga yutib quloq solayotgan edi. Mister Braunlou tin olganida qo'qqisdan o'zini yengil

tortgandek tuygan odam singari avzoyi-holatini o'zgartib, bo'g'riqib ketgan afti va qo'llarini artidi.

— Chet elga jo'nashidan oldin, London orqali o'tib borayotib, — mister Braunlou uning aftidan ko'z uzmay, oshiqmay, bafurja davom ettirdi hikoyasini, — u menga yo'liqqandi...

— Buni sirayam eshitmagandim, — gapini bo'ldi Monks o'zicha shubhalanganini anglatishi lozim bo'lgan ohangda, lekin ovozi yo'qimsiz, hayratomuz chiqdi.

— U menga yo'liqib, boshqa buyumlaridan tashqari bir rasmni — o'sha bechora qizning o'z qo'li bilan chizgan rasmini ham tashlab ketdi. U rasmni qoldirib ketishni istamas, ayni chog'da oshig'ich safarga o'zi bilan olib ham ketolmasdi. Chekkan tashvishi-yu vijdon azobidan ramaqijon bo'lib qolgandi, o'zi keltirgan halokat hamda benomuslik to'g'risida iymajib, ming xijolat bilan, poyma-poy qilib gapirdi; har qanday ziyon-piyoniga qaramay, bor bisotini pulga aylantirish niyatida ekanini va olajak merosidan bir qismini xotini bilan sizga ajratib berib, mamlakatdan qochib qolishini — yolg'iz o'zi qochmoqchimasligini juda yaxshi tushunib turardim o'shanda — va bu yoqqa ortiq qaytib kelmaslikka qasd qilganini aytgandi menga. Hatto menday odamga, ikkalamiz uchun qadrdon-u aziz kishimizning o'limi bog'lab turgan menday qadrdon do'stiga ham dilidagi gaplarni yorilmadi butkul; hammasini maktub orqali yozib yuborishga va men bilan yana bir marta, hayotida oxirgi marta uchrashishga so'z berib qo'ya qoldi. Afsus, afsus! O'sha galgisi oxirgi uchrashuvimiz ekan. Undan hech qanday xat olmadim, o'zi bilan ham qaytib diydor ko'rishmadim... Hamma ish ana shunday tugagach, — picha tin olib, so'ngra hikoyasini davom ettirdi mister Braunlou, — men o'sha jinoyatkorona muhabbat tug'ilgan joyga — odamlar bermalol-u xotirjamgina ishlatadigan iborani ishlatyapman, zero insoniy shafqatsizlik va muruvvatning endilikda uning uchun ahamiyati yo'q — o'sha joyga bordim. Men mabodo xavotir-u tashvishlarim to'g'ri chiqsa, adashgan go'dakka boshpana hamda panoh bo'la oladigan uyim-u qalbinning to'rini hadya etishga ahd qilgandim. Men yetib bormasimdan bir hafta burun bu oila u joylardan ko'chib ketibdi; ular mayda-chuyda jamiki qarzlaridan uzilishib, tunda jo'nab ketishibdi. Qayoqqa va nimagaligini hech zog' aytib berolmadi menga.

Monks yanada yengilroq nafas oldi va tantanavor qiyofada xonaga ko'z yugurtib chiqdi.

— Ukangiz, — dedi mister Braunlou unga yaqinroq surilarkan, — ukangiz, qiltiriqday, juldur-juldur kiyingan, boshida biron panohi yo'q tashlandiq bolakay tasodifdan ko'ra xiyla qudratliroq bir kuchning azmi bilan kaminaning yo'lida ko'ndalang bo'lib, uni sharmandali hamda ilatlarga kon hayot botqog'idan xalos etgan bir paytimda...

— Nima-nima? — qichqirib yubordi Monks.

— Men xalos etganimda! — takrorladi mister Braunlou. — Hash-pash deguncha gapimga qiziqtirib qo'yaman deb ogohlantirib qo'ygandim o'zlarini. Ha, men tomonimdan. Ko'rib turibman, ay-yor hamtovog'ingiz, garchi sizga notanish deb hisoblagan bo'lsa hamki, mening ism-sharifimni yashiribdi o'zlaridan. Ukangiz men tomonimdan xalos etilgach va mening uyimda asta-sekin darddan forig' bo'lib yotar ekan, yuqorida aytib o'tganim rasmga quyib qo'yganday o'xshab ketishi hayratga soldi meni. Hatto kir-chir va ayanchli bir holatda ham dastlabki ko'zim tushganidayoq yuzidagi nimasidir menda g'ayritabiiy taassurot qoldirib, go'yoki qaysidir eski qadrdonimning qiyofasi yarq etib ko'z o'ngimdan o'tgandek, tushimda aniq-tiniq ko'rgandek bo'ldim. Boshiga tushgan savdolarni bilib ulgurmasimdan burun uni o'g'irlab ketganlarini sizga aytib o'tirishimning hojati yo'q...

— Nega endi hojati bo'lmas ekan? — shosha-pisha so'radi Monks.

— Sababki, bu sizga besh qo'lday ayon.

— Menga-ya?

— Rad etish bema'nilik bo'ladi, — javob qildi mister Braunlou. — Bundan ko'ra xiyla ko'proq narsani bilishimni isbot qilib beraman sizga.

— Siz... siz... menga qarshi... hech nimani isbotlab berolmaysiz, — dedi Monks tutila-tutila. — Qani, bir urinib ko'ring-chi?

— Ko'ramiz! — dedi kekxa jentlmen unga sinovchan ko'z tashlab qo'yar ekan. — Men bolani yo'qotib qo'ydim va har qancha urinmay, uni topolmadim. Onangiz bu paytda olamdan o'tgandi, bilardimki, sizdan bo'lak hech kim sirni ochib berolmasdi; oxirgi marta eshitganimga qaraganda siz Vest-Indiyadagi mulkingizda ekansiz, onangiz vafotidan so'ng eng oxirgi bema'ni qilmishlaringizdan qochib qutulish uchun o'sha yoqqa jo'navorganingiz o'zingizga juda yaxshi ayon, shu tufaylidan men safarga otlandim. Bir necha oy muqaddam u yerdan jo'nagansiz va chamasi, Londonda edingiz, illo hech zog' aynan qayerda ekaningizni aytib berolmadi. Men orqaga qaytdim. Mulozim-u xizmatchilaringiz qayerda turganingizdan bexabar edilar. Ularning so'zlariga qaraganda hamishagidek sirli ravishda kirib kelar va xuddi o'shanday g'oyib bo'larkansiz. Goh har kuni paydo bo'lar, goh oylab gumdon bo'lib ketarkansiz, nazdimda, ilgarigi fahshxonalarga qatnagan, yana o'sha surbet hamda qaysar yoshligingizdagi oshnalaringiz bo'lmish manfur-u jirkanch odamlar bilan muloqotda bo'lib turgansiz. Men yangi-yangi savollar bilan mulozimlaringizni bezori jon qildim. Kechasi-yu kunduzi ko'cha kezdim-u, lokigin barcha urinishlarim, bundan atigi ikki soatgina muqaddam ham behuda ketayotganday edi, sizni hattoki birrovgina bo'lsa-da, ko'rishga erisholmay yurgandim.

— Mana endi ko'rib turibsiz, — dedi Monks dadil o'rnidan turib. — Xo'sh, bu yog'iga nima demoqchisiz? O'z fikringizcha allaqanaqangi iblisvachchani o'lgan odamning qo'li bilan chaplangan bemaza bir rasmga o'xshashligini tasmollab, shuni ro'kach qilib, qalloblik va talonchilik degan tumtaroq so'zlarni qalashtirib yotibsiz. Ukangmish! Bu oshiq-ma'shuqlar bola ko'rishgan-ko'rishmaganini hattoki bilmaysiz ham. Hatto, shuni ham bilmaysiz.

— Ha, *bilmasdim*, — javob qildi mister Braunlou, u ham o'rnidan turar ekan, — lokigin keyingi ikki hafta mobaynida barini bilib oldim. Sizning ukangiz bor! Buni bilasiz, uni taniysiz ham. Onangiz o'limi oldidan sizni sirdan hamda undan keladigan hayondan voqif etgan, vasiyatnoma ham bo'lgan. O'sha vasiyatnomada bu qayg'uli muloqotdan dunyoga kelishi mumkin bo'lgan go'dak tilga olingan; o'sha go'dak tug'ilgan va siz uni tasodifan uchratganingizda ilk marta ko'nglingizda otamga o'xshaydimi, degan gumon tug'ilgan. Siz u tug'ilgan joyga yo'l olgansiz. U yerda dalillar — uning tug'ilishi va shajarasi haqidagi uzoq vaqtlardan buyon pinhon yotgan dalillar saqlanib qolgan. Bu dalillarni yo'qotgansiz, endilikda, o'zingizning tilingiz bilan suhbatdoshingiz bo'lmish juhudga aytganingizdek, «bolaning shaxsini aniqlab beradigan yakka-yu yagona dalil daryoning tubida yotibdi, uni bolaning onasidan olgan shumkampir esa tobutda qurtlarga yem bo'lib, chirib yotibdi». Nomunosib o'g'il, yaramas yolg'onchi! Siz, ey tunlari zim-ziyo xonalarda o'g'ri-yu qotillar bilan pichirlashadigan nusxa! Siz, ey o'zingizga o'xshaganlarning milliontasiga arziydigan ayolni fitna-yu firiblari bilan ajalidan burun o'limga olib borgan razil! Siz, ey beshikdaligidayoq o'z otasining qalbini alam-u sitam-la yaralab, vujudini zaharlagan va tanasida uya qurib, kamol topayotgan beburdona mayl-istaklar, illat-u buzuqliklar oxir-oqibatda manfur dardga aylanib, basharasini murdor qalbining ko'zgusiga aylantirib qo'ygan pastkash zot! Siz, ey Eduard Lifford, meni kurash maydoniga chorlashda davom etasizmi hamon?

— Yo'q, yo'q, yo'q... — shivirladi ana shu jamiki ayblovlardan so'ng ablah.

— O'sha yovuz bilan gaplashgan har bir so'zingiz, ha, har bita so'zingiz menga ayon! — xitob qildi kekxa jentlmen. — Devordagi soyalar sizning shivirlashlaringizni pinhona eshitib, kaminaning qulog'igacha yetkazganlar. Zada qilingan bolakayning aft-angori hatto fahsh jonga ta'sir qilib, vujudiga jasorat, oz bo'lsa-da olijanoblik tuyg'usini solgan. Mana, qotillik sodir bo'ldi, aslan bo'lmasa hamki, ma'nan ishtirokchisiz bu qotillikning...

— Yo'q, yo'q! — uning so'zini bo'ldi Monks. — Men... men... bu to'g'risida hech nimani bilmayman. Meni qo'lga tushirgan paytingiz-

da bu voqeani aniqroq bilgani ketayotuvdim. Sababidan bexabar edim. Buni odatdagi janjallashuvlardan deb o'ylagandim.

— Sizning sirlaringizdan bir qismininggina fosh bo'lib qolgani sabab bo'lgan bunga, — javob qaytardi mister Braunlou. — Xo'sh, endi hammasini ochasizmi?

— Ha, hammasini.

— Dalillarni haqqoniy xatga tushirilsa imzo chekib, shohidlar oldida tasdiqlaysizmi uni?

— Bunga ham so'z beraman.

— Shunday hujjat tuzilmagunicha tinchgina kutib, keyin uni tasdiqdan o'tkazgani men ma'qul topgan yerga birgalashib borishga tayyormisiz?

— Agar talab qiladigan bo'lsangiz, bunga ham tayyorman, — javob qildi Monks.

— Bundan ko'ra ko'proq narsalarni qilishingiz kerak hali, — dedi mister Braunlou. — Begunoh hamda beozor bolakayga, garchand jinoyatkorona va eng badbaxtona muhabbat mevasi bo'lsa hamki, aslida shunday bola u, mol-mulkini qaytarasiz. Vasiyatnomadagi shartlar yodingizdan ko'tarilib ketmagan bo'lsa kerag-a?.. Ularni ado etasiz, zero bu shartlar ukangizga taalluqlidir, ana undan keyin to'rt tomoningiz qibla, istagan yeringizga jo'nayverasiz! Bu olamda u bilan boshqa uchrashishingizning hojati yo'q!

Monks qosh-qovog'i osilib, zardasi qaynab ushbu taklif va unga chap berib qolish borasida bosh qotirib, bir tomondan xavfsirash ich-etini tatalab, ikkinchi tomondan nafrati qaynab-toshib u yoqdan-bu yoqqa borib-kelarkan, eshikni shosha-pisha ochishdi va xonaga nihoyatda hayajonlangan bir jentlmen (mister Losbern) hovliqqancha kirib keldi.

— O'sha odam, albatta qo'lga tushadi! — xitob qildi u. — Shu bugun kechqurun oq qo'lga olinadi.

— Qotilmi? — so'radi mister Braunlou.

— Ha, — javob qildi unisi. — Ko'hna buzuqxonalardan birining atrofida iti o'ralashib yurganini ko'rishibdi; chamasi, egasining yo o'sha yerdaligi, yo qorong'i tushganda u yerga kelishiga shubhalanmasa ham bo'ladi. Hammayoqda izquvarlar izg'ib yurishibdi. Uni qo'lga tushirish topshirilgan odamlar bilan gaplashdim, o'shalar qochib qutulolmaydi deyishyapti uni. Bugun oqshomda yuz funt mukofot berilajagi e'lon qilinibdi hukumat tomonidan.

— Men ham ustiga ellik funt qo'shaman, — dedi mister Braunlou, — agar yetib borolsam, o'sha joyning o'zida o'z og'zim bilan e'lon qilaman buni... Mister Meyli qayerda?

— Garrimi? Manavi oshnangiz siz bilan izvoshga sog‘-salomat-gina o‘tirganini ko‘rgan zahoti bu xabarni eshitgan yeriga ot qo‘yib ketdi, shahar chekkasidagi shartlashilgan allaqaysi joyda dastlabki bo‘linmaga borib qo‘shilishi kerak ekan.

— Fedjin-chi? — so‘radi mister Braunlou. — Uning to‘g‘risida ni-ma gaplar bor!

— U to‘g‘risida oxirgi marta eshitganimda hali qo‘lga olinmagan-di, lekin ushlashadi uni, balki qo‘lga tushirib ham bo‘lishgandir al-laqachon. Bunga ishonchlari komil edi ularning.

— Bir qarorga keldingizmi? — ohistagina so‘radi mister Braunlou Monksdan.

— Ha, — javob berdi u. — Siz... siz... mening sirimni saqlab qo-lasizmi?

— Saqlab qolaman. Men qaytib kelgunimcha shu yerda qolasiz. Xavfdan qutulib qolishingizning birdan-bir umidli chorasi shu.

Jentlmenlar xonadan chiqishdi va eshik yana qulflab qo‘yildi.

— Nimaga erishdingiz? — shivirlab so‘radi doktor.

— Mo‘ljalimdagining bariga, hatto undan ham ko‘proqqa. Becho-ra qizdan eshitgan, shuningdek, ilgari bilgan ma‘lumotlarimni, joyi-da saxovatli do‘stim olib borgan tekshiruvlar natijasini birma-bir yog‘dirib tashlab, tonishga aqalli tariqchalik vaj-sabab qoldirmay, jamiki qilgan qabihlig-u razilliklarini bejamay-netmay ro‘yirost basharasiga aytib, turish-turmushini naq ko‘zguda ko‘rsatgandek yaqqol ko‘rsatdim-qo‘ydim. Maktub yozib uchrashuvimizni indinga kechki soat yettiga belgilang. U yerga bir necha soat oldinroq ye-tib boramiz, illo avval, ayniqsa oyimqiz, dam olvolishimiz zarur; negaki sodir bo‘lajak gaplar undan hozir siz bilan biz o‘ylayotgandan ko‘ra ortiqroq matonatni talab etishi mumkin. Lokigin shu topda anavi razillarcha o‘ldirilgan bechora qizginaning o‘chini olish ista-gi zo‘rligidan tomirlarimdagi qon qaynab ketyapti. Qayoqqa qarab ketishdi ular?

— To‘g‘ri politsiya mahkamasiga qarab boravering — shunda naq vaqtida yetib borasiz, — javob berdi mister Losbern. — Men shu yer-da qolaman.

Jentlmenlar shoshilinch xayrlashishdi — har ikkalasi ham jilovlab bo‘lmaydigan betizgin hayajon iskanjasida edi.

Temzaga yaqingina yerda, Roterxizdagi cherkov qad ko'targan va sohilbo'yi imoratlari eng chirkin, daryodagi kemalar esa ko'mir tashiydigan barjalardan ko'tarilgan kukun hamda qalashib yotgan pastak-pastak kulbalardan taralgan tutundan qorayib ketgan joyda ushbu shaharning behisob istiqomatchilari hatto nomini ham bilmaydigan dahalari ichida eng iflos, eng g'alati, eng antiqasi joylashgan.

Yo'lovchi bu maskanga faqat shu atrofda bozori chaqqon buyumlar sotiladigan, sohilbo'yi ahli orasida eng qo'poli-yu eng qashshoqlar ishg'ol etgan iflos, tor-u tanqis jinko'chalar oralabgina bora oladi. Bu dahadagi peshtaxta-yu do'konchalarga eng arzon va eng bemaza oziq-ovqatlar uyib tashlangan; do'kondorlarning eshiklariga va deraza panjaralariga eng jo'n-u eng dag'al matodan tikilgan liboslar ilib tashlangan. Yo'lovchi hech qanday hunar-u kasb-kori yo'q zahmatkashlar, hammollar, ko'mirchilar, buzuq ayollar, juldur bolalar, xullasi, bandargohdagi jamiki qalang'i-qasang'ilarga duch kelib, ular orasidan arang yo'l ochib, jirkanch manzara-yu o'ng-u so'lga tarmoq otgan tor ko'chalardan gup-gup ufurayotgan badbo'y hidlar iskanjasida, har bir muyulishda uchrab turadigan omborxonalardan uyib mol ortib ketayotgan og'ir aravalarning taraqa-turug'idan qulog'i bitib olg'a yuradi. Nihoyat, xiyla chekkaroq hamda odam siyrakroq ko'chalarga chiqib, shundoq yo'lka tepasida bamisoli muallaq osilib turgan omonat bostirma-yu boloxonalar ostidan o'tib boradi; yonidan o'tib borayotganida go'yoki lopillab ketgandek tuyulgan chirik devorlar yoqalab ilgarilaydi; boshiga tushib ketay-tushib ketay deb turgan yarim xaroba mo'rilar, zanglagan sim bilan to'silgan chirib bitayozgan derazalar — jamiki tasavvurga sig'mas qashshog'lig-u vayronalikingin shahodati bo'lmish narsalar biqinidan o'tadi.

Bir zamonlar Mill-Rond deb atalgan, biroq biz hikoya qilayotgan kunga kelib Folli-Dich nomi bilan mashhur bo'lgan, suv ko'tarilishi paytida chuqurligi besh-sakkiz, eni o'n besh-yigirma futga boradigan iflos xandaq bilan qurshalgan. Jakob Oroli xuddi ana shu chekka yerda, Dokxed ortidagi Sautuorkda joylashgan. Mazkur xandaq, yoxud Temzaning tarmoqchasi, basharti Lid-Mills yonidagi shlyuzlar ochiq bo'lsa, suv ko'tarilgan pallada limmo-lim to'ladi hami-

sha, qadimgi nomini irmoqcha ana shu joy nomidan olgan. Bunday paytda yo'lovchi Mill-Leyn yaqinidagi yog'och ko'priklardan birortasida turib, har ikki betdagi uylarning istiqomatchilari orqa tomondagi eshig-u derazalaridan suv tortib olgani yog'och paqir, chelak va turli xil ro'zg'or idishlarini pastga tushirayotganini kuzatishi mumkin. Mabodo uning nigohi bu mashg'ulotdan uzilib, uylarning o'ziga qadaladigan bo'lsa, unda ko'z o'ngida namoyon bo'lgan manzaradan yoqasini ushlab qoladi. Orqa devorlar yoqalab ketgan besh-olti xonadonning o'rtasidagi liqildoq ayvoncha-shiyponlarning ostki to'shama taxtalari pastdagi loy-balchiq ko'rinib turadigan bo'lib yorilib-teshilib yotibdi; singan ko'zlariga qog'oz yopishtirilgan oynalardan kir yoyiladigan dorlar salanglab chiqib turibdi, ularga aslida hech qachon kir yoyilmagan; xonalar shunaqangi kichkina, shunaqangi ayanchli, shunaqangi torki, ularning havosi hatto o'zlari yashirib turgan ifloslik va razolat uchun ham haddan ziyod palag'da, zaharlilik qiladigandek tuyuladi; chiqindi-yu axlatlar uzra soyabon bo'lib turgan qo'shimcha yog'och shiypon-u boloxonalar xuddi qulab tushayotganga o'xshaydi — goho ba'zilari shunday bosib ham qoladi; devorlarni qurum-u is bosib ketgan, poydevorlar chirib-nuragan; olamdagi jamiki qashshoqlik belgilari, jamiki chirkinlik, chiqindi, axlat-u loy — Folli-Dich qirg'og'ini ana shular bezab turadi.

Jekob Orolidagi omborxonalarning tepasida tomi ham yo'q, ichlari bo'm-bo'sh, devorlari uvalib-uqalangan, oynalari oyna nusxini yo'qotgan, eshiklari ko'chaga ag'darilib, qiyshayib yotibdi, mo'rilar qorayib ketgan, ammo ulardan tutun chiqayotgani yo'q. O'ttiz-qirq yillar muqaddam, bu yerlar hali zarar ko'rish hamda Kansler sudi-da\* da'volashish nimaligini bilmaydigan paytlarda gullab-yashnagan edi, biroq hozir chinakamiga tashlandiq orol bu. Uylar egasiz; eshiklari qo'porib tashlangan. Jasorati yetgan, yuragi dov bergan har qanday odam kira oladi ularga; ular shu yerda yashaydi va shu yerda o'ladi. Jekob Orolidan boshpana istaganlarning xufiya joy izlashlari uchun asosli sabablari bo'lishi kerak, yoxud ular g'irt qashshoqqa aylanib qolganlar.

Ana shu uylardan birining — boshqalaridan alohida, yarim xaroba, ammo eshig-u darchalari mustahkam, orqa devori yuqorida ta'riflaganimiz xandaqqa qaragan hayhotday uyning yuqorigi xonasi-da jam bo'lgan uch erkak dam-badam bir-birovlariga sarosima bilan, nimanidir kutayotganday qarab-qarab qo'ygancha bir muddat miq etmay, qovoq uyib o'tirishdi. Ulardan biri Tobi Krekit, ikkinchisi mister Chitling, uchinchisi esa mushtlashuvlardan birida burni pachaq bo'lgan, yuzida vahimali chandig'i bor (ehtimolki bu ham o'sha

paytda tushgandir betiga) o'n besh yoshlardagi o'g'ri yigitcha edi. Bu nusxa qochoq katorgachi bo'lib, ismi Kegs edi.

— Ikkala eski maskanimizda poy-patagimizga o't qalashganidan keyin bu yoqqa qadamranjida qilmay, boshqa birorta yangi uy izlashingizni istardim, qadrdon, — dedi Tobi Krekit mister Chitlingga.

— Nega endi shunday qilmadingiz, ey kallavaram? — so'radi Kegs.

— Meni ko'rishdan bundan ko'ra jindakkina ko'proq xursand bo'lasizlar deb o'ylagandim, — javob qildi mister Chitling ranjinqirab.

— Bilasizmi, yigitcha, — dedi Tobi, — mabodo birov menga o'xshab tanho yashasa va tevaragida hech zog' o'ralashib, iskab yurmaydigan shinamgina uyi bo'lsa-yu, to'satdan sizning hozirgi sharoitingizdagi yigitchaning iltifot ko'rsatib xonadoniga tashrif buyurishi (bemalol vaqti borida qarta o'yinida u qanchalik ko'ngilli hamda shinavanda sherik bo'lmasin) uni bag'oyat noxush ahvolga solib qo'yadi.

— Buning ustiga o'sha tanholikda yashaydigan yigitnikiga o'zga yurtlardan kutganlaridan ancha ertaroq qaytgan va qaytishi bilan sudyalarga uchrashishga kamsuqumlīgi yo'l qo'ymaydigan oshnasi kelib tushgan bir paytda, — deya qo'shib qo'ydi mister Kegs.

Oraga qisqagina jimlik cho'kdi, so'ng Tobi Krekit, aftidan o'zining odatiy chapaninamo takabburona qiyofasini saqlab qolishga urinishi ishonarli chiqmasligini fahmladi chog'i, Chitlingga o'girilib:

— Shunday qilib, Fedjinni qachon qo'lga olishdi? — deb so'radi.

— Qoq tushlik paytida — bugun peshingi soat ikkida. Charli ikkovimiz kir yuviladigan xonaning mo'risidan quyon bo'ldik, Bolter esa boshi bilan bo'sh bochkaga kalla qilgandi, shotiday uzun oyoqlari bochkadan chiqib qolib, uniyam olib ketishdi.

— Bet-chi?

— Sho'rlik Bet! U kimni o'ldirganlarini ko'rgani borib, — javob berdi Chitling, chakkasi tirishgandan-tirishib borarkan, — jinni bo'p qopti: dod deb baqirib, shaytonlab, devorga boshini uraverganidan, jinnilar kiyimini kiydirishib, kasalxonaga jo'natishibdi. Hozir o'shoqda u.

— Beyts-chi, u qayoqda? — so'radi Kegs.

— To qorong'i tushgunicha bu yerda ko'zga tashlanmaslik uchun qayerlardadir sandiroqlab yuribdi, lekin tez orada kelib qoladi, — javob berdi Chitling. — Endi boradigan joyi yo'q boshqa, nega deganda, «Majruhlar»dagilarning hammalarini haydab ketishgan, qovoqxonada bo'lsa iskovuchlar bijib yotganini o'tib borayotib o'z ko'zim bilan ko'rdim.

— Bu uzil-kesil tor-mor qilindik degan gap, — dedi Tobi labini tishlab. — Ko'plarimizni ilintirishadi tuzoqqa.

— Hozir majlis qurishyapti, — dedi Kegs. — Agar ular tergovni tugatadigan va Bolter boshqalarni sotadigan bo'lsa — shu kungacha qilgan ishlariga qaraganda, albatta sotadi, — Fedjinning qotillikka aloqasi borligini isbotlab, sudni jumaga belgilashlari mumkin, olti kundan keyin esa bo'yniga sirtmoq solishmasa otimni boshqa qo'yaman!

— Olomonning qanaqangi baqirib-chaqirganini eshitganlaringda bormi, — dedi Chitling. — Politsiyachilar bamisoli iblisday olishishdi, bo'lmasa uning etini parcha-parcha qilib burdalab tashlashardi. Bir marta uni urib yiqitishdi ham, lekin politsiyachilar atrofini o'rab olib, arang yo'l ochishdi o'zlariga. Uning qop-qora qonga, loyga belanib, xuddi eng qalin oshnalariday politsiyachilarga yopishib olganini bir ko'rsalaring edi. Hozir ham ularni shundoqqina ko'rib turibman: o'zlarini arang tutib, zo'rg'a dosh berib borishyapti, negaki olomon ustilariga har tomondan yopirilib kelib, cholni tortqilab-sudrayapti; olomon musht o'qталib, do'pposlab, tishlarini g'ijirlatib, uning ustiga tashlanyapganini xuddi hozirgiday ko'rib turgandayman. Sochi va soqolidagi qon shundoqqina ko'zimning oldida turibdi, xotinlarning qichqiriqlarini qulog'im eshitib turibdi — ular muyulishda odam eng qalin joyni yorib o'tib, yuragingni yulib olamiz bu yoqqa, deb shang'illab qarg'ab yotishibdi.

Mazkur manzaraning dahshatidan borlig'i larzaga kelgan guvoh quloqlarini qo'llari bilan berkitib, ko'zlarini yumib olgan ko'yi o'rnidan turdi-da, xuddi aqldan ozganday tez-tez u yoqdan-bu yoqqa borib-kelaverdi.

U betoqatlanib nari borib-beri kelar, qolgan ikki sherigi oyoqlari ostiga tikilganча o'tirishar ekan, to'satdan eshikni allakim yoxud nimadir qitirlatib timdalayotganini eshitdilar-u xonaga Sayksning iti yugurib kirdi. Ular derazaga tashlanishdi, so'ng zinadan pastga, ko'chaga otulishdi. It ochiq derazaning rafiga sakrab chiqdi; u yigitlar ketidan tushmadi, egasi esa hech yerda ko'rinmadi.

— Bu qanaqasi bo'ldi? — dedi Tobi ular qaytib kelishgach. — Bu yoqqa kelishi sira aqlga to'g'ri kelmaydi. Ish... ishonamanki, bundaymasdir.

— Agar bu yerga kelayotgan bo'lsa, it bilan birga kirib kelardi, — dedi Kegs engashib, tilini osiltirganча hansirab yotib olgan itni ko'zdan kechirarkan. — Menga qaranglar, unga suv beraylik, uzoq yugurganidan o'lar holatga kelib qolibdi...

— Bir tomchisiniyam qoldirmay hammasini ichdi, — dedi itni jimgina kuzatib turgan Chitling. — Loyga belanibdi, oqsayapti, ko'ziyam xiralashib qolibdi... rosayam uzoq chopganga o'xshaydi.

— Qay go'rdan kelib qoldiykin bu? — dedi Tobi hovliqib. — Turgan gap, hamma boshqa qovoqxona-yu mayxonalarga borgan, ham-

ma yerda begona, notanish odamlar olomonini ko'rib, ilgarilari tez-tez bo'lib turgani uchun zing'illaganicha bu yerga kelgan. Lekin bundan oldin qayerdan kelganiykin, keyin egasisiz bu yerga qanday kelib qoldiykin?

— Axir u (ulardan hech qaysilari qotilning ismini tilga olmayotgandilar), axir u o'z joniga qasd qilmagandir? Sizlar nima deb o'ylaysizlar? — so'radi Chitling.

Tobi bosh chayqadi.

— Agar o'zini-o'zi o'ldirganida, — dedi Kegs, — it bizni o'sha yoqqa surgardi. Yo'q. Menimcha, u Angliyadan quyon bo'lgan-u itni tashlab ketgan. Bir yo'lini qilib adashtirib ketgan, bo'lmasa it bunaqangi jimgina yotmasdi.

Haqiqatga eng yaqin bo'lib tuyilgan bu fikr to'g'ri deb topildi: stol tagiga kirib olgan it kuchala bo'lib uyquga ketdi-yu, ortiq diqqatlarini tortmay qo'ydi.

Qorong'i tushgani boisidan deraza qopqoqlarini yopib, shamni yoqishdi-da, uni stolga keltirib qo'yishdi. So'nggi ikki kun mobaynidagi dahshatli voqealar uchovlariga ham juda qattiq ta'sir etgan va o'zlariga tahdid solib turgan xavf-xatar buni yanada oshirib yuborgandi. Ular tiq etgan sharpadan bir cho'chib tushgancha, kursilarini bir-birovlariga yaqinroq surishdi. Ular kam, shunda ham shivirlashib so'zlashishar va go'yoki o'ldirilgan qizning jasadi qo'shni xonada yotganday pildirpisingina, churq etgani cho'chib o'tirishar edi.

Ular bir muddat shu ko'yi o'tirishdi, keyin qo'qqisdan pastda al-lakim eshikni betoqat gursillatib qoldi.

— Beyts keldi, — dedi Kegs vujudiga chirmashgan vahimani yengish uchun jahl bilan atrofiga alanglab.

Eshik yana taraqladi. Yo'q, bu Beyts emasdi. U hech qachon bunaqangi taqillatgan emas eshikni.

Kredit deraza yoniga bordi-da, butun tanasi qalt-qalt titragancha mo'ralab qaradi. Oshnalariga kim kelganini aytib o'tirishining zarurati qolmagandi: rangi quv o'chib ketgan basharasi o'z-o'zidan aytib turardi buni. Buning ustiga it ham sapchib turdi-yu, g'ingshigancha eshikka qarab yugurdi.

— Ichkariga kiritishimiz kerak uni, — dedi Kredit shamni olayotib.

— Nahotki boshqa yo'rig'i bo'lmasa? — xirildoq tovush bilan so'radi oshnasi.

— Hech qanaqangi. Ichkariga *kirishi kerak* u.

— Bizni bunaqa qorong'ida qoldirmang-da, — dedi Kegs kamin tokchasidan boshqa shamni olarkan; shamni yoqayotganida qo'llari qaltirardi, shu tufayli u to shamni yondirib olgunicha eshik tag'in ikki marta taqilladi.

Krekit pastga tushib ketdi va og'zi-yu iyagini bitta ro'molcha, shlyapali boshini boshqa dastro'mol bilan bog'lab olgan bir odamni boshlab qaytdi. U ro'molchalarni shoshilmay yechdi. Rangi za'faron, ko'zlari cho'kib ketgan, chakaklari ich-ichiga kirib, uch kun orasida soqol-mo'ylovi o'sib ketgan, yuzlari so'lg'in, nafasi xirillab chiqiyapti; bu — Sayksning barmisoli arvohi edi.

U xonaning o'rtasida turgan kursining suyanchig'idan ushlab, unga o'tirmoqchi bo'ldi-yu, biroq yelkasi osha orqasiga ko'z tashlab qo'yarkan, seskanib ketib kursini devor tomon surib, iloji boricha taqab qo'ydi-da, keyin o'tirdi.

Hech birlari churq etib og'iz ochishmadi. U indamay dam unisiga, dam bunisiga tikilardi. Mabodo birortalari o'g'rincha qarayotgan bo'lsa, nigohlari to'qnashishi bilanoq yuzini burib olardi. Uning xirqiroq ovozi oradagi jimlikni buzganida uchovlari seskanib tushishdi. Chamasi, bu ovozni ular umrlarida eshitmaganga o'xshashardi.

— It qanday kirib keldi? — so'radi u.

— Yolg'iz o'zi. Uch soatcha bo'ldi.

— Oqshomgi gazetada Fedjinni qo'lga olindi deb yozishibdi. Shu to'g'rimi yo yolg'onmi?

— To'g'ri.

Yana jim qolishdi.

— Hammalaringni padarlaringga la'nat! — deya jazavasi tutdi uning, kafti bilan peshonasini artarkan. — Nima, menga aytadigan hech qanaqangi gaplaring yo'qmi?

Ular xijolatomuz besaranjomlanib qo'yishdi-yu, lekin hech qaysilari miq etmadi.

— Siz bu uyning egasisiz, — dedi Sayks Krekitga yuzlanib. — Xo'sh, meni tutib bermoqchimisiz yoki bu ov tugagunicha shu yerda tura-turishinga ruxsat etasizmi?

— Agar bexavotir deb hisoblaydigan bo'lsangiz qolaverishingiz mumkin, — deya javob berdi u murojaat qilgan odam birpas ikkilanib turgach.

Sayks xiyol boshini burib, orqasidagi devorga qarab qo'ydi-da:

— Anavi... jasad... ko'mishdimi uni! — deb so'radi.

Ular yo'q degan ma'noda ishora qilishdi.

— Nega endi ko'mishmaydi? — deya xitob qildi u, tag'in orqasiga qarab qo'yar ekan. — Bunaqangi jirkanch narsani nimaga ushlab turishibdi o'zi?.. Kim taqillatyapti u yoqda?

Xonadan chiqishdan oldin Krekit, xavotir oladigan hech nima yo'q, degan ishorani qilib, pastga tushib ketdi-yu, o'sha zahotiyoq Charli Beytsni ergashtirib qaytdi. Sayks eshikning to'g'risida

o'tirgani sababli bola ostonaga hatlab ichkariga qadam qo'yishi bilan oq unga ko'zi tushdi.

— Tobi! — dedi u orqasiga tisarilib, Sayks unga tikilarkan. — Nega o'shoqda, pastda aytmadingiz buni?

Anavilarning, uch oshnani qo'rquv aralash bu badbaxt odam hatto shunday sodda bola oldida mulozamat qilishga ham tayyor shekilli degan hayratlari sezilib turardi. Mana u, bosh iring'adi, aftidan, bolaning qo'lini qisishga ham tayyorga o'xshaydi.

— Meni birorta boshqa xonaga boshlang, — dedi bola yana tisarilib.

— Charli, — dedi Sayks, olg'a bir qadam tashlab. — Nahotki sen... sen meni tanimayotgan bo'lsang?

— Yaqinlashmang menga, — javob qaytardi bola tag'inam nariroqqa chekinar ekan, qotilning aftiga dahshat-la tikilib. — Yovuz!

Qotil yarim yo'lda to'xtadi, ular bir-birovlariga tikilib qolishdi, biroq Sayksning ko'zlari ohista yerga qadaldi.

— Uchovlaring guvohsizlar! — Qichqirdi bola mahkam tugilgan mushtini silkib, so'zlagani sayin hayajoni ortgandan-ortib borardi. — Uchovinglar guvoh bo'linglar — men undan qo'rqmayman! Agar bu yerga qidirib kelishadigan bo'lishsa, uni sotaman, xuddi shundoq qilaman, ko'rasizlar. Oldindan ogohlantirib qo'yyapman sizlarni. Buning uchun meni, agar xohlasa yoki botinsa, o'ldira qolsin, lekin men shu yerda bo'lsam, sotaman uni. Uni tiriklayin yoqishadigan bo'lishsayam bari bir tutib berardim... O'ldirishyapti! Yordam beringlar!.. Uchovlaringni bitta odamni ushlashga yuraklaring dov bersa, menga yordamlashib yuborasizlar... O'ldirishyapti! Yordam beringlar!.. Ushlanglar uni!..

Bola ana shu taxlit dod solgancha va alamli ishora-yu mardona harakatlar bilan chindan ham bir o'zi baquvvat erkakka jon-jahdi-la hamda qo'qqisidan tashlanib qolgani tufayli guppa qulatdi uni.

Uchala tomoshabin o'zlarini yo'qotib, mutlaqo esankirab qolishgandi chog'i. Ular aralashishga urinib ham ko'rishmadi, bola bilan erkak yerda dumalay ketishdi; bola o'ziga yog'ilayotgan zarbalarga parvo qilmay, qotilning ko'yligidan mahkam changallab olganicha ovozinig boricha yordamga chaqirardi.

Biroq olishuv kuchlar bag'oyat notengligi sababli ko'pga bormadi. Sayks bolani tagiga bosib olib, tizzasi bilan tomog'idan eza boshladi, shunda Krekit uni Beytsning ustidan tortib tushirib, xavotirlik bilan deraza tomonni ko'rsatdi. Pastda o'tlar miltillab, baqiriq-chaqiriqlar, oshig'ich qadam tovushlari eshitilayotgandi — chamasi ular behisob bo'lib, eng yaqindagi ko'prikan kelayotgandi. Aftidan olomon orasida otliq ham bor ko'rinardi, negaki notekis tosh yo'ldan tuyuq du-

puri eshitildi. Mash'alalar shu'lasi yanada kuchaydi: odim sharpalari kuchaygandan-kuchayib borardi. Keyin eshikni qattiq taraqlatishdi, shundayin g'azabnok va bosinqi g'ovur-g'uvur bosib ketdiki, hatto eng dovyurak odam bo'lganida ham bu suron esini teskari qilib yuborishi turgan gap edi.

— Yordam beringlar!.. — deb baqirdi bola, ovozi naq havoni parmalab, tashqariga otildi bamisoli. — Shu yerda u. Eshikni buzib kiringlar!

— Qirol nomi bilan! — degan ovoz eshitildi tashqaridan va ketidan yana hayqiriqlar yangradi, bu safargisi boyagisidan ham kuchliroq yangradi.

— Eshikni buzinglar! — baqirardi bola. — Sizlarga aytyapman; o'lsayam ochishmaydi uni! To'g'ri chiroq yonib turgan xonaga qarab chopinglar! Eshikni buzib kiringlar!

Uning ovozi tingach, eshik hamda pastki qavatdagi deraza qopqoqlariga ustma-ust va zalvarli zarbalar yog'ila ketdi-yu, olomonning qanchalik behisob ekani haqda ozmi-ko'pmi to'g'ri tasavvur hosil qilishda ichkaridagilarga ilk marta imkon yaratib bergan haybatli «ura» sadolari ko'kka o'rladi.

— Manavi chiyildoq iblisvachchani tiqib qo'yishga birorta xonaning eshigini ochsangiz-chi! — bo'kirdi Sayks quturib, bolani misoli bo'sh qopday u yoqdan-bu yoqqa sudragancha. — Manavinisini! Tezroq! — u bolani o'sha xonaga uloqtirib yuborib, lo'kidonni surdi-da, kalitni buradi. — Pastki eshik qulflog'mi?

— Kalitini ikki marta burab, zanjirini ham ilib qo'yanman.

— Tavaqalari mustahkammi o'zi?

— Tunuka qoplog'liq.

— Deraza qopqoqlariyammi?

— Ha, qopqoqlar ham.

— Ming la'nat sanlarga! — bo'kirdi uchchiga chiqqan ablah deraza romini ko'tarib, olomonga dag'dag'a qilarkan. — Bilganlaringni qilinglar! Sizlarga ko'rsatib qo'yaman hali!

Olam yaralgandan beriga inson bolasi qulog'i eshitgan jamiki dilga qutqu soluvchi dahshatli o'kiriklardan hech biri ushbu darg'azab olomonning hayqirig'idan balandroq chiqqan emas. Bir xillar yaqinroqda turganlarga, uyga o't qo'yib yuboringlar, deb baqirishar; boshqalari politsiyachilarga, otinglar uni, deb bo'kirishardi. Olomon orasida hech kim darg'azablikda o'zi mingan otdan sakrab tushib, xuddi suvni kechib kelayotgandek, olomonni yorib o'tgan va naq deraza ostiga kelib olib, barchaning ovozini bosib ketadigan qilib:

— Kimki narvon keltirsa yigirma giney oladi! — deb baqirgan odam bilan baslasholmasdi.

Yaqinroqda turganlar uning hayqirig'ini ilib ketishdi va ketidan yuzlab ovozlari takrorladi uni. Ba'zilar narvon, boshqalar bolg'a keltirishni talab qilishardi; uchinchi xillari mash'alalarini silkitgancha u yoqdan-bu yoqqa tashlanishar, yana joylariga qaytib, tag'in baqirishga tushib ketishardi; bir xillar tomoqlari yirtilgudek bo'lib shafqatsizona la'natlar yog'dirishardi; ba'zilar esa telbanamo jazavaga tushib, tiqilishib oldinga o'tishar va u yerda ishlayotganlarga xalaqit berishardi; dovyurakroqlari bo'lsa tarnov hamda devordagi do'ng-dunglar yordamida tepaga chiqishga tirishishardi. Hammalari quturib esayotgan shamolda to'liqlanayotgan hoshoqlar yanglig' qorong'ida hayajon-la chayqalib turishar, vaqti-vaqti bilan baqirig'-u hayqiriqlari qo'shilib qudratli o'kirikka aylanib ketardi.

— Suv ko'tarilgandi-ku! — qichqirdi qotil xonaga sakrab, deraza romini pastga tushirar ekan. — Men kelgan paytimda suv ko'tarilib bo'lgandi. Arqon beringlar menga, uzun arqon! Hammalari kiraverishda uymalashib yotishibdi. Folli-Dichga tushib, juftakni rostlab qolaman. Arqon beringlar menga, yo'qsa tag'in uch kishini surobini to'g'rilab, keyin o'zimni gumdon qilaman!

Qo'rquvdan dang qotib qolgan yigitlar arqon turadigan joyni ko'rsatishdi. Qotil shosha-pisha ichida eng uzun va eng pishig'ini ola solib, tepaga otildi.

Uyning terskay tomondagi faqat bola qulflab qo'yilgan xonaning kichkinagina oynasidan tashqari hamma derazalar allaqachonlardayoq g'isht bilan urib tashlangan edi. Bu oyna nihoyatda torlik qilar, u sig'masdi. Ammo o'sha shapaloqdekkin oynadan bola tashqarida turganlarga qarab tinmay, uyning orqa tomonini qo'riqlanglar, deb baqirib yotgandi; shuning uchun ham qotil chordoq eshikchasidan axiyri tomga chiqib olganida, qattiq qichqiriq uyning old tomonida to'planganlarni ogoh etdi bundan va o'sha zahotiy oq olomon bir-birovini surib-itarishib, uzluksiz irmoqday orqa tomonga aylanib o'ta boshladi.

Sayks chordoq eshikchasiga aynan shu maqsadda olib chiqqan taxtani tirab, mustahkam berkitib qo'yidiki, uni ichkaridan ochish amrimahol bo'lib qoldi; keyin cherepitsalardan emaklab borib, bo'g'otdagi pastakkina panjaradan pastga mo'raladi.

Suv qaytib, xandaq tubi balchiqli uzanga aylanib qolgandi.

Olomon uning harakatlarini kuzatgancha, niyati nimaligini bilmay, bir necha lahza mobaynida tinchib qoldi; biroq buning fahmiga yetib, qotilning ishi o'ngidan kelmaganini ko'rgach, shunaqangi tantavor hamda jon-jahdi bilan hayqirdiki, buning qarshisida ilgari jamiki o'kiriklari shivirlashday bir gap bo'lib qoldi. Ketma-ket hayqiriqlar yangradi. Bu hayqiriqlarga uning mohiyatini anglab olish-

ga xiyla olislik qiladigan yerda turganlar ham jo'r bo'lishardi; go'yoki shahar bu razil odamni la'natlamoq uchun o'z siynasidagi jamiki fuqarosini shu yoqqa keltirib ag'darganmi, deysiz.

Uyning kiraverish tomonidan shoshib kelyapti odamlar — olg'a va yana olg'a — qudratli, shiddatli darg'azab odamlar oqimi, bu oqimni goh u yerda, goh bu yerda lang'illab yongan mash'alalar yoritib turibdi. Xandaqning narigi betidagi uylarni zabt etdi olomon; har bir derazadan basharalar tikilib turibdi; har bir tom-da shamaloqday odam. Har bir ko'prikcha (bu yerdan ularning uchtasigina ko'rinib turibdi) olomon og'irligidan bukilib-mayishib ketay deydi. Odamlar oqimi esa hanuz oqqandan-oqib kelyapti, ular gazzobni ko'rsa va uni biror og'iz so'kib qolsa bo'ladigan kaftdakkinajoyni izlab yotishibdi.

— Ana endi qo'lga tushirishadi uni! — deb qichqirdi kimdir eng yaqindagi ko'prikdan. — Ura!

Olomon uzra qalpoqlar silkitila boshlandi. Yana hayqiriq yangradi.

— Uni tirik tutgan odamga ellik funt beraman! — qichqirdi xuddi o'sha ko'prikchada paydo bo'lgan kekxa jentlmen. — Toki o'sha odam pulni olgani kelgunicha shu yerda kutaman.

Tag'in ko'k sari o'kiriklar o'rladi. Aynan shu soniyada olomon oralab eshikni nihoyat buzganlari va boya narvon so'ragan odamning birinchi bo'lib tepadagi xonaga chiqqani haqidagi xabar o'rmalab qoldi. Ushbu xabar og'izdan-og'izga o'ta boshlashi bilanoq odamlar oqimi shartta orqaga burildi; derazalardan qarab turganlar ko'prikdagi xaloyiqning orqaga oqa boshlaganini ko'rib ko'chaga otilib chiqishib, hozirgina o'zi tashlab kelgan joyga to's-to'polon bilan talpinayotgan olomonga qo'shilib ketishardi. Odamlar itarishib-turtishib, politsiyachilar uydan olib chiqayotganda birrovgina bo'lsa-da jinoyatchini ko'rib qolish niyatida shiddat-la eshik sari intilishardi. Oz bo'lmasa olomon ezib qo'yayozgan yoxud yo'lakay yiqitib yuborib oyoq ostida qolganlarning dod-voyi va baqiriqlari avji falakka chiqqandi; tor yo'lkalari tirband; birovlar uy eshigi oldiga qaytib borish istagida oldinga intilayotgan, boshqalar esa olomon orasidan chiqib ketishga behuda urinayotgan ayni damda, garchi umumning gazzobni qo'lga tushganini ko'rish istagi (mabodo imkoniyati bo'lsa, albatta) o'sib borayotgan bo'lsa-da, ko'pchilikning diqqati qotildan alahsib qolgandi.

Qotil olomonning g'azabi, qochib qutulishning iloji yo'qligidan butunlay tushkunlikka tushib, g'ujanak bo'lib o'tirib olgandi, ammo hozirgina eslatganimiz banogoh o'zgarishni payqadi-yu, hayoti uchun kurash yo'lida so'nggi bor urinib ko'rish — xandaqqa tushib, botib qolishdan cho'chimay tavakkal qilishga va qorong'ilik hamda

to's-to'polondan foydalanib tuyoqni shiqillatib qolishga qaror berib, o'rnidan sapchib turdi.

Yangitdan kuch-g'ayratga kirgan, ichkariga bostirib kirganlaridan dalolat berib turgan shovqin qichab hayday boshlagan qotil oyog'ini mo'riga tirab, arqonning bir uchini unga mahkam bog'ladi-da, qo'llari va tishlari bilan ko'z ochib yumgunchalik vaqt o'tmayoq ikkinchi uchida sirg'aladigan musti-mustahkam sirtmoq yasadi. U arqondan yerga yetishiga o'zining bo'yi barobar masofa qoladigan darajada osilib tushsa bo'lardi, qo'lida esa pichog'i tayyor, shartta arqonni kesadi-yu, sakraydi-qo'yadi.

Aynan shu pallada, u sirtmoqni bo'yniga solib, endi qo'ltig'idan o'tkazmoqchi bo'lib shaylangan, yuqorida qayd etilgan keksa jentlmen esa (u olomon pachaqlab yubormasin deb ko'prik panjarasiga mahkam yopishib olgandi) hayajon-la atrofidagilarni gazzobning tomdan xandaqqa osilib tushishga hozirlanayotganidan ogoh etib turgan ayni soniyada qotil orqasiga, tomga nazar tashlagan ko'yi qo'lini boshi uzra ko'tardi-yu, dahshatdan voh deb yubordi.

— Yana o'sha ko'zlar! — bo'g'zidan g'ayriinsoniy faryod otilib chiqdi.

Shunda bamisoli yashin tekkanday chayqalib ketib, muvozanatini yo'qotdi-yu, panjara osha pastga ag'darildi. Sirtmog'i esa bo'ynida edi. Og'irligidan sirtmoq kamon ipiday tarang tortildi; qotil xuddi kuch bilan yoydan uzilgan kamon o'qi singari o'ttiz besh fut pastga shig'illab uchib tushdi. Tanasi qattiq siltandi, qo'l-oyoqlari pitirlab changak bo'lib, tig'i ochiq pichog'ini changallagancha osilib qoldi.

Eski mo'ri siltovdan qimirlab ketdi-yu, ammo mardonavor dosh berdi. Jonsiz qotil devor yonida osilib turar, bola esa derazachani to'sib qo'ygan jasadni nari itargancha, xudo nomini shafe keltirib, o'zini chiqarib olishlarini iltijo qilardi.

Shu paytgacha qayerdadir pisib yotgan it mungli g'ingshigancha tom panjarasi yoqalab u yoqdan-bu yoqqa yugurib turdi-da, to'satdan murdaning kiftiga sakradi. Mo'ljalga yetolmay, xandaqqa chuviolab tusharkan, havoda bir o'mbaloq oshdi-da, toshga urilib, boshini pachaq-pachaq qildi.

---

LI BOB.      BA'ZI SIRLARNING SHARH-U BAYONI HAMDA  
KELINGA BERILADIGAN MAHR VA «QALIN»  
PULI TILGA OLINMAYDIGAN NIKOH TAKLIFI  
HAQIDA HIKOYA QILADI.

Oldingi faslda bayon etilgan voqealardan ikki kungina o'tgach, tushki soat uchlarda Oliver ona shahriga qarab g'izillab borayotgan safar aravasida o'tirardi. U bilan birga missis Meyli, Roz, missis Beduin va oqko'ngil doktor, izma-iz kelayotgan pochta aravasida esa nomi tilga olinmagan yana bir kishi hamrohligida mister Braunlou ketishyapti.

Ular yo'lda gaplashmay borishardi, negaki nima gaplar bo'layotganiga tushunolmagan, hayajonlangan Oliver fikr-o'ylarini jamlab ololmayotgan va deyarli tildan qolayotgan edi; chamasi, hamrohlari ham xuddi shunday hayajonda edilar. Mister Braunlou uni va ikkala xonimni Monksning tilidan deyarli sitib olingan ma'lumotlar bilan nihoyatda ehtiyotkorlik bilan tanishtirgandi, garchi ular safarlaridan murod shunday muvaffaqiyat-la boshlangan ishni nihoyasiga yetkazish ekanini bilsalar ham, sodir bo'layotgan voqealar shunchalar sirli-maxfiy tusda ediki, bundan ular qattiq bezovtalikka tushgandilar.

Xuddi mana shu mehribon do'stlari mister Losbern ko'magida yaqin kunlarda ro'y bergan dahshatli hodisa haqda ularning qulog'iga hech qanday xabar yetib kelmasligining g'amini yeyishgandi. «Turgan gapki, — dedi u, — tez orada eshitib qolishadi bu haqda, lekigin, nazarimda, hozir bilmay turganlari ma'qul; har qalay yomon ta'sir qiladi».

Xullasi kalom, ular jimgina ketishyapti. Har qaysisi o'zlarining boshlarini qovushtirgan narsa nima ekani xususida o'yga tolgan va hammalarining xayollarini band etgan o'yni ovoz chiqarib aytishga hech qaysilarining mayli ham, ra'yi ham yo'q edi shu topda.

Tokim tug'ilgan joyiga o'zi umrida ko'rmagan notanish yo'ldan borisharkan, Oliver ana shunday taassurotlar ta'siri ostida churq etmay o'tirdi, biroq o'zi — bechorahol, na yordam beradigan do'sti, na mizg'iydigan boshpanasi bor bewatan, sarson-u sargardon bolakay — piyoda bosib o'tgan yo'lga burilganlarida xotiralar girdobi uni qanday kechmish kunlarga surgab ketganini va ko'ksida qanday his-tuyg'ular chappor ura boshlaganini asti qo'yaverasiz.

— Ko'ryapsizlarmi, huv ana! Ana! — derdi Oliver hovliqib, hayajon-la Rozning qo'lidan ushlagancha, izvosh oynasidan tashqarini ko'rsatib. — Huv ana o'sha kamgak, o'sha joydan oshib tushganman;

huv ana ko'kat devor, tag'in birov orqamdan quvib kelib, qaytarib olib ketmasin deb qo'rqqanimdan o'shani orqasidan bekinib qochganman. Anavi yoqda judayam kichkinaligimda turganimiz eski uyga boradigan so'qmoq bor. Eh, Dik, Dik, qadrdon o'rtoqjonim, qaniydi seni bir ko'rsam!

— Hademay ko'rasan uni, — dedi Roz bolaning mahkam musht bo'lib tugilgan qo'lchasini erkalatib silagancha. — Qanday baxtiyorligingni, qanday boy bo'lib ketganingni gapirib berasan unga; tag'in, hech qachon hozirgichalik baxtiyor bo'lmaganingni, bu yerga uni ham baxtiyor qilgani kelganingni aytasan!

— Bo'lmasam-chi! — so'zni ilib ketdi Oliver. — Biz... biz uni bu yerdan olib ketamiz; yangi kiyimlar olib beramiz, o'qitamiz, kuchga kirib, sog'ayib olishi uchun birorta osoyishta qishloqqa jo'natamiz, to'g'rimi?

— Roz faqat bosh iring'ab qo'ya qoldi; bola ko'z yoshlari orasidan shunaqangi quvna b jilmayardiki, buni ko'rib u gapira olmadi.

— Siz suyib-erkalaysiz, chunki siz hamma gayam shunaqa mehribonsiz, — dedi Oliver. — Bilaman, u boshdan o'tganlarni gapirib berganida yig'laysiz; mayli, yig'lasangiz ham mayli, hammasi o'tib ketadi; uning tuzalib qolganini ko'rganingizdan keyin yana kuladigan bo'lasiz — buniyam bilaman... Mengayam xuddi shunaqa qilgandigiz... «Xudoni o'zi yorlaqasin seni», degandi u qochib ketayotganimda, — xitob qildi bola ko'ngli iyib. — Mana endi men unga: «Xudo yorlaqasin seni», deyman, uni qanday yaxshi ko'rishimni isbotlayman.

— Nihoyat shaharga yetib kelib, uning tor ko'chalaridan borishar ekan, bolani mulohazakorlik doirasida tutib turish osonmasligi ayon bo'ldi. Tobutsoz Sauerberining do'koni ilgari qandoq bo'lsa xuddi o'shandoqligicha turibdi, lekin uning yodida saqlanib qolganidek katta hamda salobatli ko'rinmasdi hozir; shu yerda tizilib ketgan uy-u do'konlarning oz bo'lmasa har bittasi bilan bog'liq biror kichkinagina voqeani eslardi; ana, Gemfildning aravasi — ilgari qandoq bo'lsa, xuddi o'shandoq — ko'hna qovoqxona eshigi oldida turibdi; yurakni ezadigan mudhish derazalari ko'chaga qaragan, bolalikdagi badbin qamoqxonasi — mehnat uyi ham shu yerda; darvozasi oldida haliyam o'sha ori q qorovul turibdi, uni ko'rganida Oliver jonholatda o'zini orqaga tashladi, keyin bo'lsa o'zining tentakligidan kuldi, so'ng yig'ladi, keyin tag'in kuldi. Eshiklar oldi va derazalarda o'nlab tanish odamlarni ko'rdi; bu yerda hamma narsa, go'yoki u kuni kechagina ketgandek, boyagi-boyagisiday, oxirgi paytlardagi hayoti esa yaxshi tushagina o'xshardi. Ammo bu chinakam, quvonchli voqelik edi.

— Ular to'g'ri bosh mehmonxona eshigiga kelib to'xtashdi, ilgari-lari Oliver bu binoni bir qadar hashamati hamda salobatini yo'qotgan,

shunga qaramay ajoyib bir qasr bilib, unga ehtirom-la tikilgan paytlari ham bo'lib turar edi. Bu yerda ularni mister Grimuig kutib oldi; u izvoshdan tushishlari bilanoq oyimqizni, shuningdek, kekxa xonimni ham, go'yoki hammalarining bobolaridek, o'pib qarshiladi. Mister Grimuig og'zi qulog'iga yetib iljayar, chiroyi ochilib ketgan va o'z boshini g'ajish istagidan asar ham sezilmasdi; ha, bunday gapni biror marta og'ziga olmadi, hatto atigi bir safargina yurgan, shunda ham dong qotib uxlab kelgan bo'lsa-da, ko'pni ko'rgan izvoshschi bilan Londonga boriladigan eng qisqa yo'l shu deb rosa tortishganida ham bundan og'iz ochmadi. Ularga dasturxon muntazir, xobxonalar badastir qilib qo'yilgan, hammasi afsungar amri bilan bajo keltirilgan edi.

— Shunga qaramay, yarim soatlar davom etgan shovqin-suron-u g'ala-g'ovur tingach, oraga tag'in safarlari mobaynidagi noqulay sukut cho'mdi. Taom ustida mister Braunlou ular davrasiga qo'shilmadi, o'z xonasida qoldi. Bo'lak ikki jentlmen goh shoshib kirib, goh haya-jonlangan qiyofada chiqib turishar, ichkarida bo'lgan qisqagina vaqtda ham bir chekkada o'zaro suhbatlashib turishardi.

— Bir gal missis Meylini chaqirib chiqib ketishdi, u biror soatchadan keyin yig'idan qovoqlari shishib qaytib kirdi. Bu tadoriklarning bari yangi sir-sinoatdan voqif etilmagan Roz bilan Oliverni bezovtalantirib, sarosimaga solib qo'ydi. Ikkovlari taajjubda jimgina o'tirishar yoxud basharti, gaplashgudek bo'lsalar ham, o'z ovozlari-ni eshitishdan qo'rqqandek shivirlashib so'zlashishardi.

— Soat to'qqizga zang urgan, ular bugun oqshom boshqa hech qanday yangilikni bilmas ekanmiz-da, degan xayolga bora boshlagan paytlarida xonaga mister Losbern bilan mister Grimuig mister Braunlou va yana bir kishi hamrohligida kirib kelishdi; bu odamni ko'rganida Oliver hayratdan oz bo'lmasa «voy» deb yuborayozdi: akang keladi deb ogohlantirib qo'yishgan edi uni, bu bo'lsa u anavi shaharcha bozorida uchratgan, keyin mo'jazgina hujrasi dera-zasidan Fedjin bilan birga mo'ralaganida ko'rib qolgan odamning naq o'zginasi edi. Monks dovdirab qolgan bolakayga (hatto shu top-da ham nafratini yashira olmayotganidan) yeb yuborgundek qarab qo'ydi-da, eshikning yonginasiga cho'kdi. Qo'lida allaqanaqangi qog'ozlarni ushlab olgan mister Braunlou tegrasida Roz bilan Oliver ikkovlari o'tirishgan stolga yaqinlashdi.

— Bu g'oyatda og'ir vazifa-yu, — dedi u, — illo ushbu bayonnomalar, garchi Londonda talaygina jentlmenlar shohidligida imzolan-gan bo'lsa-da, shu yerda ularning asosiy, muhim jihatlari takrorlab o'tilishi lozim. Men sizni tahqirlanishdan xalos etishni istardim-ku, lokigin ajralishimizdan burun bu gaplarni biz o'z og'zingizdan eshi-tishimiz shart. Sababi o'zingizga ayon.

— Davom etavering, — teskari qarab javob qildi u murojaat etgan kishi. — Tezroq bo'la qoling. O'ylaymanki, mendan talab etilgan jamiki narsani deyarli bajardim. Meni bu yerda uzoq tutib qolmasangiz.

— Bu bolakay, — dedi mister Braunlou Oliverni o'ziga tortib, boshiga qo'lini qo'yar ekan, — sizning yakka-yu yolg'iz ukangiz, sizning otangiz, mening qadrdon do'stim Edvin Liford bilan bunga hayot ato etgan zahoti olamdan ko'z yumgan sho'rlik navniholgina Agnes Flemingning g'ayriqonuniy o'g'li.

— Ha, — javob qildi Monks titrab-qaltirab, yurakchasi naq u eshitadigan darajada dukurlayotgan bolakayga xo'mrayib qarab qo'yarkan. — Bu ularning g'ayriqonuniy haromilari bo'ladi.

— Siz bizdek osiy bandalarning ayanchli ta'nalarimiz yetib borishga o'jizlik qiladigan boqiy olamga allaqachonlar yo'l olgan marhumlarni haqoratlashni ep ko'ryapsiz o'zingizga, — dedi mister Braunlou jahl bilan. — To'g'ri, bunday deyish biron tirik inson bolasi uchun uyat emas, ammo siz mustasnosiz bundan, sababki, siz aynan shu narsadan foydalangansiz. Bu to'g'rida ortiq gapirib o'tirmaymiz... U mana shu shaharda dunyoga kelgan.

— Shu yerdagi mehnat uyida, — zaharolud javob qaytarishdi unga. — Bu mashmashalar anavi yerda yozig'liq. — Shunday deya Monks toqatsizlik bilan qog'ozlarga ishora qildi.

— Buni shu topda takrorlashingiz lozim, — dedi mister Braunlou hozir bo'lganlarga nazar tashlab qo'yar ekan.

— Eshitinglar bo'lmasa! — zarda qildi Monks. — Buning otasi Rimda tobi qochib qolganida yoniga xotini, allaqachonlar ajralishib ketgan mening onam yo'l oldi. U Parijdan yo'lga chiqqan, meni ham ola ketgandi — nazarimda, u otamning boyligining payidan bo'lgandi, nega deganingizda, eriga zarracha muhabbati yo'q edi, shuningdek, erining unga nisbatan ham. Otam bizni tanimadi, chunki u behush bo'lib, ertasigacha, to joni uzilgunicha ham o'ziga kelmadi. Stoldagi qog'ozlari orasidan og'rib qolgan kuni kechqurun tamg'alanib, sizning nomingizga yozilgan maktubni topib oldik, — deya u mister Braunlougga o'girildi. — Unda qisqacha yozuv bo'lib, sizdan o'limidan keyin bu konvertni tayinlangan joyga jo'natishni iltimos qilgan edi. Konvertning ichida ikkita qog'oz: anavi juvon — Agnesga yozgan maktubi va vasiyatnoma bor edi.

— Maktub xususida nima deya olasiz? — so'radi mister Braunlou.

— Maktub xususidami?.. Tavba-tazarru bilan, qizga madad so'rab xudoga qilingan tavallo-yu iltijolar bilan chaplashtirib to'ldirilgan bir varaqgina qog'oz edi. U allaqanaqangi afsonalar bilan laqillatib, go'yoki oxir-oqibatda ochilishi kerak bo'lgan qandaydir jumboq-

li sir hozirgi paytda o'zining qiz bilan nikohdan o'tishiga xalal berib turganini aytgan; qiz ham unga ishonib, ishonchi haddan ortib, hech zog' qaytarib bera olmaydigan narsasidan ayrilgunicha toqat-la yashab kelgan. Bu paytga kelib ayolning ko'zi yorishiga bor-yo'g'i bir necha oygina qolgan. Shu sababli u, toki hayot ekan, qizning sharmis-sorligini yashirish uchun nimalar qilish niyatida ekanini barini yozgan va mabodo vafot etgudek bo'lsa, o'zining xobi-xotiriga la'natlar o'qimasligini o'tingan, qilgan gunohlari qizga yoki go'dakka tushadi deb o'ylamasligini, chunki hamma gunoh unda ekanini aytgan. U yana qizga kichkinagina medalon bilan ichiga qizning ismi o'yib yozilgan va yonida o'zi vaqti kelib ehson etadigan ism uchun joy qoldirilgan uzuk hadya qilgan kunni tilga olgan; keyin medalonni asrashini hamda xuddi ilgarigidek ko'ksi ustida taqib yurishini tavallo qilgan: keyin bo'lsa, xuddi aqlidan ozgandek, hadeb palapartish bir narsani takrorlayvergan. Aslida ham shundoq bo'lgan deb o'ylayman.

— Xo'sh, vasiyatnoma-chi? — savol berdi mister Braunlou.

Oliver yum-yum yig'lardi.

Monks jim qoldi.

— Vasiyatnoma, — uning o'rniga gapira boshladi mister Braunlou, — u ham xuddi shu ruhda bitilgan. U xotini boshiga solgan baxtiqaroliklar, ayolining qaysar xulq-atvori, suyuqligi, zaharligi to'g'risida; yosh bolaligingizdanoq sizda, uni yomon ko'rish ruhida tarbiyalangan yolg'iz o'g'lida bema'ni mayl-ishtiyoqlar namoyon bo'lgani to'g'risida va siz bilan onangizga har qaysingiz uchun yiliga sakkiz yuz funtdan daromad beradigan boylik qoldirajagi haqda yozgan. Qolgan jamiki mol-mulkini teppa-teng ikki qismga bo'lgan: bir ulushi Agnes Flemingga, ikkinchisi — agar u tirik tug'iladigan va voyaga yetadigan bo'lsa — bolaga atalgan. Basharti qiz tug'ilganida, u hech qanday so'zsiz bu pullarni meros qilib olishi lozim edi; bordi-yu o'g'il bo'lsa, bitta shart bilan — to voyaga yetgunicha hech qanday sharmandali, beandisha, razilona yoxud badhulqona qilmishlari bilan nomiga dog' tushirmasagina ega bo'la olardi merosga. Uning so'zlariga qaraganda, bo'lajak onaga bo'lgan ishonchini hamda o'limi yaqinlashuvi oqibatida bolaning shaksiz muloyim qalbli va olijanob fe'l-atvorli onasiga tortajagiga bo'lgan ishonchini ta'kidlash uchun shunday qilgan. Mabodo uning umidlari puch bo'lib chiqqan taqdirda, pul sizga tegardi; zotan shunda — faqat shundagina, har ikkala o'g'ilning haq-huquqlari teng bo'lmay qolgandagina u o'zining hamyoniga egalik qilishga birinchi navbatda sizning — hech qachon uning mehrini qozonolmagan, ammo go'dakligidanoq be-mehrli-gi va badkirdorligi bilan ko'nglini sovutgan sizdek o'g'lining haqli bo'lishingizni tan olishga rozilik bergan.

— Onam, — dedi Monks ovozini ko'tarib, — har qanday ayol qilishi mumkin bo'lgan ishini qildi. O'sha vasiyatnomani yoqib yubordi. Maktub bo'lsa tegishli yeriga yetib bormadi; lekin u, bu odamlar mabodo bir kun kelib o'z sharmisorliklarini yashirishga urinadigan bo'lsalar ish berib qoladi, degan niyatda xatni va boshqa dalillarni asrab qo'ydi. Qizning otasi bor haqiqatni onamdan eshitgan; onam beshafqat va cheksiz nafrat zug'umi bilan imkoni boricha qo'shib-chatib yetkazgan. Ana shu xizmatlari uchun ham shu kungachayin yaxshi ko'raman uni. Shunda ota uyat va sharmisorlik yukidan bukchayib, bolalarini oladi-yu, Uelsning eng ovloq burchaklariga qochadi; do'stlari izlab topmasin uchun hatto ism-sharifini ham o'zgartiradi; ana o'sha yoqda, oradan sal vaqt o'tgach, ichkari kirib, to'shakda o'lib yotganini ko'rishadi. Bu voqeadan bir necha hafta avvalroq qizi uydan yashirinch qochib qolgan ekan; u qizini tevarak-atrofdagi shahar-u qishloqlardan izlagan. U qizini o'zi va otaning boshiga tushgan sharmisorlikni yuvib ketish uchun o'z joniga qasd qilgan degan ishonch bilan uyga qaytgan kuni tunda yuragi yorilib o'lgan.

Oraga birpasgina jimlik cho'kdi, keyin mister Braunlou hikoyasini davom ettirdi.

— Oradan talay yillar o'tib, — dedi u, — bu odam — Eduard Lifordning onasi huzurimga kirib keldi. O'n sakkizga kirar-kirmas o'g'li onasini tashlab ketibdi, u onasining qimmatbaho buyumlari bilan pulini o'marib jo'nagan-vorgan; qimor o'ynagan, pulini havoga sovurgan, qalloblig-u firibgarlikdan ham qaytmagan; Londonga qochib kelib, bu yerda ikki yil mobaynida jamiyatning eng chirkin chiqindilari bilan aloqada bo'lgan. Onasi azob beradigan, bedavo dardan iztirob chekardi, o'limi oldidan o'g'lini topishni istardi. Shunda taftish-u izlovlar boshlanib ketdi. Uzoq vaqtlargacha bundan naf chiqmadi, illo axiyni bu qidiruvlar muvaffaqiyatli tugadi-yu, u onasi bilan Fransiya jo'nadi.

— Uzoqqa cho'zilgan kasallikdan keyin o'shoqda vafot etdi u, — hikoyani davom ettirdi Monks, — o'lim to'shagida ana shu sirlarni, shu qatori bu sirlar kimgaki daxldor bo'lsa jamikilariga qarshi behudud va o'la-o'lguncha tugamaydigan nafratni (garchi buni menga meros qilib qoldirishiga hojat bo'lmasa-da, negaki bu nafratni anchamuncha ilgariroq o'zlashtirib olgandim) vasiyat qilib ketdi. U qizning o'z joniga qasd qilganiga, demakki, bolaning ham o'lganiga aslo ishonmasdi va o'g'il bola tug'ilganiga, o'sha bolaning esa hayotligiga sira-sira shubhalanmasdi. Bir kun kelib yo'limga g'ov bo'ladigan bo'lsa bolani, albatta zaharlayman, deb qasamyod qildim onamga; biror daqiqayam uni tinch qo'ymaslikka; betizgin shafqatsizlik bilan ta'qib etishga; butun vujudimni o'rtayotgan nafratni unga sochishga

va agar ilojini qilolsam, uni dor ostigacha surgab borishga, bu bilan esa otamning tahqiromuz vasiyatlaridan kulishga ont ichdim. Onam haq ekan. Nihoyat, yo'limda paydo bo'ldi bu. Ishni yaxshi boshladim va anavi vaysaqi shiltalar bo'lmaganida, uni qanday boshlagan bo'lsam, o'shandayicha muvaffaqiyatli nihoyasiga yetkazardim!

Muttaham qo'llarini ko'ksida chalishtirib, ojizona darg'azablik bilan g'udrangancha o'z-o'zini la'natlarkan, mister Braunlou hayratda lol qolgan tinglovchilarga o'girilib, juhud — Monksning hamtovog'i va ishonchli vakili Oliverni tuzoqda tutib turgani uchun katta mukofot olganini, bordi-yu bola qochib qutulib ketadigan bo'lsa o'sha mukofotdan bir qismini qaytarishi lozim ekanini, aynan ana shu xususda chiqqan dovlashuv — bolani o'sha-o'shamasligini ko'rib-bilish maqsadi ularni shahar chekkasidagi bog' hovliga yetaklab kelganini tushuntirib berdi.

— Medalon bilan uzuk masalasi-chi? — dedi mister Braunlou Monksga buriilib qarab.

— O'sha matoxlarni ilgari sizga aytganim erkak bilan ayoldan sotib oldim, ular esa murdadan yechib olgan kasal boqqan kam-pirdan o'g'irlab olishgan ekan, — deya javob qildi Monks ko'zlarini ko'tarmay. — Ularga nima bo'lgani o'zingizga ayon.

Mister Braunlou mister Grimuigga bosh iringagan edi, u yo'rg'alagancha xonadan chiqib ketdi-yu, missis Bamblni turtkilay-turtkilay oldiga solgancha, unamayotgan erini esa surgagancha qaytib kirdi bir zumda.

— O'zimning ko'zimmi bu, yo boshqami, rostdanam jajji Oliverga o'xshaydimi bu? — xitob qildi mister Bambl ochiq-oydin yasama hayrat-la. — Eh, Oliver, seni deb qanchalar g'am chekkanimni bilsayding-a!..

— Tilginangni tiyib tur, to'nka! — g'ijindi missis Bambl.

— Tabiatim o'zi shunaqa, tabiatim, missis Bambl! — e'tiroz bildirdi mehnat uyi noziri. — Nahotki menday odam — uni qavm taomilicha tarbiyalagan menday odam uning xonimlar va jentlmenlar o'rtasida savlat to'kib, bejirimgina kiyinib o'tirganini ko'rib ta'sirlanmasa, shunaqangi toshbag'ir odammanmi-ya men! Bu bolakayni hamisha yaxshi ko'rganman, xuddi tug'ishganimday... tug'ishgan bobosiday, — deya so'zini davom ettirdi mister Bambl va bopta keladigan o'xshatishni topolmay duduqlanib qoldi. — Oliver, azizim, anavi oq nimchali boobro' jentlmen esingdami? Eh, Oliverginam, u o'tgan hafta naqshinkor kumush tutqichli eman tobutda arshi a'loga jo'nadi!

— Bas, ser! — dedi mister Grimuig shartillatib. — Mehr-oqibatli tuyg'ularingizni tiya turing.

— Baholi qudrat harakat qilaman bunga, ser, — javob qildi mister Bambl. — Ahvollaringiz qalay, ser? Umid qilamankim, to'rt muchangiz sog'-omondir.

Bu takallufot hurmatli er-xotinlardan ikki qadam berida to'xtagan mister Braunloug qaratilgan edi. U Monksni ko'rsatib dedi:

— Bu odamni taniysizlarmi?

— Yo'q, — dedi missis Bambl qat'iy.

— Balki siz ham tanimassiz? — dedi mister Braunlou eriga murojaat qilib.

— Umrimda ko'rgan emasman, — dedi mister Bambl.

— Xo'sh, deylik, hech nima sotmagandirsiz ham unga?

— Hech nima, — javob berdi missis Bambl.

— Xo'sh, deganingizdan, balki sizda hech qachon oltin medalon bilan uzuk ham bo'lmagandir? — dedi mister Braunlou.

— Albatta, bo'lmagan! — javob qildi nozira. — Bizni nimaga boshlab kelib, bunaqangi ahmoqona savollarga javob berishga majbur qilishyapti o'zi?

Mister Braunlou yana mister Grimuigga imo qilgandi, bu jentlmen sal oqsagancha shu zamonAQ chiqib ketdi. Bu gal u xotini bilan davangirday erkakni emas, balki qaltirab, galdirab ketayotgan ikki falaj xotinni boshlab kirdi.

— Keksa Salli olamdan o'tayotganida siz eshikni berkitib qo'ygandingiz-u, — dedi oldinda kelayotgani qoqsuyak qo'lini havolatib, — lekin ovozini yo'q qilib, tuynuk-teshiklarni berkitib tashlomagandingiz bari bir.

— To'ppa-to'g'ri, — dedi ikkinchisi atrofiga alanglab, tishsiz jag'ini liqillatib. — Xuddi shundoq...

— Sallining nima ishlar qilganini sizga aytib berishga uringandagi hamma gapini eshitib turganmiz, keyin qo'lidagi qog'ozni qandoq olganingizni ham ko'rib turganmiz, ertasiga bo'lsa orqangizdan ijaraxo'rning do'konigacha poylab bordik, — dedi birinchisi.

— To'ppa-to'g'ri! — tasdiqladi ikkinchisi. — Medalon bilan tilla uzuk. Biz buni surishtirib bildik, innaykeyin, qo'lingizga tutqizishayotganini ham ko'rgandik. Biz yaqinginada turgandik, ha, yaqingina joyda!

— Buyam holva, biz bundanam ko'proq narsani bilamiz, — so'zini davom ettirdi birinchisi. — Ancha-muncha vaqt ilgari marhumaning o'z og'zidan, yosh ona chaqalog'ining otasini qabriga, o'sha yerda jon bergani ketayotgan ekan, deganini eshitganmiz: ahvoli chatoqlashgach, tirik qolmasligini ko'ngli sezgan ekan sho'rlikning.

— Mabodo ijaraxo'rni ko'rishni istamaydilar? — deb so'radi mister Grimuig eshikka qarab yurarkan.

— Yo'q! — javob qildi missis Bambl. — Agar u, — deya Monks-ga ishora qildi xonim, — qo'rqib ketib tan olgan bo'lsa — ko'rib turibman, xuddi shundoq qilgan u — siz esa boshqa tuzukroq odam qurib qolganday mana shu jodugarlardan so'rab-surishtirgan ekansiz, boshqa aytadigan gapim yo'q. Ha, o'sha narsalarni sotganman, hozir o'sha narsalar sizlar hech qachon olo'lmaydigan joyda yotibdi! Yana nima deysizlar!

— Hech nima, — javob qaytardi mister Braunlou. — Faqat birgina narsani aytib qo'yay: har ikkalalaringizni ham ishonch talab qilinadigan vazifada ortiq qolmasliklaringizning harakatini qilishimiz qoladi, xolos. Jo'nanglar!

— Umidvormanki... — dedi mister Bambl mister Grimuig ikkala kampirni xonadan ergashtirib chiqib ketgach, bag'oyat ma'yuslik bilan atrofiga jalanglab, umidvormanki, mazkur baxtsiz, arzimas tasodif meni qavm qoshidagi lavozimimdan mahrum etmas?

— Shak-shubhasiz, mahrum etajak, — javob berdi mister Braunlou. — Bunga tan bermog'ingiz va omadingiz bor ekanidan shukr qilmog'ingiz lozim.

— Hammasi missis Bamblning ishi! O'sha majbur qildi bunga, — avval umr yo'ldoshi xonadan chiqib ketganiga qanoat hosil qilish uchun alanglab olgan mister Bambl shunday deya oyoq tirab turib oldi.

— Bu vaj bo'lolmaydi! — qarshilik bildirdi mister Braunlou. — O'sha taqinchoqlar sizning hozirligingizda yo'q qilingan va qonunga qaralsa, siz yanada ko'proq aybdorsiz; zotan qonun xotiningizni sizning yo'l-yo'rig'ingiz bilan ish tutgan, deb hisoblaydi.

— Agarda qonun shundoq deb hisoblasa, — dedi mister Bambl, shlyapasini ma'nodor qilib ikkala qo'li bilan g'ijimlagancha, — bundan chiqdi, qonun — eshshak... ovsar ekan! Agarda qonun nuqtayi nazari shundoq bo'lsa, demak, qonun — bo'ydoq ekan, unga tilaydigan eng yomon tilagim shuki, hayot tajribasi ko'zlarini ochib qo'ysin... ha, iloyo boshiga tushib ko'zi ochilsin!..

Mister Bambl keyingi so'zlarni qayta-qayta ta'kidlagan ko'yi shlyapasini chakkasiga bostirib kiydi-da, qo'llarini cho'ntagiga suq-qancha zinapoya orqali umr yo'ldoshi ketidan pastga tushib ketdi.

— Aziz oyimqizginam, — dedi mister Braunlou Rozga murojaat etib, — qo'lingizni bering menga. Qo'ying, titramang. Aytadigan oxirgi ikki og'izgina gapimizga sira qo'rqmasdan quloq solsangiz bo'ladi.

— Agar u... bu imkoniyatni qo'ldan chiqarib yubormoqchimasman-ku... lekin bu gaplar mabodo... menga aloqador bo'lsa, — dedi Roz, — o'tinaman sizdan, boshqa safar quloq solishimga ruxsat eting. Hozir bunga na quvvatim, na jasoratim yetadi.

— Yo‘q, — e‘tiroz bildirdi keksa jentlmen qizning qo‘lini o‘z qo‘llari orasiga olib, — imonim komilki, matonatingiz dosh beradi bunga... Bu oyimqizni taniysizmi, ser?

— Ha, — javob berdi Monks.

— Men sizni hech ko‘rmaganman, — dedi Roz past ovozda.

— Men sizni tez-tez ko‘rib turardim, — dedi Monks.

— Baxtiqaro Agnesning otasining ikki qizi bo‘lgan, — dedi mister Braunlou. — Ikkinchisi — kichik qizining taqdiri nima bo‘lgan?

— Qizaloqni, — javob qildi Monks, — otasi begona joyda, begona ism-sharif ostida, yor-birodarlari yoki urug‘-aymoqlarini qidirib topsa bo‘ladigan na xat, na biror parcha qog‘oz qoldirmay, olamdan o‘tganidan keyin qizaloqni bechorahol dehqonlar boqib olib, o‘z farzandlariday tarbiya qilishgan.

— Davom ettiring, — dedi mister Braunlou, missis Meyliga yaqinroq kelishni imo qilib. — Davom ettiravering!

— Bu odamlar ketib qolgan joyni izlaganingizda ham topolmasdinglar, — dedi Monks, — lekin do‘stlik inqirozga uchragan yerga, ko‘pincha nafrat yo‘l topib boradi. Onam bir yilga cho‘zilgan mohirona izlashlardan so‘ng o‘sha joyni topib borgan, qizni ham topgan.

— Onangiz o‘zi bilan olib ketganmi qizni?

— Yo‘q. O‘sha odamlar juda xarob turisharkan, bu paytga kelib o‘zlarining maqtovgga loyiq insonparvarliklari jonlariga — aqalli erining — tega boshlagan ekan; shu sababli onam qizni ularnikida qoldirgan va ko‘pga yetmaydigan ozroqqina pul berib, tag‘in jo‘natishni va‘da qilgan, ammo bunday niyat xayolida ham bo‘lmagan. Aytmoqchi, u norozilik bilan qashshoqlik qizni baxtsiz qila olishiga butunlay ishonmagan; shuning uchun o‘sha odamlarga o‘zi lozim topgan qo‘shib-chatishlar bilan bejab opasining sharmisorli qilmishini gapirib bergan, qizga yaxshilab ko‘z-quloq bo‘lib turishlarini tayinlab, tag-zoti buzuq, o‘zi ham haromi, ertami-kechmi, albatta buzuq yo‘lga kirib ketadi, degan. Bularning barini oilaning jumboqli turmushi misolida tasdiqlab bergan; o‘sha odamlar chippa-chin ishonishgan. Shundan keyin go‘dak hatto bizni ham qanoatlantiradigan darajada muhtojlikda ayanchli kun kechira boshlagan, lekin o‘sha paytlarda Chesterda turadigan bir beva xonim qizni tasodifan ko‘rib qolib, rahmi kelgan-da, uni boqib olgan. Nazarimda, bizga qarshi qandaydir la‘nati jodugar ish ko‘rgan, negaki, barcha urinishlarimizga qaramay, qiz o‘sha xonimnikida qolib, baxtli bo‘lib ketdi. Ikki-uch yil burun uni nazardan qochirib qo‘ydim, bor-yo‘g‘i bir necha oygina ilgariroq yana uchratib qoldim.

— Hozir uni ko‘rib turibsizmi?

— Ha. U sizning qo‘lingizga suyanib turibdi.

— Lekin bari bir u boyagi-boyagi jiyanimligicha qolaveradi, — xitob qildi missis Meyli darmoni qurib borayotgan qizni bag'riga bosib, — u ilgari qandoq bo'lsa, o'shandoq aziz bolajonim bo'lib qolaveradi! Endilikda dunyodagi jamiki boylikka ham alishmasman uni: bu mening mehribon, jondan aziz bolaginam-ku!

— Olamda yakka-yu yagona mehribonim! — dedi Roz jo'shib, uning pinjiga kirib. — Qadrdonlarim orasida eng saxiy, eng mehribon, eng sarasisiz! Yuragim tars yorilib ketay deyapti. Bu gaplarni ko'tarishga majolim yetmayapti.

— Bundan ko'ra ortiqrog'ini ham ko'targansan va hech nimaga parvo qilmay, hamisha mo'min-muloyim, mehribon qizaloqligingcha qolib, bilgan-ko'rgan yaqinlaringni hamisha baxtiyor etib kelgansan, — dedi missis Meyli uni erkalab bag'riga bosgancha. — Bo'ldi, bas, jonginam! Bag'ringga otilishga sabri chidamay turganlarni ham esdan chiqarmagin-da! Bu yoqqa qara... qara, qarasang-chi, jonim bolam!

— Yo'q, u meni xolammas! — qichqirib yubordi Oliver qizning bo'ynidan achomlagancha. — Ikki dunyodayam uni xola demayman!.. Opa... bir ko'rgandayoq nimagadir jonimdan yaxshi ko'rib qolgan opajonim! Roz, azizim, mehribonim Roz!

Bir-birovlarini mahkam-mahkam, uzoq quchgan yetimlar ko'zidan oqqan bu shashqator yoshlar-u og'zilaridan uchgan uzuq-yuluq qovushimsiz so'zlar munavvar o'lg'ay! Ota, opa va ona bir lah-zaning o'zida topildi-yu, yana yo'qotildi. Xursandchilik bilan g'am bir ko'z qarog'ida jam bo'ldi, biroq bu achchiq ko'z yoshlari emasdi; zero g'am-tashvishning o'zi nozik xotiralar pardasiga chirmalib, shunday muloyim tortib qolgandiki, u iztirobga soluvchi alamdan tantanavor quvonchga aylangan edi.

Ikkovlon uzoq tanho qolishdi, nihoyat eshikning ohistagina tiqil-lashi ostonada kimdir turganidan dalolat berdi. Oliver eshikni ochdi, lip etgancha xonadan chiqdi-yu, o'rnini Garri Meyliga bo'shatib berdi.

— Hammasidan xabarim bor! — dedi u sohibjamol qizning yoniga o'tirar ekan. — Azizam Roz, hammasini bilaman!.. Bu yerga tasodifan kelib qolganim yo'q, — deb qo'shib qo'ydi u xiyla sukutdan so'ng. — Keyin, bu gaplarni bugun emas, kecha — ha, kechagina eshitdim... Bitta va'dangizni eslatgani kelganimni fahmlab turgandirsiz?

— Shoshilmang, — dedi Roz. — Hammasini bilasizmi o'zi?

— Hammasini... Bir yil davomida istagan paytimda oxirgi suhbatimiz mavzusiga qaytishimga o'zingiz ruxsat bergandingiz menga.

— Shunday, ruxsat bergandim.

— Sizni ahdingizni o'zgartirishga majbur etish emas, balki o'sha gapni qay yo'sinda takrorlashingizni eshitish niyatidaman, buni istasangiz, albatta, — so'zini davom ettirdi yigit. — Men jamiyatda ort-

tirgan mavqeim-u jamiki boyligimni oyoqlaringiz ostiga keltirib tashlashim lozim edi va basharti siz dastlabki ahdingizdan qaytmaydigan bo'lsangiz, unda men o'z zimmamga na so'z-u na ish bilan uni o'zgartirishga urinmaslik majburiyatini yuklaganman.

— O'sha paytda ahdimga nima ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, hozir ham xuddi shu sabablar ta'sir ko'rsataveradi, — qat'iy dedi Roz. — Basharti vujudimda meni qashshoqlik va azob-uqubatlardan o'zining mehr-u saxovati bilan xalos etgan kimsa oldida qat'iy hamda mustahkam burchliman degan tuyg'u bo'lsa, xo'sh, o'sha tuyg'u qachon bo'lmasin bugungisidan ko'ra kuchliroq bo'la olarmidi?.. Bu bir kurash, — qo'shib qo'ydi Roz, — biroq men g'urur-la olishaman bu kurash bobi-da. Bu dard-u alam, lekin mening yuragim dosh beradi bunga.

— Bugun oqshomgi sir ochilishi... — deya gap boshladi Garri.

— Bu oqshomgi sir ochilishi, — muloyimgina qilib qaytardi Roz, — mening ahvolimni o'zgartolmaydi.

— Siz o'z qalbingizni menga qarshi qayrayapsiz, Roz, — qarshilik bildirdi oshiq yigit.

— Eh, Garri, Garri-ya! — dedi oyimqiz ko'zlarida yosh halqalanib. — Koshki edi shunday qilolsam-u bunday azobdan qutulsam-qo'ysam!

— O'zingizni qiynashingizning nima keragi bor, axir? — dedi Garri uning qo'lini ushlab, — O'ylab ko'ring, azizam Roz, bugun oqshom eshitganlaringizni bir o'ylab ko'ring.

— Nimaniyam eshita qolibman? Nimani? — dedi Roz qizishib. — Sharmanda bo'lganini bilishi otamga shunchalar qattiq ta'sir qilib, hammadan qochib qolgan... Mana men eshitgan gap! Bas... shuncha gaplashganimiz yetar, Garri, yetarli shu gaplarning o'zi!

— Yo'q, yetarlimas! — dedi yigit qiz o'rnidan turarkan, uni to'xtatib. — Mening umidlarim, istaklarim, kelajakdan orzu-niyatlarim, his-tuyg'ularim, o'y-xayolim — jami, faqat sizga bo'lgan muhabbatim mustasno, jami ostin-ustun bo'lib ketdi. Endilikda sizga behuda-puch ki-borlar olamidan izzat-ikromli mavqe taklif etayotganim yo'q; men sizga chinakam isnod-u sharmandalikka mutlaqo aloqasi bo'lmagan halol odamni qizarishga majbur etadigan badbintlik va tahqirlar olami bilan muloqotda bo'lishni taklif qilayotganim yo'q... Men sizga o'z uyimni — qalbimni va kulbamni taklif etaman, shunday, azizim Roz, faqat shu-nigina, sizga faqat shunigina taklif eta olaman, xolos.

— Nima demoqchisiz o'zi? — dedi Roz arang, tili tutilib.

— Men yakkash bir narsani aytmoqchiman, siz bilan oxirgi mar-ta ajralishganimizda, yoningizdan ikkovimiz o'rtamizga raxna soladigan jamiki xayoliy to'siqlarni tuproqqa qorib, yakson qilib tash-lashga qat'iy ahd qilib jo'nagandim. Basharti, mening davram sizniki

bo'la olmas ekan, sizning davrangizni o'zirniki qilishga astoydil qaror berdim; men yana shunga ahd qildimki, o'z nasl-nasabi bilan kibrlanadiganlardan birortasi sizga nafratlanib qarolmaydi, negaki men ulardan yuz o'giranman. Shunday qildim ham. Shuning uchungina mendan yuz o'giranlar, sizdan ham yuzlarini teskari burib, bu masalada siz haq ekaningizni isbotladilar. O'sha paytlarda men ga kulib boqqan homiylarim, mansabdor va amaldorlar, e'tiborli va mashhur qarindoshlarim endilikda sovuq tikilib qo'yadilar. Ammo Angliyaning eng yashnagan, huzur-halovatli bir grafligida so'lim dalalar, shamolda chayqaladigan daraxtzor va o'rmonlar bor; o'sha yerdagi qishloq ibodatxonalaridan birining biqinginasi-da — mening ibodatxonamning, Roz, mening-a! — bog' hovli mahtal turibdi; siz meni o'zim rad etgan orzu-niyatlarimning jamidan ko'ra o'sha qo'rg'oncha bilan ming karra ortiqroq g'ururlanishga da'vat eta olishingiz mumkin. Mening hozirgi mavqei va rutbam ana shunday, ularni men oyog'ingiz ostiga poyandoz qilib to'shashga tayyorman.

— Oshiq-ma'shuqlarni dasturxon tepasida kutishdan noxushroq ish yo'qda! — dedi mister Grimuig uyg'onib, boshiga yopib olgan dastro'molini yulqib olarkan.

— Rostiga ko'chganda, kechki ovqatni kishining achchig'i keldigan darajada judayam kechiktirib yuborishgandi. Na missis Meyli, na Garri, na Roz (hammalari baravar kirib kelishgan edi) o'zlarini oqlash uchun churq etib biron nima deya olmadilar.

— Bugun oqshom o'z boshimni g'ajishdek jiddiy niyatim yo'q emasdi, — dedi mister Grimuig, — sababki, bugun bundan bo'lak narsa nasib qilmagan ekan-da, degan xayolga borib qolgandim. Ijozatingiz bilan qalliqni o'pishdek jasoratni o'z zimmamga olaman.

— Mister Grimuig fursatni o'tkazmay ushbu so'zlarni amalga oshirib, loladay qizargan qizni o'pdi, uning bu yuqumli ibratiga ergashib mister Braunlou ham, doktor ham shunday qilishdi. Ba'zilar esa, Garri Meyli qo'shni xonada birinchi bo'lib ibrat ko'rsatgan, deb isbotlamogchi bo'ladilar, ammo eng mo'tabar va nufuzli shaxslar buni g'irt bo'hton hisoblashadi, sababki, u hali yosh, buning ustiga ruhoniyydir.

— Oliver, bo'talog'im, — dedi missis Meyli, — qayerda eding, nega bunchalik g'amgin ko'rinasan? Mana, shu topdayam yig'lab turibsan. Nima bo'ldi?

— Bu olam — umidsizlik olamidir, ko'pincha biz hamma narsadan ko'ra ko'proq ardoqlab kelgan umidlarimiz puchmog'ida ham, bizning tabiat-u atvorimizga beqiyos sharaf bag'ishlaguvchi niyatlarimiz qatida ham ozmuncha noumidlik yashirinib yotmaydi.

— Bechora Dik rixlatga yo'l tutgandi!

Sud zalining pastidan yuqorisigacha odam tirband. Har bir qarich yerda sinchkov, sabrsizlik bilan yongan ko'zlar chaqnaydi. Sudlanuvchilar o'tiradigan qora kursining oldi to'silgan panjaradan tortib tortanqis yo'lag-u shiyponchalarning kaftdakkina burchaklarigacha zich joylashgan kishilarning nigohlari yakkash bir odamga — old tomondan, orqadan, tepasi va pastidan, o'ng-u so'lidan — Fedjinga qadalgan, bamisoli u chaqnoq ko'zlardan tashkil topgan gumbazning qoq kindigida muallaq turganga o'xshaydi.

U ana shu jonli shu'lalar tutashgan yerda bir qo'lini oldidagi panjara yog'ochiga qo'yganча, ikkinchi qo'lini esa shu topda maslahatchilarga qarata nutq so'zlayotgan sud raisining har bir so'zini aniqroq eshitish niyatida qulog'i ortiga tutib, bo'ynini olg'a cho'zgancha turibdi. Goho o'z foydasiga aytilgan birorta kichkina-gina hamda deyarli ahamiyatsiz dalil qanday ta'sir etganini payqash dardida darhol hakamlarga tikilardi; ayblov bandleri dahshatli tarzda appa-anig qilib bayon etilgan paytlarda esa, loaqal endi meni himoyam uchun biron nima desang-chi, degan ma'noda o'z himoyachisiga unsiz iltijo-la javdirardi. Basharti, ana shu bezovtalanish ko'rinishlarini hisobga olinmasa, na qo'li, na oyog'i qilt etib qimirlardi. Sudda ishini ko'ra boshlaganlaridan beriga uni biron marta qimirladi deyish amrimahol; mana hozir ham, sudya jim bo'lgach ham diqqat-e'tiborni namoyish etuvchi xuddi o'shanday tarang-u parishonhol holatda qolaverdi, go'yoki hanuz tinglayotgandek sud-yadan ko'zini uzmay turaverdi.

Zalda ko'tarilgan yengilgina g'ovur-g'uvur uni hushiga keltirdi. Alanglab qararkan, u maslahatchilarning bir-birovlariga yaqin-roq surilib, hukmni muhokama qilishga tushganlarini ko'rdi. Uning nigohi yo'lak va shiyponchalar bo'ylab izg'irkan, odamlarning o'rinlaridan xiyol ko'tarilib, o'zining aftini tuzukroq ko'rishga harakat qilayotganlarini kuzatishi mumkin edi: bir xillar shosha-pisha ko'zlariga durbinlarini tutishar, boshqalari nafratni anglatib turgan bir qiyofada yonidagi qo'shnilariga nimalarnidir shivirlashar edi. Bu yerda ozchilik bo'lsa-da, shundaylar ham bor ediki, bular go'yoki unga e'tibor bermayotganga va namuncha imillashmasa, deya alam-



zada bir hayrat-la faqat maslahatchilarga tikilishardi. Ammo birorta chehrada — hatto, bu yerdagilarning aksariyatini tashkil etgan xotin-xalajlar yuzida ham — zarracha hamdardlik asari u yoqda tursin, uni nimaga hukm qilisharkin degan savol-u jamiki narsani oradan sitib chiqaruvchi istakdan bo'lak hech nimani ko'rmadi.

U atrofga merovsirab nazar tashlab, ana shularni payqagan bir paytda o'rtaga tag'in suv quygandek jimlik cho'kdi-yu, burilib qarab, maslahatchilarning sudyaga tomon o'girilishganini ko'rdi. Jim!

Biroq ular faqatgina ichkariga kirishga ruxsat so'rayotgan edilar, xolos.

U, xuddi ko'pchiligi qanday fikrdaligini uqib olmoqchidek, oldinma-keyin chiqib borishayotgan maslahatchilarning yuzlariga tikildi, biroq bu behuda urinish edi. Turma nazoratchisi kiftiga turtib qo'ydi. Shunda u beixtiyor nazoratchiga ergashib, supachadan tushib borib, kursiga cho'kdi. Kursini bo'lsa unga nazoratchi ko'rsatdi, yo'qsa ko'rmasdi ham.

U yana tepaga qaradi. Xaloyiqning ba'zilar *tamaddi* qilishga tushgandi, ba'zilar esa odam tirband zal dimiqib ketganidan ro'molchalari bilan yelpinib yotgandi. Qandaydir bir yigit choqqina yondaftarchaga uning rasmini chizyapti. U o'xshatyaptimikin, deb o'ziga-o'zi savol berdi-da, qalami uchini sindirib qo'yib, qalamta-rosh bilan boshqatdan uchini chiqarayotganida (xuddi bekorch *to-moshatalablarday*) rassomni kuzatib turdi.

Keyin nigohini sudyaga ko'chirganida esa fikr-xayolini, hakam libosining bichimi, qancha turishi va buni qanday kiyishi xususidagi o'y band etdi. Hakamlar kursidan birida baqaloq kek *sa* bir jentlmen o'tiribdi, u yarim soatcha burun chiqib ketib, hozirgina qaytgandi. U o'z-o'ziga savol berdi, bu odam tushlik qilgani chiqib keldi, tushlikka nima *tamaddi* qilganikin, qayerda ovqatlanganikin; toki boshqa bir odam diqqatini tortib, miyasida yangi o'ylar tug'dirmagunicha ana shu kabi behuda mushohadalar bilan ovora bo'ldi.

Biroq ana shu vaqt orasida uning miyasini biror soniyaga bo'lsa-da, ruhiyatni ezib, aqlni shoshirib qo'yguvchi — oyoqlari ostida lahadning og'zi lang ochilib turgani haqdagi o'y tark etmadi; ha, u tark etmasdi, ammo bu xira, mubham tasavvur bo'lib, ushbu boradagi fikrlarini jamlayolmasdi. Hatto shu topda, o'limi yaqinligi haqda o'ylaganining o'zidanoq titrab, a'zoyi badanidan lov-lov isitma chiqib turgan bir pallada ham u qarshisidagi temir panjara chiviqlarini sanashga tutindi, ulardan birining uchi qanday qilib singani, buni tuzatishadimi yoki shundoqligicha qo'yib qo'yaverishadimi, shular haqda bosh qotira boshladi. Keyin u sirtmog'-u dor supasi bilan bog'liq jamiki dahshatlarni xotirladi-yu, o'sha zamonoq sal salqin bo'lsin,

deb zal sahniga suv sepayotgan odamning harakatini kuzatishga chalg'ib ketdi, so'ngra esa tag'i xayolga toldi.

Nihoyat, jim bo'lishga da'vat etuvchi xitob eshitildi-yu, hamma nafasini ichga yutgancha eshikka tikildi. Maslahatchilar ichkaridan chiqib, uning yonidan o'tib ketishdi. U maslahatchilarning yuzidan hech nima uqolmadi; bular bamisli tosh odamlar edi. Qabriston sukunati cho'kdi... na tiq etgan tovush... na nafas olganlari eshitaladi... Aybdor!

Hayhotday xona ustma-ust yangrayotgan dahshatli hayqiriqlardan larzaga keldi, so'ngra esa vahimali momaqaldiroq gumburi to'liqlariday zo'rayib, qudratli na'raga aylanib, aksi sado bo'lib qaytdi. Bu uning dushanba kuni o'lajagi haqdagi xabarni eshitib, sud binosi oldida tantana qilayotgan olo-monning shodiyona o'kirigi edi.

Shovqin tindi, undan chiqarilgan o'lim hukmi xususida biron nima deyish-demasligini so'radilar. U boyagidek sarang-u parishonhol holatga kirdi-yu, so'roqlovchisiga baqrayib qoldi; Fedjin eshitib, fahmiga yetgunicha savolni ikki bor takrorladilar; shundan keyingina u — qari odamman... qari... qari... — deya g'udrandi xolos, shu tariqa ovozi ichiga tushib, tag'in jim bo'lib qoldi.

Sudya qora qalpog'ini kiydi, hukm qilingan aybdor bo'lsa hamon o'sha qiyofa-yu o'sha holatda turardi. Ushbu vahimali dam tazyiqida tepada — shiyponda turgan ayollar bo'g'zidan hayqiriq otilib chiqdi. Shunda Fedjin, bu go'yo o'ziga xalal bergandek, darhol ko'zlarini ko'tarib, yanayam ko'proq diqqat-u e'tibor-la oldinga engashdi. Unga qaratilgan nutq dabdabali hamda ta'sirli edi; hukmnomaga quloq solish dahshatli edi. Biroq u naq marmar haykalday qotib turardi, biror tuki ham qilt etmasdi. Pastki chakagi osilib qolgan, ko'zlari chaqchaygan, basharasi so'lg'in edi; turma nazoratchisi yelkasiga qo'lini qo'yib, eshikka tomon boshlaganida hanuz bo'ynini cho'zib turardi. U atrofga bema'no alanglab olib, buyruqqa itoat etdi.

Sud zali ostidagi mahbuslardan bir xillari o'z navbatlarini kutayotgan boshqalari esa hovli tomonga qaragan panjara oldida to'dalashib turgan yor-birodarlari bilan so'zlashayotgan, sahniga tosh yotqizilgan xonadan olib o'tdilar uni. U bilan gaplashgudek biron kimsa topilmadi; ammo u o'tib borayotganida mahbuslar narigi tomonda panjaraga yopishib turganlardan uni to'sib qo'ymaslik uchun ortga chekindilar; narigi tomondagilar bo'lsa so'kish-u haqoratlarga ko'mib tashladilar, baqirishib, hushtak chalishib qoldilar. U musht o'qtalib, basharalariga tupurmoqchi bo'ldi, biroq qo'riqchilari bir nechtagina xira chiroq bilan yoritilgan nimqorong'i yo'lak bo'ylab turma ichkarrisiga olib kirib ketdilar.

Bu yerda uni — hukm ijrosini vaqtidan oldinroq ado etib qo'ya qoladigan birorta qurol-puroli yo'qmikin deb, tintib ko'rdilar; ushbu marosim tugagach, uni hukm etilganlarga ajratilgan zindonxonalardan biriga boshlab kirib, o'sha yerda yolg'iz qoldirdilar.

U eshik ro'parasidagi ham kursi-yu ham to'shak vazifasini o'taydigan tosh supaga cho'kdi-da, qon quyilgan ko'zlarini yerga qadagan ko'yi fikr-xayolini jamlashga harakat qildi. Oradan bir oz fursat o'tgach, sudyaning nutqidan o'zaro qovushmagan ba'zi gaplari yodiga kela boshladi, o'sha paytda esa nazarida qulog'iga birorta so'z kirmayotgandek bo'lib tuyulgandi. Asta-sekin bu qovushiqsiz jumlar tegishli tartibda saflana borib, ular ketidan boshqalari tashrif buyura boshladi. Hademay u deyarli butun boshli nutqni tikladi. Toki joni uzilgunicha bo'ynidan dorda osilib tursin — ana shunday edi hukm. Toki joni uzilgunicha osilib tursin.

Butunlay qosh qorayib bo'lganida u dor supasida o'lim topgan — ba'zilari uning yordami bilan — o'zi bilgan hamma odamlar haqida o'ylay boshla-di. Bular ko'z o'ngida shunaqangi shitob-la paydo bo'lib, shunaqangi tez o'tib borishardikim, u arang sanab ulgurardi. Chol bulardan bir xillari qanday o'lganlarini ko'rib kulgan edi, sababki, ular o'lim oldidan pichirlab duo o'qigandilar. Taxta qanday taraqlab tushganini\* va ularning o'sha ondayoq baquvvat hamda zardast odamdan chayqalib turgan bir qop kiyimga aylanib qolganlarini aytmaysizmi!

Balki ulardan bir xillari mana shu xonada bo'lgan, xuddi mana shu joyda o'tirgandirlar. Zimiston qorong'i edi; nega chiroq keltirishmadi? Bu zindonxona talay yillar muqaddam qurilgan. O'nlab odamlar o'zlarining so'nggi soatlarini shu yerda o'tkazgan bo'lishlari kerak. Go'yoki murdalar qalashtirib taxlab qo'yilgan daxmada o'tirganga o'xshaysan — boshga kiygiziladigan boshliq, sirtmoq, bog'log'liq qo'llar va hatto bu manfur boshliq ustidan ham u tanib turgan yuzlar... Chiroq, chiroq!

Axiyri, u zil-zambil eshig-u devorlarni mushtlayverib qo'li qonga belanganidan keyingina, ikki kishi kirib keldi: biri qo'lida ko'tarib kelgan shamni devorga mixlab qo'yilgan tunuka fonusga o'rnatdi; boshqasi esa o'zi yotadigan to'shagini ko'tarib olgandi, zotan mahbusni ortiq yolg'iz qoldirmasliklari lozim edi.

Tezda tun kirdi — zim-ziyo, g'amboda, unsiz tun. O'zgalar, bedor yurganlar uchun cherkov soatlarining zangiga quloq osish zavqli, negaki u hayot va ertangi kundan darak berib turadi. Unga esa soat zangi noumidlik keltirardi. Mis qo'ng'iroqning har bir bongi, uning bosinqi va ohista «darang-durungi» qulog'iga «o'lim, o'lim» bo'lib eshitilardi. Hattoki bu yoqqa, ungacha yetib kelayotgan, beg'am-u

parvoyi falak tong keltirgan g'ovur-g'uvur va shovqin-surondan nima foyda? Bu ham xuddi o'sha masxaralash bilan ogoh etish qorishib ketgan motam bongining o'zginasi.

Kun ham o'tdi. Kun? Hech qanaqangi kun bo'lgani yo'q; qanday tez kirgan bo'lsa, xuddi o'shanday tez yelib o'tdi-ketdi va tag'in tun cho'kdi, ha, yilday uzun, ayni choqda daqiqaday umri qisqa tun: dilga qutqu solguvchi sokinligi jihatidan uzun-u soatlari g'izillab o'tishi vajidan qisqa edi u. U dam jazavasi qo'zib, noshoyon vaysar, dam dodlab, sochlarini yulardi. E'tiborli dindoshlari u bilan birga ibodat qilgani kelishdi, ammo u bo'ralab so'kib haydab soldi. Xudojo'ylar imon o'girtirishga qaytadan urinib ko'rdilar, biroq u itarib-turtib chiqarib yubordi.

Shanbadan yakshanbaga o'tar kechasi. Uning yana bir kechalik umri qoldi. U shu to'g'rida o'y surib ulgurmasidan kunduzi — yakshanba ham yetib keldi.

Bu so'nggi, dahshatli kunning oqshomiga borgachgina uning nuqson va illatlarga maskan qalbini nochor-u noiloj hamda mushkul ahvolda qolganiga tan berish fikri chulg'adi-oldi — afv etishlariga qandaydir qattiq umid bog'laganidan emas, balki shu topgacha o'limi yaqinligi haqdagi o'yni o'ziga yuqtirmay kelayotgani sababli sodir bo'lgandi bu. Unga ko'z-quloq bo'lib, bir-birlari bilan almashinib turgan ikki poyloqchi bilan kamdan-kam gaplashardi, o'z navbatida poyloqchilari ham uning diqqatini tortmaslikka tirishardilar. U bedor, ammo xayol ummoniga sho'ng'ib o'tirardi. Goho u ana shu xayol ummonidan qalqib chiqardi-da og'zi ochilganicha a'zoyi badani alangai otash bo'lib yonib, shunaqangi qo'rquv va jaholat xurushida u yoqdan-bu yoqqa yugurib qolardiki, hatto bunaqangi manzaraga ko'nikib ketgan poyloqchilar ham o'takalari yorilib, o'zlarini chetga olib qochardilar. Alal-oqibat chol nopok vijdoni qiynog'ida shunchalar dahshatli vajohatga kirdiki, biror inson bolasi u bilan yakkamayakka o'tirishga dosh berolmay qoldi — shunday qilib, poyloqchilar mahbusni ikkovlashib qo'riqlay boshladilar.

U o'zining tosh to'shagida g'ujanak bo'lib, o'tmishini o'ylay ketdi. Qo'lga olingan kuni olomon orasidan o'ziga qarab uloqtirilgan allanimadir tegib jarohatlangan boshi latta-puttalar bilan bog'lab tashlangandi. Qo'ng'ir sochlari qonsiz betiga tushib turardi; soqolining bir necha tutami yulib olingan; ko'zlari qutni uchirgudek o't bo'lib yonmoqda; yuvuqsiz terisi tanasini lag'cha cho'g' bo'lib kuydirayotgan haroratdan porsillab yorilib ketgan. Sak-kiz... to'qqiz... o'n... Bordi-yu, bu uni qo'rqitish uchun qilinayotgan nayrang bo'lmasa, bordi-yu, bu chindan ham biri ortidan ikkinchisi quvalashib kelayotgan soat bo'lsa, millari yana bir marta

aylanib chiqqanida qayerda bo'ladi u! O'n bir! Tag'in zang urdi, oldingisining esa hali aks sadosi tinib ulgurganicha yo'q. Soat sak-kizda u o'zining motam marosimida yakka-yolg'iz go'yanda bo'lib o'tiradi. O'n birda esa...

Shunchalar uqubat, shunchalar iztirob, ta'rifga sig'mas g'am-u hasratlarni odamlarning nafaqat ko'zlari, hatto aql-u tafakkuridan (g'oyatda tez-tez va g'oyatda uzoq muddat mobaynida) pinhon tutguv-chi dahshatli Nyuget devorlari bunday qo'rqinchli manzarani hech qachon ko'rmagan. Yonidan o'tib borayotib qadamini sekinlatgan va o'z-o'zidan, osishga hukm etilgan odam nima qilayotganikin, deb so'rovchi sanoqli kishilar uni ko'rganlarida bormi, bu kecha uxlo-l-may to'lg'onib chiqardilar.

Kech kira boshlaganidan to yarim tungacha odamlar ikki-uch kishidan bo'lishib darvozaxonaga yaqinlashib kelishar va tashvish-li qiyofada, o'lim hukmi bekor qilinmadimi tag'in, deya so'rab-su-rishtirishardi. Yo'q degan javobni olib, bu manzir-u matlub xabar-ni ko'chada to'plangan boshqa to'dalarga yetkazishar, bir-birovlariga u olib chiqiladigan eshikni, keyin dor quriladigan joyni ko'rsatishar, so'ngra esa, istar-istamas ketayotib, bu manzarani xayolan ko'z ol-dilariga keltirib o'sha yoqqa alanglab qo'yishar edi. Asta-sekin ular birin-ketin tarqalisha boshlashdi va biror soatlar chamasi, vaqt yarim kechadan oqqan pallada ko'cha huvillab, qop-qorong'i bo'lib qoldi.

Mister Braunlou bilan Oliver darcha oldiga kelib, sheriflardan\* biri imzo chekkan, mahbusni ko'rish uchun berilgan ruxsatnomani ko'rsatib turgan paytlarida turma oldidagi maydon tozalab bo'lingan hamda olomonning bostirib kelishining oldini olish uchun qora rangga bo'yalgan bir nechta baquvvat to'sin hozirlab qo'yilgan edi. Ularni darhol darvozaxonaga kiritishdi.

— Bu yigitcha ham kiradimi, ser? — deb so'radi ularni boshlab borish topshirilgan odam. — Bunaqangi manzarani ko'rish yosh bo-laga to'g'ri kelmaydi-ku, ser.

— Haq gap, do'stim, — dedi mister Braunlou, — lokigin bola kaminani bu odam huzuriga yetaklab kelgan ishga bevosita aloqa-dor; go'dak uni ishlari gurkirab, yovuzligi avj pallaga chiqqan payt-larida ko'rgan. Shuning uchun garchi bu narsa qo'rqitib, qiynab qo'ysa hamki, hozirgi vazohatini ko'rsa foydadan xoli bo'lmas, deb o'ylayman.

Bu ikki og'izgina gap Oliver eshitib qolmasligi uchun bir chek-kada aytilgan edi. U kishi shlyapasiga qo'l uzatdi va Oliverga qi-ziqsinib ko'z qirini tashlab qo'yib, ikkovlon kirib kelishgan darvoza-ni ro'parasidagi boshqa darvozani ochdi-da, qorong'i, ilang-bilang yo'laklardan boshlab ketdi.

— Mana shu yerdan, — dedi u ikki ishchi jimgina qandaydir tayyorgarlik yumushlarini bajarayotgan qorong'i yo'lakda to'xtar ekan, — mana shu yerdan olib o'tiladi uni, agar manavi yoqqa qarasangiz, u chiqadigan eshikni ko'rasiz.

Turma nazoratchisi ularni osti tosh, mahbuslar uchun ovqat pishiriladigan mis qozonlar o'rnatilgan o'choqboshiga boshlab kirdi-da, u yerdagi bir eshikka ishora qildi. Eshikda esa panjarali tuynukcha bo'lib, undan bolg'alarining taraq-turuqi, gursillab yerga tushayotgan taxtalarining ovozi bilan omixta g'o'ng'ir-g'o'ng'ir eshitilib turardi. U yerda dor supasini tayyorlamoqda edilar.

Keyin ular boshqa turma xizmatchilari ichkaridan ochayotgan bir nechta katta-katta zil darvozalardan o'tishdi, so'ng ochiq hovlidan borib, nihoyat kambargina zinadan chap biqinida eshiklar qator tizilib ketgan yo'lakka ko'tarilishdi. Turma nazoratchisi ularga shu yerda to'xtashni imo qilib, boyagi eshiklardan birini kalitlar shodasi bilan taqillatdi. Har ikkala soqchi pichirlashib olib, kerishgancha yo'lakka chiqib kelishdi; ular go'yoki birpasgina dam olishlaridan xursanddek ko'rinishardi. Soqchilar mahbusni ko'rgani kelganlarga nazoratchi ortidan ichkariga kirishni taklif etishdi. Keluvchilar ichkari kirishdi.

Jinoyatchi tosh supasida u yoqdan-bu yoqqa chayqalgancha o'tiribdi; afti odam bolasi yuzidan ko'ra ta'qibga olingan yirtqichning basharasiga o'xshab ketardi. Aftidan, fikr-o'ylari kechmish kunlarida adashib-uloqib yurgandi, negaki u mudom ming'irliayapti, chamasi uchrashgani kelganlarni ko'ziga ko'rinayotgan manzarada qatnashayotgan ro'yolar deb bilyapti.

— Xo'b, ajoyib bola-da, Charli... qotiribdi... — g'udrandi u. — Oliver ham... ha-ha-ha!.. Oliver ham... U hozir chinakam jentlmen... chinakam jentl... op chiqib uxlatimg bu bolani!

Turma nazoratchisi Oliverning qo'lidan ushladi-da, qo'rqma, deb shipshib, mahbusga indamay tikilib turaverdi.

— Opchiqib yotqizing! — qichqirdi Fedjin. — Eshityapsizlarmi gapimni birortangiz? U... u... bu mashmashalarning hammasiga sababchi. Agar uni o'rgatolsam pul berishadi... Bolterning bo'g'zini, Bill, hadeb qiz bilan o'ralashavermang... Bolterni iloji boricha chuqurroq bo'g'izlang. Kallasini sapchaday uzib tashlang!

— Fedjin! — chaqirdi uni turma nazoratchisi.

— Bu menman! — xitob qildi juhud lahzada sud paytidagidek sarang-u parishonhol holatga kirib. — Qari odamman, milord! Sharti ketib parti qolgan, munkillagan cholman!

— Quloq bering! — dedi turma nazoratchisi o'rnidan turmasin uchun qo'lini uning ko'kragiga qo'yib. — Sizdan bir narsani so'ragani, sizni ko'rgani kelishibdi. Fedjin, Fedjin! Erkaksiz-ku, axir?!

— Erkaklik umrim jindakkina qoldi, — javob berdi u, jazava-yu vahimadan bo‘lak hech vaqoning ifodasi bo‘lmagan basharasini ko‘tarib. — Hammalarini gumdon qilinglar! Meni o‘ldirishga qanday haqlari bor?

Shu payt Oliver bilan mister Braunlouni payqab qoldi. Tosh supaning narigi chekkasiga biqinib olib, bu yerda ularga nima kerakligini so‘radi.

— Tek o‘tiring, — dedi nazoratchi hanuz uning ko‘ksidan ushlagancha. — Ana endi, ser, nima kerakligini ayting. Iltimos, tezroq, chunki soat sayin ahvoli yomonlashib boryapti!

— Sizda Monks ismli odam nihoyatda avaylab saqlash uchun bergan ba’zi bir qog‘ozlar boriydi, — dedi mister Braunlou unga yaqinroq kelib.

— Hammasi yolg‘on! — javob qildi Fedjin. — Menda bittayam qog‘oz yo‘q, bittayam!

— Yaratgan haqqi, — dedi mister Braunlou dabdabali qilib, — shunday damda, o‘lim oldidan bunday demang-a! Javob bering menga, qayerda ular? O‘zingiz bilasiz, Sayks o‘lgan, Monks iqror bo‘lgan, shundoq bo‘lgach, ulardan biron foyda chiqarishga umid qolmagan. Qayerda o‘sha qog‘ozlar?

— Oliver! — deya qichqirdi Fedjin bolani o‘zi tomon imlab. — Bu yoqqa kel, bu yoqqa! Qulog‘ingga aytadigan gapim bor.

— Qo‘rqmayman undan, — dedi Oliver sekingina, mister Braunlouning qo‘lini qo‘yib yuborarkan.

— Qog‘ozlar, — dedi Fedjin Oliverni o‘zi sari tortib, — qog‘ozlar bo‘z xaltada yuqorigi xonadagi kaminning shundoq tepasidagi kovakka yashirib qo‘yilgan... Sen bilan gaplashmoqchiman, azizim. Sen bilan gaplashmoqchiman.

— Xo‘p, xo‘p, — javob qaytardi Oliver. — Duo o‘qishimga ijozat bersangiz. Iltimos qilaman! Bittagina duoni o‘qishimga ruxsat eting. Tiz cho‘kib, men bilan baravar atigi bittagina duoni o‘qing, ana undan keyin tong otguncha gaplashamiz.

— O‘sha yoqqa, o‘shoqqa! — dedi Fedjin oldida turgan bolani eshik tomonga itarib, talmovsiragancha bolaning boshi uzra yuqoriga tikilib. — Uxlagani yotdi degin meni — sening gapingga ishonishadi ular. Mana shu yoqdan boradigan bo‘lsang meni olib chiqib ketasan bu yerdan. Bo‘la qol, qani, tezroq!

— E xudo, bu baxtiqaroni o‘zing kechir! — deya qichqirib yubordi bola duv-duv yosh to‘kib.

— Juda soz, qoyil! — dedi Fedjin. — Yordam beradi bu bizga. Oldin manavi eshikdan chiqamiz. Agarda dor oldidan o‘tib borayotganimda titrab-qaltiray boshlasam, parvo qilmay, qadamingni tezlata-ver. Qani, bo‘la qol, ha!

— Boshqa undan soʻraydigan narsangiz yoʻqmi, ser? — surishtirdi nazoratchi.

— Ha, boshqa savolim yoʻq, — javob qaytardi mister Braunlou. — Mabodo oʻz ahvolini tushuntira olishimga koʻzim yetganida edi...

— Buning foydasi yoʻq, ser, — javob berdi unisi bosh chayqab. — Yaxshisi, xoli qoldiringlar uni.

Zindonxona eshigi ochilib, qoʻriqchilar qaytib kirishdi.

— Boʻla qolinglar, tezroq! — qichqirdi Fedjin. — Shovqin chiqarmanglar, lekin imillamasdan. Tezroq, shoshilinglar!

Odamlar uni ushlab, Oliverni qoʻllaridan boʻshatib, orqaga surgab ketishdi. Bir nafas jon achchigʻida tipirchilab-yulqinib turdi, keyin esa shundoq dod soldiki, faryodi hattoki qalin devorlardan sizib oʻtib, uchrashuvga kelganlar toki hovliga chiqib olgunlaricha quloqlari ostida jaranglab turdi.

Qamoqxonadan ular darhol ketisha olmadi. Oliver mazkur dahshatli manzaradan soʻng sal boʻlmasa oʻzidan ketib qolayozdi va shunchalik boʻshashib ketdiki, biror soat orasida (undan koʻp boʻlsa koʻpki, oz emas) yurishga quvvati yetmadi.

Ular tashqariga chiqishganida tong yorisha boshlagandi. Allaqachon tumonat odam toʻplangandi; jamiki derazalarda odamlar tiqilishib turishar, vaqtni oʻtkazish uchun chekishar va qarta oʻynashardi; olomon bir-birini itarib-turtishar, tiqilishar, bahslashar, hazil-huzul qilardi. Barcha narsa — oʻrtadagi vahimali narsa-yu anjomlar: qop-qora taxtasupa, koʻndalang dor toʻsini, arqon va hokazo sovuqdan-sovuq oʻlim qurollaridan boʻlak hamma narsa qaynoq hayotdan soʻzlab turardi.

Mazkur qissa ishtirokchilarining qismatlari haqidagi hikoyamiz deyarli nihoyasiga yetdi. Tarixchilar bilib qo'ymog'i lozim bo'lgan ozroqqina qismini qisqa va lo'ndagina bayon etib qo'ya qolamiz.

Oradan uch oy o'tmasdan oq Roz Fleming bilan Garri Meyllar bundan-buyon yigit xizmat qilajak qishloq nbodatxonasida nikoh o'qittirdilar; shu kuniyoq o'zlarining yangi va baxt nurafshon etgan uylarida sohiblik tizginini o'z qo'llariga oldilar.

Missis Meyli piri badavlat keksalik gashtini surib, qolgan kunlarini osuda, huzur-halovatda o'tkazmoqlik niyatida o'g'li bilan kelining xonadoniga ko'chib o'tdi; umri bo'yi hormay-tolmay bor mehri-yu yuragining qo'rini, kuch-quvvatini sarflagan nuridiydalarining baxtiyorligini o'z ko'zlari bilan ko'rib turishdan ham ortiqroq halovat bormikin olamda?!

Sinchiklab o'tkazilgan asosli hamda puxta tekshiruvlardan so'ng shu narsa ma'lum bo'ldikim, basharti Monksning izmidagi behuda sovrilgan boylikning qolgan-qutganini (u na o'g'ilning qo'lida, na onasining qo'lida hech qachon ko'paygan emas) Oliver ikkovlari o'rtasida teppa-teng qilib taqsimlanadigan bo'lsa, har qaysisiga uch ming funtdan salgina ortiqroqdan tegar ekan. Otasining vasiyati shartlariga muvofiq esa Oliver hamma boylikni o'zi olish huquqiga ega edi; biroq mister Braunlou katta o'g'ilni ilgarigi qusurlaridan qutulish va yangicha hayot kechirish imkoniyatidan mahrum etishni istamay, aynan yuqorida aytganimizdek taqsimotni taklif qildi; uning murg'ak tarbiyalanuvchisi xursandlik bilan, bajonidil rozi bo'ldi bunga.

Hanuz o'sha soxta nom bilan yurgan Monks merosdan o'ziga tekkan ulushni olib, Yangi Dunyoning eng ovloq yerlariga jo'nadi va o'sha yoqlarda bor bisotini sovrilib, tag'in ilgarigi yo'liga kirib ketdi-yu, qandaydir qallobligi uchun avaxtaga tushdi; u yerda uzoq bo'ldi, avvalgi kasali xuruji bilan yotib qolib, olamdan o'tdi. Uning oshnasi bo'lmish Fedjin to'dasining qutulib qolgan asosiy a'zolari xuddi shunday vatanlaridan o'lib ketdilar.

Mister Braunlou Oliveri o'g'il qilib oldi. U Oliver va keksa ro'zg'orboshi bilan bolaning yaqin do'stlari yashaydigan qavm mehnat uyidan bir milyacha beriga joylashib, sodiq hamda mehribon Oliverning birdan-bir armonini qanoatlantirdi. Shunday qilib, choq-



qina bolakaylar jamoati jam bo'lib, bu nohaqlig-u buzuqliklarga kon olam imkon berganicha baxtiyor hayot kechira boshladi.

Yoshlar to'yidan keyin hech qancha vaqt o'tmayoq muhtaram doktor Chertsiga qaytdi; qadrdon do'stlaridan ayrilgan hakim, mabodo tabiatan shunday odam bo'lganida, xafaqon dardiga muhtalo bo'lishi va mabodo yo'rig'ini bilganida, ters miyang'iga aylanib qolishi turgan gap edi. Ikki-uch oy davomida u, bu yerning havosi salomatligiga ziyon qilmasa edi deb cho'chiyotganini sha'ma qilish bilan chegaralandi; keyin, bu yerlar uning uchun ilgarigi mehriyosi-yu maftunkorligini yo'qotganiga ishonch hosil qilgach, tabobat ishlarini yordamchisiga topshirib, yosh do'sti ruhoniylilik qilayotgan qishloq chekkasidagi bo'ydoqlar bog' hovlisiga joylashdi-yu, darhol otday bo'lib tuzalib ketdi. Bu yerda u bog'bonlik, daraxt o'tqazish, baliq ovi, duradgorlik va shu toifadagi turli xil mashg'ulotlarga o'ziga xos g'ayrat bilan sho'ng'ib ketdi. Ana shu jamiki mashg'ulotlarida butun viloyatga mirishkor sifatida behad shuhrat taratdi.

Hali bu yoqlarga ko'chib o'tmasidanoq u mister Grimuigga qalin do'stlik tuyg'usini namoyon etgan, antiqa jentlmen ham bunga samimiy do'stlik tuyg'usi bilan javob qaytardi. Shu hoisidan ham yil davomida mister Grimuig uni besanog'-u behisob marotabalab ziyorat qilib turardi. Har gal kelganida mister Grimuig nihol o'tqazadi, baliq ovlaydi va ishtiyoq-u g'ayrat-la duradgorlik qiladi. Bu ishlarning barini g'alati tarzda va odatdagidan boshqacharoq qilarkan, o'zi suygan gapni, o'zining uslubi — eng to'g'ri uslub ekanini sarkashlik bilan qaytargani-qaytargan edi. Yakshanba kunlari yosh ruhoniyl bilan quradigan suhbatlarida u, albatta yigitning va'zini tanqid qiladi, keyin bo'lsa har gal mister Losbernga bag'oyat maxfiy suratda va'zi juda ajoyibligini aytadi-yu, ammo buni oshkora gapirishni shart deb bilmasligini qo'shib qo'yadi. Mister Braunlouning doimiy hamda suygan ermagi — uning Oliver to'g'risidagi bir vaqtlardagi payg'ambarona bashoratidan kulish va ikkovlari oldilariga soatni qo'yib olib, bolaning qaytishini rosa kutgan oqshomlarini eslatish edi. Biroq mister Grimuig aslida o'zi haq bo'lib chiqqaniga ishontirmoqchi bo'ladi va gapining isboti tariqasida oxir-oqibatda bolaning qaytmaganini ro'kach qiladi-yu, uning ushbu gapi hamisha o'zining kulgisini qistatib, dimog'ini chog' qilib yuboradi.

Mister Noe Kleypol, Fedjinning jinoyatlari xususida bergan guvohliklari sharofati bilan afv etilgach va kash-korim o'zim istaganimdek xavfsiz emas, degan fikrga kelgach, oldiniga og'ir mehnat qilib jon og'ritgisi kelmay, tirikchilikka qayerdan mablag' izlashni bilmay sarang bo'ldi. Ko'pga cho'zilmagan mulohazalardan so'ng tuzukkina daromadli xabarchi — ayg'oqchilik vazifasini zimmasiga oldi. Uning ish uslubi shundayki, haftada bir marta, cherkovda ibodat ketayotgan paytda u Sharlott bilan birga sayrga chiqadi, ikkovlari tuzukkina kiyinib olishadi. Xonim birorta ko'ngli bo'sh qovoqxonachining eshigi oldida o'zidan

ketib qoladi, jentlmen esa shunda uni hushiga keltirish uchun uch pensga brendi oladi-da, ertasiga shu haqda kerakli joyga xabar yetkazib, olingan jarimaning qoq yarmini cho'ntagiga uradi\*. Ba'zan mister Kley-polning o'zi hushdan ketadi, ammo natija o'shanday bo'laveradi.

Mister va missis Bambilar vazifalaridan mahrum bo'lgach, asta-sekin o'ta qashshoq hamda ayanchli ahvolga tushib qoldilar; alaloqibat bir vaqtlar o'zlari boshqalar ustidan hukmronlik qilgan xuddi o'sha mehnat uyidan jirkanch kambag'al sifatida boshpana topdilar. Aytishlaricha, go'yoki mister Bambl, taqdirning bunaqangi bevafoligi hatto jufti halolimdan ajralganim sharafiga minnatdorchilik bildirishimga xalal beryapti, deb gapirib yurganmish.

Mister Jayls bilan Britislarga kelganda esa, birinchisi sochlari to'kilib, tepakal bo'lib qolganiga, yuqorida qayd etganimiz yigitcha esa sochlari batamom oqarib ketganiga qaramay, ular hanuz o'sha vazifalarini egallab turishibdi. Ular qavm ruhoniysining xonadonida tunashadi-yu, lekin o'z diqqat-e'tiborlarini mazkur uy istiqomat-chilari va Oliver, mister Braunlou va mister Losbernlarga bab-baravar ulashishadikim, ahli viloyat to' shu kungacha ularning aslida kimning xizmatida ekanliklarini aniqlay olganlari yo'q.

Sayksning jinoyatidan o'takasi yorilayozgan Charli Beyts, halol kun kechirish hammasidan ham yaxshiroq emasmikin, deb bosh qotira boshladi. Axiyri, xuddi shunday, degan aqidaga kelib, o'tmishi bilan ora ochdi qildi va birorta bo'lak ishga kirishib, bu dog'ni yuvib tashlashga qaror berdi. Dastlabiga mushkul ahvolda qoldi, ko'p muhtojlig-u mahrumliklarga duchor bo'ldi, biroq beg'am-u xushchaqchaqligi hamda olijanob maqsad sari intilishi sharofati bilan oxiri muvaffaqiyatga erishdi; fermer qo'lida xizmatkorlik, aravakashga shogirdlik qilib yurib, endilikda butun Nortxemptonshirda eng quvnoq yosh, moljallob bo'lib olgan.

Mazkur satrlarni bitayotgan qo'l ish intihosiga yetgani sayin tobora qaltirab boryapti va ushbu sarguzashtlar ipini jon-jon deb yana picha cho'zishga ham tayyor.

Kamina shu qadar uzoq muloqotda bo'lgan yaqinlarimdan ba'zilari bilan istar-istamas vidolashaman, qani endi tasvirlashga urinib, quvona-quvona ularning baxt nashidalariga sherik bo'lsam. U chog'da Roz Meylini yosh kelinchaklik malohati barq urib, gul-gul yashnaganini tavsiflagan, o'z turmush so'qmog'iga sochayotgan, o'zi bilan odimlayotganlarni nurafshon etayotgan, ularning qalbiga singib borayotgan mayin-u nozik nur-shuurini ta'riflagan bo'lardim. Men uni qishda, kammin oldida o'tirgan oilaviy davraga quvonch-u hayot, yozda sho'x-shodonlik baxsh etguvchi timsol qiyofasida tasvirlagan bo'lardim; tushki jaziramada jivirlayotgan dalalar bo'ylab ketidan ergashib, oydinga, oqshomgi sayr chog'larida uning mayin-u yoqimli ovozigamiriqib

quloq osardim; men uni — hamisha mehribon-u rahmdil malakni, uy tashida xirom etgan chog'larida, ichkarida esa lablaridan kulgu arimay, tinib-tinchimay ro'zg'or yumushlarini ado etayotgan damlarida kuzatgan bo'lardim; uning va marhuma opasining nuridiydasi bir-birovlariga bo'lgan baxtiyor muhabbatlaridan mast ekanliklarini, tasavvotlarida shunchalar qayg'u-g'am-la judo bo'lgan do'stlari qiyofasini chizib, talay soatlarni birgalikda o'tkazishlarini tasvirlagan bo'lardim; sohibjamol kelinchakning tizzalariga suykanayotgan, quvonchdan gulgul yashnayotgan chehrani qaytatdan ko'rgan, ezmalashayotganlariga quloq solgan bo'lardim; o'sha qo'ng'iroqday jarangdor kulgini eslab qolgan, xotiralar ko'zgusida esa ma'suma moviy ko'zlarda yiltillagan rahm-shafqat yoshlarini aks ettirgan bo'lardim. Ana shularning bari-ga va buning ustiga ming-minglab nigoh-u tabassum o'y-fikrlar-u so'zlarga — jami-jamiga jon baxsh etishni istardim.

Mister Braunlouning o'z asrandi o'g'li aqlini kun-bakun qanday bilim xazinasini bilan boyitib borayotgani va bola kamolga yetib borgan sari, go'dakning qalbida o'zi ko'rishni istagan xislat-u fazilatlar urug'i nish urib chiqa boshlagani sayin unga tobora mahkamroq bog'lanib qolayotgani haqda; bolada yoshlikdagi do'stining yangidan-yangi o'xshashlik alomatlarini payqay borishi o'tmish xotiralarga jon ato qilib, shiravagina qayg'u tug'dirayotgani, ammo bu narsa ayni chog'da ko'ngliga taskin-u diliga orom berayotgani haqda: ikki yetimchani shunchalar qismat bevafoqliklarini boshdan kechirib, uning saboqlarini yodda saqlab qolganlari holda odamlarga nisbatan mehr-shafqatli, o'zaro mehr-oqibatli bo'lishni va o'zlarini qanoati ostiga olib, jonlarini saqlab qolgan valine'matlariga minnatdorlik tuyg'ularini asrab-ardoqlaganlari to'g'risida — hamma-hammasi to'g'risida so'zlab o'tirishning hojati yo'q. Men ularni chinakam baxtiyor dedim, sababki teran muhabbatsiz, samimiy ezgulik hamda rahm-shafqatni dasturilamal bilgan va jamiki havodan nafas oluvchi jonzotga muruvvat-u iltifot ko'rsatish beqiyos xislati bo'lgan zotdan minnatdor bo'lmay turib, baxtga erishib bo'lmaydi.

Ko'hna qishloq cherkovining mehrobida oppoq marmar taxta bor, unga hozircha birgina «Agnes» so'zi bitilgan. Bu dahmada tobut yo'q, ushbu dahma ustida yana bir ism paydo bo'lguniga qadar, mayli, yana talay-talay yillar o'taversin! Ammo marhumlarning ruhi qabrdan olislarga tortilgan rishtalar — hayot paytlaridagi bilgan-tanigan kimsalarining muhabbat rishtalari — eltadigan, ana shu muhabbatla yo'g'rilgan maskanlarni ziyorat qilmoqlik uchun qachonki yerga qaytgudek bo'lsa, imonim komilki, Agnesning ruhi goho-goho ana shu muqaddas joyda aylanib, charx uradi. Ishonaman, garchi u hayotligida bir ojiza hamda adashgan kimsa bo'lsa hamki, shu yerga — mehrobgga kelib, uni ziyorat qilib turadi.

---

## SHARHLAR

**7 b. *Mehnat uyi*** — Angliyada qashshoqlar uchun boshpana (yetimxona). Dikkins romanda tasvirlagan manzara ingliz mehnat uylarining tuzilishi va ulardagi joriy qamoqxona tartib-qoidalarini haqqoniy tarzda jonlantiradi.

**7 b. *Qavm tabibi*** — «qavm» xizmatidagi shifokor. Angliyada ilgari cherkov ma'murlari aholidan anglikan davlat cherkovi foydasiga soliq yig'ish huquqi bilan ruhoniyni boshliq qilib tayinlagan tuman qavm deb atalgan. Lekin vaqt o'tishi bilan shahar va qishloqlardagi iqtisodiy-xo'jalik hayoti fuqarolar tomonidan saylanadigan kengash ixtiyoriga bo'ysunadigan kichikroq tumanlar qavm deb atala boshlagan. Dikkins zamonida Angliyada o'n besh yarim ming qavm bo'lgan. Qavm ishlarini boshqarishga ishchi va dehqonlar yo'latilmagan, zero mulkdor aholigina saylash xuquqiga ega bo'lgan, xolos. Shuningdek, «qashshoqlarga yordam» berish tashkilotlari, ya'ni qavmning turmush sharoitlarining yaxshilanishidan butunlay umidlari uzilgan aholisigina boshpana so'rashga ahd qilgan mehnat uyini boshqarish, tashkil etish qavm ma'murlari zimmasiga yuklangan.

**10 b. *...qashshoqlik haqidagi qonunni buzgan... bolalar...*** — Dikkins 1834-yilgi qonunni nazarda tutgan, bu qonunga binoan mehnat uyi kambag'allarga yordam ko'rsatish tarmog'ining markazida turgan; qavm ma'murlariga faqat ayrim hollardagina yetimlarni mehnat uyi-ga emas, fermalarga joylashtirish ruxsat etilgan; shuni aytib o'tish lozimki, bu fermalarda ham xuddi mehnat uylari kabi ularga hech qanday g'amxo'rlik ko'rsatilmas edi. Shunday qilib Oliverni fermaga jo'natishlari 1834-yil qonunidan bir qadar chekinish edi, shu tufaylidan ham Dikkins fermadagi go'daklarni «qashshoqlik qonunini buzgan bolalar» deb ataydi.

**12 b. *Bidl*** — qavm xizmatidagi quyi mansabdor shaxs. Dastlabiga bidl qavm majlislari xat tashuvchisi, shuningdek, qavm huzuridagi tarbiyalanuvchi qashshoqlarga mutasaddi amaldorning ko'rsatmalarini bajaruvchi oddiy ijrochisi bo'lib xizmat qilgan, biroq ko'p o'tmay xuddi o'sha amaldorning vazifalarini o'z zimmasiga olib, amalda o'shaning vazifasini o'tay boshlagan — u kambag'allarning moddiy ahvoli haqidagi masalani o'z bilgicha hal qilgan, mehnat uyida, cher-

kovda, aksar hollarda esa qavm miqyosida politsiya nazoratini ham o'z ustiga olgan. Dikkens o'z asarlarida ana shu lavozimni ko'p tilga oladi va amalda bidlning qashshoqlar taqdiri ustidan nazoratsiz hukmronlik qilishi, qashshoqlarning esa tez-tez uning o'zboshimchaligi oqibati qurbon bo'lib turishlariga ishonch hosil qilgani sababidan ushbu amaldorni doimo nihoyatda salbiy qiyofada tasvirlaydi.

**14 b.** *Daffi al-iksiri* — mashhur bolalar suyuq dorisi; *jin* — qoraarcha arog'i shu nom bilan atalgan.

**19 b.** *Doktors Kommons* — alohida — oilaviy ajralish, vasiyatnomalarni tasdiqlash hamda meros janjallari, shuningdek, ba'zi bir xil ishlar ko'riladigan cherkov sudida advokatlik xizmatini o'taydigan yuristlar jamiyati ushbu nom bilan atalgan. Yuristlarning mazkur jamiyatining nomi yuristlar idoralari joylashgan va o'zlari ham turadigan uylarga ko'chirilgan, keyin esa ana shunday uylardan birida joylashgan va yuqorida qayd qilingan ishlarni ko'radigan sudga ham shu nom berilgan (bu sud faqat 1857-yildagina tugatilgan).

**29 b.** *Sudya janoblariga ta'zim qil* — ya'ni dunyoviy ishlarni ko'radigan, 1834-yil qonuniga binoan mehnat uyi, shuningdek, yetimxona «nozirlar kengashi»ning farmoyishlarini ba'zi hollarda tasdiqlash hamda rad etish huquqiga ega bo'lgan sudya.

**34 b.** *Kambag'allarni nazorat qiluvchi amaldor* — qavm ma'muriyati xizmatidagi mas'ul mansabdor, qavm kengashiga yordam so'rab murojaat qilgan fuqarolarning muhtojlik darajasini aniqlab-tekshirish, shuningdek, «nozirlar kengashi» qarorlarini ijro etish shuning vazifasi bo'lgan. Ma'murlar ushbu lavozimga halol, vijdonli odamlarni olish g'amini yemaganlar, bu mansabdor esa o'z navbatida muhtojlik darajasini tekshirish va zifasini bidlday mas'uliyatsiz shaxsga yuklab qo'ygan va oqibatda 1834-yildan boshlab qashshoqlarni mehnat uylariga joylashtirish aslida unga bog'liq bo'lib qolgan.

**53 b.** *Brayduel* — XVII asr solnomachilarning yozishicha unda gamalib yotish «o'limdan battar»ligi bilan mashhur bo'lgan qadimiy axloq tuzatish qamoqxonasi. Bu qamoqxona 1864-yildagina buzib tashlangan.

**65 b.** *Charxpalak-g'ildirak* — ko'ndalang poyalari bo'lgan uzun g'o'lasimon asbob. G'o'laga tepa tomonidan qimirlamaydigan qilib dastasi bor kengbar taxta o'rnatilgan, ana shu dastaklarni ushlab olgan ishchilar poyalarni bosib g'o'lani harakatga keltirganlar; charxpalak-g'ildirak birorta mexanizmga ulangan. Angliya qamoqxonalari va mehnat uylarida charxpalak-g'ildirakni aylantirish jazo tariqasida belgilangan.

**66 b.** *Lo'ya-yu hakka* — o'g'rilar lahjasida: bir shilling va yarim penni.

67 b. «*Farishta*» — Londonning tumanlaridan biri — Izlington-dagi mashhur qovoqxona.

79 b. *Soqqacha* — Angliyada bolalarning sevgan o'yini.

79 b. *Volan* — tennisga o'xshagan o'yin, farqi shundaki, unda koptok o'rnida pat qadalgan po'kak ishlatiladi.

80 b. *Panch* — ingliz qo'g'irchoq teatrining qahramoni.

82 b. *Nyuget* — Londondagi jinoyatchilar qamaladigan markaziy turma. Dikens «Barnebi Raj» romanida tasvirlangan London-dagi «lord Gordon isyoni» (1780) paytlarida qisman vayron qilingan, so'ngra ta'mir etilgan, 1877-yili esa yopilgan.

92 b. *Qamish sham* — piligi qamish o'zagidan yasalgan mum sham.

104 b. *Retklif katta yo'li* — Londonning ulkan doklaridan shimol tomonda joylashgan ishchilar dahasidagi uzundan-uzun ko'cha qadimda shunday atalgan.

110 b. *Kribbedj* — ommaviy qarta o'yini.

114 b. *Qizil fonus* — Dikens zamonasida vrachlarning «lavha» — belgisi.

121 b. *Soveren* — bir funt sterling, ya'ni yigirma shillingga teng oltin tanga.

122 b. ...qiziqarli "*Ushla! Tut!*" gazetasi — izlanayotgan jinoyatchilarning belgilari beriladigan politsiya gazetasi. Qadimda Angliyada jinoyat sodir bo'lgan joyning aholisi jinoyatchilarni qo'lga tushirishda qatnashishlari shart edi, bordi-yu, ular qochib qutulib ketadigan bo'lsa, butun aholiga jarima solinar edi. Odatda, ta'qib hayhaysuron va baqirchaqirlar bilan o'tardi. «Xyu end kray!» Bu xitobni yuqorida zikr etilgandek tarjima qilsa bo'ladi va u gazeta nomi uchun tanlab olingan.

127 b. *Varfolomey kuni* — Londonda qadim-qadimlardan beri katta yarmarka bo'ladigan kezlarda o'tadigan kuzgi avliyo Barfolomey bayrami; bunday yarmarkalar Dikens hayotligidayoq — 1855-yili barham topib ketgan.

137 b. *O'rtoqlikka oid sud* — qavm ma'murlari yordamiga muhtoj fuqarolarning tug'ilgan joyi masalasini sudda ko'rib chiqilishi. Qavm ma'murlari har safar mehnat uyi xarajatlarini kamaytirishga harakat qilgan paytlarida unga murojaat qilganlar; qavmga qashshoq fuqarolardan qutulishga yordam beradigan shunday choralardan biri mazkur joyda tug'ilmagan qashshoqlarni, ya'ni «o'troqlik huquqi»ga ega bo'lmaganlarni badarg'a qilish edi. Bambi qavm ma'murlari yordam berishdan bosh tortgan ikki nafar og'ir bemorning ishini ko'rgan xuddi ana shunday «sud»ga olib ketayotgan edi.

137 b. *Kvartal sessiya-majlislari* — sud majlislari o'tadigan davr; Angliyada sudlar, quyi (dunyoviy) sudlardan tashqarisi, vaqt-vaqti bilan majlis qurardi — yilda to'rt marta sudlar o'z hukmlariga havola qilin-

gan ishlarni ko'rib chiqadigan ana shu muddatlar «kvartal sessiya-majlislari» deb atalardi. Bambi Londonga aynan shu sessiya-majlislarga, Klerkenueldagi «o'troqlik huquqi»ni ko'radigan sudga o'tlangan edi.

**144 b. *Old-Beyli*** — Nyuget turmasi yonginasidagi eski jinoiy ishlarni ko'ruvchi sud; o'lim hukmi sud hovlisida emas, balki turma hovlisida ijro etilgan.

**152 b. *Uaytchepl*** — Londonning shimoli-sharqiy qismi, qashshoqlar yashaydigan kapa-yu kulbalari bilan ayanchli nom taratgan.

**167 b. *Jemmi*** — o'g'rilar lahjasida eshig-u derazalarni buzishda ishlatiladigan buklama misrangni shunday ataganlar.

**203 b. *Vaksa Dey va Martin moyi*** — Dikkins bolaligida ishlagan Uorren firmasi bilan muvaffaqiyatli raqobat qilgan firma ishlab chiqargan Londonda mashhur bo'lgan poyabzal moyi.

**210 b. *Jek Ketch*** — XVIII asrning 60—80-yillarida Styuartlarning Angliya taxtiga qayta o'tirgan davrlarida jallodni shunday ataganlar. Bu laqab turdosh ot bo'lib qolgan.

**219 b. *Peppermint*** — yalpiz va qalampir solib tinitilgan aroq.

**250 b. «*Gazeta*»** — hukumat farmonlarini, mansabdorlarning ko'rsatmalari, singanlik haqidagi sud qarorlari va shunga o'xshashlarni e'lon qilish uchun tashkil etilgan «London gazetasi»ning qisqartirilgan nomi.

**252 b. *O'ziotar «qopqon»*** — biror mexanik usul bilan harakatga keladigan qurol. Dikkins brakonerlarga qarshi kurashishda ishlatiladigan o'ziotar qurolni nazarda tutadi. Ingliz qonunchiligi pomeshchik mulkida ruxsatsiz ov qilishga jur'at etganlarni bunday g'ayriinsoniy tarzda shavqatsizlarcha jazolashni man etmasdi.

**267 b. *Eskvayr*** — vaqt o'tishi bilan ahamiyat-mavqei o'zgarib borgan unvon, feodal tuzum davrida ritsarlarning yaroqbardoriga berilgan u; keyinchalik hukumatning ishonchiga molik mansabdorlar (masalan, dunyoviy ishlarni ko'radigan sudyalarga)ga berilgan; o'tgan asrda ma'no-ahamiyatini yo'qotib, odatda eskvayr unvonini badavlat burjua namoyandalariga berish rasm bo'lgan; hozirgi kunda taomildan chiqib ketgan.

**360 b. *Nyuget majmuasi*** — XVIII asr oxirlaridan boshlab Nyuget turmasida jazo muddatini o'tagan mashhur jinoyatchilarning tarjimai hollarini o'z ichiga olgan olti jildlik to'plam.

**364 b. ... ishlari jinoyatni ko'radigan sudga oshirilib...** — ya'ni dunyoviy mayda-chuyda ishlarni ko'radigan sudning ajrimicha qil-mishlari xiyla yuqoriroq bosqichdagi sudga ko'rilishi lozim bo'lgan qonunbuzarlar. Ingliz sud qurilishi haqidagi qonunga binoan dunyoviy (politsiya) sud, mabodo ish unda ko'rilishi lozim bo'lsa, ayblanuvchini oqlashi yoki aybdor hisoblashi mumkin edi. Basharti mahbusning ji-

noyatkorligi isbotlansa va bu ishni yuqori bosqichdagi sud ko'rish lozim deb topilsa, u chog'da dunyoviy sud ishni yuqori bosqichdagi — jinoiy ishlarni ko'ruvchi sudga oshirishga hukm chiqaradi.

**399 b. ...Vittington sharafiga tosh qo'yilgan...** — Londonning Xayget tumanidagi ko'chalardan birida afsonaviy Dik Vittington go'yoki o'zini orqaga chorlayotgan qo'ng'iroqlar ovozi eshitgan joyga o'rnatilgan tosh. Dikpens o'z romanlarida ushbu mashhur afsona qahramonini ko'p tilga oladi. Bu afsonada gazlamafurushning yosh shogirdi Dikning Londondan qochmoqchi bo'lgani hikoya qilinadi, biroq yo'lda ko'hna Sent-Meri Le Bau ibodatxonasining qo'ng'iroqlari ovozi qulog'iga yetib kelib: «Qayt orqangga, Vittington, Londonning uch karra lord-meri», deya yotganday bo'ladi. Yosh Dik orqasiga qaytadi va afsonaga ko'ra bu karomat ro'yobga chiqadi — Robert Vittington (XV asrdagi tarixiy shaxs) Londonda uch marta lord-mer lavozimini egallaydi.

**418 b. Kansler sudi** — ilk feodal tuzum davrida qirolik farmoyishlari va bo'lak qonunchilik manbalari asoslariga amal qilgan holda ish ko'radigan sud tizimiga qo'shimcha tariqasida tashkil etilgan oliy sud; tashkilotchilarining fikricha Kansler sudi «adolatga» tayanib ish ko'rish va raisi esa kanslarning (adliya vaziri) shaxsan o'zi bo'lishi lozim edi. Amalda «umumjamoat» sudlarini Kansler sudiga qarama-qarshi qo'yish qo'nunlarni sharhlashda aql bovar qilmaydigan qiyinchiliklarni tug'diradi. Kansler sudida ish yuritish ko'z ko'rib, quloq eshitmagan bir tarzda sansalorlikni vujudga keltiradi, vijdonsiz advokatlarning yuridik hiyla-nayrang ishlatishlariga doimiy manba bo'lib qoladi. Dikpensning Angliya fuqarosi boshiga bitgan bir falokat bo'lmish Kansler sudining faoliyati bilan bog'liq xiyonat-u musibatlarni qayta-qayta fosh etishning ajablanadigan yeri yo'q.

**445 b. Taxta qanday taraqlab tushganini...** — dorga osayotganda o'limga mahkum etilgan aybdorning oyog'i ostidan tortib olinadigan taxta.

**447 b. Sherif** — graflikdagi ijroiya ma'muriyatning politsiya va jinoiy qidiruv, shuningdek, parlamentga bo'ladigan saylovlarni tashkil etish, sud hukmlarining ijrosi va shu kabilarni nazorat qilib turadigan oliy mansabdagi vakili.

**454 b. ...olingan jarimaning qoq yarmini cho'ntagiga uradi...** — Noe o'z ustomonligini ishga solib, yakshanba kunlari cherkovlarda ibodat tugamasdan spirtli ichimlik sotadigan qovoqxonachilarni aniqlardi, bu esa politsiya tomonidan taqiqlangan edi; politsiyaga qonunni buzganlari haqida ma'lumot berib, sotuvchidan undirilgan jarimaning yarmini olar edi.

*Yevgeniy Lann.*

## MUNDARIJA

### MUALLIF DEBOCHASI. . . . . 3

|                  |                                                                                                                                                                                                        |     |
|------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <i>I bob.</i>    | Oliver Tvist tug'ilgan joy va uning dunyoga kelishiga oid vaziyat haqida hikoya qiladi . . . . .                                                                                                       | 7   |
| <i>II bob.</i>   | Oliver Tvistning qanday o'sgani va qanday tarbiya topgani haqida hikoya qiladi . . . . .                                                                                                               | 10  |
| <i>III bob.</i>  | Oliver Tvistning kelgusida serdarmomad va oson ish bo'la olmaydigan o'ringa joylashishiga bir bahya qolgani xususida hikoya qiladi . . . . .                                                           | 23  |
| <i>IV bob.</i>   | Oliverga bo'lak joyni taklif etadilar, shunday qilib u ilk bora tiriklik maydoniga qadam qo'yadi . . . . .                                                                                             | 32  |
| <i>V bob.</i>    | Oliverning hamkasaba o'rtoqlari bilan tanishuvi va ilk bora dafn marosimida qatnashib, o'z xo'jayinining kasbi haqida noxush xulosaga kelishi . . . . .                                                | 39  |
| <i>VI bob.</i>   | Noening masxaralashlari joniga tekkan Oliver amaliy harakatga o'tib, uni g'oyatda hayratga solgani . . . . .                                                                                           | 50  |
| <i>VII bob.</i>  | Oliver isyonkorligini davom ettirgani haqida . . . . .                                                                                                                                                 | 56  |
| <i>VIII bob.</i> | Oliverning Londonga yo'l olgani-yu, yo'lda g'alati bir yosh jentlmenni uchratgani . . . . .                                                                                                            | 62  |
| <i>IX bob.</i>   | Yoqimtoy kekxa jentlmen va uning istiqboli baland shogirdlari haqidagi turli-tuman ma'lumotlar . . . . .                                                                                               | 70  |
| <i>X bob.</i>    | Oliver yangi o'rtoqlari bilan yaqindan tanishgani-yu zo'r mashaqqatlar bilan tajriba orttirgani haqida. Mazkur bob hikoyatimizdagi qisqa, ammo nihoyatda muhim fasldir. . . . .                        | 77  |
| <i>XI bob.</i>   | Politsiya hakami — mister Feng haqida hikoya qiladi va ul zotning adolatli sudlov usuli xususida bir qadar tushuncha beradi . . . . .                                                                  | 82  |
| <i>XII bob.</i>  | Oliverga umri bino bo'lganidan beriga ko'rmagan g'amxo'rlikni ko'rsatganlari haqida va yana quvnoq kekxa jentlmen bilan uning yosh do'stlari to'g'risida hikoya qiladi . . . . .                       | 90  |
| <i>XIII bob.</i> | Ziyrak kitobxonni yangi shaxslar bilan tanishtiradi; shu munosabat bilan mazkur hikoyatga taalluqli turli qiziqarli narsalar haqida hikoya qiladi . . . . .                                            | 100 |
| <i>XIV bob.</i>  | Oliverning mister Braunlounikida bo'lishi tafsilotining davomi, shuningdek, bir topshiriqni ado etmoqqa otlangan Oliver xususida mister Grimuig degan kimsaning lol qolarli bashorati haqida . . . . . | 108 |
| <i>XV bob.</i>   | Kekxa quvnoq juhud bilan miss Nensining Oliver Tvistni qanchalar mehrla suyganlarini namoyish etadi . . . . .                                                                                          | 119 |

|                    |                                                                                                                                                                   |     |
|--------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <i>XVI bob.</i>    | Nensi qarindoshlik haq-huquqini talab qilganidan keyin Oliver Twistga nima bo'lganligini hikoya qiladi . . . . .                                                  | 125 |
| <i>XVII bob.</i>   | Qismat Oliverni ta'qib etishni davom ettirgani va uni badnom qilmoqlik uchun Londonga buyuk bir odamni yetaklab kelgani haqida . . . . .                          | 135 |
| <i>XVIII bob.</i>  | Oliverning dilga najot beruvchi muhtaram oshnalari davrasida vaqtni qanday o'tkazgani haqida . . . . .                                                            | 144 |
| <i>XIX bob.</i>    | Antika bir reja ustida bahslashib, uni qabul etganlarini hikoya qiladi . . . . .                                                                                  | 152 |
| <i>XX bob.</i>     | Oliverning mister Uilyam Sayks izmiga o'tishi haqida hikoya qiladi . . . . .                                                                                      | 161 |
| <i>XXI bob.</i>    | Safar. . . . .                                                                                                                                                    | 169 |
| <i>XXII bob.</i>   | Daricha buzib qilingan o'g'rilik. . . . .                                                                                                                         | 175 |
| <i>XXIII bob.</i>  | Mister Bambl bilan bir xonim orasidagi yoqimli suhbatni hikoya qiladi va ba'zi hollarda hatto bidlday odam ham hissiyotdan mahrum emasligiga ishontiradi. . . . . | 183 |
| <i>XXIV bob.</i>   | G'oyatda arzimaz bir narsa xususida izohot beradi. Biroq bu qisqa bob mazkur hikoyatimizda ortiqchalik qilmas degan umiddamiz . . . . .                           | 192 |
| <i>XXV bob.</i>    | Yana mister Fedjin va uning shirkati xususida hikoya qiladi . . . . .                                                                                             | 199 |
| <i>XXVI bob.</i>   | Sirli bir zot paydo bo'lgani va ushbu hikoya bilan chambarchas bog'liq hodisalar haqida hikoya qiladi. . . . .                                                    | 205 |
| <i>XXVII bob.</i>  | Muallifning oldingi boblardan birida ajoyib bir xonimni g'oyat takallufsizlik bilan o'z holiga tashlab ketishdek andishasizligini andavalaydi . . . . .           | 217 |
| <i>XXVIII bob.</i> | Oliver Twist bilan mashg'ul bo'ladi va uning boshdan kechirganlarini hikoya qiladi. . . . .                                                                       | 224 |
| <i>XXIX bob.</i>   | Oliver boshpana topgan uy istiqomatchilari haqida dastlabki ma'lumotlardan xabar beradi. . . . .                                                                  | 233 |
| <i>XXX bob.</i>    | Oliverni ziyorat qilgan yangi zotlarning qanday xayollarga borganlarini naql etadi . . . . .                                                                      | 237 |
| <i>XXXI bob.</i>   | Tang vaziyat xususida hikoya qiladi . . . . .                                                                                                                     | 244 |
| <i>XXXII bob.</i>  | Oliverning saxovatli do'stlari orasida kecha boshlagan baxtiyor hayotidan naql etadi . . . . .                                                                    | 255 |
| <i>XXXIII bob.</i> | Oliver va uning do'stlari baxtiga nogohdan xavf-u xatar tajovuz qilgani haqida . . . . .                                                                          | 264 |
| <i>XXXIV bob.</i>  | Sahnada paydo bo'lgan navqiron jentlmen haqdagi ba'zi bir dastlabki ma'lumotlarni, shuningdek, Oliverning yangi sarguzashtlarini o'z ichiga oladi . . . . .       | 273 |
| <i>XXXV bob.</i>   | Oliverning sarguzashti qanday muvaffaqiyatsiz tugagani, shuningdek, Garri Meyli bilan Roz orasidagi ahamiyatga molik suhbat haqida hikoya qiladi . . . . .        | 283 |

|                           |                                                                                                                                                                                                                      |     |
|---------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <i>XXXVI bob.</i>         | Juda qisqa va ayni o'rinda unchalik ahamiyatga ega emasdek tuyuladi. Ammo, shunga qaramay, uni avvalgisining davomi hamda kezi kelganida berilajak bob qopqasining kaliti sifatida o'qib chiqmoqlik darkor . . . . . | 293 |
| <i>XXXVII bob.</i>        | Unda kitobxon oilaviy hayotda tez-tez bo'lib turadigan mojaroni kuzatmog'i mumkin . . . . .                                                                                                                          | 296 |
| <i>XXXVIII bob.</i>       | Er-xotin Bambllar bilan mister Monks o'rtasidagi xuftongi uchrashuv vaqtida sodir bo'lgan voqealar hisobotini o'z ichiga oladi . . . . .                                                                             | 306 |
| <i>XXXIX bob.</i>         | Kitobxonlarga tanish bir necha hurmatli zotlarni sahnaga chiqaradi va muhtaram Monks bilan muhtaram juhudning qanday suhbat qurganlari xususida hikoya qiladi . . . . .                                              | 316 |
| <i>XL bob.</i>            | Oldingi bobda tasvirlangan voqealarning davomi bo'lmish antiqa uchrashuv . . . . .                                                                                                                                   | 330 |
| <i>XLI bob.</i>           | Yangi kashfiyotlardan hikoya qiladi va tasodif ham xuddi falokatga o'xshab qo'sha-qo'shalab kelishini namoyish etadi . . . . .                                                                                       | 337 |
| <i>XLII bob.</i>          | Oliverning eski tanishi yaqqol daholik alomatlarini namoyish etgani va poytaxtda mashhur arbob bo'lib qolgani haqida . . . . .                                                                                       | 347 |
| <i>XLIII bob.</i>         | Abjir Tullakning qanday falokatga uchraganini hikoya qiladi . . . . .                                                                                                                                                | 357 |
| <i>XLIV bob.</i>          | Nensining Roz Meyliga bergan so'zining ustidan chiqish fursati yetadi. U muvaffaqiyatsizlikka uchraydi . . . . .                                                                                                     | 368 |
| <i>XLV bob.</i>           | Fedjinning Noe Kleypolga maxfiy topshiriq bergani . . . . .                                                                                                                                                          | 375 |
| <i>XLVI bob.</i>          | Uchrashuv sodir bo'ldi . . . . .                                                                                                                                                                                     | 380 |
| <i>XLVII bob.</i>         | Mash'um oqibat . . . . .                                                                                                                                                                                             | 390 |
| <i>XLVIII bob.</i>        | Sayksning qochishi . . . . .                                                                                                                                                                                         | 397 |
| <i>XLIX bob.</i>          | Monks bilan mister Braunlou nihoyat uchrashadilar. Ular o'rtasidagi suhbat va ushbu suhbatga raxna solgan xabar . . . . .                                                                                            | 407 |
| <i>L bob.</i>             | Ta'qib va qochish . . . . .                                                                                                                                                                                          | 417 |
| <i>LI bob.</i>            | Ba'zi sirlarning sharh-u bayoni hamda kelinga beriladigan mahr va «qalin» puli tilga olinmaydigan nikoh taklifi haqida hikoya qiladi . . . . .                                                                       | 428 |
| <i>LII bob.</i>           | Fedjinning so'nggi tuni . . . . .                                                                                                                                                                                    | 441 |
| <i>LIII bob.</i>          | Hikoyatimiz intihosidan naql etadi . . . . .                                                                                                                                                                         | 451 |
| <b>SHARHLAR</b> . . . . . |                                                                                                                                                                                                                      | 456 |

**Charlz Dikpens**

**OLIVER TVISTNING  
BOSHIDAN KECHIRGANLARI**

*Roman*

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»

Davlat ilmiy nashriyoti — 2013

Toshkent — 100129, Navoiy ko'chasi, 30-uy

G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va sa'nat nashriyotining  
1989-yilda chop etilgan nashri asosida tayyorlandi.  
(Tarjimon E. Mirobidov, rassom A. Ponamarev)

Muharrir

*H. Abdiyev*

Operator

*M. Abdullayeva*

Muqova rassomi

va sahifalovchi

*E. Muratov*

2013.21.01 da bosishga ruxsat etildi.

«Times» garniturası. Qog'oz bichimi 60×90<sup>1</sup>/<sub>16</sub>.  
29,0 shartli bosma tabog'i. 32,93 nashriyot-hisob tabog'i.  
Adadi 3000 nusxa. 91-raqamli buyurtma.

O'zbekiston matbuot va axborot agentligining  
G'afur Gulom nomidagi nashriyot-matba ijodiy uyida bosildi.  
100128. Toshkent sh., Shayxontohur ko'chasi, 86.